

**FUQAROLIK JAMIYATI  
FANIDAN TUSHUNCHA VA  
ATAMALAR LUG'ATI**



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI**  
**OLIV VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**  
**MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY**  
**UNIVERSITETI**

**FUQAROLIK JAMIYATI**  
**FANIDAN TUSHUNCHA VA**  
**ATAMALAR LUG‘ATI**

*O‘zbekiston Milliy universitetining 100 yilligiga*  
*bag‘ishlanadi.*

Toshkent  
«Turon zamin ziyo»  
2017

UO'K: 069.01(038)  
KBK 66.3(50')12ya2  
F 98

Fuqarolik jamiyati fanidan tushuncha va atamalar lug'ati [Main] / – Toshkent: Turon zamin ziyo. 2017. – 300 b.

ISBN 978-9943-4830-4-0

*Ushbu lug'atdan fuqarolik jamiyati faniga oid asosiy tushunchalar, kategoriyalar, atamalar o'rin olgan. Ta'lim tizimining barcha bosqichlardagi o'quvchilar, talabalar, tadqiqotchilar va o'qituvchilar, shuningdek, ijtimoiy-siyosiy masalalar bilan qiziquvchilar uchun mo'ljallangan.*

UO'K: 069.01(038)  
KBK 66.3(50')12ya2

Tuzuvchilar:

- A.O'tamurodov** – O'zMU Demokratik davlat qurish nazariyasi va amaliyoti kafedrasini mudiri, fals.f.n., dots.
- A.G.Muminov** – O'zMU Ijtimoiy fanlar fakulteti dekani, siyos.f.d.
- J.Y.Mavlonov** – Fuqarolik jamiyati shakllanishini monitoring qilish mutaqqil instituti loyiha rahbari
- K.M.Mirzaaxmedov** – O'zMU Demokratik davlat qurish nazariyasi va amaliyoti kafedrasini katta o'qituvchisi
- T.N.Xojiyev** – O'zMU Demokratik davlat qurish nazariyasi va amaliyoti kafedrasini o'qituvchisi

Taqrizchilar:

- I.Ergashev** – O'zMU professori, siyos.f.d.
- T.Alimardonov** – TDAQI siyos.f.d.

*Fuqarolik jamiyati fanidan tushuncha va atamalar lug'ati Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti Ijtimoiy fanlar fakulteti Kengashining 2016-yil 27-dekabrda 4-sonli majlisida muhokama qilindi.*

*Fuqarolik jamiyati fanidan tushuncha va atamalar lug'ati Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti Uslubiy Kengashining 2016-yil 27-dekabrda 2-son majlisida muhokama qilindi va chop etishga tavsiya etildi.*

ISBN 978-9943-4830-4-0

© «Turon zamin ziyo»,  
Toshkent, 2017.

## SO'ZBOSHI

Mustaqillikning ilk davridayoq O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.A.Karimov tomonidan mamlakatning tarixiy rivojlanish an'analari, demokratik prinsiplar, rivojlangan mamlakatlarning tajribalarini o'rganish asosida va xalqimiz dunyoqarashi, qolaversa mamlakat milliy manfaatlarini o'zida ifoda etgan fuqarolik jamiyati, huquqiy davlat va bozor munosabatlariga o'tish davrining nazariy asoslari ishlab chiqildi va u «O'zbek modeli»da mujassamlashdi. Ana shu asosda rivojlangan mamlakatlarda shakllangan demokratik qadriyatlar, fuqarolik jamiyatiga xos tamoyillar faqat xalqaro tajribalarda sinovlardan o'tganligi uchungina emas, balki o'zbek xalqining milliy manfaatlariga mos kelganligi uchun ham mamlakatdagi islohotlar jarayonlariga bosqichma-bosqich tatbiq etila boshlandi. "Kuchli davlatdan – kuchli jamiyat sari" tamoyilining amaliyotga izchil tatbiq etilishi shu yo'nalishda jamiyatning va davlat boshqaruvining barcha sohalarida demokratik talablarga mos ko'plab islohotlar amalga oshirildi va oshirilmoqda. Mamlakatimiz Prezidenti Sh.Mirziyoyev ta'kidlaganlaridek "Biz muhtaram birinchi Prezidentimiz Islom Abdug'aniyevich Karimov boshlab bergan keng ko'lamli siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy islohotlar yo'lini og'ishmasdan, qat'iy va izchil davom ettiramiz. Bu yo'l – erkin, demokratik, insonparvar davlat qurish, fuqarolik jamiyatini shakllantirish, Vatanimiz iqtisodiy qudratini yuksaltirish va yanada ravnaq toptirishning mustahkam zaminidir"<sup>1</sup>.

O'zbekistonda yangi jamiyatni rivojlantirish islohotlari jarayonida jahondagi turli mamlakatlarda fuqarolik jamiyati asoslarining yaratilishi turli darajada va davrlarda amalga oshirilganligining nazariy va amaliy jihatlarini, tajribalarini o'rganish muhim ahamiyatga egadir. Chunki, fuqarolik jamiyatining bu ijobiy jihatlari (tamoyillari va belgilarini) sinalgan tajriba sifatida o'tish davrini o'z boshidan kechirayotgan mamlakatlarda fuqarolik jamiyati qurishda e'tiborga olishga imkon beradi. Shu nuqtayi nazardan fuqarolik jamiyati fanini oliy ta'lim tizimida o'qitish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Mustaqil taraqqiyot yo'li davomida mamlakatimizda yangi fanlar shakllanishi va rivojlanishi uchun keng imkoniyatlar yaratildi. Vazirlar Mahkamasining 2015-yil 10-sentyabrdagi 07/1-616-sonli topshirig'i va Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining

---

<sup>1</sup> Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. Xalq so'zi. 15-dekabr 2016-yil

2015-yil 18 – sentyabrda "Oliy ta'lim muassasalarida "Fuqarolik jamiyati" fanini o'qitilishini joriy etish to'g'risida"gi 352-sonli buyrug'iga asosan barcha ta'lim yo'nalishlarida "Fuqarolik jamiyati" fanini o'qitish belgilangan. Shu munosabat bilan oliy ta'lim bakalavriat yo'nalishidagi talabalarni sifati va zamon talablariga mos adabiyatlar bilan ta'minlash maqsadida oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan tasdiqlangan ishchi guruh tomonidan "Fuqarolik jamiyati" darslik loyihasi tayyorlandi va hozirda loyiha takomillashtirilmoqda. Ushbu lug'atni tayyorlashda ijtimoiy fanlar bo'yicha chop etilgan lug'atlardan unumli foydalanildi. Unda bugungi kunda yangi muamalaga kiritilgan amaldagi darslik va qo'llanmalarda o'rin olmagan ko'plab tushunchalar kiritilgan.

O'zMU Demokratik davlat qurish nazariyasi va amaliyoti kafedrasining ushbu sohada faoliyat olib borayotgan tadqiqotchi va mutaxassislari tomonidan tayyorlangan "*Fuqarolik jamiyati fanidan tushuncha va atamalar lug'ati*" tuzuvchilarning bu sohada ilk ishi bo'lib, ta'lim tizimining barcha bosqichidagi o'quvchilar, talabalar, tadqiqotchilar va ushbu fanga qiziquvchilar uchun mo'ljallangan.

*Fuqarolik jamiyati fanidan tushuncha va atamalar lug'ati bo'yicha barcha taklif va e'tirozlarni Toshkent shahar Olmazor tumani Universitet ko'chasi O'zMU Demokratik davlat qurish nazariyasi va amaliyoti kafedrasiga +998712466763 raqamiga telefon orqali bildirishingiz yoki [a.utamuradov@umail.uz](mailto:a.utamuradov@umail.uz) manziliga yuborishingiz mumkin.*

## SHARTLI QISQARTMALAR

a.	-	asr
arab.	-	arabcha
b-n	-	bilan
va b.	-	va boshqa
va h.k.	-	va hakoza
va sh.k.	-	va shu kabi(lar)
ilm. tad.	-	ilmiy tadqiqot(lar)
in-t	-	institut
lot.	-	lotincha
mas.	-	masalan
ma'-yat	-	ma'naviyat
ma'n-y	-	ma'naviy
ma'r-y	-	ma'rifiy
naz-ya	-	nazariya
naz-y	-	nazariy
taxm.	-	taxminan, taxminiy
FA	-	Fanlar Akademiyasi
fal.	-	falsafa
fal-y	-	falsafiy
fors-t.	-	fors-tojikcha
frans.	-	fransuz, fransuzcha
yun.	-	yunoncha
rus.	-	ruscha
O'z-n	-	O'zbekiston
O'zR	-	O'zbekiston Respublikasi
O'.O.	-	O'rta Osiyo
M.O.	-	Markaziy Osiyo
mam-t	-	mamlakat
hij.	-	hijriy
hoz.	-	hozirgi
sh.u.	-	shuning uchun
sh.sab.	-	shu sababli
sh-dek	-	shuningdek
o'zb.	-	o'zbek, o'zbekcha
mad-t	-	madaniyat
mad-y	-	madaniy

n.nazar	-	nuqtai nazar
xus-yat	-	xususiyat
qad.	-	qadimgi
jam-t	-	jamiyat
t.	-	tushuncha
urf-o.	-	urf-odat
ij-t-y	-	ijtimoiy
iqt-y	-	iqtisodiy
riv-sh	-	rivojlanish
taraq-t	-	taraqqiyot
mun-t	-	munosabat
xus-n	-	xususan
TV	-	televideniye

## A

**Abdikatsiya** – lot. taxtdan, hokimiyatdan, lavozimdan voz kechish.

**AbolitSIONIZM** – (lot. bekor qilish) biror qonunni bekor qilishga qaratilgan ommaviy harakat. XVIII asr oxiri va XIX asrning birinchi yarmida AQSHda qora tanlilarni qullikdan ozod qilish uchun boshlangan harakat ishtirokchilari – *abolitionist* deb atalgan.

**Abrogatsiya** – (lot. *abrogatio* – bekor qilish) – eskirgan qonunning bekor qilinishi: 1) amaldagi qonunni yangi qonun bilan almashtirish orqali; 2) amaldagi qonunni boshqa qonun tomonidan rasman bekor qilish orqali; 3) qonun amal qilishi muddati rasman tugaganida; 4) qonun qabul qilingan sharoit, vaziyatning o'zgarishi tufayli uni bekor qilish zarurati vujudga kelishi natijasida.

**Absenteizm** – (lot. *absentis* – yo'qlik, qatnashmaslik) siyosiy ishtirokdan bosh tortish, siyosiy loqaydlik. Absenteizm saylovchilar tomonidan saylovlarda ongli ravishda qatnashmaslik, mavjud boshqaruv tizimiga qarshi passiv qarshilik, inson huquqlari va erkinliklarini amalga oshirishga nisbatan befarqligining namoyon bo'lishi shaqlidir. Keng ma'noda u aholining siyosiy hayotga e'tiborsizligi, oddiy odamlarning "menga hech narsa bog'liq emas", siyosat "mening ishim emas" singari tasavvurlarini ham o'z ichiga oladi. Absenteizm insonning jamiyatdagi erkinligining belgisi sifatida namoyon bo'ladi va hayotning ijtimoiy-siyosiy sharoitlaridan o'ta darajada qoniqmaslikka asoslanadi. Absenteizm barcha jamiyatlarda mavjud. Ommaviy ko'rinishida u aholining manipulyatsiya obyektiga aylanishiga olib kelishi mumkin.

**Absolyutizm** – (lot. mutloq, shubhasiz) bir kishining (podsho, sulton, imperator) qonun bilan cheklanmagan mutloq hokimiyatiga asoslangan davlat boshqaruvi shakli. Absolyutizm Fransiya va Angliyada XVII asrda, Yaponiyada XVIII asr boshlarida, Turkiya, Misrda XIX asr oxirida, O'rta Osiyoda XX asr boshigacha mavjud bo'lgan. Bu turdagi davlatda hokimiyat bir kishi qo'lida to'planadi, davlat ulkan byurokratik apparat (davlat muassasalari), muntazam armiya, sud, *politsiya yordamida idora qilinadi. Absolyutizm davlat boshqaruvining yuqori darajada markazlashuvi bilan bog'liqdir. Absolyutizm mustabid, totalitar tuzumlardan farqli o'laroq, hokimiyatning latent cheklovlari mavjud bo'lishiga yo'l qo'yadi, bular: iqtisodiy cheklov (mulkka nisbatan ma'lum plyuralizm mavjud bo'lishi), ijtimoiy-siyosiy cheklov (xilma-xil ijtimoiy tuzilmalar va ayniqsa, voriylik asosida o'tuvchi zodagonlarning mavjudligi), mafkuraviy cheklov (mafkuraviy xilma-xillik mavjud bo'lishini o'zi uchun fojiaiy tahdid deb biladi). Absolyutizm tushunchasini avtoritarizm va avtokratiya tushunchalaridan farqlash lozim.*

**Abstraksiya** – narsalarning bir qator xususiyatlaridan va ular o'rtasidagi aloqadorliklardan xayolan chalg'ish vositasida uning biror muhim qirrasini, jihati, belgisi, xossalari e'tiborni jamlash imkonini beruvchi ilmiy usul.

**Adolat** – (arab. odillik, to'g'rilik, hamma uchun barobar bo'lgan haqiqatning talab va tamoyillariga amal qilinishi) kishilar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarining ma'lum tartibi haqidagi, har kimni xizmatiga yarasha taqdirlash



haqidagi tasavvurlarni o'z ichiga oluvchi tamoyil. Adolat tenglik tushunchasi bilan uzviy bog'liq. Huquqiy demokratik davlatlarda adolat – barchaning qonun oldida tengligi va qonunning barchaga teng tegishliligidir. Adolatning o'zi biror-bir qadriyatni anglatmaydi, lekin qadriyatlar o'rtasidagi nisbatni belgilaydi, ularni baholash mezoniga ega. Shu bois adolat hodisasida jamiyatni tartibga soluvchilik xususiyati bor. Adolatda ikki ma'naviy jihat-ham axloqiy, ham huquqiy ta'lablar mujassamlashgan bo'ladi.

**Adolat tamoyili** – adolat, odillik, xolislik asosida masalaga qonun ustuvorligi nazaridan xolis yondashish, haqiqatni bosh mezon deb bilish, shu yo'lda beminnat xizmat qilishdir. Adolat tamoyili alohida inson xatti-harakatidan tortib mamlakatdagi ijtimoiy-siyosiy institutlarga bo'lgan o'ta keng miqyosdagi munosabatlar tizimiga bir xilda yondashishni taqazo etadigan noyob hodisadir.

**Adolatparvarlik** – odillik, adolat bilan ish ko'rish, qonun asosida, jamiyatda shakllangan ustuvor insoniy munosabatlar doirasida barchaga teng va xolis munosabatda bo'lishdir. Adolatparvarlik jamiyat hayotida moddiy farovonlik va ma'naviy boylik o'zaro uyg'un bo'lishini talab etadi. Mamlakatimizda Fuqarolik jamiyati barpo etish yo'lida amalga oshirilayotgan islohotlar ijtimoiy adolat, demokratiya, barqaror taraqqiyot va farovonlik tamoyillarini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

**Adolatli jamiyat** – ijtimoiy munosabatlarning tarixiy shakli bo'lib, unda adolat tamoyilining ustuvorligi, jamiyatda mavjud bo'lgan rasmiy qonunlarning aholi barcha qatlamlari tomonidan qabul qilingan va qonunga itoatkorlik bilan harakterlanuvchi jamiyatning ko'rinishidir. Adolatli jamiyat g'oyalari Sharqda "Avesto" muqaddas kitobi hamda Sharq mutaffakirlarining qarashlarida aks etib, g'arbning fuqarolik jamiyati tushunchasiga konseptual jihatdan asos sifatida tushuniladi.

**Advokatura** – huquqiy institut, advokatlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi shaxslarning mustaqil, ko'ngilli, kasbiy birlashmalarini o'z ichiga oladi. O'zb. Res. fuqarolari, ajnabiy fuqarolar, fuqaroligi bo'lmagan shaxslarga, korxonalar, muassasalar, tashkilotlarga yuridik yordam ko'rsatadi. O'zbekiston Respublikasining advokatura to'g'risidagi qonuni 1996-yil 27 dekabrda qabul qilingan.

**Adaptatsiya** – (lot. adaptatio – moslanmoq, sozlanmoq) – tabiat yoki jamiyat hayotida, insonning ma'naviy-ruhiy olamida kechadigan o'ziga xos jarayon bo'lib, biron-bir muhit yoki sharoitga, yangilikka moslashuvni anglatadi. Fanda adaptatsiyaning quyidagi turlari mavjud: sensor adaptatsiya (lot. sensus – his-tuyg'u, sezgi) – organizmning turli xil subyektiv o'zgarishlarga moslashuvi; ijtimoiy adaptatsiya (lot. adapto – moslashaman va socialis – ijtimoiy) – insonning ijtimoiy muhit sharoitlariga uzluksiz tarzda faol moslashuvi, ayni paytda uning ushbu jarayon natijasi sifatida kamolga etishi. Ijtimoiy adaptatsiyaning muhim jihati odamning ijtimoiy talab va tartiblarni qabul qilishini anglatishdir.

**Agrar munosabatlar** – yerga egalik qilish, undan foydalanish va uni tasarruf etish bilan bog'liq bo'lgan munosabatlardan iborat.

**Agrobiznes** – qishloq xo'jaligidagi biznes tushuniladi. Keng ma'noda, bunga qishloq xo'jaligi bilan shug'ullanuvchi biznes turlari kiradi.

**Agrofirma** – muayyan turdagi qishloq xo'jaligi mahsulotini yetishtirish va uni sanoat asosida qayta ishlaydigan korxonadan iborat.

**Agiokratiya** – grekcha avliyo – muqaddas narsalar, qadriyatlar, ma'naviy tuban hokimiyatga qarshi qo'yiladigan, moddiy manfaatdorlikdan ma'naviy qadriyatlar ustuvorligiga asoslanilgan hokimiyat shaqlidir.

**Agregatsiya** – (lot.) jamoat tashkilotlari ayrim manfaatlarni turli munozaralar va muhokamalar vositasida turli manfaatlarni uyg'unlashtirish va ular o'rtasida muayyan munosaballar tizimini shakllantirishdir. Bu jarayonda asosiy manfaatlar tanlab olinadi ularni amalga oshirish uchun chora va tadbirlar ko'riladi.

**Agressiya** – (lot. bosib olish) tajovuz, bosqinchilik, bir yoki bir necha davlatning biror davlat, xalq mustaqilligi va suverenitetiga qarshi noqonuniy tarzda ta'sir ko'rsatish. Agressiya to'g'ridan-to'g'ri, bilvosita, qisman amalga oshirilishi mumkin. Har qanday vaziyatda u keskinlik ortishi, qurbonlar, ijtimoiy-siyosiy va b. vaziyatlarning beqarorlashuviga olib keladi. Agressiya namoyon bo'lish shakllariga ko'ra turli daraja va ko'rinishlarga ega. Xalqaro huquqda agressiya uchun xalqaro huquqiy javobgarlik tamoyiliga amal qilinadi, BMT Nizomida agressiyaning noqonuniyligi e'tirof etilgan.

**Aholining pul daromadlari** – bu aholining barcha pul mablag'lari tushumi: pensiya, stipendiya, nafaqa; mulkdan foiz, dividend, renta, aksiya, qimmatbaho qog'ozlar, ko'chmas mulk, chorva mollari, tomorqa mahsulotlari, turli buyumlar va boshqa tovarlarni sotishdan tushadigan, turli xizmatlar ko'rsatishdan keladigan pul tushumlaridir.

**Aholi daromadlari** – aholining ma'lum vaqt davomida pul va natura shaklida olgan daromadlari miqdoridan iborat. AD ga ish xaqi, tadbirkor daromadi, pensiya, nafaqa, stipendiya, kapitaldan olinadigan foyda, puldan olingan foiz, dividend, renta, ko'chmas mulk, qishloq xo'jalik mahsulotini, hunarmandchilik buyumlarini sotish va har xil xizmatlar ko'rsatishdan olingan daromadlardir.

**Ajiotaj talab** – bozordagi shov-shuv va vahima ta'siri ostida sun'iy paydo bo'ladigan hamda shiddat bilan ortib boradigan talab. AT odatdagi normal holatga nisbatan ortiq talab hisoblanadi. Bunday talab bir tomondan, aholi orasida mish-mishlar tarqatish va reklama vositasida muayyan tovarlarga o'ta ortiqcha baho berish orqali iste'molchi psixologiyasiga ta'sir etish yo'li bilan, ikkinchi tomondan tovarlarga bo'lgan g'oyat katta qiziqish, qimmatchilik, qaxatchilik, har xil shov-shuvlar ta'sirida puldan tezroq qutulish va tovar zahirasini ko'paytirishga intilish oqibatida yuzaga keladi.

**Akkreditatsiya** – (lot. ishonch bildirmoq.) xalqaro huquqda bir davlat birinchi Prezidenti ikkinchi davlat yoki xalqaro tashkilot vakilini shu davlat yoki tashkilot roziligiga ko'ra tayinlash. Shuningdek, muxbirlarning biror axborot agentligi, davlat rahbari yoki xalqaro tashkilot kotibiyatida (biror xalqaro tadbir tashkiliy qo'mitasi kotibiyatida) tayinlanishi.

**Aktor** – (lot. "actor" – arbob, ishtirokchi); muayyan xatti-harakatlarni amalga oshiruvchi individ, ijtimoiy guruh, institut yoki boshqa subyekt, ziddiyatlarda ishtirok etuvchi tomonlar. Ijtimoiy fanlarda aktor va subyekt tushunchalari sinonim sifatida ishlatiladi.

**Aksiya** – aksionerlik (hissadorlik) jamiyati tomonidan shu jamiyat kapitaliga o'z hissasini qo'shgan paychilarga, ya'ni hissadorlarga beriladigan va ularga jamiyat ishida qatnashish huquqini beradigan hujjat, qimmatbaho qog'oz. A.tur-

li ko'rinishda bo'ladi: «nomli» A. – umumiy yig'ilishda aksionerga ovoz berish huquqini tasdiqlaydi, dividend olish huquqini (kafolatsiz) beradi; «imtiyozli» A. – aksionerga faoliyat natijasidan qat'i nazar muayyan miqdordagi dividend olish kafolatini beruvchi, lekin aksionerlik jamiyati umumiy yig'ilishida ovoz berish huquqini bermaydigan aksiya.

**Aksiyadorlik jamiyati** – korxonaning tashkiliy-huquqiy shakli bo'lib, jamiyat ixtiyoridagi mulki, boyligiga asoslanib faoliyat yuritadi. Aksiyadorlik jamiyati sarmoyasi jamiyat a'zolarining qo'shgan pul mablag'i yoki moddiy ne'matidan tashkil topadi. Mas'uliyati cheklangan firmalarning eng keng tarqalgan shakli bo'lib, odatda ko'proq foyda olish maqsadida moddiy, mehnat va pul resurslarini birlashtirgan uyushma hisoblanadi. Aksionerlik jamiyatlari ochiq va yopiq turda bo'ladi. Ochiq turdagi aksionerlik jamiyatida aksiyalarni erkin sotib olish va sotish mumkin. Yopiq turdagi aksionerlik jamiyatida esa aksiyalar bir necha kishilar (korxonalar) ga tegishli bo'lib, bozorda erkin sotib olinishi mumkin emas. O'zbekiston Respublikasi Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida qonuni 2014-yil 6 – mayda qabul qilingan.

**Alarmizm** – (fr. xavotir, xavfsirash) intellektuallar va ekspertlarni birlashtiruvchi zamonaviy g'oyaviy oqim. U xavf solayotgan global muammolar – yadroviy, ekologik va h. borasida ogohlantiradi.

**Alturizm** – boshqa insonlar uchun qayg'urish, boshqalar uchun o'z manfaatlaridan ham voz kechish. Uni birinchi bo'lib XIX a.da fransuz faylasufi O. Kont muomalaga kiritgan. Lekin bu ma'naviy tamoyil Sharqda jo'mardlik nomi bilan ancha avval vujudga kelgan. O'rta a.larda musulmon Sharqida jo'mardlik insonparvarlik va vatanparvarlikni targ'ib etuvchi tasavvuf tariqatlaridan biri sifatida o'z falsafiy asosiga ega bo'lgan. Husayn Voiz Koshifiyning «Futuvvatnomayi sultoniy yoxud javonmardlik tariqati» asarida bu tushunchaga ta'rif berilgan. Alturizm (j.) kishidagi o'z qavmdoshiga achinish hissidan, unga baxt va farovonlik tilash tuyg'usidan kelib chiqadi, mohiyatan beminnat homiylik, xayriya yoki ko'makka asoslanadi.

**Alyans** – (fr. ittifoq) umumiy maqsadlarga erishish niyatida ayrim shaxslar, jamoat tashkilotlari, siyosiy partiyalar, xalqaro tashkilotlar yoki davlatlarning birlashuvi, ittifoqi.

**Ambitsiya** – inson tomonidan o'z ma'naviy, intellektual va boshqa sifatlarga ortiqcha baho berish, o'zi to'g'risida o'ta yuqori fikrda bo'lish, haddan ortiq o'zini sevish natijasida vujudga keluvchi xulq-atvor shakli.

**Amnitsiya** – jinoyat sodir etgan shaxslarni jinoiy javobgarlikdan to'liq yoki qisman jazodan ozod qilish, shuningdek, ilgari sud tomonidan belgilangan jazoni o'tab bo'lgan shaxslardan sudlanganlikni olib tashlash. Amnitsiya akti normativ xususiyatga ega, ya'ni amnitsiya akti bilan belgilangan talablarga javob beradigan barcha shaxslarga nisbatan qo'llaniladi. O'zbekiston Respublikasida insonparvarlik tamoyili asosida Konstitutsiya va mustaqillik bayrami kunlari arafasida muntazam ravishda amnitsiya e'lon qilinadi.

**An'ana** – (ar.) tarixan vujudga kelgan, barcha uchun umumiy, odatdagi hayot uslubi va harakatga aylangan, muayyan jamiyat yoki ijtimoiy guruhda hukmronlik qiluvchi, alohida shaxslar ham, butun jamiyat ham amal qilishini talab

etuvchi va amal qiluvchi ijtimoiy hayot tartibi yoki urf-odatlar, axloq me'yorlari, qarashlar tizimi. An'analar o'tmish bilan uzviy aloqadorlikni nazarda tutadi.

**An'anaviy davlat** – davlatchilikning bir turi bo'lib, an'analar asosida boshqaruvchi davlat, an'anaviy jamiyatlar bag'rida faoliyat ko'rsatadi. An'anaviy jamiyatda davlat to'raligicha jamiyat ta'sirida bo'ladi. An'anaviy davlatlarda ijtimoiy, iqtisodiy o'zgarishlar sur'ati nisbatan past bo'ladi. Sivilizatsiya shakllari ba'zan asrlar mobaynida jiddiy o'zgarmaydi. Madaniyatda, hatto ijtimoiy-siyosiy qadriyatlar va ideallar rasmiylashgan hollarda ham, me'yoriylik yetakchilik qilishda davom etadi, munosabatlarda an'analar, udumdagi xulq-atvor me'yorlari ustuvorlik qiladi, siyosatda an'anaviy va xarizmatik legitimlashtirish shakllari hukm suradi. An'anaviy davlatdan zamonaviy davlatga o'tish sanoatlashish davriga to'g'ri keladi. Erkin fuqarolarning gorizontaal munosabatlari tizimining vujudga kelishi (shakllanayotgan fuqarolik jamiyati doirasida) o'sha davrdagi markazlashgan davlatning fuqarolar bilan munosabatlarini me'yoriy-huquqiy tartibga solish, jamiyatda hokimiyatni amalga oshirishning samarali siyosiy-tashkiliy shakllarini izlashga majbur qilgan.

**Anarxizm** – (gr.) 1) boshliqsiz, bebosh; 2) tartibsizlik. 3) hokimiyatsizlik, hokimiyatning yo'qligi falsafiy, ijtimoiy-siyosiy oqim. Yana bir ma'nosida u antietatistik har qanday g'oya, faoliyat, shu jumladan, ekstremizmni anglatadi. U davlat, huquq va konstitutsion boshqaruvning har qanday shakllaridan voz kechishga chaqiradi. Maqsadi – shaxsni hamma sohada davlatning har qanday ta'siridan ozod etish. Anarxistik konsepsiyalar xilma-xil. Lekin ularning barchasi uchun umumiy g'oyalar mavjud: 1) ijtimoiy adolatsizlikning asosiy sababi – davlat va uning siyosiy-huquqiy institutlari, deb hisoblash; 2) jamiyatni yuqoridan pastga tashkil etish; 3) davlat va huquqni fuqarolik jamiyatiga mutlaqo qarama-qarshi institut sifatida tushunish; 4) shaxs erkinligining sharti sifatida davlat, huquqiy zo'rlikning har qanday shakli yo'q qilinishini talab etish. Bugungi kunda anarxizm mafkura maydonida muhim o'rin tutmaydi.

**Anklav** – (fr. quflamoq) bir davlat hududining boshqa davlat hududi bilan o'ralgan qismi.

**Anneksiya** – (lotin. *annexio* – birlashtirish) agressiyaning turi bo'lib, bir davlat tomonidan boshqa davlat hududining, shuningdek, xalqaro hamjamiyatning umumiy foydalanishida bo'lgan makon hududining bir qismini zo'rlik bilan va g'ayriqonuniy qo'shib olinishi, egallanishi. Anneksiyaning qonunga xilofligi BMT Ustavida ham qayd etilgan bo'lib, unda davlatlarning hududiy daxlsizligi, yaxlitligi va siyosiy mustaqilligiga qarshi kuch ishlatish yoki kuch ishlatish bilan tahdid qilish taqiqlanadi. Anneksiya ekstremistik mafkura bilan qurollangan davlatlarga xos bo'lgan tajovuzkor tashqi siyosatning bir qismi sifatida namoyon bo'ladi.

**Anomik manfaat guruhilari** – manfaat guruhlarining kelib chiqishi va uyishish darajasiga ko'ra turlaridan biri. Ular tartibsiz tarzda u yoki bu hodisaga reaksiya sifatida vujudga keladi (masalan, olomon, namoyish tarzida). Bu guruh tomonidan doimiy uyushgan faoliyat kuzatilmaydi. Bunday guruhlar davlat bilan siyosiy muloqoti muntazam emas. Ichki tuzilishi – nobarqaror, tashkiliy imkoniyatlari esa – cheklangan. Natijada faoliyatlari ko'pincha samarasiz va asosan kuchga tayanadi.

**Anomiya** – (gr. qonun, tashkilotning yo'qligi) jamiyatda umumiy e'tirof etil-

gan xulq-atvor me'yorlarining, qadriyatlarning zaiflashuvi yoki yo'qolib ketishi natijasida asotsial faoliyatning, jumladan, ijtimoiy hayotda radikalizm va ekstremizmning kuchayishi bilan bog'liq holat. Shuningdek, zamonaviylashuv va sanoatlashuv davrida, o'tish jamiyatlarida insonda avvalgi qadriyatlarining yemirilishi natijasida o'z maqomini to'g'ri aniqlay olmaslik va tegishli xulq-atvor modellarini tanlay olmaslik holati.

**Antagonizm** – (gr. kimgadir qarshi kurashaman) murosasiz qarama-qarshiliklar majmuyi.

**Antiglobalizm** – globalashuv jarayoning barcha qirralariga, jumladan, Transmilliy korporatsiyalar va Xalqaro savdo tashkiloti singari tashkilotlarning ustunligiga qarshi qaratilgan ijtimoiy harakat. Antiglobalizm ko'pincha alterglobalizm, ya'ni muqobil globalashuv bilan adashtirib yuboriladi. Antiglobalistlar va alterglobalistlar o'z strategik maqsadlari nuqtayi nazaridan bir-biridan tubdan farq qilsa-da ular kundalik ijtimoiy-siyosiy amaliyotda odatda birgalikda harakat qiladilar.

**Anjuman** – (arab. yig'in, jam bo'lish) – keng doirada o'tkaziladigan majlis, yig'ilish, tadbir, kecha, kengash; 2) bir davrda yashab, bir sohada faoliyat ko'rsatgan atoqli shaxslar guruhi, jamiyati; 3) bir xil kasbdagi hunarmandlarning biror maslahatli ish yuzasidan vaqti-vaqti bilan o'tkaziladigan majlisi, shogirdlarni ishga o'tkazish marosimi, ziyofati. Anjuman hayotning barcha sohasidagi ma'naviy, madaniy, siyosiy, moddiy-iqtisodiy masalalarni va ilmiy muammolarni hal qilish jarayoni, usuli va vositasi hamdir.

**An'ana** – tarixiy jihatdan uzviylik va vorisiylikni anglatadigan ma'naviy hayot hodisasi, ma'naviyatga xos ijtimoiy kategoriya, ajdodlarning tarixan to'plagan ma'naviy qadriyatlarini avlodlarga uzatish (berish) vositasi.

**Antinomiya** – (fr. qonunga qarshi) bir xil darajaga asoslangan va to'g'ri deb e'tirof etiladigan, lekin qarama-qarshi hukmlar to'qnashuvi.

**Antisemitizm** – irqiy ayirmachilik va milliy nizoni avj oldirishga urinuvchi millatchilikning eng keskin ko'rinishlaridan biri. Uning shakllari: segregatsiya, diskriminatsiya, genotsid.

**Antroposentrizm** – insonni taraqqiyotning markaziga qo'yish, barcha narsaning mezoni va o'lchovi sifatida qarash.

**Aparteid** – (alohida bo'lib yashash) irqiy kamsitish va segregatsiyaning keskin shakli. Unda ayrim guruhlar boshqalarga nisbatan tengsiz holatga qo'yiladi, ularning siyosiy, fuqarolik va ijtimoiy-iqtisodiy huquqlari cheklanadi, xatto maxsus hududlarda – *rezervatsiyalarda* yashashga mahkum qilinishi.

**Apatiya** – (yunon.) butunlay befarqlik holati, loqaydlik.

**Apatridizm** – (gr. inkor etish + vatanni) hech qanday fuqarolikka ega bo'lmagan shaxsning huquqiy holati. U shaxs biror davlat fuqaroligidan voz kechishi yoki mahrum qilinishi va ayni damda, boshqa davlat fuqaroligiga ega bo'lmagan vaqtda ro'y beradi. Fuqaroligi bo'lmagan shaxslar yoki apatridlar yashab turgan mamlakatlari qonunlariga bo'ysunadilar va biror boshqa davlat diplomatik himoyasiga da'vo qilolmaydilar. Apatridizm hodisasi odatdan tashqari hol deb qaraladi va davlatlar fuqaroligi yo'q shaxslar sonini kamaytirishga intiladilar.

**Aqida** – (ar.) ko'r-ko'rona ishonishga, e'tiqodga asoslangan dalilsiz va is-

botsiz qoida. *Aqidaparast* – aqidaning ko'rinishi bo'lib, obyektiv voqelikka ko'r-kona ishonish, aqidalarga yopishib olish.

**Aralash turdagi respublika** – respublika boshqaruvi shakllaridan biri. Respublika boshqaruvining prezidentlik va parlament shakliga to'la mos kelmaydigan ko'rinishlari aralash turdagi respublikalarga kiritiladi.

**Aralash huquqlar** – alohida huquqlarning mualliflik huquqidan paydo bo'ladigan, lekin ularga to'liq muvofiq bo'lmagan bir turi.

**Argument** – (lot.) fikrni isbotlash uchun xizmat qiladigan mantiqiy asos, dalil.

**Aristokratiya** – (gr.munosiblar boshqaruvi) boshqaruv shakli. Unda davlat hokimiyati imtiyozlarga ega oliy tabaqaga tegishli, monarxiya va demokratiyaga qarshi turadi. Antik davrlarda aristokratiya munosib va malakali insonlarning boshqaruvini anglatgan (olimlar va faylasuflar). Aristokratiyaning bir qancha jihatlari ko'rsatiladi: buyruqqa itoat etish va buyruq berish sifati mavjudligi; milliy, umuminsoniy madaniyatning saqlovchisi ekanligi; konservativligi tufayli barqarorlashtiruvchi vazifani bajarishi; boshqaruvda turli chekinishlarga yo'l qo'ymasligi; yuqori mas'uliyatli ekanligi.

**Arxetip** – (gr. ibtido) jamoa botiniy ongida yashiringan madaniy stereotiplar. U bevosita tarzda xulq-atvorimizga, tanlovimizga ta'sir ko'rsatadi. Ijtimoiy hayotda amal qiluvchi subyektiv omil sifatida o'rganiladi.

**Ariza beruvchi** – davlat organiga so'rov bilan murojaat etgan jismoniy yoki yuridik shaxs;

**Assambleya** – (fr. yig'ilish) – biror xalqaro tashkilot a'zolarining yoki bir necha davlat vakillarining yalpi majlisi. 1) ayrim davlatlarda oliy davlat organi, parlament nomini olgan; 2) Birlashgan Millatlar Tashkilotining (BMT) bosh organi, barcha a'zo davlatlar delegatsiyalarining umumiy yig'ilishi.

**Assimilyatsiya** – (lot. o'xshab ketmoq) singib ketish, qo'shib ketish. Masalan, bir xalqning boshqa xalq tilini, urf-odatlarini o'zlashtirishi va o'zining milliy xususiyatlarini asta-sekin yo'qota borib unga qo'shib ketishi.

**Assotsiatsiya** – (lot.) jamoat tashkiloti, shaxslar yoki muassasalarning ixtiyoriy birlashmasi, uyushmasi.

**Assotsiatsiyalashgan manfaat guruhleri** – aholining muayyan qatlami, muayyan guruhlar (kasaba uyushmalari, sanoatchilar, tadbirkorlar uyushmalari, fuqarolarning etnik yoki diniy uyushmalari) manfaatlarini davlat hokimiyatiga taqdim etish uchun tuziladigan tashkilotlar. Ular muayyan maqsad asosida tashkil topadi.

**Assotsiatsiyalashmagan manfaat guruhleri** – uyushmagan guruhlar – manfaat guruhlarining bir turi. Ular yaxshi uyushmagan va ijtimoiy-siyosiy jihatdan kamdan-kam faol bo'ladilar.

**Asosiy Qonun** – mazmuni bo'yicha «Konstitutsiya» tushunchasiga mos keladi. Ma'umki, Konstitutsiya normalari boshqa barcha qonunlarga nisbatan oliy yuridik kuchga ega yagona hujjat shaklida amal qiladi. Asosiy qonun – konstitutsiyaviy tuzumning qadriyatlari, institutlar va normalar rasman mustahkamlab qo'yiladigan eng oliy huquqiy hujjat. U inson va fuqaroning huquq hamda erkinliklari e'lon qilnadigan, kafolatlanadigan, shuningdek, ijtimoiy

tuzum asoslari, boshqaruv shakli va ma'muriy-hududiy tuzilishi, markaziy va mahalliy hokimiyat organlari tuzilishining asoslari, ularning vakolatlari, o'zaro munosabatlari, davlat ramzlari hamda poytaxti belgilab qo'yiladigan yozma huquqiy hujjat hamdir.

**Attashe** – (fr. biriktirilgan) 1) kichik diplomatik daraja; 2) elchixon va diplomatiya tarkibidagi lavozimli kishi.

**Atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish** – yer, yer osti boyliklari, suv, o'simlik va hayvonot dunyosi, atmosfera xavosi xamda boshqa tabiiy zaxiralarning ifloslanishdan, buzilishdan, zararlanishdan, vayron bo'lishdan, yo'q bo'lib ketishdan, oqilona foydalanmaslikdan, ularni zararli antropogen ta'sirdan himoya qilishga qaratilgan huquqiy, tashkiliy, iqtisodiy, texnologik va boshqa chora-tadbirlar tizimidan iborat.

**Audiensiya** – (lot. tinglash) davlat boshlig'i yoki yuqori lavozimli shaxslarning rasmiy qabul marosimi.

**Auksion** – individual xususiyatlarga ega tovarlarni (ommaviy sotuvga qo'yish yo'li bilan) sotish uchun muayyan joylarda tashkil etilgan maxsus kimoshdi savdo bozorlari. Auktsion savdo tovarlarining nisbatan cheklangan ro'yxati bo'yicha o'tkaziladi. Uni tashkil etishga ayrim firma va birlashmalar boshchilik qiladilar. Auktsion oldindan e'lon qilingan vaqtda, davriy, har kuni, har oyda, muayyan oylarda yoki yilda bir marta tovarlarning bozorga kelib tushish mavsumiga va hajmiga qarab o'tkaziladi.

**Avangard partiyalar** – partiyalarning muayyan turi. U jamiyatdagi ijtimoiy-siyosiy kuchlarga yetakchilikka da'vogarlik qiladi, buni mamlakatdagi muammolarni hal eta olishi va jamiyatga samarali rahbarlik qila olishi bilan asoslaydi.

**Avesto** – mil. av. IX-VIII asrlarda Markaziy Osiyo hududida, Xorazm vohasida yaratilgan va "Avesto", ya'ni "Hayot yo'riqnomasi" deb nomlangan kitob; zardushtiylik dinini shakllantirishga asos bo'lgan nazariy manbalarning umumiy nomi va bu dinning asosiy kitobi. Markaziy Osiyo xalqlarining qadimgi davrlardagi moddiy va ma'naviy hayoti, diniy qarashlari, olam va odam to'g'risidagi tasavvur, urf-odat va qadriyatleri haqida ma'lumot beradi. Mil. av. XIII asrdan to milodning IV asrigacha bo'lgan davrdagi tarixiy voqealarni aks ettirgan. Unda ma'naviy yuksaklikka da'vat etish, odamlar o'rtasida mehr-oqibat tuyg'ularini mustahkamlashga oid fikrlar, ezgu g'oyalar, ma'budlar sha'niga aytilgan madhiyalar, duolar ham o'z ifodasini topgan. Fuqarolik jamiyati va uning tushunchalari Markaziy Osiyo ijtimoiy-siyosiy va ma'naviy hayotining yorqin namunasi "Avesto" muqaddas kitobida keltirilgan. Avestoning "Yashtlar", "Vispirat", "Vidod" qismlarida oila va jamoada berilgan so'zdan yoki qasmdan voz kechish, odamlar o'rtasida tuzilgan ahdomani buzish katta gunoh ekanligi o'z ifodasini topgan. Xususan, "O Spitama, shartnomani buzuvchi kishi butun mamlakatni buzadi, shu bilan birga Artaga tegishli barcha mulku mollarga putur etkazadi". "O Spitama, ahdingni buzma..." g'oyalari davlatlar siyosiy tizimining huquqiy asosi, adolat manbasi bo'lib, ular Rim huquqidan ham qadimiyroqdir. Avestodagi Fuqarolik jamiyatini qurishning birlamchi omili erkak va ayolning teng huquqliligi, oilaning barqarorligini ta'minlash g'oyasi bugungi kunda ham muhim ahamiyatga bo'lib, bugun O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi

va boshqa me'yoriy hujjatlarda ayollarning teng imkoniyati va keng huquqlari ta'minlangan. O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti Islom Karimov rahbarligida amalga oshirilgan ma'naviy merosimizni tiklash, har tomonlama keng o'rganish va targ'ib etish borasidagi keng ko'lamli ishlar doirasida "Avesto" kitobi ham yangidan xalqimizning ma'naviy mulkiga aylantirildi. Kitobning xalqimiz va milliy davlatchiligimiz tarixi, umumbashariy sivilizatsiya rivojidadagi ulkan ahamiyatini hisobga olgan holda, 2001-yili "Avesto" yaratilganining 2700 yilligi yurtimizda xalqaro miqyosda keng nishonlandi. Shu munosabat b-n kitobning matnlari o'zbek tiliga tarjima qilinib, chop etildi.

**Avtarkiya** – (yunon. *avtarkia* – mustaqillik, o'z-o'zini ta'minlamoq) ayrim davlatlar o'z xo'jaligini boshqa mamlakatlar ta'siridan ajratib mustaqil xo'jalik sifatida rivojlantirishiga qaratilgan faoliyat. U mamlakatning boshqa mamlakatlar bilan xo'jalik aloqalarini o'z manfaatlariga bo'ysundirib, tovar importini cheklash va eksportni kuchaytirish kabilarni nazarda tutadi.

**Avtokratiya** – (grech. *autokrateia* – bir kishi hokimiyati) – bir kishining cheklanmagan va nazorat qilinmaydigan hokimiyatiga asoslangan boshqaruv shakllaridan biri. Subyektlarning davlat faoliyatining qaysidir sohasida cheklanmagan vakolatlari mavjudligini anglatadi. Zamonaviy ijtimoiy fanlarda ba'zan yetakchining nazoratsiz faoliyat olib borishiga asoslangan totalitar va avtoritar siyosiy tizimlarni belgilaydi. Avtokratik boshqaruv erkinlik, tenglik, adolat singari umuminsoniy qadriyatlarni inkor etadi, jamiyatni plyuralizm, demokratiya, birdamlik tamoyillari yordamida boshqarishdan uzoq bo'ladi.

**Avtonomiya** – (gr. o'z-o'zini boshqarish, mustaqillik) – muxtoriyat; Konstututsiya bilan belgilanuvchi va davlat tarkibidagi siyosiy subyektlarga nisbatan mustaqil faoliyat ko'rsatish imkonini beruvchi huquq, imkoniyatning mavjudligi; ma'lum hududda jips yashayotgan alohida millatga davlat ichida beriladigan keng o'z-o'zini boshqaruv shakli. U ichki qonunlar chiqarish va o'z-o'zini boshqarish huquqini, o'z-o'zini idora etishni nazarda tutadi.

**Avtoritarizm** – dastlabki ma'nosi – *avtoritet va an'anaga asoslangan kattalar hokimiyatini hurmat qilish*. Avtoritarizm davlat va jamiyat bir-biriga nisbatan mustaqil bo'lib, ular o'rtasidagi munosabatlar ma'lum qoidalar bilan tartibga solinadi. Avtoritarizmning belgilariga a) hokimiyatning kuchli markazlashuvi; b) shaxs yoki guruhning hokimiyatga yakka hokimligi; v) muxolifatning to'la yoki qisman taqiqlanishi; g) hokimiyatning kuch yordamida almashinuvi; d) cheklangan plyuralizm singarilar kiradi. An'analar – avtoritar hokimiyatning asosiy cheklovchilaridir. Ko'pincha avtoritar rejimlar kuch orqali boshqaruv sifatida ta'riflanadi. Lekin barcha avtoritar rejimlar ham quruq kuchga tayanmaydi, ular barqarorlikni ta'minlash uchun turli vositalarni ishga solishga harakat qiladi. Avtoritar tartibotlarda an'analarga oid qadriyatlar yetarlicha kuchli ta'sirga ega.

**Avtorit** – (lot. qadr-qimmat, kuch) barcha e'tirof etgan, ahamiyatli, ta'sirga ega – barchaning e'tirofiga sazovor bo'lgan inson yoki guruh sifati.

**Axborot** – ("informatio" lotinchadan ma'lumotlar, tushuntirishlar, bayonlarni anglatadi) – bu ma'muriy, tashkiliy tadbirlar o'tkazish haqida qarorlarni qabul qilish uchun, shuningdek, taklif va tavsiyalarni tayyorlash uchun asos bo'lib xizmat qiluvchi muhim faktlar (shaxslar, harakatlar, tashkilotlar, voqealar) to'g'risi-



dagi ma'lumotdir. Falsafiy nuqtayi nazardan axborot bizning ma'lumot (belgi) olish natijasida o'rganilayotgan hodisalar (jarayonlar) haqida tasavvurlarimizning noaniqligini kamaytirish yoki olib tashlashni ta'minlaydi. Axborot – (informatsiya) – lot. informare-tasvirlamoq, nimadir haqida tushuncha tuzish; kimnidir faoliyati, nimadir faoliyati yoki ishning ahvoli haqida xabar, xabardorlik. O'zbekiston Respublikasining axborot erkinligi prinsiplari va kafolatlari to'g'risida qonuni 2002-yil 12 – dekabrda qabul qilingan.

**Axborot agentliklari** – matbuotda nashr etish, internet, radio va televideniye orqali uzatish uchun axborotlarni to'plash va tarqatish bilan shug'ullanuvchi muassasa. Maqomiga ko'ra: hukumat agentliklari, kooperativ, xususiy, jamoatchilik agentliklari mavjud. Tarqatiladigan axborot hajmi va faoliyat ko'lamiga ko'ra – Jahon Axborot agentligi, mintaqaviy va milliy Axborot agentliklari mavjud.

**Axborot texnologiyasi** – axborotni to'plash, saqlash, izlash, unga ishlov berish va uni tarqatish uchun foydalaniladigan uslublar, qurilmalar, usullar va jarayonlar majmuyi.

**Axborot tizimi** – axborot resurslari, axborot texnologiyalari va aloqa vositalarining axborotni to'plash, saqlash, izlash, unga ishlov berish va undan foydalanish imkonini beradigan tashkiliy jihatdan tartibga solingan majmuyi.

**Axborot mulkdori** – o'z mablag'iga yoki boshqa qonuniy yo'l bilan olingan axborotga egalik qiluvchi, undan foydalanuvchi va uni tasarruf etuvchi yuridik yoki jismoniy shaxs.

**Axborot egasi** – qonunda yoki axborot mulkdori tomonidan belgilangan huquqlari doirasida axborotga egalik qiluvchi, undan foydalanuvchi va uni tasarruf etuvchi yuridik yoki jismoniy shaxs.

**Axborot jamiyati** – sanoati rivojlangan davlatlarda axborotning yangi rolini, Axborot ishlab chiqarish, uni qayta ishlash, tarqatishning sifat jihatidan yangi usullarini tasniflash uchun qo'llaniladigan atama. Axborot jamiyati Konsepsiyalari zamonaviy jamiyatlar o'z tarixiy taraqqiyotlarida yangi bosqichga ko'rilganliklarini ta'kidlaydi. Axborot jamiyatining tarixiy o'rnini baholashda ikki yondashuv mavjud: Y. Xabermas, E. Giddenslar tomonidan ishlab chiqilgan birinchi yondashuv axborot jamiyatini sanoatlashgan jamiyatning bosqichi sifatida talqin etadi. D. Bell va O. Tofflerga tegishli ikkinchi yondashuv axborot jamiyatini taraqqiyotning yangi bosqichi ("uchinchi to'lqin") tarzida o'rganishni taklif etadi. Axborot jamiyatida birinchi o'ringa xizmatlar ishlab chiqarish ko'tariladi, jamiyatning malakaviy, ma'rifiy tarkibi, mehnatning tabiati o'zgaradi. Qishloq xo'jaligi va sanoatda mehnat qiluvchilar soni keskin kamayib, asosiy mehnat sohasi – Axborot texnologiyalari sohasiga ko'chadi. Parsonsga ko'ra jamiyat to'rt asosiy kichik tizim – iqtisod, siyosat, madaniyat va ijtimoiy sohaga bo'lingan bo'lsa, axborot jamiyatida ularga yana telekommunikastion va ta'lim tizimlari kiritiladi.

**Axborot madaniyati** – jamiyatning axborot resurslar va axborot-kommunikastion texnologiyalardan samarali foydalanish, shuningdek bu maqsadlarda axborotlashtirish vositalar va axborot texnologiyalarni rivojlantirish sohasida ilg'or yutuqlarni qo'llash qobiliyati.

## B

**Bank** – tijorat tashkiloti bo'lib, bank faoliyati deb hisoblanadigan faoliyat turlari majmuyini (yuridik va jismoniy shaxslardan omonatlar qabul qilish hamda qabul qilingan mablag'lardan tavakkal qilib kredit berish yoki investitsiyalash uchun foydalanishni, to'lovlarni amalga oshirishni) amalga oshiradigan yuridik shaxsdir. O'zbekistonda tashkil etilgan hamma banklar bank faoliyatining subyektlaridir. Yuridik va jismoniy shaxslarning vaqtincha bo'sh pul mablag'larini bir joyga to'plovchi va uzluksiz aylanib turushini ta'minlovchi, korxonalariga va umuman pulga muhtojlarga kredit, ssuda beruvchi, tomonlar o'rtasida to'lov va boshqa hisob-kitob ishlarida vositachilik qilib turuvchi, oltin va chet el valyutasi bilan bog'liq operatsiyalarni bajaruvchi kredit-moliya muassasi. B. pul qo'yuvchilarga ma'lum foiz to'lab, qarz olganlardan yuqoriroq foiz stavkasini undiradi va ana shu foizlar o'rtasidagi farq bank foydasi hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasining banklar va bank faoliyati to'g'risida qonuni 1996-yil 25 – aprelda qabul qilingan.

**Ballotirovka** – (fr. shar) biror masalani ovoz berish yo'li bilan hal etish, tashkilot (qo'mita va h.) a'zolarini saylash. Avvallari ovoz berishning eng keng tarqalgan usuli – qora va oq rangdagi sharlarni xumga tashlash bo'lgan. Atama shundan kelib chiqqan; ovozga qo'ymoq, saylamoq.

**Baykot** – (ingl.) iqtisodiy yoki siyosiy kurash vositasi bo'lib, boshqa shaxslar, tashkilotlar, davlatlar bilan munosabatlardan to'la yoki qisman voz kechish, qandaydir tashkilotlar ishida qatnashmaslik, qaysidir funksiyani bajarimaslik yoki huquqdan foydalanmaslik, kimnidir xizmatidan voz kechish, munosabatni to'xtatish, aloqani uzish.

**Baynalmilalchilik** – (lot. inter – aro, natio – xalq) – turli millat, irqdagi kishilarning xalqaro birdamligini ifodalovchi tushuncha. B. tarixiy tar-yotning ma'lum bosqichida, millatlarning kelib chiqishi va millatlararo mun-tlar natijasida muomalaga kiritilgan. Millatlarning kelib chiqishi go'yoki kapitalistik mun-tlar b-n bog'liq, degan naz-yaga asoslangan B. t.sining paydo bo'lishiga mustamlaka xalqlarning milliy ozodlik kurashiga qarshi olib borilgan shafqatsiz zulmi sabab bo'ldi, deya talqin etiladi. B.ning tub mohiyatini insonparvarlik, tolerantlik g'oyalari, xalqaro hamdo'stlik, birdamlik, hamjihatlik kabi umuminsoniy axloqiy tamoyillar tashkil qiladi. Bugungi kunda yurtimizda 130 dan ziyod millat va elat vakillarining o'zaro ahil, tinch-totuv yashab kelayotgani, Vatan va mam-tning gullab-yashnashi uchun bir yoqadan bosh chiqarib mehnat qilayotgani B.ning chinakam timsolidir.

**Bayonot** – (ar.) diplomatik munosabatlar, muzokaralar, xalqaro ahvol va h. haqida manfaatdor tomonlar va axborot uchun og'zaki yoki yozma ravishda e'lon qilingan rasmiy bildirish va shu haqidagi hujjatlar.

**Baza** – (gr.) 1) asos, negiz; 2) doimiy yoki vaqtincha tushuniladigan joy, hudud; 3) biror narsa saqlanadigan ombor.

**Begonalashuv** – (fr.) inson faoliyati va uning natijalarining mustaqil, unga nisbatan yov kuchga aylanishi bilan bog'liq ijtimoiy jarayon yoki biror narsadan uzoqlashuv, yotlashuv.

**Betaraflik** – ikki tomondagi urushga aralashmaydigan va ular bilan tinch munosabatlarni saqlab qoladigan davlatning siyosiy-huquqiy holati.

**Bi-Bi-Si** – (British Broadcasting Corporation) 1922-yilda tashkil topgan Britaniya radio eshiritish korporatsiyasi. Davlat tomonidan moliyalashtiriladi. 1954-yilgacha – ichki teleko'rsatuvlarga, 1971-yilgacha – radio eshittirishlariga yakka hokimlikka ega edi. 1932-yildan chet elga ingliz tilida eshittirishlar uzatadi; bugungi kunda tezkor axborotlar, tele-eshittirishlar, nashrlar, ingliz tilini o'rganuvchilar uchun qo'llanmalarni dunyoning bir nechta tilda chel ellarga tarqatuvchi yirik mediakorporatsiya.

**Bikameralizm** – parlamentning ikki palatali tizimi. Shakllanib borishi tarixi davomida parlamentlar ikki, uch, to'rt palatali tarkibga ega bo'lgan. Bu parlamentlar ishida din arboblari, aslzoda tabaqa vakillari qirolning shaxsiy taklifiga ko'ra ishtirok etgan bo'lsa, "uchinchi tabaqa" – burjuaziya vakillari avval boshidanoq saylov yoki tanlov asosida kirganlar. U davrdagi parlament palatalarida mamlakat emas, tabaqa manfaatlarini taqdim etilgan. XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab parlamentlarning ikkinchi palatalari tashkil topishi tendensiyasi kuchaygan. XX asrning oxirgi choragida ikkinchi palatalar kiritilgan parlamentlar jahonda 45 tadan 67 taga o'sdi. Dunyodagi eng yirik davlatlarning barchasida (Xitoydan tashqari) ikki palatali parlamentlar amal qiladi. Barcha federativ davlatlarning parlamentlari – ikki palatali. Ikki palatali parlamentlarning bir qator afzalliklari ko'rsatiladi: yuqori palata quyi palata hokimiyatini cheklaydi va ko'pchilik "istibdodi" o'rnatilishiga to'sqinlik qiladi; ikki palatali parlament bir palatali parlamentlarga qaraganda ijro organlarining hokimiyatini samaraliroq cheklaydi; ikki palatali parlament vakillik ko'lamini kengaytiradi; qonunchilik jaryoni sifatli va izchil amalga oshadi; ikkinchi palata munozarali qonun loyihalarini to'xtatishi, jiddiy muhokama va munozaralarni ta'minlashi orqali Konstitutsiyaga amal qilinishini kafolotlaydi. Bikameralizmning kamchiliklariga quyidagilar ko'rsatiladi: bir palatali parlamentlar faoliyati tezkor bo'lgani uchun samaraliroq; ikkinchi palatalar boshqaruvning demokratik ekanligiga ko'pincha zid keladi; ularning ba'zi a'zolari saylanmaydi – tayinlanadi; ikki palatali parlamentlar institutsional xitloflarga moyillar; ikkinchi palatalar konservativlar.

**Bilvosita demokratiyada** – bu ko'pincha "sof demokratiya" deb ham ataladi, odamlar o'z jamoalari uchun zarur qonunlar ishlab chiqish maqsadida bir joyda uchrashadilar. Bunday demokratiya qadimgi Yunonistondagi Afina shahar ko'rinishidagi davlatda amalga tatbiq qilingan va hozirgi kunda yangi Angliya shahar majlisida ham qo'llanilib kelinmoqda.

**Bipartizm** – ikki partiyaviy tizim, ijtimoiy sheriklikning ikki subyekti o'rtasidagi kelishuv

**Bipatrid** – ikki yoki bir nechta davlat fuqaroligiga ega shaxs.

**Bir mandatli saylov okrugi** – bir deputat saylanadigan saylov okrugi. Bir mandatli saylov okruglari saylovchilar soni va saylov okrugi hududi yaxlitligi bo'yicha mutanosib bo'lishi talablariga asoslanib tashkil etiladi. Masalan, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylov to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi Qonuni (yangi tahrir) ning 2-bobi 7-moddasida O'zbekiston Oliy Majlisi

Qonunchilik palatasiga saylovlar o'tkazish uchun 135 ta hududiy saylov okrugi tuzilib, har bir saylov okrugidan *bitta deputat saylanadi, deyilgan.*

**Birja** – (goll.beurs, nem. Borse-hamyon) – 1) mahsulot, valyuta va qimmatbaho qog'ozlarni ayirboshlashda, hisob va ma'lumot xizmatlarini amalga oshirishda faol qatnashuvchi tashkilot. Xizmat ko'rsatgani uchun vositachilik yig'imini oladi; 2) birja savdo-sotig'i bo'ladigan joy.

**Biznes** – (inglizcha business-ish, faoliyat, mashg'ulot) boylik, foyda orttirishga yo'naltirilgan ish, faoliyat. Biznes xo'jalik yuritish ko'lamiga qarab yirik, o'rta va mayda turlarga bo'linadi. Xodimlarning o'rtacha soni va mahsulot hajmiga qarab ajratiladi.

**Biznes reja** – bozor iqtisodiyoti sharoitida tadbirkorlikning barcha sohalari-da qo'llanadigan muhim qurol bo'lib hisoblanadi. Ish jarayoni haqida ma'lumot beradi. Uning yordamida firma o'sib borishi, istiqbolni belgilab borishi, daromadini ko'paytirishi mumkin. BR o'ta muhim moliyaviy hujjat sifatida firma faoliyatini barcha qirralarini tahlil qilishga yordam beradi. U nafaqat ichki hujjati bo'lib, balki kredit olishi uchun zarur bo'ladigan hujjatlardan biridir.

**Bixeviorizm** – (ingl. xulq-atvor) Amerika ijtimoiy fanlaridagi yo'nalish, ilmiy metodologiya. U insonning xulq-atvori motivlarini, javob reaksiyalarini o'rganish zarurligi, shu tariqa ijtimoiy fanlar o'zlarining «gumanitar cheklanganligini» yengib o'tishi hamda isbotliligi va anqlik darajasiga ko'ra tabiiy fanlarga yaqinlashuvi g'oyasiga asoslanadi. Bixeviorizmning konseptual asoslari G'arb siyosatshunoslikka kuchli ta'sir ko'rsatgan. Amerikaning Chikago maktabi vakillari tomonidan keng qo'llangan. Bixeviorizmning bir qator g'oyalari siyosatshunoslikga Artur Bentli tomonidan kiritilgan: "Boshqaruv jarayonlari" (1908) kitobida u manfaatli guruhlarining siyosiy jarayonlardagi xulq-atvorini o'rganish zarurligini ta'kidlagan. Ikki jahon urushi oralig'ida siyosiy tadqiqotlarning usullari qayta ko'rib chiqila boshlandi va bu siyosiy fanning sotsiologiya va ijtimoiy psixologiya bilan yaqinlashuvida namoyon bo'ldi. Siyosatshunoslikda empirik ilmiy usullar keng qo'llana boshlandi: ma'lumotlarning statistik tahlili, so'rovlar, ijtimoiy fikrni o'rganish, siyosiy xulq-atvorni tabiiy va eksperimental sharoitlarda o'rganish va h. Siyosiy tadqiqot birligi sifatida individlar va guruhlarining turli siyosiy vaziyatlarda kuzatish mumkin bo'lgan xulq-atvori olinadi. Zamonaviy bixevioristik siyosiy nazariyalar uchun individual, shaxslararo, guruhiy siyosiy xulq-atvor modellarini o'rganish xos. Tadqiqotlarda miqdoriy usullarning ustunligini ko'ramiz. Elektorat xulq-atvorini o'rganish, siyosiy yetakchilik, qarorlar qabul qilinishi sohasida, qiyosiy va tatbiqiy siyosatshunoslikda keng qo'llanadi.

**Bluger** – internet jahon axborot tarmog'idagi o'z veb-saytiga va (yoki) veb-sayt sahifasiga hamma erkin foydalanishi mumkin bo'lgan, ijtimoiy-siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va boshqa xususiyatga ega axborotni joylashtiruvchi, shu jumladan, axborotdan foydalanuvchi-lar tomonidan ushbu axborotni muhokama qilish uchun joylashtiruvchi jismoniy shaxs. O'zbekiston Respublikasining axborotlashtirish to'g'risida qonuni 2003-yil 11 – dekabrda qabul qilingan.

**Blokada** – (ingl. to'smoq) siyosiy, iqtisodiy, harbiy va h. yakkalab qo'yish; qamal, qurshov.

**Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT)** – xalqaro tinchlik va xavfsizlikni, davlatlarning va millatlarning o'zaro hamkorligini ta'minlash maqsadida suveren davlatlar kuchlarini ixtiyoriy birlashtirish asosida ta'xis etilgan universal xalqaro tashkilot. 1945-yilda Gitlerga qarshi Koalitsiyaning yetakchi davlatlari – SSSR, AQSH, Xitoy, Buyuk Britaniya, Fransiya tomonidan tuzilgan. BMT – yer yuzida tinchlikni va xavfsizlikni ta'minlash, davlatlarning va millatlarning o'zaro hamkorligini rivojlantirish maqsadida 1945-yil 24 – oktyabrda fashizm ustidan g'alaba qozongan mustaqil davlatlarning ixtiyoriy birlashishi asosida tuzilgan xalqaro tashkilot. Mustaqil O'zbekiston Raspublikasi BMT ga 1992-yil 2 martda qabul qilindi. Bugungi kunda BMT ga 193 davlatlar a'zo bo'lib kirgan. Ikkita davlat kuzatuvchi maqomiga ega (Vatikan, Falastin). BMT o'z tarkibiga ko'ra 6 asosiy organ, qo'mita va komissiyalardan iborat: 1. Bosh Assambleya; 2. Xavfsizlik Kengashi; 3. Iqtisodiy va ijtimoiy kengash; 4. Vasiylik kengashi; 5. Xalqaro sud; 6. BMT kotibiyati. BMTning rasmiy tillari: ingliz, ispan, rus, arab, fransuz va xitoy. 1993-yil fevral oyida Toshkentda BMTning vakolatxonasi ochildi. BMT homiyligidagi YUNESKO tashkilotiga O'zbekiston 1993-yil 29 – oktyabrda a'zo bo'lib kirdi. BMT ning bir yillik byudjeti taxminan 2 mlrd. dollarni tashkil etadi. O'zbekistonning badali qariyb 270 ming dollarni tashkil etadi. Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT) ning tuzilishi insoniyat tarixida ro'y bergan muhim siyosiy voqeadir. Bu olamshumul voqea keyinchalik millionlab xalqlarning tinch va osoyishta hayot kechirishi, ularning o'z taqdirini o'zlari belgilashlarida muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Uning izchil va qat'iy harakatlari natijasida jahonning ayrim mamlakatlari va mintaqalarida ro'y bergan mahalliy, fuqarolar urushiga barxam berildi yoki ularga yo'l qo'yilmadi, ayrim davlatlar va xalqlar o'rtasida kelib chiqqan turli xildagi mojarolar siyosiy yo'l bilan hal etildi, xalqaro maydonda ro'y berishi mumkin bo'lgan tangliklar, noxush holatlarning oldi olindi. Keyingi yillarda Bolqon mamlakatlarida, Yaqin Sharqda, Afrika va Lotin Amerikasi mintaqalaridagi harbiy va siyosiy mojarolarni tinch yo'l bilan hal qilishda bu tashkilotning roli va ahamiyati benixoyat katta bo'ldi. U jahondagi ko'plab mamlakatlarga iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy yordam bermoqda. Inson huquqlarini himoya qilish bu tashkilot faoliyatining asosiy jihatlardan biri bo'lib qolmoqda. «Birlashgan Millatlar» degan tushuncha birinchi marta Amerika Qo'shma Shtatlari Prezidenti Franklin Ruzvelt taklifiga ko'ra 1942-yil 1 – yanvarda Birlashgan Millatlar Deklaratsiyasida qo'llanildi. Bunga asosiy sabab, 26 mamlakatning o'z hukumatlari nomidan ikkinchi jahon urushining boshlanishiga sababchi bo'lgan davlatlarga qarshi birlashishiga qaror qilinishi bo'ldi. Bu tushuncha keyinchalik Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT) da o'zining to'la va aniq ifodasini topdi. BMT ni tashkil etilishidagi eng muhim qadamlardan biri bu – buyuk davlatlarning xalqaro xavfsizlikni ta'minlash tashkilotini tuzish yo'lidagi birinchi birgalikdagi harakatlari SSSR, AQSH, Buyuk Britaniya va Xitoy tashqi ishlar vazirlari ishtirokida 1943-yil 30 – oktyabrda Moskvada o'tkazilib, Moskva "To'rtlik" Deklaratsiyasi qabul qilingan konferensiya bo'ldi. Deklaratsiyada "imkon qadar tez fursatda xalqaro tinchlik va xavfsizlikni saqlash uchun umumjahon xalqaro tashkilotini ta'xis etish zarurligi" qayd etilgan edi. 1. Shu tariqa 1945-yil 24 – oktyabrga kelib, BMT Ustavi qabul qilindi. Mohiyatiga ko'ra BMT Us-

tavi zamonaviy xalqaro huquq yutuqlarini o'zida mujassamlashtirgan, xalqaro me'yorlarni o'ziga aks ettira olgan benazir hujjatga aylanadi. BMT Ustavi "Biz, Birlashgan Millatlar xalqlari, qat'iyat bilan...." so'zlari bilan boshlanuvchi muqaddima va 111 moddadan iborat 19 bobni o'z ichiga oladi.<sup>2</sup> BMT Ustavining asosiy maqsadlari etib quyidagilar:

- xalqaro tinchlik va xavfsizlikni ta'minlash;
- millatlar o'rtasida do'stlik munosabatlarini o'zaro tinchlik va o'z taqdirini o'zi belgilash tamoyiliga asosan rivojlantirish;

- xalqaro iqtisodiy, sotsial, madaniy va gumanitar xarakterdagi muammolarni echishda hamkorlik qilish hamda inson huquqlari va erkinliklarini xurmatlashga qaratilgan harakatlarni taqdirlash va rivojlantirish;

Ushbu umumiy maqsadlarga erishishda millatlar harakatini muvofiqlashtirishda markaz vazifasini bajarish; belgilangan bo'lsa, uning asosiy tamoyillari sifatida:

- barcha a'zolarining suveren tengligi;
- barcha a'zolar ushbu Nizomga binoan o'zlari olgan majburiyatni sidqildan bajarishi;

- ular o'zlarining barcha xalqaro nizolarini tinchlik yo'li bilan echishlari kerakki, tinchlik, xavfsizlik va adolat xavf ostida qolmasin;

- ular o'zlarining xalqaro munosabatlarida boshqa davlatlarga nisbatan kuch ishlatish yoki do'q-po'pisalardan o'zlarini tiyishlari kerak;

- ular BMTning Nizomiga binoan ko'rilayotgan harakat va tadbirlariga har tomonlama ko'maklashishlari kerak hamda BMT qaysi bir davlatga nisbatan majburlash yoki boshqa chora ko'rgan bo'lsa, bu davlatga yordam berishdan o'zlarini tiyishlari zarur;

- birlashgan Millatlar Tashkiloti unga a'zo bo'lmagan mamlakatlarni ham ushbu tamoyilga amal qilishlarini ta'minlaydi, chunki bu butun dunyoda tinchlik va xavfsizlik ta'minlanishi uchun zarurdir;

Nizom BMTga hech qachon davlatlarning ichki masalalariga doir ishlariga aralashish huquqini bermasligi kabi muhim tamoyillar e'tirof etilgan. Bugun ushbu tashkilotga dunyo mamlakatlarining 190 dan ortig'i teng huquqli a'zosi bo'lib hisoblanadi. BMT tizimni oltita asosiy organ tashkil etadi. Ular:

- Bosh Assambleya;
- Xavfsizlik Kengashi;
- Iqtisodiy va Ijtimoiy Kengashi;
- Vasiylik Kengashi;
- Xalqaro Sud;
- Kotibiyat.

Shuningdek, hozirgi kunda BMTning 18 ta ixtisoslashgan muassasalari mavjud. Ularning ayrimlari BMT tuzilishiga qadar paydo bo'lgan va faoliyat yuritgan. 1992-yilning 2 – martida O'zbekiston Respublikasi xalqaro huquqning teng huquqli subyekti sifatida Birlashgan Millatlar Tashkilotiga qabul qilindi. O'zbekistonning BMTga a'zo bo'lishi mamlakatimizning milliy xavfsizligini saqlashda muhim ahamiyatga egadir. Endilikda O'zbekiston o'z xavfsizligini ta'minlashning ishonchli tayanchiga ega bo'ldi. Uning tinchligi va xavfsizligiga

qarshi biron-bir kuch tahdid solishi hollari ro'y bergan taqdirda, u BMTga murojaat qilishi, uning yordami va qo'llab-quvvatlashiga xaqlidir. O'zbekistonning bu nufuzli tashkilotdagi ishtiroki faqat mamlakatimizdagina emas, shuning bilan birga Markaziy Osiyoda ham tinchlik va barqarorlikni saqlash garovidir. Mamlakatimiz O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.A.Karimov BMTning xavfsizlik va hamkorlik sohasidagi roli va ahamiyatini ko'p martalab ta'kidlab, bu tashkilot dunyoda mustahkam va barqaror tinchlikka erishishning hamda inson huquqlari va erkinliklarini himoya qilishning mustahkam tayanchi bo'la olishiga chuqur ishonch bildirib kelmoqda. O'zbekiston Respublikasi BMTga a'zo bo'lgandan buyon o'tgan davr mobaynida mamlakatimizning bu xalqaro tashkilot bilan aloqalari tobora keng tus olib bormoqda. Bu aloqalarning rivojlanishida BMTning 1993-yilda mamlakatimizda ish boshlagan vakolatxonasining ahamiyati kattadir. O'zbekiston BMTning XVF, TTXB, XRA, XMT, BSST, YUNESKO va boshqa ixtisoslashgan muassasalariga a'zo bo'ldi. BMTning O'zbekistondagi birinchi doimiy vakili pokistonlik Xolid Bashir Malik bo'ldi. Toshkentdagi BMT vakolatxonasida ushbu tashkilotning ko'plab bo'limlari (YUNISEF, YUNESKO, YUNISTAR va boshqalar) faoliyat yurita boshladi. BMT va O'zbekiston munosabatlarining o'zaro istiqbolli aloqalari borasida hamda O'zbekiston Respublikasining faol xalqaro siyosat yuritayotganligini O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.A.Karimovning ma'ruzalarida va nutqlarida o'z aksini topgan. Masalan, BMT Bosh Assambleyasining 48-sessiyasida (1993-yil 28 – sentyabr) O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.A.Karimov birinchi marta BMT Bosh Assambleyasi minbaridan turib, o'z nutqida quyidagi xalqaro-huquqiy tashabbuslarni ilgari surgan edi:

Birinchidan, Markaziy Osiyoda xavfsizlik va hamkorlik masalalari yuzasidan BMT seminarini chaqirish;

Ikkinchidan, BMT Xavfsizlik Kengashi qoshida paydo bo'layotgan xalqaro nizolarni tahlil va bashorat qiluvchi maxsus guruh tuzish;

Uchinchidan, Markaziy Osiyoni yadro quroldan xoli zona deb e'lon qilish;

To'rtinchidan, Markaziy Osiyo hududida kimyoviy va bakteriologik qurollar joylashuvini xalqaro nazorat qilish;

Beshinchidan, Markaziy Osiyoda narkobiznesga qarshi kurash olib borish uchun BMTning Mintaqaviy komissiyasini tuzish;

Oltinchidan, BMTning Orol bo'yicha Maxsus komissiyasini tashkil etish;

Yettinchidan, Xavfsizlik Kengashi tizimini qayta qurish va unda hozirgi dunyoning ijtimoiy, iqtisodiy, milliy-madaniy, ruhiy va ma'naviy xilma-xilligini to'g'ri tasavvur etish qobiliyatini shakllantirish

BMT Bosh Assambleyasi (BMT BA) – BMTning bosh organlaridan biri. Uning tarkibiga BMTning barcha a'zolari kiradi. U BMT Ustavi asosida barcha masalalarni muhokama qilishi va ular bo'yicha tavsiyalar qabul qilishi mumkin. Bu tavsiyalar (tashkiliy va byudjetga taaluqlaridan tashqari) majburiy tabiatga ega emas. BMT Nizomiga ko'ra BA Xavfsizlik Kengashi hisobotlarni ko'rib chiqadi. Iqtisodiy va Sotsial Kengash, Homiylik Kengashlariga muvaqqat a'zolar tayinlaydi. Xalqaro sud sudyalari saylashda qatnashadi, BMT Bosh kotibini tayinlaydi, tashkilot byudjetini tasdiqlaydi. BMT BA qarorlari ko'pchilik ovoz bilan qabul qilinadi. BMT-

ning asosiy maqsadi: «bo'lajak avlodlarni urush ofatlaridan xalos etish» (BMT Ustavi). Asosiy tamoyillari: davlatlarning suveren tengligi, BMT Ustavi bo'yicha majburiyatlarni vijdonan bajarilishi; xalqaro janjallarning tinch yo'l bilan hal etilishi, kuch ishlatmaslik yoki kuch bilan tahdid qilmaslik, boshqa davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik va h. BMTning bosh organlari: Bosh Assambleya, Xavfsizlik Kengashi, Iqtisodiy va Sotsial Kengash, Xalqaro sud va Kotibiyat (Bosh kotib Bosh Assambleya tomonidan Xavfsizlik Kengashi tavsiyasiga ko'ra tayinlanadi). BMTning bosh shtab-kvartirasi – Nyu-York (AQSH)da, Yevropa bo'limlari – Jeneva (Shveysariya) va Vena (Avstriya)da.

**Bosh Kelishuv** – xodimlar va ish beruvchilarning mehnatga oid huquqlari va ijtimoiy-iqtisodiy manfaatlari himoyasini ta'minlash borasida O'zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasi Kengashi va O'zbekiston Respublikasi Hukumati o'rtasida tuziladi. Bosh kelishuv ijtimoiy-iqtisodiy masalalar xususida kelishib siyosat olib borishning umumiy tamoyillarini belgilab beradi.

**Boshqaruv** – turli tizimlarning (biologik, ijtimoiy-siyosiy texnologik) funksiyasi. U shu tizimlarning muayyan tuzilishini saqlab turadi, faoliyat tartibini ta'minlaydi, dasturlar maqsadlarini amalga oshiradi.

**Boshqaruv shakli** – bu huquqiy institut bo'lib, davlat hokimiyatini tashkil etish tartibi. Oliy va mahalliy davlat organlarini tuzish usulini hamda ularning bir-biri va aholi bilan o'zaro munosabatlari tartibini o'z ichiga oladi. Boshqaruv shakllari hokimiyat bir shaxs tomonidan yoki saylab qo'yiladigan jamoaviy organ tomonidan amalga oshirilishiga qarab jiddiy farq qiladi. Birinchi holda boshqaruvning monarxik shakli, ikkinchi holda esa respublika shakli namoyon bo'ladi. Monarxik boshqaruv shaklida, amaldagi qonunlarga muvofiq, monarx, respublika boshqaruv shaklida esa saylab qo'yiladigan davlat organi davlat hokimiyatini boshqaradi. Monarxiyalar va respublikalarning har xil turlari mavjud. Ular davlatlarning tiplariga, shuningdek, ularning yuzaga kelishi va faoliyat ko'rsatishi shart-sharoitiga ko'p jihatdan bog'liq.

**Boshqaruv uslubi** – davlat boshqaruv faoliyatining maqsadga erishish, vazifalarni bajarish va funksiyalarni amalga oshirish vositasi.

**Boshqaruvning demokratlashuvi** – boshqaruvning sezilarli ravishda nomarkazlashgan tus olishi, boshqaruv qarorlarini qabul qilish va ularni amalga oshirishda jamoatchilikning faol ishtiroki, vakolatlarni quyiga uzatishdan keng foydalanish.

**Bozor iqtisodiyoti** – tovar ishlab chiqarish, ayirboshlash va pul muomalasi qonun – qoidalari asosida tashkil etiladigan va boshqariladigan iqtisodiy tizimdir. Erkin tovar pul munosabatlariga asoslangan, iqtisodiy monopolizmni inkor etuvchi, aholini ijtimoiy himoya qilishga yo'naltirilgan va boshqariladigan iqtisodiy tizimdir.

**Bojxona** – chegara orqali o'tadigan jami yuklarni, shu jumladan, bagaj va pochta jo'natmalarini nazorat qiladigan davlat muassasasi. U o'tkazilayotgan yuklarni tekshirish va ulardan yig'implarni undirish bilan shug'ullanadi. Bojxonalar, odatda, dengiz va daryo portlarida, xalqaro aeroportlarda, temir yo'l stantsiyalarida, chegara hududlarida va mamlakatning yirik markazlarida joylashadi.

**Bozor** – sotuvchi va xaridor o'rtasida yuzaga keladigan iqtisodiy munosa-



batlar majmuyi. Bozordagi talab va taklif iqtisodiy, demografik, ijtimoiy, siyosiy va ma'naviy omillar ta'sirida shakllanadi. Talab yo'q, o'tmay qolgan narsa, mol haqida «B. kasod», talab yuqori bo'lgan, tez o'tadigan narsa, mol haqida esa «B. chaqqon» deyiladi. «B. ko'tarmaydi»bu tovarni ushbu narxga bozorda hech kim olmaydi degan ma'noni anglatadi.

**Bozor islohotlari** – xalq ishtirokida davlat tomonidan ishlab chiqilgan bozor munosabatlarini shakllantirishga qaratilgan chora-tadbirlarni davlat nazorati ostida amalga oshirishdan iborat.

**Bozorning tuzilishi** – bu bozor elementlarining ichki tuzulishi, joylashishi va tartibi, ularning bozor umumiy hajmidagi ulushi demakdir.

**Bozor tizimi** – turli-tuman mezonlar asosida alohida unsurlarga ajratilgan barcha bozorlar majmuyidir.

**Bozor mexanizmi** – bozor iqtisodiyotining faoliyatini tartibga solish va iqtisodiy jarayonlarni uyg'unlashtirishni ta'minlovchi dastak va vositalar. M: baho, talab va taklif, raqobat, pul-kredit.

**Bozor infratuzilmasi** – sotuvchi va xaridor o'rtasida bozor munosabatlari shakllanishini, rivojlanishini ta'minlaydigan tashkilotlar, muassasalar, idoralar, korxonalar majmuasi. Uning tarkibiga savdo korxonalari, ta'minot tashkilotlari, valyuta va qimmatbaho qog'ozlar birjasi, transport, aloqa va boshqa xizmat ko'rsatuvchi tarmoqlar kiradi.

**Bozor konyukturasi** – ayrim bozorlarda muayyan holatlarning mavjudligi. Bozor konyukturasi muayyan davrdagi bozor holati, bozorda muvozanatning mavjudligi yoki buzilganligi bilan xarakterlanadi.

**Bozor funksiyalari** – bozor bajaradigan iqtisodiy vazifalar. Unga, asosan quyidagilar kiradi: 1) tovar ayirboshlash orqali ishlab chiqarish bilan iste'molni bir-biriga bog'lash; 2) iste'mol buyumlarni va xizmatlarni aholiga etkazib berish orqali xalq farovonligini oshirish; 3) narxlarning o'zgarishi orqali talab va taklifni bir-biriga moslashtirish, pulni tovarlar bilan ta'minlab, pul muomalasini barqaror bo'lishiga erishish; 4) davlatlar o'rtasidagi teng huquqli iqtisodiy aloqalarni kengaytirish, mustahkamlash va boshqalar.

**Bozor qonunlari** – pul vositasida bozorda tovar ayirboshlashning mohiyatini ifoda etuvchi, uni boshqarib turuvchi obyektiv iqtisodiy qonunlar. Ular jumlasiga talab va taklif qonuni hamda pul muomalasi qonuni kiradi.

**Broker** – (ingl. broker) – mahsulot, qimmatbaho qog'ozlar, valyuta sotuvchilar va xaridorlar o'rtasidagi rasmiy dalol. O'zi yoki mijozlar nomidan kelishuvlar, shartnomalar tuzish huquqiga ega shaxs.

**Byudjet** – (ingl. budget-sumka) – davlat, korxonalar, muassasa va shu kabilarning ma'lum muddat uchun oldindan belgilab qo'yiladigan kirim-chiqim, daromad – buromad smetasi.

**Byudjet taqchilligi** – byudjet daromadlari bilan xarajatlarining nomuvofiqligi bo'lib, xarajatlarning daromadlardan ortib ketishi tushuniladi.

**Byudjet balansi** – xarajatlarning daromadlarning teng bo'lishidir.

**Brifing** – (ingl. yo'l-yo'riq) muayyan masala bo'yicha hokimiyat nuqtayi nazarini vakolatli shaxslar tomonidan bayon qilinishiga bag'ishlangan qisqa matbuot kengashi.

**Bumerang** – ingl. biron narsa, tomon, shaxs va h.ga qarshi qaratilgan dushmanona harakatning uni boshlagan narsa, tomon, shaxsga qaytib kelishi.

**Bunyodkor g'oya** – jamiyatni taraqqiyot sari yetaklovchi, turli guruh va qatlamlarni, millatlarni ezgu maqsad yo'lida birgalikda harakat qilishga undovchi, amalga oshirishning real asoslari bo'lgan g'oya.

**Buyuk davlatchilik shovinizmi** – (shovinizm – fran. burjua millatchiligi-ning o'ta reaksiyona formasi). Shovinizm siyosati boshqa millat va xalqlarga nafrat va dushmanlikni avj oldirishga qaratilgan. Shovinizm go'yo to'laqonli bo'lmagan boshqa millatlar va irqilar ustidan hukmronlik qilishga da'vat etilgan bir millatning alohidaligini («mumtozligini») targ'ib etadi.

**Buyuk Ipak yo'li** – eramizdan oldingi 122-138 yillardan to XX asrga qadar Sharq va G'arb o'rtasidagi qadimgi savdo – sotiq, tijorat, diplomatik va madaniy – ilmiy aloqalar yo'li. Bu yo'l Xitoydan boshlanib, Markaziy Osiyoga kelgach, ikkiga ayrilgan. Birinchisi, Kaspiy dengizning shimoliy qismi orqali Kavkazga, undan janubga, ikkinchisi Kaspiyning janubi orqali Old Osiyoga yo'l olgan. *Markaziy Osiyo Ipak yo'lining chorrahasida joylashgan Samarqand, Buxoro, Xiva, Toshkent va Farg'ona vodiysining ayrim shaharlarida yirik savdo markazlari hisoblangan, ular Movoraunnahning iqtisodiy va madaniy yuksalishida katta o'rin tutgan.*

**Butunjahon saylov organlari assotsiatsiyasi (BSOA)** – 2013-yil oktyabrda butun dunyo bo'ylab erkinlik, transparentlik va saylov jarayonlarida ishtirok etish g'oyalarini samarali yoyish maqsadida asos solingan xalqaro tashkilotdir. BSOAning faoliyati demokratik saylovlarni tashkil etish va saylov jarayonlaridagi so'nggi voqeliklarni kuzatish, shuningdek, saylovlarni o'tkazish uchun mas'ul bo'lgan organlar o'rtasida tajriba va amaliyot almashinuvini yo'lga qo'yishga ko'maklashishga qaratilgan. Bugungi kunda 106 ta saylov organi, shu jumladan, O'zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasi BSOA a'zosi hisoblanadi.

**Byudjet** – (ingl. sumka) davlatning muayyan bir davrdagi daromadlari va xarajatlarinig pul bilan ifodalangan rejası. Davlat byudjeti mamlakatning oliy qonun chiqaruvchi organi tomonidan tasdiqlanadi. O'zbekiston Respublikasi Byudjet Kodeksi 2013-yil 27 – dekabrda qabul qilingan.

**Byurokratiya** – (fr. devonxona hukmronligi) boshqaruvda o'ziga xos funksiyalar va imtiyozlarga ega guruh, qattam. Byurokратиyaning kelib chiqishi davlatchilikning rivojlanishi va aholi tarkibidan amaldorlar, jamiyatni boshqarish vazifasini bajaruvchi alohida qattam ajralib chiqishi bilan bog'liq. Boshqaruv munosabatlari tizimida byurokratiya siyosiy elitalar bilan aholi o'rtasida oraliq mavqeni egallaydi va ularning manfaatları uchun xizmat qiladi. Bu uning jamiyat uchun ijobiy tomoni. M.Veber oqilona byurokratiya tushunchasini ishlab chiqdi: yuqori malakali, oqilona, qonunlar asosida faoliyat ko'rsatuvchi boshqaruv kadrlari tizimi. Tushunchaning o'zi XIX asrda Fransiyada vujudga kelgan, lekin u vaqtda hozirgi ma'nosiga ega emas edi. M.Veber byurokратиyaning mumtoz nazariyasini yaratadi. Unga ko'ra byurokrat – oqilona-huquqiy hokimiyatning muhim elementi bo'lib uning alohida belgilariga: samaradorligi, qat'iy pog'onaviylashganligi, shaxs-sizligi, barqaror va aniq belgilangan qoidalar tizimiga

asoslanishi kiradi. Veber Germaniya byurokratiyasi modelini yaratdi, ammo u ishlab chiqqan tamoyillar bugungi kun siyosiy fanida byurokratiyaning universal tamoyillari deb e'tirof etiladi: ma'muriy tashkilotlar pog'onaviy tuzilgan; har bir muassasa o'z vakolati doirasiga ega; davlat xizmatchilari saylanmaydilar, balki o'z malakatlari yoki imtihon natijalariga ko'ra tayinlanadilar; davlat xizmatchilari egallagan mavqelariga ko'ra maosh oladilar; davlat xizmatchilari uchun lavozim xizmat yoki asosiy ish joyini anglatadi; davlat xizmatchisi o'zi ishlayotgan tashkilotning egasi emas; davlat xizmatchisi intizomga bo'ysunadi va nazorat ostidadir; mansabdan olish yuqori instantsiya qaroriga asoslanadi. Veber ko'rsatgan tamoyillarning ayrimlari qadimgi Xitoyda ham uchragan. G'arbiy Yevropada davlat ma'muriyati ijro hokimiyatining bir qismi sifatida XVI asrlar atrofida vujudga keldi, lekin faqat XX asrga kelibgina to'liq shakllanib bo'ldi. Veber byurokratiyaning alohida uyushgan ijtimoiy qatlam sifatida qaror topishida mansabga beriluvchi yuqori ijtimoiy baho, uning ma'muriy va boshqa me'yorlar bilan himoyalanganligi, lavozimga yarasha muntazam pul mukofotining berilishi, lavozim iyerarxiyasida siljish – mansabdan mansabga, ya'ni pog'onaviy amalga oshishi, byurokratlarning yuqori malakali bilimiga va maxsus, ya'ni boshqaruvga oid ko'nikma va tajribalarga egaligi muhim o'rin tutishini ko'rsatib bergan. Byurokratiya boshqaruvga yakka egalik qilish maqsadida axborotni yashiradi, «xizmat sirlarini» himoya qiladi. Natijada uni nazorat etish qiyinlashadi. Veber byurokratiya o'z faoliyatida qanchalik mustaqil bo'lsa, unda funksional faoliyattan ko'ra «hokimlik instikti» zo'r kela boshlaydi, deb ta'kidlaydi. Shuning uchun davlat ma'muriy faoliyatini qattiqqo'llik va aniq qonun-qoidalar asosiga qurish kerak. Veberga ko'ra haqiqiy amaldor siyosatchi bo'lishi kerak emas. Byurokratiya bir qator ijobiy va salbiy belgilarga ega. Uning ijobiy belgilariga yuqori malakaga egaligi, faoliyatida izchilligi, xolisligi, siyosiy manipulyatsiyalardan xoliligi kirs, salbiy belgilariga – ko'p sonliligi, cheklanganligi, loqaydligi, yangiliklar uchun yopiqligi, asosan konservativ ekanligi kabi sifatlar kiradi. Byurokratiya funksiyalariga quyidagilar kiradi: qonunlar va me'yorlarni hayotga tatbiq etish; qonunchilikni talqin etish; manfaatlar artikulyatsiyasi va agregatsiyasi; ma'muriy jazoni belgilash; siyosiy kommunikatsiya.

**Birja** – avvaldan tayinlanadigan manzil va vaqtda belgilangan qoidalar asosida ochiq savdo-sotiq o'tkazish orqali birja tovarlari bilan erkin ulgurji savdo qilish uchun shart – sharoitlar yaratuvchi, yuridik shaxs. O'zbekiston Respublikasining birjalar va birja faoliyati to'g'risida qonuni 2014-yil 12-sentyabrda qabul qilingan.

**Bitimlar** – fuqarolar va yuridik shaxslarning fuqarolik huquq va burchlarini belgilash, o'zgartirish va bekor qilishga qaratilgan harakatlar.

**Bilvosita daromad** – jismoniy shaxs qo'shimcha faoliyati natijasida oladigan daromad.

**Briks** – (ing.BRICS— Brazil, Russia, India, China, South Africa davlatlari bosh harflari qisqartmasi) – Braziliya, Rossiya, Hindiston, Xitoy va Janubiy Afrika Respublikasidan iborat, tez rivojlanayotgan mamlakatlardan iborat guruh. BRIK nomi birinchi marta tahlilchi Djim O'Neyl tomonidan 2001-yil noyabrda «Goldman Sachs» bankining "Building Better Global Economic BRICS" nom-

langan hisobotida taklif etildi. 2011-yil 18-fevralda JAR ni tashkilotga qo'shilishi bilan, guruh BRIKS deb nomlana boshlandi. Yirik, iqtisodiy tahlil bilan shug'ullanuvchi kompaniya OoShtap Zask fikri bo'yicha 2050-yilga borib, guruh davlatlari iqtisodiyotining yalpi miqdori, dunyoning eng boy mamlakatlari (katta sakkizlik) iqtisodiyotining yalpi miqdoridan oshib ketadi. Ushbu guruh davlatlari dunyo quruqligini 25%ni egallaydi, 40% aholisi 15,435 trln.dollarga teng YalM-gaega. Lekin, «Goldman Sachs» bankining xulosasiga ko'ra, ushbu to'rt davlat, biror-bir siyosiy ittifoq tuzmasa kerak, – deb aytiladi. Braziliya, Rossiya, Hindiston va Xitoy 40%ga yaqin (260 mln.t.) bug'doy, 50% cho'chqa go'shti (50 mln.t. oshiq), 30%dan ortiq qush go'shti, va 30% mol go'shti ishlab chiqaradi. (Jahon ishlab chiqarishiga nisbatan). Briks mamlakatlarida jahondagi haydalanadigan yerlarni yaqin 32%ga ega. Braziliya, Rossiya, Hindiston, Xitoy va Janubiy Afrika Respublikasi e'tiborli darajada integratsion imkoniyatlarga ega.

## D

**Dalil** – (ar.) – fikr, mulohaza va shu kabilarni tasdiqlovchi yoki voqea, hodisa va shu kabilar to'g'risida guvohlik, dalolat beruvchi fakt, isbot, narsa.

**Daosizm** – (xit. yo'l) Xitoy falsafasidagi ikki asosiy oqimning biri. Eramizdan avvalgi 6-5 asrlarda shakllangan. Asoschisi Lao-Szi. Tabiat bilan hamohang yashashga undagan. U zulmga qarshi chiqadi, ibtidoiy munosabatlarga qaytishga undaydi.

**Daromad** – bu ishlab chiqarilgan mahsulot narxining uni ishlab chiqarish sarf-xarajatlardan oshishi, shuningdek, har bir sinf, ijtimoiy guruh yoki alohida shaxsning yangi yaratilgan qiymatda mavjud bo'lgan va ular tomonidan o'zlashtirilgan ulushi.

**Davlat** – (ar. komronlik, boylik, hokimiyat) 1) keng ma'noda – muayyan hududda yashovchi, oliy hokimiyat organi tomonidan taqdim etiluvchi va uyushtiriluvchi odamlar jamoasi. Bu ma'noda u mamlakat va xalqni ifodalaydi. Masalan, o'zbek davlati; 2) siyosatshunoslikda, tor ma'noda – muayyan hududda oliy hokimiyatga ega tashkilot, muassasalar tizimi. U boshqa siyosiy tashkilotlar bilan bir qatorda (masalan, siyosiy partiya, harakatlar) mavjud. Davlat – muayyan hududda jamiyat va uning siyosiy tizimini tashkil etish usuli, hokimiyatning markaziy instituti, jamiyatning siyosiy tashkiloti bo'lib, ma'lum bir hudud va unda yashovchi xalqlarni o'z ichiga oladi. Jamiyatni boshqaruvga tizim sifatida davlat ichki tizimga o'z vakolatlarini amalga oshirish uchun maxsus organlarga ega. Davlat odamlar va jamoat guruhlarining faoliyati hamda munosabatlarini tashkil etadi, ularni yo'naltiradi va nazorat qiladi.

**Davlat apparati** – (lotin. *apparatus* – asbob-uskuna) davlat boshqaruvining barcha darajasiga xizmat ko'rsatuvchi muassasalar, tashkilotlar, ularning xodimlari birligi. Markaziy va hududiy davlat apparati ajratiladi. Davlat apparati ikki asosiy va o'zaro bog'liq funksiyani amalga oshiradi. Birinchidan u davlat rahbarlari, siyosiy elitalari qarorlarini hayotga tatbiq etishi jarayonida ularning aholi bilan muloqotini yo'lga qo'ysa, ikkinchidan, aholidan ortga qaytuvchi aloqa vositasida ularning dav-

lat hokimiyati institutlariga murojaatini ta'minlaydi. Ana shu roli va nisbatan mustaqil mavqeyi davlat apparatining davlat boshqaruvidagi alohida ahamiyati va zaruratini asoslaydi. Davlat apparati ijro hokimiyati tarkibida alohida o'rin egallaydi, chunki u orqali qonunchilik va sud hokimiyati qarorlari amalga oshiriladi.

**Davlat belgilari** – davlat siyosiy sifatida bir qator belgilarga ega: **Birinchi**dan, davlat albatta muayyan hududga va aholiga ega bo'lgan tashkilot. Davlat hokimiyati muayyan hudud va shu hududda yashovchi aholini qamraydi. Davlatning yaxlitligi fuqarolik instituti bilan ta'minlanadi. Har qanday davlat geografik chegaraga ega. **Ikkinchi**dan, siyosiy hokimiyatning bir turi sifatida davlat jamiyatni boshqarishga ixtisoslashgan ommaviy hokimiyat institutlariga ega: qonunchilik, ijro, sud hokimiyati institutlari. Mamlakatda tartibni saqlash, xavfsizlikni ta'minlash va zarur bo'lganda kuch ishlatish uchun armiya, tartibni saqlash va nazorat xizmatlari amal qiladi. **Uchinchi**dan, davlat ijtimoiy hayotni huquq asosida tashkil etadi. Faqat davlatgina barcha uchun majburiy qonunlar qabul qilish huquqiga ega. Bu talablarni davlat ma'muriy apparat va sudlar yordamida amalga oshiradi. **To'rtinchi**dan, davlat oliy hokimiyat egasi. Bu – davlat hokimiyati hokimiyatning boshqa turlaridan ustunligi, barcha uchun majburiyiligi, boshqa hokimiyatlar qarorlarini bekor qila olishida, bir qator mutlaq huquqlarga egaligi (masalan, soliq solish, kuch ishlatishga qonuniy huquq, qonun chiqarish) aholiga ta'sir ko'rsatish uchun zo'rlik apparatining mavjudligi. **Beshinchi**dan, davlat jamiyatning barcha a'zolarining doimiy manfaatlarini ifodalovchi yagona institut. Qolgan institutlar shu ma'noda xususiy deb qaralishi mumkin. Davlat shu tariqa legitimlash instituti hamdir.

**Davlat boshlig'i** – (inglizcha "head of the state") -oliy davlat lavozimi bo'lib, u ijro hokimiyati sohibi va tashqi munosabatlar sohasida davlatning oliy vakili hisoblanadigan shaxs. Monarxiyalarda – Buyuk Britaniya, Daniya, Shvetsiya, Ispaniya, Yaponiyada – d.b. monarx (korol, imperator, emir) bo'lib,uning hokimiyati qoidaga ko'ra, hukmron shajara vakilidan keyingisiga qonunga binoan meros tariqasida o'tkaziladi. Respublikalarda (Italiya, Fransiya, GFR, AQSH, Lotin Amerikasi davlatlari va b.) d.b. Prezident bo'lib, u yoki bevosita aholi tomonidan saylanadi (Meksika, Panama, Kolumbiya), yoki bilvosita (AQSH, Argentina), yoxud ko'p bosqichli saylovlar (Italiya, GFR, Hindiston) natijasida saylanadi. Ko'pchilik davlatlarda individual davlat rahbari mavjud, prezidentlik respublikalarida davlat rahbari ayni paytda hukumat rahbari ham hisoblanadi (AQSH, Meksika, Argentina. Afrikaning ayrim davlatlarida). Davlatdagi ijro hokimiyatini boshqaruvchi va tashqi munosabatlarda oliy vakil bo'lgan ma'muriy shaxs. Davlat hokimiyati yaxlitligi va barqarorligini ta'minlaydi, davlatni ichki va tashqi siyosatda taqdim etadi. Monarxiy davlatlarda – monarx, respublika boshqaruvida – prezident. O'zbekistonda respublika boshqaruvi amal qiladi va davlat boshlig'i Prezident hisoblanadi. Prezident davlat hokimiyati organlari faoliyatini uyg'un borishini ta'minlaydi. U fuqarolar huquq va erkinliklarining, Konstitutsiya va O'zbekiston Respublikasi qonunlarining amal qilishini kafolotlaydi, davlatning ichki va tashqi siyosatidagi ustuvor yo'nalishlarni belgilaydi, mamlakat ichkarisida va xalqaro maydonda O'zbekiston nomidan chiqadi. Prezident O'zbekiston Respublikasi fuqarolari tomonidan umumiy, teng va to'g'ridan-to'g'ri saylovlar orqali yashirin ovoz berish yo'li bilan yetti yil muddatga saylanadi. O'zbekiston Respublika-

si Prezidenti etib 35 yoshdan kichik bo'lmagan, davlat tilini yaxshi biladigan, bevosita Prezident saylovigacha kamida 10 yil O'zbekistonda muqim yashagan respublika fuqarosi saylanishi mumkin. Bir shaxs ketma-ket ikki muddatdan ortiq O'zbekiston Prezidenti bo'la olmaydi (O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, 90-modda).

**Davlat boshqaruvi** – davlat organlarining tashkillashtiruvchi, ijro etuvchi va farmoyish beruvchi faoliyati bo'lib, qonun asosida amalga oshiriladi. Bu faoliyatni davlat boshqaruv organlari amalga oshirib, ijro etish jarayonida qonunlarning va unga asoslangan hujjatlarning bajarilishini ta'minlash uchun farmoyish berish huquqiga ega bo'ladi. Davlat boshqaruvi xalq deputatlari kengashining rahbarligi va nazorati ostida tashkil etiladi. Bu faoliyat ijtimoiy turmushning barcha tarmoqlari – xalq xo'jaligi, ijtimoiy-madaniy, ma'muriy-siyosiy sohalarda va sohalararo tashkil etiladi hamda qonunga asoslangan bo'ladi.

**Davlat boshqaruvi usullari** – davlat tomonidan boshqaruv sohasidagi vazifalar qanday hal qilinishi tushuniladi. Ular boshqaruv faoliyatini sifat tomonini belgilab beradi. Shuning uchun ham boshqaruv sifatini yaxshilash, uning samaradorligini oshirish ko'p jihatdan boshqaruv usullarini takomillashtirishga bog'liqdir. Davlat o'z oldiga qo'yilgan maqsadlarga erishish yo'lida vazifa va funksiyalarni bajarish uchun turli xil usullardan foydalanadi. Ishontirish va majburlash keng tarqalgani ma'muriy usullardir.

**Davlat boshqaruvi tizimi** – davlat organlari jamiyat siyosiy hayotining barqarorligi va tartibini ta'minlash imkonini beruvchi usullar, vositalar, mexanizmlar birligi. Davlat boshqaruvi tizimi rivojlanishi davlat hokimiyatining bo'linishi hamda markaz va mintaqalar manfaatlarining birligi va o'ziga xosligi tamoyillariga asoslanadi. Davlat rivojlanishning umummilliy ustuvor yo'nalishlarini, ichki va tashqi siyosat tamoyillarini, mahalliy davlat organlari vakolatlarini hamda o'z-o'zini boshqaruv organlari faoliyati chegaralarini belgilab beradi.

**Davlat boshqaruv organi** – bu hokimiyat organlari tizimining bir qismi bo'lgan, qonunlar va boshqa normativ-huquqiy hujjatlarni ijro etish va ijrosini ta'minlash maqsadida davlat tomonidan tashkil etiladigan, boshqaruv harakatlarning maxsus shakl va uslublaridan foydalanib, davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarida boshqaruv funksiyalarini amalga oshiradigan, tegishli tuzilishga, vakolatlarga va davlat xizmatchilari shtatlariga ega bo'lgan tashkilotdir.

**Davlat funksiyalari** – davlat uni boshqa siyosiy institutlardan farqlovchi bir qator muhim funksiyalarni bajaradi. Odatda, davlatning ichki va tashqi funksiyalari ajratiladi. Ichki funksiyalarga iqtisodiy, ijtimoiy, tashkiliy, huquqiy, siyosiy, ta'limiy, madaniy-tarbiyaviy va h. vazifalar, tashqi funksiyalarga global muammolarni hal etishda ishtirok etish; milliy xavfsizlikni ta'minlash; o'zaro foydali hamkorlikni rivojlantirish; xalqaro munosabatlarda davlat manfaatlarini himoya qilish kiritiladi. Davlatning iqtisodiy funksiyasiga iqtisodiy jarayonlarni soliq va kredit siyosati vositasida tashkil etish, uyg'unlashtirish, tartibga solish, iqtisodiy o'sish uchun imkoniyatlar yaratish yoki sanksiyalar qo'llash singari tadbirlar kiritiladi. Ijtimoiy funksiyaga odamlarni ish, uy-joy, sog'liqni saqlash tizimi xizmatlari bilan ta'minlash, keksalar va nogironlarga, ishsizlarga, yoshlarga ijtimoiy kafolatlar yaratish, hayot, mulk, sog'liqni sug'urta qilish xizmatla-

rini ta'minlash singarilar kiradi. **Huquqiy** funksiyaga tartibni ta'minlash, huquq sohasini rivojlantirib borish, ijtimoiy tizimni himoya qilish singari vazifalar kiradi. **Madaniy-tarbiyaviy** funksiya aholining madaniy ehtiyojlarini qondirishga, insonlarni jahon ma'naviyati durdonalaridan bahramand bo'lishlari uchun sharoitlar yaratishga va inson o'zini ijodda namoyon etishi uchun imkoniyatlar yaratishda namoyon bo'ladi. Davlatning **siyosiy** funksiyasiga jamiyatda siyosiy barqarorlikni ta'minlash, hokimiyatni amalga oshirish, siyosiy kursni ishlab chiqish va aholining manfaatlarini uyg'unlashtirish kiradi.

**Davlat granti** – ijtimoiy foydali maqsadlarga erishishga qaratilgan loyihalarni amalga oshirish uchun O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti mablag'lari, shuningdek, jamoat fondlarining mablag'lari hisobidan nodavlat notijorat tashkilotlariga va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlariga ularning buyurtmalari bo'yicha tanlov asosida beriladigan pul mablag'lari va moddiy resurslardir. Davlat grantlarini ajratish Oliy Majlis huzuridagi jamoat fondi, shuningdek, Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi, xalq deputatlari viloyatlar va Toshkent shahar Kengashlari huzuridagi nodavlat notijorat tashkilotlarini va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarini qo'llab-quvvatlash jamoat fondlari orqali amalga oshiriladi. Davlat granti – davlat granti ijtimoiy foydali maqsadlarga erishishga qaratilgan loyihalarni amalga oshirish uchun Davlat byudjeti mablag'lari, shuningdek jamoat fondlarining mablag'lari hisobidan nodavlat notijorat tashkilotlariga va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlariga ularning buyurtmalari bo'yicha tanlov asosida beriladigan pul mablag'lari va moddiy resurslardir.

**Davlat nazorati** – davlat organlari chiqaradigan qonunlar va boshqa huquqiy hujjatlarga rioya qilinishini ta'minlaydigan davlat hokimiyatini amalga oshirish shakllaridan biri. Davlat nazoratini turli organlar amalga oshiradi. Odatda nazorat vazifasi asosan parlamentlarda to'plangan, ammo keyingi o'n yillikda ko'pgina mamlakatlarda parlamentdan tashqari, biroq parlament nomidan ish yuritadigan nazorat instantsiyalari keng tarqaldi (masalan, *ombudsman*, *hisob palatasi*), *ma'muriy yustitsiya* organlarining soni va roli o'sdi. Barcha davlatlarda moliya vazirligi keng nazorat huquqiga ega. Hozirgi kunda har bir mamlakatlarda o'z davlat nazorati tizimi shakllangan. Masalan, AQSHda Davlat nazoratini Prezident, ijro etuvchi apparatiga kiruvchi organlar, AQSH kongressining qo'mita va komissiyalari amalga oshiradi, konstitutsiyaviy nazorat AQSH Oliy sudi zimmasiga yuklangan, nazoratchi boshchilik qiluvchi hisobdorlik bosh boshqarmasi moliyaviy nazoratning maxsus idoralararo nazorat vazifasi ko'pgina tarmoqli idoralar: MRB, FTB, Mudofaa vazirligi va boshqalar zimmasiga yuklangan.

**Davlat hokimiyati** – ijtimoiy-siyosiy hokimiyat shakli. U maxsus kuch ishlatish apparatiga tayanadi va butun aholini qamraydi. Siyosiy hokimiyatning oliy ko'rinishi. Belgilari: 1) ham tashkilot, ham shu tashkilot maqsadlarini amalga oshirish bo'yicha faoliyat; 2) maxsus boshqaruv va zo'rlik apparatining mavjudligi.

**Davlat ijtimoiy buyurtmasi** – davlat ijtimoiy buyurtmasi davlat organi va nodavlat notijorat tashkiloti yoki fuqarolik jamiyatining boshqa instituti o'rtasida shartnoma tuzish yo'li bilan sotsial va ijtimoiy ahamiyatga molik loyihalar-

ni amalga oshirish uchun ishlar bajarish yoki tadbirlar o'tkazishga doir davlat topshirig'idan iborat bo'ladi. Davlat organi va nodavlat notijorat tashkiloti yoki fuqarolik jamiyatining boshqa instituti o'rtasida shartnoma tuzish yo'li bilan sotsial va ijtimoiy ahamiyatga molik loyihalarni amalga oshirish uchun ishlar bajarish yoki tadbirlar o'tkazishga doir davlat topshirig'idan iborat bo'ladi. Davlat ijtimoiy buyurtmalarini berish Oliy Majlis huzuridagi jamoat fondi, shuningdek, Qorakalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi, xalq deputatlari viloyatlar va Toshkent shahar Kengashlari huzuridagi nodavlat notijorat tashkilotlarini va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarini qo'llab-quvvatlash jamoat fondlari orqali amalga oshiriladi.

**Davlat organi** – davlat mexanizmining tarkibiy qismi bo'lib, u davlat oldida turgan vazifa va funksiyalarning muayyan konkret qismini, yo'nalishini amalga oshiradi va shu maqsadda tegishli davlat-huquqiy vakolatlariga, zaruriy kompetensiyaga ega bo'ladi. **D.o.** bitta mansabdor shaxsdan yoki muayyan yo'sinda tashkillashgan mansabdor shaxslar guruhidan iborat bo'lishi mumkin.

**Davlat ramzlari** – «O'zbekiston Respublikasi qonun bilan tasdiqlanadigan o'z davlat ramzlari – bayrog'i, gerbi, va madhiyasiga ega». (O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 5-moddasi)

**Davlat shakllari** – davlatning ichki tuzilishiga oid uch tarkibiy qism birligi: boshqaruv shakli; davlatning ma'muriy-hududiy tuzilishi shakli; siyosiy rejim shakli.

**Davlat subsidiyasi** – sotsial va ijtimoiy ahamiyatga molik faoliyatni amalga oshirayotgan nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarini qo'llab-quvvatlash uchun O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti, davlat maqsadli jamg'armalari mablag'lari hisobidan beriladigan hamda aniq loyihalar bilan bog'lik bo'lmagan moliyaviy yoki boshqa moddiy ko'makdir. Davlat subsidiyalaridan faqat nodavlat notijorat tashkilotlarining va fuqarolik jamiyati boshqa institutlarining ustavida belgilangan maqsad va vazifalarni bajarish, moddiy-texnik bazasini mustahkamlash hamda ijtimoiy foydali maqsadlarga erishish uchungina foydalaniladi.

**Davlat tasarrufidan chiqarish** – davlat mulki hisobidan boshqa nodavlat mulk shakllarining vujudga keltirilishi.

**Davlat buyurtmasi** – davlat tomonidan korxonalar va tashkilotlarga muayyan mahsulot turini tayyorlash va uni iste'molchilarga etkazib berish, ishlab chiqarish, noishlab chiqarish va ilmiy – tadqiqot xarakteridagi ma'lum ishlarni bajarish uchun beriladigan topshiriq.

**Davlat mulki** – jamiyatdagi mulkchilik shakllaridan biri. Davlat mulki ikki yo'l bilan paydo bo'ladi: 1) xususiy mol-mulkni milliy lashtirib davlat qo'lga olish; 2) davlat mablag'lari hisobidan korxonalar qurish.

**Davlat korxonalari** – davlat mulki bo'lgan va uning nazorati ostida faoliyat ko'rsatuvchi korxonalar hisoblanadi.

**Davlat byudjeti** – davlat tomonidan o'z funksiyalarini amalga oshirish uchun sarflanadigan markazlashtirilgan pul fondidir.

**Davlat qarzi** – davlatning o'z fuqarolari, korxonalar va tashkilotlar, shuningdek, xorij mamlakatlaridan qarzi. Manbayiga qarab ichki va tashqi DQ ga bo'linadi.



**Davlatning kelib chiqishiga oid nazariyalar** – siyosiy fikr tarixida davlatning kelib chiqishini tushuntiruvchi bir qancha nazariyalar mavjud. **Teokratik nazariya** davlatning kelib chiqishini ilohiy tushuntiradi. Ilohiylik davlat hokimiyatining avtoritetini kuchaytirgan, davlat qarorlarini esa majburiylikni ta'minlagan. **Patriarxal Konsepsiya** davlatni katta oila sifatida talqin etadi: unda monarx va uning fuqarolari munosabatlari ota va farzandlar munosabati sifatida ta'riflangan. Davlat bu Konsepsiyaga ko'ra urug'larning qabilalarga, qabilalarning jamoalarga, jamoalarning davlatga birlashishi natijasida vujudga kelgan. Monarx o'z fuqarolari to'g'risida g'amxo'rlik qilishi, fuqarolar esa monarx irodasiga bo'ysunishlari kerak bo'lgan. Davlat kelib chiqishining **istilo** nazariyalari qadimdan kuchlilar kuchsizlarni istilo qilishlari natijasida vujudga kelganligini asoslaganlar. Bu yondashuvning ayrim tarafdorlari shu tariqa davlatning kelib chiqishidanoq zulm va istibdodga tayanishini ko'rsatib, davlatga qarshi kurashga undagan bo'lsalar (anarxistlar Shtirmer, P.Prudon, M.Bakunin), ayrimlari (G.Gegel, F.Nitshe) davlat insonlar tashkil etgan eng qudratli tashkilot sifatida himoyaga muhtojlarga yordam bera olishini asoslagan va davlatni ijobiy tushuntirgan. XVII–XVIII asrlarda davlat kelib chiqishining **shartnoma nazariyasi** ishlab chiqildi. Davlat odamlarning "yovvoyi" holatdan "madaniy" holatga chiqishga urinishi sifatida, ya'ni o'z xavfsizligi, mulki, erkinligini himoya qilish vositasi sifatida kelishuv asosida tuzilgan. Shartnoma nazariyasi davlat kelib chiqishini siyosiy talqin etuvchi nazariyadir. Uning asoschilari Gobbs, Lokk, Russo, zamonaviy siyosiy fanda Djon Roulslardir. Bu nazariya uch asosiy fikrga tayanadi: davlatsiz jamiyat obrazi beriladi (tabiiy holat) – tartibsizlik; odamlar bu holatdan chiqish uchun ijtimoiy shartnoma tuzishga harakat qiladilar (aslida bu shartnoma bo'lmagan, bu tushuncha odamlar o'zlarini go'yo shunday bitim bordek tutishlarini istaganlarini ifodalaydi); ijtimoiy shartnoma odamlarga bergan barqarorlik va xavfsizlik evaziga ular davlatni hurmat qilishlari va unga itoat etishlari kerak. Gobbs fikricha, barqarorlik va tartibni faqat mutlaqo cheklanmagan kuchli davlat tomonidan amalga oshirilishi mumkin, ya'ni davlatga qarshi norozilik ham, e'tirozlar ham qabul qilinmaydi. Bu fikrni to'ldirgan holda Lokk davlat hokimiyatiga qarama – qarshi tura oladigan teng kuch fuqarolik jamiyati ekanligini, davlat va fuqarolik jamiyati munosabatlarini tartibga soluvchi konstitutsiyaviy va vakolatli hokimiyat singari vositalar amalda mavjud bo'lishi kerakligini asoslagan. Marksizm – (XIX a.) davlatning **kapitalistik nazariyasini** ishlab chiqqan. Shuni ta'kidlash kerakki, marksizm davlatning tugal nazariyasini yaratmagan. Unga ko'ra davlat iqtisodiy bazis asosida vujudga keluvchi ustqurmaning bir qismi, ya'ni davlat kelib chiqishi to'laligicha iqtisodiyot, xususiy mulk kelib chiqishi va buning natijasida jamiyatda vujudga kelgan sinflar, ular o'rtasidagi tengsizlik munosabatlari mahsulidir. Iqtisodiyotda hukmron sinf o'z manfaatlarini himoya qilish maqsadida davlatni yaratgan (bir sinfning boshqalarini ekspluatatsiya qilish quroli). Sinflarning yo'qolishi bilan davlat ham yo'q bo'ladi.

**Davlatning ma'muriy-hududiy tuzilishi shakli** – hokimiyat vakolatlarining mahalliy va markaziy hokimiyat institutlari o'rtasida taqsimlanishi turli davlatlarda turlicha shakllarda amalga oshirilishi mumkin bo'lib, bu davlat hokimiyatining turlicha ma'muriy-hududiy shakllarida namoyon bo'lishiga (davlat tuzilishi shakli-

lariga) olib keladi. Davlat tuzilishining uch shakli ajratiladi: unitar, federativ va konfederativ. Bu turkumlashning asosini suverenitet tushunchasi tashkil etadi.

**Davlat xizmati** – ariza beruvchilarning so'rovlariga ko'ra amalga oshiriladigan, davlat organlarining vazifalarini bajarish bo'yicha ular tomonidan ko'rsatiladigan xizmat. Agar qonun hujjatlariga muvofiq davlat xizmatlari ko'rsatish funksiyalari boshqa tashkilotlar zimmasiga yuklatilgan bo'lsa, ular ham davlat xizmatini ko'rsatishlari mumkin; davlat xizmati – ma'muriy huquqning markaziy institutlaridan biri, davlat organlari vakolatlarining bajarilishini ta'minlash bo'yicha kasbiy faoliyat.

**Daxldorlik hissi** – fuqarolarning tug'ilgan joyi, ona Vatani, mustaqillikni anglash, uni asrab-avaylash, himoya qilish, uni yanada rivojlantirishga chorlaydigan, shart-sharoit, omillar majmuyi.

**Debatlar** – fr. muhokama, tortishuv, fikr almashinuvi. Parlament debatleri – deputatlar o'rtasida qonunchilik masalalari bo'yicha yoki hukumat faoliyati bo'yicha fikrlar almashinuvining rasmiy o'rnatilgan tartibi. Davlat hukumat faoliyatini matbuotda, namoyish va yig'inlarda jamoatchilik tomonidan muhokama qilingan holda ham qo'llanadi.

**Deideologizatsiya** – (lot. mafkurani bekor qilish) ijtimoiy qarama-qarshiliklar yo'qolishi bilan hozirgi dunyoda mafkuraning ham yo'q bo'lishini asoslovchi Konsepsiya. Unga ko'ra ilmiy–texnik taraqqiyot muammolarni mafkura ta'siridan holi ilmiy va texnik vositalar bilan hal qilish imkonini beradi.

**Dehqon xo'jaligi** – oilaviy mulkka asoslanuvchi, oila a'zolari yoki qarindoshlarning birgalikda mehnati bilan er uchastkalarida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish va sotishni amalga oshiruvchi yuridik shaxs maqomiga ega bo'lgan tovar xo'jaligidir.

**Deklaratsiya** – (lot. bayon etuvchi, tushuntiruvchi) 1) xalqaro huquqda tomonlar tarafidan maqullangan umumiy tamoyillar va maqsadlar; 2) soliqqa tortiladigan fuqaroning daromadi haqidagi ma'lumotnoma; 3) chegara orqali boylik yoki tovar olib o'tishda bojxonaga taqdim etiladigan bildirishnoma; 4) bayonot, davlat, hukumat bayonoti.

**Deklarativ** – umumiy, asoslanmagan, konkretlashtirilmagan bayonot.

**Delegativ demokratiya** – argentinalik olim O'.Donnel tomonidan demokratiya va avtoritarizm belgilarini uyg'unlashtiruvchi siyosiy tartibotni nomlash uchun kiritilgan atama. Uning belgilariga quyidagilar kiradi: 1) ijro hokimiyati boshlig'ining muntazam ravishda saylovlar vositasida saylanishi va shu muddatda uning millat manfaatlari ifodachisiga aylanishi; 2) hokimiyat institutsionallashuvining quyi darajasi; 3) ijro hokimiyatini cheklovchi mexanizmlarning deyarli yo'qligi; 4) fuqarolarning huquq va erkinliklari mavjudligi; 5) qonunchilik hokimiyatining rasmiy tabiati; 6) siyosatning keskin vositalarga tayanib olib borilishi; 7) manfaatlarni kelishtirish mexanizmlarining yo'qligi. Vakillik demokratiyasidan farqli delegativ demokratiyada ijro hokimiyatining vertikal hisobotlilik mavjud bo'lgani holda (saylovlar), gorizontallik hisobotlilik mexanizmlari mavjud emas (hokimiyatlar bo'linishi). D.D. oraliq tizim bo'lgani uchun rivojlanshining ikki yo'li mavjud: birinchisida D.D. avtoritarizmga qaytishi, ikkinchisida vakillik demokratiyasiga o'tishi mumkin.

**Delimitlash** – (lot. chegaralarni oʻrnatish) davlat chegarasini, uning oʻtish joylarini batafsil tavsiflash va boshqa davlat bilan bu haqida tuzilgan shartnomaga asosan uni haritaga tushirish.

**Demagog** – (gr. xalqni ergashtiraman) oʻz faoliyatida koʻpchilikni chalgʻitadigan usullardan, nutq mahoratidan foydalanuvchi kishi; faqat oʻz manfaatini koʻzlovchi siyosatchi.

**Demarkatsiya** – (fr. ajratib, cheklab qoʻyish) – chegaradosh davlatlar oʻrtasida tuzilgan shartnoma va bitimlarga asosan davlat chegaralarini aniqlash va uni maxsus chegara belgilari bilan belgilash. Demarkatsiya chizigʻi – sulh tuzgan ikki dushman armiyasi oʻrtasidagi chiziq.

**Demarsh** – (fr. diplomatik chiqish) bir hukumat yoki uning idoralari boshqa hukumatga iltimos, norozilik, ogohlantirish va boshqa ogʻzaki yoki yozma bayonotlar bilan murojot qilishi.

**Demilitarizatsiya** – (lot. harbiy... + bekor qilinishi) biror davlat yoki uning maʼlum bir hududining toʻla yoki qisman qurolsizlanishi. Davlatning qurolli kuchlarga, harbiy istehkom va bazalarga, harbiy sanoat va boshqalarga ega boʻlishini toʻla yoki qisman taqiqlab qoʻyuvchi xalqaro shartnoma bilan belgilanadi.

**Demobilizatsiya** – fr. 1) armiya shaxsiy tarkibi sonini kamaytirish yoki haqiqiy xizmat muddatini oʻtab boʻlgan harbiy xizmatchilarni boʻshatish; 2) qurolli kuchlarni, shuningdek, xalq xoʻjaligining muayyan tarmoqlarini harbiy holatdan tinchlik holatiga oʻtkazish; 3) (majoziy maʼnosi) faollikning, hushyorlikning, quvvatning tushib ketishi.

**Demografiya** – (gr. xalq kezaman) aholi tarkibini – uning jinsi, yoshi, mashgʻuloti va boshqa belgilariga qarab harakati, tugʻilishi, nikohi, oʻlimi va h. jarayonlarni oʻrganuvchi fan.

**Demokratik institutlar** – bu, davlat va jamiyatda demokratik tuzumni shakllantiruvchi demokratik tamoyillarni amalga oshirishning tashkiliy shakllari hisoblanadi. Demokratik institutlar – jamiyat hayotida demokratik tamoyillarni qaror topishga xizmat qiladigan tashkilotlar va tuzilmalar majmuasi.

**Demokratik kuchlar bloki** – parlamentdagi koʻpchilikni tashkil etish maqsadida oʻz dasturiy maqsadli vazifalarining yaqinligidan yoki mosligidan kelib chiqqan holda bir nechta siyosiy partiyalar Fraksiyalari va Oʻzbekiston ekologik harakatidan saylangan deputatlar oʻz saʼy-harakatlarini birlashtirishi.

**Demokratiya** – (gr. xalq hokimiyati) xalqni hokimiyat manbai deb tan olishga, uning davlat ishlarini hal qilish huquqini, boshqa huquq va erkinliklarni keng qamrovi bilan birgalikda eʼtirof etishga asoslangan siyosiy tizim. Demokratiya soʻzi "xalq hokimiyati" sifatida tarjima qilinadi. Bu maʼnoda, yoki "boshqaruvda toʻgʻridan-toʻgʻri ishtirok" maʼnosida demokratiyani qabila-urugʻchilik jamiyatlari-dayoq uchratish mumkin. Ibtidoiy jamiyatdagi oʻz-oʻzini boshqaruv demokratik edi: har bir qabila aʼzosining jamoa hayotida ishtiroki tabiiy ravishda belgilanar edi. Bu davrda jamoa va uning aʼzolari manfaatlarini bir-biriga mos tushar, hozirgi maʼnodagi siyosat yoʻq edi. *Hokimiyat va jamiyat munosabatlarining muayyan shakli* maʼnosida, yaʼni siyosiy maʼnosida demokratiya toʻgʻrisida qadimgi Yunoniston davridan soʻz yuritish mumkin. Jamoaviy demokratiya va harbiy-qabilaviy demokratiyalarni bunday siyosiy tushunish va tushuntirish

mumkin emas. Antik davridayoq demokratiya rivojida ikki yo'nalish belgilandi: birinchisi, o'z-o'zini boshqaruvchi demokratiya, ya'ni fuqarolarning to'g'ridan-to'g'ri ishtirokini nazarda tutuvchi tartib. Bu tartib u yoki bu tarzda barcha jamiyatlarda amal qiladi, xususan, bizning tariximizda ham boshqaruv elementi tarzida mavjud bo'lib kelgan. Ikkinchisi, umumxalq vakillik demokratiyasi. U fuqarolarning tengligi, burchlar, qonun oldida javob berish va qonun asosida hukm yuritish, xalq hokimiyatining vakillar orqali amalga oshirilishi tamoyillariga asoslanadi va uning ibtidosini biz Qadimgi Rim imperiyasi tuzilishida ko'ramiz. Demokratiya (yunoncha, "demos" – xalq, "kratos" – hokimiyat) – xalq hokimiyati ma'nosini anglatib, xalqni hokimiyat manbai, deb biluvchi siyosiy tizimni shakli. Demokratiya insonni har tomonlama barkamol rivojlanishi uchun berilgan imkon bo'lib, davlat konstitutsiyasida ozchilikning ko'pchilikka bo'ysunishi tamoyili rasmiy e'lon qilindi hamda fuqarolarning erkinligi teng huquqligi e'tirof etildi. Demokratiya har bir davrning ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlariga mos shakllanib, rivojlanib boruvchi chegarasiz tabiiy – tarixiy jarayondir. Hozirgi vaqtda **demokratiya** – *xalqni hokimiyat manbai, deb e'tirof etuvchi, fuqarolar tengligi, ozchilik huquqlarini himoyalovchi, davlatning asosiy organlari – saylovlar natijasida shakllanuvchi siyosiy tizim turi* sifatida tushuniladi. Demokratiyaning jamiyat hayotini tashkil etish usuli sifatidagi eng muhim afzalliklari unda boshqa boshqaruv usullariga nisbatan hokimiyatni cheklash, uning barqarorligini saqlash va uni bir qo'ldan ikkinchisiga o'tishi mexanizmlarining atroflicha ishlab chiqqilganidir. Mana shu xususiyatlari, xamda jamiyatdagi ixtiloflarni tinch yo'l bilan muhokama, yon bosish, kelishuv orqali hal qilishga asoslanganligi – bugungi kunda ko'p mamlakatlar uchun demokratiyani jozibali va ma'qul rivojlanish yo'liga aylantirmoqda. Demokratiyaning liberal, konservativ, populistik, kommunistik va anarxisik talqinlari, plyuralistik va elitar Konsepsiyalari, to'g'ridan-to'g'ri va vakillik demokratiyasi to'g'risidagi g'oyalar, bir qancha modellari mavjud.

**Demokratiya tadbirlari** – saylovlar, saylangan mansabdor shaxslarning hisobotliligi, vakillarni chaqirib olish, qonun loyihalari va boshqa hujjatlarini umumxalq muhokamasi, referendumlar, so'rovlar, namoyishlar, yig'ilishlar, syezdlar, chet el tashriflari va h.k., xalqning davlat va jamiyat ishlarida keng qamrovli va samarali ishtirokini ta'minlovchi tadbirlar.

**Demokratiya tamoyillari** – hokimiyat asosiy organlarining saylanishi, siyosiy plyuralizm, qarorlarning ko'pchilik ovozi bilan qabul qilinishi, kamchilikning o'z nuqtayi nazariga ega bo'lishi va uni oshkora ifodalash hamda himoya qila olish huquqi.

**Demokratlashuv** – nodemokratik siyosiy tizimlardan demokratik siyosiy tizimlarga o'tish jarayoni. U demokratiya tamoyillarini o'rnatish, demokratik tuzum barpo qilish, demokratik tadbirlarni amalga oshirish singari tushunchalarni qamraydi. Zamonaviy siyosiy fanda demokratlashuv masalalarini tranzitologiya fani o'rganadi. Ko'zga ko'ringan vakillari – S.Xantington, D.Rastou, A.Pshevorskii va h. Ularga ko'ra demokratlashuv – natijasi mavhum bo'lgan jarayon bo'lib u demokratiyaning uzil-kesil qaror topishi – uyushgan demokratiya yoki avtoritar tizimning u yoki bu ko'rinishiga qaytish bilan tugallanishi mumkin.

**Denaturallashtirish** – bir davlat fuqarosining ana shu davlat fuqaroligidan chiqishi yoki undan mahrum qilinishi.

**Denonsatsiya** – (fr.) bir davlat tomonidan ikkinchi davlatga o'zaro tuzilgan shartnomaning bekor qilinganligi to'g'risida xabar berilishi.

**Departament** – (fr.) 1) ba'zi mamlakatlarda Vazirliklar, Senat va boshqa oliy organlar bo'limlarining nomi; 2) Fransiyada ma'muriy-hududiy birlik; 3) AQSH, Shveysariyada vazirlik shunday nomlanadi.

**Deportatsiya** – (lot. chiqarib yuborish) shaxsni davlat tashqarisiga majburiy chiqarib yuborish.

**Deprivatsiya** – subyekt o'zi intilayotgan holat bilan amalda erishgan narsalari o'rtasidagi farqlar natijasida vujudga keluvchi norozilik holati. Deprivatsiya Konsepsiyalari siyosiy xulq-atvorning norozilik, qarshilik harakatlari singari ko'rinishlarini tushuntirish uchun qulay. G'arb siyosatshunosligida Deprivatsiyaning bir qancha modellari ishlab chiqilgan (J.Devis va T.Gurr). Nisbiy Deprivatsiya – odamlarda qadriyatlarining adolatsiz taqsimlanishi to'g'risidagi tasavvurlarning mavjudligi va ularning bunga qarshi faoliyat ko'rsatish uchun tayyorligi. T.Gurr Deprivatsiyani "qadriyatli kutishlar" va "qadriyatli imkoniyatlar" o'rtasidagi tafovut sifatida ta'riflaydi. Qadriyatli tasavvurlar o'zgarishi bilan avval barchani qoniqtirgan ijtimoiy imkoniyatlar va iste'mol darajasi birdaniga nomaqbul bo'lib qoladi. Hayotning yangi darajasiga qarab intilish bilan mavjud imkoniyatlar o'rtasida tafovut vujudga keladi. Bu hodisa "ortib borayotgan kutishlar inqilobi" nomini olgan. Ikkinchi modelda deprivatsiya kelib chiqishi holati quyidagicha tasvirlanadi: avvalgi intilishlar saqlanadi, kutishlar darajasi ham avvalgidek, lekin hayotiy standartlar keskin pasayadi, subyekt ixtiyoridagi qadriyatlar hajmi qisqaradi. Bunday holat "olib qo'yilgan foydalar inqilobi", deb nomlangan. Uchinchi model progressiv deprivatsiya deb nomlanib, u o'ziga birinchi va ikkinchi model unsurlarini oladi. J.Devis bu holatni o'sib borayotgan va qondirilayotgan ehtiyojlar to'sib qo'yila boshlanganida vujudga keluvchi asabiylik va g'azab bilan bog'laydi. Deprivatsiya vujudga kelishi sabablarini to'g'ri baholash xulq-atvordagi noma'qul holatlarning oldini olish imkonini beradi.

**Deputat** (lot. *deputatus* – vakil) – qonunchilik yoki davlatning boshqa vakillik organiga yoki mahalliy o'zini o'zi boshqarish organiga saylangan shaxs, aholining ma'lum qismi – o'z saylov organi (sotsialistik deb atalmish mamlakatlarda) saylovchilarning yoki butun millatning (demokratiya davlatlarida) vakili. Deputat muvofiq keluvchi vakillik organida professional asosda (ko'pchilik demokratiya davlatlarida) yoki noprofessional asosda, ya'ni asosiy faoliyatini to'xtatmay (sotsialistik deb atalmish mamlakatlarda) ishlaydi. "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi deputatining va senati a'zosining maqomi to'g'risida"gi qonunning 1-moddasiga ko'ra O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasiga (bundan buyon matnda Qonunchilik palatasi deb yuritiladi) saylangan va «O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylov to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga muvofiq O'zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasi tomonidan ro'yxatga olingan O'zbekiston Respublikasi fuqarosi deputat hisoblanadi.

**Deputatlik so'rovi** – deputat tegishli hududda joylashgan davlat hokimiyati

va boshqaruvi organlarining mansabdor shaxslariga ularning vakolatlariga kiradigan masalalar yuzasidan asoslantirilgan tushuntirish berish yoki o'z nuqtayi nazarini bayon qilish talabi bilan deputat so'rovi yuborishga haqlidir.

**Deputatlikka nomzod** – O'zbekiston Respublikasi qonunlarida belgilangan tartibda davlat hokimiyatining saylab qo'yiladigan organiga a'zolikka da'vogar sifatida ko'rsatilgan shaxs. Nomzod passiv saylov huquqiga ega bo'lishi shart. Qonunchilik palatasiga saylanish huquqiga saylov kuni yigirma besh yoshga to'lgan hamda kamida besh yil O'zbekiston Respublikasi hududida muqim yashayotgan fuqarolar egadir. Saylov kuni yigirma bir yoshga to'lgan hamda kamida besh yil O'zbekiston Respublikasi hududida muqim yashayotgan O'zbekiston fuqarolari xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlariga saylanish huquqiga ega.

**Deputatlikka nomzodlik maqomidan mahrum etish** – Oliy Majlisning Qonunchilik palatasiga saylovlar davrida siyosiy partiya, saylovchilar tashabbuskor guruhi u yoki bu shaxsni deputatlikka nomzod etib ko'rsatish to'g'risidagi o'z qarorini saylovga kechi bilan besh kun qolganda bekor qilish huquqiga ega. Bunda o'sha shaxs Markaziy saylov komissiyasi tomonidan deputatlikka nomzodlik maqomidan mahrum etilishi mumkin. Siyosiy partiya deputatlikka nomzodlar ko'rsatish muddati tugaguniga qadar Markaziy saylov komissiyasiga yangi nomzodni ro'yxatga olish to'g'risida taklif kiritishi mumkin. Ro'yxatga olingan deputatlikka nomzodlar ularni deputatlikka nomzod etib ko'rsatgan siyosiy partiya o'z faoliyatini tugatgan taqdirda ham Markaziy saylov komissiyasi tomonidan deputatlikka nomzodlik maqomidan mahrum etilishi mumkin. "Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlariga saylov to'g'risidagi qonunga muvofiq siyosiy partiya, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organi, saylovchilar tashabbuskor guruhi u yoki bu shaxsni deputatlikka nomzod etib ko'rsatish to'g'risidagi o'z qarorini saylovga kechi bilan besh kun qolganda bekor qilish huquqiga ega, bu shaxs tegishli viloyat, tuman yoki shahar saylov komissiyasi tomonidan deputatlikka nomzodlik maqomidan mahrum etilishi mumkin. Siyosiy partiya, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organi deputatlikka nomzodlar ko'rsatish muddati tugaguniga qadar tegishli viloyat, tuman yoki shahar saylov komissiyasiga yangi nomzodni ro'yxatga olish to'g'risida taklif kiritishi mumkin.

**Desentralizatsiya** – nomarkazlashtirish; markaziy hokimiyat organlari vakolatlarining bir qismini mahalliy hokimiyat organlari, o'zini o'zi boshqarish organlari va nodavlat tashkilotlarga berish; markazlashuvni bo'shashtirish yoki bekor qilish, tugatish.

**Despotiya** – (gr. cheksiz hokimiyat) hech qanday qonunlar bilan cheklanmagan hokimiyat shakli, mutlaq hokimiyatga, qonunsizlikka, o'z boshimchalik va zo'raonlikka asoslangan monarxiya.

**De-yure** – (lot.) huquqiy, huquqqa ega, rasmiy.

**Dezinformatsiya** – (fr. axborotni inkor etish) ijtimoiy fikrni chalg'itish maqsadida tarqatiladigan yolg'on, ig'vo axborot.

**Diaspora** – yun. diaspora – tarqalish ma'nosida bo'lib, ma'lum bir davlat hududida yashovchi, ammo boshqa bir davlatda o'z davlat tuzilmasiga ega,

ma'lum bir xalq millat vakillarining yig'indisi (masalan O'zbekistonda yashovchi rus, ukrain millatining diasporasi).

**Differentsiatsiya** – (lot. differentia-farqlash, har xillik); taqsimlanish, nimanidir alohida turli xil unsurlarga ajralishi, bo'laklarga bo'linish.

**Diktator** – (lot. qat'iy buyuruvchi, aytganini qildiruvchi) Qadimgi Rimda favqulodda ahvol yuz bergan vaqtda Senat tavsiyasi bilan vaqtincha yoki mudatsiz qo'yiladigan va butun hokimiyatga ega hukmdor; biror boshqaruv yoki xo'jalik organida cheklanmagan hokimiyatga ega bo'lgan shaxs.

**Diktatura** – biror sinf yoki guruhning siyosiy hukmronligi.

**Dilemma** – (gr. ikki bor + taxmin) 1) bir-birini inkor etadigan ikki yo'nalishdagi fikr yoki xulosa; bunda uchinchi yo'l bo'lishi mumkin emas; 2) vaziyatlar, sharoitlar yig'indisi bo'lib, unda ikki qarordan bittasini tanlab olish kerak bo'ladi.

**Din** – (arab. ishonch, ishonmoq) – 1) ijtimoiy-ma'naviy hayot hodisasi, ilohiy kuchlarga ishonch asosida shakllangan g'oya va qarashlar tizimi; 2) borliqni yaratuvchi va boshqaruvchi oliy mavjudotga, ya'ni Xudoga nisbatan mun-t, tasavvur, urf-o. va marosimlar majmuyidir. Ibadat obyektlariga ko'ra – jonivorlarga, ruhlarga, jin-alvasti, butlarga, turli ilohlarga va Allohga sig'inuvchi diniy ta'limotlar bir-biridan farqlanadi. Genezisi va tarqalishiga ko'ra dinning eng qad., milliy va jahon dinlari kabi shakllari mavjud. har bir aniq din o'ziga xos sig'inish obyekti va rasm-rusum, ibodat, urf-o. va aqidalarga ega. din va diniy ta'limotlar ilohiyotchilar (ulamolar), ateistlar (D.ni inkor etuvchilar) va dinshunoslar tomonidan o'rganilgan. D.ning paydo bo'lishi tog'risida yagona fikr yo'q. Islom dini ta'limotiga ko'ra, din – Alloh tomonidan o'z payhambarlari orqali bashariyat olamiga joriy etilajagi zarur bo'lgan ilohiy qonunlardir. Tabiat va insonni yaratgan, ayni vaqtda insonga to'g'ri, haqiqiy hayot yo'lini ko'rsatadigan va o'rgatadigan ilohiy qudratga ishonchni ifoda etadigan ta'limot. D. – ijt-y-tarixiy hodisa, kishilik jam-ti tar-yotining muayyan bosqichida paydo bo'lgan ijt-y ong shakllaridan biri. Umuminsoniy qadriyatlar yondashuviga ko'ra, u muayyan ta'limotlar, his-tuyg'ular, toat-ibodatlar va diniy tashkilotlarning faoliyatida namoyon bo'ladigan olam, hayot yaratilishini tasavvur qilishning alohida usulidir. D.ning mohiyati turlicha izohlansa-da, uning asosida ishonch, e'tiqod tuyg'usi yotadi. Insoniyat tarixida D. turli shakllarda namoyon bo'lgan. D.ning dastlabki ko'rinishlari fetishizm, totemizm, animizm, sehrgarlik va b.dir. Sh-dek, urug'-qabila D.lari, milliy D.lar (iudaizm, hinduiylik, sintoizm, daosizm, konfutsiychilik), jahon D.lari (buddizm, xristianlik, islom) vujudga kelgan. Yer kurrasida eng ko'p tarqalgan, jahon xalqlarining asosiy qismi e'tiqod qiluvchi va jahon dinlari: buddaviylik, xristianlik va islomdir. D. inson hayotida muhim ahamiyatga ega bo'lgan murakkab ijt-y, ma'n-y, ruhiy vazifalarni ham bajaradi. Xus-n, u aholini ruhiy, axloqiy va ma'n-y qadriyatlardan, tarixiy va mad-y merosdan bahramand etish uchun xizmat qiladi. Ayni paytda har bir D. turli urf-o., marosim va bayramlar yordamida o'z qavmi turmushini tartibga solish, nazorat qilish uchun xizmat qiladi. O'zbekiston mustaqillikka erishgach, D. mad-y-ma'n-y omillarning umumiy tizimiga kiruvchi qadriyat sifatida e'tirof etildi. Mam-timizda vijdon erkinligining kafolatlari O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida, "Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar tog'risida"gi qonunda (1998-yil 1- mayda qabul qilingan)

bayon etilgan, D.dorlarning o'z D.iy burchlarini to'la ado etishlari uchun barcha shart-sharoitlar yaratilgan.

**Diniy ekstremizm** (ekstremizm – o'ta degani) – xavfsizligimizga tahdid soluvchi tashqi omillardan biri bo'lib, u barcha diniy tashkilotlarda faqat o'zi sig'inadigan dinni to'g'ri deb, boshqa har qanday dunyoqarashning to'g'riligini inkor etuvchi (keskin choralar va harakatlar tarafdorlari bo'lgan), o'ta fanatik (mutaassib) dindor yoki dindorlarning faoliyati tushuniladi. Ekstremizmning diniy sohada namoyon bo'lish shakli. Ekstremizm lot. "extremus" muammolarni hal etishda o'ta keskin chora-tadbirlarni, fikr-qarashlarni yoqlovchi naz-ya va amaliyotni anglatadi. D.E. ham ana shu tamoyillarga asoslanadi. U namoyon bo'lishiga ko'ra hududiy, mintaqaviy, xalqaro shakllarga bo'linadi. Bunday qarashlar juda qadimiy ildizlarga ega bo'lib, hech qachon chegara bilmagan, din, millat, hududni tan olmagan, diniy ekstremizm barcha dinlar doirasida rivojlangan. D.e. ruhidagi qarashlarni buddizm, xristianlik, islom, katoliklar, protestantlar, provaslavlilar orasida birday uchratish mumkin. Diniy ekstremistlar qayerda faoliyat ko'rsatmasin, asosiy maqsadi diniy davlatni barpo qilish bo'lib, bu maqsadga o'zaro nizolar, ixtiloflar, qurolli to'qnashuvlar orqali ya'ni, qon to'kish va zo'rlik bilan erishishni ko'zlaydilar. Bu esa, mustaqillikka ham, jam-t tar-yotiga ham katta g'ov bo'ladi. Ekstremistik guruhlarining yagona maqsadi hokimiyatni qo'lga olish bo'lib, bu yo'lda ular eng jirkanch usullarni qo'llashdan ham tap tortmaydilar. Bugungi kunga kelib nafaqat islom dunyosi, balki butun jahonda diniy ekstremizmning asl qiyofasi to'la-to'kis namoyon bo'lib qolmoqda. Dunyoda inson huquqlari va demokratik tamoyillar ustuvor bo'lib borayotgan, qonun hamda xalqaro huquq qoidalari mam-tlar, xalqlar, davlatlar orasidagi mun-tlarning asosiy tamoyiliga aylanayotgan hozirgi davrda diniy ekstremizmga o'rin qolmayapti. Ammo bu unga qarshi kurashmaslik, hushyorlikni oshirmaslikni bildirmaydi. Mazkur sohada ham ogohlik, ezgu g'oyalar yo'lida kurash olib borish hayot va faoliyatning asosiy mezonini bo'lib qolmoqda.

**Diniy fundamentalizm** (lotincha – asos degani) – barcha dinlarda o'z ilohiy yozuvlarini ishonch uchun asos sifatida "so'zsiz" qabul qilib, ushbu dinlar paydo bo'la boshlagan dastlabki fundamental g'oyalarga qaytish, me'yorlar va tamoyillarga asoslangan davlat barpo qilish, diniy aqidalarni har qanday yo'llar bilan joriy qilishga urinishdir.

**Diniy shovinizm** – faqat o'z dini va e'tiqodinigina to'g'ri deb, qolgan har qanday e'tiqodni va qarashlarni inkor etuvchi mutaassib kishining mafkurasi. Diniy shovinizm tarafdorlarining fikricha, o'z maqsadlariga yetishish uchun har qanday vositadan, shu jumladan, hatto qurol vositasidan foydalanish qonuniydir. Diniy shovinizmni kuchayishi boshqa xalqlarda va diniy e'tiqodga sig'inuvchilarda milliy va madaniy agressivlik kayfiyatlarining tug'ilishiga sababchi bo'ladi. Bu esa ijtimoiy barqarorlikka rahna soluvchi omildir.

**Dinlararo munosabatlar** – din asosida yuzaga kelgan turli ta'limotlarga e'tiqod qiluvchi ayrim kishilar, kichik yoki katta guruhlar o'rtasidagi xilma-xil aloqalar. Bu ij-t-y mun-tlarning alohida turi bo'lib, dinlarning unda o'zaro harakat qiluvchi turli jihati va xossasi – ular ta'limoti, e'tiqodi, tashkilotlari va b.lar namoyon bo'ladi. Ko'plab xus-yatlar orasida quyidagilar asosiy bo'lib hisoblanadi: a)



hududiylik (sintoizm) – asosan Yaponiya hududida tarqalgan, induizm – Hindistonda, islom, buddaviylik, xristianlik barcha qit'alarda; b) vaqt bo'yicha (iudaizm 3000-yildan ko'proq, xristianlik 2000-yilga yaqin, hoz. islom 15 asrdan buyon mavjud). Ushbu jihatlar ham D.m.ga tarixiy ta'sir ko'rsatgan. Shaxs lararo diniy mun-tlar kundalik hayotiy faoliyat bilan bog'langan. Guruhiy D.m. diniy vakillar muzokaralarida, diniy nizolar va urushlarda yuzaga keladi; tinchlik vaqtida ham ayni bir mam-t hududida istiqomat qiluvchi xalqlar orasidagi turli e'tiqoddagi kishilarning diniy rahbarlari o'rtasida ham tinch-totuv yashash, bir-birlari bilan murosa qilish xususida muloqotlar amalga oshirilishi mumkin. Diniy faoliyatning turli ko'rinishlari o'ziga xos D.m.ni yuzaga keltiradi. Mas., o'z diniy ta'limotini himoya qilish va b.larini tanqid qilish, b. e'tiqoddagilarni o'ziga og'dirish uchun da'vat qilish jarayonida ham D.m. ro'y beradi.

**Dinamizm** – (gr. kuch) rivojlanishning kuchli, tezkor, yuqori sur'atlari. Sekin, qat'iyatsiz harakat, turg'unlik, bir joyda turib qolishning aksi.

**Diniy bag'rikenglik** – bizning dunyomizdagi turli boy madaniyatlarni, o'zini ifodalashning va insonning alohidaligini namoyon qilishning xilma-xil usullarini hurmat qilish va to'g'ri tushunishni anglatadi. Uni bilim, samimiyat, ochiq muloqot hamda hurfikr, vijdon va e'tiqod vujudga keltiradi.

**Diniy e'tiqod** – dinning chinligiga iymon keltirish, diniy qoida, an'ana, aqidalarga ishonish.

**Diplomat** – (fr. ikki buklangan qog'oz) 1) chet mamlakatlar bilan aloqada bo'lish yoki muzokaralar olib borish uchun hukumat tomonidan tashqi ishlar muassasasiga vakil qilingan lavozimli kishi; 2) (majoziy ma'nosi) boshqa kishilarga ustalik bilan muomalada bo'ladigan va o'z ishining nozik tomonlaridan, qonun-qoidalaridan, muzokaralar olib borish san'atidan yaxshi xabardor bo'lgan kishi.

**Diplomatik immunitet** – (lot. immunitet – nimadandir ozod bo'lish) chet el diplomatlari (elchi, elchixonaxodimlari) shaxsi va ular egallagan binolarning daxlsizligi, mahalliy sud tomonidan sud qilinmasligi, o'z hukumati bilan yashirin aloqa qilish huquqi va boshqa huquq va imtiyozlar yig'indisi.

**Diplomatik korpus** – 1) biror mamlakat hududidagi chet el diplomatik vakolatxonalarini boshliqlaridan iborat hay'at. Unga elchilar ichidan saylangan oqsoqol (duayen) boshchilik qiladi; 2) keng ma'noda – mazkur davlat birinchi Prezidentigi diplomatik immunitet huquqidan foydalanadigan chet el vakolatxonalarining barcha xodimlari.

**Diplomatiya** – tashqi munosabatlar yoki xorijiy ishlar to'g'risidagi fan. Tor ma'noda – muzokara yuritish san'ati yoki bilimi. Diplomatiya – davlat tashqi siyosati maqsad va vazifalarini amalga oshirish, uning huquq va manfaatlari, shuningdek, chet eldagi muassasa va fuqarolarini himoya qilish bo'yicha davlatlar, hukumatlar, tashqi ishlar vazirlari, chet eldagi diplomatik vakolatxonalar, xalqaro anjumanlardagi delegatsiyalarni rasmiy faoliyati.

**Diskreditatsiya** – fr. kimgadir bo'lgan ishonchni yemirish, kimningdir obro'sini tushirish.

**Diskurs** – (lot. suhbat, muloqot) gumanitar fanlarda keng qo'llanadigan, lekin yagona ta'rifga ega bo'lmagan atama. Odatda diskurs deganda biron maq-

sad bilan aytilgan fikrlarning har qanday birligi yoki ijtimoiy amaliyot sifatida tushuniladigan nutqiy faoliyat, biron mavzuda yoki yo'nalishda jamiyatda kechayotgan muhokama nazarda tutiladi.

**Disput** – (lot. fikrlash, tahlil qilish, bahslashish) 1) og'zaki ilmiy bahs; ommaviy ma'ruzadan so'ng avvaldan belgilangan opponentlar ishtirokidagi munozara.

**Disskusiya** – (lot. tadqiqot, tahlil) yig'ilishda, matbuotda, xususiy suhbatda qandaydir masalani muhokama qilish, bahs.

**Diversifikatsiya** – lot. diversification – o'zgarish, turli-tumanlik, faoliyatni har tomonlamava turli-tuman yo'nalishlarda rivojlantirishga strategik mo'ljal olish. Masalan, kapitalni diversifikatsiyalash – iqtisodiy tavakkalchilikning xavfli oqibatini kamaytirish maqsadida kapital mablag'larni turli obyektlar o'rtasida bo'lib-bo'lib joylashtirish.

**Diversiya** – (lot. cheklanish) maxsus tayyorlangan guruh yoki shaxslar tomonidan amalga oshiriladigan qo'poruvchilik harakati.

**Dogma** – (gr. ta'limot, shakllanib bo'lgan fikr) muayyan vaziyatga to'g'ri kelmay qolsa ham ko'r-ko'rona qo'llanadigan qoida, hamma vaqt va sharoit uchun shak-shubhasiz, o'zgarmas, deb hisoblanadigan haqiqat.

**Doimiy yashash senzi** – qonun bilan belgilangan tartib. Unga ko'ra, fuqaro saylov huquqiga ega bo'lishi uchun muayyan mamlakatda ma'lum muddat yashagan bo'lishi kerak.

**Doktrina** – lot. ta'limot, ilmiy yoki falsafiy nazariya, qarashlar, aqidalar ko'rsatmalar tizimi. O'zbekiston Respublikasi g'arbiy doktrinasini – (doktrina-ta'limot, nazariya) 1995-yil 30 – avgustda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan Harbiy doktrina qabul qilingan. Bu hujjat davlatimizning harbiy siyosati asosida harbiy faoliyat hamda harbiy qurilishning yo'nalishlari va tamoyillarini belgilaydi.

**Dotatsiya** – (lot. sovg'a, sadaqa) – tashkilot, korxonalariga davlat tomonidan beriladigan yordam puli, moddiy yordam, qo'shimcha to'lov. Asosan zararni qoplash va boshqa maqsadlar uchun ishlatiladi.

**Dualistik monarxiya** – mutloq monarxiyadan parlamentar monarxiyaga o'tish shakli. Konstitutsion monarxiya ko'rinishi sifatida qaraladi. unda monarx asosan ijro hokimiyati va qisman, qonunchilik hokimiyati egasidir. Marokash, Quvayt, Iordaniya.

**Dualizm** – (lot.) ikki taraflamalik (shuningdek, falsafadagi dunyo asosida ikkita mustaqil bosh sabab – ruh va modda, ideallik va moddiylik mavjud degan qarashlar haqidagi ta'limot).

**Diskriminatsiya** – (lot. diskriminatio – farqlash) – a) ma'n-y yoki siyosiy kamsitishni anglatadigan t.; b) biron bir shaxs, millat yoki davlat huquqlarining boshqa davlat, millat yoki shaxs huquqlariga nisbatan cheklanishi. Demokratik davlatlarning qonunlarida hamda xalqaro huquqda D.ning barcha shakllari, jumladan, fuqarolar huquqlarini millati, irqi, jinsi, dini sababli amalda yoki yuridik jihatdan kamsitishga yo'l qo'yish taqiqlanadi. O'z-n Konstitutsiyasi va davlatimiz qonunlarida barcha fuqarolarning teng huquqliligi kafolatlangan va mam-timizda D.ning hech qanday ko'rinishiga yo'l qo'yilmaydi. Tarixda dunyoning turli mintaqalarida D.ning ko'plab shakl-

lariga misollar keltirish mumkin. AQSHda qulchilik Amerikaning oltinchi Prezidenti Avraam Linkolin tomonidan bekor qilinganligiga qaramay, qora tanli fuqarolarning irqiga ko'ra kamsitish faqatgina XX a.ning 60-yillarida barham topgan. D. o'z mohiyatiga ko'ra, insonning qadr-qimmatini kamsitishi, hayotiy rejalarini barbod qilishi tufayli uning ma'yatini yemiradi, insonning munosib hayot kechirishini xavf ostiga qo'yadi. Sh.u. ham 1948-yilda BMT tomonidan qabul qilingan Inson huquqlari Umumjahon deklaratsiyasida inson huquqlarini uning millati, dini, jinsi va irqiga ko'ra kamsitish taqiqlangan. Bu hujjat insoniyat uchun ulkan g'alaba bo'ldi, zero, u tarixning ko'plab davrida yuz bergan D.ning turli shakllarini to'la-to'kis bartaraf etish, inson zoti bu jirkanch ijt-y illat tufayli chekkan zahmatlariga chek qo'yish ehtiyojlaridan kelib chiqqan edi. O'z-n jahon hamjam-tinging tenghuquqli a'zosi sifatida ushbu hujjatni qabul qilgan. Irqi, jinsi, millati, yoshi va ijt-y kelib chiqishidan qat'i nazar mam-timiz fuqarolarining tenghuquqli ekanligining qat'iy belgilab qo'yilganligi mam-timizda bunyod etilayotgan demokratik davlat va Fuqarolik jam-tinging insonparvarlik tamoyillariga to'la mos kelishini ko'rsatadi.

**Deportatsiya** – jinoiy yoki ma'muriy jazo chorasi sifatida davlatdan majburan chiqarib yuborish.

**Davlat dini** – tegishli diniy institutning davlat rasmiy tashkiloti tarkibidagi qismi deb tan olinishini bildiradigan konstitutsiyaviy-huquqiy institut.

**Davlat siri** – g'arbiy, iqtisodiy va siyosiy xususiyatga ega. Alohida davlat ahamiyatiga molik bo'lgan va davlat tomonidan maxsus qo'riqlanadigan ma'lu-motlar.

**Davlat yurisdiksiyasi** – davlat sud va ma'muriy organla – rining o'z vakolatlaridan kelib chiqib ishlarni ko'rib chiqish va hal etish huquqi.

**Demarsh** – bir davlat tashqi aloqa organlarining boshqa davlatga nisbatan favqulodda chiqishi.

**Denominatsiya** – pul muomalasini tartibga solish va milliy valyutaga ko'proq salmoq berish maqsadida mamlakat pul birligini yiriklashtirish.

**Davlat tuzilishi** – davlatning ma'muriy hududiy tuzilishi, uning bo'laklari, markaziy organlari, bu organlarning joylardagi mahalliy organlar bilan o'zaro aloqalarining xususiyatlaridan iborat.

**Dispozitsiya** – huquq normasining «yuragi» bo'lib, u gipotezada nazarda tutilgan holatlar va sharoitlarga daxldor subyektlar bo'ysunishi lozim bo'lgan xatti-harakat qoidasi.

**Davlat ekologiya nazorati** – atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va aholining ekologik xavfsizligini ta'minlash qoida-talablarini barcha vazirlik, davlat qo'mitalari, idoralar, yuridik shaxslar, mansabdor shaxslar va jismoniy shaxslar tomonidan bajarilishi yuzasidan maxsus vakolatli organlarning tekshirish va choralarni ko'rish bilan bog'liq faoliyat.

**Davlat ekologik ekspertisasi** – bu O'zbekiston Respublikasi Davlat tabiatni muhofaza qilish ko'mitasining ixtisoslashtirilgan ekspert bo'linmalari tomonidan amalga oshiriladigan ekologik ekspertiza turi.

**Dispozitiv normalar** – taraflarning o'z ixtiyorlari bilan to'ldirilishi mumkin

bo'lgan va shartnomalarda huquqiy munosabatlar ishtirokchilarining o'zaro kelishuvi bo'yicha tartib – ga solinishi mumkinligini ko'rsatadigan normalar.

**Dam olish vaqti** – xodim mehnat vazifalarini bajarishdan xoli bo'lgan va bundan o'z ixtiyoriga ko'ra foydalanishi mumkin bo'lgan vaqt.

## E

**E'tiqod erkinligi** – insonning shaxsiy huquq va erkinliklari ichida markaziy o'rinda bo'lib, inson ma'naviy olamini, qarashlarini belgilovchi, shakllantiruvchi omil.

**Egalitarizm** – (fr. tenglik) o'zining oliy qadriyati sifatida tenglikni e'tirof etuvchi ijtimoiy-siyosiy nazariya. Egalitarizm g'oyalari diniy ta'limotlar, o'tmishdagi ko'pgina xalq harakatlari tarixiga borib taqaladi. Siyosiy fikr tarixida J.J. Russo, G. Babeflar tomonidan asoslangan. Bugungi kunda tenglik masalasiga turlicha yondashuvlar shakllanganligini ko'ramiz: yangi liberallar va sotsial-demokratlar Egalitarizmga mo'tadil qarash tarafdorlari. Ular imkoniyatlar tengligi va natijalar tengligi o'rtasida kompromiss yo'lini izlaydilar, mulkdagi tengsizlikni yumshatish, daromadlar o'rtasidagi tafovutlarni kamaytirish borasida faoliyat olib boradilar. Bunda asosiy vosita – davlatning faol iqtisodiy siyosati (soliq siyosati, dotatsiyalar, ijtimoiy dasturlar va h.). Yangi konservatorlar tenglik erkinlik va inson tabiatiga zid bo'lgani uchun unga juda salbiy munosabatdalar. Sun'iy ravishda yaratiluvchi natijalar tengligi jamiyat, avvalo, uning iqtisodiy tizimining samarali faoliyat ko'rsatishiga to'sqinlik qilishi, boqimandalik kayfiyatini tarbiyalashini ta'kidlaydilar. Egalitarizm – fran. egalite-tenglik; umumiy tenglashtirishni jamiyatni tashkil etishning prinsipi g'oyasiga asoslangan ijtimoiy-siyosiy fikr yo'nalishlaridan biri.

**Ekologik nazorat** – ekologik nazorat atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan okilona foydalanish sohasidagi qonun hujjatlari talablari buzilishining oldini olish, uni aniqlash va unga chek ko'yishga, tabiatni muhofaza qilish faoliyati samaradorligini oshirishga qaratilgan davlat va jamoatchilik chora-tadbirlari tizimidir. Ekologik nazorat – atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish sohasidagi qonun hujjatlari talablari buzilishining oldini olish, uni aniqlash va unga chek ko'yishga, tabiatni muhofaza qilish faoliyati samaradorligini oshirishga qaratilgan davlat va jamoatchilik chora-tadbirlari tizimidir. Ekologik nazoratning asosiy prinsiplari qonuniylik, xolislik, mustaqillik, oshkoralik, shaxs, jamiyat hamda davlatning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishdan iboratdir.

**Ekologik tanglik** – insonlar jamiyatining tabiatni o'zgartirishdagi ulkan imkoniyatlarga ega bo'lishi bilan ekosferadagi barqarorlikni qayta ta'minlash jarayonlari o'rtasidagi ziddiyatning namoyon bo'lishi.

**Ekspansiya** – (lot. kengaytirish) davlat siyosati. U diplomatik, iqtisodiy va harbiy vositalar yordamida boshqa davlatlarga o'z ta'siri doirasini kengaytirishni anglatadi.

**Ekspert** – (lot. tajribali) muayyan masala yuzasidan ekspertiza o'tkazish uchun, xulosalarini berish uchun taklif qilingan mutaxassis.

**Ekspertiza** – muayyan masalaning mutaxassislar tomonidan tekshirilishi, hal etilishi.

**Elat** – bir tilda so'zlashuvchi, o'ziga xos madaniyati mavjud bo'lgan va ma'lum hududda yashaydigan hamda muayyan maqsad asosida birlashgan va o'z tuzilmasiga ega bo'lgan ijtimoiy-tarixiy birlik tushuniladi. Elat – kishilarningtil, hudud, iqtisodiy va madaniy jihatdan tarixan tarkib topgan birligi.

**Elchixonona** – suveren davlatning boshqa suveren davlat birinchi Prezidenti diplomatik vakolatxonasi. Shu vakolatxona joylashgan bino.

**Elektorat** – (lot. elector – saylovchi ma'nosini anglatadi) – parlament, prezidentlik yoki mahalliy hokimiyat organlarini saylovlarda ovoz berish yo'li bilan shakllantiruvchi aholi; muayyan mezon bo'yicha tanlangan saylovchilar doirasi. Masalan, tegishli partiya elektorati deganda ushbu partiya uchun ovoz beradigan saylovchilar tushuniladi. Elektorat o'zi qo'llayotgan nomzodlarning yoki partiyalarning nufuzli, ta'sirga ega kuchga aylanishini ta'minlaydi, uning faoliyati qirralarini belgilaydi. Demokratiya sharoitida elektoratning ko'rsatmalari, maqsadlari va manfaatlari siyosiy partiyalar va yetakchilarning siyosiy dasturlariga aylanadi. Elektoratning shakllanishi manfaatlar birligi asosidagina emas hududiy asosda ham amalga oshirilishi mumkin. Masalan, AQSHda shimoliy shtatlarning aholisi demokratlarga, g'arbiy shtatlar esa – respublikachilarga ovoz beradi. Elektorat – saylovlarda ma'lum siyosiy partiyaga (siyosiy lider) ga ovoz beruvchi saylovchilar davrasi; ma'lum bir saylov okrugi yoki mamlakat saylovchilari majmuyi.

**Elektorat** – lot. «lektor» – saylovchi ma'nosini anglatadi. Elektorat muayyan mezon bo'yicha tanlangan saylovchilar doirasi. Masalan, tegishli partiya elektorati deganda ushbu partiya uchun ovoz beradigan saylovchilar tushuniladi. Har bir partiya o'z elektoratini ko'paytirishga intiladi. Elektorat saylovlarda u yoki bu partiyaga ovoz beradigan saylovchilardir. Masalan, sotsial-demokratik partiyalar elektorati asosan, ishchilar, ziyolilar, xizmatchilar, mayda mulkdorlardan iborat. AQSH demokratik partiyasi elektoratini odatda, mamlakatning rangli aholisi tashkil etadi. Bir saylovdan keyingi saylovgacha u yoki bu partiyaning elektorati soni va sifati jihatlaridan o'zgarib turishi mumkin. Masalan, Buyuk Britaniyada Leyboristlar partiyasi Liberallar partiyasini ikkipartiyaviy tizimdan siqib chiqarganidan keyin leyboristlar elektorati liberallar hisobiga sezilarli darajada ko'paydi.

**Elektron hukumat** – (angl. e-Government) – bu fuqarolar, biznes, davlat hokimiyatining boshqa tarmoqlari va davlat xizmatchilariga axborotni taqdim qilish va shakllanib bo'lgan davlat xizmatlarining to'plamini ko'rsatish usulidir, bunda davlat va arizachi o'rtasidagi o'zaro shaxsiy aloqa minimallashtirilgan va imkon boricha maksimal ravishda axborot texnologiyalardan foydalaniladi. Elektron hukumat – mamlakat miqyosida boshqaruv jarayonlarning butun majmuasini avtomatlashtirishga asoslangan hamda davlat boshqaruvining samaradorligini sezilarli darajada oshirish va jamiyatning har bir a'zosi uchun ijtimoiy kommunikatsiyalar xarajatlarini kamaytirish maqsadiga xizmat qiluvchi davlat boshqaruvi elektron hujjat almashinuvi tizimi. Elektron hukumatni yaratish hujjatlarni va ularni ishlash jarayonlarini boshqarish bilan bog'liq vazifalarning to'liq ko'lamini

hal etishni amalga oshiruvchi ijtimoiy boshqaruving umumdavlat taqsimlash tizimi qurilishini nazarda tutadi. Elektron hukumat – davlat organlarining jismoniy va yuridik shaxslarga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llash yo'li bilan davlat xizmatlari ko'rsatishga doir faoliyatini, shuningdek, idoralararo elektron hamkorlik qilishni ta'minlashga qaratilgan tashkiliy-huquqiy chora-tadbirlar va texnik vositalar tizimi; **Elektron hukumat** – davlat organlarining jismoniy va yuridik shaxslarga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llash yo'li bilan davlat xizmatlari ko'rsatishga doir faoliyatini, shuningdek idoralararo elektron hamkorlik qilishni ta'minlashga qaratilgan tashkiliy-huquqiy chora-tadbirlar va texnik vositalar tizimi. Davlat organlarining elektron hukumat sohasidagi faoliyati qonun hujjatlariga muvofiq ochiq va shaffof tarzda amalga oshiriladi. Ariza beruvchilarga elektron davlat xizmatlari ko'rsatish tartibi to'g'risidagi axborot ommabop va ochiqdir hamda u elektron davlat xizmatlari ko'rsatuvchi davlat organlarining rasmiy veb-saytlarida e'lon qilinadi. Elektron davlat xizmatlari ko'rsatuvchi davlat organlari ariza beruvchi so'rovining ko'rib chiqilishi holati va xizmatlar ko'rsatilishi natijalari to'g'risidagi axborotni tegishli xabarlarini elektron shaklda yuborish yo'li bilan uning talabiga ko'ra taqdim etadi. O'zbekiston Respublikasining elektron hukumat to'g'risidagi qonuni 2015-yil 9- dekabrda qabul qilingan.

**Ekspart** – tovarlar, xizmatlar, ishchi kuchi va kapitalni mamlakat tashqarisiga chiqarish.

**Elektron pul** – hisob-kitoblarni elektron hisoblash mashinalari yordamida amalga oshirish uchun qo'llaniladigan elektron kartochka, uning xotirasiga pul egasining joriy hisobidagi pul summasi yozilgan bo'ladi.

**Embargo** – chet el tovarlarini kiritish yoki chiqarish, olib chiqib ketishni davlat tomonidan ta'qiqlash yoki chet davlatga qarashli mulkni vaqtincha to'xtatib turish, ta'qiqlash.

**Emissiya** – muomalaga bank biletleri, pul va qimmatbaho qog'ozlarni chiqarish, davlatning emissiya banklari tomonidan amalga oshiriladi. E. asosan davlat byudjetidagi kamomadni to'ldirish, izdan chiqqan pul muomalasini tiklash maqsadida o'tkaziladi.

**Erkin narxlar** – talab bilan taklif nisbatiga bog'liq bo'lgan narxlar.

**Erkin iqtisodiy hududlar** – qo'shma tadbirkorlik hududlari, xorij kapitalini erkin amal qilishi uchun ajratilgan maxsus hudud, iqtisodiy o'sishni ta'minlash, ijtimoiy va ekologik muammolarni hal qilish maqsadida tashkil etiladi.

**Elektron raqamli imzo** – elektron hujjatning mazkur elektron hujjat axborotini elektron raqamli imzoning yopiq kalitidan foydalangan holdagi maxsus o'zgartirishlar natijasida olingan hamda elektron raqamli imzoning ochiq kaliti yordamida elektron hujjatdagi axborotda buzilishlar yo'qligini aniqlash va elektron raqamli imzo yopiq kalitining egasini identifikatsiyalash imkoniyatini beradigan imzosi. O'zbekiston Respublikasining elektron raqamli imzo to'g'risida qonuni 2003-yil 11- dekabrda qabul qilingan.

**Elektron hukumatning yagona identifikatorlari** – har bir jismoniy va yuridik shaxsga, kadastr va ko'chmas mulk obyektlariga, geografik va boshqa obyektlarga beriladigan, ularni elektron hukumatda identifikatsiyalash imkonini beruvchi noyob kodlar;

**Elektron davlat xizmatining reglamenti** – elektron davlat xizmati ko'rsatishga doir tartibni va talablarni belgilovchi normativ-huquqiy hujjat;

**Elektron davlat xizmati** – axborot-kommunikatsiya texnologiyalari qo'llanilgan holda ko'rsatiladigan davlat xizmati.

**Emansipatsiya** – (lot.) qaramlikdan, zulmdan, sarqitlardan ozod bo'lish.

**Embargo** – (isp. qamash) mamlakatga boshqa davlatdan mahsulot, valyuta, yuklar olib kirish yoki olib chiqib ketishni ta'qiqlash.

**Emigratsiya** – (lot. ko'chish, ko'chib ketish) ma'lum iqtisodiy, ijtimoiy (ko'pincha diniy) va siyosiy sababga ko'ra bir mamlakatdan ikkinchisiga ommaviy ko'chib ketish holati.

**Ensiklopediya** – (fr.) ma'lum qoidalar asosida tartibga solingan bilimlar to'plami, ilmiy yoki ilmiy-ommabop nashr.

**Erkinlashtirish** – mamlakatning demokratik jamiyatga o'tish va islohotlar o'tkazish jarayonida mavjud bo'ladigan turli to'siqlar, cheklashlar va yonberishga majbur etadigan omillardan qutilishga qaratilgan amaliy faoliyatdir. U demokratik jarayonlarning samarali rivojiga yangi kuch, quvvat va ilhom bag'ishlash imkoniyatini yaratadi.

**Erkin iqtisodiy zona** – mintaqani jadal ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish uchun mamlakat va chet el kapitalini, istiqbolli texnologiya va boshqaruv tajribasini jalb etish maqsadida tuziladigan, aniq belgilangan ma'muriy chegaralari va alohida huquqiy tartiboti bo'lgan maxsus ajratilgan hududdir. Erkin iqtisodiy zona hududida yuridik shaxslar va fuqarolar (jismoniy shaxslar) xo'jalik, moliyaviy va boshqa faoliyatning istalgan turlari bilan shug'ullanishiga yo'l qo'yiladi. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida man etilgan faoliyat turlari bundan mustasno. O'zbekiston Respublikasining erkin iqtisodiy zonalar to'g'risida qonuni 1996-yil 25 – aprelda qabul qilingan.

**Erkinlik** – etika, estetika, huquqshunoslik, siyosatshunoslik kabi ijtimoiy gumanitar bilim sohalarida keng ishlatiladigan fal'iy tushuncha. Lug'aviy ma'noda kishining o'z istagi bo'yicha ish tutishni anglatadi. E.ni jamiyatning turli sohalari b-n bog'lagan holda muayyan tushunchalar orqali talqin etiladi. Mas., vijdon erkinligi, Fuqarolar erkinligi, iroda erkinligi, fikr erkinligi, so'z erkinligi, matbuot erkinligi va h.k. E. haqidagi ilk falsafiy qarashlar Sharqda, "Avesto" zamonlaridayoq shakllangan. E.ni himoya qiluvchi siyosiy institutlar (Sparta va Afina demokratiyasi, Solon va Perikl islohotlari, Rim huquqi) tizimi g'arbda, aniqrog'i, qadimiy Yunoniston zaminida ham asta-sekin vujudga kelgan. Antik davrda E. borasida ilgari surilgan ta'limotlar uning zamonaviy konsepsiyalaridan tubdan farq qiladi. Mas., zamonaviy g'arbda konsepsiyalarda asosiy urg'u shaxsning siyosiy-iqtisodiy nazorat va aralashuvdan erkinligiga qaratilgan bo'lsa, yunonlar esa zo'ravonlikka tayanmagan, qonun asosida amalga oshiriladigan hokimiyatni tabiiy deb bilgan va jamiyatning shaxs ustidan hukmronligini tan olgan. Biroq antik davrdayoq ayrim faylasuflar shaxsiy E.ka intilish va jamiyat manfaat-ehtiyojlarini o'rtasida keskin ziddiyat vujudga kelishi mumkinligiga e'tibor qaratgan. Bu ziddiyat turli falsafiy oqim va maktablar vakillari tomonidan o'ziga xos tarzda hal etilgan. Mas., Aflotun va uning maktabiga mansub faylasuflar shaxs manfaatlarini jamiyat manfaatlariga to'liq bo'ysundirilishi zarurligini asoslashga intilgan.

Chunonchi, Aflotun "qonunlar" asarida "Voqelik sen uchun emas, sen voqelik uchun vujudga kelasan" deb yozadi. Kiniklar esa, aksincha, ijtimoiy hayot qadriyatlarini butunlay inkor etib, shaxs manfaatlari, uning erkinligining ustuvorligini yoqlab kelgan. Mazkur ta'limotni yunon faylasufi Antisfen yaratgan bo'lsa-da, falsafiy adabiyotda uning shogirdi, kinizm oqimining yorqin vakili – g'ayriodatiy xatti-harakati va yurish-turishi b-n shuhrat qozongan Diogen ko'proq tilga olinadi. Uning E. masalasiga oid qarashlari o'ta biryozlamaligi b-n ajralib turgan. Diogenning fikricha, inson erkinligi chek-chegarasiz bo'lishi, davlat ham, oila-nikoh munosatlari ham, axloqiy qadriyatlar ham unga to'sqinlik qilmasligi kerak. Bunday talqindagi E. jamiyat ma'naviy-axloqiy asoslarini yemirib, yovuz, buzg'unchi kuch sifatida namoyon bo'ladi. Ekzistensializm vakillarining fikriga ko'ra, E. insonning hayotdagi mas'uliyati, hamma qilgan ishlari uchun javobgar bo'lishidir. Tevarak-atrofdagi qilinayotgan hamma ishlar uchun aybni sezish – bu erkin insonga xos hissiyotdir. "Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi"ning birinchi moddasida: "hamma odamlar o'z qadr-qimmatini hamda huquqlari bo'yicha erkin va teng bo'lib tug'iladilar...", 18-moddasida esa: "... har bir inson fikr, vijdon va din erkinligi huquqiga ega; bu huquq o'z dini yoki e'tiqodini o'zgartirish erkinligini va ta'lim olish, toat-ibodat qilish hamda diniy rasm-rusm va marosimlarni ommaviy yoki xususiy tartibda ado etish, o'z dini yoki e'tiqodiga yakka o'zi, shuningdek, boshqalar b-n birga amal qilish erkinligini o'z ichiga oladi", deb ta'kidlanadi. O'zbekiston Respublikasida barcha fuqarolarning bir xil huquq va E.larga egaligi Konstitutsiya b-n kafolatlanadi. E'tiqod erkinligi insonning biror-bir dinga e'tiqod qilishida o'z ixtiyori b-n ish tutishini ifodalaydi. U insonning shaxsiy huquq va E.lari ichida markaziy o'rinda turuvchi qadriyatlardan biri hisoblanadi. E'tiqod erkinligi siyosiy, axloqiy, ilmiy, diniy va shu kabi xilma-xil turlarga bo'linadi. Inson o'z hayotida shu turlardan biriga alohida ixlos qo'yishi, shu turni o'z turmush tarzi, xatti-harakatlari, orzu-maqсадlari, intilishlarini belgilovchi tamoyil sifatida qabul qilishi mumkin. Vijdon erkinligi esa muayyan kishining biror dinga, g'oyaga e'tiqod qilishi yoki e'tiqod qilmasligini anglatadi. U dunyoviy yoki diniy bilimlar tarafdori bo'lishi mumkin. Kimning nimaga e'tiqod qilishi o'zining ixtiyorida. Biroq, bu tamoyil jamiyatdagi boshqa umuminsoniy talablarga va fuqarolik burchlarini tan olmaslik, turli aqidalarni mutlaqlashtirish, boshqalar uchun qadriyat bo'lgan narsalarni mensimaslikni bildirmaydi. Milliy istiqloq mafkurasi shaxs erkinligi g'oyasiga tayanadi. O'z haq-huquqini taniydigan, ayni paytda o'z manfaatlarini mamlakat va xalq manfaatlari b-n uyg'unlashtiradigan insongina milliy g'oyamiz tamoyillarini to'g'ri baholay oladi. Erkinlashtirish jaryonida inson haq-huquqini ta'minlash, insonparvarlik va umuminsoniy qadriyatlarga rioya etib yashash jamiyat hayotining asosiy mezoniga aylanadi.

**Erkparvarlik** – insonga xos Yuksak ma'naviy tuyg'ulardan biri. Bu tuyg'u insonning erkin va ozod yashashi, haq-huquqlarining himoya qilinishi g'oyasiga tayanadi. Zero, erksiz inson – asir, erksiz millat – qul, erksiz mamlakat – mustamlaka. Eng avvalo, o'z millati, o'z Vatani erki uchun, qolaversa, boshqa xalq va elatlar erki uchun kurashish hayotining maqsadiga aylangan insonlar tamoyilidir. Inson qullik va mutelikning har qanday ko'rinishini inkor etishi barobarida inson huquqlarining tom ma'nodagi himoyachisi hamdir. U bir tomondan,



har bir shaxsning so'z erkinligi, o'z fikrini erkin bayon qilishi, saylash huquqi, vijdon erkinligi uchun kurashadi, ikkinchi tomondan, butun-butun millatlar erki masalasini o'rta taga tashlar ekan, ma'lum ma'noda milliy ozodlik harakatlari uchun ham turtki beradi. Odatda, E. kishilar muayyan davrning qahramoniga aylanadi. Chunki, ular o'zгалar erki uchun o'z erki va hatto hayotini qurbon qilishdan ham cho'chimaydi. E. tamoyilini hayotining ma'nosi deb bilgan insonlarning ma'naviy umri boqiy, ular kelajak avlodlar uchun ideal bo'lib qoladi. Ayni paytda, E. keng ijtimoiy-siyosiy ma'noda ham qo'llanadi. Buni E. davlatlar misolida ko'rish mumkin. Shuni ham aytish kerakki, E. tamoyilidan bir oz bo'lsa-da, o'z manfaatlarini yo'lida foydalanishga, shu orqali siyosiy obro' olishga intilish hollari ham uchrab turadi. Ba'zi davlatlar tomonidan o'zga mamlakatlar ichki ishlariga aralashish uchun E. ni niqob qilib ish ko'rishga urinishlar ham yo'q emas. Biroq bunday siyosiy "o'yin"lar jahon jamoatchiligi tomonidan darhol ilg'ab olinadi va fosh etiladi. Shu ma'noda erkinlik, eng avvalo, poklikni, halollikni taqozo etadi.

**Eskalatsiya** – (ingl. kuchayish) ziddiyatni kengayishi, o'sishi, kuchayishi.

**Etatizm** – (fr. davlat) davlatning jamiyat hayotiga, ayniqsa, iqtisodiyot sohasiga faol aralashuvi. Etatizm jamiyatning siyosiy lashtirilishi bilan bog'liq. Etatizmning nuqsonli ko'rinishlariga despotik davlatlar va totalitar jamiyatlar misol bo'la oladi.

**Etnos** – (gr. xalq) odamlarning tabiiy tarixiy shakllangan sotsiomadaniy birligi. U o'zini boshqa shu singari jamoalardan farqlaydi va bu farqlarni o'z nomida (etnonimida) va boshqa monandlikka oid ramzlarda qayd etadi. Bu holda u "xalq" tushunchasiga ma'nodoshdir. Etnos tushunchasi odatda an'anaviy (qabila-urug'chilik) munosabatlarini o'rganilganda qo'llanadi G'arb ijtimoiy antropologiyasidan kirib kelgan "etnik" tushunchasi esa etnoslar global zamonaviylashuv davrida boshidan kechirayotgan jarayonlarni aks ettiradi. Etnos doimo rivojlanishda bo'lib, unga xos hech bir belgini doimiy xoslik deb qarash kerak emas. Bu tushuncha g'arb siyosatshunoslikida 60-70-yillardan shakllanib etniklik o'z madaniy monandligini anglagan guruhlar o'rtasidagi munosabatlarini tavsiflagan. Madaniy jihatdan juda yaqin etnoslar bir-biriga boshqa millatlar singari munosabatda bo'lishi yoki bir etnik guruhning ichida katta madaniy farqlar kuzatilishi mumkin. Etniklikning siyosiy jihatlariga an'anaviy munosabatlar tizimiga yangi etnik guruhlarining "kirib" borishi muammolari kiradi.

**Evolyutsiya** – (lot. ochilmoq) asta-sekinlik bilan boruvchi miqdor o'zgarishlarining muayyan sharoitda yangi sifatga o'tishiga olib keluvchi harakat shakli. Evolyutsiya (lotin tilidan tarjimai – boshlash, vujudga kelish) – tizimning rivojlantirish jarayonini anglatadigan tushuncha bo'lib, birinchi galda jamiyatga xosdir. Unga ko'ra, jamiyatda asta-sekin yuz berayotgan o'zgarishlar tizimga, uning tuzilmalari tashkil qilinishi va funksiyalari sifatli o'zgarishiga olib keladi.

**Evrastika** – (gr. topaman, izlayman) haqiqatni izlashga qaratilgan mulohazalar tizimi. Siyosatshunoslikda qo'llanuvchi umum ilmiy usullardan induktiv hamda analogiya evristik usullarga kiritiladi.

**Ekologiya sohasida davlat boshqaruvi** – vakolatli davlat organlarining atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan foydalanish va ekologik xavfsizlikni ta'minlash bo'yicha ijro etish va farmoyish berish faoliyati.

**Ekologik nazorat** – atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish sohasidagi qonun hujjatlari talablari buzilishining oldini olish, uni aniqlash va unga chek qo'yishga, tabiatni muhofaza qilish faoliyati samaradorligini oshirishga qaratilgan davlat va jamoatchilik chora-tadbirlari tizimidir.

**Ekologik ekspertiza** – ekologik huquqiy mexanizmning tarkibiy qismi sifatida atrof tabiiy muhitning barqarorligini saqlash, tabiiy boyliklardan unumli va samarali foydalanish va aholining ekologik xavfsizligini ta'minlash.

**Ekologik urush** – raqibga, uning hududiga ta'sir qilish orqali zarar yetkazish.

**Ekologik jamg'armalar** – byudjetdan tashqari davlat jamg'armalari. Ular kechiktirib bo'lmaydigan tabiiy muhofaza vazifalarini bajaradi.

**Ekologik ofat zonalari** – hududiy uchastkalarda xo'jalik va boshqa faoliyat natijasida faunalar va floralar buzilishi, tabiiy ekologik tizimni vayron qilish natijasida tabiiy muvozanatning buzilishi.

**Ekologik xavfsizlik ta'minlash** – bu tabiat va jamiyat tizimidagi o'zaro munosabatlarni barqaror holatda ta'minlash, turli ekologik tahdid va zararli ta'sirlarni oldini olish, cheklash va bartaraf etishga qaratilgan chora-tadbirlar tizimidan iborat.

**Eksgibitsionizm** – o'z tanasi a'zolarini qarama-qarshi jinsdagi yoki o'z jinsdagi odamlarga yalong'och qilib ko'rsatish orqali jinsiy qoniqish olish yoki lazatlanish.

**Eksgumatsiya** – shaxs o'limining sababi yoki o'likning shaxsini aniqlash maqsadida ko'milgan murdani qayta kavlalib olish.

## F

**Fermer xo'jaligi** – mustaqil xo'jalik yuritish subyekti. Alohida shaxs, oila yoki bir guruh fuqarolar tomonidan erdan foydalanib, qishloq xo'jalik mahsulotlarini yetishtirish, ularni qayta ishlash va sotishga asoslanadi. F.x. erkin tadbirkorlikning bir ko'rinishi bo'lib, daromad olish maqsadida tuziladi.

**Fermer** – qishloq xo'jalik korxonasining egasi. Mustaqil ish yurituvchi tadbirkor.

**Firma** – inglizcha (firm, firm's trade name) so'zlaridan olingan bo'lib, tijorat maqsadlarini ko'zlovchi korxonalar, kompaniya va boshqa xo'jalik tashkiloti degan ma'noni anglatadi.

**Foyda** – 1) biror kimsa yoki narsa uchun bo'ladigan naf, manfaat; 2) daromadning xarajatga nisbatan farqidan tashkil topgan summa, mablag', daromad; 3) qarzga berilgan puldan foydalanilganligi uchun qarzdordan qarz beruvchi (kreditor) oladigan qo'shimcha pul, haq.

**Fond** – davlat, korxonalar, firmalarning biror-bir maqsad uchun mo'ljallangan pul vositalari yoki moddiy boyligi, mablag'lari.

**Fuqaro** – (arab. faqir so'zining ko'plik shakli) – muayyan davlat Konstitutsiyasi va qonunlarida belgilangan huquqlardan foydalana oladigan, qonunlarda ko'rsatib o'tilgan burchlarni bajarish shart bo'lgan shaxs. O'tmishda F. o'rnida

asosan tabaa, raiyat so'zlari, ba'zan shu so'zning o'zi ham qo'llanilgan. Alisher Navoiy asarlarida raiyat so'zi ko'p uchraydi. "Tarixi muluki ajam" asarida: "Derlarkim, yetti-yil raiyatdan xiroj olmaydi" deb yozgan. Sho'rolar zamonida bu so'z o'rnida, asli lotincha bo'lmish grajdan iborasi ishlatilgan, mustaqillikka erishilgach, atama sifatida fuqaro joriy etildi. huquqiy o'rmi qonun b-n mustahkamlangan shaxsning davlat ichkarisida yoki tashqarisida bo'lishidan qat'i nazar, ma'lum bir davlatga qarashligiga fuqarolik deyiladi, bunday huquqqa ega shaxs F. deb ataladi. O'zbekiston fuqarosi Respublikamiz Konstitutsiyasi va qonunlarida belgilangan huquqlardan foydalana oladi, qonunlarda ko'rsatib o'tilgan burchlarni bajarish shart. O'zbekiston F.lari millati, irqi, jinsi, kasb-kori, ijtimoiy kelib chiqishidan qat'i nazar, fuqaro sifatida qonun oldida huquqan tengdirlar. Fuqarolarning o'z fuqarolik huquqlarini bilib olishlari va himoya qilishlari hamda burchlarini chuqur anglab etishlari uchun ularni huquqiy jihatdan tarbiyalab borish galdagi zarur vazifalardan biridir. Bu jarayon fuqarolar uchun ma'naviy kamolot manbayi bo'lishi bilan birga, ta'lim-tarbiya tizimi uchun ham doimiy amaliy faoliyatdir.

**Fuqarolik** – huquqiy munosabatning obyektga fuqarolik huquqiy munosabatda qatnashuvchi shaxslarning subyektiv huquqlari va majburiyatlari qaratilgan narsalar. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik to'g'risidagi qonuni 1992-yil 28 – iyuldan kuchga kirgan.

**Fuqaroviylik** – bir tarafdin jamiyatda shaxsning oliy darajada mustaqilligini, ikkinchi tarafdin esa kishilarning jamiyat hayotidagi ishtirokida namoyon bo'ladigan yuqori darajadagi birdamlikni nazarda tutuvchi qarashlar majmuyini ifoda etadi. Fuqaroviylikni insonga huquqiy, ijtimoiy, ma'naviy va siyosiy jihatdan layoqatli ekanligini his etishni ta'minlovchi jamlovchi tushuncha sifatida ham talqin etish mumkin. Fuqaroviylik shaxsning siyosiy jihatdan komillikka erishishi bilan bog'liq bo'lib, bunday darajaga etgan kishi siyosiy jarayonlar va hodisalarga qiziqish bilan qaraydi, ro'y berayotgan voqelikni tahlil qilish qobiliyatiga ega bo'ladi. Aynan ana shunday qobiliyatga ega bo'lgan fuqaro kezi kelganda o'z vatani taqdiri uchun amaliy harakat qilish uchun zarur bo'lgan qarorga kelish qobiliyatiga ega bo'ladi.

**Fuqaroviy ong** – demokratik qadriyatlar, ideallar, huquq va erkinliklar nuqtayi nazaridan shaxs, jamiyat va davlat o'rtasidagi munosabatlarni anglashdan iborat. Fuqaroviy ong iqtisodiy, siyosiy, huquqiy, ma'naviy sohalarida me'yoriy, shakllantiruvchi, yo'naltiruvchi, muloqotga etaklovchi singari rang barang vazifalarni bajaradi.

**Fuqaro faolligi** – siyosiy faollik, nodavlat notijorat tashkilotlar faoliyatida ishtirok etish, turli ijtimoiy tashabbuslar va ijtimoiy harakatlarni anglatadi. Shu ma'noda jamiyat uchun foydali bo'lgan turli dasturlar va jamoat birlashmalarida ishtirok etish ham fuqaroviy faollikka kiradi.

**Faol fuqarolik pozitsiyasi** – fuqaroda fuqaroviy xususiyatlar hamda faol fuqarolik pozitsiyasi to'liq shakllangan, o'z haq-huquqlari uchun amaliy harakatga kirish ishtiyog'i yaqqol namoyon bo'ladigan bo'lsa uni faol fuqarolik pozitsiyasi sifatida talqin etish mumkin.

**Fuqarolik mas'uliyati** – qonun ustuvorligini tan olish va har bir shaxsning

ijtimoiy hayotni takomillashtirish jarayonida ishtirok etish vazifasini teran his qilish.

**Fuqaro madaniyati** – fuqaroning insoniy rivojlanganlik darajasi, uning ijodiy kuch, ma'nat-ma'rifati va qobiliyatlarining amalga oshishi imkoniyatlari bo'lib, u har bir fuqaroning hayoti va faoliyatini tashkil etish, boshqalar b-n mun-tlarni tashkillashtirish, ularning faoliyati yo'nalishtirishda ko'zga tashlanadi. F.m. insonning ma'n-y hayoti b-n chambarchas bog'liq bo'lib, o'zida insonlarning predmetli faoliyati natijalari, sh-dek insoniy imkoniyatlar va qobiliyatlarni aks ettiradi. F.m. nafaqat jam-tga, uning tinch-osudaligi, farovonligi, shuning b-n bir paytda alohida shaxsning ma'n-y barkamolligiga ta'sir ko'rsatadi. F.m. og'zaki ijodda, san'atda, adabiyotda, tarixiy merosda kishilarning ma'n-ylashgan, obyektivlashgan madaniyatida ko'rinadi. F.m. ko'p qirrali t., unda insoniyat tomonidan moddiy, ma'n-y hayotda qo'lga kiritilgan, bilim, tafakkur, tajriba, urf-odat va an'analar uyg'un faoliyat tarzida namoyon bo'ladi. Davlat va jam-tar-yoti, uning riv-sh tamoyillari F.m. b-n uzviy bog'liqdir.

**Fuqarolik jamiyati** – o'z shaxsi, ijodiy tashabbusini erkin namoyon etuvchi teng huquqli odamlar jamiyati, ortiqcha taqiqlar va keraksiz ma'muriy tartibga solishdan xoli teng imkoniyatlar jamiyatidir. Shu jihatdan qaraganda, Fuqarolik jamiyati – bu jamuljam holda, sivilizatsiya tipi – bozor iqtisodiyoti va demokratiyani belgilovchi muhim omillar uzviy bog'liq bo'lgan hozirgi yashash usulining shartli nomidir. Fuqarolik jamiyatining o'zagini xususiy mulk tashkil etadi. Davlatdan farqli o'laroq, fuqarolik jamiyati fuqarolar, ularning birlashmalari, ittifoqlari, jamoalarning rang-barang aloqalari va munosabatlari gorizontol tizimidir.

**Fuqarolik jamiyati fanining obyekt** – bu rivojlangan mamlakatlarda va O'zbekistonda fuqarolik jamiyatini shakllanish va rivojlanish jarayoni hisoblanadi. Bu jarayon ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va ma'naviy sohalaridagi tub o'zgarishlarni ifodalaydi va bir necha o'n yilliklarni o'z ichiga olib, unda fuqarolik jamiyatining huquqiy davlat bilan o'zar uyg'unlikda rivojlanish bosqichlari nazariy va amaliy nuqtayi nazarlardan o'rganiladi.

**Fuqarolik jamiyati fanining predmeti** – bu uzoq va bosqichma-bosqich tarzdagi tarixiy rivojlanish natijasidan iborat bo'lib, fuqarolik jamiyati shakllangan va rivojlangan oraliq davr – bir necha avlodlarning yangi jamiyat qurishdagi ishtiroki, jamiyatshunos olimlarning bu jamiyatni rivojlantirishga doir nazariy ishlanmalari, O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.A.Karimov tomonidan O'zbekistonda fuqarolik jamiyati qurishning "O'zbek modeli"ga xos nazariy qarashlar, mamlakatda fuqarolik jamiyatining rivojlanish jarayonidan iboratdir.

**Fuqarolik jamiyatining evolyutsiyasining tarixiy bosqichlari** – Birinchi bosqich – XVI va XVII asrlar. Bu davrda Fuqarolik jamiyatining iqtisodiy, siyosiy va mafkuraviy asoslari yaratilgan. Ular jumlasiga sanoat va savdning rivojlanihi, ishlab chiqarish turlarining ixtisoslashuvi, mehnat taqsimotining teranlashuvi, tovar-pul munosabatlarining rivojlanishi kiradi. Ayrim mamlakatlarda shaharlar va shahar ahlining ko'magida markazlashgan milliy davlatlar tashkil topdi. Shu davrda, jamiyat mafkurasida to'ntarish yuz berdi, san'at va madaniyat faol rivojlandi, protestantcha burjua axloqi keng tarqaldi, ijtimoiy-siyosiy ideal sifatidagi Fuqarolik jamiyati haqidagi tasavvurlar bilan bog'liq asosiy

umumiy g'oyalar "tabiiy huquq nazariyasi" da o'zining jamuljam ifodasini topdi. Mazlum tabaqalarning feodal tengsizlik va imtiyozlarga qarshi kurashi boshida shaharliklar turardi. Yangi davr hisobi Angliyada burjua inqilobi boshlangan 1640-yildan boshlab yuritiladi. O'rta asrlar oxirida (XV-XVI asrlarda) tashkil topgan yagona markazlashgan davlatlar fuqarolik jamiyatining shakllanishida muhim rol o'ynadi. Ular feodal tarqoqlik davrida mavjud bo'lgan tengsizlik va huquqlarning rang-barangligiga barham berishga harakat qildi. Ikkinchi bosqich XVIII asr oxiridan XIX asr oxirigacha davom etdi. Bu davrda eng rivojlangan mamlakatlarda umumiy huquqiy tenglik va erkinlikka, tadbirkorlik erkinligi va shaxsiy tashabbusga asoslangan dastlabki kapitalizm ko'rinishida fuqarolik jamiyati shakllandi. Uchinchi bosqich (XIX asr oxiri va keyingi davr) feodal tuzilmalar o'rnini erkin odamlarning yuridik tengligi va o'zaro bitimiga asoslangan munosabatlar egallagani bilan tavsiflanadi. Bu munosabatlar fuqarolik jamiyatining mohiyatini tashkil etadi. Insoniyatning ko'p asrlik tarixida barcha odamlar, *ijtimoiy kelib chiqishi va mavqeyidan qat'i nazar, jamiyat hayotining yuridik jihatdan teng ishtirokchilari deb e'tirof etilishi muhim ijtimoiy ahamiyat kasb etdi. Ular har kimga o'zini erkin xohish-irodaga ega bo'lgan, o'z harakatlari va ularning huquqiy oqibatlarini uchun javob berishga qodir shaxs sifatida namoyon etish imkoniyatini beruvchi qonun bilan e'tirof etilgan bir qancha huquqlar va erkinliklarga ega edi. Fuqarolik jamiyatining amalda yuzaga kelishiga "huquqlar haqidagi bill" (Angliya, 1689 y.; AQSH, 1791 y.) yoki "Inson va fuqaro huquqlari Deklaratsiya"si (Fransiya, 1789 y.)ning qabul qilinishi sabab bo'ldi. Bunda huquq davlat boshliqlari uchun ham majburiy deb e'tirof etiladi. huquq «hokimiyat amri» deb emas, balki huquq bilan boshqaruvchilar va boshqariluvchilar uchun teng darajada majburiy deb tushuniladi, huquqning ustunligi hokimiyatning bo'linishi, qonunchilik hokimiyatining Yuksak mavqeyi, uning saylov mexanizmlari orqali xalqqa, millatga, mamlakatga bog'liqligi, shuningdek, barcha Fuqarolar uchun teng va ochiq sud bilan ta'minlanadi.*

**Fuqarolik jamiyatining iqtisodiy asosi** – shaxs va jamiyat manfaatlarining umumiyligiga asoslangan mulk shakllarining xilma-xilligi, iqtisodiy plyuralizm, ko'p ukladlilik, erkin bozor munosabatlari. Qaysiki jamiyatda uning har bir a'zosi, qandaydir mulkka ega bo'lishi, o'z xohishi bilan tasarruf etish, sarflash huquqiga ega bo'lishi, xususiy mulk daxlsizligi, davlat tomonidan kafolatlangan tadbirkorlik, mexnat va iste'mol faoliyati erkinligining ta'minlanganligi.

**Fuqarolik jamiyatining ijtimoiy-siyosiy asosi** – mustaqil davlatlarning tashkil topishi, iqtisodiy va siyosiy hokimiyatning ajratilishi. Insonlarning o'z maqsadlarini himoya qilish maqsadida ma'lum tashkilotlarga birlashishi, hokimiyatlar turli-tuman markazlar, tashkilotlar, siyosiy institutlar qo'lida jamlangan bo'lsa, ular bir-birini cheklaydi va muvozanatga solib turadi. Siyosiy plyuralizm, davlat hokimiyati funksiyalarining sekin-asta fuqarolik jamiyati institutlariga berib borilishi. "Kuchli davlatdan – kuchli jamiyat sari" tamoyilining namoyon bo'lishi. O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.A. Karimov ta'kidlaganidek, "Fuqarolik jamiyati qurish bir qancha vakolatli vazifalarni davlatdan mahalliy hokimiyat organlariga, jamoat tuzilmalariga va fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlariga bosqichma-bosqich topshirishni ko'zda tutadi".

**Fuqarolik jamiyatining huquqiy asosi** – inson uchun ahamiyatli bo'lgan ozodlik, tenglik, adolat qadriyatlarining qaror topishi yuridik tenglikning ta'minlanishi va ularga huquq va erkinliklar berish orqali qonun yo'li bilan tan olinishi. "qonun hukumron bo'lgan joyda erkinlik ham bo'ladi" (A.Temur). "Adolat – qonun ustuvorligida" tamoyilining amal qilinishi. "...Fuqarolar bilan davlat o'zaro huquqlar va burchlar orqali uzviy bog'liqdirlar. Fuqarolarning huquqlari va erkinliklari daxlsiz bo'lib, hech kim ularni sudning qarorisiz mahrum etishi yoki cheklashi mumkin emas. Ayni vaqtda fuqarolarning o'z huquq va erkinliklarini amalga oshirishlari boshqa fuqarolarning, davlat va jamiyatning qonuniy manfaatlariga zid bo'lmasligi lozim".

**Fuqarolik jamiyatining ma'naviy asosi** – insonlar o'z qadr-qimmatiga, jamiyatning asosiy qadriyatlari himoyasiga tura oladigan zaruriyat tug'ilgan-da ular uchun kurasha oladigan bo'lishlari, vijdon erkinligi, axloqiy normalarga rioya qilish, yagona mafkura dunyoqarashning yakka hokimligining mavjud emasligi, ijtimoiy jarayonlarni demokratlashtirishda bevosita va bilvosita ishtirok etishlari, fuqarolik pozitsiyasiga ega ekanligi. "Tafakkur ozod bo'lmasa, ong va shuur tazyiqda, qullikdan qutulmasa, inson to'la ozod bo'lolmaydi. Taraqqiyot tahdirini ma'naviy jihatdan yetuk odamlar hal qiladi".

**Fuqarolik jamiyati fanining joriy etilishi** – Vazirlar Mahkamasining 2015-yil 10- sentyabrdagi 07/1-616-sonli topshirig'i va Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2015-yil 18 – sentyabrdagi "Oliy ta'lim muassasalarida "Fuqarolik jamiyati" fanini o'qitilishini joriy etish to'g'risida"gi 352-sonli buyrug'iga asosan barcha ta'lim yo'nalishlarida o'qitish belgilangan.

**Fuqarolik huquqi** – O'zbekiston Respublikasida amal qiluvchi huquq tizimi sohalaridan biri bo'lib, yuridik jihatdan teng bo'lgan subyektlar o'rtasidagi mulkiy va shaxsiy-nomulkiy munosabatlarni tartibga soladigan hamda mustahkamlaydigan huquqiy normalar yig'indisi.

**Fuqarolik jamiyati shakllanishini monitoring qilish mustaqil instituti** – mamlakatimizdagi yirik nodavlat notijorat tashkilotlardan biri hisoblanadi. Institut 2003-yilda O'zbekistonning bir qator jamoat tashkilotlari, tadqiqot va ta'lim muassasalari tashabbusi bilan tashkil etilgan. Institutning ta'sischilari O'zbekiston Milliy universiteti, Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti, Jurnalistlar ijodiy uyshmasi, Savdo-sanoat palatasi, "Mahalla" jamoat fondi va boshqa tashkilotlar hisoblanadi. Institutning asosiy maqsadi – fuqarolik jamiyati asoslarini shakllantirish jarayonlarini tizimli monitoring qilish, mamlakatni demokratik yangilash va modernizatsiyalashda, fuqarolarning siyosiy madaniyati, huquqiy ongi, ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirishda fuqarolik institutlarining rolini kuchaytirishdan iborat. Institut tarkibiga markaziy ofis, shuningdek, Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahridagi 14 ta hududiy bo'linma kiradi. Bugungi kunda Institut va uning hududiy bo'linmalarida fuqarolik jamiyatini shakllantirish jarayonlarini tizimli tadqiq qilish, fuqarolik jamiyati institutlarining davlat va jamiyatni boshqarishdagi rolini kuchaytirishga yo'naltirilgan tadbirlarni amalga oshirish uchun barcha zarur sharoitlar mavjud. Institutning har bir hududiy bo'linmasida huquqshunoslik, ijtimoiy tadqiqotlar, jurnalistika, psixologiya sohalarida bilim va tajribaga ega hamfikrlarning uyushgan jamoasi

faoliyat yuritadi. Institut O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I. Karimov tomonidan 2010-yilning 12- noyabrida O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qo'shma yig'lishida ilgari surilgan "Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish Konsepsiyasi"da belgilangan vazifalarning amaliy ijrosini ta'minlashda faol ishtirok etmoqda. Xususan, respublikamizning mintaqalarida doimiy ravishda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish, fuqarolik institutlari hamda davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari o'rtasida samarali ijtimoiy sheriklikni amalga oshirish vazifalarini hal qilishda NNTlarning roli va ahamiyatini oshirish masalalariga bag'ishlangan seminarlar va "davra suhbatlari" tashkil etilmoqda. Hududiy bo'linmalarning imkoniyatlaridan inson huquqlarini himoya qilish, so'z va axborot erkinligini, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning ochiqqligini ta'minlashda OAVning rolini yanada kuchaytirish masalalari yuzasidan turli tadbirlarni tashkil etishda foydalanilmoqda. Institut tomonidan siyosiy partiyalarga ularning birlamchi tashkilotlari, matbuot xizmatlari va nashriyot organlarining faoliyatini takomillashtirishda amaliy yordam ko'rsatish bo'yicha ishlar yo'lga qo'yilgan. Institut faoliyatida aholini manzilli ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, davlat boshqaruv organlari faoliyati ustidan jamoat nazoratini amalga oshirishda fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarining rolini oshirish bilan bog'liq masalalarni o'rganish muhim o'rin egallaydi. Institut tomonidan doimiy ravishda aholining huquqiy, siyosiy madaniyati va huquqiy ongi darajasini o'rganish bo'yicha zarur chora-tadbirlar amalga oshirib boriladi. Institut faoliyatida demokratik islohatlarni yanada chuqurlashtirishga yo'naltirilgan qonun loyihalarini keng jamoatchilik orasida muhokama qilishni tashkil etish amaliyoti samarali qo'llanib kelinmoqda. Xususan, mamlakatimizning barcha mintaqalarida NNTlar, nodavlat OAV, ekspertlar va huquqshunoslar ishtirokida "Ijtimoiy sheriklik to'g'risida", "Ommaviy axborot vositalarini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash kafolatlari to'g'risida", "O'zbekiston Respublikasida jamoat nazorati to'g'risida", "Tadbirkorlik faoliyati sohasida ruxsat berish tartib-qoidalarini to'g'risida"gi qonun loyihalarini muhokama qilish bo'yicha "davra suhbatlari" o'tkazildi. "Davra suhbatlari" natijasida to'plangan taklif va tavsiyalar tahlil qilish va umumlashtirish uchun mamlakatimiz parlamentining tegishli ekspert komissiyalariga taqdim etildi. Shu kabi chora-tadbirlar "Ommaviy axborot vositalari faoliyatining iqtisodiy asoslari to'g'risida", "Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatining ochiqqligi to'g'risida", "Teleradioeshittirishlar to'g'risida", "Ekologik nazorat to'g'risida"gi qonun loyihalari va boshqa normativ hujjatlar bo'yicha ham amalga oshirilmoqda. Institut tomonidan tashkil etilgan tadqiqotlar va tadbirlar natijalari haqidagi axborotlar ta'sisshilaridan biri Institut hisoblangan "Fuqarolik jamiyati" jurnali va "Jamiyat" gazetasida doimiy ravishda nashr etib boriladi. Institut faoliyatidagi muhim yo'nalish fuqarolik jamiyati shakllanishi, uning institutlarini mustahkamlash va rivojlantirish sohasida rivojlangan demokratik mamlakatlarning tajribasini o'rganish hisoblanadi. Institut tomonidan Rossiya, AQSH, Germaniya, Buyuk Britaniya, Fransiya, Yaponiya, Hindiston, Xitoy va boshqa mamlakatlarning vakillari bo'lgan xorijiy hamkorlar, shuningdek qator yetakchi xalqaro tashkilotlar bilan o'zaro manfaatli hamkorlik aloqalari yo'lga

qo'yilgan. 2012-yil davomida institut milliy va xorijiy hamkorlar bilan birgalikda 10 ta xalqaro tadbir (konferensiya, "davra suhbatlari", seminarlar, treninglar) tashkil etdi, ushbu tadbirlarning 3 tasi xorijda (Germaniya, Chexiya, Vengriya) bo'lib o'tdi. Institut tomonidan O'zbekiston xotin-qizlar qo'mitasi, "Kamolot" yoshlar ijtimoiy harakati, "Mahalla" jamoat fondi, Iste'molchilar huquqlarini himoya qilish jamiyati Federatsiyasi, Elektron OAV milliy assotsiatsiyasi, O'zbekiston Kasaba uyushmalari federatsiyasi kengashi, O'zbekiston Ekologik harakati, siyosiy partiyalar va shu kabi mamlakatimizdagi boshqa yetakchi jamoat tashkilotlari bilan hamkorlik aloqalari o'rnatilgan. Yirik olimlar, NNTlar vakillari, OAV jurnalistlari va muharrirlari, fuqarolar yig'inlari raislari, yoshlar tashkilotlari yetakchilari, siyosiy partiyalar faollaridan iborat bo'lgan keng ekspertlar guruhi shakllantirilgan, ularning imkoniyatlaridan Institutning hududiy bo'linmalari faoliyatida foydalanilmoqda. Institut fuqarolik jamiyatini shakllantirish, uning institutlarini rivojlantirish va mustahkamlash masalalariga qiziqish bildirilgan shaxslar va tashkilotlar bilan hamkorlik qilish uchun doimo ochiqdir. Manzili: 100027, Tashkent sh, Bundaykor m, 1a Tel.: (371) 2306235 Fax: (371) 2457739

**Faktor-tahlil** – (lot. ishlab chiqaruvchi) ko'p o'lchovli matematik statistika usuli. U ijtimoiy obyektlar belgilari o'rtasidagi o'zaro aloqalarni o'lchash va belgilarni ana shu o'zaro aloqalar asosida turkumlashga asoslanadi. Juft korrelyatsiyalar asosida faktor tahlilda yangi, yirikroq belgilar olinadi. Ana shular faktor deb ataladi.

**Falsifikatsiya** – (lot. soxtalashtirish) haqiqiyini qalbakiga, aslni soxtaga almashtirish, real borliqni buzib ko'rsatish.

**Fanatizm** – (lot. juda asabiylashgan, mutaassiblik) o'z e'tiqodiga sodiqlikning boshqalarning e'tiqodlariga toqatsizlilik bilan uyg'unlashuvi.

**Faol (aktiv) saylov huquqi** – fuqaroning saylanadigan davlat organlari va mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlariga saylash huquqi. Faol saylov huquqi – O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining davlat hokimiyati vakillik organlariga va mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlariga saylashni ko'zda tutuvchi konstitutsiyaviy huquqidir. Faol saylov huquqiga 18 yoshga to'lgan fuqarolar ega hisoblanadi. O'zbekiston fuqarosi ijtimoiy kelib chiqishi, ijtimoiy va mulkiy mavqeyi, irqiy va milliy mansubligi, jinsi, ma'lumoti, tili, dinga munosabati, mashg'ulotining turi va xususiyati kabi shart-sharoitlardan qat'i nazar, saylash huquqiga egadir. Sud tomonidan muomalaga layoqatsiz deb topilgan fuqarolar, shuningdek sud hukmi bilan ozodlikdan mahrum etish joylarida saqlanayotgan shaxslar saylanishi mumkin emas va saylovda qatnashmaydilar.

**Farmon** – ayrim mamlakatlarda, shu jumladan, O'zbekistonda, Prezident qabul qiladigan hujjatning nomi. Farmon, qonundan keyingi, yuqori yuridik kuchga ega bo'lgan huquqiy hujjatdir.

**Farovonlik davlati** (ing. *The Welfare State* – farovon davlat) – yoki "yalpi ezigulik davlati" (ijtimoiy davlat) – daromadlarni qayta taqsimlash orqali jamiyat barcha a'zolarining ijtimoiy huquqlarini ta'minlashga da'vat etilgan ijtimoiy institutlarning, asosan G'arb davlatlaridagi ijtimoiy institutlarning majmuyini anglatuvchi tushuncha. Farovon davlat – ijtimoiy yo'nalishdagi o'ziga xos nazariy va amaliy model bo'lib, unda aholining imtiyozlarga ega bo'lmagan qatlamlari-



ga ijtimoiy yordam ko'rsatishga qaratilgan dasturlarning keng majmuyi amalga oshiriladi. Farovon davlat modelini nafaqat sotsial-demokratik rahbarlar, balki konservatorlar ham ro'yobga chiqaradi. Amerika Prezidenti L.Jonson e'lon qilgan "buyuk jamiyat", GFR kansleri, xristian-demokratik partiyasi rahbari L.Erxard taklif qilgan "shakllangan jamiyat" Konsepsiyalari yuqoridagi fikrga misol bo'la oladi. Ikkinchi jahon urushidan keyingi o'ttiz yillik – G'arb jamiyatida farovon davlatlarning gullab-yashnagan davri bo'ldi. 50-yillardan boshlab xalq ta'limi, ijtimoiy ta'minot, sog'liqni saqlash, uy-joy va kommunal-maishiy xizmat obyektlari qurishga hamda shu kabi boshqa turli ijtimoiy dasturlarga sarflangan xarajatlar hajmi borasida portlash yuz berganligi kuzatiladi. Yalpi ichki mahsulotdagi xarajatlar ulushi bir necha marta ortib, davlat byudjeti barcha mablag'larining deyarli yarmini tashkil etdi. Pensiya ta'minoti, ishlab chiqarishda baxtsiz hodisalar yuz bergandagi kasallik bo'yicha ijtimoiy sug'urta, bolalar va oilalarga nafaqalar berish, ijtimoiy yordam ko'rsatish, uy-joy bilan ta'minlash va boshqa shu kabi masalalar asosiy vazifalar jumlasiga kiradi. Farovon davlatga nisbatan sanoati rivojlangan jamiyatning tarkibiy qismi, bunday jamiyat amal qilishi chog'idagi turli chiqimlarning ijtimoiy amortizatori sifatida qaralgan. Farovon davlatni tanqid qiluvchilar (asosan neokonservativ doiralari vakillari) davlat byudjetining ijtimoiy xarajatlari borasida "iste'molchilik psixologiyasi"ga qarshi kurash shiori bilan o'rtaga chiqdilar. G'arb jamiyati oldida turgan qarama-qarshilik shundan iboratki, agar sanoati rivojlangan mamlakatlar, bir tomondan, farovon davlatga ko'nika olmasalar, boshqa tomondan, bunday davlatsiz mavjud bo'lmaydilar ham. G'arb siyosiy g'oyasida farovon davlat integrativ mexanizm bo'lib, uning yordamida modernizatsiyaning vayron qiluvchi elementlariga barham berish mumkin, degan tushuncha qaror topgan. Buning mohiyati moddiy ta'minlanganlik va tenglik uchun hukumat javobgar bo'lishi kerak, degan g'oyadan iborat.

**Fashizm** – (ital. bog'lam, birlashma) totalitar siyosiy tizimning ko'rinishlaridan biri. Qattiqqo'l va pog'onaviylashgan hokimiyat tizimi, diktator avtoritetiga so'zsiz bo'ysunish, mamlakatda barqarorlikni ta'minlash uchun keskin choralar qo'llanilishini oqlash, bir partiyaviy tizim va davlatning jamiyat hayotining barcha sohalari ustidan yalpi nazoratini o'rnatish – fashizmga xos belgilardir. Fashizm Italiyada 1922-yilda o'rnatilgan. Italiya fashizmi asosan millat ravnaqi, Rim imperiyasi buyukligi tiklash vazifasini qo'ygan. Fashizm millat «ruhi»ni poklash, madaniy yoki etnik asosda kollektiv bir xillikni ta'minlash, jinoyatchilikni yo'qotish da'volari bilan chiqadi. 30-yillarda Ispaniya va Germaniyada (keyinchalik natsional-sotsializm ko'rinishini oldi), 40-50-yillarda Argentinada, 60-yillarda Gretsiyada shakllangan tartiblarni ham fashistik deb atash mumkin. Fashizm mafkuraviy nazariyotchilaridan biri J.Jentilega (1875—1944) ko'ra fashistik davlat mohiyati quyidagicha: "Fashizm uchun barcha narsa davlatda mujassamlashgan. Insoniylik va ma'naviyatga doir hech narsa o'z-o'zicha mavjud emas, davlatdan tashqarida esa – bular hech qanday qiymatga ega emas. Shu ma'noda fashizm totalitardir, fashistik davlat esa barcha qadriyatlarini birlashtiruvchi va umumlashtiruvchi sifatida xalq hayotini talqin etadi, uning gullab-yashnashi va kuchga to'lishiga xizmat qiladi. Davlatdan tashqarida in-

dividlar ham, guruhlar ham (siyosiy partiyalar, jamoalar, sindikatlar va sinflar) mavjud bo'lishi kerak emas".

**Federalizm** (lot. *foederatio* – ittifoq) – boshqaruv tizimi. Unda boshqaruv ikki darajaga ega: milliy hokimiyat va mintaqaviy hokimiyat (shtatlar, viloyatlar, respublikalar, kantonlar, yerlar). Federalizm hududiy birliklarning keng mustaqilligini nazarda tutadi.

**Feminizm** – lot. *femina*-ayol; erkaklar bilan ayollar huquqlarini tenglashtirish uchun faoliyat yuritadigan ayollar harakati. F. XVIII asrda vujudga kelgan erkak va ayollar o'rtasida tenglik o'rnatish uchun qaratilgan harakat. Birinchi bosqichda, XIX-XX asrning birinchi yarmida, huquqiy tenglik uchun, ikkinchi bosqichda, XX asr o'rtalaridan, amaliy tenglik uchun kurash olib borgan. Hozirgi davrning ko'zga ko'ringan ijtimoiy-siyosiy harakatlardan biri. Siyosatda feminizm dastlab ayollarga saylov huquqining berilishi uchun kurashda namoyon bo'lgan. 1791-yilda Fransuz yozuvchisi O.De Guj "Inson va fuqaro huquqlari deklaratsiyasi" ga o'xshash "Ayol va fuqaro huquqlari deklaratsiyasi"ni yozgan. XIX asrning ikkinchi yarmida Angliyada ayollar harakatining qatnashchilari "suffrajistka" (ingl. *suffrage* – ovoz berish huquqi) lar deb atalgan. Keyinroq suffrajizm AQSH, Germaniya, Fransiya va boshqa ko'pgina mamlakatlarda tarqaldi. Saylov huquqini qo'lga kiritishda birinchi muvaffaqiyat finlyandiyalik ayollarga tegishli (1905-yil), so'ng norvegiyalik va daniyalik ayollar shu huquqqa ega bo'lganlar. 1918-1920 yillarda ovoz berish huquqi Belgiya, Germaniya, Polsha, Kanada, AQSH va b. davlatlardagi ayollarga berildi. Feministik siyosiy harakatda bir qancha oqimlar mavjud. Liberal feminiz ayollarning erkaklar bilan tengligiga asta-sekinlik bilan ularning insoniy va fuqarolik huquqlarini e'tirof etish orqali erishish tarafdori. Sotsialistik feminizm bunday e'tirofdan tashqari ayollarga asosiy ijtimoiy huquqlarni taqdim etish, jinslar o'rtasidagi mehnat taqsimotini yo'qotish, erkaklarni farzand tarbiyasiga jalb etishni talab etadi. Har ikkala yo'nalishni uyg'unlashtirgan davlat feminizmi bulardan tashqari ayollarning muhim davlat va siyosiy lavozimlarni egallashlarida kvotalar mavjudligini talab etadi. Bu oqim Skandinaviya davlatlarida keng rivojlangan. 60-yillarning oxiri 70-yillarning oxirida feminizm bir qator radikal g'oyalarni ham ilgari surdi: oila va onalik – ayollarning kamsitilishiga xizmat qiluvchi institutlar sifatida qattiq tanqid ostiga olindi. Radikal feminizm markazi AQSH bo'ldi. Ijtimoiy-siyosiy harakat sifatida feminizm baholarining asosligi, faoliyatining jiddiylashuvi, nazariy etukligiga erishish uchun unga vaqt kerak bo'ldi. Bunga feministik tadqiqot markazlarining tashkil topishi ham katta hissa qo'shdi. Bu markazlar harakat ilmiy-nazariy negizini mustahkamlash bilan birga ma'rifiy faoliyat ham olib boradi. O'zbekistonda ayollar va erkaklar tengligi konstitutsion tarzda mustahkamlab qo'yilgan. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 46-moddasida "ayollar va erkaklar teng huquqlarga egalar" deyilgan. Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 18-moddasida mamlakat fuqarolarining jinsi, irqi va boshqa belgilarida qat'i nazar huquq va erkinliklari tengligi e'tirof etilgan. Respublika qonunchiligida faqat ayollarga doir maxsus moddalar mavjud. Masalan, Mehnat va Oila Kodeksida. Mehnat Kodeksida yoshi, jinsi, etnik kelib chiqishi, tili, ijtimoiy kelib chiqishi, oilaviy ahvoli yoki farzandlari soniga

ko'ra kamsitilishni taqiqlaydi. Oila Kodeksida er va xotin teng huquqlarga egalar. Bundan tashqari, O'zbekiston ayollar kamsitilishining barcha shakllarini yo'q qilishga doir Konvensiyani, Pekinda 1995-yilda qabul qilingan BMT Deklaratsiyasi va Harakatlar Platformasini imzolagan. Qonunlar va me'yoriy hujjatlar bilan bir qatorda O'zbekistonda ayollarning maqomini oshirishga qaratilgan bir qancha dasturlar va tashabbuslar qabul qilindi. Bulardan eng ahamiyatlisi 1991-yilda O'zbekiston Respublikasi ayollar Qo'mitasi tashkil etilganligi bo'ldi. 1999-yil mamlakatimizda "Ayollar-yili" deb e'lon qilindi. Mamlakatimizda gender masalalari bilan shug'ullanuvchi va ayollarimizning davlat va jamiyatdagi rolini kuchaytirish borasida faoliyat olib boruvchi o'nlab nodavlat notijorat tashkilotlari tashkil etilgan.

**Fikr erkinligi** – bu jamiyat a'zosi bo'lgan har bir shaxs tabiiy va ijtimoiy jarayonlarga, fuqarolar bilan siyosiy tashkilotlarga va milliy, irqiy, diniy, sinfiy munosabatlarga ega bo'lgan mustaqil fikrlarini huquqiy, siyosiy diniy va boshqa muassasalar tomonidan bo'lishi mumkin bo'lgan turli tazyiqlardan muhofaza qiladigan ijtimoiy muhit.

**Fiskal** – (*ingl.* fiscal policy; *lot.* fiscus – savat; kassa, kazna, moliya, soliq-byudjet siyosati hukumat siyosati) Istiqbolda barqaror iqtisodiy tizimni ta'minlash va biznes-stikllarni tebranishini kamaytirish maqsadida davlatning iqtisodiyotga aralashuv usullaridan biri; fiskal siyosatining asosiy quroli davlat byudjetining daromadlari va xarajatlari, ya'ni soliqlar, transferlar va davlat sotib olgan tovarlar va xizmatlar.

**Fraksiya** – (*lot.* buzish) 1) siyosiy partiyaning uning yo'nalishi, uslublariga qo'shilmaydigan, u bilan kurashadigan, lekin tarkibidan chiqib ketmaydigan o'z qarashlari, ichki intizomiga ega qismi; 2) o'z partiyalari siyosatini amalga oshirish uchun parlament, mahalliy o'z-o'zini boshqarish organi yoki biror ijtimoiy guruh tarkibiga saylangan deputatlar yoki a'zolar guruhi.

**Frankfurt maktabi** – XX asrning 30-yillarida Germaniyada, Frankfurt-Mayndagi sotsial tadqiqotlar instituti negizida vujudga kelgan ijtimoiy-falsafiy maktab. U fashizmga, shuningdek, texnokratik ommaviy iste'mol jamiyatiga intellektual muxolifatni tashkil etgan.

**Funksiya** – *lot.* functio-faoliyat, o'tash, bajarish; faoliyat, majburiyat, ish, tayinlash, burch, vazifa, topshiriq.

**Fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlarining hududiy asosi** -fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarini tuzish, birlashtirish, tugatish hamda ularning chegaralarining o'rnatish va o'zgartirish tartib-qoidalarini belgilab beruvchi huquqiy normalarning mushtarak tizimidir. O'zbekiston Respublikasining fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari to'g'risida qonuni 2013-yil 22- aprelda qabul qilingan.

**Fuqarolar totuvligi** – ijtimoiy hayotning tub muammolari bo'yicha fuqarolik jamiyatining turli ijtimoiy kuchlari (yoki ularning aksariyati) o'rtasida konsensus, yakdillik, kelishuv mavjudligidir. Ayni mana shu hol muammolarni hal etish bo'yicha fuqarolar o'zaro kelishib harakat qilishlariga asos bo'ladi. Fuqarolar totuvligi shaxslar va ular birlashmalarining nuqtayi nazarlari hamda maslak-maqсадlari bir-biriga mos kelishiga asoslanadi. Fuqarolik totuvligi yuzaga keli-

shi uchun fuqarolik jamiyati a'zolarining manfaatlarini ifoda qiluvchi turli ijtimoiy guruhlar va qatlamlarni, uyushmalar va tashkilotlarni siyosiy rasmiylashtirish zarur. Buning yo'li bitta – davra suhbat, muzokara jarayoni, o'zaro maqbul yechimlar topish. Bunda davlat faqatgina tarafdardan biri sifatida emas, balki hakamlik, vositachilik va to'qnash keladigan manfaatlarini uyg'unlashtiruvchi markaziy organ sifatida ham ish ko'radi. Shuning uchun fuqarolar totuvligi – real muzokara jarayoni sifatida ijtimoiy shartnoma rejimi va doirasida faoliyat ko'rsatuvchi ijtimoiy kuchlarning barchasiga maqbul yechimni topish natijasidir. Fuqarolar totuvligi fuqarolik jamiyatining hokimiyat vakillik organlari (parlament va boshqa shu kabilar) mavjudligida o'zining yakuniy ifodasini topadi. Bunday organda fuqarolik jarayoni qatnashchilari manfaatlarining barchasi (yoki aksariyati) o'rtaga qo'yiladi va ham ishtirokchi bo'ladi. Fuqarolar totuvligiga turli shakllar, ya'ni davra suhbat, "madaniy tortishuv", "hokimiyat taqsimoti", "o'zaro yonberish usuli", "shartnoma" va boshqa shu kabilar orqali erishiladi. Fuqarolar o'rtasida totuvlikning mavjudligi pirovard natijada jamiyatni Integratsiyalashda sifat jihatidan yangi darajaga erishilganligini anglatadi. Ijtimoiy g'oyalar tarixida "konsensus" deb ataluvchi umumiy sotsiologik kategoriyani Lebon va Tard (psixologik talqin), E.Dyurkgeym (sotsiologik yondashuv), M.Veber (konsensusning "sof" yoki ideal turining ma'naviy modeli), Y.Xabermas ("hayotiy dunyo" fenomenologik sotsiologiyada kommunikativ harakat nazariyasi) va boshqalar rivojlantirganlar.

**Fuqarolar yig'ini** – fuqarolar yig'ini aholi manfaatlarini ifodalaydi va uning nomidan tegishli hudud doirasida amal qiladigan qarorlar qabul qiladi. Fuqarolar yig'inida o'n sakkiz yoshga to'lgan va tegishli hududda doimiy yashayotgan shaxslar qatnashadi. Fuqarolar yig'ini organlari quyidagilardir: fuqarolar yig'ini kengashi; fuqarolar yig'ini faoliyatining asosiy yo'nalishlari bo'yicha komissiyalar; taftish komissiyasi.

**Fuqarolar yig'inining shtatli lavozimdagi xodimlari** – fuqarolar yig'ini raisi, fuqarolar yig'inining diniy ma'rifat va ma'naviy-axloqiy tarbiya masalalari bo'yicha maslahatchisi, mas'ul kotibi, «Mahalla posboni» jamoatchilik tuzilmasi rahbari.

**Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarishi** – fuqarolarning o'zini o'zi boshqarishi fuqarolarning mahalliy ahamiyatga molik masalalarni o'z manfaatlaridan, rivojlanishning tarixiy xususiyatlaridan, shuningdek milliy va ma'naviy qadriyatlaridan, mahalliy urf-odatlar va an'analardan kelib chiqqan holda hal qilish borasidagi O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlari bilan kafolatlanadigan mustaqil faoliyatidir.

**Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari** – shaharchalar, qishloqlar va ovullar, shuningdek, shaharlardagi, shaharchalardagi, qishloqlardagi hamda ovullardagi mahallalar fuqarolar yig'inlari. Fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari to'g'risida umumiy tushuncha – fuqarolarning o'zini o'zi boshqarishi fuqarolarning mahalliy ahamiyatga molik masalalarni o'z manfaatlaridan, rivojlanishning tarixiy xususiyatlaridan, shuningdek, milliy va ma'naviy qadriyatlaridan, mahalliy urf-odatlar va an'analardan kelib chiqqan holda hal qilish borasidagi O'zbekiston Respublikasining Konstituts

iyasi va qonunlari bilan kafolatlanadigan mustaqil faoliyatidir. Mamlakatimizda Fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari to'g'risida 1993-, 1999-, 2013-yillarda qonunlar qabull qilingan. 2013-yilda qabull qilingan «Fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari to'g'risida»gi qonun 33 moddadan iborat. Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish huquqi – Fuqarolar shaharchalarda, qishloqlarda, ovullarda, shuningdek, shaharlardagi, shaharchalardagi, qishloqlardagi va ovullardagi mahallalarda o'zini o'zi boshqarishga doir o'z konstitutsiyaviy huquqini fuqarolarning saylov huquqlari kafolatlariga muvofiq fuqarolar yig'inlari (fuqarolar vakillarining yiqilishlari) orqali amalga oshiradi. «Fuqarolar jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsiy va ijtimoiy mavqeyidan qat'i nazar, bevosita yoki o'zlarining saylanadigan vakillari orqali o'zini o'zi boshqarishda teng huquqlarga ega. Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarishga doir huquqlarini cheklash taqiqlanadi. Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyatiga davlat organlarining va ular mansabdor shaxslarining aralashuviga yo'l qo'yilmaydi», deyilgan «Fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari to'g'risida»gi qonunda. Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyatining asosiy prinsiplari – fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyatining asosiy prinsiplari qonuniylik, inson huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarining ustuvorligi, demokratizm, oshkoralik, ijtimoiy adolat, mahalliy ahamiyatga molik masalalarni hal etishda mustaqillik, jamoatchilik asosidagi o'zaro yordam, ijtimoiy sheriklik, mahalliy urf-odatlar va an'analarni hisobga olishdan iboratdir. Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish hududlari – fuqarolarning o'zini o'zi boshqarishi O'zbekiston Respublikasining butun hududida amalga oshiriladi. Shaharchalar, qishloqlar, ovullar, shuningdek, shaharlardagi, shaharchalardagi, qishloqlardagi hamda ovullardagi mahallalar fuqarolar o'zini o'zi boshqarishining hududiy birliklaridir (bundan buyon matnda tegishli hudud deb yuritiladi). Shaharchalar, qishloqlar, ovullarni tuzish, birlashtirish, bo'lish va tugatish, shuningdek, ularning chegaralarini belgilash va o'zgartirish, ularga nom berish va ularning nomini o'zgartirish qonun hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi. Shaharlardagi, shaharchalardagi, qishloqlardagi va ovullardagi mahallalarni tuzish, birlashtirish, bo'lish va tugatish, shuningdek, ularning chegaralarini belgilash va o'zgartirish, ularga nom berish hamda ularning nomini o'zgartirish fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlarining iltimosnomalari asosida mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi belgilagan tartibda amalga oshiriladi.

**Fuqarolar yig'ini** – aholi manfaatlarini ifodalaydi va uning nomidan tegishli hudud doirasida amal qiladigan qarorlar qabull qiladi. Fuqarolar yig'inida o'n sakkiz yoshga to'lgan va tegishli hududda doimiy yashayotgan shaxslar qatnashadi. Fuqarolar yig'ini organlari quyidagilardir:

- fuqarolar yig'ini kengashi;
- fuqarolar yig'ini faoliyatining asosiy yo'nalishlari bo'yicha komissiyalar;
- taftish komissiyasi.

Fuqarolar yig'inlarida taftish komissiyasi va fuqarolar yig'ini faoliyatining asosiy yo'nalishlari bo'yicha quyidagi komissiyalar tuziladi:

- yarashtirish komissiyasi;
- ma'rifat va ma'naviyat masalalari bo'yicha komissiya;
- ijtimoiy qo'llab-quvvatlash bo'yicha komissiya;
- xotin-qizlar bilan ishlash bo'yicha komissiya;
- voyaga etmaganlar, yoshlar va sport masalalari bo'yicha komissiya;
- tadbirkorlik faoliyati va oilaviy biznesni rivojlantirish masalalari bo'yicha komissiya;
- ekologiya va tabiatni muhofaza qilish, obodonlashtirish va ko'kalamzorlashtirish bo'yicha komissiya;
- jamoatchilik nazorati va iste'molchilarning huquqlarini himoya qilish bo'yicha komissiya.
- hududdagi muammolarning dolzarbligiga qarab, fuqarolar yig'ini tomonidan fuqarolar yig'ini faoliyatining asosiy yo'nalishlari bo'yicha boshqa komissiyalar ham tuzilishi mumkin.

**Fuqarolik jamiyati institutlari** – fuqarolarni o'zini o'zi boshqarish organlari (mahalla), siyosiy partiyalar, ijtimoiy harakatlar, kasaba uyushmalari, jamoat birlashmalari va fondlari, nodavlat notijorat tashkilotlari fuqarolik jamiyatining asosini tashkil etib, uning mohiyatini belgilaydi. Fuqarolik jamiyati institutlari aholining fuqarolik faolligi, huquqiy ongi, milliy o'zligini anglashi, siyosiy madaniyati va jamiyat a'zolarini Yuksak ma'naviyatini yuksalishiga xizmat kilib, o'z kadr kimmati, mustaqil fikri, o'z imkoniyatlarini amalga oshirish tuyg'usi, kelajagini o'z qo'llari bilan qurish hissini tarbiyalaydi. Fuqarolik jamiyati institutlari – fuqarolarning davlat va jamiyat boshqaruvida ishtirok etishiga xizmat qiladigan nodavlat, notijorat tashkilotlari, jamiyat birlashmalari, oila, mahalla, ijtimoiy harakatlar va boshqa tuzilmalar majmuyidir. Fuqarolik jamiyati institutlarini shakllantirishning asosiy kafolati, ya'ni ularning huquqiy asoslarini yaratish maqsadlarida 1991-yilning 15 – fevralida O'zbekiston Oliy Kengashi «O'zbekiston Respublikasida jamoat birlashmalari to'g'risida»gi qonunni qabul qildi. Mazkur qonun respublikada faoliyat yuritib kelayotgan jamoat birlashmalari faoliyatini tubdan isloh qilishga, ularni sobiq yakkahokim mafkuradan poklanishiga, shuningdek, jamoat birlashmalari tizilmalarini davlat va hukumat tizimidan ajratishga huquqiy shart-sharoitlar yaratib berdi. Respublika ijtimoiy-siyosiy hayotida birinchi marta mazkur qonunda jamoat birlashmalarining maqsadlari xalqaro va demokratik mezonlar asosida ta'riflab berildi: «Jamoat birlashmalari fuqarolik, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy, huquqiy hamda erkinliklarni ro'yobga chiqarish va himoya qilish, fuqarolarning faolligi va tashabbuskorligini, davlat va jamoat ishlarini boshqarishda ularning ishtirok etishini rivojlantirish.» maqsadlarida tuziladi.

Fuqarolik jamiyatiga O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti Islom Karimov tomonidan quydagi belgilar ko'rsatib berilgan: O'zbekistonda fuqarolik jamiyatining yashashini ta'minlaydigan asosiy shart-sharoitlardan biri, bu – davlat hokimiyati vakolatlarini chegaralash, fuqarolik jamiyati institutlariga jamiyatda o'zini o'zi boshqarish uchun qanchalik zarur bo'lsa, shunchalik etarli vakolatlar berish ekanligidir. 1997-yilda chop etilgan «O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari» asarida fuqarolik jamiyatiga shunday ta'rif beriladi «Biz uchun fuqarolik jami-

yati – ijtimoiy makon. Bu makonda qonun ustuvor bo'lib, u insonning o'z-o'zini kamol toptirishiga monelik qilmaydi, aksincha, yordam beradi. Shaxs manfaat-lari, uning huquq va erkinliklari to'la darajada ro'yobga chiqishiga ko'makla-shadi. Ayni vaqtda boshqa odamlarning huquq va erkinliklari kamsitilishiga yo'l qo'yilmaydi. Ya'ni erkinlik va qonunga bo'ysunish bir vaqtning o'zida amal qiladi, bir-birini to'ldiradi va bir-birini taqozo etadi». O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.A.Karimov davlat vakolatlarini jamiyat institutlariga berish asosida huquqiy davlat va fuqarolik jamiyati qurish maqsadida quyidagi vazifa-ni qo'ygan edi: «Ammo haqiqiy milliy ravnaqqa biz faqat davlat hokimiyati vazifalarini qat'iy va mukammal belgilab va shu bilan birga cheklanib qo'yilgan fuqarolik jamiyati sharoitidagina erishmog'imiz mumkin. Bunday jamiyatda davlatning bosh vazifasi taraqqiyot strategiyasini aniq belgilash va uni hayotga joriy etish uchun qattiq nazorat olib borishdan iborat bo'ladi... Ana shunday davlat va jamiyatni qurish, haqiqiy demokratik qadriyatlarini vujudga keltirish – bizning bosh konsepsiyamiz va milliy ravnag'imiz asosidir».

O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.A.Karimovning O'zbekistonda fuqarolik jamiyati barpo etishga doir nazariy qarashlari uning «O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolat-lari» asarida o'z takomiliga etganini kuzatish mumkin. Bu asarda fuqarolik jamiyatining eng asosiy institutlari O'zbekiston mamlakati shart-sharoitlari, milliy mentalitetini hisobga olgan holda talqin etiladi. Shuningdek, bu asarda yangi jamiyat qurish muammolari «shaxs-jamiyat-davlat» o'zaro uyg'unligi asosida tahlil etiladi. Muhimi, davlatning shaxs va jamiyat manfaatlari asosida faoliyat yuritadigan siyosiy institut ekanligi, bu institutning doimo jamiyatni rivojlanishi va uning ijtimoiy-iqtisodiy jihatlardan farovon bo'lishi hamda barqarorligi uchun mas'ulligini oshirib borish zarurligi asoslanadi. «Hokimiyat tuzilmalarining demokratik mazmuni ko'p jihatdan davlatni boshqarishda fuqarolarning ishtirok etishi masalasi qanchalik hal qilinganligi bilan belgilanishi ma'lum. O'zbekis-tonda ushbu huquqning amal qilishi uchun qonun asoslari yaratilgan. Biroq hali jamiyat va fuqarolar davlatni boshqarishda ishtirok etish, o'zlari qanday boshqarilayotganligi haqida ma'lumot olish huquqini anglay boshlashiga va huquqdan foydalana oladigan bo'lishlariga erishish kerak. Shunday sharoitda-gina davlat va uning institutlari, mansabdor shaxslar jamiyat va fuqaro oldidagi o'z mas'uliyatlarini his qiladilar. Buning uchun fuqarolarning siyosiy faolligini oshirish zarur».

## G

**Garov** – olingan qarz evaziga yoki majburiyatning, va'daning bajarilishiga ishontirish uchun qoldirilgan omonat.

**«GONGO» yoki «SUN'IY – NOHUKUMAT TASHKILOTLARI** – «Gon-go» yoki «sun'iy – NHT» atamasi davlat tomonidan tashkil etilgan yoki moli-yalashtiradigan notijorat tashkilotlariga nisbatan ishlatiladi. Gongoga Daniyada 1992-yilda tashkil etilgan Ko'ngillilar markazi misol bo'la oladi. Markaz Ijtimoiy masalalar bo'yicha vazirlik huzuridagi kuzatuv kengashiga ega bo'lgan o'zini

o'zi boshqaradigan mustaqil tuzilma sifatida tashkil etilgan. Ko'ngillilar markazi ijtimoiy jamoatchilik tashkilotlari va assostiatsiyalariga, masalan, maslahatlar berish, o'qitish va uslubiyotlarni ishlab chiqish shaklida xizmatlar ko'rsatadi. Markaz zimmasiga tashkilotga xizmat ko'rsatishdan tashqari ijtimoiy masalalar bo'yicha vazirlik hamda boshqa davlat organlari va sheriklarga bilim va tajriba berish bo'yicha majburiyat ham yuklatilgan. Shu bilan birga markaz Ko'ngillilar ishi qo'mitasi uchun kotibiyat rolini bajaradi.

**Gegemonlik** – (gr. hukmronlik) rahbarlik, yetakchilik, ustunlik; guruh, qatlam (sinf), davlat (davlatlar) ning boshqa guruh, qatlam (sinf), davlat (davlatlar) ustidan rahbarligi, hukmronligi, yetakchiligi.

**Genezis** – gr. kelib chiqish, paydo bo'lishi, rivojlanish jarayoni. Genezis – yunon. genezis – kelib chiqish; paydo bo'lish, tashkil topish jarayoni.

**Geniy** – daho. 1) Qadimgi Rim afsonasida – ruh, xudo, biror kishi yoki narsaga homiylik qiluvchi; 2) Yuksak darajada iste'dodli kishi.

**Genotsid** – (lot. urug', qabilani yo'q qilmoq) xalqaro jinoyat turi. U aholining butun bir guruhlarini irqiy, milliy yoki diniy belgilariga ko'ra jismonan yo'q qilishdan iborat. Odatda, genotsidni fashizm va rassizm bilan bog'lashadi. Atamani AQSHlik huquqshunos R. Lemkin germaniya fashizmini tahlil qilish jarayonida birinchi bor qo'llagan deb hisoblanadi. Milliy-madaniy sohada genotsid millat, irq yoki diniy guruhning tili, dini, madaniyatini yo'q qilish, shu jumladan, ona tilidan kundalik muloqotda yoki maktabda foydalanishni taqiqlash, ona tilida nashr tarqatish, kutubxona, muzey, maktab, tarixiy obidalar, diniy ahamiyatga ega binolarni yo'q qilishlarda namoyon bo'ladi. 1948-yilda Parijda "Genotsid jinoyatining oldini olish va uning uchun jazolash" xalqaro konvensiyasi qabul qilindi. BMTga kirgan har bir mamlakat bu konvensiyani o'z hukumatlarida tasdiqladi. Qabul qilingan konvensiyaga binoan, tinchlik yoki urush davrida sodir qilinishidan qat'i nazar, Genotsid xalqaro huquq qoidalarini buzuvchi jinoyat, deb hisoblanadi. Unga guruhga nisbatan qotillik; guruh a'zolariga jiddiy jismoniy yoki ruhiy zarar etkazish; guruhning hayotiy sharoitlarini ongli ravishda yomon tomonga o'zgartirish natijasida guruhning to'la yoki qisman jismoniy yo'q qilinishi; guruh a'zolari ichida bolalar tug'ilishining oldini olish, bir guruhdagi bolalarni zo'rlik bilan ikkinchisiga berib yuborish kiradi. Xalqaro huquqda qonun buzgan alohida insonlarga emas, biror jamoaga nisbatan qilingan harakatlar natijasida shu guruh a'zolarining sog'lig'i, hayoti va naslini davom ettirishiga xavf tug'ilgan holatlar genotsid deb baholanadi.

**Gerontokratiya** – (gr. qariya) 1) keksa avlod hokimiyati; 2) hokimiyat keksalarga tegishli bo'lgan qadimgi jamiyatlar shakli.

**Geterogen** – xilma-xil, sifat jihatidan turli negizlardan iborat. Masalan, ko'p millatli davlatlar aholisi – geterogen; turli siyosiy partiyalardan iborat parlament tarkibi – geterogen va h.

**Getto** – ingl. o'rta asr katta shaharlarida yahudiylar yashashi majburiy bo'lgan mahallalar. XVIII asr fransuz inqilobidan so'ng ularga barham berildi. Natsistlar o'zlari bosib olgan mamlakatlarda yahudiylar uchun tuzganlar, keyinchalik ular o'lim lagerlariga aylanib ketgan. Hozirgi vaqtda G. ayrim mamlakatlarda milliy, etnik ozchilik uchun tashkil etiladigan hollar uchraydi.



**Gipoteza** – (gr. taxmin) ilmiy tadqiqot jarayonida biror hodisani tushuntirish uchun ilgari surilgan taxmin, ehtimol. Ilmiy nazariyaga aylanishi uchun qo'shimcha tekshirishlar, tajriba, amaliyot natijalari bilan tasdiqlanishi kerak.

**Giperinflyatsiya** – haddan tashqari inflyatsiya, narx-navoning shiddat bilan o'sishi, pul qadrligining g'oyat tez pasayishi, pul topishga intilishning minimal darajaga kelishi bilan ifodalanadi. G. sharoitida narx-navoni mutlaqo tartibga solib bo'lmaydi.

**Global** – (fran. global-umumiy); umuman olganda, butun yer yuzi bo'ylab.

**Global muammolar** – (lot. *globus* – shar) – hozirgi davrning bosh, asosiy muammolari bo'lib, sivilizatsiyaning mavjud bo'lishi, saqlanishi va rivojlanishi ana shu muammolar hal etilishiga bog'liqdir. Zamonaviy sivilizatsiyaning o'ziga xos jihati global tajovuzlar va muammolarning ko'payib borayotganligidir. Bu o'rinda gap termoyadro urushi tahdidi, qurol-aslahalar ko'payib borayotganligi, tabiiy resurslardan nooqilona foydalanilayotganligi, kasalliklar, ochlik, qashshoqlik va boshqa shu kabilar haqida bormoqda. Global muammolar konsepsiyasida muammolarning obyektiv "iyerarxiya"sig'a, ya'ni muammolardan birining boshqasiga nisbatan ustuvorligi va ularning bir-biriga tobeligi masalasiga muhim ahamiyat qaratilmoqda. Global muammolar iyerarxiyasi ularni rasmiy ravishda ilmiy tasniflashdangina iborat emas, balki bunday iyerarxiyani ham nazariy tahlil qilishda, ham amaliy yechimini topishda muayyan izchillikni taqozo etadi. Mutaxassislar quyida keltiriladigan muammolarni ajratib ko'rsatadilar: tinchlikni saqlab qolish hamda qurol-yarog'larni qisqartirish va qurolsizlanish jarayonlarining muqarrarligini ta'minlash; atrof-muhitni muhofaza qilish; insoniyatning nufus muammosi; xomashyo va energiya bilan ta'minlash; Tinch okeani resurslaridan foydalanish; fazoviy makonni o'zlashtirish; ochlik va kasalliklarni bartaraf etish; qoloqlikka barham berish. Jahon urushining inson uchun nufusiy, ekologik va boshqa oqibatlarini keltiradigan mislsiz halokatlar eng jiddiy xavflar hisoblanadi, aslida jahon urushi kurramizda sivilizatsiyaning mavjud bo'lishi va inson hayotining o'ziga tahdid soladi. Shuning uchun yadro qurollari mavjud bo'lmagan, zo'ravonlikdan holi bo'lgan dunyo nafaqat oliy sotsial qadriyat, balki qolgan barcha global muammolarni hal etish uchun dastlabki zarur shartdir. XX asrning 90-yillarda jahondagi vaziyat o'zgardi va jahondagi yetakchi davlatlar u yoki bu masalalarni hal etish uchun qurol-yarog'dan va, ayniqsa, yadroviy quroldan foydalanishgacha etib bormaydi, degan tushuncha o'sib bormoqda. Mudofaa va "sovuq urush" masalalari, atom urushining dahshatlari muammolari o'rmini yashash muhitining vayron bo'lishi, sivilizatsiya tangligining boshqa shakllari to'g'risidagi xavotirlik egallagan. Jamiyat va tabiatning o'zaro munosabatlarini uyg'unlashtirish asosiy muammo bo'lib qolmoqda, shuning uchun ham ekologik xavfsizlik masalasiga nisbatan ustuvor vazifalardan biri sifatida qaralmoqda. Tabiatga nisbatan "bosqinchilik" qilish zamirida ham global muammo yotadi. Sanoat ishlab chiqarishining chiqindilari va qishloq xo'jaligida kimyo mahsulotlaridan foydalanish atrof-muhitni haddan ziyod ifloslantirib yubordi. So'nggi 30-40-yil ichida o'simlik va hayvonot dunyosining juda ko'p turlari yo'q bo'lib ketdi, kislotali yomg'irlar G'arbiy Yevropa va Janubiy Amerikaning bir qator mamlakatlaridagi o'rmonlarning yarmiga qadar qirg'in keltirdi. Insoni-

yat omon qolishi muammosining murakkabligi va ko'lami xalqaro hamkorlikka bo'lgan zaruriyat keskin ekanligini ko'rsatadi. BMTning Atrof-muhit va rivojlantirish bo'yicha konferensiyasining (Rio-de-Janeyro, 1992)-yil XXI asr bo'sag'asida "insoniyat o'z tarixida hal qiluvchi damlarni boshidan kechirmoqda" degan xulosasi borgan sari dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Xalqaro hamjamiyat tomonidan qabul qilingan Dunyoning barqaror rivojlanishi Konsepsiyasi quyida keltiriladigan uchta qoidada o'z ifodasini topgan: 1) diqqat markazida tabiat bilan uyg'unlikda sog'lom va samarali hayot kechirish huquqiga ega bo'lgan odamlar turganligi faktini e'tirof etish; 2) atrof-muhitni muhofaza qilish rivojlantirish jarayonining ajralmas tarkibiy qismiga aylanishi kerak, bunday muhofazani rivojlanish jarayonidan ajralgan holda tasavvur qilib bo'lmaydi; 3) hozirgi avlodning ham, kelgusi avlodning ham atrof-muhitni rivojlantirish va saqlab qolishga bo'lgan ehtiyojlarini teng barobar ta'minlash zarur.

**Globallashuv** – jahon miqyosida amalga oshuvchi iqtisodiy, siyosiy va madaniy integratsiya va bir xillashuv jarayoni. Buning asosiy oqibatlariga umumjahon mehnat taqsimoti, kapital, inson va ishlab chiqarish resurslarining butun er kurrasi bo'ylab migratsiyasi, qonunchilikning, iqtisodiy va texnologik jarayonlarning standartlashuvi, shuningdek turli mamlakatlar madaniyatining yaqinlashuvi va uyg'unlashuvi kiradi. Bu obyektiv jarayon bo'lib jamiyatning barcha sohalarini qamraydi. Globallashuv natijasida dunyo barcha subyektlar faoliyatiga bog'liq bo'lib boradi. Davlatlar uchun umumiy muammolar ko'payishi bilan bir qatorda, bir-biriga yaqinlashuvchi subyektlar safi ham kengayib boradi.

**Gomogenlik** – (gr. kelib chiqishi bir xil) asos e'tibori bilan, kelib chiqishi hamda mohiyati jihatidan bir xil, bir turdagi, yagona.

**Gumanizm** – (lot. insonparvar) insonga muhabbat, uning qadr-qimmatini hurmat qilish, kishilar farovonligi va ularda yuksak ma'naviy sifatlarni rivojlantirish g'oyalari asoslanuvchi dunyoqarash. Gumanizm (insonparvarlik) – tenglik, adolat, o'zaro hurmat, inson qadrini ardoqlash, odamlar farovonligi uchun g'amxo'rlik qilish g'oyalari singdirilgan dunyoqarash.

**Guruh** – manfaatlar, qarashlar, kasbiy, faoliyat tarzi bo'yicha birtik va umumiylik kasb etgan shaxslar yig'indisi, birlashmasi. Guruh manfaatlarini kelishtirish usullariga munozaralar, "doira stol" atrofida muammolarni muhokama qilish, kelishuv texnologiyalarini qo'llash singarilar kiradi. Odatda agregatsiya bosh, asosiy maqsadlarni ajratish, qo'yilgan vazifalarni hal qilish yo'llari va vositalarini aniqlashga qaratilgan bo'ladi. Shuning uchun siyosiy jihatdan eng muhim talablar bilan bir qatorda amalga oshirilishi imkoniyatlari ko'proq maqsadlar ham tanlanadi. Shunday qilib, agregatsiya jarayonida siyosiy talablar ularning amaliy jihatdan maqsadga muvofiqligi nuqtayi nazaridan yana bir bor saralanadi. Guruh manfaatlarini kelishtirish usullariga munozaralar, "doira stol" atrofida muammolarni muhokama qilish, kelishuv texnologiyalarini qo'llash singarilar kiradi. Odatda agregatsiya bosh, asosiy maqsadlarni ajratish, qo'yilgan vazifalarni hal qilish yo'llari va vositalarini aniqlashga qaratilgan bo'ladi. Shuning uchun siyosiy jihatdan eng muhim talablar bilan bir qatorda amalga oshirilishi imkoniyatlari ko'proq maqsadlar ham tanlanadi. Shunday qilib, agregatsiya jarayonida siyosiy talablar ularning amaliy jihatdan maqsadga muvofiqligi nuqtayi nazaridan yana bir bor saralanadi.

**Guruhiy ong** – ijtimoiy ong turi. Turli guruhlar faoliyati bilan bog'liq ravishda guruhiy ong kundalik ong darajasida avval stixiyali shakllanadi. So'ng yetakchilar (nazariyotchilar, mafkurachilar) ishtirokida anglana boradi. Natijada uning tuzilishi ichki yaxlitlikka, tugallikka, ziddiyatlardan holilikka ega bo'ladi, uning guruh a'zolari bilan funksional aloqalari esa barqarorlik, tugallik kasb etadi. Har bir ijtimoiy guruh faqat o'ziga xos ongga ega bo'lgani uchun guruhiy onglar xilma-xildir. Katta va kichik, rasmiy va norasmiy, sinfiy, milliy, kasbiy, yoshga ko'ra va h.k. guruhiy ong turlari ajratiladi. Ularning har biri ikkinchisidan mazmuniga ko'ra (masalan, obyekt, belgisi, guruh hissiyotlarining yo'nalganligi, qadriyatiy intilishlar va ideallari tabiati, guruh maqsadlari, ularga erishish yo'llari va vositalari to'g'risidagi tasavvurlar) hamda ularning tarkibiga kiruvchi elementlar soni, tabiati, kompozitsiyasi, aloqalari (masalan, guruh tomonidan hodisalarning baholanishi, temperamenti) bilan, shuningdek, amal qilish usullari bilan (masalan, katta va kichik guruhlarda qoidalar shakllanish mexanizmlari turlicha bo'ladi) farq qiladi. Guruhlar ilgari surayotgan talablar ichidan muammoning asl sababini aniqlash juda muhim. Artikulyatsiya hokimiyatga qo'yilayotgan talablarni saralashni va ularni muhimligi va ahamiyati jihatidan pog'onalashtirishni talab etadi. Siyosiy manfaatlar turli shakllarda: iltimos, savol, talab, shiorlar, partiyalarning dasturiy maqsadlari tarzida, shuningdek, mavhum, noaniq bayonotlar tarzida ham ifodalanishi mumkin.

**Guvoh** – biror bir jinoyat yoki fuqarolik ishi bo'yicha o'tadigan biror-bir holatni o'z ko'zi bilan ko'rgan shaxs.

**Guruhiy nikoh** – nikohning qadimiy shakli bo'lib, unga bir frakriya, urug yoki muayyan ichki guruhning barcha erkaklari xuddi shunday boshqa guruhning ayollari bilan nikoh aloqasiga ega bo'lishi.

## H

**Hadis** – (arab. gap, suhbat) Payg'ambarimiz Muhammad alayhissalomning aytgan gaplari va qilgan ishlari haqida sahobalar Payg'ambarni ko'rgan kishilar qilgan rivoyatlar. Ular odamlarni ezgulik, o'zaro hamjihatlik, birodarlik, adolatparvarlik kabi insoniy sifatlarga ega bo'lishga chorlaydi. 14 asrdan ziyod vaqt davomida hadislar insonlarni jaholat va zalolat botqog'idan hidoyat va najot yo'lga da'vat etib kelmoqda. H.lar bir necha turga bo'linadi, Payg'ambarimiz ba'zi hadislarini aytgan paytlarida oldilarida bittagina kishi bo'lgan. o'sha kishi Rasululloh aytgan gaplarni boshqalarga yetkazgan. Bunday h.ni "Ohod", ya'ni, "bir kishi eshitgan hadis", deb nomlashadi. Ba'zi h.larni aytgan paytlarida oldilarida ko'p kishilar bo'lgan. Bunday h.lar "Mutavotir", ya'ni, "ko'p kishilar eshitgan hadis", deb ataladi va eng ishonchli hadis sanaladi. H.lar Payg'ambarimiz hayotligida va u kishi vafot etgan dastlabki yillarda tartibga solinmagan va kitob holiga keltirilmagan edi. Birinchi h.lar to'plami Molik ibn Anasning "Muatto", ash-Shofiyning "Ar-risola" va Ahmad ibn Hanbaining "Almusnad" asarlaridir. Imom al-Buxoriy, Imom at-Termiziy, Imom al-Muslim, Ibn Majja kabi bir qator muhaddis olimlar h.larni tekshirib, asl va sarobga ajratib berdilar. Eng ishonarli

h. to'plamlari – "Olti ishonchli to'plam"dir. Bu borada buyuk bobokalonimiz al-Buxoriyning "Al jome as-sahih" asari eng mukammal to'plam hisoblanadi. Ma'lumki, h.larning asosiy mohiyati ezgu g'oyalarga sadoqat, hamjihatlik, bag'rikenglik, o'zaro hamkorlikka xizmat qilishdir. Ular kishilar qalbida mehr – muruvvat, ezgu g'oyalarga sadoqat, o'z yurti, vataniga muhabbat hissini uyg'otadi.

**Hamkorlik siyosati** – xalqaro siyosat subyektlarining birgalikdagi siyosiy harakatlarda vujudga keladigan masalalar yuzasidan yagona nuqtayi nazarlarni ishlab chiqishida ifodalanuvchi munosabat turlaridan biri. Unga ko'ra tomonlar o'z faoliyatining asosiy yo'nalishlarida mustaqillikni saqlab qolgani holda qarashlar mos tushuvchi amaliy masalalarda birgalikda faoliyat ko'rsatadilar. Masalan, gitlerchi Germaniyasiga qarshi davlatlar hamkorligi.

**Harakat** – ma'lum maqsadlarga erishishga yo'nalgan ijtimoiy-siyosiy faoliyat; birlashma, tashkilot.

**Harakatlar strategiyasi** – O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi. Keng jamoatchilik muhokamasidan keyin "2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi" 2017-yil 7 – fevralda Prezident Sh.M.Mirziyoyev farmoni bilan tasdiqlandi. Beshta ustuvor yo'nalishning mazmun-mohiyati:

1) davlat va jamiyat qurilishini takomillashtirishga yo'naltirilgan demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va mamlakatni modernizatsiya qilishda parlamentning hamda siyosiy partiyalarning rolini yanada kuchaytirish, davlat boshqaruvi tizimini isloh qilish, davlat xizmatining tashkiliy-huquqiy asoslarini rivojlantirish, "Elektron hukumat" tizimini takomillashtirish, davlat xizmatlari sifati va samarasini oshirish, jamoatchilik nazorati mexanizmlarini amalda tatbiq etish, fuqarolik jamiyati institutlari hamda ommaviy axborot vositalari rolini kuchaytirish; 2) qonun ustuvorligini ta'minlash va sud-huquq tizimini yanada isloh qilishga yo'naltirilgan sud hokimiyatining chinakam mustaqilligini hamda fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini mustahkamlash, ma'muriy, jinoyat, fuqarolik va xo'jalik qonunchiligini, jinoyatchilikka qarshi kurashish va huquqbuzarliklarning oldini olish tizimi samarasini oshirish, sud jarayonida tortishuv tamoyilini to'laqonli joriy etish, yuridik yordam va huquqiy xizmatlar sifati tubdan yaxshilash; 3) iqtisodiyotni yanada rivojlantirish va liberallashtirishga yo'naltirilgan makroiqtisodiy barqarorlikni mustahkamlash va yuqori iqtisodiy o'sish sur'atlarini saqlab qolish, milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish, qishloq xo'jaligini modernizatsiya qilish va jadal rivojlantirish, iqtisodiyotda davlat ishtirokini kamaytirish bo'yicha institutsional va tarkibiy islohotlarni davom ettirish, xususiy mulk huquqini himoya qilish va uning ustuvor mavqeyini yanada kuchaytirish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik rivojini rag'batlantirish, hududlar, tuman va shaharlarni kompleks va mutanosib holda ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiy ettirish, investitsiyaviy muhitni yaxshilash orqali mamlakatimiz iqtisodiyoti tarmoqlari va hududlariga xorijiy sarmoyalarni faol jalb etish; 4) ijtimoiy sohani rivojlantirishga yo'naltirilgan aholi bandligi va real daromadlarini izchil oshirib borish, ijtimoiy himoyasi va sog'lig'ini saqlash tizimini takomillashtirish, xotinqizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, arzon uy-joylar barpo etish, yo'l-transport, muhandislik-kommunikatsiya va ijtimoiy infratuzilmalarni rivojlantirish hamda modernizatsiya qilish bo'yicha maqsadli dasturlarni amalga oshirish, ta'lim, madani-

yat, ilm-fan, adabiyot, san'at va sport sohalarini rivojlantirish, yoshlarga oid davlat siyosatini takomillashtirish; 5) xavfsizlik, millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglikni ta'minlash, chuqur o'ylangan, o'zaro manfaatli va amaliy ruhdagi tashqi siyosat yuritishga yo'naltirilgan davlatimiz mustaqilligi va suverenitetini mustahkamlash, O'zbekistonning yon-atrofida xavfsizlik, barqarorlik va ahil qo'shnichilik muhitini shakllantirish, mamlakatimizning xalqaro nufuzini mustahkamlash. Harakatlar strategiyasini "xalq bilan muloqot va inson manfaatlari yilida amalga oshirishga oid Davlat dasturi loyihasining jamoatchilik muhokamasida 1310 ta taklif va mulohaza kelib tushib, ular asosida Davlat dasturining 41 ta bandiga o'zgartirishlar kiritilgan.

**Harbiy holat** – favqulotda holatlarda (urush, tabiiy ofat, va h.) butun mamlakat yoki uning ayrim hududlarida kiritilgan alohida davlat – huquqiy tartibi. Harbiy holatning belgilari: joylarda harbiy hokimiyat vakolatlarining kengayishi; davlat organlarining mudofaa, jamoatchilik tartibi va davlat xavfsizligi borasidagi funksiyalarning oliy harbiy qo'mondonlik qo'lga o'tishi; fuqarolar zimmasiga mamlakat mudofaasi borasida qo'shimcha majburiyatlarning yuklanishi; aholi uchun ba'zi cheklashlarning kiritilishi (masalan, komendantlik soati); muayyan hududlarga borish (va u yerdan chiqish) ning taqiqlanishi.

**Hisob palatasi** – davlatdagi oliy moliyaviy (moliyaviy-iqtisodiy) nazorat organining dunyoda eng keng tarqalgan nomi. Xuddi shu nomda Vengriya, Gretsiya, Ispaniya, Portugaliya, GFR, RF va qator boshqa mamlakatlarda ishlatiladi. AQSHda Bosh hisobot boshqarmasi, Braziliya, Jazoir, Fransiya, Ruminiyada – **hisob sudi** deb ataladi. Ko'pgina mamlakatlarda ular parlamentning yordamchi organi sifatida faoliyat ko'rsatib, uning nazorat vazifalarining bajarilishini ta'minlaydi. Ammo, masalan, Italiyada Hisob palatasi hukumatning ijro etuvchi organi sifatida konstitutsiyaviy jihatdan ajratilgan. Hisob palatasining aniq vakolatlari va u nazorat qilishi mumkin bo'lgan obyektlar hajmi ham bir xil emas. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2002-yil 27 – iyunda "Hisob palatasini tashkil etish to'g'risida"gi farmoni qabul qilindi. Bu farmonga ko'ra Hisob palatasi o'zining faoliyati to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va Oliy Majlisga hisobot beradi. Hisob palatasining asosiy vazifasi davlat byudjeti ijrosini nazorat qilish, davlat aktiv va passivlarni holati va harakatini nazorat qilish kabi vakolatlarni amalga oshiradi

**Hokimlik instituti** – milliy an'analaridan kelib chiqib tashkil etilgan. 1991-yil 18 – noyabrda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining "O'zbekiston poytaxti – Toshkent shahrining maqomi va uni boshqarish tizimi to'g'risida"gi qaroriga asosan Toshkent shahrida vakillik va ijro etuvchi hokimiyatlarni o'zida mujassamlashtirgan hokimlik instituti tashkil etildi. 1992-yilning boshida bunday amaliyot butun respublikada amalga joriy etildi.

**Hokimiyat** –1) insonlar faoliyati va xulq-atvoriga muayyan ta'sir ko'rsatish qobiliyati va imkoniyati. Bu qobiliyat yoki imkoniyat iroda, avtoritet, huquq, zo'rlik singari vositalar yordamida amalga oshiriladi; 2) odamlar ustidan siyosiy hukmronlik; 3) davlat organlari tizimi; 4) tegishli davlat, ma'muriy vakolatlar-ga ega shaxslar, muassasalar. Hokimiyatga berilgan ta'rifdan uning bir qator belgilari kelib chiqadi: hokimiyat kamida ikki tomon o'rtasidagi munosabat; bu munosabatlar doimo tengsiz, ular doimo subyektdan obyektga qaratilgan; bu

munosabatlar doimiy, shuning uchun ham rasmiylashgan (institutlarda, me'yorlarda, an'analarda); hokimiyat munosabatlari natijaga qaratilgan, ya'ni subyekt va obyektning muayyan natija bilan tugallanuvchi harakatlarini taqozo etadi.

**Hokimiyat tangligi** – davlat hokimiyati organlarining faoliyati keskin yomonlashuvi, jamiyatdagi yoki uning biron ma'muriy – hududiy birligidagi tanglik vaziyati. U yangi hokimiyat markazlarining vujudga kelishi bilan ham xarakterlanadi.

**Hokimiyatlar bo'linishi** – davlat nazariyasining asosiy prinsiplaridan biri bo'lib, unga ko'ra yagona davlat hokimiyati mustaqil va bir-biriga bo'ysunmaydigan qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatiga bo'linadi (ular bilan bir qatorda ba'zan ta'sis etuvchi, saylovchi va nazorat hokimiyati ham ajratiladi). Ushbu prinsipning vazifasi davlat hokimiyati to'raligicha bir shaxs yoki organ qo'lida jamlanishiga yo'l qo'ymaslikdan iborat. Zero, hokimiyatning to'liq bir shaxs yoki organ qo'lida jamlanishi demokratiyaga inson huquq va erkinliklariga bevosita xavf tug'diradi, avtoritar tuzum o'rnatilishiga olib keladi. Hokimiyatlar bo'linishi prinsipi birinchi marta 1787 y. AQSH Konstitutsiyasida o'z ifodasini topgan. Bu yerda u hokimiyat nafaqat ajratilgan, balki «o'zaro muvozanat va cheklovlar tizimi» orqali bir-birini nazorat qiladi. Hokimiyatlar bo'linishi prinsipi parlamentar davlatlarda kamroq darajada amal qiladi, chunki ularda parlament ijro etuvchi hokimiyat organlaridan ustun turadi. Hokimiyatlar bo'linishi O'zR Konstitutsiyasining 11 – moddasida konstitutsiyaviy tuzumning asoslaridan biri sifatida mustahkamlab qo'yilgan bo'lib, unga ko'ra "O'zbekiston Respublikasi davlat hokimiyatining tizimi hokimiyatning qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatiga bo'linishi prinsipiga asoslanadi". Ushbu prinsip mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlariga nisbatan qo'llanilmaydi. Hokimiyatlar bo'linishi – siyosiy hokimiyatning markazlashuviga yo'l qo'ymaslikka, uni cheklash va nazorat etishga qaratilgan tamoyil. G'arbiy Yevropa siyosatchilari va olimlari tomonidan ishlab chiqilgan va amalda qo'llaniladi. U ijro etuvchi, qonun chiqaruvchi va sud hokimiyatlarining bir-biridan mustaqilligi, bir-biriga ta'sir ko'rsatish mexanizmlarining mavjudligi (veto huquqi, impichment, hukumatning amalda kimga tobeligi va h.) hamda nazorat mexanizmlari borligi bilan xarakterlanadi. Hokimiyatlar bo'linishi – Konstitutsiyaviy, huquqiy davlatning bosh belgilaridan biri. Hokimiyatlar bo'linishining Lokk modeli, Monteske modeli, Sun-Yatsen modellari mavjud. Lokk «kelishuvli» modelni asoslaydi. Uning modelida qonunchilik hokimiyati boshqalardan ustun va, shu bilan birga, hokimiyatlar o'rtasida doimiy o'zaro hamkorlik va o'zaro ta'sir mavjud. Lokk modeli zamonaviy parlament monarxiyalari yoki respublikalarida rivojlantirildi. Sh.L.Monteske hokimiyatlar bo'linishi nazariyasining bugungi kunda amal qilayotgan ikkinchi, teng, mustaqil va bir-birini nazorat etuvchi hokimiyatlar modelining muallifidir: hokimiyatlar o'rtasidagi munosabatlar shunday qurilishi kerakki, ular davlat vazifalarini mustaqil hal qilgani holda, har biri o'z huquqiy vositalari bilan bir-birini muvozanatga solishi va biror organ hokimiyatni bir tomonlama egallab olishining oldini olib bilishi lozim. Bugungi kunda bu model AQSH Konstitutsiyasining negizini tashkil etadi. Tarixiy tajriba hokimiyatlar bo'linishi tamoyili izchil va uyg'un holda aynan prezidentlik boshqaruvida namoyon bo'lishi tasdiqlandi. XX asrning

boshlarida Xitoy siyosiy arbobi Sun Yatsen hokimiyatni uchga emas, mamlakat an'analaridan kelib chiqqan holda, beshga bo'lishni taklif etgan. Qonunchilik, ijro va sud hokimiyatlari qatoriga nazorat va imtihon hokimiyatlarini kiritgan. Hokimiyatlar bo'linishi nazariyasining asosiy tamoyillarini qisqacha quyidagicha ifodalash mumkin: hokimiyatning yagona manbayi (xalq) mavjudligi; hokimiyatlar bo'linishi Konstitutsiyada belgilab beriladi; har bir hokimiyat tarmog'i o'z faoliyati sohasiga ega va shu tariqa uning faoliyati cheklanadi. Konstitutsiyaga ko'ra qonunchilik, ijro va sud hokimiyati turli odamlarga va turli organlarga topshiriladi; har bir organ boshqa organ faoliyatini tiyib va muvozanatga solib turish mexanizmlariga ega, lekin uning qarorini bekor qila olmaydi; barcha hokimiyatlar mustaqil va biri ikkinchisini hokimiyatdan chetlata olmaydi; hech bir hokimiyat boshqasiga berilgan vakolatlardan foydalana olmaydi; sud siyosiy hokimiyat emas va shu tariqa siyosiy ta'sirlardan holi – u faqat qonun asosida faoliyat yuritadi. Hokimiyatlar bo'linishi nazariyasi bilan birga va unga qarama-qarshi ravishda yagona davlat hokimiyati nazariyasi ham rivojlangan. Uning mohiyati davlat hokimiyatining yagonaligi, markazlashganligi, bo'linmasligi va qudratligi tushunchalarida bayon etiladi. Qadimgi Sharq davlatlari – Misr, Fors davlatlari, O'rta asr xristian davlatlari, mualliflardan Makiavelli, Gobbs, nemis huquqshunosi Samuel Puffendorf, Russo, Marks, Lenin, Stalin, fashizm mafkurasida ana shunday davlatchilik g'oyasi mukammal ishlab chiqilgan edi.

**Homiy** – birorta tadbir yoki faoliyatni amalga oshirishda moliyaviy yordam ko'rsatuvchi. homiy odatda puldor, obro'-e'tiborli shaxs, firma, korporatsiya, konsern, tashkilot, idora bo'lishi mumkin. Aksariyat homiy milliy yoki xalqaro miqyosdagi tadbirlarga moliyaviy homiylik qiladi, qar xil tadbirlar, uchrashuvlar, ko'rgazmalar, tomoshalar o'tkazishda ularning tashkilotchilariga moddiy yordam berib, xarajatning hammasini yoki bir qismini ko'taradi. homiylik rivojlangan ilg'or mamlakatlarda keng tarqalgan va xalqaro xarakterga ega.

**Hukmronlik** – hokimiyatni amalga oshirish mexanizmi. U ijtimoiy institutlar shakliga ega bo'ladi, hukmron hamda itoat etuvchi ijtimoiy guruhlar o'rtasida pog'onalashuv, muayyan ijtimoiy masofa mavjudligini, alohida boshqaruv apparatining ajralib chiqishini nazarda tutadi. Hokimiyat hukmronlik tushunchasini qamraydi, ammo doim ham hukmronlik belgilariga ega bo'lmaydi.

**Hukumat** – davlatning oliy kollegial ijro etuvchi organi. Hukumat turli mamlakatlarda turlicha nomlanishi mumkin: Vazirlar kengashi (Fransiya, Italiya, Polsha), Vazirlar Mahkamasi (Buyuk Britaniya, O'zbekiston), Davlat kengashi (XXR) va boshqalar. Hukumat **partiyasiz**, bir partiyali va koalitsion bo'lishi mumkin. Hukumatni tuzish tartibi boshqaruv shakliga bog'liq bo'ladi. Parlamentar mamlakatlarda hukumatni davlat boshlig'ining topshirig'iga binoan bir palatali parlamentda yoki ikki palatali parlamentning quyi palatasida ko'pchilik o'ringa ega bo'lgan partiya yetakchisi (koalitsion Hukumatda – partiyalar yetakchilaridan biri) tuzadi. Prezidentlik respublikalarida (shunday organ konstitutsiyada nazarda tutilganlarida) hukumatni Prezident tuzadi, bunda u tayinlagan hukumat a'zolaridan har biri qator mamlakatlarda (Belarus, Qozog'iston, O'zbekiston, Qirg'izistonda) parlament tomonidan tasdiqlanishi kerak. Hukumat a'zolari (vazirlar, lavozimsiz vazirlar, davlat vazirlari, davlat kotiblari va bosh-

qalar) davlat boshqaruvining aniq markaziy idoralariga boshchilik qilishadi, parlamentar respublikalarda ular odatda parlament a'zolari bo'lishlari kerak, qachonki prezidentlik va qoidaga ko'ra yarimprezidentlik respublikalarida vazirlik lavozimini va deputatlik mandatini qo'shib olib bormaslik prinsipi amalda bo'ladi. Parlamentar davlatlarda hukumat parlamentga (ikki palatali parlamentda quyi palataga) kollegial hisobdor bo'ladi. Bu parlamentdagi ko'pchilikning qo'llab-quvvatlashi yo'qotilganda (hukumat koalitsiyasi bo'linib ketganda) Hukumat iste'foga chiqishga majbur (bu **hukumat tanqisligi** boshlanganligidan darak beradi, u yangi hukumatning tuzilishi va parlamentning unga ishonch bildirishi bilan tugallanadi) yoki parlament tarqatib yuborilib, muddatidan oldin parlamentga saylovlar tayinlanadi. Federal davlatlarda markaziy (federal) hukumat va federatsiya tarkibiga kiruvchi davlat tuzilmalari (shtatlar) Hukumatari bo'ladi. Hukumat to'la tarkibda ishlashi mumkin yoki hukumat boshlig'i torroq hay'atni (**mahkama** – Buyuk Britaniya, Hindiston va boshqalarda) tuzadi. Hukumat o'z tarkibidan yordamchi hukumat qo'mitalarini tuzishi mumkin. Hukumat qarorlari yoki siyosiy ko'rsatmalar tusida bo'ladi yoki normativ hujjatlar yoki qonun loyihalari ko'rinishida (odatda alohida vazirliklar tomonidan ishlab chiqiladi) rasmiylashtiriladi va so'ngra ular parlamentga kiritiladi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 98-moddasiga muvofiq, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi ijro etuvchi hokimiyatni amalga oshiradi. Vazirlar Mahkamasi amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq O'zbekiston Respublikasining butun hududidagi barcha organlar, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, mansabdor shaxslar va fuqarolar tomonidan bajarilishi majburiy bo'lgan qarorlar va farmoyishlar chiqaradi.

**Hukumat** – mamlakatning oliy ijro organi. Uning tarkibi turli boshqaruv tizimlarida turli usullar bilan aniqlanadi: prezidentlik respublikasida hukumat Prezident tomonidan tuziladi va uning oldida mas'ul; parlament respublikasida – hukumat parlament tomonidan tuziladi va uning oldida mas'ul; aralash turdagi respublikalarda hukumat boshlig'i (premer-ministr) hukumatni tuzadi va u ham prezident, ham parlamentga hisobotlidir. Hukumatning hokimiyat tizimidagi maqomi va tarkibi har bir davlatning Konstitutsiyasi bilan belgilanadi: 1) absolyut monarxiyalarda hukumat qirol tomonidan tuziladi, hukumat qarorlarini ham qirol qabul qiladi. Bunday hukumat tarkibiga hukmron oila a'zolari vakillari, texnokratlar, mamlakatning eng boy oilalari vakillari kiradi. Ba'zan qirol o'zini premer – ministr deb e'lon qiladi; 2) dualistik monarxiyalarda hukumatni qirol tuzadi, lekin u parlamentdagi kuchlar nisbatini albatta hisobga oladi. Bu hukumatda mas'uliyat – shaxsiy, qirol istagan vazirlarini bo'shatadi. Qarorlarni qirol qabul qiladi, hukumat uni qo'llab-quvvatlamagan taqdirda qirol butun hukumatni iste'foga chiqarishi mumkin; 3) parlament monarxiyalarida qirol hukumatni tayinlaydi, lekin bu funktsiya deyarli rasmiy: aslida bu masalani parlamentdagi ko'pchilik hal qiladi. Hukumat faqat parlament oldida mas'ul. Monarx diskret vakolatlarga ega emas. Birorta partiya saylovlarda ko'pchilik ovoz to'play olmagan bo'lsa, qirol imkoniyatlari ko'proq partiyalardan birining vakiliga hukumat tuzishni topshiradi (Daniya, Belgiya, Niderlandiya). Bunday shaxslarni formator deb atashadi. Hukumat tuzilsa, u hukumat boshlig'i vazifasini egallaydi. Koalitsiya tuzilmagan



holatda qirol yangi formator tayinlaydi. Bu holatda ham kelishuvga erishilmasa, qirol «xizmatchi», «ishchi», «amaldorlar» hukumatini tuzadi va unga 1-2 oy ichida yangi saylovlar tayyorlab o'tkazishni va yangi hukumat tuzishni topshiradi; 4) parlament respublikalarida hukumat parlament tomonidan tuziladi va uning oldida mas'ul. Ba'zi davlatlarda (Italiya, Germaniya) hukumat boshlig'i lavozimiga nomzodni Prezident ilgari suradi; 5) Prezident respublikalarida hukumat Prezident tomonidan tuziladi, barcha vakolatlar prezidentda bo'ladi, hukumat esa uning birinchi Prezidentigi maslahat kengashi vazifasini bajaradi, odatda, bunday hukumatlarning maqomi konstitutsion tarzda aniq belgilanmagan bo'ladi; 6) aralash respublikalarda hukumat ikki tomonlama mas'uliyatga ega. Parlament prezidentga muxolif bo'lgan holatlarda hukumatning roli ortadi v.h. Partiyaviy tarkibiga ko'ra ham hukumatlarning bir qancha turlarini ajratish mumkin: **bir partiyaviy hukumat** doimo – Prezident respublikalarida, dualistik monarxiyalarda, parlament monarxiyalari va respublikalarida uchraydi; **ikki partiyaviy hukumat** parlament respublikalarida 2.5 partiyaviy tizim vaziyatida, monarxiyalarda uchraydi; **koalitsion hukumat** parlament monarxiyalari va respublikalarida uchraydi; **kamchilik hukumati** (Daniya, Norvegiya, Shvetsiya) partiyalar o'rtasidagi kelishuv mutlaqo mumkin bo'lmaganda va hech bir yirik partiya kelishuvga bormaganda tuziladigan hukumat; 5) **partiyasiz hukumat**. Ularning to'rt turi mavjud: a) mamlakatda umuman siyosiy partiyalar yo'qligi vaziyati (SA, BAA, Quvayt yoki biror harbiy rejim); b) hukumat amaldorlar tomonidan tuzilgan vaziyatlar; s) harbiy rejimlar tuzadigan texnokratik hukumatlar; d) vaqtli hukumat (favqulodda vaziyatlarda ma'lum muddatga tuziladigan hukumatlar) va milliy birlik hukumatlari (ko'plab partiya vakillaridan keng asosda tashkil etiladigan hukumat). Hukumat funksiyalariga siyosiy kursni belgilash; ijtimoiylashuv; kadrlarni tanlash va saralash; siyosiy kommunikatsiya singarilar kiradi. Hukumatga muqobil nazariyalarga libertaristlar (jamiyatni fundamental huquqlarga ega odamlar birligi sifatida qaraydi va hukumatlar o'z zimmalariga qancha ko'p vazifa olsalar shu huquqlar shunchalik poymol etilishiga zamin yaratiladi, deb hisoblaydilar) va anarxistlar (jamiyat – tabiiy holatdagi o'zaro teng individlar birlashmasidir, hukumatlar va hokimiyat bunday birlashmalarni emiradi va istibdod hamda begonlashuvga olib keladi, deb hisoblaydilar. Ularning o'rniga ko'ngilli hamkorlik va tabiiy ittifoqlar zarur kiradi.

**Hukumat boshlig'i** – hokimiyatning oliy ijro organi rahbari (parlament boshqaruvi mamlakatlarida – premer-ministr, kansler; Prezident respublikalarida – prezident). Parlament boshqaruvi amal qiluvchi mamlakatlarda hukumat boshlig'i davlat boshlig'i tomonidan tayinlanadi. Odatda bu g'olib partiya yetakchisi yoki hukumat koalitsiyasi tarkibidagi partiya yetakchisi.

**Huquq** – davlat qonunlari bilan beriladigan erkinlik, harakat qilish imkoniyati, nimanidir amalga oshirish yoki nimadandir foydalanish, nimagadir egalik qilish; jamiyatdagi munosabatlarni, kishilar va ularning harakati va xulqini muvofiqlashtirish, davlat va jamiyat organlarini yashashini ta'minlashga imkoniyat berish maqsadlarida davlat tomonidan o'rnatilgan va himoya qilinadigan umum majburiy ijtimoiy me'yorlar va qoidalar. Huquq – ijtimoiy munosabatlarda odamlarning rasman tengligini bayon etishning qoidaviy shakli. Me'yorlar, qoi-

dalar tizimi tarzida amal qiladi, davlat hokimiyati tomonidan belgilanadi va bajarilishi davlat hokimiyatining *zo'rikka qonuniy yakka egaligi* bilan ta'minlanadi.

**Huquqiy davlat** – huquq, Konstitutsiya va Qonun hukmronlik qiladigan davlatdir. Davlat va uning institutlari, mansabdor shaxslar jamiyat va fuqaro oldidagi o'z ma'suliyatlarini his qilishlari, o'z navbatida jamiyat va fuqaro, uning tashkilotlari davlat oldidagi ma'suliyatlarini his qilishlari kerak. Bu ma'suliyatni oshirish orqali huquqiy demokratik davlat shakllantiriladi va rivojlantiriladi hamda bu jarayon uzoq muddatni talab etadi. Huquqiy davlat – konstitutsion davlatning real, zamonaviy shakli. U o'z faoliyatida huquq bilan cheklanadi. Huquqiy davlat siyosiy konstitutsion tizimdan yuridik konstitutsion tizimga o'tishni anglatadi. Huquqiy davlatning asosiy qadriyati inson huquqlaridir. Huquqiy davlatning ijtimoiy asosini va mavjudligi shartini fuqarolik jamiyati tashkil etadi: kuchli davlat va kuchli fuqarolik jamiyati hamkorligi modeli. Huquqiy davlatda huquq davlat, jamiyat, individ o'zaro aloqalarining asosidir. Unda barcha huquqiy hujjatlar davlatning Asosiy qonuni – Konstitutsiyaga muvofiq keladi. Huquqiy davlat g'oyasi yangi davrning boshidan e'tiboran Yevropa va AQSH-da ishlab chiqila boshlandi. Uning asoschilari J.Lokk, T.Jefferson, I.Kant va liberal-demokratik an'analarning boshqa vakillaridir. Huquqiy davlat bir qancha belgilarga ega: jamiyat hayotining barcha sohalarida qonun ustuvorligi; shaxs huquqlarining kafolatlanganligi, ularning erkin rivojlanishi uchun imkoniyatlar mavjudligi; davlat va shaxs o'zaro mas'uliyati, bu mas'uliyat ularning qonun oldida tengligi orqali amalga oshiriladi; davlat hokimiyatining bo'linishi tamoyili amal qilishi. Huquqiy davlatda boshqaruv demokratik respublikadan konstitutsiyaviy monarxiyagacha (masalan, Buyuk Britaniya) bo'lgan turli shakllarga ega bo'lishi mumkin. Avtoritarizm sharoitida huquqiy davlat byurokratik yoki politsiyachi davlatga aylanishi mumkin. Yana bir aynigan ko'rinishi – ideokratiya. Mafkura bunda huquq va konstitutsiyaning asosini tashkil etadi. Misollari – SSSR, natsistik Reyx, tezkor Modernizatsiya davlatlari. XX asrda huquqiy davlat g'oyasining renessansi, ya'ni paydo bo'lishi M.Fridman va F.A.Xayek nomlari, shuningdek 70–80-yillar boshidagi "neokonservativ inqilob" ("reganomika" va "tetcherizm") bilan bog'liqdir.

**Huquqiy madaniyat** – umumiy madaniyatning muhim qismi. Huquqiy madaniyat tarixan asta-sekin shakllangan ijtimoiy voqea bo'lib, hozirgi davrda ilg'or huquqiy davlatlarning va ularning fuqarolarining zaruriy xislati va taraqqiyot omiliga aylangan.

**Huquqbuzarlik** – bu davlat, jamiyat va fuqarolar manfaatlariga zarar yetkazuvchi aqli raso shaxsning huquqqa zid, aybli, jazoga loyiq, ijtimoiy xavfli qilmish.

**Huquqiy davlat** – huquqning hukmronligi, qonunning ustunligi, barchaning qonun va mustaqil sud oldida tengligi ta'minlanadigan, inson huquqlari va erkinliklari kafolatlanadigan, hokimiyat vakolatlarining bo'linishi prinsipi asosida tashkil etilgan demokratik davlat.

**Huquq** – bu davlat tomonidan o'rnatiladigan yoki ma'qullanadigan, o'zida erkinlik, tenglik va adolat tamoyillarini ifodalaydigan, ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishga qaratilgan, bajarilishi umummajburiy bo'lgan yurish-turish qoidalarini yigindisi.

**Ijrochi** – maishiy xizmat, uy-joy kommunal ta'mirlash, kurilish, transport xizmati va xizmat ko'rsatishning boshqa sohalari bo'yicha iste'molchi uchun ishlar bajaradigan va xizmatlar ko'rsatadigan korxonalar, tashkilot, birlashma yoki yakka tartibda faoliyat ko'rsatuvchi tadbirkor.

**Iste'molchi** – foyda chiqarib olish bilan bog'liq bo'lmagan holda shaxsiy iste'mol yoki boshqa maqsadlarda tovar sotib oluvchi, ish, xizmatga buyurtma beruvchi yoxud shu niyatda bo'lgan fuqaro (jismoniy shaxs).

**Ishlab chiqaruvchi** – iste'molchiga realizatsiya qilish uchun tovar ishlab chiqaradigan korxonalar, tashkilot, muassasa yoki xususiy tadbirkor.

**Indeksatsiya** – inqirozdan himoya qilish vositasi sifatida kontraktlar va majburiyatlar bo'yicha narxlar indeksi bilan to'lovlar muvofiqligi.

**Ish vaqti** – mehnat huquqida kalendar vaqtining bir qismi, bu vaqt mobaynida ishchi yoki xizmatchi o'ziga ko'rsatilgan joyda topshirilgan ishini yoki boshqa ish majburiyatlarini bajarishi.

**Ishonch xati** – Fuqarolik huquqida bir shaxs boshqa shaxsga uchinchi shaxslar oldida uning nomidan ish yuritishi uchun beriladigan yozma vakolat.

**Iqtisodiy josuslik** – qonunga xilof ravishda iqtisodiyot, tijorat, ishlab chiqarish sohasidagi ma'lumotlarni o'z manfaatlarini uchun olish va foydalanish.

**Iqtisodiy huquqlar** – iqtisodiy eozadagi inson faoliyatining yuridik jihatdan belgilovchi huquqlarning majmuyi.

**Imperativ normalar** – ma'lum bir huquqiy munosabatda qatnashuvchilarning erklari bilan o'zgartirilishi mumkin bo'lmagan, qat'iy xarakterda bo'lgan, qat'iy buyruq beradigan normalar.

**Ishlab chiqarish kooperativi** – fuqarolarning shaxsiy ishtiroki, a'zolar (ishtirokchilar)ning mulki bilan qoshiladshim pay badallarini birlashtirish asosida birgalikda ishlab chiqarish yoki boshqa xo'jalik faoliyatini olib borish uchun a'choin negizidagi ixtiyoriy birlashma.

**Ishonchnoma** – bir shaxs (ishonch bildiruvchi) tomonidan ikkinchi shaxsga (ishonchli vakilga) uchinchi shaxslar oldida vakillik qilish uchun beriladigan yozma vakolat.

**Ish vaqti** – xodim ish tartibi yoki grafigiga yoxud mehnat shartnomasi shartlariga muvofiq, o'z mehnat vazifalarini bajarishi lozim bo'lgan vaqt.

**Ichki bozor** – muayyan mamlakat miqyosida tovar ayirboshlanadigan joy.

**Ideal** – (gr. tushunchalar, tasavvur) barkamollik, u yoki bu sohadagi mukammallik; intilishlarning eng yuqori cho'qqisi. **Siyosiy ideal** – barkamol inson, jamiyat va boshqaruv haqidagi siyosiy qarashlar, tasavvurlar, g'oyalar tizimi. U jamiyat oldiga qo'yilgan ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy vazifalarni ro'yobga chiqarish yo'llarini va vositalarini aniqlash hamda faoliyatning amaliy, to'g'ri yo'nalishlarini topish ehtiyoji asosida vujudga keladi.

**Identifikatsiya** – (lot. o'xshatmoq, tenglashtirmoq, baravarlamok) monandlik. Siyosiy identifikatsiya – u yoki bu siyosiy guruhga o'zini boshqalardan ajratish imkonini beruvchi barqaror belgilar, xususiyatlar birligi. Identifikatsiya – (lot. o'xshatmoq, tenglashtirmoq, baravarlamok) monandlik. Shaxsning bosh-

qalar bilan intellektual, hissiy uyg'unligi. Shaxsdagi shunday sifatni aniqlash jarayonini, uning asosida shaxsni biror sinf, turga mansub deb atash, shaxs yoki ijtimoiy birlikni esa yaxlit va o'z-o'ziga monand deb bilish imkoni paydo bo'ladi. Aniqlash, qiyoslash, tenglashtirish, orientatsiya tushunchalari bilan bog'liq. Fanga Z.Freyd tomonidan kiritilgan deb hisoblanadi. Batafsilroq E.Erikson tomonidan ishlab chiqilgan. Dastlab individual psixologiyada o'rganilgan tushuncha. O'zbek tiliga "monandlik" sifatida tarjima qilinadi: "biror narsa boshqa biror narsaga monand" ekanligini anglatadi. Shu ma'noda identifikatsiya, ya'ni monandlikni his etish faqat individual darajada bo'lishi mumkin. Guruh va jamiyat monandligi mavjud bo'lishi mumkin emas, degan fikr mavjud. Lekin bir qator, jumladan, milliy monandlikni o'rganuvchi olimlar, bu fikrni rad etadilar. Agar omma millat bilan monandlikni psixologik darajada his etgan bo'lsa **milliy monandlik** to'g'risida so'z yuritish mumkin, deb hisoblaydilar. Kuchli milliy monandlik davlatning mustaqillik va milliy davlat qurish siyosatining muvaffaqiyatli amalga oshishida muhim resurs bo'lib hisoblanadi. **Siyosiy identifikatsiya** – u yoki bu siyosiy guruhga o'zini boshqalardan ajratish imkonini beruvchi barqaror belgilar, xususiyatlar birligi. Masalan, biror partiya a'zolarining o'zlarini aynan shu partiya maqsadlari, faoliyati usullari, mafkurasi, qadriyatlari bilan monand his etishlari. Shaxsiy darajada siyosiy identifikatsiya – individning biror guruhga mansubligini, o'zining maqomi, ijtimoiy rolini anglashi va bu borada faoliyat ko'rsatishga tayyorligi bilan bog'liq. Bunda siyosiy jarayon subyekti boshqa subyektlar ham e'tirof etgan siyosiy qarashlar bilan o'zining birdamligini anglashi juda muhim. Siyosiy identifikatsiya guruhiy tabiatga ega. O'z navbatida u legitimlik tushunchasi bilan bog'liq.

**Ideokratiya** – (gr. g'oyalar hokimiyati) qarorlar mafkuraviy tamoyillarga asosan qabul qilinuvchi hamda siyosiy faoliyat mafkuraga asoslangan, ilohiy-lashgan siyosiy hokimiyat turi.

**Ideologiya** – (gr. g'oya, ta'limot) tasavvur va tushunchalar to'g'risidagi ta'limot. Ijtimoiy ongning turli shakllarida (falsafa, siyosiy qarashlar, axloq, san'at, din) ifodalangan tushuncha, tasavvur, g'oyalar tizimi, mafkura.

**Idiografik fanlar** – (gr. o'ziga xos yozuv) hodisalarni, bo'lib o'tgan voqealarni, ya'ni xususiy holatlarni har tomonlama o'rganadi, tavsiflaydi. Ideografik fanlar sirasiga tarix, geografiya, astronomiya singari fanlar kiradi.

**Idoralararo elektron hamkorlik** – davlat organlari o'rtasida axborot-kommunikatsiya texnologiyalari vositasida ma'lumotlar almashish;

**Iyerarxiya** –(gr.) xizmat pog'onasi quyidan yuqoriga qarab, bir-biriga o'tuvchi va ahamiyati ortib boruvchi mansab, unvonlar qatori.

**Ixtilofshunoslik** (konfliktologiya) – ixtilofga va uning turli ko'rinishlariga bevosita yoki bilvosita aloqador bo'lgan nazariy Konsepsiyalar, metodologik uslublar va voqealarni o'rganuvchi integrativ fan. *Mustaqil fan sohasi sifatida* ixtilofshunoslik XX asr o'rtalariga kelib, sotsiologiya va psixologiya tarkibidan ajralgan holda shakllandi. Bu fan ixtiloflarni ijtimoiy hayotning zaruriy, universal vositasi, "hokimiyat", "bozor iqtisodiyoti", "ijtimoiy shartnoma" singari ijtimoiy hayotning barqaror shakli sifatida o'rganadi. Mutaxassislar orasida G.Zimmel, L.Kozer, R.Darendorf va K.Bouldinglar yaratgan ixtilofning nazariy konsepsi-

yalari ayniqsa mashhur. R. Darendorf o'zining "Sinflar va industrial jamiyatda sinfiy ixtiloflar" (1957), "Zamonaviy ijtimoiy ixtilof" (1988) singari asarlarida ixtiloflarning mavjudligi har doim ham ushbu ijtimoiy tizim uchun xavf tug'dirmaydi, ular pozitiv o'zgarishlarning manbayi bo'lib ham xizmat qilishi mumkin, degan fikrlarni asoslagan.

**Investitsiya** – (lot. kiyintirmoq) kapitalni, foyda olish maqsadida, turli tarmoqlarga uzoq muddat sarf qilmoq. Ishlab chiqarishni rivojlantirish maqsadida mamlakat yoki chet ellarda iqtisodiyotning turli tarmoqlariga uzoq muddatli kapital, mablag' kiritish (qo'yish). Tadbirkorlik va boshqa faoliyatlar turlariga qo'shiladigan barcha moddiy hamda nomoddiy boyliklar investitsiya hisoblanadi. Bu boyliklar quyidagicha bo'ladi: – pul vositalari, maqsadli bank omonatlari, hissalar, aksiyalar, sug'urta hujjatlari va boshqa qiymatdor qog'ozlar; kuzatish mumkin bo'lgan va ko'chmas mulk (binolar, inshootlar, uskunalar va boshqa moddiy boyliklar); mualliflik huquqidan kelib chiqadigan mulkiy va nomulkiy huquqlar, boshqa intellektual huquqlar; shu qiymatga ega bo'lgan boshqa boyliklar. Mustaqil O'zbekistonda investitsion siyosat respublikaga chet el investitsiyalarini jalb etishga qaratilgan. O'zbekiston Respublikasining investitsiya faoliyati to'g'risida qonuni 2014-yil 9 – dekabrda qabul qilingan.

**Insofsiz raqobat** – xo'jalik yurituvchi subyektning yoki shaxslar guruhining iqtisodiy faoliyatni amalga oshirishda afzalliklarga ega bo'lishga qaratilgan, qonun hujjatlariga, ish muomalasi odatlariga zid bo'lgan hamda boshqa xo'jalik yurituvchi subyektlarga (raqobatchilarga) zarar etkazadigan yoki zarar yetkazishi mumkin bo'lgan yoxud ularning ishchanlik obro'siga putur etkazadigan yoki putur yetkazishi mumkin bo'lgan harakatlari;

**Ijro etuvchi hokimiyat** – davlat apparatining ijro etuvchi organlari tizimi. Qonun chiqaruvchi hokimiyat qabul qilgan qonunlar va boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarning mamlakat butun hududida yoki odamlarning mahalliy hududiy hamjamiyatida ro'yobga chiqarilishini ta'minlovchi davlat hokimiyati va mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlarining asosiy turlaridan biri. Bu hol ijro etuvchi hokimiyat qonun chiqaruvchi hokimiyatga tobedir, degan ma'noni anglatmaydi. Aksincha, ularning har ikkalasi bir-biriga tobe va ayni vaqtda bir-biriga bog'liqdir. Davlatda ijro etuvchi hokimiyat va uning organlari holatining o'ziga xos jihati shundan iboratki, u xalq manfaatlarining bevosita markazida turadi, shuning uchun ham xalq ehtiyojlari va manfaatlariga moslashuvchan, tezkor munosabat bildirishi, harakatchan bo'lishi shart. Ijro etuvchi hokimiyat asosi – boshqaruv apparati va hukumat. Ushbu tizimning boshi – hukumat boshlig'i. Zamonaviy ijro etuvchi hokimiyat mohiyati – yagona umumiy davlat hokimiyatini bo'lish zarurligidan kelib chiqadi. Bu tamoyil XVII-XVIII asrlarda Yevropa, AQSH mutafakkirlari va siyosatchilari tomonidan nazariya va amaliyotda chuqur ishlab chiqilgan. Ijro organlari hokimiyatni malakaviy-professional tarzda amalga oshiradilar va davlatning ma'muriy-siyosiy, ijtimoiy-madaniy, ishlab chiqarish va mehnat faoliyatini boshqaradilar. Davlat xizmatchilari qatlami bu hokimiyatni ichki tomonidan tavsiflaydi. Ijro hokimiyati qonunlarni amalga oshira olishi uchun unga ma'muriy hokimiyat vakolatlari berilgan. Bunda ijro organlari ikki model asosida o'z faoliyatlarini tashkil etadi. Birinchi modelga ko'ra qonun ijro

organlari bajarishi lozim bo'lgan tadbirlar va vakolatlar kengligini aniq ifodalagan bo'ladi va shu tariqa ijro organlarini tashabbus ko'rsatishdan cheklaydi ("bog'liq" model). Ikkinchi modelga ko'ra («erkin» model) ijro organlariga ma'muriy aktlar qabul qilish huquqi beriladi va shu tariqa ularning tashabbusi va erkinligi ko'lami cheklanmaydi. Ijro organlari doirasida ma'muriy jazolash va nazorat instituti amal qiladi. Unga ko'ra ijro organlari ma'muriy hibsdan saqlash, militsiya, armiya xizmatidan foydalanish kabi huquqlarga ega. Ijro organlari hokimiyatning boshqa tarmoqlari ega bo'lmagan resurslar (hudud, fuqarolar, moliyaviy va axborot, rag'batning turli resurslari, armiya, ichki ishlar, davlat xavfsizligi xizmati) ustidan nazoratga ega. Shuningdek, qonunchilik hokimiyatidan farqli o'laroq, ijro organlari doimiy asosda faoliyat ko'rsatadilar va siyosatdagi o'zgarishlarga deyarli bog'liq emaslar. Ijro hokimiyatining funksiyalari: hamjamiyat va millatning bir butunligini ta'minlash (umumiy til, me'yorlar, umumiy afsonalar, ramzlar yaratish, milliy birlik, fuqarolik hissini tarbiyalash, umumiy ta'lim tizimini yaratish, bir turdagi siyosiy madaniyatni shakllantirish orqali); ichki va tashqi xavfsizlik, tartib, qonun ustuvorligini ta'minlash; xususiy mulk va boshqa huquqlarni himoya qilish; iqtisodiy samaradorlik va iqtisodiy o'sishni ta'minlash; ijtimoiy adolatni himoyalash (solliqlar va boshqa dasturlar orqali); zaiflarni himoya qilish (bolalar, qariyalar, atrof-muhit). Qonunchilik hokimiyati deputatlarning rasmiy tengligi tamoyiliga tayansa, ijro hokimiyati faoliyatida pog'onaviylik tamoyili ustun turadi. Monteske fikriga ko'ra, "hokimiyatning bu tarmog'i ijroning tezkorligiga asosiy e'tiborni qaratgani uchun bir kishi tomonidan yaxshiroq boshqariladi". Iyerarxiyasiga ko'ra ijro hokimiyatida uning siyosiy bo'g'imi ajratiladi: prezident, premer-ministr, oliy mansabdor shaxslar.

**Ijtimoiy (jamoatchilik) jamg'armalari** – a'zoligi bo'lmagan va o'z mablag'lari (mulk) ni ko'ngilli badallar, qonunlar bilan taqiqlanmagan boshqa kirimlar hisobiga shakllantiruvchi hamda ularni muayyan ijtimoiy ehtiyojlarni qondirishga yo'naltiruvchi tashkilot. Asosan xayriya maqsadlarida tuziladi. Turli jamg'armalar qadimgi Xitoy, Hindistonda, qadimgi Yunonistonda bo'lgan. Hozirgi kunda Eronda 20 mingdan ziyod xayriya jamg'armalari mavjud. Ularning ayrimlari bir necha asrlardan beri faoliyat ko'rsatib keladi. Germaniyada jamg'armalar huquqiy institut hisoblanib, ular davlat tasarrufidan tashqarida mavjud bo'ladi- lar va xususiy manfaatlariga xizmat qiladilar. Hozirgi vaqtda Germaniyadagi jamg'armalar xususiy kapitalning tashkiliy shakllaridan biriga aylangan, ular yirik konsernlar birinchi Prezidenti tuziladi, u bilan uzviy faoliyat ko'rsatadi va xususiy tadbirkorlik maqsadlari bilan faoliyat yuritadi. Faoliyat natijalari ilmiy, ijtimoiy-madaniy maqsadlarga yo'naltiriladi. Shunday dastlabki tashkilot Germaniyada 1889-yilda sanoatchi E.Abbe tomonidan tuzilgan va «K.Seys jamg'armasi» deb atalgan. AQSHda xayriya bilan bog'liq faoliyatni qariyb 300 yil bilan belgilash mumkin. Dastlab u ham asosan din yo'lidagi ehsonlar va xayriya bilan belgilangan bo'lsa, B.Franklin uni ijtimoiy sohaga ko'chishini ta'minlagan. AQSHda yirik jamg'armalar tashkilotchilari sifatida E.Karnegi (1905), J.Rokfeller (1902), G.Fordlar nomi tilga olinadi. Shunga muvofiq mamlakatda jamg'armalar to'g'risidagi qonunchilik vujudga keldi. Avval jamg'armalar o'z huquqiy maqomini federal hukumat qarori bilan rasmiylashtirganlar, so'ng shtat

darajasiga ko'chganlar. Amerika jamg'armalari ham huquqiy jihatdan nodavlat notijorat tashkilotlari sifatida e'tirof etiladi. Ular xususiy mulk doirasida tashkil topadi va bu mulkni tasarruf etishning yangi shakllarini vujudga keltiradi. Buyuk Britaniyada dastlabki jamg'armalar faoliyati bilan bog'liq ma'lumotlar uzoq tarixga ega, lekin faqat XIX asrning ikkinchi yarmidagina ularning faoliyati jamiyat hayotiga sezilarli ta'sir ko'rsata boshlagan, deb hisoblanadi. 1865-yilda Uilyam But ijtimoiy muammolarni hal qilishga qaratilgan «qutqaruv armiyasini» tuzadi, Tomas Barnardo 1870-yilda birinchi *etimxonani ochgan vaqtdan* boshlab va Ikkinchi jahon urushi tugagunga qadar Angliyadagi xayriya tashkilotlari murakkab ijtimoiy vazifalarni hal qiluvchi asosiy tashkilotlar bo'lib qoldilar. Bugungi kunda Anglyada 400.000 dan oshiq xayriya tashkilotlari ro'yxatdan o'tgan. Ular iqtisodiy faoliyatning salmoqli qismini tashkil etadi. Yuqoridagi ma'lumotlardan ko'rishimiz mumkinki, jamg'armalar – xususiy mulkchilik doirasida faoliyat olib borayotgan tashkilotlar bo'lib, ularning kapitali bir qancha manbalardan tashkil topishi mumkin ekan: davlat mablag'lari; ko'ngilli pul o'tkazishlar orqali; o'z tadbirkorlik faoliyati orqali (magazinlar, savdo-sotiq, v.h.)

**Ijtimoiy adolat** – barcha ijtimoiy toifalarning jamiyatda o'z o'rnini mavjudligini va qonun oldida ularning o'zaro teng huquqlarga ega ekanligini e'tirof etish.

**Ijtimoiy davlat** – Konstitutsiyaga binoan inson va fuqaroning iqtisodiy, ijtimoiy huquqlari va erkinliklarini hamda davlatning tegishli burchlarini kafolatlaydigan davlat. XX asrda individlarga rasmiy-huquqiy tenglikning ta'minlanishi jamiyatdagi stratifikatsion muammolarni hal qila olmadi. Natijada, XX asrning 70-80-yillarida huquqiy davlat g'oyasi ijtimoiy davlat g'oyasi bilan to'ldirildi. Ijtimoiy davlat – XX asr o'rtalarida shakllangan, ammo g'oyasi juda qadimiy. Ijtimoiy davlatlarning shakllanishi sotsialistik g'oyalar ta'sirida kechdi. Birinchi bor bu g'oyani nemis olimi Lorenst fon Shtayn kiritgan: u davlat ijtimoiy bo'lishi va fuqarolarining ijtimoiy va iqtisodiy ravnaqiga sharoit yaratishi kerak deb hisoblagan. 1930-yilda nemis olimi German Geller "ijtimoiy huquqiy davlat" atamasini kiritadi. Ijtimoiy davlat vujudga kelishi omillari ham uzoq davr shakllangan. XIX asrda Germaniyada va Buyuk Britaniyada yirik ijtimoiy ixtiloflarning oldini olish maqsadida ijtimoiy sug'urta to'g'risidagi qonunlar qabul qilina boshlandi. 1935-yilda AQSHda ijtimoiy himoya to'g'risidagi qonun davlat qurilishi, meditsina xizmati va ta'lim sohalarida davlat faolligini oshirdi. 1932-yilda Aleksandr Lyustov Germaniyada neoliberalizm g'oyalarini bayon etdi. 1937-yilda prof. Franst Byoll, Valter Oyken, Gans Grossman-Dert davlatning asosiy vazifasi – ijtimoiy sohaga qaratilgan siyosat va iqtisodiy tartibni yaratishdan iborat, degan g'oyani ilgari surdilar. Ikkinchi jahon urushidan so'ng ijtimoiy davlat global ixtiloflar oldini olish vositasi ekanligi haqidagi g'oya barcha mafkuralar diqqat markazini tashkil etdi. Ijtimoiy davlat birinchi bor Germaniyada qaror topdi, deb hisoblanadi. Yaponiya, Shvetsiya, 70-yillardan so'ng, hatto, Xitoy ham – ijtimoiy davlatlar sifatida qaralishi mumkin. Ijtimoiy davlat G'arbnng iqtisodiy rivojlangan davlatlarida shakllanib, u fuqarolarning ijtimoiy xavsizligini tubdan yangicha tarzda ta'minladi. Davlat byudjeti kam ta'minlangan qatlamlar foydasiga qayta taqsimlandi, bandlik va malaka oshirish borasidagi siyosat o'zgardi, xususiy sektor bilan davlat o'rtasida ijtimoiy sug'urta, ishsiz yoshlarni, malakasiz ishchilarni, qari-

yalarni, nogironlarni qo'llab-quvvatlash masalasida yangicha munosabatlarni o'rnatilishiga olib keldi. Ijtimoiy davlatning asosiy g'oyasi jamiyatdagi har bir insonga munosib turmush tarzini ta'minlash, shaxs o'zini namoyon etishi uchun sharoit yaratishdan iborat. Bu vazifalarni hal qilish jarayonida hayot standartlari ham o'zgarib bordi. G'arb siyosatshunoslikida ijtimoiy davlatning uch asosiy turini ajratiladi: konservativ, liberal, sotsial-demokratik. Bunday ajratish ko'rsatkichlariga quyidagilar kiradi: stixiyali bozor iqtisodiyoti oqibatlaridan va past daromaddan himoya qilish ko'lami; aholi eng kam himoyalangan va kambag'al qatlamlarining ijtimoiy huquqlari va ularni ijtimoiy himoyalash ko'lami; sug'urta va nafaqaga yo'naltiriladigan nodavlat mablag'larining miqdori; meditsina sug'urtasi va aholining boshqa ijtimoiy ehtiyojlari va bu ulushning byudjetda nazarda tutilgan qismi; ijtimoiy dasturlar va ehtiyojlarni individual va jamoaviy moliyalashtirish ko'lamlari; ijtimoiy ta'minot tizimining turli kasbiy guruhlar va tahdid guruhlar bo'yicha taqsimlanishi ko'lami, shu jumladan, ishsizlik, kasallik, kasalliklar singari tahdidlar bo'yicha; ijtimoiy siyosatni qo'llovchi jamg'armalar moliyaviy qudrati, shu jumladan, tadbirkorlar va korxonalaridan keluvchi tushumlar miqdori; aholining to'la bandligini ta'minlash kafolatlari; O'zbekiston mustaqil taraqqiyotining dastlabki kunlaridan boshlab, o'zini kuchli ijtimoiy siyosatni amalga oshiruvchi davlat, deb e'lon qildi. Chunonchi, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 14-moddasida mustahkamlab qo'yilganiga ko'ra: "Davlat o'z faoliyatini inson va jamiyat farovonligini ko'zlab, ijtimoiy adolat va qonuniylik tamoyillari asosida amalga oshiradi". Bundan tashqari, mamlakat Konstitutsiyasida: "Har kim qariganda, mehnat layoqatini yo'qotganda, shuningdek boquvchisidan mahrum bo'lganda va qonunda nazarda tutilgan boshqa hollarda ijtimoiy ta'minot olish huquqiga ega", deb qayd etilgan. Pensiya, nafaqalar, ijtimoiy yordam boshqa turlarining miqdori rasman belgilab qo'yilgan tirikchilik uchun eng kam miqdordan oz bo'lishi mumkin emas, deb belgilab qo'yilgan. Mamlakat Konstitutsiyasining 41-moddasida har kim bepul umumiy ta'lim olish huquqiga ega ekanligi kafolatlangan. Bunday qoidalarining qonun yo'li bilan mustahkamlab qo'yilganligi O'zbekistonning davlat siyosati ijtimoiy yo'naltirilganligidan dalolat beradi.

**Ijtimoiy guruhlar** – bir-biri bilan muayyan tarzda o'zaro muloqotda bo'ladigan odamlar birligi. Guruh mansublikning anglanganini, bundan kelib chiqqan holda boshqa a'zolar bilan hamkorlik qilishga, monandlikka moyillikni rivojlantiradi, rasmiy tashkilotga xos bir qancha xususiyatlarga ega bo'lishi mumkin. Guruhdagi muloqot guruhdan tashqari muloqotdan farqlanishi mumkin. Guruhlar **birlamchi** va **ikkilamchi** bo'ladi. Birlamchi guruhlariga Ch.Kuli oilani kiritgan. Keyinchalik shaxsiy, hissiy-emotsional munosabatlarga qurilgan guruhlarining barchasi birlamchi guruhlar qatoriga kiritilgan: do'stlar, sevishganlar guruhlar. Birlamchi guruhlar kam sonli bo'ladi, ularda odamlar bir-birlari bilan bevosita muloqotda bo'ladilar, qandaydir rollarni bajarish uchun emas, o'zlariga yaqin manfaat, ehtiyojlarini qondirish uchun birlashadilar. Guruh a'zolarining soni ortishi bunday muloqotni yo'qqa chiqaradi. Ikkilamchi guruhlar munosabatlarni shaxssiz qilib qo'yadi. Odatda odamlar bu guruhlariga umumiy maqsadga erishish uchun birlashadilar. Formal qoidalar, xulq-atvor modellari ustunlik



qiladi, ularda asosiy e'tibor shaxsiy sifatlarga emas, muayyan rollarni, funksiyalarni bajarishga qaratilgan bo'ladi. 1908-yilda nashr etilgan "Boshqaruv jarayoni" asarida A.F.Bentli XIX asr oxiri XX asr boshi ingliz faylasuflarining "guruh – jamiyatning asosiy birligi" haqidagi g'oyalarni rivojlantirib, jamiyatni turli xil "manfaat guruhlari" majmuasi tarzida o'rganishni taklif etdi. Unga ko'ra siyosiy tahlil obyekti – siyosiy maqsadlarga erishish uchun ixtiyoriy ravishda guruhlarga birlashgan odamlar faoliyati tashkil etishi kerak. Shu tariqa siyosatga "guruh" tushunchasi konseptual tarzda kirib keldi, ya'ni guruh, deganda jamiyatdagi mavhum jismoniy shaxslar birligi emas, manfaat va maqsadlar birligi bilan ajralib turuvchi fuqarolar ittifoqi nazarda tutila boshlandi. Siyosiy fanda guruh tushunchasi odamlarning tug'ma va hayot davomida tarbiyalangan xususiyatlarining o'xshashligiga asoslanadi. Har bir inson bir qancha va turli ijtimoiy guruhlarga mansub va shu bilan birga shu guruhlarning qaysidir bittasi uning uchun eng ahamiyatli bo'lishi mumkin. Bir guruhga mansub odamlar boshqacha manfaatlar, imkoniyatlar va resurslarga ega boshqa guruhlarga aloqadorliklar siyosiy jarayonga hal qiluvchi ta'sir ko'rsatadi. Shu bilan birga guruhlarga aro munosabatlarning barchasi ham davlat hokimiyatiga ta'sir ko'rsatishni maqsad qilib qo'ymaydi. Har bir guruh ham o'z manfaatlarini siyosiy vositalar yordamida qondirishga intilmaydi. Shuning uchun ham ijtimoiy guruhlarni siyosatning potentsial subyekti sifatida ta'riflash maqsadga muvofiq bo'ladi. Jamiyatda mavjud ijtimoiy qatlamlar va ularning manfaatlari siyosatga jalb etilganida ular siyosiy aktorlar sifatida faoliyat ko'rsatadilar.

**Ijtimoiy hamkorlik** – turli millat, irq va dinga mansub kishilar va guruhlarning umumiy maqsad yo'lidagi hamjihatligi.

**Ijtimoiy manfaat** – bu barcha jamiyat a'zolarining birgalikda ro'yobga chiqadigan manfaatlaridir. Ijtimoiy manfaat – jamiyat uchun foydali umumiy yoki jamoaviy manfaat. Siyosiy fanda ijtimoiy manfaatni radikal talqin etilganida shaxsiy va ijtimoiy manfaatlar bir-biridan qat'iy ajratiladi. Masalan, Russoga ko'ra ijtimoiy manfaat shaxs manfaatidan doimo ustun. Boshqa yondashuv vakillari faqat shaxsiy manfaatlargina mavjudligini tan oladilar va ularga ko'ra ijtimoiy manfaat ko'plab shaxsiy manfaatlar birligi xolos. Liberal individualizm nuqtayi nazaridan esa ijtimoiy manfaatning o'zi mavjud bo'lmagan narsa – jamiyat faqat shaxsiy manfaatlarning o'zaro ta'siri, kurashi, aloqadorligidan iborat.

**Ijtimoiy mobillik** – insonlarning bir ijtimoiy qatlamdan ikkinchisiga o'tishi, shaxs, guruh yoki qatlam mavqeyining o'zgarishi bilan bog'liq jarayonlar "ijtimoiy mobillik" yoki "ijtimoiy siljish" atamalarida ifodalanadi. Ijtimoiy mobillik ijtimoiy barqarorlik tushunchasi bilan bevosita bog'liq. Agar ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar doirasida guruhlarning siljishi jamiyat uchun odatdagi chegaralarda amalga oshsa, bu – sezilarli o'zgarishlarga olib kelmaydi. Ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar keskinlashganida esa guruhlarning siyosatga bosimi kuchayadi, barqarorlik uchun xavf tug'iladi. Demak, ana shu turdagi keskinliklarni oldini olish – davlat siyosatining muhim yo'nalishi. Shaxs yoki guruh mavqeyining o'zgarishi bilan bog'liq jarayonlarning ochiqligi, ya'ni inson yoki guruh sifatlari, bilimi, malakasi, samarali faoliyati kabi jihatlarga ko'ra o'z maqomini o'zgartira

olish imkonining mavjudligi bu borada yuzaga kelishi mumkin bo'lgan ixtiloflarni va ziddiyatlarni yumshatadi, jamiyatdagi guruhlarining o'zaro hamkorligi, manfaatlarining yaqinlashishiga olib keladi. Ijtimoiy mobillik ikki turda bo'ladi: vertikal va gorizontal. **Vertikal** ijtimoiy mobillik yuqoriga va quyiga tomon harakatni anglatadi. Ikkinchi holatda pauperizatsiya (qashshoqlashish) yoki, yomonrog'i, lyupmenizatsiya (barcha narsadan ayrilish, bomj, daydiga aylanish) ro'y berishi mumkin. Vertikal mobillik individual darajada va guruhiy darajada ham amalga oshadi: bu jamiyatning ijtimoiy tuzilishi tubdan o'zgarishi bilan ro'y beradi. **Horizontal** mobillik barcha siljishlarning bir qatlam ichida amalga oshishini anglatadi. U ko'pincha kasbiy o'sish yoki pasayish ko'rinishida bo'ladi. Mobillik tizimlari va marginallik darajasiga qarab jamiyatlarni ochiq va yopiq ijtimoiy qatlamlashuv tizimlariga ajratiladi. Birinchi holda shaxs o'z ijtimoiy maqomiga qobiliyati, mehnati natijasida erishgan bo'ladi. Ikkinchi tizimda shaxs tug'ilishi, jinsi, yoshi, milatiga ko'ra unga belgilangan maqomdan chiqib ketishi qiyin bo'ladi.

**Ijtimoiy munosabatlar** – odamlar o'rtasidagi turli aloqalar bo'lib, bunday munosabatlar ularning birgalikdagi moddiy va ma'naviy faoliyati natijasida qaror topadi. I.m. moddiy va ma'naviy munosabatlarga bo'linadi. Moddiy ne'matlar ishlab chiqarish jamiyatning yashashi va rivojlanishining asosini tashkil etadi. Shu sababli I.m.dan eng muhimi ishlab chiqarish, iqtisodiy munosabatlardir. Ishlab chiqarish munosabatlari boshqa hamma I.m.ning siyosiy, huquqiy, axloqiy, diniy va h.k. munosabatlarning xarakterini belgilaydi. Barcha I.m.ning ishlab chiqarish munosabatlariga bog'liq ekanligini tushunish birinchi marta jamiyat tarixiy taraqqiyotining qonuniyatlarini ilmiy ravishda izohlashga imkon berdi.

**Ijtimoiy qatlamlashuv** – odamlarning muayyan ijtimoiy guruhlariga mansubliklari natijasida vujudga keluvchi huquq va burchlar, imkoniyatlardagi farqlarni aks ettiruvchi, jamiyatdagi ijtimoiy guruhlar o'rtasidagi tengsizlik tizimi. Ijtimoiy qatlamlashuv ijtimoiy tenglik va tengsizlik, jamiyatda mavjud ko'plab ijtimoiy tuzilmalarning hokimiyat, moddiy boyliklar, imtiyozlar, huquqlar, maqomlarga egaligi va yoki ta'siri turlichaligi bilan ajralib turuvchi munosabatlar tizimi. Bu tushuncha har bir muayyan jamiyatda doimo mavjud bo'lgan va ijtimoiy munosabatlar ta'sirida vujudga kelgan tengsizlik munosabatlarini aks ettiradi. Siyosatshunoslikda ijtimoiy qatlamlashuvga doir ikki asosiy yondashuv ajratiladi: sinfiy va stratifikatsion. **Sinfiy yondashuv** har qanday jamiyatning asosini sinflar tashkil etishi, sinflar jamiyatda mavjud ijtimoiy mehnat taqsimoti va ishlab chiqarish munosabatlari natijasida shakllanishini asoslaydi. **Stratifikatsion yondashuv** ijtimoiy bo'linishning asosiy va bosh sababi iqtisodiy munosabatlar bilan belgilanmasligidan kelib chiqadi. Jamiyatda faqat mulkiy belgilariga ko'ra emas, kasb, ma'lumot darajasi, hokimiyatga yaqinligiga ko'ra, hayot tarzi va turmush darajasi, milliy va irqiy mansubligiga ko'ra birlashgan ko'plab qatlamlar mavjud. Bu guruhlar jamiyatning "pog'onaviy ijtimoiy zinapoyasida" turlicha joylashgan: biri yuqoriroq, biri esa – pastroq. Ijtimoiy qatlamlashuv, shu tariqa, yuqori va quyi qatlamlarning mavjudligini anglatadi. Uning mohiyati odamlar o'rtasida mukofot va imtiyozlarning, mas'uliyat va burchning, ijtimoiy ne'matlarning, hokimiyat va ta'sirning notekis taqsimlanishidadir. Bunday qatlamlashuv obyektiv tabiatga ega: negaki odamlar tug'ilishidan bir-birlaridan

farq qiladilar, turli imkoniyatlarga ega bo'ladilar va h. Zamonaviy siyosiy fanda **qatlamlashuvning quyidagi turlari** ajratiladi:

– hududiy, ya'ni muayyan hududlardagi aholi o'rtasidagi farqlarni aks ettiruvchi qatlamlashuv;

– demografik, ya'ni aholi turli qatlamlarining jins va yoshga ko'ra farqlari bilan belgilanuvchi qatlamlashuv;

– etnomilliy, ya'ni qarindoshlik va etnik jamoalar o'rtasidagi o'xshashlikka qurilgan qatlamlashuv;

– konfessional, ya'ni turli diniy e'tiqodlarga mansub guruhlar o'rtasidagi farqlarga asoslanuvchi qatlamlashuv;

– sotsiomadaniy, ya'ni hayot tarzlarini, qadriyatlarini, an'analariga ko'ra farqlanuvchi guruhlar;

– ijtimoiy-iqtisodiy, ya'ni daromadlar, ta'lim darajasi, kasbiy malakaga ko'ra farqlanuvchi guruhlar iyerarxiyasi;

– ijtimoiy-psixologik, maqomining muhimligi, ahamiyatligini e'tirof etilishiga ko'ra qatlamlashuv;

– pozitsion, hokimiyatga, qarorlar qabul qilish jarayoniga ta'sir kuchiga ko'ra qatlamlashuv.

Ko'rsatilgan har bir qatlamlashuv turi aholi o'rtasidagi bo'linishlarni real aks ettiradi. Bu bo'linishlar guruhlar o'rtasida hokimiyatga doir muhim manfaatlar shakllanishiga olib keladi. Bu holda har bir guruh hokimiyatga ta'sir etish uchun qanday resursga ega ekanligi masalasi juda muhim.

**Ijtimoiy sheriklik** – ijtimoiy sheriklik davlat organlarining nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari bilan mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturlarini, shu jumladan, tarmoq, hududiy dasturlarni, shuningdek normativ-huquqiy hujjatlarni hamda fuqarolarning huquqlari va qonuniy manfaatlariga daxldor bo'lgan boshqa qarorlarni ishlab chiqish hamda amalga oshirish borasidagi hamkorligidir. Davlat organlari, nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari ijtimoiy sheriklik subyektlaridir. Davlat organlarining fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, siyosiy partiyalar va diniy tashkilotlar bilan hamkorligi alohida qonunlar bilan tartibga solinadi. O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy sheriklik to'g'risida qonuni 2014-yil 25 – sentyabrda qabul qilingan.

**Ijtimoiy tashkilot** – quyidan yuqoriga ichki tashkiliy tuzilmalarga ega hamda qayd etiluvchi individual yoki guruhviy a'zolari mavjud fuqarolarning ko'ngilli ittifoqi, uyushmasidir.

**Ijtimoiy uyushmalar** – fuqarolar manfaatlarini umumiylik va ixtiyoriylik asosida vujudga keluvchi, lekin o'z faoliyati natijasida daromad olishni ko'zlamaydigan tashkilotlar (siyosiy partiyalar, ommaviy harakatlar, kasaba uyushmalari, ayollar, keksalar, nogironlar, yoshlar, bolalar tashkilotlari, ilmiy texnik, madaniy-ma'rifiy, sport va boshqa ko'ngilli jamiyatlar, jamg'armalar, Assotsiatsiyalar, boshqa tuzilmalar). Demak, fuqarolarning har qanday ko'ngilli uyushmasi – ijtimoiy uyushmadir. Mavjud siyosiy hayotni o'zgartirishga yoki unga ta'sir etishga urinuvchi ijtimoiy uyushmalar siyosiy, deb qaraladi.

**Ijtimoiy siyosat** – daromadlarni taqsimlashda iqtisodiyot qatnashchilari

o'rtasida tengsizlik natijasida vujudga keladigan ziddiyatlarni bartaraf etishga qaratilgan davlatning chora tadbirlaridan iborat.

**Ijtimoiy so'rov** – jamoatchilik nazorati subyektlari davlat organlarining qonunga, fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlariga rioya etishi bo'yicha faoliyati, o'zlariga yuklatilgan vazifa va funksiyalarni bajarish samaradorligiga baho berish maqsadida aholi o'rtasida ijtimoiy so'rovlar o'tkazishga haqlidir. Ijtimoiy so'rovlar yakunlari bo'yicha tayyorlangan davlat organlari faoliyatini takomillashtirish yuzasidan tahliliy materiallar va takliflar jamoatchilik kengashlariga, faoliyatiga nisbatan ijtimoiy so'rov o'tkazilgan davlat organlariga yuboriladi.

**Ijtimoiy ta'minot** – aholiga ijtimoiy, iqtisodiy, tibbiy yordam ko'rsatish, bepul ta'lim olish kabi imkoniyatlarni o'z ichiga olib, insonlarning farovon hayot kechirishiga xizmat qiladi hamda aholining muhtoj qatlamlariga asosan ijtimoiy **transferlar** orqali etib boradi.

**Ijtimoiy iqtisodiy ehtiyojlar** – kishilarning yashashi, mehnat qilishi va ma'lum iqtisodiy mavqega ega bo'lishi uchun iste'mol etilishi zarur bo'lgan mahsulotlar va xizmatlar majmuyidir. Bu faqat tirikchilik ehtiyoji emas, balki insonning shaxs sifatida kamol topish zarurati hamdir.

**Ijtimoiy to'lovlar** – moddiy jihatdan kam ta'minlangan mamlakat fuqarolariga pul yoki natura shaklida yordam ko'rsatish shaklidagi tizim hisoblanadi.

**Ijtimoiy vakolat nazariyalari** – vakolatlikning turli shakllari to'g'risidagi ilmiy-amaliy qarashlar tizimi. Angliyada **amaliy vakolat** nazariyasi qaror topdi. Uning mohiyati shundan iboratki, parlament a'zolari aholining ayrim qatlamlari (yoki guruhlarini)ning emas, butun millatning vakillaridirlar. Sh.L.Monteske fikricha, odamlar o'z aholi punktlari, shaxarlari, regionlari manfaatlarini va muammolarini mamlakatning boshqa hududlariga nisbatan yaxshiroq biladilar. Shuning uchun hokimiyat organlariga vakillarni butun mamlakatdan emas, saylov okruglariga aylantirilgan alohida shaxarlar, joylardan saylash kerak. Shu tariqa amaliy vakolat nazariyasi **geografik vakolat** g'oyasi bilan to'ldirildi. U Amerikada qaror topdi. Unga ko'ra qonun chiqaruvchi yig'ilish a'zolari davlatning butun aholisi vakillari sifatida emas, muayyan hudud vakillari sifatida saylanishlari kerak bo'lgan. *Fransiyada vujudga kelgan fraksion nazariya* J.J.Russoga borib taqaladi. U xalq suvereniteti odamlar suverenitetidan kelib chiqadi, degan fikrga asoslanadi. Masalan, davlat o'n ming fuqorodan iborat. Bu holda har bir fuqaro hokimiyat suverenitetining o'n mingdan bir qismiga ega. Zamonaviy fraksion suverenitet nazariyasiga ko'ra har bir fuqaro o'z deputatiga taqdim etgan mandatda ulushga ega. U, shuningdek, mandatning **imperativ** xarakterini, ya'ni deputat o'z faoliyatida saylovchilar irodasi bilan bog'liqligini nazarda tutadi. Bizning kunlarda bu nazariya demokratiyaning muhim qirrasini tashkil etadi. Unga "bir inson – bir ovoz" tamoyili to'liq mos keladi. **Milliy vakolat** nazariyasi ham vakolatlikni amalga oshirishda muhim o'rin tutadi. Buyuk Fransuz inqilobi davrida Fransiya Konstitutsion Assambleyasi suverenitet alohida fuqarolarga emas, millatga mansubligi g'oyasini asoslab berdi. Unga ko'ra har bir deputat o'z saylovchilarining vakili emas. Aksincha, deputatlar millat irodasini bayon etib, millat ularga topshirgan mandatni amalga oshiradilar. Shunga ko'ra, frak-

ga o'tadi. ITT ikkinchi bosqichining xos jihati shundaki, fan va texnika bir-birining rivojlanishini borgan sari jadal sur'atlarda o'zaro rag'batlantirib kelgan. Bu davrga kelib ilmiy-texnika faoliyatining nazariy yechimlarni amaldagi texnikaga aylantirishga qaratilgan: ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik yechimlari, amaliy tadqiqotlar va boshqa shu kabi maxsus bo'g'inlari yuzaga keladi. Ilmiy-texnika faoliyati inson mehnati sarf etiladigan juda keng sohalardan biriga aylanadi. ITT ning uchinchi bosqichi hozirgi zamon fan-texnika inqilobi bilan bog'liq. Yangi ilmiy yo'nalishlar va kashfiyotlar ketidan ishlab chiqarishning: radioelektronika, atom energetikasi, sintetik materiallar kimyosi, kompyuter texnikasi va shu kabi ishlab chiqarishning boshqa yangi tarmoqlari vujudga keldi. Fan texnikani uzluksiz ravishda taraqqiy toptiradigan kuchga aylanadi. O'z navbatida texnika ham fan oldiga yangi talablar va vazifalar qo'yish, uni borgan sari mukammal va aniq ishlovchi eksperimental asbob-uskunalar bilan ta'minlash orqali fan taraqqiyotini muntazam ravishda rag'batlantiradi. Hozirgi zamon ITTning xos xususiyati shundaki, u nafaqat sanoat sohasini, balki qishloq xo'jaligi, transport, aloqa, sog'liqni saqlash, ta'lim, maishiy xizmat va xizmatlar ko'rsatish sohalari kabi jamiyat turmush faoliyatining boshqa tomonlarini ham o'zida qamrab oladi.

**Imidj** – (ingl. tasavvur, obraz) odamlar ongida obyekt haqida izchil va muayyan tasavvurlarni shakllantirish va unga qo'shimcha qadriyatlar (ijtimoiy, siyosiy, ijtimoiy-ruhiy, estetik) xos, degan fikrni uyg'otish orqali yanada kuchli va hissiy qabul qilinuvchi obraz. Siyosatda yetakchi, rahbar imidji, partiya, siyosiy tashkilot imidji to'g'risida so'z yuritiladi.

**Imidjiologiya** – tatbiqiy siyosatshunoslikdagi ilmiy-amaliy yo'nalish. U kishilar ongida siyosiy yetakchi siymosi shakllanishi va ta'siri qonuniyatlarini o'rganadi.

**Immanent** – (lot. biror narsaga xos) biror narsa, hodisa, jarayonga ichki xos xususiyat.

**Immigratsiya** – (lot. ko'chib kirmoq) chet el fuqarolarining (ba'zan ommaviy tarzda) biror mamlakatga ko'chib kelishi.

**Imperativ mandat** – (lot. buyuruvchi) saylangan shaxs yoki organ qat'iy amal qilishi kerak bo'lgan topshiriq, vakolat.

**Imperator** – (lot. hukmdor) m.a. 510-530 yillarda, Rim respublikasida urushdan g'alaba bilan qaytib kelgan sarkardalarga askarlar tomonidan berilgan faxriy unvon; Aktavian Avgust davrida – davlat boshlig'i; yirik monarxik davlatlar: Xitoy, Rim imperiyasi, Vizantiya, Rossiya (1721-yildan), Fransiya va Germaniya (1771-yildan) boshliqlari shunday deb nomlagan. Imperator – davlatning butun ishlarini o'z qo'lida tutgan hokimi mutlaq bo'lgan. Imperiya – (lot. hokimiyatga ega, qudratli) to'liq hokimiyat, davlat tepasida imperator turgan yirik davlat. 1) Qadimgi Rimda dastlab xalqning oliy siyosiy hokimiyati shunday deb nomlangan: u saylovlar, qonunlar qabul qilish, urush va sulh e'lon qilish, sud qarorlarini qabul qilishda namoyon bo'lgan. Keyinroq, Rim Respublikasi davrida, konsul, pretor, diktator, prefekt, senzorlarning oliy vakolati ma'nosida qo'llangan. 2) Bir nechta mamlakat va xalqlarni yagona siyosiy markaz atrofida umumiy maqsad yo'lida birlashtirgan yirik davlat; 3) kuchli markazlashgan hokimiyat negizida

metropoliya-mustamlaka, markaz-viloyatlar, markaz-milliy respublikalar muno-sabatlariga qurilgan hududiy birlik.

**Impichment** – (ingliz *impeachment* – xayfsan, ayblov) davlat oliy man-sabdor shaxslarini parlament "sudi"ga tortishdan iborat huquqiy tartib-taomil. Impichment instituti prezidentlik boshqaruvi tizimlari va hokimiyatlar bo'linishi tamoyili amal qilishi davrida shakllangan. U konstitutsion yoki huquqiy tizimga tahdidlar vujudga kelgan sharoitda siyosiy hokimiyatni safarbar etishning sa-marali mexanizmi sifatida qaraladi. Impichmentni, agar mazkur institut haqiqat-da amal qilayotgan bo'lsa, demokratiya rivojining mezoni deb ta'riflash mumkin. Mazkur institutning mohiyati oliy davlat mansabdor shaxslarining faoliyati us-tidan aholi va demokratik siyosiy institutlar nazorat qilishidan iboratdir. Mazkur tartib-taomil huquqning muayyan davlat fuqarolari bo'lgan barcha shaxslarga, shu jumladan, siyosiy tabaqalashning oliy bo'g'ini subyektlari – oliy mansab-dor shaxslar vakillariga ham daxldor ekanligi bilan bog'liq. Nazariy yoki ras-miy jihatdan olganda impichment har qanday demokratik davlatda amal qilishi mumkin. Demokratik tizimga asoslangan konstitutsiyalarning deyarli barchasi teng huquqlilikni – davlatning barcha fuqarolari yagona qonunga nisbatan bir xil munosabatda bo'lishini e'lon qiladi. Biroq, jamiyatda oliy hokimiyat vakillarini parlament "sudi"ga tortish an'anasi haqiqatda amal qilishi uchun mazmundor demokratiya yuksak darajada rivojlangan bo'lishi kerak. Impichment jarayoni, odatda, o'z ichiga uch bosqichni oladi: 1) ijtimoiy xavfsizlik va barqarorlikka zarar yetkazishi mumkin bo'lgan jinoyatlarga nisbatan qo'llanadi; 2) jazo sifati-da lavozimdan chetlatish va ayrim hollarda, sud qarori bilan lavozimdan chet-lashtirilganidan so'ng, jinoiy jazoga tortish; 3) impichment to'g'risidagi qaror qonunchilik organi tomonidan qabul qilinadi. Lekin uni qabul qilish uchun oddiy ko'pchilikning qarori etarli bo'lmasligi va ayrim holatlarda, sud xulosasi ham zarur bo'lishi mumkin. Odatda, ijro hokimiyatiga nisbatan (AQSH da sudyalarga nisbatan ham) qo'llaniladi. Ayrim mamlakatlarda (AQSH, Yaponiya) mansab-dor shaxslarni Konstitutsiyaga rioya qilmaslik v.b. jinoyatlar uchun parlament tomonidan javobgarlikka tortish qoidalari qonun bilan tasdiqlangan. Bu holda sudga tortish parlamentning quyi palatasi, hukm chiqarish esa yuqori palata tomonidan amalga oshiriladi.

**Import** – (lat. *importo-kiritaman*) – 1) mamlakat ichiga foydalanish yoki sotish uchun chetdan olib kelingan xorijiy mahsulotlar; 2) kapital I. – xorijdan mamlakatga kelayotgan kapital (kredit, zayom va boshqa); 3) chetdan olib kel-ingan mahsulotlarning umumiy soni va qiymati.

**Investitsiya** – (nem. *investition*, lat. *investere* – kiyintirmoq) – investor to-monidan biror bir faoliyatni amalga oshirish uchun kapital mablag'larni, sarmoy-alarni joriy qilish, foyda olish maqsadida sarf qilish. I. mamlakat ichida (ichki investitsiya) va xorijiy mamlakatlarda (tashqi investitsiya) amalga oshirilishi mumkin. Moliya investitsiyasi qimmatbaho qog'ozlarni xarid qilish, pul mab-lag'larini jamg'arish va boshqalarni, real I. – moddiy ishlab chiqarishga sarflan-gan sarmoyalarni o'z ichiga oladi.

**Investor** – kapital mablag' sarflayotgan davlat, tashkilot, korxonalar yoki shaxs.

**Injining** – tijorat ko'rinishida har tomonlama maslahatlarini beruvchi mustaqil faoliyat doirasi. Bu faoliyat ishlab chiqarishning o'sishini, mahsulotlarni sotishni, obyektlarni qurish va ulardan foydalanish jarayonini ta'minlaydi. Injining xizmati ikki guruhga bo'linadi: 1) ishlab chiqarish jarayonini tayyorlash; 2) ishlab chiqarish va mahsulot sotish jarayonini to'la ta'minlash.

**Injining firmalari** – ichki va xalqaro bozorlarda injining xizmatini ko'rsatish bo'yicha ixtisoslashgan korxonalar, firmalar. Bu firmalar bir korxonalar kompaniya faoliyati bilan cheklanmaydi. Ular turli tarmoqlarda xizmat ko'rsatishlari, ko'p ta'minotchilar va pudrat firmalari bilan aloqa qilishlari mumkin.

**Imtiyozlar** – fuqarolarga pensiya olish, pensiya yoshini belgilash, davlat soliqlari, turar joy, ma'lumot olish, transportdan foydalanish singari sohalarda qonun asosida belgilanadigan yengilliklar.

**Imzo varaqasi** – siyosiy partiyaning Oliy Majlis Qonunchilik palatasiga saylovda ishtirok etishini ta'minlash maqsadida saylovchilar imzosini to'plash uchun tuziladigan hujjat. Saylovchi imzo varaqasini to'ldirish orqali siyosiy partiyani saylovda ishtirok etishini qo'llab-quvvatlaydi. Siyosiy partiyani va nomzodni qo'llab-quvvatlab imzo qo'yadigan saylovchilar haqidagi ma'lumotlar imzo varaqasiga imzo to'plovchi shaxs tomonidan qayd etilishi mumkin. Ko'rsatilgan ma'lumotlar faqat qo'lda yozilishi zarur. Imzo varaqalarining shaklini Markaziy saylov komissiyasi belgilaydi. Saylovchilar faqat bitta deputatlikka nomzodni qo'llab-quvvatlab, bir martagina imzo qo'yishga haqli. Bunda saylovchi o'z familiyasini, ismini, otasining ismini, tug'ilgan yilini (yoshi o'n sakkizda bo'lsa, qo'shimcha ravishda tug'ilgan kuni va oyini), yashash joyi manzilini, pasportining seriyasi va tartib raqamini, shuningdek, imzo qo'ygan sanani ko'rsatadi. Imzo varaqasini saylovchilar tashabbuskor guruhining imzo to'plagan a'zosi, shuningdek, saylovchilar tashabbuskor guruhining vakolatli vakili o'z familiyasini, ismini, otasining ismini, yashash joyi manzilini, pasportining seriyasi va tartib raqamini ko'rsatgan holda tasdiqlaydi. Saylovchilar imzosini to'plash ish, xizmat, o'qish, yashash joyida, saylovoldi tadbirlarida, shuningdek, tashviqot yuritish va imzo to'plash qonun hujjatlari bilan taqiqlanmagan boshqa joylarda olib boriladi. Imzo to'playotgan shaxs tomonidan saylovchilarni majbur qilish va ularni pora evaziga o'ziga og'dirib olishning har qanday shakli qonunda belgilangan javobgarlikka sabab bo'ladi. Imzo to'plash tamomlanganidan so'ng saylovchilar tashabbuskor guruhining vakolatli vakili har bir mahalla, qishloq yoki ovul bo'yicha alohida-alohida qilib tikilgan imzo varaqalarini tegishli okrug saylov komissiyasiga topshiradi. Okrug saylov komissiyasi imzo varaqalari to'g'ri to'ldirilganligini tekshirib chiqadi va besh kunlik muddat ichida, takroriy saylov yoki bo'shab qolgan o'rinlarga Qonunchilik palatasi deputatlari saylovi o'tkazilayotgan taqdirda esa uch kunlik muddat ichida tegishli bayonnomani Markaziy saylov komissiyasiga topshiradi.

**Inauguratsiya, inoguratsiya** – (lot. bag'ishlash) yangi saylangan davlat boshlig'ining lavozimiga kirishishi bilan bog'liq tantanali marosimining nomi.

**Individ** – (lot. bo'linmas, tur) alohida inson, shaxs. Individ – lot. individuum-bo'linmas, alohida; inson zotining alohida olingan namunasi, uning vakillaridan biri; har biri alohida, mustaqil mavjud bo'lgan tirik organizm; shaxs esa u yoki bu inson sifatida namoyon bo'lib, u ma'lum va byetakror individuallikka ega bo'ladi.

**Industrial (sanoati) rivojlangan jamiyat** – zamonaviy g'arb jamiyatlarining nomlash uchun aksariyat olimlar tomonidan «rivojlangan jamiyat», «kapitalistik jamiyat» atamaları bilan birga qo'llaniladigan kategoriya. U g'arb jamiyatlarini an'anaviy (urug'chilik, feodal) jamiyatlardan ajratish uchun xizmat qiladi. Uni ilmiy muloqotga Sen-Simon kiritgan. XX asrning 50-60-yillarida u Darendorf, Aron, Rastou, Bell va boshqalarning asarlarida keng qo'llanilgan.

**Inflyatsiya** – (lot. shishmoq) muomaladagi qog'oz pullar hajmining tovarlar hajmiga nisbatan ortib ketishi natijasida pulning qadsizlanishi. 1) muomaladagi qog'oz pullar miqdorini taklif qilingan savdoga chiqarilgan tovar narxlarning yig'indisidan ko'payib ketishi; 2) qog'oz pulning juda ko'p chiqarilishi natijasida pulning qadsizlanishi. Bunday holat xo'jalik yuritish borasidagi qiyinchiliklarni bartaraf qilish davrida, mahsulot ishlab chiqarish kamaygan hollarda qo'shimcha pul chop etish natijasida yuzaga keladi.

**Informatsiya** – lot. informatio – xabardor qilish, tushuntirish, bayon qilish ma'nolarini beradi. Shuningdek, lot. informare – shakl berish qabilida ham ishlatiladi.

**Infrastruktura** – sanoat va qishloq xo'jaligi, ishlab chiqarishga xizmat qiluvchi yordamchi xo'jalik tarmoqlari birligi.

**Infratuzilma** – ishlab chiqarish va takror ishlab chiqarish shart-sharoitini ta'minlovchi tarmoqlar majmuyi. Ishlab chiqarishni energiya bilan ta'minlash, transport, aloqa, informatika va boshqalar ishlab chiqarish I. ni tashkil qiladi. Aholining turmush tarzini ta'minlovchi uy-joy, sog'liqni saqlash muassasalari, o'quv yurtlari, fan va shu kabi sohalar ijtimoiy infratuzilmani tashkil qiladi.

**Inqiroz** – (gr. qaror, hukm, qat'iy yakun) 1) keskin o'zgarish, burilish, og'ir o'tish holati; 2) siyosiy inqiroz – mamlakatdagi yalpi norozilik va g'azab holati; siyosiy tizimning moslashishi funksiyasi bajarilmasligi bilan bog'liq barqarorlik yo'qotilishi holati 3) taraqqiyotning orqaga qaytishi, pasayishi, tanazzuli, regress, tushkunlik; 4) tugash, bitish. I. ga uchramoq (yoki yuz tutmoq), orqaga ketmoq, pasaymoq, tushkunlikka uchramoq.

**Islahot** – turli ravishda o'tkazilgan o'zgarish: isloh qilish, reforma. Iqtisodiy I. – iqtisodni inqiroz holatidan chiqarish borasida o'tkazilgan chora-tadbirlar.

**Iste'mol bozori** – aholi iste'moli uchun zarur bo'lgan tovarlar va xizmatlarning ayirboshlanishi.

**Ishlab chiqaruvchi kuchlar** – ishchi kuchi yoki boshqacha aytganda, ma'lum malakaga, tajribaga ega bo'lgan kishilar hamda ishlab chiqarish vositalaridan tashkil topgan.

**Ishlab chiqarish munosabatlari** – hayotiy ne'matlarning ishlab chiqarish, taqsimlash, ayirboshlash va iste'mol qilish jarayonida kishilar o'rtasida paydo bo'ladigan iqtisodiy munosabatlardir.

**Ishlab chiqarish jarayoni** – jamiyat ixtiyoridagi barcha resurslardan foydalanib, jamiyat a'zolari uchun zarur bo'lgan tovar va xizmatlarni yaratish.

**Ish kuchining xalqaro migratsiyasi** – mehnat resurslarining ancha qo'lay sharoitda ish bilan ta'minlanishi maqsadida bir mamlakatdan boshqasiga ko'chib o'tishini bildiradi.



**Ishsizlik** – aholi mehnatga yaroqli qismining o'ziga ish topa olmay qolishi, mehnat zahira armiyasiga aylanishi.

**Ipoteka** – (yunon. *hypothēke* garov) – qarz, kredit olish uchun biror-bir muayyan ko'chmas mulkni (yer, imorat va hokazo) garovga qo'yish.

**Inson huquqlari** – unga tor ma'noda faqat davlat himoya qiladigan va kafolat beradigan huquqlar kirib, bu huquqlarga barcha fuqarolarning qonun oldida tengligi, yashash va jismoniy daxlsizlik huquqi, inson qadr-qimmatini hurmat qilish, o'zboshimchalik va noqonuniy ushlab yoki qamash, vijdon va din erkinligi, ota-onalarning o'z bolalarini tarbiya qilish huquqlari kiradi. Keng ma'nodagi inson huquqlari esa o'zida shaxs erkinligi va huquqlarining keng majmuasi va turlarini ifodalaydi

**Inson huquqlari umumjahon Deklaratsiyasi** – 1948-yil, 10 – dekabrda Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 217 A (III) ko'rsatmasi orqali qabul qilingan va e'lon qilingan. Amaliy jihatdan 1991-yil 30 – sentyabrda O'zbekiston Respublikasi Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasini imzolagan, inson huquqlariga oid yuzdan ortiq qonunlar qabul qilingan, 1997-yil 24 – apreldan e'tiboran, Inson huquqlari bo'yicha Oliy Majlis vakili faoliyat ko'rsatib kelmoqda, Inson huquqlari bo'yicha Milliy markaz ham 1996-yildan ishlab kelayotir, amaldagi qonun hujjatlari monitoringi instituti tashkil etilgan.

**Inson omili** – inson mohiyatiga xos bo'lgan eng muhim xususiyatlarni – insondagi jismoniy – ruhiy tomonlarning birligi.

**Inson kamoloti indeksi** – ushbu ko'rsatkichlarga quydagilar kiradi: aholi jon boshiga to'g'ri keladigan YaIM, YaMM, MD, kutilayotgan umr kechirish yoshi, ta'lim darajasi

**Insonning asosiy huquq va erkinliklari** – shaxsga o'z ixtiyoriga ko'ra faoliyat ko'rsatish (erkinliklar) yoki muayyan imtiyozlarga ega bo'lish (huquqlar) imkoniyatini beruvchi individ va davlat o'rtasidagi munosabatlar, tamoyillar, me'yorlardir.

**Insonparvarlik** – insonning baxt-saodati, teng huquqliligi, qadr-qimmatini, adolatli hayotini ta'min etishga intilish. Insonga oliy qadriyat sifatida munosabatda bo'lish, uning yashash, erkin rivojlanish, o'z imkoniyatlarini amalga oshi – rish va baxtga intilish huquqlarini e'tirof etishni nazarda tutadi. Insonparvarlik – universal tamoyil sifatida odamlarning kelib chiqishi, millati, dini v.b. sifatlariga ko'ra ajratmaydi, zaiflarga yordam ko'rsatishni talab etadi. Siyosatda insonparvarlik – siyosatning shakli, mazmuni, maqsad va vositalarida namoyon bo'ladi.

**Instantsiya** – (lot. nabatdagi) asosan davlat boshqaruvi (sud, ma'muriyat), shuningdek, partiyaviy va boshqa turdagi muassasalarda yuqoridan pastga qarab itoat etuvchi organlar tizimidagi har bir bo'g'in.

**Institutsional manfaat guruhlari** – manfaat guruhlarining turi. Ularga cherkov, armiya, davlat byurokratiyasi, deputatlar korpusi singari ijtimoiy institutlar negizida tashkil topgan manfaat guruhlari kiritiladi. Ular guruhiy (korporativ) birlamlikka, va pog'onalashuvga asoslanadi. Yuqori darajada tashkil topganligi va hokimiyat tuzilmalariga yaqinligi – ularga siyosiy lobbizm bilan muvaffaqiyatli shug'ullanish imkonini beradi. Lekin ularda ijtimoiy manfaatni guruhiy manfaat bilan almashtirishga moyillik kuchli bo'ladi. Fuqarolik jamiyati zaif mamlakatlarda bu guruhlarining ahamiyati sezilarli darajada katta.

**Institutsionallashuv** – barcha e'tirof etgan qoidalar, qonunlar, an'ana va marosimlarga asoslangan ijtimoiy munosabatlarning barqaror na'munalari shakllanishi, rasmiylashuvi. **Siyosatda institutsionallashuv** asosiy siyosiy aktorlar tomonidan siyosiy me'yorlar, qoidalar, tadbirlar, qadriyatlar, xulq-atvor na'munalari o'zlashtirish, e'tirof etish, ularga amal qilish jarayoni. Siyosiy institutsionallashuv siyosiy barqarorlikning eng muhim shartlaridan biri.

**Institut** – (lot. institutum-mahkama, idora, muassasa) tizimlashtirilgan, hammaga tanilgan, amalda qo'llanilayotgan va e'tirof etilgan (har qachon ham o'z rasmiy tasdig'ini topavermaydigan), u yoki bu tarzda mustahkamlangan qoidalar va me'yorlarga muvofiq o'zaro xatti-harakat qilish uchun qo'llab-quvvatlanayotgan ko'rsatmalarga ega bo'lgan ijtimoiy agentlarning o'zaro xatti-harakatlari shakllari kiradi.

**Integratsiya** – (lat. integer-butun) tiklanish, bajarish; integer, bir butun; qandaydir qismlarning bir butunlikka birlashishi. mustaqil xo'jalik faoliyatining milliy, mintaq va xalqaro miqyosda o'zaro qo'shilib yaxlit xo'jalik tizimini tashkil etishi.

**Interaktiv davlat xizmatlari** – idoralar tomonidan jismoniy va yuridik shaxslarga idoralarning axborot tizimlari vositasida telekommunikatsiya tarmoqlari orqali ko'rsatiladigan xizmatlar. Bizning mamlakatimizda bu xizmatlar 2013-yil 1 – iyuldan harakat qiluvchi hamda davlat organlarining aholi va xo'jalik yurituvchi subyektlar bilan o'zaro hamkorligining qulay va samarali vositasi sifatida xizmat qiluvchi **my.gov.uz** Interfaol Davlat xizmatlari yagona portali orqali ko'rsatiladi.

**Interfaol muloqot** – real vaqt rejimida turli OAV (asosan internet) vositasida "jonli" muloqot qilish.

**Internet** – axborot bilan almashish uchun ham kompyuter tarmoqlari foydalanuvchilarni, ham shaxsiy kompyuterlarni o'zaro bog'lovchi butun dunyo axborot kompyuter tarmog'i. O'zbekiston butunjahon internet tarmog'iga 1996-yilda ulangan. Internet – butun jahon kompyuter tizimi. U yagona ma'lumotlar bankidan foydalanadi va axborot iste'molchilarining cheklanmagan miqdori o'rtasida ma'lumotlar almashinishini ta'minlaydi.

**Internet-OAV (internet nashri)** – internet tizimida ommaviy axborot vositalari vazifasini bajaruvchi veb-sayt. Bosma nashrlar kabi, internet nashri ham jurnalistika tamoyillariga asoslanadi.

**Interpelyatsiya** – (lot. nutq bo'linishi) talabnoma, hukumat olib borayotgan siyosatning umumiy yoki muayyan masalari bo'yicha oliy qonun chiqaruvchi organdagi xalq nomzodlari guruhining so'rovi. Interpretatsiya – talqin qilish, sharhlash; biror narsani muayyan nuqtayi nazardan talqin qilish, tushuntirish, qarab chiqish (masalan, qonun moddasini talqin qilish)

**Intriga** – (lot. adashtirmoq) 1) kirdikor; hiyla-nayrang; g'arazli maqsad bilan yashirin qilinadigan harakat.

**Innovatsiya** – yangilik, ixtiro, keng ma'noda esa texnika va texnologiyalarning yangi turlari (avlodlari)ni joriy etish maqsadida iqtisodiyotga sarflan-gan mablag'lar, (2) ilg'or texnika va texnologiya-lar, boshqarish va boshqa sohalar-dagi yangiliklar va ularning turli sohalarida qo'llanishi, (3) muayyan tilda, asosan, uning morfologiya soha-sida eng so'nggi davrlarda paydo bo'lgan yangi hodisalar (til birliklari) deya ta'rif beriladi. Har qanday innovatsion faoliyat sohalarining

chegarasi nisbiy bo'lib, ularning har biri boshqalari bilan uzviy bog'langandir. Falsafiy nuqtayi nazardan esa ularning barchasi inson amaliy faoliyati natijasi va ijtimoiy ongga ta'sir o'tkazadi. Bu esa o'z navbatida jamiyatda innovatsion ongning shakllanishi va rivojlanishiga sharoit yaratib beradi. Yuqori darajada shakllangan innovatsion ong hamda innovatsion madaniyat jamiyat taraqqiyotida muhim ahamiyatga ega bo'lib bormoqda.

**Iqtisodiy mustaqillik** – muayyan bir mamlakatning shu mamlakatda mavjud ishlab chiqarish kuchlari va ishlab chiqarish vositalariga, tabiiy va ma'naviy boyliklarga va shu boyliklar tufayli yaratilgan mahsulotdan tushgan milliy daromadga va uni taqsimlashga yagona egalik qilishi.

**Iqtisodiy resurslar** – ma'lum davrda ma'lum bir mamlakat ixtiyorida to'plangan va mavjud bo'lgan ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish, ularni iste'molchilarga yetkazib berish va iste'mol jarayonlarida qo'llanilishi mumkin bo'lgan vositalar, **qo'r-qutlar**, imkoniyatlar va manbalardir.

**Iqtisodiy siyosat** – davlatning iqtisodiy tadbirlari tizimi, iqtisodga maqsadli ta'sir ko'rsatish borasidagi maqsadlar, vositalar, vazifalar, tadbirlar birligi. Iqtisodiy siyosatning izchilligi va samaradorligi turli omillarga bog'liq. Siyosiy hokimiyat faoliyatining tarkibiy qismi sifatida u jamiyatning ijtimoiy tarkibi, siyosiy subyektlarning va qaror qabul qiluvchi tashkilotlarning manfaatlari, qadriyatlar, ijtimoiy ong, siyosiy madaniyat holati, hokimiyat tarkibi (qonunchilik va ijro hokimiyati munosabatlari, hukumat va fuqarolik jamiyati munosabatlari, partiyalararo munosabatlar) va hokimiyatda kuchlar nisbatiga bog'liq. Iqtisodiy siyosatning strategik maqsadi – samarali va rivojlanib boruvchi iqtisodiy tizimni yaratishdan iborat. Bu vazifani iqtisoddagi asosiy mafkuralar bajaradilar: Adam Smitning liberal nazariyasi, marksistik iqtisodiy nazariya, Djon Meynard Keyns, Fridrix Avgust fon Xayek, Milton Fridman konsepsiyalari.

**Iqtisodiy integratsiya** – milliy xo'jaliklar o'rtasida o'zaro barqaror aloqalarning rivojlanishi hamda mehnat taqsimoti negizida yuzaga kelgan mamlakatlarning iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy va madaniy jihatdan birlashuvi bo'lib, ishlab chiqarish tuzilmalarining turli darajada va turli ko'rinishlardagi o'zaro aloqadorligini namoyon qiladi.

**Iqtisodiyotning raqobatdoshligi** – mamlakat iqtisodiyotining xalqaro savdoda ishtirok etish, jahon bozoridagi o'z o'rni va mavqeyini saqlab qolish va kengaytira olish, jahon talablariga javob beradigan mahsulotlar ishlab chiqara olish layoqati bo'lib, quyidagilar orqali belgilanadi: ishlab chiqarishning texnik-iqtisodiy darajasi, ishlab chiqarish xarajatlari miqdori, ishlab chiqarilayotgan tovarlar sifati, infratuzilmaning rivojlanish darajasi, mutlaq va nisbiy ustunliklarning mavjudligi.

**Iqtisodiy faoliyatni muvofiqlashtirish** – xo'jalik yurituvchi subyektlar harakatlarini bunday xo'jalik yurituvchi subyektlardan birortasi bilan ham bir shaxslar guruhiga kirmaydigan yuridik yoki jismoniy shaxs bilan kelishib olish;

**Iqtisodiy o'sish** – yalpi milliy mahsulot (sof milliy mahsulot, milliy daromad) yillik miqdorini mutloq o'sishidir.

**Irq** – (ar. ildiz, tomir) teri rangi, gavda tuzilishi, yuz tuzilishiga ko'ra belgilanadigan genetik va jismoniy farqlar bilan belgilanuvchi, kelib chiqishi umumiy,

qondosh odamlar jamoasi. Odatda uchta katta irq ajratiladi: yevropoid, mongoloid, negroid. Siyosiy ma'noda irq'larga bo'lish ko'pincha madaniy stereotiplarga asoslanadi. Ya'ni jamiyatlar etnik va irqiy asoslarga ko'ra guruhlarga ajraladi va bu muammo, shubhasiz, siyosat bilan bog'liq. Dastlabki irqiy nazariyalar XIX asrda Yevropada vujudga kelgan: 1855-yil Gabinoning "Insoniyat irqlarining teng emasligi haqidagi ocherk" va Chamberlenning "O'n to'qizinchi asr asoslari" (1899) asarlari "oq tanli" yevropaliklar va shimoliy amerikaliklarning "qora", "sariq", "jigar rang" afrikalik va osiyoliklardan ustunligini asoslashga harakat qilgan. XIX asr oxirida Yevropada (Germaniya, Avstriya, Rossiya) antisemistik siyosiy partiyalar va harakatlar shakllandi. XX asrda irqchilikning eng dahshatli shakli – Germaniya natsizm vujudga keldi. 1948-yildan (Millatchi partiya g'alabasi bilan) 1994-yilgacha (Afrika Milliy Kongressi partiyasi g'alabasidan so'ng) Janubiy Afrika Respublikasida aparteid rejimi mavjud bo'lgan. Britaniya Millatchilik partiyasi va Le Pen Milliy fronti tomonidan emmigratsiyaga qarshi yurishlar tashkil etiladi. Irqiy nazariyalar tanqid qilinadi, negaki odamlar aslida bitta biologik turga mansub.

**Irqchilik** – kishilik jamiyatda «oliy» va «past», «to'la qonli» va «nuqsonli» elatlar va xalqlar bor, degan g'oyaga asoslanuvchi ta'limot.

**Irratsional** – (lot.) aql bilan tushunib bo'lmaydigan, g'ayri ilmiy, mistik, mavhum – nooqilona. Irratsional – (lot. irrationalis) bilishning asosiy vositasi sifatida his-tuyg'u, instinkt va e'tiqodni tan oluvchi falsafiy qarash.

**Iste'mol savatchasi** – bu insonning salomatligini saqlash va uning hayoti faoliyatini ta'minlash uchun zarur bo'lgan oziq-ovqat mahsulotlari, nooziq-ovqat tovarlari va xizmatlarning minimal to'plamidir. Aslida, iste'mol savati uchta savatdan iborat: *oziq-ovqat*, *nooziq-ovqat*, *xizmat savatchalari*. Iste'mol savatida oziq-ovqat savati muhim o'rin tutadi. **Oziq-ovqat savati** – bu bir odamning bir oyda ovqatlanishi uchun ketadigan mahsulotlar to'plami (u mahsulotlar istemolining minimal me'yori asosida hisoblab chiqilgan). Bu to'plam jismoniy ehtiyojlarga mos keladi, zarur kaloriyani taminlaydi, asosiy oziq moddalar mavjud va ovqatlanishni tashkil etishning ananaviy ko'nikmalariga to'g'ri keladi.

**ISESCO** – Islom Konferensiyasi tashkilotining Ta'lim, fan va madaniyat masalalari bo'yicha muassasi.

**Islom Hamkorlik Tashkiloti (IHT)** – musulmon davlatlari o'rtasida hamkorlik, xalqaro arenadagi faoliyatda birgalikda ishtirok etish, ishtirokchi mamlakatlarning barqaror rivojlanishiga erishish maqsadida 1969-yil 25 – sentyabrda tashkil etilgan (2011-yilga qadar Islom Konferensiyasi Tashkiloti (IKT) deb nomlangan).

**Ishlab chiqaruvchi kuchlar** – ishlab chiqarishning shaxsiy va moddiy omillari, ya'ni ishchi kuchi bilan ishlab chiqarish vositalari birligi.

**Ish o'rni** – tegishli ravishda jihozlangan va ish qurollari bilan ta'minlangan, miqdor va sifat tavsiflariga ega bo'lgan, belgilangan mehnat me'yoriga ko'ra ishlab chiqarish topshirig'i yoki funksiyasini bajaruvchi xodimning yoki yagona ishlab chiqarish topshirig'ini yoxud texnologiya jihatdan ajralmas funksiyani bajaruvchi xodimlar guruhining mehnat faoliyati amalga oshadigan makon tushuniladi.

**Islom taraqqiyot banki (ITB)** – xalqaro bank. 1974-yil musulmon davlatlari tashqi ishlar vazirlarining kengashida ITB ni tuzish haqida qaror qabul qilingan, bank o'z faoliyatini 1975-yilda boshlagan. Qarorgohi Jiddada. ITBni Boshqaruvchilar kengashi va Direktorlar kengashi boshqaradi. Bank prezidenti 5-yil muddatga saylanadi. Maqsadi – Musulmon mamlakatlarining iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyotiga yordam berish. Islomda pulga foyda olish taqiqlangani sababli bankka qo'yilgan mablag'lar uchun foiz olinmaydi va berilmaydi.

**Islohot** – tubdan o'zgartirish, qaytadan qurish, yangidan tashkil qilish. Siyosatda islohot mavjud ijtimoiy–siyosiy tartibni o'zgartirmay, siyosiy tizimning qandaydir jihatlarini (institutlar, me'yorlar va h.) o'zgarishini anglatadi. Modifikatsiya, Transformatsiya va zamonaviylashuv kabi shakllari ajratiladi.

**Istibdod** – (ar. cheksiz hokimiyat) zolimlik, zo'ravonlik huquqi qonun bilan cheklanmagan monarxistik idora usuli; zo'ravonlik asosiga qurilgan zolim hukumat.

**Istiqloq** – (ar.) har bir inson, jamoa, davlat, millatning rivojlanishi uchun zarur erkinlik sharoiti.

**Ittifoqlar (assotsiatsiyalar)** – bir-biriga yaqin ijtimoiy uyushmalar tomondan ta'sis shartnomalari yoki Nizomlar asosida vujudga keluvchi ijtimoiy uyushmalar.

**Ixtilof** – (ar. qarama-qarshilik, kelishmovchilik, ziddiyat, nizo) – odamlarning birgalikda harakat qilish usuli bo'lib, bunda qarama-qarshilik, g'animlik, erishilgan yakdillik, kelishuv va hamkorlikni buzish tamoyillari ustun turadi. Ayrim odamlar, ijtimoiy jamoalar va fuqarolik institutlari, madaniyatlar va sivilizatsiyalar, jamiyat taraqqiyotining tizimlari va tamoyillari o'zaro ixtilof holatida bo'lishi mumkin. Aytish mumkin ki, inson turmush faoliyatining barcha jabhalari ixtilofdan holi bo'lmaydi. Hatto alohida olgan shaxs ham ichki tug'yon, his-hayajon va ehtiyojlar to'qnashuvi, istak va taqiqlar o'rtasidagi kurash holatini boshdan kechirish mumkin. Ixtilof juda ko'p ko'rinishlarga ega bo'ladi. Ixtiloflar bir jamoa ichida, o'zaro g'anim guruhlar o'rtasida va turli jamoalar o'rtasida paydo bo'lishi mumkin. Ixtiloflar diniy sektalar va partiya fraksiyalarining o'zaro munosabatlarini tavsiflashi, ish tashlashlar va inqiloblar, qaqshatqich sinfiy janglar va millatlararo to'qnashuvlar, lokal va jahon urushlari shakliga ega bo'lishi mumkin. Bir qator holatlarga bog'liq holda ixtiloflar turli tusga, chegaralarga, keskinlik darajasi va shunga o'xshash boshqa sifat holatlariga ega bo'la oladi. Shuning uchun ilmiy adabiyotda mazkur tushunchaga turlicha ta'riflar berilgan. Ixtilof bilan bog'liq muammolar uzoq davrdan beri turli soha olimlarini o'ziga jalb qilib keladi. Ixtilofga doir ilmiy tadqiqotlar bilan falsafa, psixologiya, sotsiologiya, huquq, siyosiy fan vakillari shug'ullanadilar. Biroq, faqat o'tgan asr 50-yillarining ikkinchi yarmidan boshlab ushbu sohani o'rganuvchi integrativ – ixtilofshunoslik (konfliktologiya) fani paydo bo'ldi. Ixtiloflarning oldini olish va tartibga solish borasidagi sa'y-harakatlar yordamida uning boshlanish vaqtini keyinga surish, buzg'unchilik qudratini xavfsiz o'zanga burib yuborish, salbiy ijtimoiy oqibatlarining oldini olish yoki ularni kuchsizlantirish mumkin.

**Ixtilof evolyutsiyasi** – ixtilofning oddiy holatidan murakkab shakllariga asta-sekinlik bilan o'sib o'tishi jarayoni.

**Ichki milliy mahsulot** – bir yil davomida mamlakatda yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan ishlab chiqarilgan pirovard mahsulot va xizmatlarning bozor bahosidagi qiymati.

## J

**Jadidchilik** – XIX asrning ikkinchi yarmi, XX asrning boshida yuzaga kelgan siyosiy-ijtimoiy harakat. Faoliyatida ma'rifatparvarlik va siyosiy g'oyalarni ilgari surgan, milliy mustaqillik va taraqqiyot uchun kurashgan. Jadid – arabchadan olingan bo'lib, "yangi usul" deb nomlanadi. Jadidchilik (XIX asr 80-yillaridan boshlangan) maktabdan, maorifdan boshlangan, so'ng matbuot, teatr, siyosatga o'tgan.

**Jamiyat** – insonlar munosabati va ijtimoiy aloqalar yig'indisi. Jamiyat tarixiy, moddiy-ma'naviy hayot tarzidan kelib chiqqan holda umumiy orzu-maqсадlari bilan birlashgan insonlar uyushmasining alohida shakli. Jamiyat doimo o'zgarish va rivojlanishda bo'lib, uning asosini doimo insonlar tashkil etadi. Jamiyat – bu odamlar majmuyi, dunyoda mavjud moddiy va ma'naviy kuchlarning eng qudratli to'plami. Bunday rang-barang materiallarga boy to'plam tabiatdan boshqa hech qayerda uchramaydi. Jamiyat – tarixiy taraqqiyotning muayyan bosqichida vujudga kelgan ijtimoiy munosabatlar mahsuli. U kishilar o'rtasidagi o'zaro harakatlarning mahsuli, ular hayotining ma'lum bir tashkiliyligi, mohiyat jihatidan kishilar va ularning guruhleri o'rtasidagi turli xil (iqtisodiy, oilaviy, ma'naviy, sinfiy, diniy va boshqa) munosabatlar va aloqalar yig'indisidir.

**Jamoa** – (ar. hamma, umumiy, hammaga taaluqli) 1) ishlab chiqarish vositalariga birgalikda egalik qiluvchi va qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ham birgalikda ishlab chiqaruvchi ijtimoiy guruh, masalan, urug' jamoasi, qishloq jamoasi, oila jamoasi; 2) ba'zi mamlakatlarda (masalan, Bolgariyada) – quyi ma'muriy-hududiy birlik; 3) keng ma'noda – har qanday ijtimoiy uyushma.

**Jamoa mulki** – boylikni muayyan maqsad yo'lida ayrim jamoalarga birlashgan kishilar tomonidan birgalikda o'zlashtirilishi.

**Jamoa kelishuvi** – muayyan kasb, tarmoq, hudud xodimlari uchun mehnat shartlari, ish bilan ta'minlash va ijtimoiy kafolatlar belgilash borasidagi majburiyatlarni o'z ichiga oluvchi normativ hujjatdir.

**Jamoa manfaatli** – kishilar guruhi, korxonada va firmalarga tegishli manfaatlar majmuyidir.

**Jamoa shartnomasi** – korxonada ish beruvchi bilan xodimlar o'rtasidagi mehnatga oid, ijtimoiy-ikhti – sodiy va kasbga oid munosabatlarni tartibga soluvchi normativ hujjatdir.

**Jamoat birlashmasi** – o'z huquqlari, erkinliklarini hamda siyosat, iqtisodiyot, ijtimoiy rivojlanish, fan, madaniyat, ekologiya va hayotning boshqa sohalaridagi qonuniy manfaatlarini birgalikda ro'yobga chiqarish uchun birlashgan fuqarolarning xohish-irodalarini erkin bildirishlari natijasida vujudga kelgan ixtiyoriy tuzilma. Siyosiy partiyalar, ommaviy harakatlar, kasaba uyushmalari, xotin-qizlar, yoshlar va bolalar tashkilotlari, veteranlar va nogironlar tashkilotlari, ilmiy-texnikaviy, madaniy-ma'rifiy, jismoniy tarbiya-

sport va boshqa ko'ngilli jamiyatlar, ijodiy uyushmalar, yurtdoshlar uyushmalari, assotsiatsiyalar va fuqarolarning boshqa birlashmalari jamoat birlashmalari deb e'tirof etiladi.

**Jamoat birlashmasi** – ma'naviy yoki boshqa nomoddiy ehtiyojlarni qondirish uchun o'z manfaatlarining mushtarakligi asosida qonunda belgilangan tartibda birlashgan fuqarolarning ixtiyoriy birlashmasi jamoat birlashmasi deb e'tirof etiladi. Jamoat birlashmasi qatnashchilari mazkur birlashmaga mulk qilib bergan mol-mulklariga, shu jumladan, a'zolik badallariga bo'lgan huquqlarini saqlab qolmaydilar. Ular a'zo sifatida qatnashayotgan jamoat birlashmasining majburiyatlari bo'yicha javob bermaydilar, mazkur birlashma esa o'z a'zolarining majburiyatlari bo'yicha javob bermaydi. O'zbekiston Respublikasining O'zbekiston Respublikasida jamoat birlashmalari to'g'risida qonuni 1991-yil 15 – fevralda qabul qilingan.

**Jamoat fondi** – yuridik va (yoki) jismoniy shaxslar tomonidan ixtiyoriy mulkiy badallar ko'shish asosida tashkil etilgan, xayriya, ijtimoiy, madaniy, ma'rifiy yoki boshqa ijtimoiy foydali maqsadlarni ko'zlaydigan, a'zoligi bo'lmagan nodavlat notijorat tashkiloti. Jamoat fondi – jismoniy va (yoki) yuridik shaxslar tomonidan ixtiyoriy mulkiy badallar ko'shish asosida tashkil etilgan, xayriya, ijtimoiy, madaniy, ma'rifiy yoki boshqa ijtimoiy foydali maqsadlarni ko'zlaydigan, a'zoligi bo'lmagan nodavlat notijorat tashkiloti jamoat fondi deb e'tirof etiladi. Jamoat fondiga uning muassislari (muassisi) yoki vasiyat qiluvchi tomonidan o'tkazilgan mol-mulk fondning mulkidir. Fond muassislari (muassisi) yoki fond vasiyatnoma bo'yicha tashkil etilganida vasiyatnomani ijro etuvchi fondning majburiyatlari bo'yicha javob bermaydi, fond esa muassislarning (muassising) yoki vasiyatnomani ijro etuvchining majburiyatlari bo'yicha javob bermaydi. Jamoat fondining mol-mulkidan fond ustavida belgilangan maqsad va vazifalarni amalga oshirish hamda ma'muriy xarajatlarni qoplash uchun foydalaniladi. Jamoat fondi har yili o'z faoliyati to'g'risida hisobot e'lon qilib borishi shart. O'zbekiston Respublikasining Jamoat Fondlari To'g'risidagi qonuni 2003-yil 29 – avgustda qabul qilingan.

**Jamoat shartnomasi** – fuqarolar o'rtasida kelishuvning yangi shakllarini qidirish hamda topishning ochiq va cheksiz jarayoni bo'lib, bu jarayon har bir muayyan tarixiy davrda ijtimoiy kurashning vayrongarchilik keltirish xavfiga to'siq qo'yishga va uni konstruktiv o'zanga burib yuborishga qaratilgan me'yorlar hamda chegaralarni belgilab beradi. Shuning uchun jamoat shartnomasi turli ijtimoiy-siyosiy kuchlarning muzokara jarayoni orqali amal qiladi va o'z ta'siri natijasi o'laroq fuqarolik totuvligiga erishadi, bu hol fuqarolik jamiyati yalpi manfaatlarini ifoda etuvchi hokimiyat vakillik organlarining mavjudligi dalilida o'z ifodasini topadi.

**Jamoatchilik nazorati** – fuqarolik jamiyatining muhim belgilaridan biri bo'lib, u fuqarolik jamiyatini shakllantirish jarayonida davlatning iqtisodiy soha-ga, xo'jalik yurituvchi tuzilmalar, ayniqsa, xususiy sektor faoliyatiga aralashuvini cheklash hamda qonunlar ijrosi bo'yicha davlat hokimiyati organlari faoliyati us-tidan olib boriladigan ijtimoiy nazorat shakllaridan biridir.

**Jamoat tashkiloti** – fuqarolik jamiyati institutlarining muhim shakllaridan

biri bo'lib, o'z huquqlari, erkinliklarini xamda siyosat, iqtisodiyot, ijtimoiy rivojlanish, fan, madaniyat, ekologiya va hayotning boshqa sohalaridagi qonuniy manfaatlarini birgalikda ro'yobga chiqarish uchun birlashgan fuqarolarning xohish-irodalarini erkin bildirishlari natijasida vujudga kelgan ixtiyoriy tuzilma jamoat tashkiloti sifatida e'tirof etiladi.

**Jamoatchilik tekshiruvi** – davlat organlari va ularning mansabdor shaxslari tomonidan qonunning, fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarining qo'pol, ommaviy ravishda yoki boshqacha jiddiy buzilishi holatlari aniqlanganda jamoatchilik nazorati subyektlari tomonidan jamoatchilik tekshiruvi amalga oshiriladi. Jamoatchilik tekshiruvi jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari, davlat organlari va ularning mansabdor shaxslari tomonidan qonunning, fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarining qo'pol, ommaviy ravishda yoki boshqacha jiddiy buzilishi holatlari haqidagi olingan axborotlar asosida ma'lumot to'plash yo'li bilan amalga oshiriladi. Jamoatchilik tekshiruvi yakunlangach jamoatchilik nazorati subyektlari xulosa qabul qiladilar, unda davlat organlari va ularning mansabdor shaxslari faoliyatida yo'l qo'yilgan qonunning, fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarining aniq buzilishlari ko'rsatib o'tiladi. Xulosa nusxalari jamoatchilik kengashlariga, murojaat qilgan jismoniy va yuridik shaxslarga, huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlari buzilgan fuqarolarga, qonunning, fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarining qo'pol, ommaviy ravishda yoki boshqacha jiddiy buzilishiga yo'l qo'ygan davlat organlari va ularning mansabdor shaxslariga, zarur hollarda esa chora ko'rish uchun huquqni muhofaza qilish organlariga yuboriladi.

**Jamoatchilik ekspertizasi** – jamoatchilik nazorati subyektlari fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlariga, shuningdek, jamoat manfaatlariga talluqli bo'lgan loyiha va rejalar, shu jumladan, normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarining jamoatchilik ekspertizasini amalga oshiradilar. Davlat organlari va ularning mansabdor shaxslari bunday loyiha va rejalarni ommaviy axborot vositalarida e'lon qilishi yoki Internet tarmog'ida joylashtirishi shart. Jamoatchilik ekspertizasini amalga oshirishda jamoatchilik nazorati subyektlari jamoatchilik ekspertizasini amaga oshirish uchun zarur ma'lumotlarni talab qilib olishga haqli. Jamoatchilik ekspertizasi yakunlangandan so'ng jamoatchilik nazorati subyektlari davlat organlariga ko'rib chiqilishi majburiy bo'lgan o'z takliflarini yuboradilar. Normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarining jamoatchilik ekspertizasini amalga oshirish tartibi qonun hujjatlarida belgilanadi.

**Jamoatchilik fikri** – bir tomondan, hokimiyatni amalga oshirishda ishtirok etuvchi siyosiy institut, ikkinchi tomondan, u yoki bu hodisalar, voqealar to'g'risida turli ijtimoiy guruh vakillarining o'xshash fikr – mulohazalari.

**Jarayon** – muayyan vaqt oralig'ida bo'lib o'tgan o'zgarishlar, voqea va hodisalarning davomiyligi. J.lar uzlukli va uzluksiz, tabiiy va sun'iy, takrorlanuvchi va byetakror, boshqariluvchi va boshqarilmas bo'lishi mumkin.

**Jazo** – huquqbuzarlik sodir etishda ayblangan shaxslarga nisbatan qo'llanadigan ma'naviy, moddiy yoki jismoniy cheklashlar bilan bog'liq bo'lgan majburlov chorasi.



**JSST** – Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti – Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti (JSST) Birlashgan Millatlar Tashkiloti tizimidagi ixtisoslashgan muassasa hisoblanib, 1948-yil 7-aprelda tashkil topgan. (Ushbu sana jahon sog'lig'i kuni sifatida nishonlanadi). Jahon sog'liqni saqlash tashkilotining asosiy maqsadi – barcha insonlarning maksimal darajada sog'ligini ta'minlash, davlatlarga har tomonlama texnik yordam ko'rsatish va bu borada eng yangi ma'lumotlarni yetkazib berish hamda har bir mamlakatda sog'liqni saqlash tizimida yuzaga keladigan muammolarni bartaraf etishda ko'maklashishdan iboratdir. JSST sog'lomlik holatini kasalliklarning yo'qligida emas, insonning to'liq jismoniy, ruhiy va ijtimoiy saodati sifatida ko'radi. Ya'ni JSST nafaqat sog'liqni saqlash tizimi bilan ish olib boradi, balki sog'liqqa ta'sir etuvchi bir qator boshqa sohalar bilan hamkorlikni olib boradi. JSSTga 193 davlat a'zodir. Tashkilotning asosiy organi Butunjahon sog'liqni saqlash assambleyasi (BSSA) hisoblanib, uning asosiy vazifasi JSSTning dasturi hamda byudjetini kelayotgan ikki-yilga tasdiqlash va shu bilan bog'liq masalalar yechimini topishdan iboratdir. Kundalik ishlar bosh direktor rahbarligidagi Kotibiyat tomonidan amalga oshiriladi. JSST ning ijro etuvchi qo'mitasi sog'liqni saqlash sohasida malakali 34 a'zodan iborat. Qo'mitaning asosiy vazifasi Jahon sog'liqni saqlash assambleyasining qarorlarni hayotga tatbiq etish, konsultativ yordam ko'rsatish hamda assambleyaning ishlariga ko'maklashishdan iborat. JSST ning bosh direktori 5-yilga ikki marta ortiq bo'lmagan muddatga saylanadi. Maxsus sessiyada BSSA ning 9-noyabr 2006-yildagi qaroriga ko'ra Margaret Chen tashkilot tarixida JSSTning ikkinchi ayol rahbari sifatida tayinlandi, (ilk ayol rahbar esa norvegiyalik Gru Xarlem Brundland edi). 2012-yil tashkilotning navbatdagi sessiyasida M.Chen 2017-yilgacha JSST ning bosh direktoti etib qayta saylandi. 1992-yil 25-may kuni O'zbekiston Respublikasi JSSTga a'zo bo'ldi. 1993-yilda respublikada JSSTning aloqalarni muvofiqlashtiruvchi Byurosi tashkil topdi. O'zbekiston Respublikasi va JSST o'rtasidagi hamkorlik aloqalari O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi hamda JSSTning Yevropa mintaqaviy byurosi o'rtasida ikki-yil muddatga tuziladigan bitim asosida amalga oshiriladi. JSST Yevropa mintaqaviy qo'mitasining 2015-yil 14-17-sentyabr Vilnyus shahrida o'tkazilgan 65-sessiyasi doirasida O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi va JSSTning Yevropa mintaqaviy byurosi o'rtasida 2016-2017-yillar uchun hamkorkik bitimi tuzildi. Mazkur bitim doirasidagi JSSTning O'zbekiston uchun ajratadigan mablag'i 3 mln. dollarni tashkil etadi. 2001-yildan boshlab JSST O'zbekistondagi vakolatxonasi chet ellik fuqaro rahbarligi ostida faoliyat ko'rsatmoqda. 2006-2011-yillarda vakolatxona rahbari sifatida vaoliyat ko'rsatgan Shvetsiyalik Mishel Tayad O'zbekiston Respublikasi sog'liqni saqlash vaziri varmoniga ko'ra «Sog'liqni saqlash a'lochisi» ko'krak nishoni bilan taqdirlandi.

JSSTning O'zbekiston Respublikasidagi vakolatxonasi Sog'liqni saqlash vazirligi bilan hamkorlikda mamlakatimizda quyidagi loyihalarni amalga oshirib kelmoqda:

- infeksiyon kasalliklarga qarshi kurashish (OITS, sil, poliomiylit, bezgak, qizamiq va boshqalar);
- onalik va bolalikni muhofaza qilish sohasidagi dasturlar (immunizatsiya dasturlarini kengaytirish, o'tkir respirator virusli infeksiyalarga qarshi kurashish);

- favqulotda holatlarga tayyorgarlikni oshirish va ularning ta'sirini kamaytirish dasturlari (Afg'onistonga chegaradosh hududlarda)
- atrof-muhit va salomatlikni ta'minlash dasturlari (oziq-ovqat mahsulotlari xavfsizligi, xalqaro sanitar qoidalar va b.);
- tamaki, alkogol mahsulotlariga qarshi kurashish, narkotik moddalarga qaramlikni oldini olish dasturlari;
- dori-darmon va farmatsevtika;
- "barcha uchun salomatlik" dasturlari va boshqalar.

O'zbekiston JSSTning Kopengagen (Daniyada) joylashgan yevropa hududiy byurosida faoliyat olib boradi 2009-yil sentyabr oyida byroning direktorlik lavozimiga saylovlar bo'lib o'tdi va natijalarga ko'ra J.Yakab (Vengriya) rahbar etib saylandi. 2015-yilning 4-6-may kunlari Toshkent shahrida fiziiatr va pulmonologlarning 8-syezdi bo'lib o'tdi. Ushbu tadbirda Yevropa (Italiya, Fransiya, Turkiya), MDH (Rossiya, Qozog'iston, Qirg'iziston, Armaniston, Ukraina) va xalqaro tashkilotlarning 60 dan ortiq yetuk mutaxassislari ishtirok etishdi. 2015-yilning 14-17-sentyabr kunlari O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vaziri A.Valiyev boshchiligidagi delegatsiyasi Litvaning Vilnyus shahrida o'tkazilgan JSST Yevropa mintaqaviy qo'mitasining 65-sessiyasida ishtirok etdi. Ushbu tadbir doirasida O'zbekiston sog'liqni saqlash vaziri JSSTning ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish qo'mitasiga 2015-2017-yillar uchun saylandi.

**Jahon bozori** – xalqaro mehnat taqsimotiga asoslanuvchi iqtisodiy hamkorlikni xilma-xil shakllari bilan o'zaro bog'langan mamlakatlar o'rtasidagi muntazam oldi – sotdi munosabatlari.

**Jingoizm** – urush, urushdagi g'alabalar va bosqinchilikka oid xabarlardan xursandchilik, tantana psixologiyasi.

**Jinoyat** – qonunda nazarda tutilgan ijtimoiy xavfli qilmish, zamin, o'lkadir. **Jinoyat** – qonunda nazarda tutilgan ijtimoiy xavfli qilmish.

**Jamoa shartnomasi** – korxonada ish beruvchi va xodimlar o'rtasidagi mehnat munosabatlari tartibga soluvchi lokal normativ hujjat.

**Jinoiy javobgarlik** – yuridik javobgarlik turlari – dan biri. Jinoyat sodir etishning huquqiy oqibati bo'lib, aybdorga nisbatan jazolash shaklidagi davlat majburlov chorasini qo'llash.

**Jinoyat huquqi** – keng ma'noda olganda jinoyat huquqi O'zbekiston Respublikasi Oliy Davlat hokimiyat organi tomonidan o'rnatilgan, qilmishning jinoiyligini va jazoga sazovorligini belgilovchi jinoiy javobgarlik va uning asoslarini, jazoning maqsad va vazifalarini, jazo tizimini, jazo tayinlashning umumiy asoslarini, javobgarlikdan va jazodan ozod qilishni, shuningdek, ijtimoiy xavfli qilmish sodir qilgan shaxslarga nisbatan tibbiy yo'sindagi majburlov choralari qo'llashni, tartibga soluvchi yuridik normalar majmuyidan iborat bo'lgan huquq tarmogidir.

**Jinoyat uchun javobgarlik** – jinoyat sodir etishda aybdor bo'lgan shaxsga nisbatan sud tomonidan hukm qilish, jazo yoki boshqa huquqiy ta'sir chorasi qo'llanilishida ifodalanadigan jinoyat sodir etishning huquqiy oqibatidir.

**Jahon banki** – 1945-yil 27 – dekabrda asos solingan. Rivojlanayotgan davlatlarga texnik va moliyaviy yordam ko'rsatish maqsadida tuzilgan xalqaro moli-

vyaviy tashkilot. Shtab kvartirasi AQSHning Vashington shahrida joylashgan. Hozirda ushbu tashkilotga 188 ta davlat a'zo hisoblanib, 100 dan ortiq davlatda filiallariga ega. 1992-yil sentyabr oyidan boshlab O'zbekiston Respublikasi Jahon bankining teng huquqli a'zosi hisoblanadi. 1992-yil 2 – iyulda O'zbekiston Respublikasining «Xalqaro valyuta fondi, Xalqaro tiklanish va taraqqiyot banki, Xalqaro taraqqiyot assotsiatsiyasi, Xalqaro moliya korporatsiyasi, Investitsiyalarni kafolatlash bo'yicha ko'p tomonlama agentlikda O'zbekiston Respublikasining a'zoligi to'g'risida»gi qonuni kuchga kirdi. Hozir Toshkentda Jahon bankning vakolatxonasi faoliyat yuritmoqda. Hozirgi vaqtda Jahon bankining XRTB yo'nalishi bo'yicha mamlakatga 2008–2011-yillarga mo'ljallangan iqtisodiy yordam strategiyasi amalda. Ushbu strategiya O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan 2007-yil avgust oyida tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasining aholining turmush tarzini yaxshilash bo'yicha 2007–2010-yillarga mo'ljallangan Dasturi asosida ishlab chiqilgan. Jahon bankining mamlakatga ko'mak berish bo'yicha 2008–2011-yillarga mo'ljallangan Strategiyasi doirasida Davlatning ustuvor yo'nalishlarini qo'llab-quvvatlash uchun amalga oshirilayotgan dasturlar to'plami asosiy 4 yo'nalishga qaratilgan:

- iqtisodiy o'sish uchun sharoitni yaxshilash;
- qishloqlarda iqtisodiy o'sish imkoniyatlarini oshirish;
- aholiga xizmat ko'rsatish samaradorligini oshirish;
- atrof-muhitni boshqarish hamda global ommaviy ehtiyojlarning taqdim etilishi.

## K

**Kadrlar tayyorlashning milliy modeli tizimi** – O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan 1997-yilning 29 – avgustida "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to'g'risida" qaror qabul qilindi. Ushbu dasturda (3-bandi) kadrlar tayyorlashning milliy modeli quyidagi tarkibiy qismlardan iboratligi belgilab qo'yilgan:

1. Shaxs – kadrlar tayyorlash tizimining bosh subyekti va obyekti, ta'lim sohasidagi xizmatlarning iste'molchisi va ularni amalga oshiruvchisi.

2. Davlat va jamiyat – ta'lim va kadrlar tayyorlash tizimining faoliyatini tartibga solish va nazorat qilishni amalga amlga oshiruvchi kadrlar tayyorlash va ularni qabul qilib olishning kafillari.

3. Uzlüksiz ta'lim – malakali raqobatbardosh kadrlar tayyorlashning asosi bo'lib, ta'limning barcha turlarini, davlat ta'lim standartlarini, kadrlar tayyorlash tizimi va uning faoliyat ko'rsatish muhitini o'z ichiga oladi.

4. Kadrlar tayyorlash tizimida – fan yuqori malakali mutaxassislar tayyorlovchi va ulardan foydalanuvchi, ilg'or pedagogik va axborot texnologiyalarini ishlab chiquvchi.

5. Kadrlar tayyorlash tizimida ishlab chiqarish – kadrlarga bo'lgan ehtiyojini, shuningdek, ularning tayyorgarlik sifati va saviyasiga nisbatan qo'yiladigan talablarni belgilovchi asosiy buyurtmachi, kadrlar tayyorlash tizimini moliya va moddiy-texnik jihatidan ta'minlash jarayonining qatnashchisi ("Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori", T., 2008., 41-53 b.).

**Kadrlar tayyorlash milliy dasturi** – “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni 1997-yil 29 – avgustda qabul qilingan. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi “Ta’lim to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni qoidalariga muvofiq holda tayyorlangan bo'lib, ta’lim sohasidagi milliy tajriba jahon miqyosidagi yutuqlar asosida tayyorlangan hamda yuksak umumiy va kasb-hunar madaniyatiga, ijodiy va ijtimoiy faollikka, ijtimoiy-siyosiy hayotda mustaqil ravishda mo'ljalni to'g'ri ola bilish mahoratiga ega bo'lgan, istiqboldagi vazifalarni hal etishga qodir kadrlarning yangi avlodini shakllantirishga yo'naltirilgan. Dastur kadrlar tayyorlash milliy modelini ro'yobga chiqarishni, har tomonlama kamol topgan, ta’lim va kasb-hunar dasturlarini ongli ravishda tanlash va keyinchalik puxta o'zlashtirish uchun ijtimoiy-siyosiy, huquqiy, psixologik-pedagogik va boshqa tarzdagi sharoitlarni yaratishni davlat, jamiyat va oila oldida mas'uliyatni his etadigan fuqarolarni tarbiyalashni nazarda tutadi.

**Kansler** – (nem.) 1) O'rta asrlarda Yevropa davlatlarida qirol devonxonasi va arxivi boshlig'i; 2) Shveysariyada kantonlar kengashi kotibi; 3) Buyuk Britaniyada lordlar palatasi raisi (lord-kansler) va moliya vaziri; 4) Chor Rossiyasida – oliy fuqarolik lavozimi; 5) 1945-yilgacha Germaniyada reyxxansler – bosh vazir.

**Kamsituvchi shartlar (sharoitlar)** – tovar yoki moliya bozoriga kirish, tovarni ishlab chiqarish, iste'mol qilish, olish, realizatsiya qilish, o'zgacha tarzda boshqa shaxsga o'tkazish shartlari (sharoitlari) bo'lib, ular boshqa teng shartlarda (sharoitlarda) bitta yoki bir nechta xo'jalik yurituvchi subyektini o'zga xo'jalik yurituvchi subyekt (raqobatchi) bilan taqqoslaganda teng bo'lmagan holatga solib qo'yadi;

**Kelishib olingan harakatlar** – tovar yoki moliya bozorida ikki yoki undan ortiq xo'jalik yurituvchi subyektning bozorning mazkur ishtirokchilaridan har birining manfaatlarini qanoatlantiradigan va ulardan har biriga oldindan ma'lum bo'lgan, raqobatni cheklashga olib keladigan yoki olib kelishi mumkin bo'lgan harakatlari;

**Kichik biznes** – bozor iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlarda o'ziga mustaqil mayda korxonalarining daromad olish maqsadida amalga oshiradigan faoliyati.

**Kliring** – (ingl. clearing, clear – tozalash, ravshanlashtirish) o'zaro talab va majburiyatlarni hisobga olib, amalga oshiriladigan naqd pulsiz hisob-kitob tizimi. Mamlakat ichidagi K. banklar o'rtasidagi to'lovlarni, naqd pulsiz hisob-kitoblarni o'z ichiga oladi. Xalqaro hisob-kitoblarda K. kelishuvlar (kliring kelishuvlari, valyuta K.) ko'rinishida amalga oshiriladi. Davlatlararo o'zaro qarzlarni tilla va valyutaga o'tkazmasdan savdo-sotiq talablariga ko'ra amalga oshiradilar. Masalan, paxta tolasi o'rniga uning qiymatiga teng miqdorda mashina, asbob-uskuna olish.

**Kanton** – (fr.) 1) Shveysariya respublikasi tarkibiga kiruvchi har bir alohida davlat; 2) Fransiya va Belgiyadagi kichik ma'muriy birlik.

**“Kamolot” yoshlar ijtimoiy harakati** – O'zbekiston yoshlarining ixtiyoriylik asosida vujudga kelgan, o'zini-o'zi boshqaradigan nodavlat, notijorat tashkiloti. harakat 2001-yil 25 – aprelda bo'lib o'tgan Ta'sis qurultoyi qarori bilan tashkil topgan. Ta'sis qurultoyida harakatning Dasturi va Nizomi qabul qilindi. Harakat

faoliyatining asosiy maqsadi – O‘zbekiston yoshlarini birlashtirish, sog‘lom turmush talablari asosida tarbiyalash, ularning manfaatlarini himoya qilish, yosh yigit-qizlarning o‘z aql-zakovati, kuch-g‘ayratini to‘la namoyon etishi, jamiyatda munosib o‘rin egallashlari uchun shart-sharoit yaratib berishdan iborat. Harakatga 14 yoshdan 30 yoshgacha bo‘lgan O‘zbekiston Fuqarolari a‘zo bo‘lishlari mumkin. Harakatning oliy organi – 5 yilda bir marta chaqiriladigan qurultoy, rahbar organi – 6 oyda bir marta chaqiriladigan Markaziy Kengash, ijroiya organi – 2 oyda bir marta chaqiriladigan Ijroiya qo‘mita hisoblanadi. Harakat tarkibida uning homiyligi asosida ishlaydigan, 10 yoshdan 14 yoshgacha bo‘lgan o‘quvchilarni birlashtirgan Bolalar tashkiloti tuzilgan. Harakat Yoshlar muammolari instituti, “Yangi asr avlodi” nashriyot-matbaa markazini ta‘sis etgan. “Kamolot” yoshlar ijtimoiy harakati muassisligida “Turkiston”, “Molodyoj Uzbekistana” gazetalari, “Yosh kuch”, “Siri olam”, “Sinfdosh”, “G‘uncha”, “Yoshlik”, “Qalb ko‘zi” jurnallari nashr etiladi.

**Kasaba uyushmalari** – korxonada, muassasada, o‘quv yurti va boshqa mehnat jamlarida ishlayotgan ishchi va xodimlarni ijtimoiy manfaatlarini himoya qilish, ish beruvchilar bilan ishlovchilarning ijtimoiy sherikchiligini tashkil etish maqsadida faoliyat yuritadigan nodavlat notijorat tashkiloti; kasaba uyushmasi – ko‘ngilli jamoat tashkiloti bo‘lib, ham ishlab chiqarish, ham noishlab chiqarish sohasidagi faoliyat turiga karab, o‘z a‘zolarining mehnat va ijtimoiy-iqtisodiy huquqlarini hamda manfaatlarini himoya qilish uchun mushtarak manfaatlar bilan bog‘langan mehnatkashlarni birlashtiradi. 1990-yilda respublika kasaba uyushmalari tomonidan O‘zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasini tashkil etish haqida Deklaratsiya qabul qilinib, uni tashkiliy jihatdan rasmiylashtirish ishlari 1991-yilda Federatsiya ustavini qabul qilish bilan yakunlandi. Hozirgi kunda O‘zbekiston kasaba uyushmalari federatsiyasi 14 ta tarmoq kasaba uyushmalari, Qoraqalpog‘iston Respublikasi, 12 ta viloyat, Toshkent shahar kasaba uyushmalari tashkilotlari birlashmalarini, 6,1 mln. dan ortiq kasaba uyushmalari a‘zolarini birlashtiradi. O‘zbekiston Kasaba uyushmalari Federatsiyasining oliy organi Qurultoy hisoblanadi va har 5 yilda bir marta chaqiriladi. Qurultoylar oralig‘ida Federatsiya faoliyatiga O‘zbekiston Kasaba uyushmalari federatsiyasi kengashi rahbarlik qiladi. Kengash a‘zolari tarmoq kasaba uyushmalarining Qurultoylari, kasaba uyushmalari tashkilotlari hududiy birlashmalarining konferensiyalari, shuningdek, Federatsiya Qurultoyida saylanadilar. O‘zbekiston Respublikasining kasaba uyushmalari, ularning huquqlari va faoliyatining kafolatlari to‘g‘risidagi Qonuni 1992-yil 2 – iyulda qabul qilingan.

**Kategoriya** – (gr. hukm, ta‘rif) so‘zlashuv tilida tur, sinf, daraja, ma‘nolarida. Eng umumiy mantiqiy tushuncha, borliqning asosiy shakllari va munosabatlarini aks ettiradi.

**Kategoriyalashtirish** – bir xil hodisalarga tegishli tushunchalarni guruhlash jarayoni; kategoriyalashtirish konseptual ahamiyatga ega, negaki ular o‘z atrofida boshqa tushunchalar guruhlarini yoki subkategoriyalarni birlashtira oladilar.

**Kauzallik** – (lot. sabab bilan belgilanganlik, sabab va faoliyatning qonuniy aloqasi.) Tamoyil (yoki qonun) sifatida kauzallik quyidagilarni anglatadi: har bir

hodisa sababga ega (biror sabab bilan sodir bo'lgan) va ayni vaqtda – boshqa hodisaning sababidir; sababsiz hech narsa paydo bo'lmaydi.

**Kayfiyat siyosiy** – siyosiy psixologiyaning o'zgaruvchi, dinamik unsurlaridan biri. U odamlarning emotsional-ruhiy holatini aks ettiradi. Mazmuniga ko'ra u odamlarning ehtiyojlari bilan ularning amaliy imkoniyatlari, ish va hayot sharoitlari o'rtasidagi nomutunosiblikning u yoki bu darajasini aks ettiradi va ijtimoiy siyosiy ahvoldan ruhiy qoniqish, qoniqmaslik, befarqlik tarzida nomoyon bo'ladi. Siyosatda siyosiy kayfiyat muhim rol o'ynaydi.

**Klassifikatsiya** – (lot. tasnif) predmetlar, hodisalar va tushunchalarni sinflar, bo'limlar, darajalar bo'yicha, ularning umumiy belgilari, xususiyatlariga ko'ra taqsimlash (tur, bo'limlarga kiritmoq), turkumlamoq. Klassifikatsiya bir xillik va o'xshashlikka quriladi.

**Klerikal partiyalar** – (lot.) XIX asrda shakllangan va ijtimoiy hayotning barcha sohalarida din va cherkov ta'sirini kuchaytirishga intiluvchi siyosiy partiyalar.

**Klientelizm** – tengsiz mavqeni egallagan individlar yoki guruhlar o'rtasidagi benefitsiyalar (yaxshi ishlar, daromadlar) almashinuviga asoslangan munosabatlar. Siyosatda patron-klientistik munosabatlarning asosi. Patron – yuqori maqomga ega inson, o'z maqomi beruvchi imtiyozlardan (avtoritet va resurslar) foydalanadi va quyi maqomga ega klientlar madadi va sodiqligi evaziga ularga homiylik qiladi. Klientelistik munosabatlar ancha qadimgi munosabatlar modellarini o'zida aks ettiradi. Atamaning o'zi qadimgi yunonlardan olingan. M.a. 2 – asrda shakllangan bu institut Rimdagi ijtimoiy hayotning aristokratik tabiatini aks etdi. Patron – boy va obro'li fuqaro yoki lashkarboshi – o'z qo'lidagi erkin fuqarolar yoki istilo qilingan hudud fuqarolariga pul evaziga emas, shaxsiy xizmatlar yoki sodiqlik evaziga homiylik ko'rsatgan. U shu tariqa tashkil topgan guruh ichida hakam vazifasini bajaragan va munozaralarni hal qilgan, guruhning manfaatlarini taqdim etgan va himoya qilgan. Klient sodiqligining belgisi uning patron bilan birgalikda chiqishi edi. Patron atrofida odamlarning ko'pligi uning obro'si va ta'sirining qanchalik kuchliligini ko'rsatar edi. Bunday odam davlat lavozimlariga tanlovlarda g'olib chiqishi ehtimoli ham yuqori bo'lgan. Qabilalardan farqlicha klientelistik tashkilotlar odamlarni qondoshlik asosida emas, shartnomaviy asosda birlashtiradi. Zamonaviy klientelizmning o'ziga xosligi shundaki, munosabatlar ko'p tomonlama tabiatga ega. Patron davlat resurslarini taqsimlanishida omma bilan hukumat o'rtasida broker vazifasini bajaradi, undan tashqari zamonaviy patron siyosiy tashkilotlarni nazorat etgani tufayli ommaviy resurslardan ham foydalanadi – ish o'rinlari, nafaqalar, ijtimoiy imtiyozlar va h. Zamonaviy klientlar rovida tashkilotlar, etnik kichik guruhlar, kasaba uyushmalari bo'lishi mumkin. Ular patron xizmatlari evaziga elektoral madad beradilar. Klientelizm o'tish davri jamiyatlarida ayniqsa yaqqol ko'rinadi. Siyosiy munosabatlar institutsionallashuvi darajasi yuqori bo'lgan jamiyatlarda patron-klientistik munosabatlar rasmiy, qonuniy va legitim munosabatlar sathiga ko'chadi va ta'siri deyarli sezilmaydi. Lekin ijtimoiy munosabatlarni konsensus orqali tartibga solish shakli sifatida barcha siyosiy tizimlarda va barcha darajalarda mavjud.

— **Ko'p mandatli saylov okrugi** – bir mandatli saylov okrugidan farq qilgan holda, undan bir nechta deputatlar saylanadi.

— **Ko'ppartiyaviylik** – hozirgi demokratiya davlatlarida siyosiy hayotni tashkil etishning asosiy konstitutsiyaviy prinsiplardan biri, siyosiy va mafkuraviy plyuralizm (xilma-xillik)ni ancha umumiyroq bo'lgan prinsipining ifodasi hisoblanadi. K. P. prinsipi yuridik jihatdan davlat fuqarolarning o'z dunyoqarashlariga muvofiq tarzda siyosiy partiyalarga birlashish huquqini, barcha siyosiy partiyalarning qonun oldida tengligini, ular faoliyati erkinligini tan olishi va kafolatlashini anglatadi. Ko'p partiyalilik prinsipi vakolatli davlat organlarining milliy, irqiy, diniy yoki ijtimoiy murosasizlikni, qonuniy davlat hokimiyat organlarini kuch ishlatib ag'darishni targ'ib qiladigan yoki boshqa yo'sinda amalda bo'lib turgan qonunchilikni buzadigan siyosiy partiyalarni qonunda belgilangan tartibda ta'qiqlashi va tarqatib yuborishini mustasno qilmaydi. Yuridik (rasmiy) haqiqiy ko'ppartiyalilik aniq bir davlatda ijtimoiy va siyosiy manfaatlarning barcha spektrni qamrab olgan rivojlangan va samarali partiyalar tizimi mavjudligida ifodalanadi. Ko'p partiyaviylik – partiyaviy tizim turlaridan biri. Odatda ikki ko'rinishi ajratiladi: 1) kuchli yetakchi partiyasi mavjud ko'ppartiyaviy tizim (Yaponiya, Skandinaviya davlatlari) – unga bir yetakchi partiyaning muntazam ravishda saylovchilarning ko'pchiligini ovozini olish xos va qolgan partiyalar unga samarali qarshi turishlari uchun Koalitsiyaga birlashishlari zarur (ammo bu koalitsiyalar, odatda, qisqa muddatli) va 2) partiyalar soni ikkita dan ko'p tizim. Ko'ppartiyaviylik – mamlakat parlamentida ko'pchilik o'rinni olish uchun teng imkoniyatga ega bir necha siyosiy partiyalar mavjud bo'lgan siyosiy tizim.

**Koalitsion hukumat** – parlamentar davlatlarda parlament deputatlari o'rni turli partiyalar o'rtasida bo'linib ketganda, biror partiyaning yakka partiyaviy hukumat tuzish imkoniyati bo'lmaganda bir necha hukumatdagi o'rinni partiyalar ichida taqsimlanishi asosida vujudga keluvchi hukumat.

— **Koalitsiya** – (lot. birlashgan) muayyan maqsadlarga erishish uchun davlatlar, siyosiy partiyalar yoki boshqa tashkilotlar birlashuvi, ittifoqi.

— **Kodeks** – (lot. kitob) qonunlar majmuyi.

— **Kodifikatsiyalashgan konstitutsiya** – asosiy holatlar bir hujjatda aks etgan konstitutsiyalardir. Ularning ahamiyati quyidagilarda ko'rinadi: kodifikatsiyalashgan konstitutsiya mamlakatning asosiy qonuni sifatida barcha siyosiy institutlar uchun majburiy holatlarni belgilaydi, qonunlar iyerarxiyasini (pog'onalashuvini) o'rnatadi. Unitar davlatlarda ikki pog'onaviy huquq tizimini (Asosiy qonun va qonunlar), federativ davlatda esa bularga qo'shimcha ravishda yana mahalliy huquq tizimini yaratadi; kodifikatsiyalashgan konstitutsiya maqomini uning ustunligi uning ayrim holatlari yoki butunlay o'zini to'ldirish yoki o'zgartirish murakkabligi bilan belgilanadi; tadbirlar kodlanganligi ularning huquqiy himoyalalanishini bildiradi. Bu esa o'z navbatida Konstitutsiyaga zid qonunlar yoki ularning bandlarini qaytarish huquqi orqali sudlarning ahamiyatini oshiradi.

— **Kogorta** – (lot.) qattiq jipslashgan bir-biriga sodiq, hamfikir odamlar guruhi.

— **Komissiya** – qo'mita, muayyan masala yuzasidan tuzilgan muvaqqat yoki doimiy tashkilot.

— **Kommunikatsiya** – (lot.) xabar, aloqa, xabar berish yo'li. Siyosatshunos-

likda siyosiy tizim va muhit bilan, shuningdek, siyosiy tizim elementlari o'rtasida axborot almashinuvini ta'minlovchi jarayonlar va institutlar birligi. Partiyalar, manfaat guruhlari, ommaviy axborot vositalari kommunikativ funksiyani amalga oshiradilar. Siyosiy kommunikatsiyaning etarli rivojlanmaganligi – siyosiy tizimning moslashish funksiyasi pasayishiga, madad va barqarorlik yo'qolishiga olib keluvchi sabablardan biri.

**Kommunizm** – (lot. umumiy) 1) ishlab chiqarish vositalariga ijtimoiy mulkchilikka asoslangan ijtimoiy-siyosiy tizim; 2) mafkura; uning negizida sinfsiz jamiyat, tenglik, ijtimoiy adolat g'oyalari yotadi. Kommunizm nazariyasini Marks, Engels va Lenin (marksizm-leninizm) yaratganlar. Bunday nazariya XIX asr birinchi yarmining oxirida vujudga kelgan. Marksistik nazariyaning asosiy qirralarini quyidagi g'oyalar tashkil etadi: 1. Ijtimoiy-iqtisodiy formatsiya. Ushbu formatsiya proletariat inqilobi natijasida kapitalistik formatsiyaning o'rniga ishlab chiqarish vositalariga nisbatan ijtimoiy mulkchilik va mehnatni insonni qul qiluvchi kuchdan uning rivojlanishi vositasiga aylantirish asosida kelgan. 2. Taraqqiyotining oliy shakli kapitalizmdan kommunizmga sotsializm bosqichi orqali o'tiladi. 3. Kapitalizmdan kommunizmga o'tishning muqarrarligini va shakllarini ilmiy jihatdan asoslashga harakat qiladigan kommunistik mafkura mavjudligi. Hozirgi zamon mutafakkirlarining ko'pchiligi nazariy kommunizm utopiyadan iborat, mazkur mafkura asosida jamiyatni o'zgartirishga bo'lgan urinish esa, siyosiy jinoyat, deb hisoblaydilar.

**Kommyunike** – (fr. xabar qilaman) xalqaro muzokaralar borishi va yakunlari hamda mamlakatdagi muhim voqealar to'g'risida rasmiy axborot.

**Kompendium** – (lot. qisqartirish) biror fan, tadqiqot va h. asosiy mazmunining qisqacha bayoni.

**Kompetent** – (lot. sompetents – loyqlik, mutanosiblik); o'z bilimi yoki vakolati bilan biron-bir qarorni qabul qilish, masalani yechish yoki ular yuzasidan hukm chiqarish uchun zarur bo'lgan ilmga yoki qobiliyatga ega bo'lishni anglatadi.

**Kompetentlik siyosiy faoliyatda** – (lot. qobiliyati bor) siyosiy rahbar, jamoat arbobi yoki hokimiyat organlarining muayyan sifatleri uyg'unligi. Bunday sifatlarga odamlarning siyosiy qiziqishlari, amal qilayotgan siyosiy vaziyatni keltirib chiqargan sabablarni bilish, siyosiy munosabatlar tizimi, siyosiy tashkilotlar o'zaro aloqadorligini tahlil qila olish, u yoki bu harakatlar oqibatini oldindan ko'ra olish kabilar kiradi.

**Kompilyatsiya** – (lot. bosqinchilik) boshqalarning asarlarini umumlashtirish orqali yozilgan, mustaqil bo'lmagan asar, tadqiqot; ko'chirib yozish.

**Konyunktura** – (lot. conjunctura – bog'lash, qo'shish). Bozor konyunkturasi – talab va taklif, baholar darajalari, mollar zaxiralari, shuningdek, iqtisodiy stikllar o'zgarishlar davri – ko'tarilish yoki tanazzul kabilar o'zaro tegishli nisbati natijasida erkin bozorda yuzaga kelgan iqtisodiy vaziyatlar. Konyunkturaning birinchi belgisi uning tez o'zgaruvchanligi, doimiy emasligi va aksariyat hollarda tebranib turishi hisoblanadi.

**Konfederatsiya** – (lot.) 1) ittifoq, hamjamiyat, qandaydir tashkilotlar birlashuvi; 2) mustaqil (suveren) davlatlar ittifoqi, ular bir yoki bir nechta organ



tomonidan birlashtiriladi. Konfederativ ittifoq davlatlarning ixtiyoriy birlashmasi bo'lib, unda har bir davlat ittifoqning umumiy markaziy hokimiyatiga qat'iy cheklangan vakolatlar doirasini o'tkazadi. Butun konfederatsiyaga daxldor bo'lgan umumiy qarorlar faqat konfederatsiya tarkibiga kirgan barcha davlatlar vakillarining roziligi bilan qabul qilinadi va har bir davlatning milliy hokimiyat organi tomonidan tasdiqlangandan keyingina kuchga kiradi. AQSH, Shvestariya, Yevropa Ittifoqi konfederativ davlatlarga misol bo'lib xizmat qilishi mumkin. Hozirgi vaqtda Evroosiyo makonida ham konfederatsiyaga o'xshash ittifoq tuzishga harakat qilinmoqda. Bu o'rinda O'zbekiston a'zo bo'lgan Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi (MDH) haqida gap bormoqda. Tuzilgan milliy organdan yuqori turadigan organlarga mudofaa, savdo, iqtisodiyot va madaniyatning ayrim masalari o'tkaziladi. Markazi sobiq mustamlaka metropoliyasi bo'lgan davlatlarning birlashmalari ham mavjuddir. Masalan, Britaniya Millatlar Hamdo'stligi (Buyuk Britaniya, Kanada, Avstraliya va boshqa mamlakatlar). Davlat qurilishining tarixiy tajribasi shuni ko'rsatadiki, konfederatsiyalar mustahkam tuzilmalar emas. Ular ko'pincha Federatsiyaga aylantiriladi yoki tarqab ketadi.

**Konfessional** – (lot. iqror) diniy. Masalan, dunyoviydan farq qiluvchi konfessional maktab.

**Konfessiya** -lat. cōfessio dinlar va uning shaxobchalari, tarmoqlari, mazhab, oqim va yo'nalishlarini ifodalovchi umumiy tushuncha.

**Kompanion** – biror mulkka birov bilan birgalikda ega bo'lgan kishi yoki tashkilot.

**Konvertsiya** – (lat. conversio-o'zgarish) – harbiy ishlab chiqarish va boshqa xil harbiy faoliyat sohalarining tinchlik maqsadlariga ko'chirilishi.

**Kontrakt** – (lat. contractus-bitim, kelishuv) –mamlakatlar, firma, korxonalar va boshqalar o'rtasida o'zaro huquq va majburiyatlarni belgilash, o'zgartirish yoki to'xtatish to'g'risidagi ikki tomonlama yozma kelishuv, shartnoma.

**Konfidensial** – (fr.) bir siyosiy kuch ikkinchisiga qarama-qarshi turgan vaziyatda siyosat borasidagi qarshi turish, keskinlikning kuchayishi.

**Kongress** – (lot. uchrashuv, yig'ilish) 1) odatda, xalqaro yig'ilish; 2) AQSH, Lotin Amerikasi v.b. bir qator mamlakatlardagi qonunchilik organlarining nomi.

**Konsensus** – (lot. bitim) fikr, mulohazalar birligi, o'zaro kelishuv, ovoz beruvchilarning barchasining roziligi olingan holdagina kuchga kiruvchi qaror qabul qilish shakli.

**Konsepsiya** – lot. conceptio-idrok qilish, idrok, o'zlashtirish; u yoki bu hodisalarga nisbatan qarashlar tizimi; qandaydir hodisalarni ko'rib chiqish, nima-nidir anglash usuli.

**Konservativ partiyalar** – siyosiy maydonning o'ng qanotida turuvchi, sanoatlashuv va inqilobiy harakatlar ta'siri ostida yuz bergan o'zgarishlar sharoitlarida an'anaviy ijtimoiy tartibotni saqlab qolishga intiluvchi siyosiy tashkilotlardir. XIX asrning 70-yillariga qadar konservatorlar va liberallar G'arbiy Yevropadagi (Angliyada tegishincha toriylar va viglar) asosiy siyosiy partiyalar hisoblangan. Shulardan XVII va XVIII asrlarda qirol tarafdorlarini, keyinroq esa, er egalarning konservativ guruhini, davlatni tashkil etishni feodal asoslarini

saqlab qolish tarafdorlarini toriy nomi bilan ataganlar. Bujuaziya va yangi dvor-yanlik manfaatlarini himoya qilgan shotlandiyalik presviterianlar viglar nomini olganlar. 1832-yildan, parlament islohotlari o'tkazilishi vaqtida toriylar o'zlarini R.Pill tashabbusi bilan "konservatorlar" deb atay boshlashdi. Pragmatizm, yuz berayotgan o'zgarishlarni inobatga olishga tayyorlik angliyalik konservatorlar uchun xos xususiyatdir. Bunday o'ziga xos xususiyatlar Britaniya Millatlar Hamdo'stligi boshqa mamlakatlaridagi konservativ partiyalarga ham o'tgan. Absolyutizm jihatlari anchagina uzoq saqlanib turgan Yevropaning kontinental qismida konservatorlar islohotlarga nisbatan ancha qattiq usullarda qarshilik ko'rsatganlar. Ikkinchi jahon urushidan keyin, xristian-demokratik partiyalar shakllan-gach, Yevropa konservativ partiyalari demokratik siyosiy tizim qonun-qoidalarini to'raligicha qabul qildilar. Konservativ partiyalar vakillari tartib, intizom va qat-tiqqo'l hokimiyatga sodiqligi bilan ajralib turadi. Bu jihatdan olganda Buyuk Bri-taniyadagi toriylar, AQSHdagi respublikachilar partiyasi, Fransiyadagi gollistlar, Yevropaning deyarli har bir mamlakatidagi xristian-demokratlar to'la mazmunda konservativ partiyalar hisoblanadi. Yaponiyada liberal-demokratik partiya kon-servativ mavqeda faoliyat yuritadi. Biznes manfaatlarini himoya qiluvchi mazkur partiya loyallik, burch, iyerarxiya kabi an'anaviy qadriyatlarni ham uzviy himoya qiladi. Neokonservatorlar timsolida sanoati rivojlangan dunyo fan va texnika taraqqiyotining eng yangi yutuqlariga muvofiq tuzilmaviy qayta qurish yo'liga o'tib, sotsial-demokratik partiyalarning dasturlari bilan keskin farq qiluvchi vosi-talar va usullardan foydalana boshladilar. 70-yillarga qadar hokimiyat tepasida turgan so'l partiyalarning iqtisodiy va siyosiy qonun-qoidalari keskin tanqid os-tiga olindi. Bunga ularning sotsial islohotlari, davlatning iqtisodiy jarayonlarga, "farovon davlat" nazariyasi va amaliyotiga aralashuvini kuchaytirish, sotsial eh-tiyojlarga davlat xarajatlari ulushini ko'paytirish g'oyalari sabab bo'lgan. Sanoati rivojlangan mamlakatlarda 70-80 yillarda yuz bergan jiddiy o'zgarishlar ham-da iqtisodiy tuzilmalarning qayta qurilishi, "axborot jamiyati"ning quror topishi so'l partiyalarning an'anaviy sotsial bazasi qisqarishi va sotsial tuzilmasining jiddiy o'zgarishiga olib keldi. Jamiyat rivojlanishining tamoyillarini juda yaxshi o'zlashtirgan va saylovchilarning keng qatlamlarini o'z tarafiga jalb qila olgan konservativ siyosiy partiyalarning siyosiy hayotdagi mavqeyi kuchaydi.

**Konsern** – bu ishlab chiqarish diversifikatsiyasi, ya'ni korxonalarining faoli-yat sohalari va ishlab chiqaradigan mahsulotlari turining kengayishi, yangilanib turishi asosida tarkib topadigan yirik ko'p tarmoqli korporatsiya.

**Konservativizm** – (fr. saqlamoq) ijtimoiy-siyosiy mafkura. Birinchi bor ata-ma Fransuz yozuvchisi F.R. Shatobrian tomonidan qo'llangan, deb hisoblanadi. Mafkuraning asoschisi deb esa ingliz siyosiy arbobi E. Berk (1729-1797) e'tirof etiladi. Mafkura inqilobiy o'zgarishlarni qat'iyon rad etadi. Davlat va ijtimoiy ha-yotning tarixiy shakllarini, ayniqsa oila, milliy o'ziga xoslik, din mulkchilik kabi institutlarda gavalangan qadriyatiy asoslarini saqlab qolish va qo'llab-quvvat-lashga qaratilgan.

**Konsortsium** – (lat. consortium-shirkat, uyushma)-korxonalarining vaqtincha tashkil etilgan birlashmalari, ular odatda moliyaviy ishlar yuzasidan tashkil etiladi. Unda davlat, banklar, moliyaviy muassasalar, yirik firmalar eshtirok etadi.

**Konsern** – (ingl.concern)-ishlab chiqarish diversifikatsiyasi asosida tarkib topadigan yirik, ko'p tarmoqli korporatsiya. Ular asta-sekin sanoat monopoliyasining yetakchi shakliga aylanadi.

**Kredit** – (lat. creditum-qarz) 1) kirim-chiqim daftarining chiqimlari; 2) qarzga mol berish, shuningdek, qarzga beriladigan mol, pul; 3) ma'lum xarajatlar uchun chiqariladigan pul, mablag' ; Davlat K. – davlatning zayom obligatsiyalari chiqarish yo'li bilan qarz olishi. Bank, sug'urta uyushmalari va aholining barcha tabaqalari kreditor bo'lishlari mumkin. Bank K.– pul ssudasi ko'rinishidan yuridik va jismoniy shaxslarga beriladigan qarz. Tijorat K. – bir tadbirkorning ikkinchisiga mahsulotning pulini keyin to'lash sharti bilan sotish. Xalqaro K. – davlatlar o'rtasida qarz olish, qarz berish munosabatlari.

**Konsostiativ (hamjamiyat) demokratiya modeli** – amerikalik politolog Arend Leypxart tomonidan ishlab chiqilgan. Unga ko'ra zamonaviy jamiyatlarda ko'plab segmentlar (qismlardan) tashkil topgan, jamiyatdagi farqlar din, mafkura, til, regionlar, irq, millatga ko'ra bo'lishi mumkin. Ko'rsatilgan farqlar bo'yicha ajratilgan aholi guruhlarini Arend Leypxart ko'p tarkibli jamiyatlarning segmentlari deb atadi. Bunday jamiyat uchun siyosiy barqarorlik (tizim barqarorligi, fuqarolar tartibni saqlashlari, legitimlik va samaradorlik) nihoyatda muhim. Jamiyatda kuch, zo'rlik ishlatish minimal ekanligi ham muhim belgi hisoblanadi. Demokratiyaning bu modelini Arend Leypxart to'rt o'zgaruvchi orqali ta'riflaydi: 1) ko'p tarkibli jamiyatlarning segmentlari siyosiy yetakchilarning katta koalitsiyasi jamiyatda hokimiyatni amalga oshirishi, bu – koalitsion hukumatni tuzish, unda barcha partiyalar ishtiroki, barcha qatlamlar manfaatlarini ifodalashini nazarda tutadi; 2) proporsionallik siyosiy vakillikning bosh tamoyili sifatida, davlat apparatida lavozimlarni taqsimlash, davlat byudjeti mablag'larini taqsimlashda namoyon bo'ladi; 3) siyosiy qarorlarni qabul qilishda kamchilik manfaatlarini hisobga olinishi uchun qarorlarning malakali ko'pchilik (ovo beruvchilarning uchdan ikki yoki to'rt dan uch qismi) tomonidan qabul qilinishi qo'shimcha kafolat sifatida; 4) har bir segmentning o'z ichki muammolarini hal qilishda yuqori darajada mustaqilligi (avtonomligi); Lekin bu qoidalar amalga oshirish uchun "kamchilik" siyosiy uyushgan va o'zining mustaqil siyosatini olib borayotgan bo'lishi kerak. Shuningdek, ko'p narsa mamlakatdagi siyosiy elitlarning mas'uliyatligiga ham bog'liq.

**Konseptualashtirish** – ma'lumotlarni, har bir alohida holat, g'oya, hodisa, uning mazmunini nomlash, tushunchaning mazmunini aniqlash.

**Konstitutsion burch** – fuqorolarning Konstitutsiyada belgilab qo'yilgan, fuqorolar bajarishlari shart bo'lgan majburiyatlari.

**Konstitutsion davlat** – zamonaviy davlat qurilishining bosh tamoyili – odamlar yoki an'analar boshqaruvini emas, qonunlar boshqaruvini ta'minlashga asoslanuvchi boshqaruv shakli.

**Konstitutsionalizm** – Konstitutsiya asosida faoliyat ko'rsatadigan davlat boshqaruvi shakli. Konstitutsionalizm – boshqaruvning muayyan ko'rinishi, huquqiy davlatning ilk shakli bo'lib, unda davlat va fuqarolik jamiyati munosabatlari huquqiy me'yorlar bilan tartibga solinadi. Rasmiy-huquqiy ma'noda konstitutsionalizm jamiyatda asosiy Qonun – Konstitutsiyaning mavjudligini, u xalq

suverenitetini ta'minlashi, hokimiyat turli tarmoqlarining bo'linishi va ularning vakolati ko'lamini belgilashi, fuqarolar huquqlarini kafolatlashini nazarda tutadi. Konstitutsionalizm kuchli va kuchsiz bo'lishi mumkin. Konstitutsionalizm turli jamiyatlarda turlicha ko'rinishga ega bo'lgan. Konstitutsionalizmning ingliz-amerika modeli asosiy e'tiborni erkinlikka qaratgani bois davlatning fuqarolik jamiyati hayotiga aralashuvini taqiqlaydi, fuqarolik jamiyatining o'zi ~ davlat faoliyatini tartibga soladi. Evrokontinental modelda kuchli davlat an'analari huquqiy davlat shaklini keltirib chiqardi. Bu yerda asosiy e'tibor davlatning jamiyat hayotidagi alohida o'rniga qaratilgan. Individning erkinligi davlat qudratiga to'g'ridan-to'g'ri bog'langan, chunki faqat kuchli davlatgina fuqarolarining huquq va erkinliklarini kafolotlay olgan. Davlat barqarorligi, milliy birlik g'oyasi bu modelda shaxs erkinligi g'oyasidan ustun bo'lgan. G'arbda ma'rifatparvarlik davrida shakllana boshlagan konstitutsionalizm tizimi ikki muhim tarixiy vazifani bajardi: **birinchidan**, u davlat faoliyatining huquqiy shaklini yaratdi, qonun hokimiyatlar faoliyatining eng asosiy tayanchiga aylandi, alohida guruhlar manfaatlarigagina emas, barchaning manfaatlariga yo'l ochildi, davlat qarorlarini qabul qilishda subyektivizm, o'zboshimchalik cheklanishi, siyosatchilar faoliyatini funksional cheklash imkoniyatlari paydo bo'ldi; **ikkinchidan**, inson barcha faoliyatning maqsadi, o'lchovi deb e'lon qilinishi davlat faoliyatining mazmun-mohiyati o'zgarishiga olib keldi. Konstitutsionalizm – boshqaruvning muayyan ko'rinishi, huquqiy davlatning ilk shakli bo'lib, unda davlat va fuqarolik jamiyati munosabatlari huquqiy me'yorlar bilan tartibga solinadi. Rasmiy-huquqiy ma'noda konstitutsionalizm jamiyatda asosiy Qonun – Konstitutsiyaning mavjudligini, u xalq suverenitetini ta'minlashi, hokimiyat turli tarmoqlarining bo'linishi va ularning vakolati ko'lamini belgilashi, fuqarolar huquqlarini kafolatlashini nazarda tutadi. Konstitutsionalizm kuchli va kuchsiz bo'lishi mumkin.

**Konstitutsiya** – asosiy qonun, eng yuqori kuchga ega hujjat. U mamlakatning ijtimoiy va davlat tizimini, saylov tizimini, davlat hokimiyati organlarining tuzilishi va faoliyat tamoyillarini, boshqarish usullarini, fuqarolarning asosiy huquq va burchlarini belgilab beradi. Keng ma'noda Konstitutsiya u yoki bu boshqaruv tizimida mavjud institutlarning majburiyatlari, vakolatlari va funksiyalari, bu institutlarning o'zaro munosabatlari to'g'risidagi yozilgan yoki yozilmagan qoidalari birligidir. Konstitutsiyaning birinchi ta'rifini Arastu bergan. «Politeya» so'zining bir qancha ma'nolaridan biri «muassasalarning polis yoki davlat ko'rinishida rasmiylashishi, tashkil topishini» anglatgan. Keyingi davrlarda Konstitutsiya funksiyalari o'zgarib bordi, lekin davlat tashkil topishining asosiy tamoyillarini hamda fuqarolarning huquq va burchlarini belgilash – Konstitutsiyalarning asosiy funksiyasi sifatida hamon amal qiladi. Davlat va jamiyat munosabatlarini huquqiy jihatdan tartibga soluvchi hujjat – Konstitutsiyadir. Davlat tuzilishi asoslarini o'zida aks ettiruvchi, davlat hokimiyatining maqsadlari va uni shakllantirishning asosiy vositalari to'g'risidagi huquqiy me'yorlar, qoidalar va qarorlar birligi sifatida tushuniluvchi konstitutsiyalar insonning jamiyatdagi o'rnini ham yangicha baholash imkonini beradi. Ko'pchilik roziligi asosida qabul qilinuvchi konstitutsiyalar aholining birgalikdagi hayotini tashkil etish uchun zarur ijtimoiy kelishuv minimumini belgilab beradi. Monarxlar faoliyatini cheklagan va konsti-

tutsion tabiatga ega bo'lgan dastlabki hujjatlarga Angliyada XSh asrda qabul qilingan hujjatlar, 1789-yildagi AQSH Konstitutsiyasi (1791-yilda – Huquqlar to'g'risidagi Bill) 1791-yildagi Fransiya Konstitutsiyasi (1789-yilda – Inson va fuqaro huquqlari deklaratsiyasi) misol bo'la oladi. Konstitutsiyalar qabul qilinishi mamlakatda urush, inqilob, siyosiy mustaqillikka erishish singari xodisalar ro'y berishi bilan bog'liq, chunki Konstitutsiya o'zgarishi – yangi siyosiy tartib o'rnatilishini anglatadi. Konstitutsiyalar turli demokratik davlatlarning rivojlanishiga ko'rsatadigan ta'siri R.Dalga ko'ra quyidagicha: barqarorlik; asosiy huquqlarning ta'minlanishi; manfaatlar muvozanati; hisobotlilik; vakolatlilikning adolatlilik; kelishuv; samarali boshqaruv; qarorlarning malakaviyligi; oshkoralik va tiniqlik; egiluvchanlik; qonuniylik. Konstitutsiyalarning bir qancha turlari mavjud. "Yozilgan" konstitutsiyalar qonun ko'rinishida namoyon bo'ladi, hozirgi paytda siyosiy fanda bu atamani "kodifikatsiyalashgan konstitutsiya" atamasi bilan to'ldiriladi. "Yozilmagan" konstitutsiyalar an'analar, odatlarda namoyon bo'ladi va tarixiy rivojlanish davomida asta-sekin shakllanadi. Bugungi kunda yozilmagan konstitutsiyalar Buyuk Britaniya, Isroil, Yangi Zelandiyada, Butan, Saudiya Arabistoni, Omonda mavjud. Amaliyotda esa har bir konstitutsiya yozilgan va yozilmagan me'yorlar majmuyidir. Yozilmagan konstitutsiyalarni yana "konstitutsion konvensiya" tushunchasi bilan to'ldiriladi. Konstitutsion konvensiya – qonun emas, odat yoki prestendentga asoslangan qoidalar. Konvensiyalar konstitutsiyaning yozilmagan elementlarini talqin etuvchi yozilmagan qoidalar va huquqiy munosabatlarning asosini aks ettiradi. Ular yozilmagan konstitutsiya tizimida juda samarali qo'llanadi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 1992-yil 8 – dekabrda qabul qilingan.

**Kodifikatsiyalashmagan konstitutsiyalar** bir nechta manbadan tashkil topadi. Ular dunyoda kam uchraydi va bir-birlaridan katta farq qiladi. Buyuk Britaniya Konstitutsiyasi kodifikatsiyalashmagan, lekin qisman yozilgan hisoblanadi. U parlament qabul qilgan qonunlar va konvensiyalarga tayanadi. Va agar siyosiy tizim kodifikatsiyalashgan konstitutsiyaga ega bo'lmasa bu uning parlament respublikasi ekanligini va unda mutloq va suveren hokimiyat parlamentga tegishligini anglatadi. Mamlakat Asosiy qonunini o'zgartirishga doir tadbirlarning murakkabligiga qarab konstitutsiyalarni **qat'iy** va **egiluvchan** turlari ajratiladi. Qat'iy konstitutsiyaga AQSH Asosiy qonunini misol qilib keltirish mumkin. 1787-yildan beri bu erda bitta konstitutsiya amal qilib keladi, unga 26 tuzatish kiritilgan. Shu davrning o'zida Fransiya 17 ta Konstitutsiya qabul qilingan. Amalda rioya qilinishiga ko'ra konstitutsiyalar ishlovchi, nominal va ko'rgazmali turlarga bo'linadi. "Ishlovchi" konstitutsiya quyidagi ikki qoidaga javob berishi kerak: hukumat faoliyati konstitutsiya talablariga javob berishi kerak; konstitutsiya hukumat faoliyatini real cheklashi kerak. Konstitutsiyalar ishlashi uchun zarur omillarga jamiyatning siyosiy madaniyati; konstitutsiyaga siyosiy va b. elitalarning rioya etishi va jamiyat manfaatlarini ifodalashi; konstitutsiyaning o'zgarayotgan vaziyatga nisbatan moslashuvchanligi kabilari kiradi.

**Konstitutsiyaviy monarxiya** – boshqaruv shakllaridan biri. Unda mutloq hokimiyat konstitutsiya bilan cheklangan bo'ladi, saylanadigan parlament va mustaqil sud amal qiladi.

**Konsyumerizm** – iste'molchilar huquqlari himoyasi, atrof-muhitni himoyalash, biznesning salbiy oqibatlariga qarshi ijtimoiy harakat.

**Konvensional** – (lot. shartga muvofiq) shartli, an'analarga muvofiq keluvchi.

**Konvensiya** – (lot. shartnoma, bitim) biror maxsus masala yuzasidan davlatlar o'rtasida tuziladigan shartnoma.

**Konvergensiya nazariyasi** – (lot. yaqinlashuv) XX asr o'rtalarida keng tarqalgan ijtimoiy-siyosiy va politologik konsepsiya. Unga ko'ra sanoati rivojlangan jamiyatlarda mavjud umumiy tarkibiy va funksional jihatlar (masalan, fanning ishlab chiqarishga kirib kelishi, ratsionallashuv va byurokratlashuv, iste'mol jamiyati, ta'limning, daromadning, turmush darajasining tenglashishi va globalashuv siyosiy va ijtimoiy jihatdan qarama-qarshi tizimlar – kapitalizm va sotsializmning – kelajakda aralash jamiyatlarga birlashishi ehtimoli mavjud (Dj. Gelbreyt, Aron, Tinbergen). XX asrning 70-yillarida negativ Konvergensiya Konsepsiyalari vujudga keldi (Markuze, Xabermas). Unga ko'ra sotsializm va kapitalizm asosan bir-biridagi salbiy elementlarni o'zlashtiradilar.

**Konversiya** – (lot. boshqa qiyofaga kirish) harbiy ishlab chiqarishni qisqartirish, o'zgartirish; avval chiqarilgan davlat zayomi shartlarini o'zgartirish.

**Konvertatsiya** – (lot. aylantirish) bir mamlakat pulini chet el puliga erkin almashtirishi. Konvertatsiyalangan (erkin almashtiriladigan) valyuta – har qanday xorijiy davlatlar valyutalariga erkin va cheklanmagan miqdorda almashtirilishi mumkin bo'lgan valyutalar.

**Kooperatsiya** – (lot. cooperatio-hamkorlik) ko'pchilik kishilarning birgalikda bitta yoki o'zaro bir-birlariga bog'lik o'lgan bir necha faoliyatlardagi ishtiroki, mehnatni tashkil etish shakllaridan biri; ishlab chiqarish va mahsulot ayirboshlash sohasidagi jamoaviy birlashma.

**Kooptatsiya** – (lot. saylash, tanlov, qo'shimcha tanlov) saylanadigan organ tarkibini qo'shimcha saylov o'tkazmasdan to'ldirish.

**Korporatsiya** – (lot. hamjamiyat) ittifoq, birlashma, jamiyat. Xususiy, guruhiy, kasbiy manfaatlar asosida birlashish.

**Korporativ davlat** – davlatni tashkil etishga oid Konsepsiya. Unga ko'ra mehnat va kapital munosabatlari davlat tomonidan kasbiy-tarmoq ittifoqlari (korporatsiyalar) shaklida boshqariladi va tartibga solinadi, parlament esa korporativ kengash bilan almashinadi. Ijtimoiy manfaatlarni bayon etishning boshqa shakllari va usullari cheklanadi.

**Korporativlik** – jamiyatni tashkil etishning shunday modeliki, uning birlamchi elementlari sifatida individlar emas, iqtisodiy va funksional guruhlar chiqadi. Markaziy hokimiyat korporatsiyalarga birlashgan ana shu guruhlar vakillaridan tuziladi.

**Korrelyatsiya** – (lot. nisbat, o'zaro munosabat) faqat bir-biri bilan o'zaro taqqoslanganda mazmunga ega bo'lgan narsalar, tushunchalar.

**Korrupsiya** – (lot. sotib olish) shaxsning o'z mansab yoki xizmat mavqeyidan shaxsiy manfaatlarini yoxud o'zga shaxslarning manfaatlarini ko'zlab moddiy yoki nomoddiy naf olish maqsadida qonunga xilof ravishda foydalanishi, xuddi shuningdek, bunday nafni qonunga xilof ravishda tahdim etish; Korrupsiyaga qarshi kurashish tog'risidagi O'zbekiston Respublikasining qonuni

2017-yil 4 – yanvarda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev tomonidan imzolangan. Qonunchilik palatasi tomonidan 2016-yil 24 – noyabrda qabul qilingan, Senat tomonidan 2016-yil 13 – dekabrda ma’qullangan

**Korrupsiyaga oid huquqbuzarlik** – korrupsiya alomatlariga ega bo‘lgan, sodir etilganligi uchun qonun hujjatlarida javobgarlik nazarda tutilgan qilmish;

**Korrupsiyaga qarshi kurashishning asosiy prinsiplari** – qonuniylig; Fuqarolar huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarining ustuvorligi; ochiqlik va shaffoflik; tizimlilik; davlat va fuqarolik jamiyatining hamkorligi; korrupsiyaning oldini olishga doir chora-tadbirlar ustuvorligi; javobgarlikning muqarrarligi.

**Korteslar** – (isp.) Ispaniya (1911-yilgacha Portugaliya)da qonunchilik yig‘ini.

**Kosmopolitizm** – (kosmosga ishonish yoki dunyo davlatiga ishonish) – milliy farqlarning to‘la yo‘qolishi va butun insoniyat uchun umumiy, yagona siyosiy tartibning o‘rnatilishi g‘oyasi. Tarixiy ahamiyati – millatlar o‘rtasida tinchlik o‘rnatish, ularning munosabatlarini o‘zaro tushunish, tolerantlik va bog‘liqlik tamoyillari asosida qurish XIX asrda “manchesterlik liberallar” nomi bilan tanilgan Richard Kobden va Jon Braytlar savdo erkinligini kiritish orqali xalqlar o‘zaro bir-birlariga bog‘liqligi ortadi va urushlarning oldi olinadi, degan fikrlarni ilgari surganlar. Kosmopolitizm – (yunon. kosmopolites – dunyo fuqarosi) – dunyo fuqaroligini da’vo qilish, shuningdek, milliy va davlat suverenitetini rad etish, turli milliy an‘ana, madaniyat hamda vatanparvarlik tuyg‘usidan voz kechish g‘oyasini ilgari suradigan qarash. Kosmopolitizm, ya’ni, qayerda yaxshi hayot bo‘lsa o‘sha yerni vatan deb bilish. Bu tamoyil insonda vatan hissini yo‘qotadi, g‘urumi o‘ldiradi. Bu esa har bir jamiyat uchun halokatlidir.

**Koteriya** – (fr. to‘garak, jipslashgan guruh) muayyan maqsadlar negizida jipslashgan odamlar guruhi, to‘garak. M.Dyuverjeda zamonaviy siyosiy partiyalar rivojlanishida birinchi bosqich. Amalda faqat ingliz partiyalarigina shu bosqichdan o‘tgan, deb hisoblanadi.

**Kratologiya** – (yunon. kratos – hokimiyat, logos – ta’limot) – siyosiy fan yo‘nalishlaridan biri: hokimiyat shakllanishi, amal qilishi, ko‘rinishlari va qonuniyatlari to‘g‘risidagi fan. Ushbu fanda hokimiyat muammolari, uning kelib chiqishi, amal qilishi va rivojlanishi, turlari va shakllari, hokimiyatni boshqaruvchilar va ta’sir ko‘rsatish obyekti, usullari, hokimiyat vazifalari, o‘zga ijtimoiy jarayonlar bilan o‘zaro aloqalari va boshqa shu kabilar o‘rganiladi. Kratologiya doirasida hokimiyatning umumiy nazariyasi, tarixi, amaliy va qiyosiy siyosatshunoslik, hokimiyat sotsiologiyasi, hokimiyat mantig‘i, morfologiyasi (tuzilishi), hokimiyat pedagogikasi, psixologiyasi, falsafasi, etikasi va bir qator maxsus bo‘limlari o‘rganilishi kerak, deb hisoblanadi.

**Kriptokratiya** – gr. yashirin, maxfiy – yashirin hokimiyat.

**Ksenofobiya** – chet elliklardan qo‘rqish yoki ulardan nafratlanish. Yuqori darajada namoyon bo‘luvchi etnosentrizm, ya’ni millatini yuqori qo‘yish.

**Kuchli davlat** – omma faoliyatiga asoslangan kuchli boshqaruv tizimiga, rivojlangan iqtisodiyot, yuksak ma’naviyatga ega bo‘lgan davlat. Bunday davlat mustahkam iqtisodiy, huquqiy va ma’naviy asosga ega bo‘ladi. Uning qudrati fuqarolar hamjihatligi, jamiyatdagi do‘stlik va bag‘rikenglik, har bir fuqaroning onglilik darajasi, davlat boshqaruvidagi faol ishtirokiga asoslanadi.

**Kuchli davlatdan – kuchli jamiyat sari** – ushbu Konsepsiyaning mohiyati odamlarning siyosiy ongi, siyosiy madaniyati va faolligi yuksalib borgan sari davlat vazifalarining nodavlat tuzilmalari va fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlariga bosqichma-bosqich o'tishi, mahallalarning nufuzi va mavqeyining oshishi demakdir. «Kuchli davlatdan – kuchli jamiyat sari» degan tamoyilni amalda hayotga joriy etish maqsadlaridan kelib chiqib O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.A.Karimov quyidagi vazifalarni ilgari surgan edi: «Ham-mamizga ayonki, bu yo'nalish ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar bilan bog'liq ko'p ma-salalarni hal qilishda davlat tuzilmalarining rolini kamaytirish va bu vazifalarni bosqichma-bosqich jamoat tashkilotlariga o'tkaza borishni taqozo etadi. Buning uchun, avvalambor, davlatning iqtisodiy sohaga, xo'jalik yurituvchi tuzilmalar, birinchi galda, xususiy sektor faoliyatiga aralashuvini cheklash lozim... Ha-yotimizni erkinlashtirish yo'nalishlarining yana bir muhim yo'li – markaziy va yuqori davlat boshqaruv idoralari vazifalarini davlat hokimiyatining quyi tuzil-malariga, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlariga bosqichma-bosqich o'tkaza borishni ta'minlashdir».

O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezident O'zbekistonda fuqarolik jami-yati qurish islohotlarini yanada chuqurlashtirish, unga mutanosib ravishda huquqiy davlat qurish maqsadlaridan kelib chiqib jamiyatning siyosiy sohasini erkinlashtirish (liberallashtirish) konsepsiyasini ishlab chiqdi va uning quyidagi yo'nalishlari belgilab berdi:

– mamlakat siyosiy hayotining barcha sohalarini, davlat va jamiyat qurilishi-ni erkinlashtirish;

– mamlakat siyosiy hayotida haqiqiy ma'nodagi ko'ppartiyaviylik muhitini qaror toptirish;

– nodavlat notijorat tuzilmalar, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organla-rining faoliyatini yanada mustahkamlash va rivojlantirish;

– jamiyatda fikrlar xilma-xilligi va qarashlar rang-barangligi, ularni erkin ifo-da etish sharoitini ta'minlash;

– inson huquqlari va erkinliklarini, odamlar ongida demokratik qadriyatlarni yanada mustahkamlash va rivojlantirish.

**Kuchli fuqarolik jamiyati** – inson manfaatlari ustuvorligi va fuqarolik jami-yati institutlari orqali ularning davlat va jamiyat boshqaruvida faol ishtirok etishi ta'minlangan, qonun ustuvor bo'lgan jamiyat.

O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.A.Karimovning Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisidagi (2005-yil 28 – yanvar) «Bizning bosh maqsadimiz – jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mam-lakatni modernizatsiya va isloh etishdir» nomli ma'ruzasida mamlakat jamiyatini demokratlashtirish va yangilash konsepsiyasining, shuningdek, mamlakatimizni 2005-yil va kelgusi davrda modernizatsiya va isloh etish bo'yicha asosiy vazi-falarning dasturiy konseptual yo'nalishlari belgilab berildi. Mazkur ma'ruzada mamlakatni modernizatsiya qilish borasida uzoqni ko'zlaydigan «Kuchli dav-latdan – kuchli fuqarolik jamiyati sari», degan tamoyilga asoslangan islohotlar-ni yanada chuqurlashtirishning barcha yo'nalishlarida amalga oshirilishi lozim bo'lgan maqsad va vazifalar aniq va ravshan ifoda etildi. Mamlakatda markaziy



davlat hokimiyati organlari vakolatlarini nomarkazlashtirish asosida kuchli jamiyatning shakllanishi uchun shart-sharoitlar yaratish maqsadlarida «hokimiyat vakolatlarining ma'lum bir qismini markazdan mahalliy hokimiyat organlariga o'tkazishga qaratilgan mavjud qonun va huquqiy hujjatlarni bir tizimga keltirish va ularga qo'shimcha tarzda yangilarini ishlab chiqish» vazifasi belgilandi. Shu bilan birga, «o'zini o'zi boshqarish organlari – mahalla, mahalla qo'mitalari va qishloq fuqarolik yig'inlarining roli hamda vakolatlarini amalda kuchaytirish» muhim vazifalar sirasiga kiritildi.

**Kuchli jamiyat** – mustahkam negizning barqarorligi ta'minlangan, davlatning boshqaruvchilik faoliyati qisqarib, jamoat tashkilotlarining roli kuchaygan, fuqarolarning qonun asosida, ularning huquq va erkinliklari oliy qadriyatlarga aylangan jamiyat.

**Kumulyativ votum** – ko'p mandatli saylov okruglarida ovoz berish tartibi: unda saylovchi o'zida bo'lgan ovozinig bir qismini yoki barchasini birlashtirib uni nomzodlardan biriga berish huquqiga ega bo'ladi.

**Kundalik ong**– ijtimoiy ong turi. Maxsus ongdan farqlicha kundalik ong tasodifiy, malakasiz, uzuq-yuluq kundalik tajribaga asoslanadi. Odamlar va narsalar o'rtasidagi doimiy, takrorlanuvchi, odatiy munosabatlar bilan ish ko'rgani va bevosita amaliyot bilan bog'liq bo'lgani uchun kundalik ong muayyan ijobiy mazmunga ega. «Xalq donoligi», «rejalilik», «aqli rasolik» – uning ana shunday belgilarini ta'riflaydi. Shu bilan birga, voqea-hodisalarning mohiyatini anglashda, u xolislik, to'lalilik, ishonchlilik va chuqurlilik jihatidan maxsus, ilmiy ongdan quyida turadi.

**Kurash siyosiy** – muayyan siyosiy maqsadlarga erishish yo'lida turli siyosiy kuchlarning o'zaro munosabatlarida namoyon bo'ladigan siyosiy hayotning muhim tarkibiy qismi.

**Kuzatuvchi** – saylovga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazishga doir barcha tadbirlarda, shuningdek, saylov kuni ovoz berish xonalarida va ovozlarni sanab chiqishda deputatlikka nomzodlar ko'rsatgan siyosiy partiyalardan bitadan kuzatuvchi, ommaviy axborot vositalarining vakillari, boshqa davlatlar, xalqaro tashkilotlar va harakatlardan kuzatuvchilar qatnashish huquqiga ega. Ularning vakolatlari tegishli saylov komissiyalari tomonidan berilgan hujjat bilan tasdiqlangan bo'lishi kerak. Manfaatdor tashkilotlar, saylovchilar tashabbuskor guruhlar o'z kuzatuvchilari to'g'risida Qonunchilik palatasiga saylov o'tkazuvchi okrug saylov komissiyalariga saylovga kamida o'n besh kun qolganida ma'lum qiladilar. Okrug saylov komissiyasi Markaziy saylov komissiyasi tomonidan belgilanadigan namunadagi mandatni manfaatdor tashkilotdan, saylovchilar tashabbuskor guruhidan ariza olinganidan keyin kuzatuvchiga besh kun ichida beradi. Kuzatuvchilar quyidagi huquqlarga ega: deputatlikka nomzodlar ko'rsatishga bag'ishlangan yig'ilishlarda, okrug va uchastka saylov komissiyalarining majlislarida hozir bo'lish; saylov uchastkasida hozir bo'lish hamda tayyorgarlik ishlarining borishini, ovoz berish uchun saylov qutilarining joylashtirilishi va muhrlanishini, fuqarolarga saylov byulletenlarining berilishini kuzatish; ovozlarni sanab chiqishda va uchastka saylov komissiyasining bayonnomalarini tuzishda hozir bo'lish; saylov natijalari to'g'risidagi hujjatlarning

tegishli saylov komissiyasi tomonidan tasdiqlangan nusxalarini so'rash va ularni olish; agar saylov uchastkasida "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylov to'g'risida"gi qonun talablari bo'zilisiga yo'l qo'yilgan deb hisoblash uchun asos bo'lsa, o'z kuzatuvlari to'g'risida yuqori saylov komissiyasiga ma'lum qilish. Kuzatuvchilarga quyidagilar man etiladi: saylovchi saylov byulleteniga o'z belgisini qo'yayotgan paytda yashirin ovoz berish kabinasida yoki xonasida bo'lish; saylovchilarga ta'sir o'tkazish, biron-bir tashviqot materialini yoki adabiyoti tarqatish; saylovchilardan ular kimni yoqlab ovoz berganliklarini surishtirish yoki saylovchilarga saylov byulleteniga belgi qo'yishda biron-bir tarzda yordam ko'rsatish; uchastka saylov komissiyasining faoliyatiga, shu jumladan, saylov qutilarini muhrlashda, ularni ochishda, ovozlarni sanab chiqishda aralashish. Agar kuzatuvchi uchastka saylov komissiyasi faoliyatiga xalaqit bersa, fuqarolar o'zlarining saylov huquqlarini amalga oshirayotganlarida bu jarayonga aralashsa yoki yashirin ovoz berish tartib va qoidalarini buzadigan bo'lsa uchastka saylov komissiyasi uni ovoz berish xonasidan chiqarib yuborishga haqli. Bunday hollarda uchastka saylov komissiyasi ovoz berish xonasidan chiqarib yuborilgan kuzatuvchini qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda javobgarlikka tortishni so'rab tegishli organlarga taqdimnoma kiritishi ham mumkin.

**Kvalifikatsion ko'pchilik** – eng muhim masalalar bo'yicha qaror qabul qilish uchun belgilanuvchi, ishtirokchilarning 23 yoki 34 qismining bergan ovozlari.

**Kvazi...** – lot. turli so'zlar boshiga qo'yiluvchi va «go'yo», «soxta» ma'nolarini beruvchi qo'shimcha. Masalan, kvazidemokratiya.

**Kvintessentsiya** – (lot. beshinchi asos) biror narsaning asos, mohiyati; eng muhim, eng asosiy.

**Kvorum** – (lot.) anjumanni (majlis, rahbarlar kengashi, syezd va h.) boshlash va uning qarorlarini haqiqiy deb hisoblash uchun qonun yoki ustavda belgilangan qatnashchilar miqdori.

**Kvota** – (lot. qancha) qism, ulush, me'yor; saylov kvotasi – bir saylov okrugida bir nomzod saylanishi uchun zarur bo'lgan ovozlarning miqdori.

**Konfederatsiya** – shartnoma asosida qat'iy muayyan maqsadlar yo'lida birlashish.

**Kafil** – u yoki bu narsaga kafolat beruvchi davlat, muas – sasa yoki shaxs.

**Kafolat muddati** – Fuqarolik huquqida tovar oldi-sotdi shartnomasi bo'yicha sifat talablariga javob berishi, ish va xizmatlar esa-o'zining iste'mol xossalarini saqlab qolishi kerak bo'lgan davr.

**Kodifikatsiya** – normativ-huquqiy aktlarni qayta ishlash yo'li bilan ularning yagonaligiga olib boruvchi jarayon.

**Kontraktatsiya** – mahsulot yetishtiruvchi bilan davlat yoki bosh xaridor o'rtasida tuziladigan qishloq xo'jalik mahsulotlarini yetkazib berish to'g'risidagi shartnoma.

**Ko'p ukladli iqtisod** – turli mulk shakllari va har xil xo'jalik turlarining yaxlitligidan tashkil topgan iqtisodiyot.

## L

**Litsenziya** – (lat.licentia-erkinlik, huquq) ruxsatnoma; 1) chet mamlakatlardan mol keltirish yoki chet elga mol chiqarish uchun davlat organlari tomonidan beriladigan ruxsatnoma; 2) biror narsadan yengil shartlar bilan yoki bepul foydalanish huquqi; 3) chegaradan mol chiqarish yoki mol kiritishda boj to'lovlarini kamaytirish. Patentlangan L. – ro'yxatga olinib, guvohnoma berilgan kashfiyotdan foydalanish huquqini boshqalarga berish.

**Lantag** – (nem.) Germaniya, Avstriyada ayrim yerlar (viloyatlar)dagi vakillik yig'ini.

**Legal** – (lot.) qonuniy, oshkora, ochiq.

**Legallashtirish** – faoliyatiga ruxsat berish, uni qonuniylashtirish.

**Legitimlash** – hokimiyatning legitimligini ta'minlash jarayoni. U bir qancha mexanizmlarni o'z ichiga oladi: 1) ijtimoiy-ruhiy mexanizmlar – odamlarda hokimiyat adolatli ekanligiga, mavjud holat uning manfaatlariga mosligiga, hokimiyatni nazorat eta olishiga ishonchni shakllantirish; 2) siyosiy ishtirok va, avvalo, saylovlarda ishtirok orqali; 3) siyosiy ijtimoiylashuv orqali; 4) hokimiyat samaradorligini namoyish etish orqali; 5) ichki va tashqi dushman obrazini yaratish orqali.

**Legitimlik** – (lot. qonuniy) muayyan davlat hokimiyatining qonuniyligini a) fuqarolar tomonidan; b) xalqaro hamjamiyat tomonidan e'tirof etilishini anglatuvchi qadriyatiy tushuncha. Tarixan an'anaviy, xarizmatik, oqilona-qonuniy shakllarda nomoyon bo'ladi. Legitim hokimiyat o'zaro ishonchga asoslanadi: xalq hokimiyatga muayyan vazifalarni amalga oshirishni ishonib topshiradi, hokimiyat esa, ana shu vazifalarni ko'plab mexanizmlar va usullardan foydalangan holda bajarishni o'z zimmasiga oladi. Fuqarolarni jamiyat va davlatni boshqarishga, amaldorlarning faoliyati ustidan nazorat qilishga jalb etish siyosiy hokimiyat legitimligining eng samarali usulidir. Legitimlik darajasi qanchalik past bo'lsa, hokimiyat kuchga shunchalik ko'p tayanadi. M.Veber legitimlikning uchta modelini asoslagan: **an'anaviy legitimlik** urf-odatlariga, kuchga va muayyan jamiyatda qaror topgan an'analarga sodiqlikka asoslanadi. **Xarizmatik legitimlik** yetakchiga, dohiyga va uning g'ayrioddiy fazilatlariga shaxsan sodiqlik sifatida tavsiflanadi. **Ratsional legitimlik** qonuniylikka asoslanadi. Legitim hokimiyat o'zaro ishonchga asoslanadi: xalq hokimiyatga muayyan vazifalarni amalga oshirishni ishonib topshiradi, hokimiyat esa, ana shu vazifalarni ko'plab mexanizmlar va usullardan foydalangan holda bajarishni o'z zimmasiga oladi. Fuqarolarni jamiyat va davlatni boshqarishga, amaldorlarning faoliyati ustidan nazorat qilishga jalb etish siyosiy hokimiyat legitimligining eng samarali usulidir. Legitimlik darajasi qanchalik past bo'lsa, hokimiyat kuchga shunchalik ko'p tayanadi. M.Veber legitimlikning uchta modelini asoslagan: **an'anaviy legitimlik** urf-odatlariga, kuchga va muayyan jamiyatda qaror topgan an'analarga sodiqlikka asoslanadi. **Xarizmatik legitimlik** yetakchiga, dohiyga va uning g'ayrioddiy fazilatlariga shaxsan sodiqlik sifatida tavsiflanadi. **Ratsional legitimlik** qonuniylikka asoslanadi.

**Liberal partiyalar** – zamonaviy davlatlar siyosiy maydonida o'ng stent-

ristlar mavqeyini egallab turuvchi, inson erkinligi g'oyasini o'z dasturiy qoidalarining o'ta muhim tarkibiy qismi sifatida himoya qiluvchi siyosiy tashkilotlar. Sanoati rivojlangan mamlakatlarning siyosiy hayotida liberal partiyalar katta ta'sir va salmoqqa egadir. Ular nufuzli jamoat doiralarning manfaatlarini ifoda qiladi, bu esa ularga ham ichki, ham tashqi siyosat shakllantirilishiga jiddiy ta'sir ko'rsatish imkonini beradi. Liberal partiyalar ayrim mamlakatlarning hukumatlarida o'z vakillariga ega. Bir qator mamlakatlarda ular yetakchi muxolifat hisoblanadi. Liberal partiyalarning dasturiy hujjatlariga kiritilgan tamoyilga muvofiq davlat, xususiy tashabbusga o'rin qoldirmay, iqtisodiyotni to'la-to'kis o'z nazoratiga olgan mamlakatda siyosiy erkinlik bo'lishi mumkin emas; ayni bir vaqtda agar siyosiy erkinlik bo'lmasa va inson huquqlariga rioya etilmasa, tub ma'nodagi puxta iqtisodiy erkinlik ham bo'lmaydi. Liberal mafkurachilarning fikricha, demokratik tizimning barqarorligi va ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotining amal qilishi ko'p jihatdan aholining keng qatlamlari qay darajada qashshoqlik chegarasidan yiroq ekanligiga bog'liq. Liberallarning fikricha, tenglik har bir inson jamiyat taraqqiyotiga imkon qadar ko'proq hissa qo'shishi uchun o'zini-o'zi rivojlantirishning teng imkoniyatlariga ega bo'lishlikdir. Liberal demokratiyaning asosiy vazifalarini amalga oshirish, eng avvalo, quyidagilarni taqozo qiladi: parlamentlarning real hokimiyatini mustahkamlash; ijro qiluvchi hokimiyat samaradorligini oshirish va uning faoliyati ustidan parlament nazorati o'rnatish; hokimiyatni mahalliyashtirish; shaxs va inson qadriyatlarini yuridik jihatdan himoya qilish; inson manfaatlarini jamiyat manfaatlari bilan muvofiqlashtirish uchun davlat tomonidan aralashish va aralashmaslikni puxta barqarorlashtirish; davlatlar o'rtasidagi hamkorlik. Liberallar hamkorlikni partiyalararo darajada ham mustahkamlaydilar. O'zini liberal, demokratik va taraqqiyparvar partiyalar Federatsiyasi deb hisoblaydigan Liberal internatsional (LI) 1947-yilda tashkil etilgan bo'lib, Londonda o'z shtab-kvartirasiga ega. Liberal internatsional 70 dan ortiq liberal partiyadan iborat. U 48 ta mamlakat vakillari bo'lmish 3 million nafar a'zoga ega. LI maqsadi – barcha jamiyatlarda liberal prinsiplarning g'alaba qozonishiga erishish. Mazkur prinsiplar o'z tabiatiga ko'ra barcha uchun universal bo'lib, shaxs erkinligi, shaxsiy mas'uliyat va ijtimoiy adolat asosida erkin jamiyatning o'sishiga ko'maklashadi. LI BMTda maslahatlashuv maqomiga ega nohukumat tashkiloti sifatida, shuningdek Yevropa Ittifoqi va boshqa xalqaro siyosiy tuzilmalarda o'z vakillariga ega.

**Liberalizm** – (lot. erkinlik) mafkura, ijtimoiy-siyosiy harakat. U ijtimoiy imtiyozlar va avloddan-avlodga o'tuvchi hokimiyatga qarshi chiqib burjua qatlamlarining qarashlarini o'zida mujassam etadi. Asosiy tamoyillari: individualizm, erkinlik, bozor va raqobatning mutloqligi, davlatni cheklash zarurligi (asoschilari I.Bentam, J.Mill, A.Smit, G.Spenser).

**Liberallashtirish** – ijtimoiy hayotning barcha sohalarida erkinlik ustuvor bo'lishini, jamiyatning evolyusion rivojlanish yo'lini e'tirof etuvchi va asoslovchi nazariya, amaliyot.

**Liberallashuv** – qiyosiy siyosatshunoslikda davlat va fuqarolik jamiyati munosabatlarini qamrovchi, hukmron elita nazorati ostidagi avtoritar tizimning

qisman "ochilishi". U demokratlashuv jarayonining boshlang'ich nuqtasi sifatida qaraladi.

**Liga** – (fr. bog'lamoq) ittifoq, birlashma. Liga – lot. ligare-bog'lamoq; ijtimoiy-siyosiy birlashma; davlatlar, tashkilotlar, alohida shaxslar ittifoqi.

**Lobby** – lot. lobby-kuluar; jamiyatdagi ma'lum bir siyosiy doiralarda, kuchli iqtisodiy tizimlar manfaatlarini ifodalovchi, ana shu manfaatlarni amalga oshirish parlament va mansabdorshaxslarga bosim o'tkazishga intilayotgan guruhlar.

**Lobbizm** – (ingl. kuluar) turli manfaat guruhlarining hokimiyatga ta'sir etishining xilma-xil shakllarini birlashtiruvchi murakkab, ko'p qirrali hodisa. Zamonaviy demokratiyalarda manfaatlarni qonunchilik va ijro hokimiyatida taqdim etish usuli sifatida e'tirof etiladi. Bosim guruhlar va lobby – davlat organlari tomonidan qabul qilinayotgan qarorlarni qo'llab-quvvatlash yoki bekor qilishga harakat qiluvchi tashkilotlar, qonunchilik jarayoniga bevosita ta'sir ko'rsatishni anglatadi. Shuning uchun bu tushunchalar manfaat guruhlarini faoliyatining faqat bir qirrasinigina aks ettiradi. Guruhiy manfaatlarning katta qismi fuqarolik jamiyati doirasida hal bo'ladi. Lekin manfaatlar siyosiy hokimiyat institutlari orqali hal bo'ladigan bo'lsa, bu manfaat guruhini bosim guruhi sifatida namoyon bo'lishini ko'rsatadi. Bosim guruhi tushunchasi ijtimoiy-guruhiy manfaatlarning siyosiy manfaatlariga aylanishi dinamikasini ko'rsatadi. Bosim guruhlarining ta'siri ba'zan siyosiy partiyalar ta'siridan ham kuchliroq bo'lishi mumkin. Siyosatshunoslikda lobbizm masalalarini birinchilardan bo'lib amerikalik politolog A. Benti ko'rib chiqdi. Unga ko'ra davlat boshqaruvida ijtimoiy kelishuvga raqobatli elitalar manfaatlarini ifodalovchi vositachi guruhlar faoliyati natijasida erishiladi. Fransiyalik sotsiolog R.-J. Shvarstenberg lobbizmni hokimiyatga o'z manfaatlariga mos qarorlar qabul qilishi uchun ta'sir ko'rsatish va manfaatlarni himoya qilish uchun tuziladigan tashkilot sifatida ta'rif bergan. Boshqa Fransuz olimi F.Farnel lobbizmni siyosiy usullar va vositalarni qo'llagan holda xo'jalik va ijtimoiy sohalarga samarali aralashuv sifatida ta'riflagan. Lobbistik faoliyat usullariga quyidagilar kiradi: 1) parlament qo'mitalarida qonun loyihalarini tayyorlash; 2) parlament muhokamalarida ishtirok; 3) oliy hokimiyat vakillari bilan bevosita uchrashuvlar, muzokaralar; 4) ijtimoiy fikrni shakllantirish uchun ommaviy axborot vositalaridan foydalanish; 5) joylardan "bosim" kampaniyalarini uyushtirish; 6) sotsiologik va b. tadqiqotlar o'tkazish va ularning natijalarini e'lon qilish; 7) saylov kampaniyalarini moliyalashtirish; 8) mansabdor shaxslarni to'g'ridan-to'g'ri "sotib olish". Foydalanadigan usullariga ko'ra lobbizm legal va nolegal bo'ladi. Bir qator mamalakatlarda lobbizm to'g'risida maxsus qonunlar qabul qilingan (AQSH, Kanada). Maqsadlariga ko'ra lobbizm iqtisodiy, siyosiy, sotsiomadaniy bo'lishi mumkin. Bosim o'tkaziladigan obyektiga ko'ra prezidentlik, parlament va hukumat lobbizmlari ajratiladi. Siyosiy institutlarga munosabatiga ko'ra lobbizm tashqi (tashqi guruhlar bosimi) va ichki (deputatlar, hukumat a'zolarining o'zi bosim o'tkazadi) bo'ladi. Lobbistik tashkilotlarga huquqiy firmalar, jamoatchilik bilan aloqalar bo'yicha byuro va agentliklar kiradi. Lobbizm bilan advokatlar, reklama sohasidagi mutaxassislar, sobiq deputatlar, amaldorlar shug'ullanadi. Qo'yilgan masala kimning foydasiga hal qilinayotganligiga qarab lobbizmning quyidagi turlarini ajratish mumkin:

**“ijtimoiy lobbizm”**, ya’ni jamoat tashkilotlari va harakatlar (ekologik, urushga qarshi, huquq himoyachilari va h.), tadbirkorlar uyushmalari, kasaba uyushmalari, iste’molchilar jamiyatlari va h. tomonidan amalga oshiriladigan bosim; **“ma’muriy lobbizm”**, ya’ni vazirliklar, davlat qo’mitalari, boshqarmalar bosimi; **“regional lobbizm”**, ya’ni ma’muriy-hududiy tuzilmalarning bosimi; **“chet el lobbizmi”**, ya’ni chet el kampaniyalari, milliy jamoalarning bosimi.

**Lokallashtirish** – (lot. mahalliy) biror hodisa, harakat va h.k. lami ma’lum joy bilan cheklash, uning muayyan hududdan, joydan chetga chiqishiga yo’l qo’ymaslik.

**Longityud tadqiqot** – (ingl. uzoqlik) bir xil shaxslar, guruh yoki obyektlarni uzoq vaqt kuzatish va ma’lum bir davr o’tgach ular orasidagi so’rovni qayta o’tkazish, natijalarni avvalgilari bilan qiyoslashga asoslangan tadqiqod usuli.

**Loyyal** – (ingl. sodiq) 1) qonunga amal qiluvchi; 2) kimgadir yoki nimagadir vijdonan munosabatda bo’lish.

**Legalizatsiya** – biron tashkilotning faoliyatini qonuniylashtirish, biron-bir hujjatga, harakatga yuridik kuch berish, legal holatga o’tish, xorijiy davlatlarga beriladigan hujjatning haqiqiyiligini tasdiqlash va unga yuridik kuch berish, noqonuniy yo’l bilan topilgan pul mablaglarini yoki boshqa mol – mulkni oshkorlashtirish.

**Litsenziya** – maxsus vakolatli davlat organi amaldagi qonun hujjatlariga ko’ra litsenziyalanishi lozim bo’lgan faoliyat turi bilan muayyan muddat davomida shugullanish uchun beriladigan ruxsat.

## M

**Makroiqtisodiyot** – bu mamlakat miqyosida moddiy va nomoddiy ishlab chiqarish sohaslarini bir butun qilib birlashtirgan milliy va jahon xo’jaligi darajasi-dagi iqtisodiyotdir.

**Mahalliy byudjet** – viloyat, shahar va tumanning kirim-chiqim (daromad va xarajat) moliyaviy hujjati.

**Markaziy bank** – pul, obligatsiya emissiyasi (chiqarilishi) bilan, shuningdek, mamlakatning butun bank tizimini boshqarish, nazorat qilish bilan shug’ullana-di. Shuning uchun u «banklar banki» deb nom olgan.

**Marketing** – (inglizcha market-bozor) holatini o’rganish, uni oldindan baholash orqali tovarlarni ishlab chiqarish va sotishni tashkil etish hamda shu yo’l orqali tovarlarni ishlab chiqarish va sotishni tashkil etish, eng yuqori foyda olishni ta’minlash. Maxsus M. Dasturlari orqali amalga oshirilib, xaridorlarni va raqobatchilarni o’rganish asosida tovarlar sifatini yaxshilash, narxini o’zgartirish, reklamani joylashtirish, xaridorlarni qoniqtiradigan tovar va xizmatlarni yetkazib berish kabi chora-tadbirlar qo’llaniladi.

**Menejment** – (inglizcha management) u yoki bu faoliyat turini tashkil etish va rahbarlik qilishni, iqtisodiy, moliyani va boshqa inson hayotidagi ishbilarmonlik sohasini tashkil qilish va boshqarishni bildiradi.

**Menejer** – yollanma professional boshqaruvchi; aktiv faoliyat bilan shug’ullanuvchi odam.

**Mehnat** – bu insonning biror bir maqsadga qaratilgan ongli faoliyat bo'lib, u orqali inson o'zining ehtiyojlarini qondirish uchun tabiat in'omlarini o'zgartiradi. Inson mehnati ikki yoqlama xarakterga ega: a) Konkret mehnat – tovarning iste'mol qiymatini yaratadigan, biron bir aniq ko'rinishga ega bo'lgan mehnat turi tushuniladi. b) Abstrakt mehnat – tovar qiymatini yaratadi. «Abstrakt» (so'zi o'zbek tilida «mavhum» degan ma'noni bildiradi). Mehnat aniq shaklidan qat'i nazar umuman sarflangan ish kuchidir, jami ijtimoiy mehnat sarfidan iborat bo'ladi.

**Mehnat birjasi** – ishchi, xizmatchi va ish beruvchi o'rtasidagi ishchi kuchini sotish va sotib olish bo'yicha kelishuvni amalga oshirishda muntazam vositachi vazifasini o'taydigan, ishsizlar hisobini yuritadigan, ularni ish bilan ta'minlash, qayta o'qitish kabilar bilan shug'ullanuvchi davlat muassasasi.

**Mikroiqtisodiyot** – korxonalar, firmalar, ya'ni iqtisodiyotni birlamchi, boshlang'ich bo'g'ini haqidagi iqtisodiyotdir. U cheklanganlik, tanlash va muqobil qiymat singari tushunchalar bilan, shuningdek, ishlab chiqarish va iste'mollar bilan shug'ullanadi.

**Milliy iqtisodiyot** – bu barcha ishlab chiqarish va noishlab chiqarish tarmoqlari va sohalarini, funksional iqtisodiyotni, ko'plab infratuzilmalarni o'z ichiga qamrab olgan yaxlit iqtisodiyotdir.

**Milliy boylik** – insoniyat jamiyati taraqqiyoti tomonidan yaratilgan hamda avlodlar tomonidan jamg'arilgan moddiy va ma'naviy boyliklar, tabiiy resurslardan iborat.

**Milliy bozor** – muayyan mamlakatning milliy chegarasi doirasidagi oldi-sotdi munosabatlari. MB har qanday bozor kabi turli moddiy, ma'naviy va intellektual tovarlarni ayirboshlash obyektiga aylanadi hamda unda shu mamlakat tovarlari bilan birgalikda import qilingan tovarlar ham qatnashadi.

**Milliy valyuta** – muayyan mamlakatning pul birligi.

**Milliy daromad** – muayyan mamlakatda bir yilda moddiy ishlab chiqarish sohalarini tomonidan yangitdan hosil qilingan qiymat yoki boshqacha qilib aytganda, yalpi ijtimoiy mahsulotning ishlab chiqarish jarayonida sarf qilingan ishlab chiqarish vositalari qiymati chegirib tashlanganidan so'ng qolgan qismi. MD moddiy ne'matlar ishlab chiqariladigan sharoitlarda jonli mehnat vositasida yaratilib, ham qiymat – pul, ham moddiy – buyum shakliga ega bo'ladi.

**Moliya** – pul fondlarining shakllanishi, taqsimlanishi va foydalanishini tartibga solish bilan vujudga keladigan munosabatlardir.

**Moliya tizimi** – turli darajadagi moliyaviy muassasalar bo'lib, moliyaviy munosabatlarga xizmat qiladi.

**Ma'rifat** – bilish, bilim, tanish va ma'lumot, – degan ma'noni anglatadi. Insoniyatning bir jamiyatdan ikkinchi jamiyatga, bir tarixiy davrdan ikkinchi bir yangi tarixiy davrga o'tishi ma'rifatparvarlikdan boshlanadi. Ta'lim-tarbiya, iqtisodiy, siyosiy, falsafiy diniy g'oyalar majmuyi asosida kishilarning ong-bilimini, madaniyatini o'stirishga qaratilgan faoliyat. "Ma'rifat" tushunchasi "ma'naviyat" va "madaniyat" tushunchalari bilan chambarchas bog'langandir; ma'rifat tarixi jamiyat tarixining ajralmas qismidir.

**Ma'muriyat** – 1) ijro etuvchi hokimiyat boshqaruv organlari; 2) muassasa, korxonaning lavozimli kishisi, rahbarlari.

**Ma'muriyatchilik** – buyruqbozlik, rasmiyatchilik, byurokratlaracha rahbarlik qilish, boshqarish.

**Ma'muriy-buyruqbozlik tizimi** – 90-yillarda sobiq sovet jamiyatini demokratlashtirish jarayonlari to'liqida paydo bo'lgan tushuncha. Siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy hayot, jamiyat va davlat ishlarini boshqarish, insonning shaxsiy erkinliklari me'yorlari qat'iy chegaralangan va yuqorining amriga bo'ysundirilgan siyosiy-davlat tuzilmasini anglatish uchun qo'llanilgan va qo'llanilmoqda. Bunda qonunlardan ko'ra buyruqbozlikka xos qoidalar va odatlar tizimi ustunlikka ega bo'lib, ularga og'ishmay va hatto o'ylab-netib o'tirmay amal qilish shart bo'lgan. M.b.t. mamlakatni boshqarish haddan tashqari markazlashtirilganligini, quyi bo'g'inlar yuqoridagilariga bo'ysundirilgan va yuqoridagilari tegishli ko'rsatmalarni beribgina qolmay, balki quyi organlarning har qanday "nomatlub" harakatini tiyib qo'yishi, shu asnoda ularni har qanday mustaqillikdan mahrum qilishi mumkin bo'lgan poqonama-poqonalik vujudga keltirilganligini bildiradi. M.b.t. markscha-lenincha mafkuraning ustunligini, bitta siyosiy partiyaning hukmronligini ta'minlagan, siyosiy plyuralizmni, fikrlar erkinligini istisno etgan. Pirovard natijada M.b.t. jamiyat va hokimiyat tangligiga, turg'unlikka olib kelgan bo'lib, mamlakatdagi demokratlashtirish jarayonlari va konstitutsiyaviy-siyosiy islohotlar ularni bartaraf etishga qaratilgan.

**Ma'naviy barkamol inson** – komil inson tushunchasi bilan hamohangdir. Ayni vaqtda ma'naviy barkamol inson tushunchasi sog'lom avlod tushunchasi bilan ham bog'lanib ketadi. Ilmiy adabiyotlarda bu tushunchalar alohida-alohida ishlatilsa-da, mohiyatan ularning hammasi inson axloqi va odobini, ularda shakllangan barcha ijobiy xislatlarni, ularning insonlarga, jamiyatga va Vatanga bo'lgan munosabatlaridan tortib, toki oilaga, ota-onaga va boshqalarga munosabatlarining barcha qirralarini qamrab oladi.

**Ma'naviy jasorat** – yer yuzida barcha o'lmas obidalarni, insoniyat hayotini tubdan o'zgartirib yuborgan jamiki ulug' kashfiyot va ixtirolarni, mumtoz san'at va adabiyot durdonalari hamda mardlik va qahramonlik namunalari ko'rsatgan insonlarning mislsiz aql-zakovati va yuksak ma'naviy salohiyatini ifodalaydi.

**Ma'naviy qadriyatlar** – "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch" asarida har tomonlama va chuqur ta'riflab berilgan, inson ma'ti va axloqiy qiyofasiga daxldor bo'lib, jam-t a'zolarini tarbiyalashga, ularning ma'n-y barkamolligini ta'minlashga xizmat qiladigan qadriyatlar tizimini ifodalovchi t.. M.q. deganda, inson tarbiyasi va kamolotida muhim ahamiyatga ega, jam-t va shaxs ma'yatini yuksaltiruvchi, tafakkur rivoji uchun ijobiy ahamiyatli bo'lgan qadriyat shakllari tushuniladi. Mas., urf-o.lar, an'analar, Vatanni sevish, o'z xalqi va millatini hurmat qilish, ota-onasini e'zozlash, tinchlik va totuvlikni saqlash va h.k.). M.q. muayyan sharoitlarda shakllanadi va shu ma'noda milliy muhit ularni yaratish va saralashning asosiy manbayidir. Bu jarayonda mahalliy qadriyatlarining eng yaxshilari milliy darajaga ko'tariladi va ular voyaga etkaziladi hamda jahon miqyosiga olib chiqiladi va aksincha, umuminsoniy qadriyatlar shu millatga mansub har bir kishining boyligiga aylantiriladi. M.q.ni tushunish va ularga mun-t, o'z



millatiga, yurtiga, eliga tegishli qadriyatlarini jamlash, asrab-avaylash jarayonini birlashtiradi, ularda o'ziga ishonch va hurmatni mustahkamlaydi, o'z Vatanining istiqboliga katta umid b-n qarashga undaydi. Muayyan millatning o'z M.q.iga mun-ti qanchalik ehtiyotkor va faol bo'lsa, shu millatning tar-yotida ma'n-y va moddiy omillar uyg'unligi ta'minlanadi. Fanda M.q.ning qator funksiyalari bor. Avvalo, ular jam-t a'zolarini o'zini o'zi tarbiyalashga, avlodlardan meros qolgan qadriyatlar va ideallarga munosib bo'lishga undaydi. Bu jarayonda ikki xil holat kuzatiladi. Birinchisida M.q. jam-t a'zolari tomonidan ongli tarzda yaratiladi, ya'ni odamlar o'zlarida mavjud bo'lgan ma'n-y me'yorlar va mezonlar haqidagi t.lar asosida va ularga mos keladigan qadriyatlarni va ideallarni yaratadilar. Bunday jam-t a'zolarining ma'n-y faolligini oshiradi, izlash, izlanish va yaratishga chorlaydi. Aslida, bugungi kundagi M.q.ning barchasi insonning tinmay izlanishiga, har qanday to'siqlarga chidab yashashga undaydigan maftunkor g'oyalar va ideallarga intilishining natijasidir. Ikkinchi holatda esa, jam-t a'zolari tomonidan o'qilgan kitoblar, turli urf-o.lar yoki boshqa mad-y-ma'r-y tadbirlar jarayonida olgan taassurotlari ularning ma'n-y qadriyatlarini takomillashtiradi. M.q.ning shakllanishida har ikki holatning ham ta'siri kuzatiladi. M.q. inson faoliyati va ma'n-y-axloqiy kamolotida ikki xil funktsiyani bajaradi: a) u yoki bu darajadagi faol va muttasil ma'n-y-axloqiy intilishlarini shakllantiradi; b) o'z ma'n-y-axloqiy xatti-harakatlarini va turli hayotiy vaziyatlarda o'zlarini tutishlarini baholash uchun mezon vazifasini o'taydi. M.q. ijt-y ong shakllariga mos keladigan mad-y, ma'r-y, axloqiy, diniy, huquqiy, ilmiy va h.k. turlarga bo'linadi. Ular insonning ahli, kamoloti, dunyoni bilishning maqsadi, bilimlarimizning haqiqatga mos kelish darajasini aniqlash mezoni yoki biror ideal tarzida ham namoyon bo'ladi.

**Ma'naviy tahdid** – tili, dini, e'tiqodidan qat'i nazar, har qaysi odamning tom ma'nodagi erkin inson bo'lib yashashiga qarshi qaratilgan, uning aynan ruhiy dunyosini izdan chiqarish maqsadini ko'zda tutadigan mafkuraviy, g'oyaviy va informastion hurujlarni nazarda tutadi.

**Ma'naviyat** – insonni ruhan poklanish, qalban ulg'ayishga chorlaydigan, odamning ichki dunyosi, irodasini baquvvat, imon-e'tiqodini butun qiladigan, vijdonini uyg'otadigan beqiyos kuch, uning barcha qarashlarining mezonidir.

**Ma'naviyatga tahdid** – inson qalbi va imon e'tiqodini susaytirishga qaratilgan hamda insonning o'zligidan begonalashtirib, kelajagidan mahrum etishga yo'naltirilgan yot va begona g'oyalar.

**Ma'naviyatga tahdid** – inson qalbi va imon e'tiqodini susaytirishga qaratilgan hamda insonning o'zligidan begonalashtirib, kelajagidan mahrum etishga yo'naltirilgan yot va begona g'oyalar.

**Ma'naviyatni shakllantiradigan mezonlar** – inson ongiga ta'sir ko'rsatadigan, uning dunyoqarashi tafakkur tarzini muayyan yo'nalishga soladigan, o'zgartiradigan, jamiyat, millatga xos ma'naviy, madaniy va moddiy asoslar, an'analar, qadriyatlar, meros, turmush tarzi, g'oyalar va qarashlarni umumlashtiruvchi tushuncha.

**Madaniy millatchilik** – millatchilikning shakli, millatning ma'naviy kamol to-pishini maqsad qilib qo'yadi. Lekin mavhum siyosiy jamoaning emas, muayyan, o'ziga xos belgilarga ega sivilizatsiyalar ravnaqini nazarda tutadi. Shuning

uchun madaniy millatchilikda davlat muhim element hisoblanmaydi. Siyosiy millatchilik aniq tamoyillarga suyangani holda madaniy millatchilik ma'lum ma'noda "yerdan uzilgan" tarzda, ya'ni millatni noyob, tarixan shakllangan, o'z "ruhi" bilan yo'g'rilgan organik birlik sifatida talqin etadi. U odatda quyidan yuqoriga qarab rivojlanadi va ko'p darajada xalq an'analari, udumlari, afsonalariga e'tibor qaratadi. Tabiatiga ko'ra konservativ, lekin muayyan sharoitlarda rivojlanish va zamonaviylashuvning kuchli omiliga aylana oladi.

**Madaniyat** – kishilarning tabiatni, borliqni o'zlashtirish va o'zgartirish jarayonida yaratgan moddiy, ma'naviy boyliklar hamda bu boyliklarni qayta tiklash va bunyod etish yo'llari va uslublari majmuyi.

**Madaniyatli odam** – o'qimishli, zamon talablari asosida kiyinish va muomala me'yorlariga amal qiluvchi, axloq normalariga to'la amal qiladigan, ilg'or falsafiy g'oyalarga ega bo'lgan, jahon madaniyati durdonalaridan xabardor bo'lgan shaxsga aytiladi.

**Mafiya** – (ital. o'zboshimchalik, bedodlik, zo'ravonlik) zo'rlik, qo'rqitish usullari bilan ish ko'radigan uyushgan jinoyatchilik.

**Mafkura** – (ar. qarash, fikr) jamiyatdagi muayyan siyosiy, huquqiy, axloqiy, diniy, ilmiy, falsafiy fikrlar, qarashlar, g'oyalar majmuyi.

**Mafkura yakka hokimligi** – muayyan davlat, jamiyat yoki bir guruh davlatlarda yagona mafkuraning to'la hukmronligini unga xos tamoyillarning o'zgar-mas aqidalar tarzida jamiyat hayotida qat'iy va mutlaq tartibda o'rnatilishini ifodalaydigan tushuncha. M. ya.ning mohiyati shundaki, bunda biron-bir mafkuraviy tizim yagona ilmiy, eng adolatli, jamiyatdagi barcha qatlamlar manfaatlarini ifoda etuvchi mafkura deb e'lon qilinadi. M.ya. shundaki, o'zining mohiyati yoki biron-bir jihati b-n undan farq qiluvchi g'oyalar, qarashlar, mafkuralar yot va dushman mafkuralari sifatida qaraladi. Oqibatda millionlab kishilarda mutellik, loqaydlik, bog'imandalik, mahdudlik, o'zga g'oyalarga hadiksirab qarash ruhiyati shakllanadi, jamiyatning ma'naviy rivojiga, ilm-fan ravnaqiga jiddiy zarar etkaziladi. Tarixiy tajriba shundan dalolat beradiki, "yakkahokimlikka intilgan, mutlaq haqiqatni da'vo qiladigan mafkuraning istiqboli yo'q. Chunki u yakkahukmronlik o'rnatish barobarida, o'zini boyitib boradigan manba – fikrlar rang-barangligi va qarashlar xilma-xilligidan uzilib qoladi. Sobiq ittifoq davrida yetmish yildan ziyod yakkahukmronlik qilgan kommunistik mafkuraning tanazzuli buning yaqqol isbotidir". (Milliy istiqloq g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. T.: O'zbekiston, 2000. 19-bet). Tarixda M.ya.ning eng ko'p tarqalgan shakli aqidaparastlikdir. Bunday mafkuralar Osiyo va Yevropa davlatlari tarixida muayyan davrlarda hukmronlik qilgan. O'rta asrlarda g'arbdagi aqidaparastlik mafkurasi (inkvizitsiya) hurfikrlilik rivojiga, jamiyat taraqqiyotiga to'sqinlik qildi. Yuzlab allomalar, aql-zakovat sohiblari uning qurboniga aylandi. Bunday salbiy an'ana kommunistik mafkura hukmronligi davrida ham davom ettirildi, ko'plab moddiy va ma'naviy yo'qotishlarga sabab bo'ldi. g'arbdagi yuzaga kelgan fan va texnikaning yangi yutuqlari ko'r-ko'rona inkor etildi, genetika va kibernetika, siyosatshunoslik, konfliktologiya, aksiologiya kabi fanlar "reaksion" va "soxta" deb e'lon qilindi. Psixologiya, sotsiologiya, kulturologiya, semiotika, bionika, informatika nazariyasi, ergonomika kabi fan sohalari etarli darajada rivojlandi

olmadi. Aksariyat milliy qadriyatlar, urf-odat, an'analar eskilik sarqiti deb e'lon qilindi. Natijada, ko'plab madaniyat durdonalari izsiz yo'qolib ketdi. XX asming 30-yillarida Italiya va Germaniyada fashizm ham ana shunday hukmron mafkura darajasini egallagan edi. Uning oqibatida dunyodagi millionlab insonlarning boshiga cheksiz kulfatlar yog'ildi. Milliy istiqlol g'oyasi mamlakatimizda biron-bir mafkuraning mutlaqlashuvi, yakkahokim aqidaga aylanishiga yo'l qo'ymaydi. U fikrlar rang-barangligiga asoslanadi, ijtimoiy hayot, siyosiy tashkilot, mafkuralaraning xilma-xilligiga tayangan holda, jamiyatning samarali rivojlanishini ta'minlashga xizmat qiladi.

**Mafkuralar xilma-xilligi** – (lot. pluralis – xilma-xillik, rang-baranglik) – ijtimoiy-siyosiy hayotda turli qatlam, partiya, guruhlar manfaatlarini ifoda etuvchi g'oyaviy rang-baranglikni, qarashlar va fikrlar xilma-xilligini ifodalaydigan tushuncha. Mamlakatda ilg'or g'oyalar, mafkuralar qancha ko'p bo'lsa, ya'ni M.p. hukmron bo'lsa, taraqqiyotning samarali yo'lini tanlab olish uchun imkoniyat shunchalik keng bo'ladi. Fikriy kurash mafkuralarining ma'no va mazmun jihatidan boyishiga, bir-birini to'ldirishiga xizmat qiladi. M.p. ijtimoiy taraqqiyotga xizmat qiladigan yangidan-yangi g'oyalarning paydo bo'lishiga, turli xalqlar, elatlar, millatlar va siyosiy guruhlarining manfaatlarini umumiy tarzda ro'yobga chiqishiga sharoit yaratadi. U muqarrar suratda ko'ppartiyaviylik tizimini taqozo etadi. Siyosiy partiyalar esa o'zlari mansub bo'lgan qatlamlar, siyosiy guruhlarining manfaatlari, intilishlari, orzu-umidlarini umumlashtirgan holda o'z harakat dasturlari orqali namoyon qiladi.

**Mafkuraviy bo'shliq** – jamiyat, davlat va mehnat jamoalarida vujudga kelgan vaziyat, ijtimoiy muhit tarbiyaviy-mafkuraviy ishlarning zaiflashib qolishi. Bunday sharoitda Fuqarolar ongi va faoliyatida turli mish-mishlar, safsatalar ustuvorlik qila boshlaydi. Kishilar xatti-harakatini bo'shanglik, loqaydlik, befarqlik egallab oladi. Ruhiyatda hech narsaga aralashmaslik kayfiyati ustun keladi. qayerda shunday holat yuz bersa, o'sha erda M.b. hukmron bo'ladi. O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I.Karimov ogohlantirganidek, "...shunday holat yuz bergan tahdirda bo'sh qolgan mafkura maydonidan bizga begona, orzu-intilishlarimizga mutlaqo yot g'oyalar o'rin egallashga urinishi shubhasiz" (I.A. Karimov. Milliy istiqlol mafkurası – xalq e'tiqodı; va buyuk kelajakka ishonchdir. Toshkent, 2000, 7-bet). Shuning uchun ham Fuqarolar ongi va faoliyatida M.b.ning sodir bo'lishiga yo'l qo'yish aslo mumkin emas. Bugun hech kimga sir emas, Fuqarolar xulq-atvorida, xatti-harakatida "ro'y berayotgan ayrim salbiy holatlar, nojo'ya xatti-harakatlar, yovuz ishlar avvalo mafkuraviy bo'shliq tufayli sodir bo'lmoqda" (I.A.Karimov. Milliy istiqlol mafkurası – xalq e'tiqodi va buyuk kelajakka ishonchdir. Toshkent, 2000, 8-bot).

**Mafkuraviy immunitet** – shaxs, ijtimoiy guruh, millat, jamiyatni turli zararli g'oyaviy ta'sirlardan himoya qilishga xizmat qiladigan g'oyaviy-nazariy qarashlar va qadriyatlar tizimi. Immunitet (lot. immunitas – ozod bo'lish, qutilish) tibbiy tushuncha bo'lib, organizmning doimiy ichki muayyanligini saqlashi, o'zini turli ta'sirlardan, tashqi infeksiyalar kirib kelishidan himoya qilishga qodir bo'lgan reaksiyalar majmuyi tushuniladi. Sodda qilib aytganda, immunitet – kishi organizmining turli kasalliklardan himoya qila olish qobiliyatidir. Yuqoridagidan

farqli o'laroq insonda M.i.ni shakllantirib borish zarur. Ikkinchidan, u har bir avlod uchun o'ziga xos xususiyatga ega. Uchinchidan, immunitet tizimi shakllangandagina jamiyatda mafkuraviy daxlsizlikni ta'minlash mumkin. M.i. tizimining, asosiy va birinchi elementi bu bilim. Ammo, bilimlarning turi ko'p. Buyuk davlatchilik shovinizmi yoki agressiv millatchilik mafkurasi tarafdorlari ham muayyan "bilim"larga tayanadilar, albatta. Shunday ekan, M.i. tizimidagi bilimlar obyektiv bo'lishi, voqelikni to'g'ri va to'liq aks ettirishi, inson ma'naviyatining boyitishi va jamiyat taraqqiyotiga xizmat qilishi lozim. Ular, o'z mohiyat e'tiboriga ko'ra, Vatan va millat manfaatlari b-n uzviy bog'liq bo'lmog'i kerak. M.i. tizimining ikkinchi asosiy elementi ana shunday ilg'or bilimlar zamirida shakllanadigan baholar, qadriyatlar tizimidir. Zero, bilimlar qanchalik obyektiv va chuqur bo'lsa, uning zamirida yuzaga kelgan qadriyatlar ham shunchalik mustahkam bo'ladi. Bir so'z b-n aytganda, qadriyatlar tizimi M.i.ning imkoniyatlarini belgilab beradi va zararli g'oyalar yo'lida mustahkam qalqon bo'lib xizmat qiladi. Ammo bilimlar va qadriyatlar tizimi mavjudligining o'zi M.i.ning mohiyatini to'liq ifoda eta olmaydi. Zero, bu ikki element M.i.ning uchinchi muhim elementi, ya'ni ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy-ma'rifiy sohalaridagi maqsadlar tizimi b-n bog'liq. Ana shunday aniq maqsadlar tizimi bo'lmas ekan, inson, millat yoki jamiyat goh oshkora, goh pinhona mafkuraviy tazyiqlarga duchor bo'laveradi.

**Manfaatlar to'qnashuvi** – shaxsiy (bevosita yoki bilvosita) manfaatdorlik shaxsning mansab yoki xizmat majburiyatlarini lozim darajada bajarishiga ta'sir ko'rsatayotgan yoxud ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan hamda shaxsiy manfaatdorlik bilan fuqarolarning, tashkilotlarning, jamiyatning yoki davlatning huquqlari va qonuniy manfaatlari o'rtasida qarama-qarshilik yuzaga kelayotgan yoki yuzaga kelishi mumkin bo'lgan vaziyat.

**Mahalla** – (arabcha "mahalla" – joy, o'rin, makon) – O'zbekistonning muayyan tarixiy sharoitlarda, asrlar davomida shakllanib, faoliyat ko'rsatayotgan, aholi yashaydigan ma'muriy-hududiy birlik, uyushma.

**Mahalliy (yoki munistipal) boshqaruv** – ma'muriy-hududiy birliklardagi aholining manfaatlarini ifodalaydigan va saylab qo'yiladigan organlar hamda ularning ma'muriy apparati tomonidan amalga oshiriladigan mahalliy ahamiyatga molik ishlarni boshqarish.

**Mahalla xayriya jamoat fondi** – 1992-yilda tashkil topgan bo'lib, mamlakatdagi eng ilg'or jamoat tashkilotlaridan biri hisoblanadi. Fuqarolar yig'inlarini aniq yo'naltirilgan asosda ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, xususiy tadbirkorlik va oilaviy biznesni rivojlantirish markaziga aylan – tirish, shuningdek, fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlarining davlat boshqaruvi organlari faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini olib borish tizimidagi vazifalarini yanada kengaytirishga, madaniy-ma'rifiy ishlarini keng amalga oshirish, milliy va ma'naviy kadriyatlarni izchil targ'ib qilish, ular faoliyatini takomillashtirish orqali ijtimoiy va ma'naviy muhit barkarorligini ta'minlashga ko'maklashadi.

**Mahalliy o'zini o'zi boshqarish** – xalq hokimiyatini tashkil etishning shakllaridan biri bo'lib, uning mohiyati mahalliy ahamiyatga molik masalalar bevosita aholi yoki u tashkil etadigan organlar tomonidan mustaqil hal etilishi va bu-

ning uchun butun mas'uliyat aholi zimmasida bo'lishini ta'minlashdan iboratdir. Davlat va jamiyat o'rtasida munosabatlar o'rnatishning barcha usullari mahalliy hokimiyatni shakllantirish usullaridir. Mahalliy o'zini o'zi boshqarish o'zaro tiyib turish va muvozanatni saqlash tizimining tarkibiy qismi bo'lib, umumdavlat manfaatlarini har bir alohida olingan mahalliy tuzilma manfaatlari bilan maqbul tarzda uyg'unlashtirishga yordam beradi. Davlat hokimiyati organlari bilan mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlari birgalikda harakat qilishi sohasiga quyidagi masalalar kiritiladi: mahalliy o'zini o'zi boshqarish tasarrufidagi vazifalarni belgilash; davlatning ayrim vakolatlarini mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlari zimmasiga yuklash; mahalliy organning resurs, moliya va moddiy bazasini shakllantirish. Mahalliy o'zini o'zi boshqarish – faoliyat ko'rsatish asoslari davlatlarning konstitutsiyasi va boshqa qonun hujjatlarida qonun yo'li bilan mustahkamlangan xalq hokimiyatining birlamchi bo'g'ini bo'lmish mahalliy hamjamiyatni tashkil etish usulidir. Davlatda o'zini o'zi boshqarish prinsiplarini qonun yo'li bilan o'rnatishning asosiy vazifasi – mahalliy o'zini o'zi boshqaruvda amaldagi qonun hujjatlarida kafolatlangan mustaqillikni ta'minlashdir.

**Mahalliy vakillik va ijroiya hokimiyati** – viloyatlar, tumanlar va shaharlarda (tumanga bo'ysunadigan shaharlardan, shuningdek, shaharlar tarkibiga kiruvchi tumanlardan tashqari) xalq deputatlari Kengashlari davlat hokimiyatining vakillik organlaridir. Viloyat, tuman, shahar hokimi viloyat, tuman va shaharning oliy mansabdor shaxsi bo'lib, ayni bir vaqtda tegishli hududdagi vakillik va ijroiya hokimiyatini boshqaradi. Viloyat hokimi, Toshkent shahar hokimi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va tegishli xalq deputatlari Kengashi oldida hisobdordirlar. Tuman, shahar hokimi yuqori turuvchi hokim va tegishli xalq deputatlari Kengashi oldida hisobdordir. Xalq deputatlari Kengashi va hokim viloyat, tuman va shahar uchun umumiy bo'lgan ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish vazifalari amalga oshirilishini, joylarda qonunlar, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va Vazirlar Mahkamasini qabul qilgan hujjatlar, yuqori turuvchi xalq deputatlari Kengashlari va hokimlar qarorlarining ijrosini, O'zbekiston Respublikasi davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari bilan fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari o'rtasidagi aloqalarni, aholini viloyat, tuman va shaharni boshqarishga jalb etishni ta'minlaydi.

**Majoritar saylov tizimi** – (frans. *majorite* so'zidan *majoritaire* – ko'pchilik) faqat ko'pchilik ovoz olgan nomzod uchun berilgan ovozlar hisobga olinuvchi saylov turi. Unda ovoz berish natijalarini aniqlash tartib-taomiliga ko'ra eng ko'p ovoz olgan nomzod saylangan hisoblanadi. **Bu eng «yoshi katta» saylov tizimi hisoblanib, uning ikki ko'rinishi mavjud:** mutlaq ko'pchilik ovozli majoritar saylov tizimi (50% + 1 ovoz); nisbiy ko'pchilik ovozli majoritar saylov tizimi. Majoritar saylov tizimi tegishli saylov okruginan saylovchilarning eng ko'p ovozini olgan nomzodlar o'rtasida mandatlar taqsimlanishini ko'zda tutadi. Majoritar tizim oddiy, tushunish oson, keng tarqalgan, jahonning ko'plab mamlakatlarda qo'llaniladigan tizimdir. Ushbu tizim parlamentda aksariyat ko'pchilikka tayanadigan barqaror hukumat tuzish imkonini beradi. O'zbekistonda mutlaq ko'pchilik ovozga asoslangan majoritar tizim qo'llanadi. Bunday saylov tizimi-

ga ko'ra saylovchilarning yarmidan ko'pi qo'llab-quvvatlagan nomzod deputat etib saylangan hisoblanadi. Ushbu tizimda odatda ovoz berishda ishtirok etuvchi saylovchilar sonining quyi chegarasi belgilanadi (O'zbekistonda – 33 foiz), faqat kamida ana shu ko'rsatkichga erishilgandagina saylov bo'lib o'tgan deb e'tirof etiladi. Agar ovoz berishning birinchi turida nomzodlardan hech qaysi biri mutlaq ko'pchilik ovozini ololmagan bo'lsa, ikkinchi turda birinchi turda eng ko'p ovoz olgan ikki nafar nomzod ishtirok etadi. Majoritar tizimda nisbatan ko'pchilik deyilganida bir nomzodning boshqa nomzodlarga qaraganda eng ko'p ovoz olishi tushuniladi. Majoritar tizimning ko'rinib turgan kamchiliklaridan biri sifatida shuni ta'kidlash mumkinki, jamiyat ijtimoiy qatlamlarining barchasi ham saylov organlarida o'z vakillariga ega bo'lolmaydi, negaki ularning nomzodlari ko'pchilik ovozini ololmasligi mumkin, ya'ni kamchilik hokimiyat organi tarkibiga kirmay qoladi va bu son jihatidan anchagina bo'lishi mumkin. Boshqacha qilib aytganda, mazkur tizim ko'pincha mamlakatdagi ijtimoiy-siyosiy kuchlar nisbatini aks ettirmaydi. Ushbu tizim qimmatga tushadi, negaki ko'p hollarda ovoz berishning birinchi turida g'olib aniqlanmaganidan keyin ikkinchi tur o'tkaziladi.

**Makiavellizm** – siyosiy maqsadlarga erishish yo'lida axloq me'yorlarini mensimaydigan siyosiy xulq-atvor sxemasi. Ushbu atama italiyalik siyosiy arbob va yozuvchi, kuchli davlat hokimiyati tarafdori Makiavelli (1469–1527) nomi bilan bog'liq. Makiavellizmning asosi "maqsad vositani oqlaydi" shioridir. Unga muvofiq qo'yilgan maqsadga erishish uchun har qanday vosita, shu jumladan, bosqinchilik, makr, shafqatsizlik, siyosiy raqibni aldash o'zini oqlaydigan va maqbul vosita hisoblanadi. Hokimiyat uchun kurash va uni amalga oshirishning asosiy mexanizmi – kuchdir. Ayni kuch hokimiyat barqarorligini kafolatlash imkonini beradi, kuch qo'ldan ketisa hokimiyatni qaytarish mushkul. Makiavelliga ko'ra hukmdor hokimiyatining asosi yaxshi qonunlar va yaxshi qo'shindir. Zabt etishga bo'lgan ishtiyoq – tabiiy va odatdagi hol, mustahkam va qat'iy hokimiyat hech qachon ixtilofga yo'l qo'ymaydi. Makiavelli hukmdor tomonidan hokimiyatni qo'lga kiritilishining to'rtta usulini ajratib ko'rsatadi; taqdir taqozosi, shaxsiy jasorat, jinoyat va fuqarolarning hukmdorga bo'lgan sadoqati. Taqdir odamlar hayotida katta ahamiyatga ega, biroq odamlar xatti-harakatining o'zi ham hayotda ulkan rol o'ynaydi, shuning uchun kimki taqdir taqozosiga kamroq umid qilgan bo'lsa, hokimiyatni uzoqroq o'z qo'lida saqlagan.

**Mehnat bozori** – bu mehnatga qobiliyatli aholining faol (ish bilan band va mehnatga muhtoj aholi) qismlari va ish beruvchilar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni tartibga soluvchi, «mehnat qobiliyati» ni sotish-sotib olishni amalga oshiruvchi hamda ishchi kuchiga talab va taklif o'rtasidagi nisbatlarni bevosita barqarorlashtiruvchi ko'p omilli, murakkab ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar tizimidir.

**Mehnat shartnomasi** – ish beruvchi bilan xodim o'rtasidagi kasbga oid yozma kelishuv.

**Mehnatni muhofaza qilish jamg'armalari** – mehnatni muhofaza qilishga doir tadbirlarni mablag' bilan ta'minlash manbayi.

**Milliy davlat tuzilishi** – davlatning tuzilishi, uning ma'muriy-hududiy bo'linishi, davlat bilan uning tarkibiy dismlari o'rtasidagi o'zaro munosabatlar, davlat va uning tarkibiy qismlarining huquqiy holati, ularning vakolatlaridan iborat.

**Ma'muriy huquq** – ommaviy (davlat) huquqining asosiy tarmoqlaridan biri

bo'lib, ijro hokimiyati organlari tizimini tashkil etish va ularning faoliyat ko'rsatishi sohasidagi munosabatlarni, samarali davlat xizmatini tashkil etishni, ijro hokimiyati funksiyalanishida qonuniylilikni ta'minlashni tartibga soladigan huquq tarmoqi.

**Ma'muriy javobgarlik** – ma'muriy huquq normalari bilan tartibga solingan, ma'muriy huquqbuzarlikni sodir etgan shaxsga nisbatan vakolatli davlat organlari va mansabdor shaxslar tomonidan ma'muriy prosessual tartibda ma'muriy jazoni qo'llashdir.

**Majburiy tartibda tugatish** – yuridik shaxsning faoliyatini sudning qaroriga ko'ra tugatish.

**Majburiyat subyektlari** – muayyan huquqlarga ega bo'lgan va zimmasiga majburiyat olgan shaxslar.

**Majburiyatning bajarilishini ta'minlash** – qarzdor tomonidan olingan va uning zimmasida bo'lgan vazifani bajarish – ga majbur kiladigan chora.

**Mantiqiy sharhlash** – qonunda ishlatilgan ifodalar, tushunchalar bir-biri bilan ichki, uzviy, mantiqiy bog'langanligini aniqlaydigan va huquqiy normaning mazmuni belgilanadigan sharh.

**Mas'uliyati cheklangan jamiyat** – bir yoki bir necha shaxs tomonidan ta'sis etilgan, ustav fondi (ustav kapitali) ta'sis hujjatlari bilan belgilangan miqdorlarda ulushlarga bo'lingan xo'jalik jamiyati. O'zbekiston Respublikasining mas'uliyati cheklangan hamda qo'shimcha mas'uliyatli jamiyatlar to'g'risidagi qonuni 2001-yil 6 – dekabrda qabul qilingan.

**Muassasa** – boshqaruv, ijtimoiy-madaniy vazifalarni yoki tijoratchilikdan iborat bo'lmagan boshqa vazifalarni amalga oshirish uchun mulkdor tomonidan tashkil etilgan to'la yoki qisman moliyaviy ta'minlab turiladigan tashkilot.

**Mulk** – turli-tuman obyektlarning muayyan subyektga taalluqli ekanligini anglatadi.

**Mulkchilik** – kishilar o'rtasida ishlab chiqarish vositalari va mehnat natijalarini o'zlashtirish bo'yicha paydo bo'lgan va tarixan aniq bir shaklda namoyon bo'luvchi iqtisodiy munosabatlar. M.ning asosiy bo'g'ini ishlab chiqarish vositalariga bo'lgan mulkchilik. U uchta iqtisodiy unsur, ya'ni egalik qilish, foydalanish (ishlatish) va tasarruf etishni mujassamlashtiradi. Egalik qilish – mulkka rasmiy va huquqiy egalik qilishdir. Foydalanish (ishlatish) – mulk bo'lgan boylikni iqtisodiy faoliyatda qo'llab, xo'jalik jarayoniga kiritib, undan natija olish. Tasarruf etish – mulk bo'lgan boylik taqdirini mustaqil hal etish.

**Mulkchilik shakllari** – bu davlat, jamoa, xususiy va aralash mulklardir.

**Mulk huquqining obyektlari** – mulk sifatida o'zlashtirilgan, o'zgalarga tegishli bo'lmagan barcha narsalar mulk huquqining obyektlaridir.

**Mehnat huquqining manbalari** – mehnatga oid munosabatlar va ular bilan uzviy ravishda bog'liq bo'lgan boshqa munosabatlarni tartibga soluvchi turli normativ – huquqiy hujjatlardir.

**Mehnat huquqiy munosabatlar subyektlari** – mehnat sohasida subyektiv huquq va yuridik majburiyatlar egasi bo'lgan jismoniy va yuridik shaxslar.

**Meros** – shaxsning hayotligida boshqa shaxslarga o'tishi mumkin bo'lgan uning har qanday huquq va majburiyatlari.

**Maxfiy vasiyatnoma** – vasiyatnoma tuzuvchi uning mazmuni bilan tanishib chiqmasdan notariusdan tasdiqlashni maab qilishi mumkin bo'lgan vasiyatnoma

**Makkartizm** – (amer. senator Makkarti nomidan olingan) kommunizmga qarshi, xususan, AQSH kommunistlariga qarshi "sovuq urush-yillarida" qo'rqitish, tahdid, sud jazosi kabi usullarni qo'llash bilan bog'liq siyosat.

**Maksimalizm** – (lot. eng ko'p) talablarni haddan oshirib yuborish.

**Maltuschilik** – Maltus (1766-1834) nomidan olingan nazariya. U yashash uchun zarur manbalar aholi soniga nisbatan (geometrik progressiya) sekinroq o'sishi (arifmetik progressiya) tufayli ochlik, qashshoqlik vujudga kelishini asoslaydi. Urushlar va epidemiyalar bu muammolarni hal qilish vositalari sifatida oqlanadi.

**Mandat** – (lot.) – 1) topshiriq, bajarilishi lozim bo'lgan ish; 2) vakolat; 3) biror vakolatni bajarish huquqiga ega bo'lgan hujjat. Masalan, deputatlik mandati.

**Mandat komissiyasi** – 1) deputatlarning huquqiy faoliyatini (layoqatini) tekshiruvchi komissiya, syezd delegatsiyasi; 2) oliy o'quv yurtlarida abituriyentlarning o'kishga kirishi bilan bog'liq bo'lgan masalalarni bevosita ko'rib chiqadigan komissiya.

**Mandatli tizimi (ovoz berishning)** – har bir nomzod bir nechta ovozga ega (o'zi taqdim etayotgan tashkilot soniga muvofiq) bo'lgan ovoz berish tizimi.

**Manfaat** – individ va ijtimoiy guruhlar faoliyatining asosiy sababi. Manfaat – iqtisodiy, ijtimoiy v.b. ehtiyoj. U anglangan va anglanmagan bo'lishi mumkin. Manfaat – **shaxsiy**, u individning faoliyati turtkisi, xatti-harakatlarini belgilovchi sabab, uning subyektga munosabatining asosidir. «**Ijtimoiy manfaat**» ijtimoiy guruhlarining muayyan ehtiyojlari (ularning mavjud bo'lishlari uchun va rivojlantirishlari uchun zarur bo'lgan barcha narsalar). Ijtimoiy manfaat manfaatga nisbatan yuqoriroq darajada namoyon bo'ladi. Birinchidan, u individlarning o'zlarini u yoki bu guruhga mansubliklarini anglashi (identifikatsiyasi) bilan bog'liq. Guruhga mansublik ta'sirida shaxsda muayyan dunyoqarash shakllanadi. Ikkinchidan, hozirgi sharoitda guruh manfaati, odatda, anglangan bo'ladi va uni aniq bayon etish faoliyatning muayyan yo'nalishini tanlash, ya'ni uning mafkuraviy tabiatini tanlash bilan bog'liq.

**Manfaat guruhlari** – fuqarolar o'zlarining davlat bilan munosabatlarida hokimiyatga doir manfaatlarini bayon etish yoki himoya qilishi uchun ixtiyoriy tarzda birlashgan maxsus yoki moslashtirilgan tashkilotlari. Manfaat guruhlari o'zlariga a'zo bo'lgan odamlarning manfaat va maqsadlarini boshqa odamlar va guruhlar bilan hamda siyosiy institutlar bilan munosabatlar doirasida taqdim etish, himoyalash uchun tuziladigan ko'ngilli tashkilotlar. XVII–XIX asrlarda Yevropa va AQSH liberal modeli tarafdorlari bo'lgan faylasuflar siyosiy jaryonda guruhlar va Fraksiyalarning ishtirokini demokratiyaning bosh tamoyili – xalqning umumiy irodasini aniqlash va amalga chiqarishga zid deb bilishgan. Demak, manfaat guruhlariga nisbatan jamoatchilik fikri salbiy bo'lgan. Lekin XX asr boshiga kelib fuqarolik jamiyati va demokratik institutlar shakllanishi bilan falsafada plyuralistik yo'nalish vakillari – G. Laski va P. Odegard, sotsiologiyada guruhlar nazariyalari vakillari – A. Bentli, K. Kuli, D. Trumenlar eski, an'ana-



viy yoki mumtoz demokratiya modeliga "uyushgan plyuralizm" modelini qarama-qarshi qo'ydilar. Unga ko'ra demokratik jamiyatda hokimiyat ko'plab mustaqil guruhlar o'rtasida yoyilgan, siyosiy qarorlar qabul qilishning esa ko'plab markazlari mavjud. Manfaat guruhleri – siyosat subyektlarining o'ziga xos turidir. Ular rasmiy hokimiyat tashkilotlaridan farq qiladi, ammo ushbu tuzilmalar ichida ham vujudga kelishi mumkin. Ayni vaqtda, ular partiyalar bilan ham bir narsa emas (ular siyosiy hokimiyatni egallashga intilmaydilar). Ular siyosiy partiyalardan maqsadlari, faoliyat usullari, hokimiyatga ta'sir resurslari va boshqa belgilariga ko'ra farq qiladi: birinchidan, siyosiy partiyalar jamiyat manfaatlarini himoya qilishning eng muhim vositasi – hokimiyatni egallash va uni qo'lda ushlab turish deb hisoblaydilar. Manfaatli guruhlar esa o'z oldiga bunday maqsadni qo'ymaydilar. Ular o'z a'zolarining manfaatlarini hokimiyat tuzilmalariga ta'sir ko'rsatish orqali himoya qiladilar; ikkinchidan, siyosiy partiyalar odatda o'zining ijtimoiy bazasini kengaytirishga intiladilar va o'z saflarida manfaatleri turli-tuman kishilarni birlashtiradi. Maxsus manfaatli guruhlar esa o'z a'zolarining xususiy (o'ziga xos) manfaatlarini himoya qilish uchun uyushadi; uchinchidan, siyosiy partiyalar hokimiyatni egallash uchun saylov kampaniyalarini tayyorlaydilar va o'tkazadilar. Manfaatli guruhlar esa hokimiyat organlarini shakllantirishda qarashlari o'zlariga ma'qul bo'lgan siyosiy partiyalarni qo'llab-quvvatlash bilan ishtirok etadilar. N.Smelzer fikricha, manfaat guruhining uch belgisi mavjud: a'zolarining umumiy manfaatlarini himoya qilish; a'zolik va tashkilotning o'zi mutlaqo ixtiyoriylikka asoslanadi; tashkilot hukumat muassasalari bilan bog'liq emas. Boshqa manbalarda manfaat guruhlarining quyidagi belgilari ko'rsatiladi: tashkiliy jihatdan rasmiylashtirilganligi; o'z manfaatlarini himoya qilishi; mustaqil tashkilot ekanligi, boshqa tashkilotga bog'liq emasligi; hokimiyatga samarali ta'sir eta olishi. R.Dal i Ch.Lindblom fikriga ko'ra siyosatda manfaat guruhlarining faoliyat ko'rsatishi iqtisodda raqobat bajaradigan funksiyalarga o'xshashdir. Turli manfaatlarning to'qnashuvi va kurashi natijasida demokratik, tinch yo'l bilan diktatura o'rnatilishiga qarshi turish mexanizmi yaratiladi. Bu nazariya demokratik plyuralizm yoki plyuralistik demokratiya nomini olgan va manfaat guruhlarini jamiyatni parchalovchi unsurdan konstruktiv omilga aylanishini asosiagan.

**Manfaatlar** – lot. interest ahamiyat kasb etish, muhim; obyektiv ravishda ahamiyat kasb etgan, inson, jamoa, millat, jamiyat kabilar uchun zarur bo'lgan zaruriy ehtiyojlar; kimgadir farovonlik bag'ishlaydigan, kimgadir foyda keltiradigan narsalar.

**Manfaatlar agregatsiyasi** – ijtimoiy guruh ichidagi talablarning muvofiqlashtirilishi va kelishuvi, ajratib olingan manfaatlar o'rtasida muayyan pog'onalashuvning o'rnatilishi, kelishilgan asosda guruh uchun yagona maqsadning ishlab chiqilishi va shu negizda uning yaxlitligini va siyosiy hokimiyatga ta'sirini oshirish bilan bog'liq jarayonidir.

**Manfaatlar guruhleri** – unga a'zo bo'lgan kishilarning manfaatlarini boshqa guruhlar va siyosiy institutlarning o'zaro munosabatlarida, shuningdek, o'z guruhi ichida ifoda qilish uchun tuzilgan ixtiyoriy tashkilotlar.

**Manifest** – (lot. oshkora) 1) muhim siyosiy voqea munosabati bilan aholiga oliy

hokimiyatning tantanali, yozma murojaati; 2) siyosiy partiya, jamoat tashkiloti, va h.k.larning o'z qarashlari, dasturlari, qarorlarini bayon qilib yozgan murojaati.

**Manifestatsiya** – (lot. namoyon bo'lish) ommaviy ravishda birdamlik, norozilik yoki madadni ifoda qilish.

**Manipulyatsiya** – (frans. *manipulation*–firib) odamlarning tafakkurini ularning manfaatlariga zid ravishda o'zgartirishning mafkuraviy, ruhiy usullari tizimi. Siyosiy manipulyatsiya – ommaga psixologik ta'sir ko'rsatish usullari tizimi, siyosiy hokimiyat bu usullardan siyosiy hiyla, xalq ongiga siyosiy hayot to'g'risida puch tasavvurlarni singdirish maqsadida foydalanadi. Manipulyatsiyaning uch darajasi ajratiladi: birinchi daraja – odamlar ongida manipulyator uchun kerakli g'oyalari, qoidalar, turtkilar, qadriyatlar, me'yorlarni kuchaytirish; ikkinchi daraja – muayyan hodisaga nisbatan qarashlarning, hissiy va amaliy yondashuvlarning qisman o'zgartirilishi; uchinchi daraja – hayotiy qoidalarni tubdan o'zgartirish. Har qanday manipulyatsiya o'zaro ta'sir mahsuli. Inson ma'naviyati qanchalik Yuksak, tafakkuri qanchalik keng bo'lsa – uning manipulyatsiya obyektiga aylanishi shunchalik qiynlashadi.

**Maqom** – insonning jamiyat u yoki bu pog'onasidagi o'rni, bajaradigan roli, huquqlari va burchlarini aks ettiradi. U o'z ichiga obro'-e'tibor, sha'n, jamiyatda tutgan o'rni singari tushunchalarni qamraydi. An'anaviy jamiyatlarda maqom aniq, shakllanib bo'lgan tabiatga ega. Zamonaviy jamiyatlarda u nisbiy, o'zgaruvchan, ko'proq moddiy ta'minlanganlik, kasb yoki faoliyat turiga qarab belgilanadi. Maqom insonning kelib chiqishi, ma'lumoti, jinsi, irqiy yoki etnik mansubligi singari omillarga ham bog'liq.

**Marginal** – (lot. chet, had) shaxs, ijtimoiy qatlam yoki guruh muayyan jamiyat uchun xos tuzilmalar, ijtimoiy-madaniy me'yorlar, siyosiy an'analar, xususiyatlarining ayrimlarini yoki barchasini yo'qotishi. U aholi va individlarning jamiyat tarkibida gorizontaal va vertikal ko'chishi imkoniyatlari kengayishi bilan bog'liq. Marginallik shaxs, qatlam va subyektlar guruhining ongi va xulq-atvorining ijtimoiy sifatini belgilash uchun foydalaniladigan atama. Marginallik dastlabki ijtimoiy subsratdan uzilishni, shaxs va guruhning mohiyatini belgilab beruvchi ijtimoiy aloqalarni to'xtatishni, shuningdek, bu kabi integratsion aloqalarni qayta tiklash prinsiplar jihatdan mumkin emasligini anglatadi. Marginal shaxs jamiyatdagi biror ijtimoiy guruhga to'laqonli a'zo emas, u oraliqda turuvchi inson bo'lib, u dunyodagi o'z o'rnini faqatgina qandaydir soxta ommaviy harakatga mansublik orqaligina his qiladi. Marginallarni hech qanday umumiy manfaat yoki maqsad birlashtirmaydi. Ularda tarixiy xotira va an'analarni izchil qabul qilish xususiyati yo'q. Marginal o'zining qadriyatlar va baho berish tizimiga ega emas, faqatgina o'zgalarda ko'rgan-bilganlarini o'zlashtirib oladi, xolos.

**Markazlashuv** – mahalliy bo'g'imlarning oliy hokimiyat organlariga bo'ysunishiga asoslangan boshqaruv tizimi. Butun tizim yagona markazdan boshqariladi. Hokimiyatdagi doimiy tendensiyalardan biri.

**Marketing** – bozor holatini asosli o'rganish va oldindan baholash asosida tovarlarni ishlab chiqarish va sotishni tashkil etish hamda shu tariqa yaxshi foyda topishni uyushtirish.

**Matematik modellashtirish** – ijtimoiy borliq xususiyatlarini matematik til-

da bayon etish imkonini beruvchi empirik tadqiqod usullaridan biri. Borliqning tadqiqodchi uchun ahamiyatli tomonlarini aniq va abstrakt shaklda aks ettiradi; tadqiq qilinayotgan masalaning asosiy muammolarini aniq tasavvur etish; sifatiy usullar yordamida olib bo'lmaydigan xulosalarga kelish imkonini beradi; tahlil uchun elektron texnikasidan faol foydalanishga asoslanadi.

**Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi** – Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi (MDH) 1991-yil 8 – dekabrda MDH tuzish to'g'risida bitim va 1991-yil 21 – dekabrda mazkur bitimga protokol asosida tashkil qilingan. Ozarbayjon Respublikasi, Armaniston Respublikasi, Belarus Respublikasi, Qozog'iston Respublikasi, Qirg'iz Respublikasi, Moldova Respublikasi, Rossiya Federatsiyasi, Tojikiston Respublikasi, Turkmaniston, O'zbekiston Respublikasi MDH ishtirokchi davlatlari hisoblanadi. MDH Ijroiyy Qo'mitasi Hamdo'stlikning ijro etuvchi, ma'muriy va muvofiqlashtiruvchi idorasidir. Uning shtab-kvartirasi Minskda va bo'linmasi Moskvada joylashgan. O'tgan yillar mobaynida MDH doirasida ishtirokchi davlatlar uchun savdo-iqtisodiy munosabatlar, kommunikatsiya va transport tarmoqlarini yanada rivojlantirish hamda xavfsizlikni ta'minlash va gumanitar aloqalarni mustahkamlashni ta'minlaydigan keng ko'lami huquqiy asos va zaruriy mexanizmlar yaratildi. Hamdo'stlik ishtirokchi davlatlarning barqaror ruvojlaniishi va xavfsizligiga to'sqinlik qiluvchi har qanday tahdid va xavf-xatarlarga o'z vaqtida munosib javob qaytarish borasida o'zaro maqbul yondashuvlar va kelishilgan amaliy chora-tadbirlarni ishlab chiqish, muammo va kelishmovchiliklarni hal qilish, MDH hududidagi fuqarolarning o'zaro muloqot yuritishlari uchun keng imkoniyat yaratdi. O'zbekistonda MDHni ko'p rejali munosabatlarni muvofiqlashtiruvchi mexanizm va bevosita muloqotlar olib borish, davlatlararo muzokaralar tashkil qilish, jumladan, MDH formatida davlat rahbarlari va tegishli idoralar boshliqlari darajasida ikkitomonlama uchrashuvlar o'tkazish maydoni hamda ko'ptomonlama hamkorlik shart-sharoitlarini yaratishda manfaatdor bo'lgan suveren davlatlarning birlashmasi sifatida baholashadi. O'zbekiston Respublikasi MDHning asosiy nizomiy va tarmoq organlari faoliyatida ishtirok etadi. O'zbekiston Hamdo'stlik tashkil etilgandan boshlab uning doirasida iqtisodiy integratsiyani chuqurlashtirish va yangicha asosda xo'jalik aloqalarini ushbu jarayonlarga siyosiy tus bermagan holda amalga oshirish tarafdori bo'lgan davlatlar qatoriga kirgan. O'zbekiston MDH doirasida amaldagi o'zaro savdo tartibini yomonlashtirmaydigan tamoyillarga asoslangan, haqiqiy erkin savdo hududini tashkil etish tarafdoridir. MDH hududida barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish uchun bu muhim omil bo'lmoqda. O'zbek tomoni fikricha, jahondagi jadal o'zgarishlar sharoitida MDH davlatlararo o'zaro hamkorlik tizimi sifatida doimiy muzokaralar olib borish, oliy darajada siyosiy muloqotlarni tashkil qilish, vujudga kelayotgan yangi tahdid va xavf-xatarlarga qarshi kelishilgan yondashuvlar ishlab chiqish, xalqaro xavfsizlikka oid ko'plab dolzarb masalalarni hal etishda muhim tuzilma bo'lib qolmoqda. Hamdo'stlik ko'p rejali hamkorlikni muvofiqlashtiruvchisi bo'lishi va barcha ishtirokchi davlatlar uchun yuqori ijtimoiy-iqtisodiy yutuqlarga erishishlari yo'lida xo'jalik jarayonlarini tartibga solishi mumkin va lozim.

**Me'yoriy ong** – ijtimoiy me'yorlarni faoliyat, baholash asosi sifatida anglash;

huquqiy, ma'naviy va boshqa taqiqlarda ifodalanuvchi ijtimoiy talablarga itoat etish; ijtimoiy ma'qul faoliyatlarga ergashish; jamiyat a'zolari o'rtasidagi munosabatlarda tartibga soluvchi qoidalarga amal qilish zarurligini anglash. Katta ijtimoiy guruhlarining me'yoriy ongi mafkura va uning shakllari (axloq, huquq, din)da namoyon bo'ladi. Guruh va jamoalarning me'yoriy ongi guruh munosabatlarini tartibga soluvchi qoidalarda aks etadi. Shaxsning me'yoriy ongi siyosiy ijtimoiylashuv natijasida shakllanadi. Me'yoriy ongning muhim tarkibiy qismi ijtimoiy qadriyatlar (ijtimoiy faoliyat maqsadlari) va taqiqlar (qat'iy belgilangan ijtimoiy qoidalardan chekingani uchun sanksiyalar va cheklashlar) tizimidir.

**Memorandum** – (lot. nimani yodda tutish lozim) xalqaro munosabatlarda – diplomatik suhbat chog'ida ko'riluvchi masalalar yozilgan varaq. Memorandum nota mazmunini asoslash uchun unga ilova qilinadi yoki mustaqil hujjat sifatida imzosiz va muhrsiz taqdim qilinadi.

**Menejment** – (ingl. boshqaruv) samarali ishlab chiqarish faoliyatini tashkil etish, boshqarish.

**Mentalitet** – (lot. tafkkur, fikrlash tarzi) dunyoni muayyan tarzda qabul qilish, his etish, fikrlash, faoliyat ko'rsatishga shaxs, guruh, jamoa, millat, jamiyatning tayyorligi, moyilligi. U an'analar, rasm-rusum, diniy e'tiqod va irimlarni ham qamrab oladi. Mentalitet – fran.mentalite; lot mentalis-aqliy, ruhiy, ma'naviy, aql yo'nalishi aql bichimi, akliy yetuklik, zakovat; ma'lum shaxs, ijtimoiy guruh (kichik, katta, milliy) uchun xarakterli bo'lgan dunyoqarash, dunyoni anglash, atrof voqelikni qabul usuli; fikrlash tarzi.

**Meritokratiya** – (lot. *meritus* – munosib, yunon. *kratos* – hokimiyat; so'zmaso'z aytganda eng iqtidorlilar hokimiyati) shaxsiy xizmatlariga ko'ra saylanuvchi hukumat boshqaradigan jamiyat; hokimiyatni eng iste'dodli, iqtidorli odamlar, malakali mutaxassislar boshqarishini isbotlovchi nazariya. Meritokratiya nazariyasining asoschisi ingliz sotsiologi Mitchel Yang, uni 1958-yilda yaratgan. Uning fikricha, ijtimoiy taraqqiyot hokimiyat va intellekt, ya'ni aql-zakovat qay darajada uyg'unlashuviga bog'liq. Jamiyat taraqqiyotining muvaffaqiyati inson salohiyatidan, iste'dodidan foydalanilishiga bog'liq. Shuning uchun u meritokratiya deyilganda ijtimoiy hayotning intellektuallashuvini, shaxs tabiiy fazilatlarining ochilishini tushungan. 1973-yilda D.Bellning "Postindustrial jamiyat shakllanishi" asaridan so'ng byurokratiya va texnokratiyani yo'q qilish, shuningdek, jamiyatning sinfiy tarkibini o'zgartirish imkonini beruvchi jamiyatni boshqarishning yangi tamoyili sifatida qarala boshlandi. Meritokratiya modeli "hammaga xizmatiga yarasha" shiori bilan siyosiy qadriyatlarining taqsimotidagi adolatsizlikka qarshi kurashga qaratilgan. Lavozimlar faqatgina muayyan shaxsning qobiliyati va erishgan yutuqlariga qarab taqsimlanishi lozim, degan tamoyilni yoqlaydi. Shuning uchun siyosiy pog'onaviylashuvda lavozim qanchalik yuqori bo'lsa, uni shunchalik aqli va qobiliyatli odamlar egallashi lozim.

**Meriya** – (fr.) munitsipal boshqaruv tashkiloti.

**Metod** – (gr. tadqiqod, yo'l) bilim olish, borliqni tadqiq etish tadbirlari, usullari va jarayonlari birligi. Siyosatshunoslikda qo'llanuvchi metodlarni uch guruhga ajratiladi: universal usullar; ijtimoiy fan usullari; empirik tadqiqot usullari. Universal usullar barcha fanlarda qo'llanadi. Bularga induksiya, deduksiya,

tahlil, sintez, tashhis, bashorat, ta'riflash, turkumlash, qiyoslash, tavsif, kuza-tish, tajriba singarilar kiradi; siyosatshunoslikdagi deyarli barcha ilmiy metodlar boshqa ijtimoiy fanlardan olingan: so'rov, statistik ma'lumotlar tahlili, darajalash, modellashtirish, abstraktlashtirish va h.; empirik metodlar asosan tatbiqiy si-yosatshunoslikda qo'llanadi: "o'yinlar nazariyasi", kontent-tahlil, kognitiv karta-lash, siyosiy vaziyatni modellashtirish, monitoring va h. Metod va metodika tu-shunchalarini farqlash kerak: metodikalar – maxsus tadbirlar va texnik uslublar bo'lib, ular muayyan masalalarni hal qilish uchun qo'llanadi. Metodlar – bilim olishning umumiy va universal vositalari bo'lib, tadqiqotning turli sohalariga oid bo'ladi. Ular o'z ichiga baholash, bashorat va monitoringning turli tadbirlarini(meto-dikalarini) oladi.

**Metodika** – (gr.) – uslubiyot, ilmiy axborotni tahlil qilish texnikasi, vosita-si, uslubi ma'nosida qo'llanadi. Turli metodlar turli metodikalarni taqozo etadi: kontent-tahlil metodi matn bilan ishlashga qaratilgan uslublarni talab etadi, an-keta so'rovi va intervyu savollarni qo'ya bilish va javoblarni tahlil qila olish bilan bog'liq uslublarni v.h.

**Metodologiya** – (gr. *metodos* – bilish yo'li, *logos* – ta'limot – bilishning yo'li, usullari to'g'risidagi ta'limot) bilishning qurollari, vositalari, yo'llari bo'lib, ilmiy tadqiqotning umumiy strategiyasini tashkil etadi. Metodologiya turli metodlarni tadqiqotda qo'llash, ilmiy muammoni to'g'ri qo'ya bilish, uni to'g'ri bayon etish; ushbu muammoga to'g'ri yondoshuvlarni tanlay bilish kabi masalalar bilan bog'liqdir. Siyosiy fanda ham boshqa fanlardagi kabi metodologiya: turli uslub-larni yoki bir nechta uslublarning muayyan birligini siyosiy bilim olish uchun qo'llash; tadqiq etilishi lozim bo'lgan masalani to'g'ri qo'ya bilish, uni to'g'ri ba-yon etish; ushbu muammoga mos yondoshuvlarni, vositalarni to'g'ri tanlay bi-lish kabi masalalar bilan bog'liq.

**Metropoliya** –(gr.) mustamlakalarga ega davlat.

**Mexanizm** – (yunon. mechane-qurol, inshoot) harakat va tezlikni amalga oshirish yoki uzatish qurilmasi. Siyosatda majoziy ma'noda biron-bir reja, dastur, maqsadni amalga oshirish yo'l-yo'riqlarini va vositalariga nisbatan qo'llaniladi.

**Migratsiya** – (lot.) joyini o'zgartirish, ko'chish (aholi, jonzotlarning) siljishi, harakati.

**Millat** – (ar.) ma'lum hududda barqaror yashab, tarixiy taraqqiyot davomida rivojlanib kelgan kishilarning ma'naviy-ruhiy birligi. Siyosiy millat – siyosiy tizim rivojlanishi, ustuvor qadriyatlari, me'yorlari, maqsadlariga doir yakdil bo'lgan fuqarolar birligi. **Millat** – til, ma'naviyat, milliy o'zlikni angash ruhiyati, urf-odatlar, an'analar va qadriyatlar yagonaligi asosida muayyan hududda yashovchi iqtisodiy aloqa-lar bilan bog'langan mustaqil subyekt sifatida o'ziga xos moddiy va ma'naviy boyliklarni yaratuvchi kishilarning etnik birligidir. Fanda millatni etnik va madaniy jamoa sifatida talqin etish millatlar to'g'risidagi ilk ilmiy Konsepsiyalarning mazmunini tashkil etgan. Ularga ko'ra millat – madaniy jamoa. U bir tilda so'zlashuvchi, bir dinga mansub, umumiy tarixga ega odamlar guruhi sifatida XVIII asrda Germaniya-da Gerder, Fixte ijodlarida talqin etilgan. Masalan, Gerder millat tabiiy muhit, iqlim, tabiiy geografiya bilan belgilanishini ta'kidlaydi. Bu omillar odamlarning turmush tarzini, mehnat ko'nikmalarini, mayllarini va ijodiy intilishlarini shakl-

lantiradi. Lekin ulardan ham ustun omil – Gerderga ko'ra – tildir: tilda an'analar, tarixiy xotira aks etadi. Gerderda davlatchilik muhim rol o'ynamaydi. Unda millat tabiiy ravishda tarixiy shakllangan va insoniyat turguncha saqlanadigan hamjamiyatdir. Bu fikrlarni zamonaviy ijtimoiy psixologlar qo'llab-quvvatlaydi: odamlar xavfsizlik, muloqot va hamkorlik maqsadida doimo o'zlariga o'xshash odamlar bilan guruhlariga birlashadilar. Bu yondashuvda etnogenetik, avvalo til, an'ana singari omillar, umumiy madaniyat singari tushunchalar muhim o'rin tutadi. Unga ko'ra millat obyektiv shakllangan odamlar jamoasi bo'lib, u muayyan manfaatlarga ega va uning mavjudligi kimningdir ongli harakatlariga bog'liq emas. Bu holda millat uning mohiyatini ochuvchi qandaydir belgilar birligi sifatida namoyon bo'ladi. Irtiq nazariyalar shu yondashuvlar ichida kelib chiqqan, negaki bu talqinda manfaatlarni ratsionallashtirish juda murakkab. Millatlarni bu tarzda **siyosiy** yoki **konstruktiv** tushunilganda millat u yoki bu subyektning maqsadli, anglangan faoliyati natijasi sifatida talqin etiladi. Bu holda millat yoki tasavvurdagi ijtimoiy birlik sifatida, yoki milliy birdamlik obrazlarini yaratuvchi siyosiy elita, davlat siyosatining natijasi sifatida baholanadi. Masalan, Gellner fikricha davlat millatni yaratuvchi subyektidir. "Odamlarning guruhlarini ular uchun o'rnatilgan "muayyan umumiy huquqlar va majburiyatlarni" aniq e'tirof etganlaridagina millat bo'ladi. Davlatning millatga ta'siri har qanday biologik yoki madaniy bir xillik, jamiyatning ma'rifatligi darajasi singari omillardan ko'ra kuchliroq ta'sir etadi.

**Millatchilik** – millat ayirish, bir millatni har tomonlama ulug'lab, boshqalarining huquq, ehtiyoj va manfaatlarini nazar-pisand qilmaslik, ularni erga urishdan iborat bo'lgan nodemokratik mafkura.

**Millatga mansublik** – qonun bilan shaklga solingan tavsiflar jamlamasini ko'rsatuvchi siyosiy-huquqiy kategoriya bo'lib, bunday tavsiflarga ega bo'lish insonni milliy davlatning teng huquqli a'zosiga aylantiradi. Milliy mansublik tushunchasi XIX asrda, Yevropa millatlari shakllanishi jarayonida yuzaga kelgan. Hozir nashr etilayotgan ma'lumotnomalarning aksariyatida "milliy mansublik" tushunchasi "fuqarolik" ning sinonimi sifatida, ya'ni milliy davlatning a'zosi bo'lish sharti sifatida talqin qilinadi. Biroq, rasman olganda ham, mohiyatan olganda ham bu tushunchalar bir-biriga mutlaqo mos kelmaydi. Tarixan olganda quyida keltiriladigan ikkita Konsepsiya millatga mansublikning asosiy Konsepsiyalariga aylangan, chunonchi: konservativ prinsip *jus sanguinis* (qon qonuni) millatga mansublik tushunchasiga deyarli ontologik, natural maqom beradi, unga ko'ra fuqarolik tegishli millatga mansub shaxslardan tug'ilganlik daliliga qarab belgilanadi. Mazkur prinsip, masalan, GFR tashqarisida tug'ilgan etnik nemislarga Germaniya fuqaroligini olish imkonini beradi. Ikkinchi prinsip *jus soli* (tuproq qonuni) ancha liberal bo'lib, unga ko'ra milliy mansublik shaxs qaysi milliy davlatning hududida tug'ilganligi daliliga qarab belgilanadi. Bunday prinsip, masalan, Fransiya uchun an'anaviy bo'lgan. Fuqarolik olishning yuqorida ko'rsatilgan prinsiplari ham alohida, ham turli uyg'unlikda amal qilishi, shuningdek qo'shimcha shartlar bilan cheklanishi mumkin. (Masalan, *jus sanguinis* prinsipi fuqarolikni faqatgina ota tomoni bo'yicha belgilash bilan cheklanishi mumkin). Milliy mansublik turli Konsepsiyalarining amalda qo'llanilishi bir davlatdan

boshqa davlatga o'tgandagina emas, balki alohida milliy davlat tarixi doirasida ham o'zgarishi mumkin.

**Millatlararo munosabatlar** – birga yoki ayri tarzda yashaydigan har xil millatlar o'rtasida amalga oshadigan turli-tuman shakllardagi aloqalarni anglatuvchi tushunchadir.

**Millatlararo totuvlik g'oyasi** – milliy istiqloq mafkurasining asosiy g'oyalardan biri bo'lib, mamlakatimizda istiqomat qilib kelayotgan barcha etnik vakillari bilan, avvalambor, o'zbek millati va shu bilan birga o'zlarining o'rtasida ko'p-yillarga mo'ljallangan ezgulik, ishonchlilik, do'stonalik, yakdillik, qarindoshlik, ma'naviy-axloqiy va mafkuraviy yaqinlik va birdamlik, murosaliilik va boshqa insoniylik munosabatlari mavjudligini va kelajakda ham u yanada kamol topishini ifodalaydi.

**Millatlararo ziddiyatlar** – ijtimoiy ziddiyatlarning o'ziga xos, etnik ko'rinishi.

**Millatlarning asosiy nazariy talqinlari** – millatning zamonaviy tushunchasi XVIII asr ohirida Buyuk fransuz inqilobi davrida shakllangan deb hisoblaniladi: shu vaqtda birinchi bor milliy suverenitet va milliy o'z-o'zini anglash to'g'risida fikr yuritila boshlangan. Fransiyalik inqilobchilar o'zlarini "patriot" deb ataganlar va shu davrdan boshlab "vatan" (lot. patria) atamasi davlatchilik va fuqarolarning monandligi (identifikatsiyasi) bilan bog'liq qo'llanmoqda. Bu talqin asosida millat – qaysi tilda so'zlashuvidan, tanasining rangi qanday ekanligidan, qaysi din vakili ekanligidan qat'i nazar muayyan hududda yashovchi barcha fuqarolarni anglatadi. Fransiyada XVIII-XIX asrlarda shakllangan va yevropa millatlarining shakllanishi modelini tashkil etuvchi bunday liberal yondashuv fuqarolarning mafkuraviy va siyosiy tanlovlari yaqinligidan kelib chiqadi va jamiyatni yaqinlashtirish hamda guruhiy birdamlikni ta'minlash vazifasini bajaradi. Shu tariqa millatlarning madaniy talqinlari millatni yuqori darajada etnik bir xillikka ega, organik shakllangan birlik sifatida ta'riflaydi. Millatlarda ichki birdamlik kuchli. Shu bilan birga K.Popper "irqlar, millatlar, turli lingvistik guruhlar" ilmiy va siyosiy ahamiyatga ega bo'lmagan, o'ylab topilgan narsa deb qaragan. Uning izdoshlaridan bo'lgan K.Verderi bu tushunchani ilmiy tahlilda qo'llash juda qiyin, deb hisoblaydi. Nemis tarixchisi Fridrix Mayneks madaniy millatlar tushunchasi qatoriga siyosiy millatlar tushunchasini kiritdi. Bu qarashlarning nazariy ildizlarini Russo qarashlari tashkil etadi, deb qaraladi. Siyosiy millatda madaniy birlik emas fuqarolik birdamligi ahamiyatlidir. Unga ko'ra millat etnik emas, siyosiy birlik. 1983-yilda Erik Xobsbaum millat – "o'ylab topilgan an'ana" degan fikrni bildirgan. Millatni millatchilik mafkurasini yaratgan: buning uchun milliy madhiyalar, bayroqlar o'ylab topilgan, boshlang'ich ta'lim vositasida bu fikrlar odamlar ongiga singdirilgan. Unga ko'ra til ham zamonga qarab o'zgaradi. Bugungi kunda ko'p xalqlar ajdodlarining tilida so'zlashmaydilar, yozuvlarini o'qiy olmaydilar, tushunmaydilar – bularning barchasi tilni omil sifatida qarash mumkinmi? degan savolni keltirib chiqaradi. Benedikt Anderson esa agar millatlar haqiqatan ham mavjud bo'lsalar faqat xayoliy konstruksiya sifatida mavjudirlar. Bu konstruksiya OAV, ta'lim tizimi va ijtimoiylashuv institutlari tomonidan qo'llab-quvvatlanib turadi, degan fikrlarni aytib o'tgan. Siyosiy millatlar sifatida Buyuk Britaniya, AQSH, Fransiyani keltirish mumkin.

**Millatlarining o'z taqdirini o'zi belgilashi huquqi** – millatni suveren jamoa sifatida e'tirof etuvchi tamoyil. U milliy mustaqillik va demokratik boshqaruvni nazarda tutadi.

**Milliy an'analar, udumlar** – millat hayotining turli sohalarida namoyon bo'ladigan t.lar, belgilar, xususiyatlar, qadriyatlar, faoliyat turfari, odatlar va xislatlarning avloddan avlodga o'tishi hamda meros bo'lib qolishini ifodalovchi t.. M.a. umuminsoniy an'analarning bir millat darajasida namoyon bo'lishidir. Ular orqali har bir millat bir davrdagi o'ziga xos xus-yat, hayot tarzi, mad-ti, fani, adabiyoti va b. sohalaridagi erishilgan natijalar va yutuqlarini boshqa davrda yashayotgan avlodlarga etkazadi. M.a. rang-barangdir. Ularda har bir millatga xos xus-yatlar namoyon bo'ladi. Mas., butun dunyo xalqlariga xos mehmondo'stlik an'anasi o'zblarda ruslarnikidan, gruzinlarniki inglizlarnikidan farq qiladi. M.a. millatni birlashtirish, avlodlararo vorislikni ta'minlash vositasidir. U yoki bu M.a.ni bajarishda, kishilar o'z sinfi va tabaqalaridan qat'i nazar, bir xilda harakat qiladilar. M.a.da millatning betakrorligi, millat hayotining o'ziga xosligi, vorislikning muhim milliy jihatlari namoyon bo'ladi. har bir xalq o'z M.a.ining sohibi, ularning saqlovchisidir. Millatning har bir avlodi M.a.ni o'tmishdan kelajakka yetkazib beruvchi insonlar ruhida tarbiyalanishi kerak. Millatning tanazzuli M.a.ning ham tanazzulidir. Sobiq ittifoqdagi mafkuraviy tazyiqlar millatlar va M.a.ga ham salbiy ta'sir ko'rsatgan edi. M.a.ning ayrimlari «o'tmish qoldiqlari» sifatida baholanar, ularning barham topishi tog'risidagi g'ayrimilliy va g'ayriilmiy aqidalar targ'ib qilinardi. O'z-n mustaqillik ka erishgandan so'ng M.a.ga e'tibor kuchaydi. Ular mustaqillikni mustahkamlashning muhim vositasi, kishilarni ma'n-y kamolotga yetkazishning omili sifatida katta ahamiyat kasb etmoqda. M.a.ning jam-tadagi ahamiyati va millat istiqboliga ta'siri, ayniqsa, mustaqillik sharoitida bilinadi. Mustaqillikning vazifalaridan biri – tegishli davlatga nom bergan millatni yuksaltirish, dunyoga tanitish, millatning kuchini, salohiyatini, qobiliyatini, shijoatini va uning mustaqillik kamolik ekanligini namoyon qilishdir. Bunday oliyjanob faoliyat esa M.a.ni tiklash, soflash va boyitishsiz mumkin emas. Chunki, bu ayni millatning avlodlaridan avlodlariga o'tib boradigan va jamoatchilik fikri b-n muhofaza qilinadigan ijt-y axloq, ijt-y mun-tlarning me'yori hamda qoidalari. Shu ma'noda, M.a. millatning tarixini, aql-zakovatini, didini, ijt-y voqealar va hodisalarga bo'lgan mun-tini, turmush tarzini ham bildiradi. M.a. barcha millatlar-da mavjud, ammo, ular har bir millatda o'ziga xos va betakroridir. Ishlab chiqarish jarayonini tashkil qilishda M.a.ni inobatga olish bu sohadagi muvaffaqiyat garovidir. Mas., Yaponiya, Germaniya va b. bir qancha mam-tlar shu omillardan samarali foydalandilar va foydalanmoqdalar. Shunday ekan, milliy an'analar masalasida jahonning ilg'or tajribasini o'rganish o'ta muhimdir. Bugungi kunda a.lar mobaynida shakllangan, avloddan avlodga bebaho meros sifatida o'tib kelayotgan M.a. b-n birga Mustaqillik, Navro'z, O'qituvchilar va murabbiylar, Xotira va qadrlash kuni kabi bayram va marosimlarimizdan jam-t hayotiga zamonaviy mazmun baxsh etish yo'lida oqilona foydalanish zarur. M.a.imizni o'rganish, targ'ib etish b-n bir qatorda, to'y-ma'rakalarni, ularning tarkibiy qismi bo'lgan odat va udumlarni ixchamlashtirish, bu borada isrofgarchilik va dab-dababozlikka yo'l qo'ymaslikka alohida e'tibor qaratish darkor. Kishilar qalbiga



ishonch ruhini baxsh etishga xizmat qiladigan M.a. ajdodlarimizning bebaho merosi va umumbashariy qadriyatlarga tayanishi, yoshlarni komil inson qilib tarbiyalashga undashi, mam-timizning dunyo hamjam-tiga integratsiyalashuvini ta'minlashga yordam beradigan ma'n-y omilga aylanishiga harakat qilish lozim. Ana shundagina M.a. sabr-toqat, mehr-oqibat, milliy qadriyatlar, andishalik, urf-o.larga hurmat, yaxshilarga ergashish, yomondan qochish kabi xalqimiz fazilatlarining yanada sayqal topishiga xizmat qiladi. Shu tariqa, a.lar mobaynida shakllangan, avloddan avlodga o'tib kelayotgan M.a.imiz mam-timizda amalga oshirilayotgan islohotlarning muhim omiliga aylanadi va milliy g'oya b-n uyg'unlashib, bunyodkorlik va yaratuvchanlik ishlariga xizmat qiladi.

**Milliy davlat** – davlatning tarixiy shakli va shuningdek, siyosiy ideal hamdir. Milliy davlat yagona fuqarolik va millat rishtalari bilan bog'langan mustaqil siyosiy hamjamiyatdir. Shu ma'noda u ko'p millatli imperiyalar va shahar – davlatlarining ziddi. Ikkinchi holatida, ya'ni siyosiy ideal sifatida u "bir millat – bir davlat" (Madzini) tamoyilining ideal tipi. Milliy davlat an'anaviy ijtimoiy aloqalarning uzilishi va tovar-kapitalistik munosabatlar rivojlanishi jarayonida paydo bo'lgan zamonaviy davlatchilikni tashkil etishning eng muhim tamoyillaridan biri. Milliy davlat siyosiy-huquqiy voqelik sifatida davlatning fuqarolari qanday an'anaviy maqomga ega ekanligini aniqlashtirish zaruriyatidan kelib chiqadi va natijada mazkur fuqarolarga nisbatan, chet elliklardan farqli o'laroq, siyosiy sodiqlikning ancha qat'iy mezonlari, shuningdek qonun bilan belgilangan fuqarolik huquqlari va majburiyatlari tatbiq etiladi. Aholi migratsiyasini tartibga solish milliy davlatning eng muhim vazifalaridan biridir. Davlat–millat tamoyili, eng avvalo, xalqaro munosabatlarning butun tizimi bilan belgilanadi va milliy harakatlarning o'z davlatchiligini barpo etishga bo'lgan intilishini ro'yobga chiqarishdangina iborat bo'lib qolmaydi. Xuddi mana shu jihatda yangi davlatlarni xalqaro e'tirof etishning yoki aksincha, separatizm va g'alayonli hududlarni e'tirof etmaslikning ma'nosi yaqqol ko'zga tashlanadi. Ikki turdagi millat, ya'ni etnik tarixiga va fuqarolik kelib chiqishiga ko'ra yuzaga kelgan millatlar milliy davlatning real subyekti bo'lishi mumkin. Birinchi turdagi millat kelib chiqishning umumiyligi, umumiy til, umumiy din, umumiy tarixiy xotira, madaniy jihatdan umumiy o'xshashlik kabi milliy mansublikning obyektiv mezonlari asosida etnik tarixga qarab yuzaga keladi. Tegishincha yagona etnik asosga ega bo'lgan milliy davlat o'zining siyosiy chegaralarini etnik-madaniy chegaralar bilan bir xillashtirishga intiladi. Bunday milliy davlatlar Markaziy va Sharqiy Yevropa uchun xosdir (Vengriya, Chexiya, Polsha va boshqalar). Fuqarolik kelib chiqishiga ko'ra millat asos sifatida noetnik (va shu ma'noda kosmopolitik) mafkuraga asoslanadi. Bunday asos sifatida xalq suvereniteti, "inson huquqlari", kommunistik dunyoqarash va boshqa shu kabi g'oyalar xizmat qilishi mumkin. Nima bo'lganida ham fuqarolik kelib chiqishiga ko'ra yuzaga kelgan millat, garchi u ham umumiy (davlat) tili, umumiy madaniy-tarixiy an'analar va boshqa shu kabi tabiiy birlashtiruvchi jihatlar mavjud bo'lishini taqozo etsa-da, milliy umumiylikning tabiat bilan bog'liq bo'lmagan jihatlariga urg'u beradi. Fuqarolik kelib chiqishiga ko'ra yuzaga kelgan millat asosida tashkil topgan klassik davlatlarga misol sifatida Fransiya va AQSHni keltirish mumkin. XX asrda fuqarolik kelib chiqishiga ko'ra yuzaga kel-

gan millatlarning "sotsialistik millatlar" kabi turi paydo bo'lib, ularning ko'pchiligi bir necha etnik umumiylikdan tarkib topgan edi (SSSR, Chexoslovakiya, Yugoslaviya va boshqalar). Zero, fuqarolik kelib chiqishiga ko'ra yuzaga kelgan milliy davlatlardan ko'pining aholisi yarim etnik tusga ega bo'lgan, ammo bu hol bunday davlatlar jipslashganlik nuqtayi nazaridan bitta etnik kelib chiqishga ega bo'lgan milliy davlatlarning aholisiga nisbatan zaif bo'lganligini anglatmaydi. Biroq, tarixiy tajriba (ayniqsa "sotsialistik millatlar"ning inqirozga uchraganligi) ko'rsatadiki, katta etnik guruhlar siyosati fuqarolik kelib chiqishiga ko'ra yuzaga kelgan millatlarning mavjud bo'lishi uchun potentsial yoki aktual tahdid keltirib chiqaradi. Turli ko'rinishlardagi milliy davlatlarning tasnifi ko'payib borayotganligini inobatga olgan holda ular uchun umumiy bo'lgan bir qator belgilarni ajratib ko'rsatish mumkin, chunonchi, rasmiy aloqa vositasi sifatida milliy til; rasmiy ravishda qabul qilingan milliy davlat ramzlarining tizimi (gerb, bayroq va boshqalar); legitim kuch ishlatishga va soliq solishga nisbatan davlat monopoliyasi; oqilona byurokratik ma'muriyat va barcha uchun umumiy qonunlar; milliy ramz tushirilgan barqaror valyuta; mehnat bozorining hamma uchun ochiqligi hamda "fuqarolar" uchun ijtimoiy kafolatlar va "fuqaroligi bo'lmaganlar" uchun tegishli cheklovlar; imkoniyatga qarab, yagona ta'lim tizimi; milliy vatanparvarlik g'oyalari va ramzlarini yaratish hamda targ'ib qilish; tashqi siyosatda milliy manfaatlarning ustuvorligi.

**Milliy g'oya** – ajdodlardan avlodlarga o'tib, asrlar davomida e'zozlab kelinayotgan, shu yurtda yashayotgan har bir inson va butun xalqning qalbida chuqur ildiz otib, uning ma'naviy ehtiyoji va hayot talabiga aylanib ketgan, ta'bir joiz bo'lsa, har qaysi millatning eng ezgu orzu-intilish va umid-maqsadlari yig'indisi.

**Milliy g'oya va mafkura ilmiy-amaliy markazi** – mamlakatimizda milliy g'oya targ'iboti va ma'naviy-ma'rifiy ishlarning samaradorligini, ularning hayotligi va ta'sirchanligini oshirish maqsadida Respublika Ma'naviyat va ma'rifat Kengashi huzurida O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti I.Karimovning 2006-yil 25 – avgustdagi PQ-451-son Qarori asosida Milliy g'oya va mafkura ilmiy-amaliy markazi tashkil etildi. Milliy g'oya va mafkura ilmiy-amaliy markazi (bundan buyon Markaz deb yuritiladi) ana shunday ijtimoiy-siyosiy zarurat talabidan kelib chiqqan holda xalqimizning o'zi tanlagan taraqqiyot yo'lidan og'ishmay olg'a borishiga erishish, bizning milliy manfaatlarimizga zid bo'lgan turli buzg'unchi va yot mafkuraviy tazyiq va tahdidlardan himoya etish maqsadida tuzildi

**Milliy g'oya negizlari** – ajdodlardan avlodlarga o'tib kelayotgan, xalqning o'ziga xos milliy xususiyatlarini ifodalagan milliy ma'naviy meros qadriyatlari hamda dunyo xalqlari tomonidan e'tirof etilgan demokratiyaning umuminsoniy prinsiplar majmuyidir.

**Milliy g'urur** – 1) shaxs, ijt-y guruhning muayyan millatga mansubligidan faxrlanish hissi. Bu tuyg'u o'zini-o'zi anglash shakllaridan biri bo'lib, ajdodlari qoldirgan moddiy, ma'n-y merosdan, o'z xalqining jahon sivilizatsiyasiga qo'shgan hissasi, qadr-qimmat, obro'-e'tiboridan faxrlanish hissini ifodalaydi. U shaxs va ijt-y guruh xulq-atvorini muayyan tarzda yo'naltirib, tartibga solib tura-

di. M.Q. quyidagi shakllarda namoyon bo'ladi: millatning yutuqlari, obro'-e'tibori b-n faxrlanish, uning muammolariga befarq qarab turmaslik; o'z eliga, millatiga jonkuyar bo'lish; o'z millatining moddiy, ma'n-y merosini asrab-avaylash; xalq odatlari, an'analari, qadriyatlarini hurmat qilish, ularni boyitish va takomillash-tirish; o'z millatiga mehr-muhabbatini amaliy faoliyatda namoyon qilish. M.Q. ma'yat tarkibida muhim o'rin tutadi. M.Q. millatning o'tmishda fan, adabiyot, san'at rivojiga qo'shgan hissasi, buyuk allomalari, atoqli sarkardalari faoliya-ti b-n bog'liq bo'ladi. M.Q.i bo'lmagan kimsa boshqa millatlarga bosh eguv-chi kosmopolitga, manqurtga aylanadi. M.Q.ning predmeti va mazmuni, ya'ni qanday shaxslar, qanday voqea-hodisalar b-n faxrlanayotgani shu millatning mazkur davrdagi ma'n-y qiyofasini ko'rsatadi. Xalqlar tarixida shunday davrlar bo'lishi mumkinki, unda millatchilik, shovinistik, hatto fashizm g'oyalari ustuvor-lik qila boshlaydi. Bunday davrlarda M.Q. predmeti salbiy hodisalar: milliy maq-tanchoqlik, boshqa millatlarni pastga urish, o'z millatining boshqa millatlarga nisbatan ustunligini targ'ib qilish singari illatlar bo'lib qoladi. Bunday hollar millat o'ziga-o'zi tanqidiy ko'z b-n qaray olmay qolgan vaziyatlarda yuz beradi. M.Q. adabiyot va san'atda o'z ifodasini topadi. Alisher Navoiyning quyidagi hikmati M.Q.ning go'zal ifodasidir: "Menga qilsa ming jafo, bir marta faryod aylon, Elga qilsa bir jafo, ming marta faryod aylaram". Sog'lom M.Q. o'zga millatga mansub kishilarga ham hurmat-ehtiram ko'rsatishni taqozo qiladi. Bunday tuyg'uga ega ma'n-y yetuk kishi milliylikni millatchilikdan, haqiqiy M.Q.ni mil-latparastlikdan farq qila oladi, boshqa millat vakillarining izzat-nafsi va g'ururini kamsitmaydi. Sobiq tuzum davrida M.Q.ni ifodalash millatchilik b-n tenglashtiri-lar edi. U tuzumda u yoki bu millatga mansublik b-n emas, balki ittifoq fuqaroligi b-n faxrlanish tavsiya etilar edi. Bu tuzumda ko'pchilik millatlarning M.Q.i toptal-gan, kamsitilgan edi. Mustaqillik kishilar M.Q. ini oshirib, uni xalq, Vatan, ajdod-lar xotirasi oldidagi mas'uliyatni his qilishdek mazmun b-n boyitmoqda. Bunday sharoitda Vatanimiz mustaqilligidan faxrlanish, mam-timizda ozod, farovon va erkin hayot qurish yo'lida faol mehnat qilish, jahon hamjam-ti yutuqlari, uni-versal texnologiyalardan foydalanish M.Q.ni oshiradigan omillardir. Bu esa, o'z navbatida, yurtdoshlarimizning kuchi, salohiyati, bunyodkorlik faoliyatini ko'p jihatdan belgilaydi, ularda sog'lom M.Q. tuyg'usini shakllantirish uchun tinmay izlanishga safarbar etadi.

**Milliy xavfsizlik** – davlatning ichki holati va xalqaro maydondagi mavqeyini tavsiflovchi tushuncha. Milliy xavfsizlik davlatning milliy manfaatlarini himoya qiladi, uning hududiy yaxlitligini ta'minlaydi, ichki nobarqarorlikning va boshqa davlatlar agressiyasining oldini oladi. Umumiy tarzda har bir davlatning milliy xavfsizligi siyosiy, iqtisodiy, harbiy, ekologik, axborot va b. xavfsizlik masalalarini o'z ichiga oladi. Milliy xavfsizlikning barcha yo'nalishlari bo'yicha masalalarni hal etish bilan malakaviy tarzda davlat xavfsizligining ixtisoslashtirilgan organ-lari shug'ullanadi. Mazkur organlar milliy xavfsizlikning asosiy subyektlaridan biri sifatida ish ko'radi, biroq ularni milliy xavfsizlikning yagona subyekti deb aytish mutlaqo noto'g'ridir. Ular bilan bir qatorda bu masalalarni hal qilishda davlatning barcha institutlari va fuqarolik jamiyatining subyektlari ishtirok eta-di. Milliy xavfsizlik deyilganda faqatgina davlat organlarining xavfsizligini emas,

balki birinchi navbatda, ayrim fuqarolarning, jamoat va siyosiy tashkilotlarning, etnik hamda ozchilikni tashkil etuvchi xalqlarning va boshqa shu kabilarning real xavfsizligi hamda huquqlarining kafolatini tushunmoq kerak. Industrial jamiyatlar sharoitida milliy xavfsizlikni ta'minlashning asosiy omillari sifatida mamlakatning harbiy-texnik salohiyati, tabiiy-iqtisodiy va geosiyosiy sharoitlari muhim rol o'ynasa, sanoati rivojlangan jamiyatlarda davlatning axborot tizimlari holati, fanning strategik muhim yo'nalishlari rivojlanganligi, aholining umumiy madaniy-ma'rifiy darajasi yuqoriligi, aholining ijtimoiy himoyalanganligi darajasi singari harbiy bo'lmagan omillarning ahamiyati ham ortadi. Hozirgi kunda O'zbekiston uchun milliy havfsizlikning ustuvor yo'nalishlarini terrorizm, diniy ekstremizm, fundamentalizm, narkotrafik bilan kurash, shuningdek, yadroviy, ekologik va axborot xavfsizligini ta'minlash tashkil etadi. Har qanday mamlakatning milliy xavfsizligi tizimi mintaqaviy va global xavfsizlik tizimlarining tarkibiy qismi sifatida amal qiladi. Milliy davlatlar, iqtisodiyotlar va madaniyatlar hozirgi zamonda o'zaro bog'liq ekanligi hisobga olinadigan bo'lsa, alohida olingan davlatning milliy xavfsizligi nafaqat ichki omillarga, balki tashqi omillarga ham, birinchi navbatda, global xavfsizlik holatiga bog'liq ekanligi ravshan bo'lib qoladi. O'zbekiston Respublikasi Milliy xavfsizlik Konsepsiyasi 1997-yil 29 – avgustda qabul qilingan.

**Milliy mafkura** – millatning etnoijtimoiy birlik sifatida mavjud bo'lishi va rivojlanishini, erkin va ozod taraqqiyotini g'oyaviy asoslash, ta'minlashga qaratilgan qarashlar tizimi. Ijtimoiy mafkura shakllaridan biri, muayyan millatning etnosotsial birlik sifatida mavjudligi va rivojlanishi, erkin va ozod taraqqiyotini asoslash, ta'minlashga qaratilgan g'oyaviy-nazariy qarashlar tizimi. M.m.ni faqat bir millat yoki xalqning mafkurasi deb tushunish to'g'ri emas. U muayyan davlat yoki jamiyatning umumiy mafkurasi ham bo'lishi mumkin. Milliy nafaqat muayyan etnik birlik, balki "davlat" ma'nosini ham ifodalash uchun xizmat qiladi. Mas., "milliy daromad", "milliy qurolli kuchlar" birikmalarida u aynan "davlat" so'zining ma'nodoshi sifatida ishlatilmoqda. Millat hududiy, iqtisodiy, siyosiy va etnik aloqalar (madaniyat, til, o'z-o'zini anglash) umumiyliigi zamirida yuzaga keladigan etnosotsial birlikdir. Shuning uchun ham M.m.ning ta'rifida ana shu xususiyat o'z ifodasini topgan. M.m.ning bunday xususiyati O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti I.Karimov asarlarida bildirilgan fikrlarda bevosita o'z ifodasini topgan. Uning mafkuraviy tahdidlar yuzasidan bildirgan mulohazalarini tahlil qilish asosida ham shunday xulosaga kelish mumkin. Zero, zo'ravon tuzumni yoki yangi bir ko'rinishdagi sobiq ittifoqni tiklash, tariximizni soxtalashtirish, turli g'ayriilmiiy talqinlar yordamida alohida o'zbek millati yo'q degan qarashni singdirishga harakat qilayotgan mafkuralar aynan bizning millat sifatida mavjudligimiz, rivojlanishimiz, jahon xalqlari o'rtasida o'zimizning munosib o'rnimizga ega bo'lishimizga qarshi qaratilgandir. "Lekin, biz o'zimizni hamisha mustaqil millat – o'zbek xalqi sifatida his etib kelganimiz va bu bilan faxrlanamiz. Bunga tarixiy, ilmiy, madaniy asoslarimiz bor", – deb yozadi O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti I.Karimov. (I.A. Karimov. O'z kelajagimizni o'z qo'limiz bilan qurmoqdamiz. T., O'zbekiston, 1999, 15-bet). Prezidentimiz tomonidan yaratilgan milliy istiqlol g'oyasi mamlaktimizning M.m.sining asosini tashkil qiladi.

**Milliy meros** – tarixiy tar-yotning o'tmishga aylangan bosqichida muayyan millatning ajdodlari aql-zakovati, qobiliyati va mehnati b-n yaratilgan barcha moddiy va ma'n-y boyliklar majmuyini ifodalovchi t.. Har bir millatning M.m.i o'sha millat tomonidan yaratilgan moddiy, ma'n-y va b. barcha turdagi merosni hamrab oladi. Ularning ba'zilari umumjahon xarakteriga ega bo'lsa, ba'zilari shu millat e'tiboridagi meros sanaladi. M.m. millatning tafakkuri, dahosi, dunyoqarashi, yaratuvchanlik salohiyatining mahsulidir. Ularsiz yaratilgan har qanday turdagi mavjudlik M.m. darajasiga ko'tarila olmaydi va tarixiy davr davomida yo'q bo'lib ketadi. M.m. millat tar-yotining turli tarixiy bosqichlarida vujudga kelib, millatning bevosita o'zi b-n bog'liq bo'lgan boylik hisoblanadi. Sh.u. ham u millatning o'z kelajagini yaratishda tayanch va tajriba manbai bo'lib xizmat qiladi. O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti I.Karimov ta'kidlaganidek: "Biz ... ajdodlarimizdan qolgan qadriyatlar va urf-odatlariga, nasl-nasabimiz va qonimizga singib ketgan buyuk hayotbaxsh kuchga egamiz. Bu boradagi ustunligimiz butun ma'rifiy dunyoda e'tirof etilgan. Ana shu qutlug' merosga munosib bo'lib yashash, bu beqiyos boylikni yanada boyitib-rivojlantirib, milliy o'zligimiz va umuminsoniy qadriyatlar asosida kelajagimiz binosini barpo etish muqaddas burchimizdir". M.m. quyidagilarda o'z ifodasini topadi: 1) milliy urf-o., an'ana, marosim, qadriyatlar; 2) dunyoqarash; 3) turli rasm-rusumlar; 4) dunyo ahamiyatiga ega bo'lgan kashfiyotlar; 5) millatdan etishib chiqqan allomalar va ular yaratgan asarlar; 6) davlatchilik; 7) milliy-madaniy boyliklar, tarixiy yodgorliklar va h.k.. Ularning har biri millat vakillari sa'y-harakatlari b-n a.lar davomida shakllantiriladi va keyingi avlodga meros sifatida qoldiriladi. Milliy urf-o., an'ana va qadriyatlar millat hayotining muayyan davrida uning kundalik turmushida yuzaga keladi. Ular avloddan avlodga o'tib, kundalik hayotda takrorlanib, millat vakillarining xatti-harakatlari, xulq-atvori va ko'nikmalarida o'z ifodasini topadi. Milliy an'analar millatning ko'p a.lik hayotida yuz beradigan turli tabiiy va ijt-y jarayonlar, etnoslarning ijt-y-ma'n-y ehtiyojlari asosida vujudga kelib, ularning aqliy-ijodiy faoliyati asosida, atrof-muhit, tabiat, mehnat jarayoniga bog'liq holda avloddan avlodga o'tib taraqqiy etgan va a.lararo ajdodlar fikri, orzu-o'ylari, tajribalari, yutuqlari va b. qadriyatlarini mujassamlashtirgan bebaho ijt-y-mad-y merosga aylangan. Milliy urf-o. va an'analarning uzoq muddat davomida nisbatan saqlanuvchanligi va ayni paytda, kundalik turmush hayotida takrorlanuvchanligi M.m.ning tarkibiy qismi bo'lishini ta'minlaydi. Ularning nisbatan uzoq vaqt amal qilishi, kundalik turmush va hayotda ko'p ishtirok qilishi millat birligini mustahkamlashga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Ular orqali millat vakillari o'zaro ma'n-y yaqinlashib boradi hamda boshqa millatlarga xos bo'lmagan, faqat o'zlariga xos bo'lgan, o'z zamoniga mos keladigan yangi-yangi urf-o. va an'analarni shakllantirib boradi. Milliy qadriyatlar millat ehtiyoji, manfaatlari, maqsadlariga xizmat qiladigan moddiy va ma'n-y ne'matlar majmuasini tashkil qiladi va M.m.ning tarkibiy qismi hisoblanadi. M.m.da millatga xos bo'lgan rasm-rusumlar ham muhim o'rin egallab, ular millat tarbiyasining ma'lum tizimida aniq urf-o., an'ana va qadriyatlarni shakllantirishga qaratilgan muayyan, ramziy, mas'uliyatli harakat hisoblanadi. Rasm-rusumlar – millat fe'l-atvorining aniq maqsadini ko'zlovchi normalarni shakllantirishning eng muhim vositasidir.

Ularning xarakterli xus-yati shundaki, u aniq maqsadni amalga oshirish tomon qilinadigan harakat bo'lib, urf-o., an'ana va qadriyatlar kabi shakllangan emas, balki shakllantirishga qaratilgan amaliy harakatlar majmuasini tashkil qiladi. M.m.ning dunyo ahamiyatiga ega muhim qismini tashkil qiluvchi fan, madaniyat, fal., texnika, texnologiya va b. sohalarida amalga oshirilgan kashfiyotlar, g'oyalar, asarlar yuksak intellektual ma'n-y salohiyat egalari bo'lgan al-Xorazmiy, Abu Rayhon Beruniy, Ibn Sino, Ahmad Farg'oniy, Mirzo Ulug'bek va sh.k. ajdodlarimiz tomonidan amalga oshirilgan. Bu kashfiyotlar, eng avvalo, o'zb. millatining M.m.idir. Dunyoga mashhur Samarqand, Buxoro, Xiva, Shahrisabz kabi shaharlar, ularda mujassam bo'lgan tarixiy obidalar, yodgorliklar, milliy hunarmandchilik, temirchilik, shaharsozlik, kiyim-kechak namunalari va h.k.lar shular jumlasidandir. Shunga ko'ra, M.m. millat tarixi salohiyati, kuch-qudrati va ayniqsa, kelajagining o'zga millatlar va jahon xalqlari ko'zguisida aks ettiruvchi asosiy vositalardan biri bo'lib xizmat qiladi va doimiy ravishda yangi davr xalqlari taassurotlarini shakllantiradi.

**Milliy munosabatlar** – millatlararo munosabatlarni anglatuvchi tushuncha. Ma'lumki, bugun jahonda mavjud 200 dan ziyod mamlakatlarda ikki mingga yaqin millat, elat va qabilalar yashaydilar. Ular 5 yarim mingdan ortiq tillarda so'zlashadilar. Bu tillarning 2000 tasidan ko'proqi o'z yozuviga ega emas. Milliy jarayonlarning eng xarakterli tomoni shundaki, insoniyat aql-zakovati yuksalgan sayin o'zaro "assimilyatsiyalashish" tomon emas, balki o'zlarining "men"ligini namoyish qilish, tasdiqlash sari jadal sur'atlar b-n harakat qilmoqda. Hali jahonda mavjud birorta millat, yoki elatlar ular eng kam sonli bo'lishlaridan qat'i nazar, ixtiyoriy ravishda boshqa millatlar bilan qo'shilib ketgan emas, aksincha ayrim millatlar qashshoqlikning og'ir kulfatlarini o'z boshlaridan kechirishga majbur bo'lsalar-da ozodlik, erkinlik kabi qadriyatlardan voz kechmaganlar. Ular ozod, mustaqil yashab, o'z urf-odat, an'ana va qadriyatlarini muqaddas bilib, fidoyilik ko'rsatib kelganlar. M.m. deganda turli millat va elatlarning iqtisodiy-siyosiy va madaniy-ma'rifiy sohalarida sodir bo'ladigan o'zaro aloqalar majmuyini tushunmoq kerak. Bunday aloqalar, ko'p millatlar yashaydigan ayrim bir mamlakat ichki hayotida yoxud turli mamlakatlarda yashaydigan millatlar o'rtasida amalga oshadi. Bugungi kunda jahonda aholisining tarkibi faqat birgina millatdan tarkib topgan mamlakatni yoki davlatni topish qiyin. Xuddi shuning uchun ham mamlakatlar, davlatlar o'rtasida amalga oshiriladigan turli sohalaridagi aloqalarda ularda yashayotgan millatlarning do'stona munosabatlari har qanday davlat taraqqiyotining muhim omili hisoblanadi. Ana shu omil qanchalik mustahkam bo'lsa, davlatlar o'rtasida olib boriladigan turli sohalaridagi aloqalar ham shu darajada mustahkam bo'ladi va har ikki tomon kutayotgan natijalarni beradi. Ko'p millatli mamlakatlarda M.m.ni uyg'unlashtirish shu mamlakatda barqarorlik va taraqqiyotning kafolati, uning istiqbolini ta'minlovchi asosiy omildir. Chunki har qanday davlatda milliy nizolar va ziddiyatlar o'sha davlatda barqarorlikning barbod bo'lishiga va oxir-oqibatda uning emirilishiga olib keladi. Shuning uchun ham, har qanday mamlakatda M.m.ni uyg'unlashtirib borish, davlat siyosatining eng ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida qaraladi. Sobiq sho'rolar tuzumining fojiasi shunda ediki, ular o'z manfaatlarini milliy manfaatlar hisobiga amalga

oshirib keldilar. Ya'ni, milliy omilning kuchi, qudratini nazar-pisand qilmadilar va sinfiy manfaatlarni qondirish orqali o'z hukmronligini abadiylashtirmoqchi bo'ldilar. Ular zo'ravonlik b-n turli millatlarni "yaqinlashtirish" orqali "yagona sovet xalqi"ni vujudga keltirish va keyingi bosqichda butun er yuzida bir yoki ayrim bir "Yuksak" millatlarni shakllantirish hamda ularning hukmronligini tashkil qilishni maqsad qilgan edilar. Ularning bu xatti-harakatlari sobiq sho'ro davlatini yemirdi va butun bir tuzumning barbod bo'lishini tezlashtirib yubordi. Albatta, bu jarayonda zo'ravonlikka asoslangan naz-ya va uning amalga oshirilishi asosiy omil bo'lganligini alohida ta'kidlash lozim bo'ladi. Ana shu zo'ravonlik millatlar hayotida yaqqol ko'zga tashlanib turdi. M.m.dagi ziddiyatlar va qarama-qarshiliklar ko'p millatli davlatda turli fojialarning yuzaga kelishiga, begunoh insonlarning qurbon bo'lishiga, juda katta miqdorda moddiy zararlarga olib keldi. O'zbekiston mustaqillik ni qo'lga kiritgach, bu borada ham ulkan yutuqlar qo'lga kiritildi.

**Milliy istiqlol mafkurasi** – millat va davlatning mustaqil rivojlanishini ta'minlashga qaratilgan g'oyaviy-nazariy qarashlar tizimi. U M.i.m. va amaliyotiga qarshi, ozodlikka intilish zarurati tufayli paydo bo'ladi. Milliy istiqlol g'oyasi O'zbekistonda yashovchi barcha millat va elat vakillarining tub manfaatlarini, xalqimizning asrlar mobaynida intilib kelgan orzu ideallarini, Olijanob maqsad – muddaolarini o'zida mujassam etadi. Xalqimiz asrlar mobaynida ezgu niyat qilib kelgan mustaqillik ni saqlash va mustahkamlash O'zbekistonning har bir fuqarosining muqaddas burchidir. Buning uchun barcha bir yoqadan bosh chiqarib, muqaddas ona-Vatanning hayotiy manfaatlarini yurakdan his etgan holda ularni ro'yobga chiqarish uchun faol harakat qilishi, kurashishi zarur. Bu jarayon xalqimizning manfaatlarini, ularni o'zida mujassam etadigan milliy g'oyani anglash b-n bog'liq holda kechadi. Vatan manfaati har bir fuqaro manfaatlari b-n uzviy bog'langan. Zero, Vatanning obodligi xalqning farovonligiga bog'liq. Fuqarosi badavlat mamlakatgina moddiy va ma'naviy to'kis bo'ladi. Shunday ekan, milliy istiqlol g'oyasining muhim tamoyillaridan biri inson qadr-qimmatini har tomonlama yuksaltirish, xalq farovonligini oshirishdan iborat. Bunga erishish uchun xalqimiz, yurtimiz fuqarolarining hamjihatligi va birdamligini mustahkamlash talab etiladi. Bu vazifa milliy M.i.m.ning mohiyatini tashkil etadi. M.i.m. har bir kishining jamiyat hayotidagi faoliyati, yurti, millati, o'zi va oilasi oldidagi burchi va mas'uliyatni qay darajada his etayotgani va bajarayotganini belgilaydigan ma'naviy mezon hamdir. M.i.m. quyidagi umumbashariy qadriyatlarini e'tirof etadi va ulardan oziqlanadi: qonun ustuvorligi; inson haq-huquqlari va hurfiylik; turli millat vakillariga hurmat va ular b-n bahamjihat yashash; diniy bag'rikenglik; dunyoviy bilimlarga intilish, ma'rifatparvarlik; o'zga xalqlarning ilg'or tajribalari va madaniyatlarini o'rganish. M.i.m.ning nazariy jihatlarini O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti I.Karimovning nutq va risolalarida atroflicha yoritib berilgan. M.i.m. O'zbekistonning mustaqillikka erishishi haqidagi siyosiy, ilmiy, nazariy, fal-y, tarixiy, qarashlar majmuyi, xalqni kelajakka ishonch, e'tiqod ruhida tarbiyalovchi g'oyaviy qurol, barcha toifa kishilarni shu maqsad yo'lida birlashtiruvchi g'oyat qudratli ma'naviy omil hisoblanadi. Shundan kelib chiqib, O'zbekistonning mustaqillikka erishishini tarixiy muqarrar jarayonligini ko'rsatish; yangi Konstitutsiyada qonunan maqsad

qilib qo'yilgan adolatli demokratik, fuqarolik jamiyat haqida ilmiy-nazariy qoidalarni ishlab chiqish zarur. Sho'rolar zamonida mafkura faqat sinfiy bo'ladi, u milliy bo'lishi mumkin emas, deb hisoblanar edi. Milliy mafkura xususida hatto so'z ham yuritilmas edi. Buning natijasida o'zbek millatining milliy ongi, dunyoqarashi, milliy g'ururi, iftixori anchagina sustlashtirib yuborilgan edi. Milliy mustaqillikka erishilgach, O'zbekiston hukumati tomonidan M.i.m.ning nazariy jihatdan ishlab chiqilishi, uni xalq orasida keng targ'ibu tashviq qilish, har bir fuqaro ongiga mustaqillik mafkurasining mazmun va mohiyatini singdirish, istiqloq yo'lga mos va xos o'zbek milliy mafkurasini ilmiy asosda yaratish kabi o'ta muhim va sharafli masalalar paydo bo'ldi. Adolat va haqiqat, erkinlik va mustaqillik g'oyalari hamda xalqimizning ishonch-e'tiqodini aks ettiradi. Yurt tinchligi, Vatan ravnaqi va xalq farovonligini ta'minlashga xizmat qiladi. Jamiyat a'zolarini, aholining barcha qatlamlarini O'zbekistonning buyuk kelajagini yaratishga safarbar etadi. Millati va dinidan qat'i nazar, fuqarolarimizning qalbida ona Vatanga muhabbat, mustaqillik g'oyalarga sadoqat va o'zaro hurmat tuyg'usini qaror toptiradi. Jamoatchilik qalbi va ongiga fikrlar xilma-xilligi, vijdon erkinligi tamoyillariga rioya qilgan holda ma'rifiy yo'l b-n singdiriladi. Milliy M.i.m.ning asosiy tamoyillari quyidagilarda namoyon bo'ladi: mamlakatning mustaqilligini mustahkamlash, uning hududiy yaxlitligi va sarhadlar daxlsizligini ta'minlashga yordam berish; qonunning ustuvorligi, demokratiya va o'z-o'zini boshqarishning hayotda mustahkam o'rin egallayotganiga asoslanganlik; milliy va umuminsoniy qadriyatlarining uyg'unligiga tayanish; xalqaro huquq qoidalariga mos kelish. M.i.m.ning asosiy sifatlari – uning mazmun-mohiyati, maqsad va vazifalari hamda namoyon bo'lish xususiyatlarida o'z aksini topadi. O'zaro uzviy aloqadorlikda namoyon bo'ladigan bu talablar quyidagilardan iborat: tarixiy xotirani uyg'otish, o'tmishdan saboq chiqarish va o'zlikni anglash mezonini bo'lish; xalqimizni tub maqsadlari ifodasi va jamiyat a'zolarini birlashtiruvchi g'oyaviy bayroq vazifasini o'tash; inson qalbi va ongiga ijobiy ta'sir etadigan tushuncha va tuyg'ular, go'zal va hayotiy g'oyalar tizimini o'zida mujassam etish; har bir fuqaroning ezgu niyatlarini ro'yobga chiqarishiga imkon beradigan eng maqbul yo'lni ko'rsata olish; millat, xalq va jamiyatni birlashtiruvchi kuch, yuksak ishonch-e'tiqodni manbaya bo'lish; O'zbekistonda yashovchi barcha xalq, millat, elat, ijtimoiy qatlam va din vakillariga birday taalluqli bo'lish; mamlakatimiz aholisi ongi va qalbida "O'zbekiston – yagona Vatan" degan tuyg'uni yuksak darajada shakllantirishga xizmat qilish; urli millat, qatlam, din vakillari, siyosiy partiya va ijtimoiy guruhlar mafkurasidan ustun turadigan sotsial fenomen – ijtimoiy hodisa mazmuniga ega bo'lish; biron-bir dunyoqarashni mutlaqlashtirmaslik yoki biron-bir kuch, partiya yoki guruh qo'lida siyosiy qurolga aylanmaslik; har qanday ilg'or g'oyani o'ziga singdirishi va har qanday yovuz g'oyaga qarshi javob bera olish; subyektivizm, volyuntarizm kabi illatlardan xoli va jamoatchilikning xolis fikriga tayanuvchi obyektiv mafkura bo'lish; so'z b-n ishni, nazariya b-n hayotni birlashtira olish; davr o'zgarishlariga qarab, o'zi ifodalaydigan g'oya, manfaat, maqsad-muddaolarni amalga oshirishning yangi-yangi vositalarini tavsiya eta olish, ya'ni yangicha vaziyatga tez moslashadigan hozirjavob va ijodiy bo'lish. Milliy istiqloq mafkurasida ana shu qayd etilgan sifatlarga ega bo'lgan



tahdirdagina jamiyat hayotida etakchi ma'naviy-ma'rifiy omilga aylanishi va kutilayotgan muhim vazifalarni bajara olishi mumkin. M.i.m.ning asosiy xususiyatlari – O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti I.Karimov tomonidan ko'rsatib berilgan bo'lib, "Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar" risolasida qisqa va muxtasar tarzda bayon qilingan. Ularning eng asosiy jihati – bu xususiyatlarning umuminsoniy mazmun-mohiyatida to'la-to'kis o'z aksini topgani b-n belgilanadi. Shu ma'noda milliy istiqlol mafkurasi: O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, milliy va umuminsoniy qadriyatlar, demokratiya tamoyillariga asoslanadi. Binobarin, u qonuniylikka, umume'tirof etilgan talablarga, umumbashariy tamoyillarga va milliy manfaatlariga mos keladi; xalqimizning asrlar davomida shakllangan yuksak ma'naviyati, an'ana va udumlari, ulug' bobokalonlarimizning o'lmas merosidan oziqlanadi. BM.i.m.ning bosh va asosiy g'oyasining asosiy g'oyalari xalqning mustaqil taraqqiyot yo'lidagi bosh g'oyasidan kelib chiqadi va o'zining ma'no-mohiyati, fal.si, jozibasi b-n bosh g'oyani millat qalbi va ongiga chuqurroq singdirishga xizmat qiladi. Vatan ravnaqiga xizmat qilmaydigan g'oya hech qachon milliy g'oya bo'lolmaydi. Jamiyatida tadbirkorlik, erkin iqtisodiy faoliyat keng rivojlanayotgani, davlat iqtisodiy qudrati ortayotgani, xalq ma'naviyati boyib, ilm-ziyo salohiyati yuksalayotgani Vatan ravnaqining asosi bo'ladi. Vatan ravnaqi avvalo uning farzandlari kamoliga bog'liq. Bu esa har bir shaxsni o'zining ma'naviy kamoloti uchun yuksak mas'uliyatni his etishga, o'z manfaatlarini shu yurt, shu xalq manfaatlari b-n uyg'unlashtirib yashashga da'vat etadi: yurt tinchligi – bebaho ne'mat, ulug' saodatdir, u barqaror taraqqiyot garovi. Tinchlikka qarshi kuchlar o'zlarining g'arazli maqsadlari, nafs balosi yo'lida bashariyatni hamisha nizo-adovat, urush va qirg'inlar domiga tortib kelgan. M.i.m.ning bosh va asosiy g'oyasining asosiy maqsadi – har tomonlama komil insonni tarbiyalashdir. Komil inson esa chuqur bilimli, ozod, erkin fikr qiluvchi ma'lumotga ega kishi; ijtimoiy hamkorlik xilma-xil fikr va qarashlarga ega bo'lgan, turli millat, irq va dinga mansub shaxs va guruhlarining umumiy maqsad yo'lidagi hamjihatligini ta'minlaydi. Natijada jamiyat tinchlik va totuvlikning, barqaror taraqqiyotning mustahkam kafolati vujudga keladi. Jamiyatni sun'iy ravishda bo'lib, turli qarama-qarshiliklarni keltirib chiqaradigan ta'limotlardan farqli o'laroq, ijtimoiy hamkorlik g'oyasi bu tabiiy rang-baranglikni milliy taraqqiyot manfaatlariga bo'ysindiradi; millatlararo totuvlik g'oyasi – umumbashariy qadriyat bo'lib, turli xalqlar birgalikda istiqomat qiladigan mintaqa va davlatlar milliy taraqqiyotini belgilaydi, shu joydagi tinchlik va barqarorlikning kafolati bo'lib xizmat qiladi. Bu g'oya bir jamiyatda yashab yagona maqsad yo'lida mehnat qilayotgan turli millat va elatlarga mansub kishilar o'rtasidagi o'zaro hurmat, do'stlik va hamjihatlikning ma'naviy asosidir; dinlararo bag'rikenglik (tolerantlik) g'oyasi – xilma-xil diniy e'tiqodga ega bo'lgan kishilarning bir zamin, bir Vatanda, olijanob g'oya va niyatlar yo'lida hamkor va hamjihat bo'lib yashashini anglatadi. qadim – qadimdan din aksariyat ma'naviy qadriyatlarni o'zida mujassam etib keladi. Dunyodagi dinlarning barchasi ezgulik g'oyalariga asoslanadi, yaxshilik, tinchlik, do'stlik kabi fazilatlariga tayanadi. Odamlarni halollik, poklik, mehr-shafqat, o'zaro bir-birini anglash, bag'rikenglikka da'vat etadi. Hoz. zamonda bu g'oya ezgulik yo'lida nafaqat dindorlar, balki

butun jamiyat a'zolarining hamkorligini nazarda tutadi. M.i.m.ning bosh g'oyasi – O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I.Karimovning asarlarida asoslab berilgan bo'lib, mamlakatimiz taraqqiyotining asosiy maqsad-mud-daolarini ifodalaydi. Ular "Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar" risolasida quyidagicha ta'riflangan: "O'zbekiston xalqining milliy taraqqiyot yo'lidagi bosh g'oyasi – ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot barpo etishdir. Bu g'oya xalqimizning azaliy ezgu intilishlari, bunyodkorlik faoliyatining ma'no-mazmunini belgilaydi. har bir inson uchun muqaddas bo'lgan Mustaqillik, Ozodlik, Vatan obodligi, shaxsning erkinligi va farovon hayot tushunchalari, Yuksak qadriyatlarni o'zida mujassam etadi. M.i.m. bosh g'oyasida ozodlik so'zining ustuvor va yetakchi o'rinda turishi mustaqillik barcha orzu-intilishlarimiz, amaliy faoliyatimiz va yoruh kelajagimizning asosi ekanidan dalolat beradi. M.i.m. bosh g'oyasi uzviy ravishda uning ma'no-mohiyatini to'ldiradigan, xalqimiz, jamiyatimiz hayotida haqiqiy bayroq bo'lishiga xizmat qiladigan, jamiyatimizning bugungi taqdiri va kelajagiga bog'liq bo'lgan tub manfaatlarimizni aks ettiradigan bir qancha g'oyalarni taqozo qiladi". M.i.m.ning ijtimoiy-iqtisodiy asoslari – mamlakatimizda ro'y berayotgan tub o'zgarishlar, hayotning barcha sohalaridagi islohotlar b-n uzviy bog'liqdir. **Milliy o'zlikni anglash** – millat yashayotgan Vatanning porloq istiqbolini ta'minlash uchun qanday imkoniyatlar va qulayliklarga ega ekanligini chuqur anglab etish, ular bilan cheksiz faxrlanish, mavjud imkoniyatlarni yuzaga chiqarish, real voqelikka aylantirish uchun o'zini safarbar etish, barcha imkoniyatlari, kuch g'ayratini ishga solish demakdir.

**Milliy ong** – har bir millat yoki elatning uzoq tarixiy taraqqiyoti, turmush tarzi, ma'naviy-diniy e'tiqodlari, mad-y rivoji jarayonida shakllangan dunyoqarashi, tafakkuri, e'tiqod va ishonch tuyg'ularini ifodalovchi tushuncha. M.o. alohida milliy muhitda sodir bo'ladi. Uning shakllanishiga tarix to'plagan bilimlar, siyosiy va huquqiy g'oyalar, san'at erishgan yutuqlar, axloq, din va ijt-y ruhiyat, umuman, jam-t ongi ta'sir ko'rsatadi. M.o. milliy ma'yatning tarkibiy qismi hisoblanadi va u oddiy his, tuyg'u emas, balki muayyan axloqiy, huquqiy, ilmiy, mafkuraviy qadriyatlarga asoslangan e'tiqoddur. M.o. shakllangan e'tiqodlar, maqsad va manfaatlar tizimi, milliy o'z-o'zini anglash esa shu tizimning shakllanish jarayonidir. Uning amaliy mazmuni va mohiyati ham millatning o'z-o'zini anglash darajasiga bog'liq. M.o. – milliy birlik va birdamlik tuyg'usi shakllanishining asosidir. M.o.ning bu xus-yati mustaqillik sharoitida yoshlarni tarbiyalashda ham muhim ahamiyatga ega. Milliy birlik, birdamlik – M.o.ning belgisi sifatida millatparvarlikni anglatadi. M.o.ning ana shu xus-yati tufayli insonda mas'uliyat tuyg'usi shakllanadi. U o'zining ma'lum millat vakili ekanligini his etgan holda, uning manfaatlarini ongli ravishda himoya qiladi va shu yo'lda fidoyilik namunalari ko'rsatadi. Millatparvarlik va mas'uliyat tuyg'usi kuchli bo'lgan insongina millatning ravnaqi va istiqboli yo'lida olib borayotgan faoliyatida ezgu maqsadlariga erishadi. Ana shunday xus-yatlarga ega insonlarga ehtiyoj kuchaygan hoz. davrda M.o. aholi, ayniqsa, yoshlarda millatparvarlik va mas'uliyat tuyg'usini yanada kamol toptirishga imkon beradigan asosiy omillardan biriga aylanmoqda.

Milliy qadriyatlar – muayyan millatning tabiiy, tarixiy va ijt-y riv-sh jarayoni-

da yaratgan moddiy va ma'n-y boyliklari, u yashayotgan hudud, mad-y meros, milliy mad-t, til, milliy ong, millat tarixi, o'tmishi, turmushi va yashash tarzi, uni hayotining tartib-qoidalari hamda bu b-n bog'liq milliy xus-yatlar majmuyini ifodalaydigan t.. U umuminsoniy qadriyatlar tizimida millatga xos eng umumiy jihatlarni aks ettiradi. Millat o'z qadriyatlarini vujudga keltirib, ularning yangi-yangi qirralari va jihatlarni say?allashtirib, tar-yot jarayonida takomillashtirib turishi ma'nosida o'z qadriyatlarining haqiqiy egasi, makon va zamondagi ilgari-tilanma harakatdan iborat o'zgarishlar jarayonida ularni o'tmishdan kelajakka tomon etkazib beradigan eng asosiy obyektidir. har bir xalq yoki millat, o'ziga xos rang-barang qadriyatlarni takomillashtirib borishi natijasida, umuminsoniy qadriyatlarni shakllantirib, uning qirralarini rivojlantirib boradi.

**Milliy-madaniy markazlar** – muayyan bir millat vakillarining milliy-mad-y ehtiyojlarini qondirishga xizmat qiluvchi jamoat tashkilotlari. O'zRda yashovchi turli millat vakillarini respublika ijt-y, ma'n-y-ma'r-y hayotida faol ishtirok etishini ta'minlash M.m.m. faoliyatining muhim yo'nalishlaridan biridir. M.m.m. turli jamiyat, xalq, millatlar o'rtasida har tomonlama hamkorlik ma'-yatini shakllantirish, xalqlarning o'zaro ishonch va hurmatini oshirish maqsadlariga xizmat qiladi. Shu jihatdan ular tomonidan olib boriladigan ishlar ko'proq mad-y va ma'n-y yo'nalishda bo'lib, bu jahon xalqlari integratsiyasida muhim omillardan biri bo'lib hisoblanadi.

**Milliy ruhiyat** – millatning ichki ruhiy holati, kechinmalari, his-tuyg'ulari, ma'n-y dunyosi, o'y-fikrlari, maqsad va maslaklari hamda kayfiyatlari majmuyini ifodalovchi t.. M.r. uzoq tarixiy davr mobaynida shakllangan jarayon bo'lib, u millat tar-yotida hayotbaxsh manba bo'lib xazmat qiladi. Millat tar-yotida ma'n-y va moddiy omillar zarur va shartligi kabi M.r. ham muhim ahamiyatga ega. Shu bois ham mustaqil davlatimizni taraqqiy qilgan davlatlar qatoriga olib chiqishda M.r.ning tutgan o'rni beqiyosdir. M.r.ning o'ziga xos xus-yatlarini bilish ayni vaqtda jam-tda mavjud bo'lgan qator muammolarni hal qilishga, millat ijt-y-siyosiy hayoti jarayonlarini o'ziga xosligini aniqlash va ularga to'g'ri mun-tda bo'lishga imkon yaratadi. Bugungi istiqloq davridagi islohot va o'zgarishlar tufayli xalqimizga xos M.r. inson va jam-t tar-yotida hal qiluvchi kuchga aylanib, mam-timiz hayotini sifat jihatidan o'ziga xos tarzda o'zgartirish imkoniga ega bo'ldi. O'zb. xalqining milliy ruhiyati – yetuk M.r. sifatida, tarixning ko'plab sinovlarini ortda qoldirib kelajak uchun, millat ravnaqi uchun muhim ahamiyat kasb etgan omil bo'lib kelmoqda. Sobiq ittifoq davrida M.r. hisobga olinmay, millatlarning o'ziga xosligi oyoqosti qilindi. M.r.ni so'ndirib, manqurtlarcha tasavvur shakllantirish, mute'likka o'rgatish ham chorizm, ham sobiq ittifoqning siyosiy dasturlaridan asosiy o'rin egalladi. M.r.ni mazmunan va shaklan boyitish, uning namoyon bo'lish imkoniyatlarini oshirish va shu tariqa umuman M.r.ni yangi poqonaga ko'tarish – mustaqillik ning eng muhim va dolzarb vazifalaridan biridir.

**Milliy o'zlik** – shaxs faoliyatida muhim o'rin tutib, shaxs va jamiyatning ma'naviy kamolotida, fuqarolik jamiyatining moddiy-ma'naviy asoslarini mustahkamlashda ulkan ahamiyatga ega. O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.A.Karimov jamiyatdagi ruhiy-ma'naviy jarayonlarga baho berib: – O'zbekiston aholisining ko'p millatligi o'zbek xalqining milliy o'zligini anglashi va ma'naviy

qayta tiklanishining o'sishi bilan chambarchas bog'liq holda jamiyatni yangilash, uni demokratlashtirishga undovchi zo'r kuch bo'lib xizmat qilmoqda, – degan edi. Darhaqiqat, jamiyatdagi ma'naviy tiklanish milliy o'zlikning sifatli jihatlari bilan chambarchas bog'liq. Zero, o'zlikni anglash tufayli inson o'tmishini xotirlaydi, buguni bilan taqqoslaydi, xulosa chiqaradi va shu asosda kelajakka nihoh tashlaydi. Ya'ni o'zlikni anglash insonni shaxs darajasiga ko'tarib, ma'naviy kamolot sari yetaklaydigan ruhiy kuchdir. Ana shu jihatlardan bevosita jamiyatning ma'naviy rivojida o'ziga xos ahamiyatga ega bo'ladi.

**Milliy qahramon** – muayyan millatga, xalqqa mansub bo'lgan shaxsning o'sha millat manfaatlarini uchun fidoyilik namunalari ko'rsatishi ma'nosini anglatadi. Agar qahramon, qahramonlik tushunchalari mardlik, dovyuraklik bilan biror yumushni bajarib, hamma odamlar ham qila olmaydigan ishni uddasidan chiqara olish, boshqalarga nisbatan alohida iqtidor va imkoniyatlarni namoyon eta bilish bo'lsa, milliy qahramon so'zi millat manfaatlarini uchun amalga oshirilgan ulkan ish ma'nosini ifodalaydi. Demak, milliy qahramon tushunchasi bu bir millatga mansub bo'lgan holda ana shu millatning obodligi, hurriyati, ravnaqi, shon-shuhrati, farovonligi va istiqboli yo'lida alohida va favqulodda katta xizmatlar ko'rsatgan, hatto o'z xalqi uchun jonini fido qila olgan shaxslarga nisbatan qo'llanadigan iboradir.

**Milliy siyosat** – davlat tomonidan milliy munosabatlar sohasida amalga oshiriladigan, milliy manfaatlarini ro'yobga chiqarishga, milliy qarama-qarshiliklarni hal etishga qaratilgan, har tomonlama asoslangan chora-tadbirlar tizimi. Milliy siyosat – davlatning muayyan siyosiy hujjatlari va huquqiy qoidalarida aks ettirilgan, millatlar va elatlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni tartibga soluvchi maqsadli faoliyat. Milliy siyosat hozirgi zamonning murakkab sharoitlarida quyida keltiriladigan ilmiy asoslangan prinsiplar negiziga quriladi. Milliy siyosatning asosiy qoidalaridan hisoblangan birinchi prinsip xalqlarning teng huquqligi, o'zaro manfaatli hamkorlik, barcha xalqlarning manfaatlarini va qadriyatlarini o'zaro hurmat qilish, shovinizmga nisbatan murosasizlik va boshqa shu kabildan iboratdir. Ikkinchi prinsip – milliy-davlat tuzilmalari hududiy chegaralarining barqarorligi. Uchinchi prinsip – iqtisodiyot, siyosat, ma'naviyat sohasidagi va milliy sohadagi islohotlarning o'zaro bog'liqligi hamda birgalikda qilishini hisobga olish. Iqtisodiyot va iste'mol bozorining normal amal qilishi, pul muomalasi, respublikalararo muvozanatlashtirilgan ayribosh – milliy munosabatlarning negizidir. To'rtinchi prinsip – milliy siyosatning yaxlitligini, barcha tarkibiy qismlari o'zaro bog'liq ekanligini inobatga olish. Bozor munosabatlarining rivojlanishi, xo'jalik yuritish va mehnatga haq to'lashdagi, kadrlar siyosatidagi, ma'naviy hayotdagi, ommaviy axborot vositalarining ishidagi o'zgarishlar har bir insonning sha'ni va qadr-qimmatini hurmat qilishga qaratilishi kerak. Beshinchi prinsip – kam sonli xalqlarga o'z iqtisodiyotini, madaniyatini rivojlantirishda, yashash muhitini saqlashda yordam berish. Oltinchi prinsip – millatlararo munosabatlar etikasini shakllantirish, kuch ishlatishning, adolatsizlikning barcha shakllariga barham berish.

**Milliy xavfsizlik** – "Milliy xavfsizlik" atamasi ilk marotaba siyosiy lug'atga AQSH prezidenti T.Ruzvelt tomonidan 1904-yilda kiritilgan bo'lib, keyinchalik

mazkur tushunchaning mazmun doirasi ijtimoiy munosabatlar, globallashuv va integratsiya jarayonlari, shuningdek, xilma-xil ko'rinishdagi tahdid va tahlikalarni izohlash bilan uzviy bog'liq ravishda kengayib bordi. Bugungi kunda mamlakat hayoti uchun xatarli bo'lgan har qanday muammo milliy xavfsizlikka tahdid sifatida baholanishi mumkin. Milliy xavfsizlikni ta'minlash sohasidagi davlatimiz siyosati mamlakat va butun dunyodagi vaziyatning, Konstitutsiyada belgilangan, hozirgi davrning alohida xususiyatlari, jug'rofiy-siyosiy omillar, Markaziy Osiyodagi vaziyatning va tashqi siyosatdagi xalqaro huquqning umume'tirof etilgan prinsiplari va normalaridan kelib chiquvchi ustuvor vazifalarning chuqur, har tomonlama tahlilini hisobga olgan holda yuritiladi. Milliy manfaatlarni turli ko'rinishdagi ichki va tashqi tahdidlardan kafolatli himoya etish milliy xavfsizlikning mazmun-mohiyatini tashkil etadi. Milliy xavfsizlikning obyekti inson – uning huquq va erkinliklari; jamiyat – uning ma'naviy va moddiy boyliklari; davlat-uning konstitutsiyaviy tuzumi, suvereniteti va hududiy yaxlitligi. Davlat faoliyatida siyosiy fikrlar xilma-xilligi, demokratik huquq va erkinliklarni, inson va jamiyat manfaatlarini himoya qilishga, ijtimoiy adolat va qonuniylikni, ijtimoiy-siyosiy barqarorlik, millatlararo totuvlik va hokazolarni ta'minlashga qaratilgan konstitutsiyaviy prinsiplar hamda normalarning barchasi siyosiy xavfsizlikni ta'minlash institutini tashkil etadi.

**Milliy xavfsizlik Konsepsiyasi** – davlatning qadriyatlarini va manfaatlarini, bu qadriyatlar va manfaatlar uchun mavjud tahdidlar hamda ularni amalda mavjud va yuzaga kelishi mumkin bo'lgan xavflardan himoya qilish usullari borasida rasmiy qabul qilingan qarorlar tizimi. Milliy xavfsizlik masalasidagi davlat siyosati va uning uzoq yillarga mo'ljallangan strategiyasi ilk bor mamlakat Oliy Majlisining 1995-yil 24-fevralda bo'lib o'tgan birinchi sessiyasida O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti I.Karimov tomonidan aniq va batafsil yoritib berildi. Unda jahonda yuz bergan yangi siyosiy-iqtisodiy voqealardan so'ng, davlatlararo munosabatlar muxoliflikka emas, balki xalqaro huquqiy me'yorlarga mos yangi tartibotga asoslangan bo'lishi kerakligi to'g'risidagi g'oya ilgari surildi. Milliy xavfsizlikning keng qamrovli konsepsiyasini ishlab chiqish, uning huquqiy asosini belgilovchi qonunlar yaratish zarurligi ko'rsatib berildi. Ana shu ko'rsatmalardan kelib chiqib mamlakatimizda ilk marta 1996-yil 24-aprelda Oliy Majlisning beshinchi sessiyasida ma'qullangan to'rt bo'lim, yigirma sakkiz moddan iborat bo'lgan «Milliy xavfsizlik to'g'risida»gi Qonun loyihasi muhokama qilindi. Milliy xavfsizlik tizimini shakllantirish, milliy xavfsizlikni ta'minlash borasidagi vazifalar va ularni amalga oshirish prinsiplarini huquqiy normalarda belgilab beradigan, butunlay yangicha hujjat sifatida ko'rib chiqildi. 1997-yil avgust oyida Oliy Majlisning IX sessiyasida O'zbekiston Respublikasining Milliy xavfsizlik konsepsiyasi qabul qilindi.

**Mintaqaviy xavfsizlik** – jahonning u yoki bu mintaqalaridagi mamlakatlarda o'rtasidagi munosabatlar tizimi bo'lib, bunda davlatlar iqtisodiy, siyosiy va madaniy rivojlanish shakllari hamda yo'llarini o'zlari mustaqil tanlash imkoniyatini qo'lga kiritadilar, urushlardan, iqtisodiy va siyosiy qo'poruvchiliklardan, shuningdek, o'z ichki ishlariga tashqaridan bo'ladigan aralashuvlardan holi bo'ladilar. Mintaqaviy xavfsizlik xalqaro xavfsizlikning tarkibiy qismi va milliy

xavfsizlikni amalga oshirish shakli. BMT Ustaviga ko'ra uning maqsadlari va tamoyillariga zid kelmagan mintaqaviy bitimlar va institutlarni tuzishga ruxsat etiladi. Mamlakatlarning mintaqaviy guruhlariga birlashuvi, qoida tariqasida, ixtiyoriy asosda, tinchlik maqsadlarini ko'zlagan holda amalga oshiriladi. Hozirgi dunyo yaxlit va o'zaro bog'liq ekanligiga qaramay, mintaqaviy xavfsizlikka bo'lgan zarurat va bundan kelib chiqadigan o'ziga xos jihatlari, uning madaniy-tarixiy, iqtisodiy va siyosiy jihatdan xilma-xilligida mujassam bo'lgan. Geosiyosiy farqlar va xalqaro mehnat taqsimoti mintaqadagi mamlakatlarning harbiy, siyosiy va iqtisodiy manfaatlari uyg'unligini keltirib chiqaradi. Bu ularning harbiy-siyosiy, siyosiy-iqtisodiy ittifoqlarga, tashkilotlarga (NATO, MDH, YI, KXShT va boshqa shu kabilar) birlashishlariga sabab bo'ladi. Manfaatlardagi uyg'unlik shuningdek, davlatlararo shartnomalar va bitimlarda ham aksini topadi (masalan, yadro qurolidan ozod hududlar tuzish to'g'risidagi shartnomalar). Hozirgi dunyoda mintaqaviy xavfsizlikning bir qator an'anaviy tizimlari, masalan, Kollektiv xavfsizlik to'g'risidagi shartnoma mamlakatlari tashkiloti (KXShT), Yevropada xavfsizlik va hamkorlik tashkiloti (YEXHT), Shanxay hamkorlik tashkiloti (SHHT), Afrika birligi tashkiloti (ABT), Janubi-Sharqiy Osiyo davlatlari Assotsiatsiyasi (ASEAN) va shu kabi boshqa tashkilotlar faoliyat olib bormoqda. O'zbekiston tashabbusi bilan BMT va SHHT Kotibiyatlari o'rtasida hamkorlik to'g'risidagi qo'shma deklaratsiya (2010-yil aprel) mintaqaviy taraqqiyot va xavfsizlikni mustahkamlashga ko'maklashadi.

**Mintaqaviy mojarolar** – mintaqaviy mojarolar mavjud sotsial tartib va xalqaro munosabatlar rivojlanishida krizisning o'ziga xos ko'rinishi.

**Miting** – qandaydir masalani hal etish, yechimini topish uchun chaqirilgan yig'in. Uning maqsadi munozara emas, odamlarni amaliy harakatga o'tishlari uchun ruhan tayyorlash.

**Mobillik** – (lot. harakatchan) stratifikatsiya nazariyalarida shaxs va guruhlarning maqomi o'zgarishi bilan bog'liq ko'chishlar. Vertikal va gorizontal mobillik ajratiladi.

**Model** – fran. modele-namuna, tarx, nimanidir tasviri tavsifi.

**Modernizatsiyalash** – fran. modernizer-zamonaviy; zamonaviylashtirish, hozirgi davr talablari, tarzi va didiga mutanosib ravishdagi o'zgarishlarni amalga oshirish.

**Modernizatsiya** (frans. *moderne* – hozirgi zamon) – an'anaviy turdagi jamiyatdan industrial jamiyatga o'tish jarayoni. Modernizatsiya konsepsiyalari qaror topishi va rivojlanishining asosiy bosqichi XX asrning 50–60-yillariga to'g'ri keladi. Bu davr Modernizatsiya nazariyalari mualliflari orasida jamiyatning to'g'ri chiziqli rivojlanishi g'oyasi hukmron bo'lgan. Ayrim davlatlar o'z rivojlanishida boshqa davlatlardan orqada qoladi, biroq ular mazmuniga ko'ra boshqa davlatlar bosib o'tgan Modernizatsiyalash yo'lini bosib o'tadilar, deb hisoblanadi, ya'ni G'arb tizimi va madaniyati yo'lini. Shuning uchun modernizatsiya mohiyati vesternizatsiya (ing. *west* – g'arb), ya'ni hayotning turli sohalariga G'arb andozalarini ko'chirish jarayoni sifatida tushunilgan. Biroq, XX asrning 80-yillariga kelib tadqiqotchilar bu bir tarafflama va tor talqindan voz kechib, G'arb sivilizatsiyasi taraqqiyoti yo'li hamma uchun ham birdek maqbul (universal) emas, degan fikrga keldilar. Hozirgi vaqtda tadqiqotchilar va siyosatchilar modernizat-

siyoning ustuvor maqsadi transformatsiyalashayotgan jamiyatlarning taraqqiy topgan jihatlarini saqlagan holda ijtimoiy-iqtisodiy va texnologik yangiliklarni hayotga joriy etishdan iborat, degan fikrni borgan sari ko'proq bayon qilmoqdalar.

Modernizatsiyalash jarayonining (ko'proq yoki ozroq darajada universal tusga ega bo'lgan) natijalari sifatida quyidagilarni keltiradilar:

– iqtisodiyot sohasida: kapital, bozor munosabatlari va texnika yutuqlaridan foydalanishga asoslangan industrial texnologiyalar va texnika yutuqlarini ishlab chiqarishga joriy qilish; iqtisodiyotning rivojlangan sanoat sektorini vujudga keltirish va xizmatlar sohasini shakllantirish;

– ijtimoiy sohada: ijtimoiy munosabatlarda tabaqalashuv elementlariga barham berish, ya'ni tenglik o'rnatish; ayrim individlarning ongi va mustaqilligining o'sishi; yuqori ijtimoiy harakatchanlik va ijtimoiy raqobatga asoslangan jo'shqin rivojlanuvchi jamiyatga o'tish;

– siyosat sohasida: sertarmoq siyosiy tizimni yaratish va uning institutlarini vazifalar bo'yicha ixtisoslashtirish; fuqarolarni siyosatga jalb etishni muntazam kengaytirib borish; davlat va fuqarolik jamiyati tuzilmalarining huquqiy xarakterini qaror toptirish;

– ma'naviyat sohasida: ta'lim va ilmiy muassasalar tizimlarini rivojlantirish; g'oyaviy serqirralikni (plyuralizmni) qaror toptirish; ommaviy axborot vositalarini rivojlantirish va boshqa shu kabilar.

**Modernizatsiya (siyosiy modernizatsiya)** – jamiyat siyosiy tizimining zamon talablari va ehtiyojlaridan kelib chiqib davlat va jamiyat o'rtasidagi munosabatlarni zamonaviylashtirish, demokratik asoslarini kuchaytirish va fuqarolik jamiyati rivoji uchun maqbul siyosiy mexanizmlarni vujudga keltirish maqsadlarini amalga oshirishni anglatadi.

Siyosiy modernizatsiyaning XX asr ikkinchi yarmida shakllangan konservativ va liberal yo'nalishlari bilan bir qatorda jamiyatning izchil siyosiy barqarorligini o'zida namoyon etuvchi yangi tipdagi demokratik modernizatsiya rivojlandi. Siyosiy modernizatsiyaning liberal yo'nalishi vakillari fikricha jamiyat demokratlashuvining chuqurlashib borishi modernizatsiyaning ustuvor asosi bo'lib, u zamonaviy suveren davlatni tashkil etilishi; differensiyalashgan siyosiy tizimning tashkil etilishi; qonunchilikni va qonun ustuvorligini amalga oshirishda davlatning rolini oshirilishi; jamiyat siyosiy hayotida fuqarolar siyosiy ishtiroki va faolligini yuksaltirilishi; siyosiy modernizatsiyaga xizmat qiluvchi siyosiy elita vakillari faoliyatining kuchaytirilishi qabilarda namoyon bo'ladi.

**Monandlik** – fuqaroning o'zini biror guruh, qatlam, sinf, millatga mansubligini idrok etishi (shu ma'noda: milliy monandlik, kasbiy monandlik). Monandlik ijtimoiy guruh va fuqarolarning jamiyatdagi o'z o'rni, roli, ahamiyati to'g'risidagi tasavvurlar bilan bog'liq. Zamonaviy jamiyatlarning murakkablashib borishi va ularda odamlar bajaradigan ijtimoiy va siyosiy rollarning murakkablashib, ko'payib borishi monandlik masalalariga e'tiborni kuchaytirgan (qarang: identifikatsiya).

**Monarxiya** – (gr. yakka hokimlik) boshqaruv shakli. Unda hokimiyat manbai va hokimiyatning oliy timsoli bir shaxs bo'ladi, bu shaxs o'z hokimlik va kolatlarini meros tariqasida olgani tufayli uning hokimiyatga kelishi aholi xo-

hish-irodasiga bog'liq bo'lmaydi. Davlat boshlig'i o'z hokimiyatini vorislik asosida taxtni egallash orqali egallaydi. Monarxiyalarning ikki ko'rinishi mavjud: absolyut monarxiya va konstitutsion monarxiya. **Absolyut monarxiyalarda** oliy hokimiyatdagi ijro va qonunchilik funksiyalari to'raligicha davlat boshliqlari qo'lida mujassam bo'ladi (Saudiya Arabistoni, Omon, Qatar). Absolyut monarxiyalar O'rta asrlarda keng tarqalgan edi. **Konstitutsion monarxiyalarda** davlat boshlig'ining oliy hokimiyati avvalo Konstitutsiyalar bilan va ular asosida qonunchilik hokimiyati vakolatlari bilan cheklangan bo'ladi. Ular uchun davlatda parlament instituti mavjudligi xos. Konstitutsion monarxiyalar o'z navbatida ikki ko'rinishga ega: dualistik va parlament monarxiyalari. **Dualistik monarxiyalarda** monarx asosan ijro vakolatlariga ega, lekin qisman qonunchilik vakolatlarini ham amalga oshiradi (Iordaniya, Quvayt, Bahrayn, Marokash). Undagi parlament rasman qonunchilik vakolatlarini bajaradi, lekin bu vakolatlar davlat boshlig'ining jiddiy nazoratida bo'ladi: monarx parlament deputatlarini tayinlashi, parlamentni tarqatib yuborishi mumkin, shuningdek qabul qilingan qarorlarga veto huquqiga ega. Bu esa dualistik monarxiyalarda parlament amalda siyosiy rolga ega emasligini ko'rsatadi. **Parlament monarxiyalarida** davlat boshliqlari asosan davlatni xalqaro maydonda taqdim etish, arbitraj (hakamlilik), davlat timsoli sifatida chiqish va jamiyatni birlashtirish vazifalarini bajaradilar va siyosiy qarorlar qabul qilish jarayoniga deyarli aralashmaydilar. Parlament monarxiyalaridagi eng nufuzli siyosiy institut – parlament bo'lib, u hukumatni shakllantiradi, jamiyat oldida butun siyosiy mas'uliyatni o'z bo'yniga oladi (Buyuk Britaniya, Ispaniya, Shvetsiya).

**Mondializm** – (fr. dunyo) barcha davlatlar va xalqlarning birlashib, irqiy, diniy, etnik, milliy va madaniy farqlarni yo'qotuvchi, Jahon Hukumati tomonidan boshqariluvchi tuzilmaga birlashishni asoslovchi mafkura.

**Monitoring** – (Inglizcha – "tekshirib turish, nazorat etish") – ma'lum bir hodisa yoki jarayonning holatini kuzatish, baholash va taxminlash (prognoz) tushuniladi. Monitoring kundalik turmushning barcha jabhalarida qo'llaniladi. Monitoring bozor iqtisodi va bozor munosabatlari mexanizmining samarali nazorat vositalari va muhim jihatlaridan biri bo'lib, undan foydalanish shakllari va uslublari barcha tadbirkorlar, ishbilarmonlar va bu sohaga aloqasi bor hamma kishilar tomonidan o'rganilishi va o'zlashtirilishi kerak.

**Moliya bozori** – banklar hamda boshqa kredit, sug'urta va o'zga moliya tashkilotlari tomonidan ko'rsatiladigan moliyaviy xizmatning, shuningdek, qimmatli qog'ozlar bozori professional ishtirokchilari xizmatlarining O'zbekiston Respublikasi hududidagi yoki uning bir qismidagi muomala doirasi bo'lib, u O'zbekiston Respublikasining ma'muriy-hududiy bo'linishiga mos kelmasligi mumkin va mazkur muomala doirasi chegaralarida bunday xizmatni ko'rsatish imkoniyati mavjud bo'ladi;

**Monokratiya** – (gr. yakka hokimiyat) monarxning o'zi.

**Monopoliya** – (gr. bir o'zim sotaman) – iqtisodiyotning biron bir sohasida tanho hukmronlik. Monopoliya ishlab chiqarish vositalari, ish kuchi va yaratilgan mahsulotlar asosiy qismining ozchilik korxonalar, sohibkor shaxslar yoki davlat qo'lida to'planishi natijasida paydo bo'ladi. Monopoliya ko'rinishlari qadimdan



mavjud: noyob mahsulot yetishtiriladigan yerlar, konlar, suv havzalari, o'rmonlar va boshqa tabiiy manbalar ozchilik qo'lida to'planib, egalariga monopol mavqe bergan, ular ma'lum mahsulotni bozorga tanho etkazib beruvchilarga aylanib, u erda hukmron bo'lganlar, xaridorlarga o'z shartini qo'yib, tovarlarni yuqori bahoda sotib xaridorlar hisobidan ortiqcha daromad ko'rganlar. Monopoliya bozor munosabatlarini cheklaydi, shu sababli har bir davlat antimonopol chora-tadbirlarini ko'radi. O'zbekiston Respublikasining tabiiy monopoliyalar to'g'risida qonuni 1999-yil 19 – avgustda qabul qilingan.

**Monoteizm** – (yun. monas – yakka, theos – xudo) – yakka xudolik. Dastlab ruhlar, fetishlar, totemlar va h.k.larga e'tiqod va sig'inish ko'rinishida namoyon bo'lgan bu dinlar kishilik jamiyati tarixida millatlar shakllanayotgan davrda ilohlarga sig'inish ko'rinishini ola boshlagan. Dastlab tabiat va jamiyatda sodir bo'ladigan hodisalarning har biri o'z ilohlari tomonidan boshqarilishiga ishonch-e'tiqod vujudga kelgan (mas., qad. yunonlarda, hindlarda va h.k.). Keyinchalik barcha xudolarga xos bo'lgan xususiyatlar yakka xudoga nisbat berila boshlagan va natijada yagona xudo yoki ilohga e'tiqod shakllangan.

**Muhojirlar** – (ar. ko'chib kelganlar) o'z vatanidan butunlay yoki ma'lum muddatga iqtisodiy, siyosiy, boshqa sabablarga ko'ra ixtiyoriy yoki majburiy chiqib ketgan fuqarolar.

**Muassasa** – ijtimoiy, madaniy va boshqa notijorat tuzdagi vazifalarni amalga oshirish uchun jismoniy va (yoki) yuridik shaxslar tomonidan tuzilgan nodavlat notijorat tashkiloti muassasa deb e'tirof etiladi.

**Muxolifat** – yangitdan shakllantirilgan hukumatning tutgan yo'li va dasturiga yoki uning ayrim yo'nalishlariga qo'shilmaydigan, o'zlarini muxolifat deb e'lon qilgan siyosiy partiyalar fraksiyalari, shuningdek O'zbekiston ekologik harakatidan saylangan deputatlar. O'zini parlamentdagi muxolifat deb e'lon qilgan siyosiy partiya fraksiyasi qonunda fraksiyalar uchun nazarda tutilgan va-kolatlar bilan bir qatorda huquqlarga ham ega. Parlamentdagi muxolifatning qonun bilan kafolatlangan huquqlari parlamentdagi ko'pchilik tomonidan kam-sitilishi mumkin emas.

**Mulk** – yer, yer osti boyliklari, suvlar, havo bo'shlig'i, o'simlik va hayvonot dunyosi hamda boshqa tabiiy resurslar, korxonalar, ashyolar, shu jumladan, binolar, kvartiralar, inshootlar, asbob-uskunalar, xom ashyo va mahsulot, pul, qimmatli qog'ozlar va boshqa mol-mulk, shuningdek, intellektual mulk obyektlari. Mulk daxlsizdir va qonun bilan qo'riqlanadi. Mulkning daxlsizligi mulkdorga qarshi turgan barcha subyektlarning mulk huquqini buzishdan o'zlarini saqlashlaridan iboratdir. Mol-mulk mulk huquqi asosida bir shaxsga yoki ikki va undan ortiq shaxslarga qarashli bo'lishi mumkin. Mol-mulk fuqaro, yuridik shaxs yoki davlatning mulki bo'lishiga qarab mulk huquqini, mol-mulkka egalik qilish, undan foydalanish hamda uni tasarruf etish huquqini vujudga keltirish va bekor qilish xususiyatlari qonun hujjatlari bilan belgilab qo'yiladi. Mulk huquqi muddatsizdir. O'zbekiston Respublikasining qonuni O'zbekiston Respublikasida mulkchilik to'g'risida 1990-yil 31 – oktyabrda qabul qilingan.

**Mulkdor** – mol-mulkka o'z ixtiyoriga ko'ra egalik qilish, undan foydalanish va uni tasarruf etish huquqiga ega bo'lgan shaxs. Mulkdor o'z mol-mulkiga nis-

batan qonunga zid bo'lmagan har qanday xatti-harakatlarni qilishga haqlidir. *O'ziga qarashli mol-mulkni saqlash, agar qonun hujjatlarida yoki shartnomada boshqacha tartib nazarda tutilgan bo'lmasa, mulkdor zimmasidadir.*

**Mulk obyektlari** – mulkka aylangan barcha boylik turlari. Mulk subyektlari – mulk obyektini o'zlashtirishda qatnashuvchilar, mulkiy munosabatlar ishtirokchilari.

**Mulk senzi** – saylovchilarning saylovda qatnashishi uchun muayyan mulkka, daromadga ega bo'lishlari talab etiladi. O'zbekiston saylov qonunchiligida mulk senzi nazarda tutilmagan.

**Mulkchilik** – kishilar o'rtasida ishlab chiqarish vositalari va mehnat mahsulini o'zlashtirish yuzasidan paydo bo'lgan va tarixan aniq bir shaklda namoyon bo'luvchi ijtimoiy munosabatlar.

**Mulkchilik munosabatlari** – mulkka egalik qilish, undan foydalanish, uni o'zlashtirish va tasarruf etish jarayonida vujudga keladigan munosabatlar.

**Mulkdan foydalanish** – mol-mulkning iqtisodiy faoliyatda ishlatilishi yoki ijtimoiy hayotda qo'llanilishi, ya'ni uning nafli jihatlarining bevosita iste'mol qilinishi.

**Mulkni tasarruf etish** – mol-mulk taqdirini mustaqil hal qilish. Mulkka egalik qilish – mulkdorlik huquqining uning egasi qo'lida saqlanib turishi va yaratilgan moddiy boyliklarni o'zlashtirishning ijtimoiy shakli.

**Mulkni davlat tasarrufidan chiqarish** – davlat mulkini, iqtisodiyotdagi davlat sektorini xususiy lashtirish. *Privatizatsiya davlat mulki monopoliyasini tugatish, erkin tadbirkorlik tashabbusiga yo'l ochish, bozor iqtisodiyotini rag'batlantirish maqsadida amalga oshiriladi.* O'zbekistonda ko'p ukkladli, davlat mulkini xususiy lashtirish 1990-yildayoq hukumat tavsiyasi asosida mahalliy sanoatda 3 ta xususiy korxonalar tashkil qilinishi bilan belgilangan edi. Samarqanddagi uy mehnatiga asoslangan xususiy fabrika hissadorlik jamiyatiga aylandi. Sirdaryo shoyi to'qish fabrikasi va boshqa qator korxonalar ijaraga o'tib ishlay boshladi. Bu yerda to'plangan dastlabki tajribalar keyinchalik davlat mulkini xususiy lashtirishda hisobga olindi, undan samarali foydalanildi. O'zbekistonda bu jarayon 4 bosqichda amalga oshirildi. 1992-1993-yillar; 1994-1995-yillar; 1996-1998-yillar; 1999-2003-yillar.

**Mumtoz liberal demokratiya modeli** – XIX asrning ikkinchi yarmi – XX asr boshida G'arbiy Yevropa va AQSHda amal qilgan. U quyidagi belgilarga ega: 1. Hokimiyat manbayi bo'lgan xalq qatoriga mulkdor erkaklarga kiritilib, quyi qatlamlar, avvalo yollanma ishchilar, ayollarni saylov huquqiga ega fuqarolar safiga qo'shilmasligi. Shu bilan birga liberal demokratiyaning ijtimoiy-siyosiy cheklanganligi, fuqarolarni ijtimoiy himoya qila olmasligi, tengsizlikning zo'rayishi, shaxs siyosiy ishtirokining cheklanganligi, davlat «tunggi qorovul» roli bilangina cheklab qo'yilishi uning muhim kamchiliklari hisoblanadi.

**Munitsipal boshqaruv** – (ingl. municipal) o'zini o'zi boshqarish; bu boshqaruvning nisbatan nomarkazlashgan shaqlidir. Shu bilan bir vaqtning o'zida u fuqarolik jamiyatining instituti hisoblanadi. Bunday boshqaruv organlarining asosiy belgilari, – ularning saylanishligi va o'z hududidagi aholi manfaatlarini asosida mahalliy ahamiyatga ega bo'lgan ishlarga rahbarlik qilishdagi nisbatan mustaqillik.

**Munofiq(lik)** – (arab. ikkiyuzlamachi; mug'ombir, o'rtaga nizo soluvchi) – yuksak ma'naviy fazilatlariga zid, tili boshqa, dili boshqa, so'zi va ishi bir-biriga to'g'ri kelmaydigan shaxsga xos salbiy xislatni ifodalovchi t. Xalqimizda ana shunday ikkiyuzlamachi shaxs, oila, jamoa, millat, xalq oldida o'zini do'st ko'rsatib, orqasidan yomonlik qiladigan yoki yomonlik tilaydigan kishilar M. deb ataladi. M.ning xavfli jihati shundaki, bunday illatga chalingan kishilar do'st niqobiga kirib, barcha sir-asrordardan xabar topadi va vaqti kelganda bundan o'z foydasi va g'arazli niyatda foydalanadi. Ular dushmanidan ham yomonroqdir. Chunki, kishi o'z dushmanini yaxshi biladi va u bilan aloqada ehtiyotkorlik bilan ish tutadi, masofada turib muomala qiladi, unga o'z sirlari va rejalashtirayotgan ishlarini oshkor ?ilmaydi.

**Munitsipalitet** – (lot. o'z-o'zini boshqaruvchi jamoa) shahar yoki qishloqdagi o'z-o'zini boshqaruv tizimi. Ko'pchilik davlatlarda davlat va mahalliy (munisipal) hokimiyat tizimi ajratiladi. Ayrim davlatlarda faqat shaharlar boshqaruvi munisipal deb nomlanadi (AQSH, Buyuk Britaniya). Ularning o'ziga xos belgilariga saylanishi va mahalliy darajada boshqaruvning nisbatan mustaqilligi kiradi. Munisipalitetlar mahalliy byudjetni tasdiqlaydilar, me'yoriy hujjatlar chiqaradilar. Munisipalitet – (fran.municipalite-shahar) o'zini o'zi boshqarish organi; ko'pchilik mamlakatlardagi o'zini o'zi boshqarish organlari.

**Muomala odobi** – insonlararo muloqotda namoyon bo'ladigan odob-axloq belgisi bo'lib, so'zlashuv madaniyatini tartibga soladigan hamda shaxs xulqi go'zalligini aks ettiradigan ma'naviy-axloqiy xususiyatni ifodalovchi tushuncha. M.o.da xushfe'llik, xushmuomalalik, hayo-ibolilik, beozorlik, shirinso'zlik, ochiqko'ngillik singari axloqiy me'yorlar muhim ahamiyatga ega. Ayniqsa, o'zida yuksak madaniyatni mujassam etgan kishilar muomalasida Hayo, andisha va ibolilik yaqqol ko'zga tashlanadi. Ma'rifatli, komil insonlar hayoli va vafodor kishilardir.

**Murojaat** – muloqot boshlanishi bilan bog'liq nutqiy odob unsuri. Suhbatdoshga nomini, familiyasini, otasining ismini, lavozimini yoki kasbiy belgisini tilga olib, yuzlanishda namoyon bo'ladi. M. 1) samimiylikning odatdagi ifodasi va suhbatdoshga bildirilgan hurmat; 2) muayyan xabar kimga atalganini, mazkur murojaat kimga yo'naltirilganini ko'rsatish; 3) muayyan kishiga oshkora e'tibor, murojaat etuvchining shaxsga ish yuzasidan yoki boshqa maqsadda subyekt sifatida qiziqqani; 4) suhbatdoshda ijobiy hissiyot va undan qanoatlanish tuyg'usini uyg'otish; 5) o'zaro hurmat hissini ifodalaydi. O'zbekiston Respublikasining qonuni jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to'g'risida 2014-yil 3 dekabrda qabul qilingan.

**Muruvvat** – insonparvarlik, biror kishiga qilingan xolisona insoniy yordam, yaxshilik, saxovat, lutf. Muruvvat saxovat bilan uyg'un sifat, insoniy fazilat bo'lib, xalqimizga xos ma'naviy xususiyat, milliy qadriyatdir. M.li M. ko'rsatuvchi, yaxshilik qiluvchi, saxovatpesha kishi. M. saxovatli, mehr-muhabbatli, oqibatli insonlarning nafaqat o'z tashvishi b-n, balki o'zgalar tashvishi bilan ham yashashida, ularning kimgadir moddiy va ma'naviy ko'maklashishi, xayr-u ehson qilish, ko'nglini ko'tarish singari insoniy xatti-harakatlarida namoyon bo'ladi.

**Mustaqillik** – (arabchadan tobe emaslik, ixtiyori o'zidalik, qaram emaslik) –

erkin va ozod ravishda, boshqalarning rahbarligisiz ish yurita bilish. Mustaqillik barcha jabhalarda munosabatlarni me'yor-mezonga soladi, har qanday kamsitish, tobelikni inkor etadi. Mustaqillik – o'zaro hurmat, bir-birlarini qadrlash, milliy va bashariy qadriyatlarga tayanib ish ko'rish, keng dunyoqarash va erin tafakkurga tayanib yashash, fikrlash, o'z hayotini o'zi tashkil etish imkoniyati va amaliyotini bildiradi.

**Mustaqil fikr** – boshqalarning fikridan mustaqil va o'zga ta'sirlardan xoli xulosa, hukm va mulohazalar, insonning dunyoqarashi va aqliy salohiyatini ifodalaydigan t. M.f. insonda dastlab oilada shakllana boshlaydi. Shaxsning ulg'aya borishi natijasida u ijtimoiy institutlar tomonidan mavjud barqaror vosita va usullar orqali to'liq shakllantiriladi. M.f. milliy ong, milliy o'zlikni anglash, milliy g'urur, milliy ma'naviyat tushunchalari ta'sirida shakllanadi. har bir jamiyat o'z a'zolari ongida M.f.ni shakllantirishdan manfaatdor bo'ladi. M.f.li kishilar o'zi yashayotgan jamiyat bilan faol ijtimoiy-siyosiy munosabatga kirisha oladi, o'zining jamiyat oldidagi huquq va majburiyatlarini teran anglab, uni amalga oshirishga layoqatli bo'ladi. M.f. individlar, guruhlar va jamiyatning barcha a'zolariga xos xususiyat sanaladi. Jamiyatda bunday shaxslarning ko'payishi uning taraqqiyotiga xizmat qiladi. M.f.ga ega odam o'z dunyoqarashi, aqliy salohiyati orqali jamiyatning asosiy maqsadini chuqur anglab, o'z faoliyatini shu asosda yo'naltiradi. Bunday shaxs tevarak-atrofidagi har qanday voqea-hodisalarga nisbatan ongli munosabatda bo'ladi. U har bir harakatini mulohaza bilan amalga oshirishga o'rganadi.

**Muqobil ijtimoiy harakatlar** – zamonaviy global muammolar: ekologiya, urush va tinchlik, hayot sifati va shu kabilarning noan'anaviy yechimlarini izlovchi yangi ijtimoiy harakatlar. Muqobil ijtimoiy harakatlar o'z faoliyatlarida farqlarni hurmat qilish (tolerantlik), diskriminatsiyani (kamsitish) yo'qotish, kamschilik huquqlarini kafolotlash singari siyosiy tamoyillarga tayanadi. Erkinlik – ijtimoiy tashkilotning asosiy tamoyilidir. Muqobil ijtimoiy harakatlar feminizm bilan chambarchas bog'liq. Ular "uchinchi dunyo" bilan hamkorlik shiorlarini ilgari suradi. Kambag'al va "mehnatkash" sinflar oldidagi ijtimoiy mas'uliyat, madaniy plyuralizm, mafkuralarga emas ma'rifiylikka suyanish, faoliyatida kuchga tayanmaslik g'oyalari – bu harakatlarning pozitiv, samarali jihatlarini tashkil etadi.

**Muqobilik** – (ar.) bir-biriga qarama-qarshi (boshqa-boshqa) ikki yoki undan ortiq narsadan birini tanlash, mavjud ikki yoki bir necha imkoniyatdan biri, alternativa.

**Mustamlaka** – mustamlakachilik – kuchli davlatlar tomonidan zo'rlik bilan egallangan mamlakat yoki hududni siyosiy va iqtisodiy mustaqillik dan mahrum etib, o'ziga bo'ysundirish, qaram qilish g'oyasi asosidagi o'zga xalq yoki mamlakatlarni bosib olish, talash siyosati. Tarixdan M.ning imperiyalarning shakllanishi va o'zga davlatlarni bosib olishi bilan bog'liq ekanligi ma'lum. 20-a. boshiga kelib, deyarli butun dunyo yirik mustamlakachi davlatlar (Buyuk Britaniya, Fransiya, Germaniya, Italiya, Ispaniya, Niderlandiya, Portugaliya, AQSH, Yaponiya, Rossiya) tomonidan bosib olingan edi. Mustamlaka mamlakatlar bilan bir qatorda iqtisodiy va siyosiy jihatdan zaif va qaram bo'lgan yarim mustamlakalar ham mavjud edi. hukmron kuchlar va ularning monopolistik birlashma-

lari mustamlaka va qaram mamlakatlardan xom-ashyo manbayi, daromad olish bozori, sarmoya qo'yish sohasi, shuningdek, g'arbiy harakatlar hamda yangi joylarni egallab olish uchun tayanch maydoni sifatida foydalandilar. Mustamlaka va qaram o'lkalarning xalqlarini ekspluatatsiya qilish va ezish hisobiga mustamlakachilar katta daromadga ega bo'ldi. qaram o'lkalari esa agrar xomashyo etishtiriladigan bir tomonlama ishlab chiqarishga asoslangan qoloq iqtisodiyot bilan qolaverdilar. Mustamlakachi davlatlarning dunyoni qaytadan bo'lib olishga bo'lgan intilishi 1914-1918 yillardagi Birinchi jahon urushining kelib chiqishiga olib keldi. Urush og'riqlaridan aziyat chekayotgan xalqlarning milliy-ozodlik harakatlari kuchayib bordi. Ikkinchi jahon urushi (1939-1945) dan so'ng esa, jahon mustamlakachilik tizimining tez yemirilishi va qulashi boshlandi. Mustamlakachilik barham topgan hozirgi sharoitda, reaksiyon mustamlakachi kuchlar hali ham turli usullar va shakllarda o'zlarining iqtisodiy va siyosiy mavqelarini saqlab qolishga intilmoqdalar.

**Mustaqil bosma OAVlari** – davlat boshqaruvidan holi bo'lgan, o'zining fikr va so'z erkinligini ro'yobga chiqaruvchi, lekin bunda o'z faoliyatini amaldagi qonunchilik doirasidagina olib boruvchi ommaviy axborot vositalaridir.

**Muloqot guruhi "6+3"** – Afg'onistonda tinchlikni o'rnatishga qaratilgan O'zbekiston Respublikasining tashqi siyosiy tashabbusi. Muloqot guruhi doirasida 1999-yilning iyul oyida Toshkentda Afg'onistonda muammosiga bag'ishlangan konferensiya chaqirildi. Konferensiya natijalariga ko'ra, BMT Xavfsizlik Kengashi rezolyutsiyasining asosini tashkil etuvchi "Afg'onistonda konfliktning hal qilishining asosiy prinsiplari to'g'risidagi" deklaratsiya qabul qilindi. Muloqot guruhi – Afg'onistondagi mavjud konfliktning bartaraf etishga xizmat qiluvchi amaliy mexanizmdir. 2008-yilning aprel oyida bo'lib o'tgan NATO SEAP sammitida O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.A.Karimov "6+2" muloqot guruhini uning tarkibiga NATO ni jalb etish orqali "6+3" ga aylantirish tashabbusini ilgari surdi.

## N

**Natsizm** – Gitler rejimi mafkurasi va amaliyotining nomi. 1919-yilda vujudga kelgan natsional-sotsialistik partiya nomidan olingan. Natsional-sotsializm 1933-yilda Germaniyada hokimiyat tepasiga keldi. U fashizmdan o'sib chiqqan bo'lsada, ko'p xususiyatlariga ko'ra sovet kommunizmiga o'xshash: inqilobiyligi, liberalizmga qarshi jamoaviylikni qo'yishi, totalitar partiya va davlat tuzish shakllari va h. Faqat "sin" tushunchasining o'rnini – "millat", "sinfy manfaatlar" o'rnini – "milliy va irqiy manfaat" oladi. Natsional-sotsializm millatchilik mafkurasi va unda kuchli namoyon bo'lgan antisemitizm, nordik, oriy irqini va kuchni ulug'lash bilan ajralib turadi. Shuningdek, uning elitarligini va ommaga past nazar bilan qarashini, shuning uchun o'z tashkilotini quyidan yuqoriga qarab qat'iy harbiy itoat asosiga qurganligini ko'ramiz. Natsional-sotsializm demokratiyani to'liq inkor etgan. Kommunistik tizimlarda kurash tig'i ichki, sinfiy dushmanga qaratilgan bo'lsa, natsional-sotsializmda tashqariga, boshqa xalqlarga qarshidir.

**NATO** – MT Nizomining 51 – moddasida belgilangan kollektiv mudofaa huquqini amalga oshirish maqsadida 1949-yil Vashingtonda imzolanagan Shimoliy Atlantika shartnomasi asosida tuzilgan g'arbiy-siyosiy ittifoq. Vashington shartnomasining eng muhim qoidasi 5-modda bo'lib, u o'zini-o'zi mudofaa qilish huquqini mustahkamlaydi. Unga ko'ra, "Shartnoma ishtirokchilari Yevropa yoki Shimoliy Amerikada a'zo davlatlarning biron-biriga qarshi amalga oshirilgan qurolli hujum ularning barchasiga qarshi hujum sifatida baholaydilar, va bu kabi hujum sodir bo'lgan taqdirda, ularning har biri BMT Nizomining 51-moddasida belgilab qo'yilgan individual yoki kollektiv tarzda o'zini-o'zi mudofaa qilish huquqini amalga oshirish doirasida, bunday xujumga uchragan shartnoma ishtirokchisiga yordam ko'rsatadi.. "Mazkur qoida NATO tarixida ilk bor 2001-yil 11 – sentyabr voqealardan so'ng amalda o'z aksini topdi. NATOning oliy organi – Shimoliy Atlantika Kengashi. Kengash tashkilot faoliyatiga oid muhim qarorlarni qabul qiladi hamda NATOning Fuqaroviy va g'arbiy organlari faoliyatini nazorat qiladi. Kengash raisi NATOning Bosh Kotibi hisoblanadi. Kengashga qarorgohi Vashingtonda joylashgan g'arbiy qo'mita bo'ysunadi. Siyosiy va iqtisodiy masalalarni muhokama etish maqsadida tegishli qo'mitalar tashkil etilgan. NATO nazorati ostida bo'lgan hudud uch qo'mondonlik va mintaqaviy rejalashtirish guruhiga ajratilgan. Yevropadagi NATOning Birlashgan qurolli kuchlari Oliy Bosh qo'mondoni boshchiligidagi NATOning Yevropa strategik qo'mondonligiga Nordkapdan O'rta Yer dengizigacha, Turkiyaning Sharqiy chegaralaridan Atlantika okeonigacha bo'lgan hududlar kiradi. Atlantikadagi NATOning Birlashgan qurolli kuchlari oliy bosh qo'mondoni boshchiligidagi Atlantika strategik qo'mondonligiga (qarorgohi Norfolkda (AQSH) Shimoliy qutb va Raka tropiki oralig'idagi hamda Shimoliy Amerikadan Afrika va Yevropa qirg'oqlarigacha bo'lgan hudud kiradi. Shuningdek, La-Mansh bo'g'ozini hududida strategik qo'mondonlik mavjud bo'lib, uning faoliyat doirasiga La-Mansh bo'g'ozini bilan birgalikda Shimoliy dengizning janubiy qismi kiradi. Kanada-Amerika mintaqaviy rejalashtirish guruhi Shimoliy Amerikada umumiy ravishda olib boriluvchi NATOning g'arbiy-mudofaa operatsiyalarini muvofiqlashtirib boradi. O'zbekistonning NATO bilan aloqalari 1991-yil 21 – dekabrda o'rnatilgan. O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti Islom Karimov NATO/YAHKning Vashingtonda (1999y.), Pragada (2002y.) va Buxarestda (2008y.) bo'lib o'tgan sammitlarida ishtirok etgan. Mamlakatimiz bilan NATO o'rtasidagi hamkorlik rivojida O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti Islom Karimovning 2011-yil 24 – yanvar kuni bo'lib o'tgan Bryusselga tashrifi va uning doirasida NATO Bosh kotibi A.Rasmussen bilan uchrashuvi muhim ahamiyat kasb etdi. O'zbekiston Tashqi ishlar vaziri rahbarligidagi delegatsiya NATOning 2012-yil may oyida Chikago shahrida bo'lib o'tgan Sammitida ishtirok etdi. NATO bosh kotibining Kavkaz va Markaziy Osiyo bo'yicha maxsus vakili J.Appaturay 2013-yil mart va 2014-yil may oylarida mamlakatimizga tashrif buyurdi. 2013-yil avgustida Toshkentda NATOning Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan aloqa va hamkorlik boyicha xodimi Byurosi hamda 2014-yil mayida Jahon iqtisodiyoti va diplomatiyasi universiteti huzurida NATOning Depozitar kutubxonasi ochilishi O'zbekiston bilan Shimoliy Atlantika ittifoqi o'rtasidagi hamkorlikni rivojlantirishda ijobiy ahamiyat kasb etdi. 1994-yil 13 iyuldan buyon O'zbekiston NATOning «Tinchlik yo'lida

hamkorlik» dasturida ishtirok etmoqda. 1996-yildan boshlab esa hamkorlik har yil ishlab chiqariladigan Sheriklik va hamkorlik bo'yicha individual dasturlar doirasida amalga oshirib kelinmoqda. O'zbekistonda Qurolli Kuchlarning «Tinchlik yo'lida hamkorlik» tayyorlov markazi faoliyat yuritib, uni har jihatdan qo'llab-quvvatlash o'zaro aloqalarning muhim yo'nalishi hisoblanadi. 1993-yildan buyon O'zbekiston NATOning ilmiy anjuman va loyihalarida ishtirok etib kelmoqda. Ayni paytda Ittifoq bilan hamkorlikda 4 ta ilmiy loyiha amalga oshirilmoqda. O'zbekiston Afg'onistondagi vaziyatni barqarorlashtirishga salmoqli hissa qo'shib, jumladan, tranzit shartnomalari doirasida o'z hududidan ISAF a'zolari uchun mo'ljallangan noharbiy yuklarni Afg'onistonga olib o'tish va uning hududidan olib chiqishga rozilik berish asnosida xalqaro sa'y-harakatlarni qo'llab-quvvatlab kelmoqda.

**Narx** – baho – tovar qiymatining pulda aks etishi, bozor iqtisodiyotiga asoslangan jamiyat xo'jalik mexanizmidagi amal qiluvchi iqtisodiy dastak. N. faqat tannarxga emas, balki talab va taklif, shuningdek tovarning ijtimoiy foydaliigi, sifati va boshqa tovarlar o'rini bosa olishi, muomaladagi pulning xarid qobiliyatiga ham bog'liq.

**Nafaqa** – ijtimoiy madadga muhtoj barcha kishilarning moddiy ta'minoti.

**Nafrat** – ma'naviy-ruhiy xususiyat bo'lib, ehtiyoj, xohish, qadriyatlariga nisbatan salbiy munosabatni ifoda etuvchi tuyg'u. N.ning shakllanishiga voqealarning noqulay kechishi tufayli yuzaga kelgan norozilik yoki salbiy kechinmalar asos bo'ladi. Tarbiya amaliyotida N.ning shakllanishini nazorat qilish uchun ma'qul bo'lmagan voqea-hodisalarning mazmun-mohiyati va sabablarini ochish zarur. N. shaxsga, faoliyatga, vaziyatga qaratilgan hamda shaxsiy, guruh, milliy va b. turlarga bo'linadi. N.ning shaxsga qaratilgan turi biror insonning barcha harakatlari, fazilatlarini inkor etishda, uni doimiy ravishda tanqid qilish, shaxsiy xislatlaridagi ijobiy jihatlarni ko'ra bilmalikda namoyon bo'ladi.

**Negativ** – (lot.) salbiy.

**Negativ huquqlar (erkinliklar)** – davlat va boshqa odamlarning shaxsga nisbatan biror harakatini cheklaydi. Ular tub, asosiy, deb hisoblanadi. Ularning amalga oshishi davlat resurslariga bog'liq emas.

**Neokonservativizm** – mumtoz konservativizm, liberalizm va texnokratizm g'oyalarini uyg'unlashtirgan mafkura. Vakillari: nazariyada – A.Xayek, siyosatda – R.Reygan, M.Tetcher, J.Shirak. Asosiy g'oyalari: faqat bozor munosabatlari-gina jamiyat va shaxsning rivojlanishiga olib keladi; erkinlik va tenglik birgalikda mavjud bo'la olmaydi; mumtoz demokratiyani elitalar hokimiyati bilan to'ldirish lozim va shaxsning bosh huquqi – mulkka egalik.

**Neoliberalizm** – yangi liberalizm – mumtoz liberalizm negizida XX asming 50-60-yillarida rivojlandi. Neoliberalizm davlatning ijtimoiy funksiyalari kengayishini zarur deb bildi. Siyosiy rollar aniq taqsimlanishi to'g'risidagi tezis barcha siyosiy kuchlar konsensusi to'g'risidagi qoida bilan almashindi. Adolat, davlatni huquq bilan cheklash, hukumatning axloqiy qadriyat va tamoyillarga suyanishi, ommaning siyosiy jarayonda ishtiroki, elitalar raqobati zarurligi tan olindi. Neoliberalizmning mohiyatini qisqacha shunday ifodalash mumkin: davlat shaxsni bozor tizimining salbiy okibatlaridan himoyalashi zarur.

**Neytralitet** – (lot. *neuter* unga ham, bunga ham tegishli bo'lmagan) davlat-

ning xalqaro huquqiy holati. Davlatning qurolli to'qnashuvlarda ishtirok etmasligini, tinchlik vaqtida esa harbiy ittifoqlar va bloklarda qatnashishni rad etishini ko'rsatuvchi tashqi siyosiy faoliyati prinsipi. Ushbu prinsip davlatning alohida huquqiy maqomi sifatida rasmiylashtiriladi. Neytralitetga nisbatan siyosat sifatida, ya'ni davlat organlari va xalqlar nomidan ish ko'ruvchi davlat oliy shaxslarining tinchlik munosabatlarini barqarorlashtirishga, insoniylik, insonparvarlik tomoniga rivojlantirishga qaratilgan maqsadli, ongli faoliyati sifatida qaraladi.

**Nigilizm** – (lot.) har qanday me'yorlar, tamoyillarni inkor etish.

**Nizom** – muayyan davlat yoki jamoat tuzilmalarini tashkil etish tartibini, tuzilishi, vazifasi, funksiyalari va vakolatlarini belgilovchi kodekslashtirilgan normativ hujjat hisoblanadi.

**Nodavlat elektron ommaviy axborot vositalari** – o'z oldida Internet tarmog'ida ommaviy axborot vositasi (OAV) funksiyalarini bajarish vazifasini qo'yuvchi nodavlat tuzdagi ro'yxatga olingan veb-saytlari.

**Nodavlat notijorat tashkiloti** – jismoniy va (yoki) yuridik shaxslar tomonidan ixtiyoriylik asosida tashkil etilgan, daromad (foйда) olishni o'z faoliyatining asosiy maqsadi qilib olmagan hamda olingan daromadlarni (foydani) o'z qatnashchilari (a'zolari) o'rtasida taqsimlamaydigan o'zini o'zi boshqarish tashkilotidir. Nodavlat notijorat tashkiloti jismoniy va yuridik shaxslarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini, boshqa demokratik qadriyatlarni himoya qilish, ijtimoiy, madaniy va ma'rifiy maqsadlarga erishish, ma'naviy va boshqa nomoddiy ehtiyojlarni qondirish, xayriya faoliyatini amalga oshirish uchun hamda boshqa ijtimoiy foydali maqsadlarda tuziladi. O'zbekiston Respublikasining «Nodavlat notijorat tashkilotlari to'g'risida»gi Qonuni 1999-yil 14 – aprelda qabul qilingan bo'lib, nodavlat notijorat tashkilotlarning serqirra faoliyatini har tomonlama muvofiqlashtirish va huquqiy jihatlardan ta'minlashga qaratildi.

**Nolegal** – qonunsiz, qonun taqiqlab qo'ygan, qonunni cheklab qilingan, yashirin.

**Nomzod ko'rsatish** – davlat hokimiyatining saylab qo'yiladigan organiga nomzod belgilash bo'yicha siyosiy partiya. Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputatligiga nomzodlar siyosiy partiyalarning yuqori organlari tomonidan ko'rsatiladi. Siyosiy partiya faqat o'z a'zolarini yoki partiyasizlarni deputatlikka nomzod etib ko'rsatish vakolatiga ega. Siyosiy partiya saylov kampaniyasi boshlanganligi e'lon qilingan kundan kamida olti oy oldin O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan ro'yxatga olingan, saylovda ishtirok etishini qo'llab-quvvatlovchi kamida ellik ming saylovchining imzosini to'plagan taqdirdagina Qonunchilik palatasi deputatligiga nomzodlar ko'rsatishi mumkin.

**Nomzodni ro'yxatga olishni rad etish asoslari** – aniqlangan taqdirda saylov komissiyasi tegishli nomzodni ro'yxatga olishni rad etish huquqiga ega bo'ladigan holatlar quyidagilar rad etish uchun asos bo'lishi mumkin: siyosiy partiyalar, saylovchilar tashabbuskor guruhlar tomonidan imzo to'plashning saylov to'g'risidagi qonunlarda belgilangan tartibidan chetga chiqish; nomzodni qo'llab-quvvatlovchi saylovchilarning ishonchli imzolari etarli miqdorda taqdim etilmasligi; saylov to'g'risidagi qonunlarga muvofiq nomzod taqdim etgan yoki nomzodga oid ma'lumotlarning (olib tashlanmagan sudlanganlik



va hokazolar) haqiqatga to'g'ri kelmasligi; saylovlarni moliyalashtirish tartibini bo'zish. Nomzodni ro'yxatga olishni rad etishning boshqa asoslari ham mavjud. Masalan, nomzod ro'yxatga olinishidan ilgari saylovoldi tashviqotini boshlab yuborganligi faktining aniqlanishi, nomzod yoki uning vakillari tomonidan saylovchilar ovozini sotib olishga qaratilgan xatti-harakatlar amalga oshirilgani o'z tasdig'ini topishi, imzo to'plash jarayonida saylovchilarni majbur qilish va ularga pora evaziga imzo qo'ydirib olishning har qanday shakli man etilishiga oid qoidaning qo'pol ravishda yoki bir necha marta buzilishi; nomzod, tashabbuskor guruhning vakolatli vakili o'z mansab yoki xizmat mavqeyiga xos ustunliklardan foydalanishi kabi holatlar nomzodni ro'yxatga olishni rad etish uchun asos bo'la oladi. Quyidagilar: sodir etilgan jinoyati uchun sudlanganlik holati tugallanmagan yoki sudlanganligi olib tashlanmagan fuqarolar; saylov kuniga qadar so'nggi besh yil mobaynida O'zbekiston Respublikasi hududida muqim yashamagan fuqarolar; O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining harbiy xizmatchilari, Milliy xavfsizlik xizmati, boshqa harbiylashtirilgan bo'linmalarning xodimlari; diniy tashkilotlar va birlashmalarning professional xizmatchilari deputatlikka nomzod etib ro'yxatga olinmaydilar. Sudyalar, prokuratura va hokimiyat ijroiya organlarining mansabdor shaxslari (viloyat, tuman va shahar hokimlari bundan mustasno) mabodo deputat etib saylangudek bo'lsa, egallab turgan lavozimidan ozod etish to'g'risida ariza yozib topshirish sharti bilan xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlariga deputatlikka nomzod sifatida ro'yxatga olinadilar.

**Nomzod ro'yxatga olinganligini bekor qilish** – saylov to'g'risidagi qonunchilikni bo'zgan uchun nomzodlarning saylov huquqiga nisbatan qo'llanadigan ommaviy-huquqiy javobgarlik chorasini. Nomzodning ro'yxatga olinganligi bekor qilinishiga quyidagi holatlar asos bo'lishi mumkin: nomzodlarni ko'rsatish tartib-qoidasining buzilganligi; nomzodlarni ro'yxatga olish tartib-qoidasining buzilganligi; saylovoldi tashviqotini olib borish tartib-qoidasining buzilganligi; saylov kampaniyasini moliyalashtirish tartib-qoidasining buzilganligi; saylanish maqsadida nomzodlar va ishonchli vakillarning mansab yoki xizmat mavqeyidan foydalanishi; saylovchilar ovozining nomzodlar, shuningdek muayyan nomzodlarning saylanishi uchun harakat qilayotgan boshqa tashkilotlar, shaxslar tomonidan sotib olinganligi faktining aniqlanishi.

**Nomzodning ishonchli vakili** – ro'yxatga olingan nomzod tomonidan tayinlanadigan, o'z faoliyati bilan tegishli nomzodning saylanishiga ko'maklashadigan va saylov to'g'risidagi qonunchilikka muvofiq maxsus maqomga ega bo'lgan shaxs. Ishonchli vakillarni tayinlash ro'yxatga olingan nomzodlarning majburiyati emas, balki huquqidir. Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputatligiga nomzod besh nafarga qadar ishonchli vakilga ega bo'lishi mumkin. Ishonchli vakillar nomzod deputat etib saylanishi uchun tashviqot yuritadilar, davlat va jamoat birlashmalarining organlari, saylovchilar bilan o'zaro munosabatlarda, shuningdek saylov komissiyalarida nomzodning manfaatlarini himoya qiladilar. Deputatlikka nomzod ro'yxatga olinganidan keyin o'z ishonchli vakillarini o'zi belgilaydi va bu haqda okrug saylov komissiyasiga ma'lum qiladi. Saylov komissiyasi ishonchli vakillarni ro'yxatga oladi va ularga guvohnoma beradi.

Deputatlikka nomzod okrug saylov komissiyasiga ma'lum qilgan holda, saylovga qadar o'z ishonchli vakilini ishlagan vaqtda vakolatidan mahrum qilishi va uni boshqasi bilan almashtirishi mumkin. Ishonchli vakil ishlagan vaqtda o'z vakolatlarini zimmasidan soqit qilishga haqli. Ishonchli vakil saylov komissiyasiga a'zo bo'lishi mumkin emas.

**Nomzodlarni ro'yxatga olish** – saylov komissiyasi tomonidan shaxsni deputatlikka nomzod sifatida ro'yxatga olish to'g'risida qaror qabul qilishidan iborat yuridik amaliyot. Ushbu qaror qabul qilingan kundan e'tiboran nomzodlar ro'yxatga olingan nomzod uchun saylov to'g'risidagi qonunchilikda ko'zda tutilgan huquqlarga, shu jumladan, saylovoldi tashviqotini amalga oshirish huquqiga ega hisoblanadi. Deputatlikka nomzod sifatida ko'rsatilgan shaxsga ro'yxatga olinganligi to'g'risida guvohnoma beriladi. Saylov komissiyalari saylovchilarni ro'yxatga olingan nomzodlar haqida xabardor qiladilar. Ularga oid ma'lumotlar saylov byulletenlariga kiritiladi.

**Nomzodning saylovda nomzodlikdan voz kechish huquqi** – saylov to'g'risidagi qonunchilikda nomzod (ro'yxatga olingan nomzod) o'zi istagan vaqtda ixtiyoriy ravishda o'z nomzodligidan voz kechishi mumkinligini nazarda tutuvchi subyektiv huquq. Qonunchilik palatasiga deputatlikka nomzod saylovga qadar istagan vaqtda nomzodlikdan voz kechishi mumkin. Buning uchun u Markaziy saylov komissiyasiga ariza bilan murojaat qiladi.

**Nomus** – burch va qadr-qimmat tushunchalari bilan bog'liq bo'lgan hissiyot, shaxsning o'z qadr-qimmatini anglab etishi, shu qadr-qimmatning jamiyat tomonidan tan olinishi yoki olinmasligiga bo'ladigan munosabati bilan belgilanadigan tuyg'u. Biroq, bu ular bir xil ma'noga ega, degani emas. Chunki, N. o'z qadr-qimmatini bilishdan tashqari, har bir shaxsning jamiyatda egallagan o'ziga xos mavqeyi va unga dog' tushirmay saqlash-saqlamasligi bilan bog'liq.

**Norma** – lotincha so'z bo'lib, o'zbek tilida: a) rasmiylashtirilgan qonun-qoida ko'pchilik tomonidan qabul qilingan, hamma uchun majburiy deb hisoblangan, qonun hukmiga kirgan tartib qoida. B) Biror narsaning, ishning aniq belgilangan ulchami, miqdori, me'yor degan ma'noni anglatadi

**Normativ-huquqiy hujjat** – umum majburiy davlat ko'rsatmalari sifatida huquqiy normalarni belgilashga, o'zgartirishga yoki bekor qilishga qaratilgan rasmiy hujjatdir.

**Noto'g'ri taqqoslash** – raqobatchilar yoki boshqa shaxslar tomonidan tarqatiladigan, tovar yoki moliya bozorida ayrim xo'jalik yurituvchi subyektga afzalliklar yaratadigan yoxud xo'jalik yurituvchi subyekttni (raqobatchini) yoki raqobatchi ishlab chiqargan tovarni yomonlovchi yolqon, noaniq yoki buzib taqqoslash;

**Nota** – (lot. belgi) bir hukumatning ikkinchi bir hukumatga rasmiy, yozma, diplomatik murojaati.

**Nikohni qayd etish** – nikohlanuvchi shaxslardan birining yashash joyidagi fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd qilish organlari tomonidan amalga oshiriladigan jarayon.

**Naturalizatsiya** – xorijiy fuqaroni muayyan davlatning faxriy fuqarosi qilib qabul qilishi

**Nafaqa** – qonunda belgilangan tartibda davlat yoki ma'lum bir subyektlar tomonidan tayinlanadigan umrbod moddiy ta'minot.

**Negator da'vo** – mulkdorning mulkiy huquqini uning ashyoga egalik qilishdan mahrum qilish bilan bog'liq bo'lmagan buzilishlardan himoya qilishga yo'naltirilgan jarayon.

**Nikoh** – nikoh yoshiga etgan, bir-birini sevadigan va qonunga muvofiq oila qurishni istagan erkak bilan ayolning ixtiyoriy roziligi va teng huquqligiga asoslangan, qonuniy rasmiylashtirilgan, o'zaro shaxsiy va mulkiy huquq va majburiyatlarni vujudga keltiradigan, oilaviy turmushda tugilgan bolalarni milliy istiqloq mafkurasi g'oyalari asosida munosib tarbiyalashga xizmat qiladigan, umuminsoniy qadriyatlar va sharqona an'analarga asoslangan mustahkam, bir umrga tuzilgan ittifoqi.

**Nikoh shartnomasi** – nikohlanuvchi shaxslarning yoki er va xotinning nikohda bo'lgan davrida va (yoki) er va xotin nikoh – dan ajratilgan takdirda ularning mulkiy huquq va majburiyatlarini belgilovchi kelishuv.

**Nutq odobi** – nutqiy muloqot qoidalari, tamoyillari va shakllarining yig'indisi, muomala madaniyati sinonimi, ijtimoiy faoliyat sohalari bilan bog'liq madaniy me'yorlar majmuyi. Nutq odobi qator talablarga javob berishi kerak. Ijoiy natijaga yo'nalganlik, nizo va bahsli holatlarni yechishga intilish, kelishish, bitimga erishishga harakat qilish N.o.ning ijoiy uslubidir. N.o.ga rioya qilmaslik salbiy jihat bo'lib, bunday muloqot nizoga, tarafkashlikka, shaxslararo ziddiyatga olib kelishi mumkin. Ishga aloqador muloqotda obyektiv mezonlar asosida masalani baholash, vaziyatni xolis ekspertiza qilish, xulosani aniq ifodalash, tenglik, murosasozlik tamoyillaridan kelib chiqish, o'z shaxsiy fikriga qarshi tomonning huquqini tan olish muhim ahamiyat kasb etadi.

## O

**Obyektivizm** – tashqi olamdagi mavjud narsa va hodisalarni falsafiy tahlil qilish, bilish jarayonida subyekt xohishi va irodasiga bog'liq bo'lmagan tarzda bayon etish. O. tashqi olam narsa va hodisalari qanday bo'lsa, shunday bayon qilishni anglatadi. Ijtimoiy voqelikni bilishda subyektning ijtimoiy-iqtisodiy manfaatlar bilan bog'lanib qolishi bilishning obyektivligiga putur yetkazadi.

**Obstruksiya** – (lot. to'siq) norozilik bildirish usuli, asosan parlamentlar faoliyatida noma'qul qonun loyihasini muhokama qilish va qabul qilishga yo'l qo'ymaslikka qaratilgan parlament kurashi usullaridan biri. Shovqin solish, ishga aloqasi bo'lmagan uzundan-uzoq nutqlar so'zlash va h.k.lar obstruksiya shakllaridan biri.

**Ogohlik** – inson va millat manfaatlarining asrab-avaylanishi, jamiyatdagi ijtimoiy-siyosiy qoidalarga rioya qilinishi, mamlakatdagi tinchlik va barqarorlikni ta'minlashda hushyorlikni anglatadigan tushuncha. Ushbu tushunchaning mazmun-mohiyati, ijtimoiy, siyosiy ahamiyati va hozirgi davrda namoyon bo'lish xususiyatlari O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezident I.A.Karimov asarlarida har tomonlama asoslab berilgan. Jamiyatda mavjud ijtimoiy-siyosiy barqarorlikning ta'minlanishi va asralishi bevosita inson ongi, tafakkuri bilan cham-

barchas bog'liq. har bir shaxs xalq, jamiyat, o'z jamoasi, oilasi oldidagi burch va mas'uliyati hamda moddiy-ma'naviy ne'matlarga egalik huquqi mavjudligini anglab, idrok etishi unda O. tuyg'usini shakllantiradi. O. jamiyat har bir a'zosi-dan uning tinch va osoyishta hayotdan har tomonlama manfaatdorlik tuyg'usi shakllanishida namoyon bo'ladi.

**Odat** – ma'naviy hayot hodisasi, insonga xos xususiyat, kishilar faoliyati va xulq-atvorini ijtimoiy tartibga solishning tarixan qaror topgan shakli. Ko'pincha jamiyatdagi ijtimoiy hayotda o'xshash vaziyatlarning takrorlanishi Odatlar shakli, xulq-atvor stereotiplarining (bir qolipdagi me'yorlar) yuzaga chiqishiga olib keladi. Bular odat tarzida keyingi avlodga meros bo'lib o'tadi. Jamiyatning sanoatlashuviga qadar odat individning ijtimoiy lashuv vositasi bo'lgan. Odat texnologik, ijtimoiy va madaniy tajribaning avlod-dan-avlodga o'tishida muhim ahamiyat kasb etadi. Odat ijtimoiy nazorat, guruhiy jipslikning muayyan shaklini mustahkamlaydi, diniy, etnik va umumiy barqarorlikni ta'minlaydi.

**Odob (arab. – adab so'zining ko'pligi)** – jamiyatda e'tirof etilgan xulq me'yorlari. U shaxs ma'naviy hayotining tashqi jihatini ifodalab, o'zaro munosabat da, oila, mehnat jamoasida namoyon bo'ladi. Odob asosini axloqiy tamoyillar, me'yorlar, tarbiyalanganlik darajasi va estetik ideal talablari tashkil etadi. Odob kishining jamoada o'zini tutishi, odamlar bilan muomala qilishi, turmush tarzi, bo'sh vaqtini tashkil etishi, ichki va tashqi olami qanday bo'lishi lozimligiga oid qoidalarni (mas., or-nomus, sharm-hayo, iffat, kamtarlik, xushmuomalalik,) o'z ichiga oladi.

**Ozod va obod vatan, erkin va farovon hayot barpo etish** – milliy istiqloq mafkurasining bosh g'oyasi. Insonning ijtimoiy-siyosiy mohiyati faqat ozodlik va erkinlik sharoitidagina to'la-to'kis namoyon bo'ladi. Sh.u. ham O'zbekiston xalqining milliy taraqqiyot yo'lidagi asosiy maqsadi-ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot barpo etish bo'lib, bu g'oya millatimizning azaliy orzu-umidlari-ni, intilishlarini, bunyodkorlik faoliyatining ma'no-mazmunini ifodalaydi. Tarixga nazar tashlasak, siyosiy jihatdan ozod va erkin bo'lgan davrlarda yurtimizning ijtimoiy, iqt-y, mad-y hayoti gullab-yashnaganini, mustamlakachilik sharoitida esa u chuqur inqirozga yuz tuta boshlaganini ko'ramiz. Mustaqillik milliy qadriyatlar, mad-t va an'analarni, ma'-yatni tiklab, odamlarimiz qalbida milliy g'urur va iftixorni, ozod va obod Vatan tuyg'ularini kamol toptirishga zamin yaratdi. Milliy istiqloq mafkurasining bosh g'oyasida mustaqillik, ozodlik, erkinlik t.lari ning ustuvor va etakchi o'rinda turishi, Vatan ozodligi barcha orzu-intilish, istiqloqni mustahkamlashga doir amaliy faoliyat ko'lami va yo'nalishlari uchun asos ekanidan dalolat beradi.

**Oila** – er-xotinlik ittifoqiga, qarindoshlik aloqalariga, umumiy xo'jalik yuritadigan er va xotin, ota-ona va bolalar, aka-uka va opa-singillar, bobo-buvilar va b. qarindoshlar o'rntasidagi munosabatlarga asoslanadigan kichik ijtimoiy guruh, jamiyatning asosi, davlat qudratining manbayi. Oilaning hayoti moddiy (biologik, xo'jalik) va ma'naviy (axloqiy, huquqiy, psixologik) jarayonlar bilan xarakterlanadi. O.ning ma'naviy olami serqirra hodisa bo'lib, nainki Oilaning jamiyatdagi siyosiy-ijtimoiy mavqeyini, balki tarixiy taraqqiyotga xos xususiyatlari, sh-dek, iqt-y imkoniyatlari, demografik va etnografik, etnopedagogik va etnopsixologik

an'analarni ham hamrab oladi. Oilaning inson ma'naviy kamolotida tutgan o'rni ham beqiyosdir. Shu ma'noda, O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti I.A.Karimov ta'kidlaganidek, "Xalqimiz tarixiga nazar tashlaydigan bo'lsak, eng qimmatli an'analar: halollik, rostgo'ylik, or-nomus, sharmu hayo, mehru oqibat, mehnatsevarlik kabi barcha insoniy fazilatlar, eng avvalo, oilada shakllanadi". Oila – tarixiy kategoriya. Uning shakl va funksiyalari mavjud ijtimoiy munosabatlar xarakteri, sh-dek, jamiyatning mad-y taraqqiyoti darajasiga bog'liq. O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksi 1998-yil 30 – aprelda qabul qilingan.

**Oila huquqi** – nikoh tuzish tartibi va shartlari, nikohning tugatilishi, nikohning haqiqiy emasligi, oilada er va xotin o'rtasida, ota-ona bilan bolalar o'rtasida, oilaning boshqa a'zolari o'rtasida kelib chiqadigan shaxsiy va mulkiy munosabatlarni, farzandlikka olish, vasiylik va homiylik, bolalarni oilaga tarbiyaga olish tufayli kelib chiqadigan munosabatlarni, fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish tartiblarini belgilaydigan huquqiy normalar yigindisi.

**Oilaning ma'naviy olami** – serqirra hodisa bo'lib, naiki oilaning jamiyatdagi siyosiy – ijtimoiy mavqeyini, balki tarixiy taraqqiyotiga xos xususiyatlari, shuningdek, iqtisodiy imkoniyatlarini, demografik va etnografik an'analarni ham qamrab oladi.

**Oila ilmiy-amaliy markazi** – 1998-yil 2 – fevrida O'zbekiston Respublikasi xotin-qizlar qo'mitasi huzurida tuzildi.

**Oilaning asosiy vazifasi** – oila jamiyatdagi barcha ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va ma'naviy islohotlarning ma'no-mohiyati, fuqaro uchun ahamiyatini oila a'zolari ongiga bevosita singdiradigan muqaddas dargohdir.

**Oilaviy tadbirkorlik** – oila a'zolari tomonidan tavakkal qilib va o'z mulkiy javobgarligi ostida daromad (foyda) olish maqsadida amalga oshiriladigan tashabbuskorlik faoliyatidir. O'zbekiston Respublikasining qonuni oilaviy tadbirkorlik to'g'risida 2012-yil 26 – aprelda qabul qilingan.

**Okkultizm** – (lot. *oscultus* – sirlı, *yashirin*, *botiniy*) – maxsus ruhiy mashlar, alohida marosimlar natijasida ayrim insonlarga bila oladigan koinotdagi sirlı kuchlar mavjudligini e'tirof etadigan ta'limot. O. gilozozm va panteizmga yaqin turadi. O.ning mustaqil soha sifatida ajralib chiqishi so'nggi antik davrdagi ellinlar dini – sinkretizm bilan bog'liq. I-IV a.larda Aleksandriyada O.ning afsonaviy asoschisi Regmas Trismegista nomi bilan bog'liq adabiyotlar to'plami vujudga keladi. Shu davrda germetik fanlar hisoblanmish alximiya, astrologiya paydo bo'ladi. O.da insonning irodaviy xatti-harakatlariga olamga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir eta olishi mumkin bo'lgan o'ziga xos tabiat kuchlari sifatida qaraladi. Xristianlikning hukmron dinga aylanishi bilan O. ta'rg'ib ostiga olingan va yashirin faoliyatga o'tgan. Yevropadagi Uyg'onish davrida O. dunyoning o'rta a.lar manzarasining yemirilishiga, sxolastikaning zaiflashuvi va tabiatshunoslikning rivojiga ta'sir ko'rsatdi. XVII a.larda tabiiy fanlarning rivoji esa O.ga bo'lgan ishonchni ma'lum ma'noda yo'qqa chiqardi. Hozirgi ham O. zamonaviy munajjimlar, folbinlar va h.k. faoliyatida namoyon bo'ladi.

**Okrug saylov komissiyasi** – davlat hokimiyati organlariga saylov o'tkazish davrida har qaysi bir mandatli saylov okrugida tuziladi. Oliy Majlisning Qonunchilik palatasiga deputatlar saylovini o'tkazuvchi okrug saylov komissiyasi

Markaziy saylov komissiyasi tomonidan saylovga kamida yetmish kun qolganida komissiyaning raisi, rais o'rinbosari, kotibi va kamida olti nafar boshqa a'zodan iborat tarkibda tuziladi. Okrug saylov komissiyasi a'zoligiga nomzodlar Koraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesining, xalq deputatlari viloyatlar va Toshkent shahar Kengashlarining majlislarida muhokama qilinadi va tasdiqlash uchun Markaziy saylov komissiyasiga tavsiya etiladi. Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar kengashlariga saylov o'tkazuvchi okrug saylov komissiyasi tegishli viloyat, tuman, shahar saylov komissiyasi tomonidan saylovga kamida yetmish kun qolganida komissiyaning raisi, rais o'rinbosari, kotibi va olti-sakkiz nafar boshqa a'zodan iborat tarkibda tuziladi.

**Oligarxiya** – (lot. kamchilik hokimiyati) kichik guruhning siyosiy va iqtisodiy hukmronligiga asoslangan boshqaruv shakli. Oligarxiya – (yunon. *oligarchia*, *oligos so'zidan* – ko'p emas, *arche* – hokimiyat) – kam sonli, tor doiradagi shaxslar guruhining siyosiy va iqtisodiy hukmronligi. Siyosiy oligarxiya tushunchasi butun hokimiyat alohida elita (harbiylar, latifundistlar va boshqalar) qo'liga bo'lgan siyosiy rejimi anglatadi. Ayni bir vaqtda mutlaq hukmronlik amalga oshiriladigan ijtimoiy soha va sotsial qatlamni anglatuvchi "moliya oligarxiyasi", "sanoat oligarxiyasi" kabi tushunchalar ham ishlatiladi. Siyosiy oligarxiyani aristokratiya, zodagonlar va siyosiy elitadan farqlay bilish kerak.

**Ombudsman** – inson huquqlari bo'yicha vakil; maxsus saylab yoki tayinlab qo'yiladigan lavozim, parlament oldida hisobotli vazir. Ombudsman fuqarolarni davlat amaldorlari tazyiqidan siyosiy himoya qilish instituti sifatida G'arbiy Yevropada shakllangan. Bu institut birinchi bor Shvetsiyada tashkil topgan va oddiy fuqarolarni amaldorlarning noqonuniy va adolatsiz harakatlaridan himoya qilgan. Skandinaviya mamlakatlari, Buyuk Britaniya, Germaniyada bu institut hukumat faoliyati natijasida fuqarolarga yetkazilgan moddiy zarar, amaldorlarning noqonuniy harakatlari borasidagi shikoyatlarni ko'rib chiqadi. Ombudsman bu masalalarni mustaqil hal etish yoki hukm chiqarish vakolatiga ega emas, lekin shunday vaziyatlarni oldini oluvchi choralar bo'yicha takliflar bilan qonunchilik organlariga murojaat qila oladi. Ular ko'rib chiqqan ishlar kamdan-kam hollarda jinoiy javobgarlik bilan yakunlanadi, lekin keng jamoatchilik fikriga murojaat va oshkoralik – amaldorlarni o'z siyosatlarini o'zgartirishga majbur qiladi. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Inson huquqlari bo'yicha Vakili (Ombudsman) lavozimi O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti I.A.Karimov tashabbusi bilan 1995-yilda tashkil etilgan.

**Omil** (a. – ish-harakat, voqea-hodisa va shu k.ning yuzaga chiqishi, sodir bo'lishi uchun zarur sabab) – ro'y berayotgan jarayonning sababi, harakatlantiruvchi kuchi yoki uning asosiy shartlaridan biri.

**Omma** (a. – umum, ko'pchilik, xalq) – siyosiy jarayonning biror-bir yaxlit tuzilmaviy tashkilotga ega bo'lmagan, o'ta o'zgaruvchanligi, vaziyatga qarab amal qilishi va umuman nomuayyanligi bilan farqlanib turuvchi subyektlaridan biri. Shunday bo'lsa ham omma siyosatning mustaqil subyekt bo'lib, uning ongi, xulq-atvori, kayfiyati ommaviy psixologiyaning alohida bo'limi tomonidan o'rganiladi, negaki ommaviy shakllar o'zining siyosiy ahamiyatiga ko'ra siyosiy psixologiyaga daxldordir. Ommaviy psixologiya fani alohida olingan inson-

ga nisbatan qabila, xalq, tabaqa, qatlam, institut a'zosi yoki ma'lum vaqtda va muayyan maqsad uchun ommaga aylanadigan olomonning tarkibiy qismi sifatida qaraydi (Z.Freyd). Omma psixologiyasiga bag'ishlangan dastlabki konsepsiyalar va risolalar XIX asrning ikkinchi yarmida, ya'ni jahon siyosiy jarayonida siyosatchilardan tashqari omma ham muhim rol o'ynagan davrda paydo bo'ldi. Siyosat maydonida yangi subyekt sifatida ommaning paydo bo'lishi jiddiy ijtimoiy va siyosiy silsilalar keltirib chiqargan sanoatlashuv va urbanizatsiyaga bog'liq. Siyosiy xulq-atvordagi stixiyali ommaviy harakatlar, qoida tariqasida, odamlarning ishonchsizlik va qo'rquvni keltirib chiqaruvchi siyosiy tanglik hamda nobarqarorlikka nisbatan bildirgan munosabatidir. Bunday munosabatlar uchun ongli va pragmatik his-tuyg'ular ustidan Irratsional instinktlarning ustun kelishi, individlarning "poda" his-tuyg'usiga berilib shuursiz holda olomon qonunlariga binoan harakat qilishi, jazavaga tushish, mas'uliyatsizlik, tajovuzkorlik, past intellekt, yengib bo'lmay kuch va qudratni his qilish, harakatni boshlab qo'yib, o'zini to'xtata bilmaslik va boshqa shu kabilar xosdir. Qo'rquv, hukumat va rasmiy axborot vositalariga ishonchsizlikning ortib borishi kabi psixologik omillar olomon o'rtasida har xil mish-mishlar, vahimalar, janjallar kelib chiqishiga sabab bo'ladi. Shuni ta'kidlash lozimki, bunday vaziyatdan foydalanish uchun payt poylab turgan va shu orqali muayyan siyosiy kapital to'plashga hozir bo'lgan siyosiy kuchlar hamisha topiladi. Tarix esa, juda ko'p voqealar misolida, birinchi navbatda, fashizm va bolshevizm misolida jamiyatni olomon-ommaga aylantirish totalitar rejim paydo bo'lishining shartlaridan biri va bu rejim siyosatining oqibati ekanligini ko'rsatib bergan.

**Ommaviy** – 1) ommabop, hamma uchun tushunarli, oddiy bayon qilish; 2) keng xalq ichida tanilgan muhabbat va muvaffaqiyat qozongan.

**Ommaviy jamiyat** – hozirgi zamon jamiyatining o'ziga xos qator tomonlarini ifodalovchi t. Jamiyat barcha sohasining keng ommaviylashuv jarayoni tubdan yangi mehnat quroli – mashinalarning paydo bo'lishidan boshlangan edi. Ommaviylashuv iqtisodiyot sohasida boshlanib, asta-sekin jamiyatning boshqa sohasini ham hamrab oldi. Ommaviy jamiyat nazariyasi ildizlari o'rta asrlardagi an'anaviy ijtimoiy munosabatlarga zid ravishda shakllangan yangi munosabat larga qarshi konservativ g'oyalari bilan bog'liq (E.Berk, J.De Mestr, A.Bonald). Yangi tartiblarning muqarrarligini anglagan fransuz mutafakkiri A.Tokvil (1805-1859) yangi jamiyatni undagi erkinlik va tenglik munosabat lari n.nazaridan tavsiflaydi. Ommaviylashuv jarayonining har jihatdan chuqurlashib borishi jamiyat taraqqiyotida qonuniy, zaruriy hodisa bo'lib, kelgusi jamiyat va inson qiyofasini belgilashda turli imkoniyatlar yaratadi.

**Ommaviy axborot vositalari** – aholiga axborotni nashrlar, texnik, ko'rgazma-li va boshqa shakl va vositalar yordamida etkazish tizimi, shuningdek, madaniy va siyosiy subyektlar o'rtasida kommunikatsiyani san'at, ommaviy tomoshalar, sport va axborot yetkazish imkonini beruvchi boshqa hodisalar orqali amalga oshirishdir. OAVlari ta'siri odamlarga muayyan axborotni, ma'lumotlarni tarqatish (yashirish) orqali amalga oshiriladi va uning o'ziga xosligi shundaki, bu ta'sir tashqi bosim sifatida qabul qilinmaydi. Axborot-kommunikatsiyalarning mazmuni – axborotdir (nutqiy, audivizual, belgili, ochiq, yashirin v.h.). OAVlari hokimi-

yati ana shu axborotni, uning mazmuni va yo'nalishini boshqarishni anglatadi. OAVlari hokimiyatining o'ziga xos siyosiy ta'sir xususiyatlari mavjud: 1) ta'sirning sezilmasligi va retsipientlarning deyarli qarshilik ko'rsatmasligi. Masalan, inson – unga muntazam ravishda beriluvchi muayyan siyosiy axborotni qabul qilishi natijasida o'zi sezmaganda holda hokimiyat ittifoqchisiga aylanishi, o'z manfaatlariga zid ovoz berishi, siyosiy hayotdan begonalashishi mumkin; 2) tarqalishining globalligi, tezligi va cheksizligi. Fuqarolar va hududlarni zararli deb hisoblangan axborotlardan bugun hech bir davlat asray olmaydi; 3) istalgan ijtimoiy yoki xususiy hodisani tahlil qilishi mumkinligi. Muayyan faktlarni jamoatchilikka muayyan tarzda taqdim etib, baholab, sharhlab ularga nisbatan jamoatchilik munosabatini belgilaydi. OAVlari inson mentaliteti, qadriyatlarini, ehtiyojlari, manfaatlarini, ijtimoiy fikr, axloq, ma'naviyatiga ta'sir etish orqali siyosatga ta'sir etadi. OAVlari – axborot quroli, bu qurolning ommaviy qo'llanishi axborot urushi deb ataladi. 2016-yilning 1 – yanvar holatiga ko'ra, O'zbekistonda davlat ro'yxatidan o'tgan ommaviy axborot vositalari soni 1437 taga etdi. Shundan – 690 gazeta, 300 jurnal, 96 tele va radiokanal, 332 veb-sayt hisoblanadi. Qiyoslash uchun 1994-yilda 475 OAV lari, shu jumladan, 384 gazeta, 66 jurnal, 19 ta telestudiya, 3 kabel televideniyesi, 2 radiostudiya va bir agentlik bo'lganini ko'rsatib o'tish mumkin. Mamlakatimizda OAV lari rivojlanishida mustaqil nashrlar va O'zbekiston Axborot agentliklarini qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish Ijtimoiy Fondi, elektron OAV lari Milliy Assotsiatsiyasi, jurnalistlar ijodiy ittifoqi singari nodavlat tashkilotlari alohida o'rin tutadi. Ommaviy axborot vositalari – keng ko'lamda axborotni yig'ish, ishlash va tarqatishni ta'minlovchi ijtimoiy institutlar va kanallar (matbuot, kitob nashriyotlari, matbuot agentliklari, radio, televideniye va h.k.). Ommaviy axborotni davriy tarqatishning doimiy nomga ega bo'lgan hamda bosma tarzda (gazetalar, jurnallar, axborotnomalar, byulletenlar va boshqalar) va (yoki) elektron tarzda (tele-, radio-, video, kinoxronikal dasturlar, umumfoydalanishdagi telekommunikatsiya tarmoqlaridagi veb saytlar) olti oyda kamida bir marta nashr etiladigan yoki efirga beriladigan shakli hamda ommaviy axborotni davriy tarqatishning boshqa shakllari ommaviy axborot vositasidir. «Ommaviy axborot vositalari to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi qonuniga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish haqida. (O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2007 y., 3-son, 20-modda)

**Ommaviy madaniyat** – madaniyatning murakkab, hamma vaqt bir xil talqin qilinmaydigan o'ziga xos shakli. O.m.ni G'arb mad-ti bilan bog'liq hodisa deb tushunish, sh-dek, uni g'oyasizlik, sifatsizlik va didsizlik namunasi sifatida baholash keng tarqalgan. O.m.ning yuzaga kelishi va riv-shi ayni paytda ijtimoiy qadriyatlarni sodda, barcha uchun tushunarli bo'lgan tilga ko'chirish, ommaviy savodxonlikning o'sishi, nashr mahsulotlarining paydo bo'lishi hamdir. Uzoq vaqt davomida dunyoqarash va xulq me'yorlari ustozdan shogirdlarga yakka tartibda o'tib kelgan. O.m. xalq madaniyatidan farqli o'laraq, nafaqat milliy, balki millatlararo, baynalmilal xususiyat kasb etishi, ayni paytda, umuman, *milliylikdan uzoq bo'lishi ham mumkin*. Ko'pgina hollarda O.m.ning muayyan namunasi milliy mansubligini faqat uning tili yoki ijrochisiga qarab ajratish mumkin. O.m. asl kishilik mad-tiga zid, uni poymol etadigan, mohiyatini buzadigan va oxir-oqibat insonni jon saqlashdan o'zga maqsadi bo'lmagan jon-



zot, hayvon darajasiga tushiradigan, xalqni esa olomonga aylantiradigan hodisadir. Globallashuv jarayonlari va uning yo'nalishlaridan biri bo'lgan O.m. ekspansiyasi ta'sirida qadriyatlar tizimida sodir bo'ladigan tub o'zgarishlar-ijtimoiy mavjudot hisoblangan insonda muayyan o'zgarishlarni keltirib chiqaradi, inson va jamiyat ma'naviy-axloqiy tayanchlaridan mahrum etiladi, jamiyat inqirozga uchraydi.

**Ong** – aql-tafakkurni ifoda etadigan asosiy fal-y kategoriyalardan biri. Ong ko'p qirrali va murakkab bo'lgani tufayli fal., psixologiya, psixiatriya, fiziologiya, kibernetika, informatika singari turli fanlarning o'rganish obyekti hisoblanadi. Ong tarkibi quyidagi unsurlardan tashkil topadi: sezgi, idrok, tasavvur, fikr, his-hayajon, iroda. Odamning fikrlash qobiliyati nazarda tutilganda, ong va aql atamalari ma'nosi bir-biriga mos keladi: O. ham, aql ham odam miyasining mahsulidir. Odam anglaydi, ya'ni, aql yuritadi, fikrlaydi. Odamning ijtimoiy hayotni tushunishi, sezishi, unga munosabati uning ongida yuz beradi. Siyosiy ong, ijtimoiy ong iboralari ana shundan kelib chiqqan. Ongli ravishda fikr yuritish – bu ong, aql-idrok bilan ish tutishdir. Odam atayin, ko'ra-bila turib ham, ya'ni ongli ravishda biror yomon ishga qo'l urishi mumkin. Bu uning qilmishi deyiladi. Odamning zakovat darajasi – fahmi, idroki, zehni, donoligi, yetukligi uning aqliga bog'liq. Aqli raso deganda, miyasi butun kishi tushuniladi.

**Opponent** – (lot. e'tiroz bildiruvchi) bahsda biror kishining fikriga, mulohazasiga e'tiroz bildirib, uni qisman yoki to'la rad etuvchi kishi.

**Optatsiya** – (lot. istak, tanlov) bir davlatdan ikkinchi davlatga o'tayotgan hududda yashayotgan aholiga fuqarolikni tanlash huquqining berilishi.

**Optimizm** – (lot. eng yaxshi) hayotga, rivojlanish, kelajakka ishonch bilan sug'oriigan dunyoqarashi. O. kechayotgan voqea yoki hodisaning porloq istiqboliga, ezgulikning qabohat, yaxshilikning yomonlik, adolatning adolatsizlik, yorug'likning qorong'ulik, qurlikning zulm ustidan albatta g'alaba qilishiga kuchli ishonishdir.

**Orientalizm** – Sharqqa o'xshashlikka intilish, siyosat va madaniyatda Sharqqa xos elementlarning kuchayishi.

**Orientatsiya** – (lot. sharh) 1) vaziyatni, ro'y berayotgan voqealarni aniqlash; 2) siyosatdagi faoliyat yo'nalishini aniqlab olish.

**Ortodoksal** – (gr.) qandaydir sohada belgilangan qoida va tamoyillarga hech ikkilanmay ergashish.

**Or-nomus** – iymonli bo'lishning belgilaridan biri hisoblanadi. Or qilish odamning o'ziga nomunosib yoki ep ko'rmagan ishdan, narsadan xijolat tortish, uyalish, uyat va nomus qilish tuyg'usidir. Or yana biror narsadan hazar qilishni ham bildiradi. Oriyat esa or-nomusdan tashqari izzat-nafs, qadr tuyg'usidir. Odatda oriyatli odamlar o'zlari va oilalarining, tug'ishganlarining izzat-nafsi, qadri, xurmatini yuksak tutib, boshqalar tomonidan toptalishi, xaqorat qilinishi va hurmatsizlanishiga loqaydlarcha qarab turmaydi, turlmaydi. Nomus – bu iffat, bokiralik ma'nolaridan tashqari kishining o'z mavqeyini saqlash, ulug'lash va ardoqlash, xijolat tortish tuyg'usini, oila va ajdodlar sha'niga dog' tushirmaslik ma'nosini ifodalaydi.

**Ostrakizm** – (gr. sopol parchasi) mamlakat uchun xavfli shaxslarning nomi-

ni sopol parchalariga yozish va yashirin ovoz berish yo'li bilan quvg'in qilishning qadimiy Gretsiyadagi odati; quvg'in, ta'qib, haydash.

**Osiyo taraqqiyot banki (OTB)** – Osiyo taraqqiyot banki – Osiyo va Tinch okeani mintaqasi mamlakatlaridagi rivojlanish loyihalarini uzoq muddatli kreditlash bo'yicha yirik mamlakatlararo moliya institutlaridan biridir. Bank 1965-yilda tashkil etilgan, shtab-kvartirasi Manilada (Filippin) joylashgan. OTBning asosiy maqsadi – Osiyo va Tinch okeani mintaqasidagi rivojlanayotgan mamlakatlarning iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyotiga ko'maklashishdir. OTB Prezidenti 5 yil muddatga saylanadi. 2013-yil yanvardan Bank prezidenti T.Nakao (Yaponiya) hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi 1995-yil avgust oyida OTBning a'zosi bo'lgan. 1997-yilda Toshkentda OTB vakolatxonasi ochildi. Vakolatxona rahbari – T.Konishi. Respublika OTBning mintaqaviy a'zolari orasida 15 – eng yirik aksioner va 14 – eng yirik benefetsiar deb sanaladi. O'zbekistonda OTB bilan birgalikda amalga oshirilayotgan *dastur va loyihalar 4 asosiy tarmoqlarni o'zida birlashtirgan*: qishloq xo'jaligi, xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish, transport va bojxona tranziti sohasida mintaqaviy hamkorlik, bolalar himoyasi va boshlang'ich ta'limni egallashga qaratilgan ijtimoiy xizmatlarni takomillashtirish. 2010-yilning 1-4-may kunlari Toshkent shahrida OTB Boshqaruvchilar kengashining 43-majlisi o'tkazildi, unda 2,3 ming kishi atrofida ishtirok etib, ularning 1,3 mingdan ortig'i xorijiy vakillar bo'ldi. Ushbu tadbir OTB ning Markaziy Osiyo va Kavkaz mintaqasida o'tkazgan birinchi yig'ilishi bo'ldi. 2012-yil sentyabrda, OTB O'zbekiston Respublikasi bilan 2012-2016-yillarga mo'ljallangan mamlakat bilan hamkorlik strategiyasini (MHS) qabul qildi. Yuqoridagi strategiya O'zbekistonda infratuzilma rivoji va sanoatni modernizatsiya qilish maqsadlariga erishish uchun qaratilgan 2013-2015-yillarda O'zbekiston Respublikasi aholisining farovonligini oshirish strategiyasi bilan muvofiqlashtirildi. MHSda asosiy e'tibor shahar infratuzilmasi va uy-joy xizmatlari, kommunikatsiya, energetika, suv tarmoqlari va transport rivojini qo'llab-quvvatlashga va moliyaviy xizmatlar imkoniyatlaridan foydalanishni kengaytirishga qaratilgan. O'zbekiston va OTB o'rtasidagi hamkorlikning muhim yangi yo'nalishi muqobil energiya manbalarini rivojlantirish hisoblanadi. 2013-yil 20-23-noyabrda Toshkent shahrida OTB bilan birgalikda Osiyo quyosh energiyasi forumining 6-yig'ilishi o'tkazildi. Tadbir-da 300 dan ortiq xorijiy mehmonlar ishtirok etdilar. 2014-yilda OTB O'zbekistonda energiyaga nisbatan o'sib borayotgan talabni qondirish, samarali energiya quvvatlarini rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash maqsadida 300 mln. AQSH dollar miqdorida zayom ajratdi. Osiyo taraqqiyot fondi va boshqa maxsus fondlar, oddiy kapital resurslaridan moliyalashtiriladigan O'zbekistondagi grant loyihalari va zayomlar bo'yicha o'zlashtirilgan mablag'larning umumiy yig'indisi 2,01 mlrd. AQSH dollarini tashkil qildi. O'tgan muddat ichida, OTB xususiy sektorga 225 mln. AQSH dollari miqdoridagi ikkita zayom va texnik ko'mak grantlari ko'rinishidagi 61,7 mln. AQSH dollarini o'z ichiga olgan umumiy miqdori 4,1 mlrd. AQSH dollariga teng bo'lgan 54 zayomni ajratdi.

**OQXJ – Orolni qutqarish xalqaro jamg'armasi.** Markaziy Osiyo mamlakatlari va uning 60 millionlik xalqining tashvishlantirib kelayotgan hozirgi zamoning eng yirik global ahamiyatga ega ekologik fojialaridan biri – Orol den-

gizi muammosinig ekologik, ijtimoiy-iqtisodiy va gumanitar oqibatlari mintaqaning barqaror rivoji, genofondi va kelajak avlodiga to'g'ridan to'g'ri tahdid manbaya bo'lib kelmoqda. Orolbo'yi muammosi bevosita Turkmaniston, Qozog'iston va O'zbekiston hamda bilvosita Tojikiston va Qirg'iziston hududlarini qamrab oladi. Orolbo'yi hududi o'zining xilma-xil hayvonot va o'simlik dunyosiga ega bo'lib, ushbu havzada 38 turdagi baliq va kamyob hayvonlar mavjud bo'lgan. Jayronlar 1 million boshgacha yetib, flora 638 turdagi kamyob o'simliklarni tashkil etgan. Orol dengizi 1960-yilgacha eng yirik yopiq suv havzalaridan biri bo'lib, hududi 68,9 ming kv. km., suv miqdori 1083 kub. km., uzunligi 426 km., kengligi 284 km. va eng chuqur joyi 68 metrni tashkil qilgan. Orol dengizi mintaqa iqtisodining rivoji, sanoati (ishlab chiqarish tarmog'i), aholining ish bilan bandligi va barqaror ijtimoiy infratuzilmani shakllanishida muhim ahamiyatga ega bo'lgan. Avval ushbu dengiz baliq yetishtirish bo'yicha dunyodagi ilg'or maskanlaridan biri hisoblangan bo'lib, Orolbo'yi havzasidagi yillik baliq obvlash hajmi 30-35 ming tonnani tashkil qilgan. Orol dengizi qirg'oqlarida yashovchi aholining 80 foizdan ko'prog'i baliq va baliq mahsulotlarini ovlash mahsulot tayyorlash va yetkazish bilan band bo'lgan. Amudaryo va Sirdaryo deltalarining unumdor yerlari hamda mahsuldor yaylovlari 100 mingdan ziyod odamlarning chorvachilik, parrandachilik bilan mashg'ul bo'lishini hamda qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirishini ta'minlagan. Shuningdek, Orol dengizining iqlimini tartibga soluvchi havza hamda butun mintaqada ob-havoning keskin o'zgarishini kamaytirishdagi vazifasi aholi turmushi sharoitlariga, qishloq xo'jaligi va ekologik holatga ijobiy ta'sir korsatardi. Orol dengizi akvatoriyasi ustida qish vaqtida mintaqaga kirib keladigan ulkan havo oqimi iliqlashgan, yozgi vaqtda esa sovuqlashgan. Orol dengizi muammosi XX asrning 60-yillarida mintaqadagi ikki yirik transchegaraviy daryolar Amudaryo va Sirdaryo suv resurslaridan oqibatini o'ylamasdan foydalanish natijasida paydo bo'ldi va ulkan tahdid manbayiga aylandi. Ushbu ikki daryodan Orol dengiziga har yili 56 kub. km. suv quyilgan. Aholining sezilarli tarzda ko'payishi, urbanizatsiya, yerlarning shiddat bilan o'zlashtirilishi, ekologik oqibatlarni o'ylamasdan Orol dengizi havzasida yirik gidrotexnik va irrigatsiya inshootlarining qurilishi sayyoradagi eng xushmanzara havzalardan birining qurishiga olib keldi. Bir avlod ko'z o'ngida butun bir dengiz qurib, Orolbo'yini jonsiz sahroga aylantirgan ekologik degradatsiya jarayoni davom etmoqda. 1990-yillardan boshlab Orol fojiasining halokatini boshidan kechirayotgan barcha mamlakatlar Birlashgan Millatlar Tashkiloti, shuningdek boshqa xalqaro va mintaqaviy tashkilotlar minbarlaridan jahon hamjamiyatining diqqat-e'tiborini Orol muammosiga, uning mintaqaviy va global xavfsizlik bilan chambarchas bog'liq ekanligiga jalb etib kelishmoqda. 1993-yil 28-sentyabrda BMT Bosh Assambleyasiningning 48-sessiyasida va 1995-yil 24-oktabrdagi 50-sessiyasida Markaziy Osiyo mintaqasi mamlakatlari vakillari jahon hamjamiyatini Orol va Orolbo'yini qutqarishda ko'mak berishga chaqirdilar hamda ushbu muammorni xalqaro moliyaviy tuzilmalar, rivojlangan davlatlar ko'magisiz va BMTning shafeligisiz amalga oshirish mumkin emasligiga BMTning e'tiborini qaratishdi. Ushbu muammolarni hal etish bo'yicha mintaqaviy hamda milliy miqyosda amaliy sa'y-harakatlar amalga oshirilmogda. 1993-yilda Qozog'iston, Qirg'izis-

ton, Tojikiston, Turkmaniston va O'zbekiston ishtirokida tashkil etilgan Orolni Qutqarish Xalqaro Jamg'armasi (OQXJ) bunga yorqin misol bo'ladi. Orolbo'yi-ning biofondini saqlash, ekologik muammoning atrof-muhitga va eng asosiy-si mintaqada yashayotgan insonlarning hayotiga halokatli ta'sirini qisqartirish kabilar Tashkilotning muhim vazifasi qilib belgilab olindi. OQXJ faoliyatining hozirgi vaqtdagi asosiy natijasi Orol dengizi havzasi mamlakatlari uchun uchta ko'mak Dasturining qabul qilinishi bo'ldi (ODHD – 1, ODHD – 2, ODHD – 3).

O'zbekiston OQXJning asosiy ta'sischi davlati bo'lib, tashkilot faoliyatining har tomonlama mustahkamlanishida muhim hissa qo'shmoqda. 1997-1999-yillardagi OQXJda raisligi davrida O'zbekiston Respublikasi tashkilotning huquqiy asosini (bazasini) takomillashtirishga va Orol dengizi havzasining barqaror rivojlanishi ta'minlash maqsadida xalqaro tashkilotlar va moliyaviy institutlar bilan aloqa hamda o'zaro hamkorlikni omatishda faol harakat qildi. 1997-yilning oktabrida Toshkent shahrida donorlarning texnik masalalar bo'yicha xalqaro uchrashuvi bo'lib o'tdi. Ushbu uchrashuv natijasida "Orol dengizi havzasida atrof-muhit va suv resurslarini boshqarish" xalqaro loyihasini amalga oshirish boshlandi. 2008-yilda O'zbekiston Respublikasining tashabbusi bilan Toshkentda Orol muammosi bo'yicha xalqaro konferensiyaning tashkil etilishi ushbu muammoning xalqaro doirada keng muhokama etilishida muhim turtki bo'ldi. Konferensiya ishida 60 dan ziyod xalqaro tashkilotlar, Yaponiya, Germaniya, XXR va arab davlatlarining yirik moliyaviy institutlari vakillari hamda yetakchi tadqiqot markazlar mutaxassislarining ishtirok etishi bunga yaqqol misol bo'la oladi. Konferensiya yakuni bo'yicha umumiy qiymati 1,5 mlrd. AQSH dollarini tashkil etadigan Orol fojiasining og'ir oqibatlarini yumshatishga yo'naltirilgan loyihalarni amalga oshirish bo'yicha Toshkent Deklaratsiyasi va Ish rejasi qabul qilindi. Milliy miqyosda O'zbekiston Respublikasi Orol dengizi qurishining salbiy oqibatlariga qarshi kurashda keng chora tadbirlarni amalga oshirmoqda. 1990-yillardan boshlab yuzlab dastur va loyihalar amalga oshirildi. 2013-yil Orolbo'yida Amudaryo deltasida kichik suv havzalarini tashkil etish, sho'rsizlantiradigan qurilmaga ega suv chiqarish inshootlarini qurish, himoya o'rmonlarini tashkil etish va Janubiy Orolboyi havzasi ornitologik monitoringi kabi loyiha va tadbirlarni moliyalashtirishga umumiy qiymati 1,3 mlrd. AQSH dollari ekvivalentidagi reja tasdiqlangan. 2013-yilning avgust oyidan OQXJga raislik qilish O'zbekiston Respublikasiga o'tdi. 2013-yilning 16-sentyabrida O'zbekiston Respublikasi va OQXJning amaldagi Prezidenti tashabbusi bilan BMT Bosh Assambleyasi 68-sessiyasining rasmiy hujjati tariqasida "Orolning qurishi oqibatlariga barham berish va Orolbo'yi ekotizimi halokatini oldini olish tadbirlari Dasturi" tarqatildi. Ushbu Dastur BMT Bosh kotibi Pan Gi Mun tomonidan har tomonlama qo'llab-quvatlandi. "Orolning qurishi oqibatlariga barham berish va Orolbo'yi ekotizimi halokatini oldini olish tadbirlari Dasturi" Orol muammosi oqibatlariga barham berish bo'yicha quyidagi muhim tadbirlarni amalga oshirishni ko'zda tutadi:

I. Orolbo'yida yashash, aholi genofondini qayta tiklash va saqlash uchun sharoit yaratish;

II. Suv resurslari boshqaruv tizimini takomillashtirish va undan tejamkorlik bilan foydalanish. Orol dengizi akvatoriyasida tabiiy havzalar tizimi saqlash;

III Qurib borayotgan Orol dengizi o'rnida daraxtzorlar tashkil etish va ushbu mintaqani sahroga aylanishini oldini olish bo'yicha keng ko'lamda tadbirlarni amalga oshirish;

IV. Bio xilma-xillikni saqlash, biologik resurslarni qayta tiklash, hayvonot va o'simlik dunyosini saqlash;

V. Kelgusida OQXJning institutsional asoslarini takomillashtirish va ushbu tashkilot doirasida mintaqa mamlakatlari hamkorligini mustahkamlash, shuningdek Orol fojiasi bilan bogliq muammolarni hal etishga jahon hamjamiyatining etiborini qaratish;

Shu bilan birgalikda, Orol dengizi qurishining ekologik, ijtimoiy-iqtisodiy va gumanitar oqibatlarining keskinlashuvini hamda Orolbo'yida yashovchi aholi turmush sharoiti inqirozinining kuchayayotganligini hisobga olib, BMT va jahon hamjamiyatining jiddiy ko'magisiz ushbu global muammoni hal etish mumkin emasligi tobora aniq bo'lib bormoqda. Orol dengizi mintaqasida ekologik va ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatni yaxshilashga qaratilgan dastur va loyihalarni amalga oshirish borasidagi jahon hamjamiyatning sa'y-harakatlarini safarbar qilish hamda xalqaro hamkorlikni yanada rivojlantirishni takomillashtirish va ekologik falokatning ta'sirini kamaytirish maqsadida 2014-yilning 28-29-oktabr kunlari Urganch shahrida "Orol dengizi mintaqasidagi ekologik ofat oqibatlarini yumshatish bo'yicha hamkorlikni rivojlantirish" mavzusida xalqaro konferensiya bo'lib o'tdi. Xalqaro konferensiya yakunigalariga binoan milliy va mintaqaviy loyihalarni amalga oshirish maqsadida umumiy miqdori 3 mlrd. AQSH doll.ni tashkil qilgan kelishuv va shartnomalar imzolangan. Mazkur mablag'ning 200 mln. AQSH doll. teng miqdorini grant mablag'lar tashkil qilmoqda. 2015-yil 24-martda Toshkentda Jamg'armaning mintaqaviy organlari ishtirokida "Orol dengizi mintaqasida ekologik falokatlarni kamaytirish" mavzusida "davra suhbat", shuningdek, 2015-yilning 12-17-aprel kunlari Koreya Respublikasining Degu va Gyongbuk shaharlarida o'tkazilgan 7-Butunjahon suv forumi doirasida Orol dengizi muammolariga bag'ishlangan maxsus sessiya bo'lib o'tdi. O'zbekiston Respublikasi o'zining OQXJga raisligi davrida Fondning boshqa ta'asischi davlatlari va xalqaro donor tashkilotlar bilan yaqin hamkorlikda yuqoridagi Dasturda qayd etilgan chora-tadbirlarni amalga oshirishni rejalashtirmoqda.

**Oxlokratiya** – (gr. «qora»lar hokimiyati) olomon hukmronligi.

**Oversold** – ma'lum turdagi mahsulot yoki qimmatli qog'ozlarning bozorda ko'payib ketishi sababli, narxlar keskin tushib ketishi natijasida yuzaga keladigan holat.

## P

**Pablik rileyshnz (PR)** (ingl. *public relation* – ommaga munosabat) – turli hukumat tashkilotlari va boshqa tashkilotlarning jamiyat bilan o'zaro tushunishga erishish, umumiy tasavvurlar yoki umumiy manfaatlarni aniqlash va muayyan prinsiplarga asoslangan ikki tarafli mulokot o'rnatishga qaratilgan xatti-harakatlari sohasi. PRdan foydalanish tarixi Amerika prezidenti Tomas Jeffersondan boshlanadi. U 1807-yilda "Kongressga yettinchi murojaat" deb

nomlangan qo'lyozmasida o'chirib tashlangan "fikr holati" degan so'zlar o'rniga "jamoatchilik bilan munosabatlar – "Public Relations" degan so'zlarni kiritgan. PR iborasidan 1919-yildan e'tiboran foydalanila boshlangan. PR urushdan keyingi davrda faoliyatning alohida turiga aylanib, mustaqil kasb sifatida qaror topdi. Bu sohaning yuqori maqomga ega bo'lgan tashkilotlari yuzaga kela boshladi, chunonchi: Jamoatchilik bilan aloqalar bo'yicha Amerika jamiyati, Amaliy aloqalar bo'yicha xalqaro uyushma, jamoatchilik bilan aloqalar bo'yicha turli davlat uyushmalari va boshqalar. PR hozirgi zamon kommunikativ texnologiyalari, ya'ni muloqot, fikr ayirboshlash va o'zaro tushunish uchun maxsus mexanizmlar yaratish bilan shug'ullanadi. PR turli tashkilotlar va omma o'rtasida o'zaro manfaatli munosabatlar o'rnatuvchi hamda ularni qo'llab-quvvatlovchi boshqaruv vazifasi bo'lib, boshlangan u yoki bu ishning muvaffaqiyati yoxud muvaffaqiyatsizligini belgilab beradi. PRni ko'pincha targ'ibot va reklamaga o'xshatishadi. PR sohasidagi eng mashhur o'quv qo'llanmasining mualliflari (Skott Katlib va boshqalar. "Samarali Pablik Rileyshnz" 1994) turli ta'riflarni jamlab, PR vazifalarini quyidagi tarzda bayon qilib berishgan: menejmentning bir qismi sifatida rejalashtiriladigan va muntazam tusga ega ish olib borish; tashkilotlar va jamoatchilik o'rtasidagi munosabatlarga daxldor ishlar bilan shug'ullanish; tashkilotning ichida ham, tashqarisida ham ong, fikrlar, munosabatlar va xulq-atvorning monitoringini (kuzatuvini) amalga oshirish; siyosat, tartib-taomillar va harakatlarning jamoatchilikka ta'sirini tahlil qilish; siyosat, tartib-taomil va harakatlarning elementlari jamoatchilik manfaatlari hamda tashkilot hayotiga zid kelgan taqdirda, ularni modifikatsiya qilish; siyosat, tartib-taomil va harakatlarning tashkilotlar hamda jamoatchilik bilan o'zaro bog'liq bo'lgan yangi usullarini joriy etishga doir maslahatlar berish; tashkilot va jamoatchilik o'rtasida ikki tarafdin munosabatlar o'rnatish hamda ularni qo'llab-quvvatlash; tashkilot ichidagi va tashqarisidagi fikrlar, munosabatlar hamda xulq-atvoriga maxsus o'zgarishlar kiritish; tashkilot va jamoatchilik o'rtasidagi yangi yoki mavjud munosabatlarga ta'sir ko'rsatish.

**Pakt** – (lot. bitim) xalqaro shartnoma nomlaridan biri.

**Palliativ** – (lot. yashirmoq) qo'yilgan masalani to'liq hal qilmaydigan yarim chora.

**Panelli tadqiqot** – (ingl. ro'yxat) qayta (ikkilamchi) sotsiologik tadqiqot ko'rinishi bo'lib, bir xil ijtimoiy obyektini bir xil dastur va metodika bo'yicha ma'lum bir vaqt intervalida o'rganishni nazarda tutadi. Panelli tadqiqotning bosh maqsadi ijtimoiy jarayon yoki hodisaning rivojlanishi va dinamikasi tendensiyasini muayyan vaqt oralig'ida tadqiq etish. Uning *longitudud* tadqiqotlaridan farqi shundaki, keyingisida obyekt o'zgarishi vaqt funksiyasi sifatida qaraladi. Panelli tadqiqotlarda esa obyekt o'zgarishi nazarda tutilgani holda, ular tashqi sharoitlar natijasi sifatida qaraladi.

**Paradigma** – (gr. na'muna) ilmiy tafakkur uslubi. Ayni vaqtda tan olingan va muayyan ilmiy tadqiqot (bilim)ni belgilovchi omillar birligi. Pozitivist G.Berman tomonidan kiritilgan va amerikalik fizik T.Kun tomonidan tabiiy fanlar uchun keng asoslangan tushuncha. Ilmda muayyan davrda qabul qilingan e'tiqodlar, qadriyatlar, texnik vositalar birligini anglatadi va ilmiy an'analar saqlanishini

ta'minlaydi. Paradigma nazariyadan kengroq tushuncha, uning almashinuvi fandagi inqilobni anglatadi. Siyosatni tushuntirishdagi asosiy paradigmalar: 1) Teologik siyosat va hokimiyatning ilohiy talqini. 2) Tabiiy – a) siyosat tashqi tabiiy muhit ta'siri orqali ta'riflanadi – geografik paradigma; b) siyosat jonli tabiat xususiyatlarini orqali ta'riflanadi – biologik paradigma. v) siyosat inson xususiyatlaridan keltirib chiqariladi – psixologik paradigma. 3) Ijtimoiy siyosat – ijtimoiy hayotning boshqa sohalarini orqali talqin qilinadi. 4) Oqilona-tanqidiy – siyosat uning omillari, masalan, konflikt-konsensus orqali ta'riflanadi.

**Paradoks** – (gr. kutilmagan) 1) barcha e'tirof etgan fikrga o'xshamaydigan, mantiqqa zid bo'lib ko'rinuvchi fikr; 2) odatdagi tasavvurlarga mos kelmaydigan kutilmagan hodisa.

**Pensiya** – fuqarolar keksalik yoshiga etganda yoki mehnat qilish qobiliyatini yo'qotgan taqdirda, oladigan pul ta'minoti.

**Patent** – (lat. patens-guvohnoma, yorliq) – 1) xususiy tarzda tadbirkorlikning biror bir turi bilan shug'ullanishga ruxsat beruvchi guvohnoma, tegishli hujjatlar asosida moliya organlari tomonidan beriladi; 2) ilmiy kashfiyot va ixtiroga mualliflikni tasdiqlovchi guvohnoma. P. davlat tomonidan patentlashtiriladi.

**Parametr** – (gr. o'lchovchi) harf bilan belgilanuvchi va faqat muayyan kontekstda o'z mazmunini saqlab qoluvchi doimiy kattalik.

**Paritet** – (lot. tenglik) teng munosabatlar, bir xil vaziyatda bo'lishlik; tomonlarning teng vakolatlilik tamoyili.

**Parlament** (ingl. parlament, frans. rag1eg – gapirmoq) – demokratik davlatlarda oliy vakillik va qonunchilik organining nomi. Buyuk Britaniya, Fransiya, Italiya, Kanada Belgiya, Moldova, Qozog'iston va boshqa mamlakatlarda oliy vakillik organi «parlament» deb yuritiladi; AQSHda va Lotin Amerikasining ko'pgina mamlakatlarida p. kongress deb, Rossiya Federatsiyasida – Federal Majlis – Rossiya Federatsiyasi P. deb, Litva va Latviyada – seym deb ataladi. Tuzilishiga ko'ra p. bir palatali yoki ikki palatali bo'ladi (qarang: *Ikki palatali tizim*, *Bir palatali tizim*). Tarixda uch palatali p. ham bo'lgan (masalan, JARda 1984-1994 yillarda). P. birinchi marta XIII asrda Angliyada tabaqalarning vakillik organi sifatida tashkil qilindi.

**Parlament nazorati** – davlat nazorati shakllaridan biri. Asosan umuman siyosiy, ba'zi holda ma'muriy tusda bo'ladi. Parlamentar davlatlarda va prezidentlik respublikalarida hukumat faoliyati ustidan Parlament nazorati alohida ahamiyat kasb etadi. Bunday nazoratning asosiy metod va shakli ishonch to'g'risidagi masala, tanbeh rezolyutsiyasi, interpellyatsiya, hukumatga og'zaki va yozma savollar (parlament savollari) parlament tekshirishidir. Prezidentlik Respublikalarida hukumat faoliyati ustidan Parlament nazoratining ahamiyati kamroq; uning asosiy vositasi parlament tekshiruvi hisoblanadi, u istisno hollardagina impichment taomilini qo'llashga olib kelishi mumkin. Keyingi o'n yillikda inson huquqlariga rioya qilinishi ustidan Parlament nazorati borgan sari ko'proq ahamiyat kasb etmoqda, bu turli mamlakatlarda inson huquqlari bo'yicha parlament vakili (*q. Ombudsman*) instituti (tartiboti)ning keng yayilishida o'z ifodasini topmoqda. Parlamentning maxsus organlari: hisob palatasi, hisob sudlari va boshqalar orqali amalga oshiriladigan moliyaviy va moliyaviy-iqtisodiy nazorat

Parlament nazoratining alohida turi hisoblanadi. Parlament nazoratining bu turi endi siyosiy emas, balki ma'muriy tusga ega bo'ladi. O'zbekiston Respublikasida parlament nazorati O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi va Senati tomonidan amalga oshiriladi. 2003-yil 28 – avgustdagi O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi reglamenti va O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining reglamenti to'g'risidagi qonunlariga muvofiq amalga oshiriladi. Bu nazorat parlament so'rovi, Qonunchilik palatasi deputati so'rovi va har yilgi Oliy Majlisning Inson huquqlari bo'yicha vakilining, O'zbekiston Respublikasi Hisob palatasi Raisining, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori, O'zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish qo'mitasi raisining hisobotlarini eshitish orqali amalga oshiriladi. "O'zbekiston Respublikasining Parlament nazorati to'g'risidagi" Qonuni 2016-yil 11 – aprelda qabul qilingan.

**Parlament sessiyasi** (*lot. sessio – yig'ilish*) – parlament (parlament palatalari) va parlament komissiyalarining yalpi majlisi bo'lib o'tadigan davr. Har bir yil mobaynida navbatdagi Parlament sessiyasining necha marta bo'lishi qonun yoki odat bo'yicha belgilanadi. Ko'rsatilgan sondan ortiqcha hamda noodatiy vaqtda chaqiriladigan Parlament sessiyalari favqulodda (navbatdan tashqari, ekstraordinar) sessiyalar deb ataladi. O'zbekiston Respublikasida Qonunchilik palatasi majlislari Konstitutsiyamizning 81-moddasiga binoan sessiyalar davrida o'tkaziladi. Sessiyalar, qoida tariqasida, sentyabrning birinchi ish kunidan boshlab kelgusi yilning iyun oyi oxirgi ish kuniga qadar o'tkaziladi. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati majlislari zaruratga qarab, yiliga kamida uch marta o'tkaziladi.

**Parlament so'rovi** – parlamentar davlatlarda hukumat faoliyati ustidan parlament nazoratining shakllaridan biri. Parlament savollarini deputatlar og'zaki va yozma berishlari mumkin. Parlament reglamenti Parlament savollari berilishi mumkin bo'lgan qoidalarni, ularni kiritish tartibini, shuningdek, hukumat yoki alohida vazir javobni taqdim etishi lozim bo'lgan muddatni belgilaydi. Umumiy qoidaga ko'ra, parlament savoliga javob parlament savoli qanday shaklda (og'zaki yoki yozma) berilgan bo'lsa, shunday shaklda qaytariladi. Parlament savollari va hukumatning ularga javoblari (interpellyatsiyadan farq qilib) hukumatga ishonchsizlik bildirish masalasini qo'yish uchun mustaqil sabab bo'lolmaydi. 2002-yil 12 – dekabrda "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi to'g'risida"gi Qonunning 12-moddasiga muvofiq, Qonunchilik palatasi va Qonunchilik palatasi deputati davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining mansabdor shaxslariga ularning vakolatlariga kiradigan masalalar yuzasidan asoslantirilgan tushuntirish berish yoki nuqtayi nazarini bayon qilish talabi bilan parlament so'rovi yo'llashga haqli. Parlament so'roviga javobni davlat hokimiyati boshqaruvi organlarning mansabdor shaxslari Qonunchilik palatasi majlislarida beradilar.

**Parlament daxlsizligi** – parlament deputatlarining daxlsizligi. Unga ko'ra deputatning harakatlari uchun qamoqqa olish, sudga tortish man etiladi.

**Parlament respublikasi** – respublika ko'rinishlaridan biri. Unda parlament siyosiy jihatdan o'ziga hisob beradigan hukumatni tuzadi; davlat rahbari bo'lgan,



lekin ijro etuvchi hokimiyat huquqiga ega bo'lmagan prezidentni saylaydi va h.k.

**Parlament tipidagi partiya** – vakolatli organlar, shu jumladan, parlamentga saylovlarda ishtirok etish bilan o'zining bosh maqsadi – hokimiyatga erishishni amalga oshiruvchi partiyalar. U hokimiyat organlaridagi faoliyatini o'z vakillari orqali olib boradi va konstitutsion me'yorlarga amal qiladi, boshqa partiyalar bilan qonun doirasida raqobatlashadi.

**Parlament (deputatlar) fraksiyasi** – parlament yoki uning palatasida bir partiyaga mansub deputatlar birlashmasi. Odatda Parlament fraksiyasi tarkibiga partiyaning yetakchilari va ko'zga ko'ringan arboblari kiradi. Parlament fraksiyasi partiyaviy intizom bilan bog'langan bo'ladi. Partiya fraksiyasiga maxsus organlar boshchilik qiladi. Alohida muhim ovoz berishlardan oldin Parlament fraksiyalari kengashib oladi. Parlament fraksiyalarini tashkil etish va ular faoliyati masalalarini parlament va uning palatalari reglamentlari, shuningdek, konstitutsiyaviy odatlar boshqarib turadi. O'zbekiston Respublikasida 2002-yil 12 – dekabrda "O'zbekiston Respublikasining Qonunchilik palatasi to'g'risida"gi qonunining 23-moddasiga muvofiq, deputatlar fraksiyasi quyidagi tartibda tuziladi: Qonunchilik palatasi deputatlari siyosiy, professional va boshqa asosda fraksiyalar va deputatlar guruhlarini shaklida deputatlar birlashmalarini tuzishi mumkin. Fraksiya siyosiy partiyadan ko'rsatiladigan deputatlar tomonidan partiya manfaatlarini Qonunchilik palatasida ifodalash maqsadida tuziladigan va belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tkazilgan deputatlar birlashmasidir. Qonunining 24-moddasiga muvofiq, Qonunchilik palatasining kamida to'qqiz nafar deputati fraksiya yoki deputatlar guruhini tuzish huquqiga ega. Fraksiyalar va deputatlar guruhlarini ro'yxatdan o'tishi kerak. Qonunchilik palatasining majlisida fraksiya va deputatlar guruhining rahbari yoki boshqa vakili fraksiya yoki deputatlar guruhi tuzilgani haqida palataga axborot beradi.

**Parlament komissiyalari** – parlament tashkil qiladigan (palatalarning har birida yoki ikkala palata birgalikda – birlashgan Parlament komissiyalari) yordamchi organlar. Qonunchilik Parlament komissiyalari muhim rolni o'ynaydi, chunki parlament qabul qiladigan qonunlar loyihalari qaror va boshqa hujjatlar loyihalarining katta qismi ko'rib chiqish uchun shu komissiyalarga beriladi. Parlament komissiyalari vakolat muddati, ixtiyordagi mavzu va huquq hajmiga ko'ra doimiy (parlament vakolatining butun muddatiga tashkil etiladi), muvaqqat, ixtisoslashganlarga bo'linadi. Ko'pchilik davlatlar (AQSH, Fransiya, Italiya, GFR, Finlyandiya va boshqalar)da parlamentlar doimiy qonunchilik komissiyalarini tashkil qiladi, bunda qoidaga ko'ra, bu parlament komissiyalari ixtisoslashadi (iqtisodiy, moliyaviy, qishloq xo'jaligi, harbiy va boshqalar). Muvaqqat komissiyalar (ko'pincha ixtisoslashmagan) birorta aniq masalani ko'rib chiqish uchun tashkil etiladi.

**Parlamentarizm** – davlat organlari tizimida parlament yetakchi mavqeni egallaydigan boshqaruv tizimi. Unda qonun chiqaruvchi va ijro vazifalari aniq belgilangan bo'ladi, parlament boshqa davlat hokimiyati organlaridan rasman ustun hisoblanadi. Parlament mavjudligining o'ziga parlamentarizm mavjudligini anglatmaydi. Parlamentarizm parlament mavjud bo'lishini taqozo qiladi, ammo parlamentning haqiqiy hokimiyati parlament respublikasi yoki parlament

monarxiyasi amal qilgan joyda mavjud bo'ladi. Parlamentning hukumat bilan, ya'ni hokimiyat ijro qiluvchi organi bilan o'zaro munosabatlardagi roli asosiy omil bo'lib xizmat qiladi.

**Parlament muxolifati** – hukumatni tashkil qilishda ishtirok etmaydigan, qator prinsipial masalalarda hukumat siyosatiga qarshi chiqadigan birorta partiyaning parlamentdagi deputatlari guruhi yoki parlament fraksiyasi. Qator mamlakatlarda (masalan, Buyuk Britaniyada) parlament reglamentlari yoki odatiy huquq normalari Parlament muxolifati maqomi va huquqlarini mustahkamlaydi, jumladan, parlament muxolifati a'zolarining parlament (yoki uning palatasi) organlaridagi vakillik kvotasini belgilaydi, uning yetakchisiga maxsus maosh tayinlaydi.

**Palatalarning qo'shma majlisi** – ikki palatali tuzilmaga ega bo'lgan parlamentlar ish shakllaridan biri. Qator mamlakatlarda birlarida parlamentning qo'shma majlisi parlament vakolatiga kiradigan eng muhim masalalarni: urush holati yoki safarbarlikni e'lon qilish, davlat byudjetini tasdiqlash, respublika prezidentini saylash va shu kabilarni hal qilish maqsadida, boshqalarida esa faqat davlat boshlig'i maktubini tinglash va boshqa tantanali holatlar o'tkaziladi.

**Parlamentni tarqatib yuborish** – parlamentar davlatlarda, shuningdek, aralash turdagi respublikalarda davlat hokimiyatini amalga oshirish konstitutsiyaviy mexanizmining asosiy elementlaridan biri. Parlamentni tarqatib yuborish (muddatidan oldin parlamentga saylovlarni e'lon qilish) huquqi davlat boshlig'iga tegishli (garchi bundan u, qoidaga ko'ra faqat hukumat «iltimosiga» binoan foydalansada) hamda u hukumatning parlament oldidagi javobgarligi tartibotiga (institutiga) qarshi qo'yiladigan tartib hisoblanadi. Muvofiq davlatlar konstitutsiyalarida odatda parlamentni tarqatib yuborish mumkin bo'ladigan holat va shart-sharoitlar ro'yxati aniq belgilanadi.

**Parlamentyor** – (fran. *parlementaire*) – odatda urush holatida bo'lgan qarama-qarshi siyosiy kuchlarning biri tarafidan dushman taraf bilan o'rtadagi ziddiyatga (urushga) barham berish to'g'risida muzokaralar olib borish uchun vakil qilingan shaxs. Xalqaro huquq va an'anaviy normalarga ko'ra, parlamentlar faoliyatini ta'minlash uchun ularning shaxsi daxlsiz bo'lishi kerak. Kutilmagan holatlarning oldini olish maqsadida parlamentlar oq yoki boshqa ramziy tusga ega bayroqlar, bantlar, sharflar va boshqa shu kabi ramzlardan foydalanadilar.

**Partistipatsiya** – (ingl) ishtirok etmoq; fuqarolar tomonidan davlat va jamiyat ishlarini boshqarish jarayonida u yoki bu funksiyalarni bajarishini shart qilib qo'yadigan demokratiyaning modeliga doir nisbat.

**Partistipatorlik (ishtirok) demokratiyasi** (*ingl, participate – ishtirok etmoq*) – demokratiyaning mumtoz ideallariga qaytish, fuqarolarning qarorlar qabul qilish va ijtimoiy hayotning muhim masalalari muhokamasida ishtirokini kengaytirishdir g'oyalari tayanadi. Siyosiy ishtirokning eng muhim tamoyili – ularga ko'ra – ijtimoiy tenglikdir. Politologlar Kerol Peytman, Kroford Makferson, Djozef Stimmerman, Norberto Bobbio, Piter Baxrax, Bendjamin Barberlarni shu yo'nalish tarafdorlari deysish mumkin. Amerikalik politolog B.Barber fikricha: «To'g'ridan-to'g'ri demokratiya oddiy ishtirokni emas muhokama va qaror qabul qilishda samarali ishtirok etish uchun fuqaro tayyorgarligi va fuqaro ezgu niya-

tini talab etadi. Shu tariqa ishtirok demokratiyasi ma'rifatli fuqarolarning to'g'ri-dan-to'g'ri boshqaruvi sifatida tushuniladi. Fuqarolar xususiy sohada faoliyat ko'rsatuvchi alohida individlar emas, axborot bilan yaxshi ta'minlangan ijtimoiy fuqarolar bo'lib, ijtimoiy soha xususiy sohadan qanchalik uzoqlasha bo'lsa – bular ham o'z xususiy manfaatlaridan shunchalik uzoqlashganlar. Demokratiya – xalq yoki omma boshqaruvi emas, ma'rifatli fuqarolar boshqaruvidir". Ishtirok modelida fuqarolar faolligi kamchilikni tashkil etuvchi elitalar istibdodiga pastdan qarshilik ko'rsatish uchun zarur. Ishtirok jamiyatda ikki funksiyani bajaradi: birinchidan yuqoridan kelayotgan avtoritar bosimga qarshilik ko'rsatadi; ikinchidan, insonni takomillashtirish, kamolotga yetaklash vazifasini bajaradi. Buni ifodalovchi shior ham mavjud "ishtirok etishni ishtirokda o'rgan". Ammo bugungi kunda bu model qandaydir ideal, me'yor sifatida qaralishi mumkin. Ko'p tadqiqotchilarning fikricha, bugungi kunda bu model samarali ravishda faqat eng fundamental masalalar bo'yicha umumxalq so'rovlarini tashkil etishda qo'llanishi mumkin. Ishtirok modeli xalq hokimiyati sifatidagi me'yoriy idealga to'liq mos kelishiga va uning zamonaviy davlat va jamiyat tuzilishiga moslashishiga da'vogarlik qiladi. Unga ko'ra boshqaruvda ko'p odamlarning ishtirok etishi qarorlar qabul qilish uchun intellektual potentsialni kengaytiradi, ularning eng ma'qullarini tanlash ehtimolini oshiradi va, demak, siyosiy tizim barqarorligi va boshqaruv samaradorligi ortadi. Bundan tashqari, fuqarolarning siyosiy jarayonda faol ishtiroki mansabdor shaxslar ustidan samarali nazoratni ta'minlaydi, hokimiyatni suiiste'mol qilishning, deputatlarning xalqdan uzilib qolishini, amaldorlarning byurokratlashuvining oldini oladi, deb hisoblaydi. Agar parlament hukumatni, davlat hokimiyatining o'ziga hisobdor, o'z nazorati ostidagi boshqa institutlarini shakllantirsa, shuningdek, prezidentni saylasa, parlament respublikasining mavjudligi haqida gap borishi mumkin. Uning samarali faoliyat ko'rsatishi ko'p jihatdan jamiyatda qaror topgan barqaror partiya tuzilmasi va uning parlamentda vakillari bor-yo'qligiga bog'liq. Jahon tajribasining ko'rsatishicha, jamiyatda bir nechta kuchli barqaror amal qilib turgan siyosiy partiya mavjud bo'lmas ekan, parlamentarizm ishonchli ijtimoiy-siyosiy tayanchga ega bo'lmaydi. Binobarin, doimiy ziddiyatlar, qarama-qarshiliklar parlamentni porakanda qiladi, bu esa parlamentda ham, hukumatda ham nobarqarorlikka olib keladi. Bunday vaziyatlarda hukumat tez-tez almashib turadi. Bu hol parlamentarizmning zaifligi yoki uning yo'qligi alomatidir.

**Partiya** – (lot. *pars* (partis) – qism, guruh; qandaydir ijtimoiy qatlam yoki guruh manfaatlarini ifodalovchi, qandaydir siyosiy maqsadlarni ko'zlovchi tashkilot. Partiya – (lot. *pars*, *partis* – qism) barqaror tuzilmaga va doimiy tuzdagi faoliyatga ega, o'z a'zolari va tarafdorlarining siyosiy xohish-irodasini ifodalovchi, hokimiyat vakillik organlariga saylangan o'z vakillari orqali muayyan davlatning siyosiy yo'lini belgilashda, davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarini shakllantirishda, shuningdek, hokimiyatni amalga oshirishda ishtirok etishni o'z oldiga vazifa qilib qo'ygan mustaqil jamoat birlashmasi. Qadimgi Yunoniston va Rimdagi fuqarolar urushi davri o'zaro kurashayotgan turli partiyalarni keltirib chiqardi. O'sha davrda partiya deyilganida nolegal guruhlar – Fraksiyalarga qarshi o'z manfaatlarini faol himoya qiluvchi legal guruhlar tushunilgan. O'rta asrlarda

Yevropadagi partiyalar o'zaro kurashlarining yorqin namunasi sifatida katoliklar va protestantlar o'rtasidagi kurashni keltirish mumkin. Ilk burjua inqiloblari davrida hozirgi zamon siyosiy partiyalarining timsollari paydo bo'ldi. O'sha vaqtda partiyalar, eng avvalo, adabiy-siyosiy va diniy-siyosiy guruhlar sifatida faoliyat olib borgan (XVII asr ingliz burjua inqilobida presviterianlar va independentlar). Ingliz konservativ faylasufi E. Berk partiyaga ta'rif bergan birinchi shaxslardan hisoblanadi. 1861-yildagi risolasida bayon qilganiga ko'ra, partiya milliy manfaatlarni ko'pchilik tomonidan maqbul topilgan spetsifik prinsipga amal qilgan holda birgalikda ilgari surish maqsadida birlashgan odamlarning tashkilotidir. Buyuk Fransiya inqilobi vaqtida (1789) partiyalarning sinfiy-siyosiy negizda shakllanishi natijasida konstitutsionalistlar, jirondistlar va yakobinchilar yuzaga keldi. Hozirgi zamon tushunchasi nuqtayi nazaridan qaraladigan bo'lsa, partiyalar va partiya tizimlarining paydo bo'lishi hamda rivojlanishi parlamentarizm tarixi bilan jips bog'liqdir. Partiyalarning rivojlanishi ikki yo'nalish: parlament yo'li va noparlament yo'lidan borgan. Parlament yo'li konservativ va liberal partiyalar paydo bo'lishining manbasi sifatida xizmat qilgan bo'lib, uning maqsadi deputatlar parlament guruhi va uni qo'llab-quvvatlovchi saylovchilar qo'mitasi o'rtasida doimiy aloqalar tizimini o'rnatishdan iborat bo'lgan. Mazkur siyosiy partiyalar XIX asrning 70-yillariga qadar Yevropadagi asosiy siyosiy kuchlar hisoblangan. XIX asrning so'nggi choragida xristian-demokratik partiyalar; 20-30-yillarda esa, fashistik partiyalar yuzaga kelgan. Fransuz sotsiologi M. Dyuverje siyosiy partiyalar umumiy nazariyasining asoschisi hisoblanadi. O'zining "Siyosiy partiyalar" (1951) deb nomlangan asarida u partiya tashkilotlari va partiya tuzilmalarining shakllarini, partiyaviy rahbarlik uslublarini, partiya tizimining davlat va siyosiy rejim bilan o'zaro aloqasini tahlil qilgan, siyosiy partiyalar turlarini keltirgan. Siyosiy partiyalar fuqarolik jamiyati bilan davlat o'rtasida joylashgan vositachi institut. U bir tomondan, fuqarolik jamiyati manfaatlarini artikulyatsiya va agregatsiya qiladi; ikkinchi tomondan, bu manfaatlarni o'z siyosiy dasturiga kiritib siyosiy qarorlarga aylanishi uchun kurashadi. Odatda, zamonaviy siyosiy partiyalar quyidagi ichki tuzilishga ega: yetakchi (yetakchilar) va rahbarlar guruhi; apparat; faol a'zolar; passiv a'zolar. Siyosiy partiyalar jamiyatda muayyan funksiyalarni bajaradi. Siyosiy partiyalarning bosh funksiyasi – fuqarolar ijtimoiy qatlamlar, manfaat guruhlarining ko'plab xususiy manfaatlarini yagona siyosiy manfaatga keltirishdan iborat. Partiyalar vakolat vazifasi bilan bir qatorda vositachilik vazifalarini ham bajaradilar. Ular davlat darajasida qaror qabul qilish jarayonini muvofiqlashtiruvchi va nazorat etuvchi institut sifatida shakllangan. Partiyalar fuqarolik jamiyatini davlat bilan bog'laydi, ular o'rtasidagi tabiiy ziddiyatlarni yumshatadi. Partiyalar vakolat tizimi orqali parlament va hukumat faoliyatida ishtirok etadi. O'zbekiston Respublikasining siyosiy partiyalar to'g'risida qonuni 1996-yil 26 – dekabrda qabul qilingan.

**Partiya guruhi** – siyosiy partiyadan ko'rsatilgan deputatlar tomonidan partiya manfaatlarini Qorakalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesinde, xalq deputatlari Kengashida ifodalash maqsadida tuzi – ladigan va belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tkazilgan deputatlar birlashmasi. Qorakalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesidagi, xalq deputatlari viloyatlar, Toshkent

shahar hamda shaharlar (viloyatlar markazlari) Kengashlaridagi partiya guruhlarida ularda tegishli siyosiy partiyadan Qorakalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengashiga yoki xalq deputatlari Kengashiga saylangan kamida besh nafar deputat birlashgan taksirda tuziladi.

**Partiyalar turkumlashuvlari** – siyosiy partiyalar faoliyatining tarkibiy va funksional o'ziga xosliklarini qiyosiy o'rganish. 1951-yilda M. Dyuverje nashr etgan "Siyosiy partiyalar" mumtoz asarida partiyalarning quyidagi turkumlashuvini taklif etgan: **kadrlar partiyalari** – XIX asrda shakllangan. Ularning asosiy tashkiliy birligi – qo'mita, partiyaviy intizom zaif, a'zolik majburiy emas va mafkuraviy bog'liqlik kam. Kadrlar partiyalari parlament partiyalari sifatida tashkil topgan. Ularga asosan konservativ va liberal partiyalar kiradi. **Ommaviy partiyalar** – qattiq markazlashgan tuzilmaga ega, mafkuraviylashgan, intizom kuchli, a'zoligi qayd etiladi, ommaviylikka intiladi. Partiyalarni o'ng, so'l va markaz partiyalariga turkumlashda ular himoya qiluvchi qadriyatlar, siyosat maydonida joylashishi asos qilib olinadi. O'ng partiyalar xususiy mulk, bozor iqtisodiyoti, shaxs erkinligi singari konservativ va liberal qadriyatlarni yoqlaydi. So'l partiyalar ijtimoiy mulk, jamoaviylik, tenglik singari kommunistik va sotsialistik g'oyalar tarafdorlar. Markaz partiyalari o'ng va so'l spektdagi g'oyalarni mo'tadillashtirishga urinadilar va siyosiy kurashning markazida joylashadilar. **Dasturining ijtimoiy yo'nalishi va faoliyat yo'nalishiga ko'ra siyosiy partiyalar**: sotsial – demokratik; liberal-demokratik; kommunistik; milliy; irqiy; diniy; davlat – vatanparvarlik; xalq partiyalariga ajratiladi. **Faoliyatining g'oyaviy asoslariga ko'ra siyosiy partiyalar quyidagicha bo'linadi**: doktrinal (o'z mafkurasini himoya qiluvchi); pragmatik (maqsadga muvofiqlikdan kelib chiquvchi); xarizmatik (muayyan siyosiy yetakchi atrofida birlashuvchi). **Dasturni amalga oshirish uslublariga ko'ra**: inqilobiy (jamiyatni tubdan kayta isloh qilishga intiluvchi); islohotchi (ijtimoiy hayotni keskin tarkibiy o'zgarishlarsiz o'zgartirish tarafdori). **Siyosiy faoliyat tabiatiga ko'ra siyosiy partiyalar**: reakstion; konservativ; radikal; ekstremistik; mu'tadil bo'lishi mumkin. **Hokimiyatda ishtirokiga ko'ra siyosiy partiyalar**: hukmron; muxolif (oshkora, yashirin) larga bo'linadi.

**Partiyaviy tizim** – hokimiyat uchun kurashda va uni amalga oshirishda ishtirok etuvchi barcha partiyalar birligi va ular o'rtasidagi munosabatlarining barqarorlik va tartib asosiga qurilishi tushuniladi. Mamlakatda bir nechta partiyaning mavjudligi hali bu erda partiyaviy tizim shakllanganligini anglatmaydi. Partiya tizimlari shakllanishiga va uning o'ziga xosligigiga juda ko'p omillar ta'sir etadi. Xususan, amaldagi Konstitutsiya, qonunchilik, saylov turi, shuningdek, jamiyatda amal qiluvchi siyosiy madaniyat, an'analar, milliy, diniy omillar, jamiyatdagi ijtimoiy qatlamlar – partiya tizimi tabiatini belgilashda muhim rol o'ynaydi. Tarixan partiyaviy tizimlarning quyidagi turlari shakllangan: **bir partiyaviy, ikki partiyaviy** (ba'zi adabiyotlarda "mukammal ikki partiyaviy tizim" va ikki yarim partiyaviy tizim) hamda **ko'p partiyaviy tizim** (ba'zi adabiyotlarda "mukammal ko'p partiyaviy tizim" va "hukmron partiyali tizim"). **"Bir partiyaviy tizim"** atamasi unchalik to'g'ri emas, chunki tizim kamida ikki obyektning o'zaro ta'siri bo'lishini talab etadi. **Bir partiyaviy tizimda** yagona partiya davlat hokimiyatiga

ham egalik qiladi. Yorqin misoli – sobiq SSSR Kommunistik partiyasi. Bir partiya tizimlarning Xeyvud ikki ko'rishini ajratishni taklif etadi: sotsialistik davlatlarda amal qiluvchi va "avangard partiya" maqomini egallovchi bir partiya tizimlar. Misoliga Xitoy Kommunistik partiyasi keltiriladi, unda Xitoy aholisining faqat 4% a'zo va yana KPSS, uning tarkibiga aholining 9% gina e'zo bo'lgan. Bir partiya tizimlarning ikkinchi ko'rishiga Xeyvud milliy-ozodlik kurashi davomida yoki xarizmatik yetakchi atrofida shakllangan partiyalarni misol keltiradi (Afrika, Osiyo davlatlarida). Umummilliy saylovlarda mamlakatda amal qilayotgan partiyalarning faqat ikkita – yetakchisigina – ovozlarning 90% va undan ortig'ini to'plasa – **"mukammal ikki partiya tizim"** to'g'risida fikr yuritish mumkin bo'ladi. Bunday tizim – AQSHda mavjud. **"Ikki yarim"** partiya tizimda ikki yirik partiya saylovchilar ovozlarning 75-80% ga ega bo'lib, "uchinchi" partiya saylov natijalariga jiddiy ta'sir ko'rsata oladigan darajada ovoz to'plagan bo'ladi. Yirik partiyalar "uchinchi" partiya bilan, yoki o'zaro bir-biri bilan ittifoqlar tuzishga majbur bo'ladilar. Bu tizim, masalan, GFR da amal qiladi. **"Hukmron partiyali ko'p partiya tizim"**lar hozirgi kunda bir qator g'arb demokratiyalarida uchraydi: Shvetsiya, Norvegiya, Daniya. Bu erda hukmron sotsial-demokratik partiyalar o'z mavqelarini muxolifatning ko'p sonligini va uyushmaganligi tufayli ham uzoq vaqt davomida saqlab qola olyaptilar. Shu jihati bilan bu partiyalar bir partiya tizimdagi yagona partiyadan farq qiladi. Hukmron partiyali tizimga misol tariqasida 1993-yilgacha (38-yil) ustunlik qilgan Hindiston Milliy Kongressi partiyasi, 1989-yilgacha (30-yil) ustunlik qilgan Yaponiya liberal-demokratik partiyasi, Janubiy Afrika Respublikasida 1993-yildan ustunlikka ega Afrika Milliy Kongressi partiyasini, Shvetsiyada 1951-yildan 1993-yilgacha ustunlik qilgan sotsial-demokratik ishchi partiyasini, Italiyada 52 hukumat davomida ustunlik qilgan xristian-demokratik partiyasini keltirish mumkin. Ko'pgina mamlakatlarda mavjud ko'p partiya tizimlarda bir qator partiyalar hokimiyat uchun kurashda deyarli bir xil imkoniyatlarga ega. Shuningdek, ular turli ittifoqlar, partiya bloklari tuzishlari mumkin. Bunday tizimlardagi partiyalarning sonlari turlicha bo'ladi: 3 tadan (Belgiya, Avstriya) 12 ta (Niderlandiya) va undan ortiq. XX asrning 60-yillarida ko'pgina mamlakatlarda sinflar yoki hatto mafkuralararo dasturlar ishlab chiqilib barcha elektoratga qaratilgan **"saylovchilar"** partiyalari shakllandi. Hozirgi kunda ko'p ommaviy partiyalar o'z dasturlarini "saylovchilar" partiyalariga moslab o'zgartiryaptilar. "Saylovchilar" partiyalarining bosh g'oyasi – turli ijtimoiy kuchlarni birlashtirishga imkon beruvchi maqsadlarni ilgari surishdan iborat. **Reprezentativ partiyalar** maqsadi – saylovda iloji boricha ko'proq ovozlarni olish. Ularning faoliyati ijtimoiy fikrni shakllantirmaydi, faqat aks ettiradi. **Integrativ partiyalar** – vaziyatni shakllantiradilar, tarafdorlarni safarbar etadilar, ularni o'z mafkuralari asosida birlashtiradilar, elektoratni o'z ortlaridan ergashtiradilar. **Konstitutsion partiyalar** – konstitutsion maydon doirasida faoliyat ko'rsatadilar, u belgilagan barcha qoidalar va cheklolarga amal qiladilar, elektorat raqobat tamoyillarini hurmat qiladilar. Siyosiy o'yin qoidalariga qat'iy amal qiluvchi konstitutsion partiyalar demokratiyaning tayanchi hisoblanadi. **Inqilobiy partiyalar** – tizimga va konstitutsiyaga qarshi faoliyat ko'rsatadilar.

**Partogenez** – partiyalarning shakllanishi jarayoni.

**Partokratiya** – partiya hukmronligi bilan tavsiflanuvchi hokimiyat shakli.

**Passiv saylov huquqi** – (lot. befarq, faol emas) fuqarolarining davlat hokimiyati organlariga va mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlariga saylanish huquqi. O'zbekiston Respublikasida passiv saylov huquqidan foydalanish uchun shaxs O'zbekiston fuqarosi bo'lishi va qonunda belgilangan yoshga to'lishi zarur. Qonunchilik palatasiga saylanish huquqiga saylov kunigacha 25 yoshga to'lgan hamda kamida besh yil O'zbekiston Respublikasi hududida muqim yashayotgan fuqarolar ega. Saylov kunigacha 21 yoshga to'lgan hamda kamida besh yil O'zbekiston Respublikasi hududida muqim yashayotgan O'zbekiston fuqarolari xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlariga saylanish huquqiga egadirlar. **Passiv saylov huquqi** – fuqarolarning saylanadigan davlat organlari va mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlariga saylanish huquqi.

**Pastifizm** – (lot.) urushga qarshi siyosiy harakat, qurbonlarga olib keluvchi kurashning har qanday shakllarini qoralaydi. Ishontirish, e'tiqod yordamida urushlarning oldini olish mumkinligiga ishonadi.

**Paternalizm** – (lot. ota) otalarcha homiylik (g'amxo'rlik) tamoyilining butun jamiyatga ko'chirilishi. Bunda hokimiyat xalqning ezgu niyatli homiyi sifatida qaraladi va jamiyatdagi munosabatlar pog'onaviy tus oladi.

**Pauperizm** – (lot. kambag'al) ommaviy qashshoqlanish, aholining kambag'allashuvi; yashash uchun eng zarur narsalardan mahrumlik.

**Paychi** – (ingl. pay-mayda tangani anglatadi) biror tashkilot, shirkat, kooperativ ulushiga ega bo'lgan a'zo.

**Pedantizm** – fr. puxtalik, ishdagi sinchkovlik, o'rnatilgan tartib, qoida va instruksiyalarga rioya qilishni qattiq talab qilish, ikir-chikirlarga e'tibor berish.

**Pentagon** – (ingl.) Vashingtondagi markaziy harbiy muassasalarning besh burchakli binosi nomidan olingan – AQSH harbiy muassasasining nomi.

**Permanent** – (lot.) doimiy, uzluksiz davom etadigan.

**Persona grata** – (lot. istalgan shaxs) bir davlat tomonidan ikkinchi davlatga diplomatik vakil sifatida yuborilishini ana shu ikkinchi davlat ma'qullagan yoki ishonch qozongan kishi; **persona non grata** – elchi qilib yuborilmoqchi bo'lgan mamlakat bunga rozilik bermagan yoki o'zi vakil bo'lib turgan xorijiy mamlakat hukumati uning chiqib ketishini talab qilgan diplomatik xodim.

**Pessimizm** – (lot. eng yomon) hayotga umidsizlik bilan qarash bo'lib, unga g'oyasizlik, ruhiy tushkunlik, kelajakka ishonchsizlik xos, antonimi – optimizm.

**Petitsiya** – (lot. iltimosnoma, arznoma) hukumatning yuqori vakillariga, davlat boshlig'iga ko'pchilik tomonidan berilgan iltimosnoma.

**Plebisit** – (lot. xalq qarori) umumxalq ovoz berishi; referendum.

**Plenar** – (lot. to'la, umumiy) biror tashkilot, kengash, qo'mita, va h.k. larning barcha a'zolari ishtirokida o'tadigan yig'ilish.

**Plutokratiya** – (yunon. *plutokratia* *plutos* – boylik, *kratos* – hokimiyat, qudrat) – asosiy subyekti jamiyatning eng boy qatlamidan iborat bo'lgan hokimiyat shakli. Plutokratiya sharoitida aholining eng boy qismi bilan tarkibi boy-lardan iborat elitaning qo'shilishi, manfaatlarining umumlashtirilishi ro'y beradi. Qadimgi dunyoda hokimiyatning plutokratiya shakllari Karfagenda va o'rta asrlar Venetsiyasida yuzaga kelgan. Hozirgi zamon plutokratiyasi jamiyat barcha

a'zolarining manfaatlarini kapital manfaatlariga bo'ysundiruvchi oligopoliya bilan jips bog'liqdir.

**Plyuralistik demokratiya** – demokratiya modellaridan biri. Unga ko'ra, hokimiyatni amalga oshirishda ko'plab tashkilotlar yoki mustaqil guruhlar ishtirok etsagina davlat demokratik deb hisoblanishi mumkin. Bu kapitalistik jamiyatning etuklik pallasiga kirishi, ko'p partiyaviy tizim shakllanishi bilan bog'liq ravishda vujudga kelgan nazariyadir. U parlament demokratiyasi va majoritarizmning har qanday ko'rinishiga muqobil yondashuv sifatida qaralishi kerak. Plyuralistik demokratiya amal qilishining shartlari quyidagichadir: siyosiy hokimiyat o'zaro raqobatli guruhlar o'rtasida taqsimlangan bo'ladi, imtiyozga hech qaysi guruh ega emas; siyosiy guruhlarining yetakchilari oddiy a'zolar oldida hisobotlilar, ichki javobgarlik, mas'uliyat juda katta; hukumatning siyosiy jihatdan betarafligi, etarlicha barqarorligi va shuning natijasida siyosiy guruhlariga siyosiy faoliyatlari uchun imkoniyatlar yarata olishi; Plyuralistik demokratiya idealini chuqur asoslab bergan Garold Laski Buyuk Britaniya leyboristik partiyasining ko'zga ko'ringan nazariyotchisi va arbobi – "davlatning plyuralistik nazariyasi", "siyosiy plyuralizm" atamalarini muloqotga kiritdi. Plyuralistik Konsepsiyada siyosat guruhlarining ixtilofi sifatida qaraladi, qarorlar maksimal ko'pchilik manfaatlarini hisobga oluvchi kompromis tarzida qabul qilinadi. Bu demokratiya "xalq hokimiyati" ni emas, "xalq roziligiga asoslangan hokimiyat" ni anglatadi. Plyuralistlar uchun demokratiyaning asosiy mazmuni – "kamchilik" talablari va huquqlarini himoya qilishdadir. Plyuralistik jamiyatda barchaning manfaatini qondirish va barcha ixtiloflarni adolati hal qilish juda mushkul. Shuning uchun kelishuvning asosini ko'pchilik tamoyili tashkil etadi. Ko'pchilik diktaturasi vujudga kelmasligini ta'minlash – plyuralistik demokratiyaning asosiy sharti. Buning uchun birorta guruhning ustunligiga, hokimiyatning bir nuqtada to'planishiga yo'l qo'ymaslik kerak. Buni ta'minlovchi mexanizmlarga saylovlar davrida partiyaviy raqobat mavjudligi, manfaat guruhlarining o'z qarashlarini erkin ifodalay olishlari kiradi. Plyuralistlarning fikricha fuqarolar o'z manfaatlarini faol ifodalashlari shart emas, ularning o'rniga bu vazifani manfaatli guruhlar ancha samaraliroq amalga oshiradilar. Bu tizimda fuqarolarning manfaatlari ikki qayta ifodalangan hisoblanadi: birinchisi – saylovlar vositasida, ikkinchisi – ijtimoiy guruhlarining faoliyati vositasida. XX asr oxiriga kelib plyuralizm tamoyillari vakolatli hokimiyatlardan yana ijro hokimiyatlariga ham yoyila boshlandi. Buning mohiyati shundaki hukumatlar ham koalitsion asosda tuzilib, ularda turli manfaatlarni himoya qiluvchi partiya vakillari, shu jumladan, bir-biriga muxoliflari ham bo'lishlari kerak. Plyuralistik model tanqidchilari odamlarning juda kam qismigina tashkilotlarga a'zo ekanligini, siyosiy jarayon faqat eng qudratli manfaatli guruhlarining manfaatlarini qondiruvchi jarayonga aylanib qolishi, siyosiy tizim bunday guruhlarining qattiq raqobati natijasida falajlanib qolishi mumkinligini, natijada oddiy fuqarolarning talablari e'tiborsiz qolib ketishi, fuqarolarga passiv rollarning ajratilishi "siyosiy tomoshabinlar" jamiyatining vujudga kelishi xavfini keltirib chiqarishi, bu tomoshabinlar tizim ustidan nazoratni amalga oshira olmay qolishlari mumkinligi singari masalalarga jamoatchilik diqqatini qaratadilar.



**Pluralizm** – lot. pluralis-turlicha, turli tuman; turli ijtimoiy qatlamlar manfaatlarini ifodalovchi turli tuman ijtimoiy-siyosiy kuchlar mavjud bo'lgan siyosiy tizim. Pluralizm – lot. pluralis-turlicha, turli tuman; turli ijtimoiy qatlamlar.

**Poklik va halollik** – insonning insonligi uning pokligi va halolligi bilan o'lanadi. Shuning uchun ota-bobolarimiz hamisha pok va halol bo'lishga da'vat etib kelishgan, xalol bilan haromni farqlash to'g'risida nasixat qilishgan. Bu musulmon olami, xususan, o'zbek xalqi axloq-odob qonuniyatining asosini, boshqacha aytganda imonning negizini tashkil etadi. Poklik va halollik esa imonning asosiy belgilaridan biridir. Poklik va halolliksiz imonli bo'lish mumkin emas. Iymonli bo'lishning o'zi esa insonning pokligi va halolligiga yo'g'irilgandir. Pok va halol bo'lmagan odamdan ezgulik chiqmaydi, unda mexru-shafqat, oriyat, nomus, sharm va hayo bo'lmaydi.

**Poliarxiya** – (gr. ko'p va boshqaruv) – zamonaviy demokratiyaning empirik modellaridan biri. Siyosiy pluralizm nazariyasining eng yorqin namoyondalaridan biri amerikalik politolog Robert Dal – Charlz Lindblom bilan birgalikda "barchaning hokimiyati" ni anglatuvchi demokratiya ma'nosi o'rniga "ko'pchilik hokimiyati" ma'nosini beruvchi «**poliarxiya**» atamasini kiritdi. Poliarxiya – ikki yirik belgisi bilan boshqalardan ajralib turuvchi tartib: fuqarolik huquqlari katta yoshdagi aholining nisbatan katta qismiga berilgan va bu huquqlar ovoz berish yo'li bilan norozilikni bildirish va rahbarlarni lavozimdan olish imkonini beradi. Bu tartib 7 asosiy institutga tayanadi va tizim samarali amal qilishi uchun bu institutlar barchasi va birgalikda faoliyat ko'rsatishlari kerak: 1. Siyosiy kursga tegishli hukumat qarorlari ustidan nazorat saylangan ma'muriy shaxslarga konstitutsion tarzda birlashtirilgan; 2. Saylangan ma'muriy shaxslar majburlash cheklangan, muntazam, adolatli va erkin saylovlar jarayonida tayinlanadilar va tinch yo'l bilan olib tashlanadilar; 3. Deyarli barcha yoshi katta aholi bu saylovlarda ishtirok eta oladi; 4. Yoshi katta aholining katta qismi rasmiy lavozimlarga nomzod sifatida chiqishi mumkin; 5. Fuqarolar o'z fikrlarini ifodalashlarini ta'minlovchi huquqlarga egalar, shu jumladan, mansabdori shaxslarni, hukumatni, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy tizimni va hukmron mafkurani tanqid etish huquqlariga; 6. Fuqarolar, shuningdek, hukumat yoki biror alohida olingan guruhning monopol nazorati ostida bo'lmagan axborot olishning muqobil manbalariga egalar; 7. Fuqarolar ixtiyoriy uyushmalar tashkil etish, shu jumladan, siyosiy partiyalar va manfaatli guruhlar singari hokimiyatga ta'sir etishga intiluvchi va buning uchun saylovlardagi raqobatni va boshqa tinch vositalarni qo'llovchi siyosiy ittifoqlar tashkil etishlari, ularga a'zo bo'lishlarini samarali ta'minlovchi huquqlarga egalar. To'liq poliarxiya XX asr tizimi. Bu tizim bir qator belgilarga ega jamiyatlar uchun xos deb hisoblaniladi: aholi jon boshiga to'g'ri keladigan boylik va daromadlarning nisbatan yuqori darajasi; aholi jon boshiga to'g'ri keladigan boylik va daromadlarning uzoq vaqt mobaynida o'sib borishi; urbanizatsiyaning yuqori darajasi; qishloq xo'jaligida band aholining nisbatan kamligi yoki tez qisqarib borishi; kasbiy faoliyat turlarining ko'p xilligi; savodxonlikning keng tarqalganligi; oliy ta'lim muassasalarida o'qiyotganlarning nisbatan ko'p sonli ekanligi; ishlab chiqarish bilan asosan milliy va xalqaro bozorlarga moslashib faoliyat ko'rsatuvchi mustaqil firmalar shug'ullanuvchi iqtisodiyot-

ning mavjudligi; farovonlikning ming kishiga vrach va kasalxonada o'rinlarning soni, kutilayotgan umr davomiyligi, uzoq muddatli iste'mol tovarlarini sotib oluvchi oilalar ulushi singari an'anaviy ko'rsatkichlari yetarlicha muvaffaqiyatli; Sanab o'tilgan xususiyatlarning o'zaro bog'liqligi shunchalik yuqoriki, ularning mavjudligi o'xshash ijtimoiy tizim mavjudligi to'g'risida fikr yuritish imkoniyatini beradi. Bunday tizimni Dal dinamik plyuralistik jamiyat deb atagan va ularga poliariyalarga o'tish imkonini beruvchi ikki bir-biriga bog'liq xususiyatlar xos deb ko'rsatgan: hokimiyatning, avtoritet va nazorat, ta'sirning jamiyatda turli individlar, jamiyatda yoyilganligi guruhlar, uyushmalar va tashkilotlar o'rtasida yoyilganligi; demokratik g'oyalar uchun negiz yaratuvchi qoidalar va g'oyalarning paydo bo'lishi.

**Polietnik** – ko'pmillatli, monoetnik – yakka, yagona yoki bir millatli.

**Polis** – (gr.) shahar-davlat.

**Politolog (Siyosatshunos)** – siyosat sohasidagi mutaxassis.

**Populizm** – (frans. *ropulisme*, lot. *populus* – xalq) – tez orada natijaga erishish imkonini beruvchi siyosiy oqim, «siyosatdagi uslub». U ommaga murakkab masalalarni oson tushuntiradi, oddiy, lekin chiroyli shiorlarga moyillikka asoslanadi. Siyosiy faoliyatda poppulizm – puch va'dalar, yolg'on shiorlar vositasida hokimiyatga erishish (yoki unda qolish) uchun saylovchilarni chalg'itishda namoyon bo'ladi. «Xalq ichiga kirish», «to'g'ridan-to'g'ri» muloqot vositalaridir. Populizm siyosat subyektlarining o'z hayotidan norozi bo'lgan keng omma ongi va psixologiyasiga nisbatan mafkuraviy–spekulyativ yondashuvi. Populistik g'oyalar sohiblari jumlasiga dehqonlar, fermerlar, mayda burjuaziya, proletariatning bir qismi, lyumpenlar va boshqa shu kabilarni kiritish mumkin. Populizm siyosati ijtimoiy tangliklar davrida keng rivojlangan va ehtiyojtalab bo'lgan. Masalan, AQSHda populistlarning dastlabki partiyasi o'tgan asrning oxirida fermerlar va ishchilar tashkilotlarining alyansi sifatida vujudga kelgan. Afrika va Osiyo mamlakatlarining mustamlaka zulmiga qarshi olib borgan kurash davrida populizm keng tarqalgan.

**Potensial** – (lot. imkoniyat, quvvat) hali foydalanilmagan, biroq zarur vaqtda foydalanish mumkin bo'lgan imkoniyatlar.

**Pozitiv huquqlar** (pozitiv – lot. ijobiy) ijobiy tajribaga, faktlarga, real voqelikka asoslangan. Teskarisi – negativ – davlat, shaxslar va tashkilotlarning fuqaroga u yoki bu imtiyozlarni berish borasida muayyan harakatlarni amalga oshirish bo'yicha vazifalarini belgilaydi. Barcha ijtimoiy huquqlar pozitiv tabiatga ega. Pozitiv huquqlarni amalga oshirish uchun davlat muayyan resurslarga, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasiga ega bo'lishi kerak.

**Pragmatizm** – (gr. faoliyat, amaliyot) amaliy va foydali natija beruvchi faoliyatnigina tan oladigan, siyosatshunoslikning nazariy – metodologik asoslaridan biri bo'lgan falsafiy, ijtimoiy, siyosiy qarashlar tizimi.

**Praksiologiya** – (gr. faoliyat bilan bog'liq) sotsiologik tadqiqotlar yo'nalishi. U faoliyat yoki faoliyatlar birligini ularning samaradorligi nuqtayi nazaridan o'rganadi.

**Preambula** – (fr. kirish so'zi (qismi) xalqaro bitim yoki shartnomaning, qonun yoki boshqa hujjatlarining kirish qismi bo'lib, odatda, unda tamoyilial qoidalar, sabablar, shartnoma tuzish asoslari bayon etiladi.

**Prefektura** – prefekt boshchilik qiladigan ma'muriy boshqarma va u joylashgan bino.

**Preferensiya** – davlat yoki korxonada, tashkilotlar tomonidan ma'lum faoliyat turini qo'llab-quvvatlash uchun beriladigan imtiyoz, afzallik. Preferensiya solik yukini kamaytirish, boj to'lovlaridagi imtiyozlar, to'lovlar-dan ozod qilish, imtiyozli kreditlar berish ko'rinishida amalga oshiriladi. Preferensiya davlat tomonidan berilib, manzilli ko'rinishga ega bo'ladi.

**Proteksionizm** – milliy iqtisodiyotni boshqa davlatlar bilan bo'ladigan raqobatdan bo'xona to'siqlarini joriy qilish, mamlakatga chet el tovarlari, xizmat turlari va kapitalarini kirib kelishini cheklash yo'li bilan himoya qilish va saqlashga yo'naltirilgan.

**Premier** – (fr. birinchi) 1) bosh vazir, birinchi vazir, Vazirlar Mahkamasining boshlig'i

**Prerogativa** – (lot.) shaxsga yoki tashkilotga egallab turgan mavqeyi beruvchi ustunlik, istisno tariqasidagi favqulodda huquq.

**Pressa** – (fran. presse; ommaviy axborot vositalari) ommaviy joriy matbuot.

**Preventiv** – (lot.) ogohlantiruvchi, oldini oluvchi.

**Prestedent** – (lot. oldinda ketuvchi) o'tmishda bo'lib o'tgan va hozirgi vaqtda ana shunday harakatlar qilish uchun na'muna.

**Prezident** – (lot. oldida (boshida) o'tiruvchi) respublika boshqaruv shaklida – saylanuvchi davlat boshlig'i. U o'zida ijro, qonunchilik va sud hokimiyatlarini mujassamlashtiradi. Davlat boshlig'i vakolatlariga xalqaro munosabatlarda va ayrim ichki tadbirlarda davlat nomidan chiqish, ba'zi ijro organlariga rahbarlik, bosh qo'mondon vazifasini bajarish, mukofotlarni topshirish, qonunchilik tashabbusi bilan chiqish, qonunlarni imzolash va «veto» huquqi singarilar kiradi. Davlat boshlig'i avf etish vakolatiga ham ega. Prezident maqomi Konstitutsiya bilan belgilanadi. Bundan tashqari, Konstitutsiyalar Prezident rioya qilishi kerak bo'lgan axloqiy, siyosiy va fuqarolik burchlarini ham aks ettiradi. Prezident davlatning saylanuvchi boshlig'i. Uning belgilarini quyidagilar tashkil etadi: saylanishi; tashkiliy jihatdan Prezident hech kimga bo'ysunmaydi va eng yuqori darajada mustaqillikka ega; prezidentlik lavozimi – siyosiy tabiatga ega; Prezident vakolatlari muddati cheklangan. Prezidentlar **konstitutsion** va **ijrochi** bo'lishi mumkin. Konstitutsion Prezident maqomi Konstitutsiya bilan belgilanadi. Misoliga – Hindiston, Isroil, Germaniya prezidentlarini keltirish mumkin. Bu turdagi prezidentlar parlament respublikalari uchun xos bo'lib, ular asosan mamlakatni tashqi siyosatda taqdim etishga doir vazifalarni bajaradilar. Bu erda ijro hokimiyati to'raligicha premier-ministr va yoki Vazirlar Mahkamasi tomonidan boshqariladi. Ijrochi Prezident o'zida davlat boshlig'i va hukumat boshlig'i lavozimlarini birlashtirgan shaxs va u ijro hokimiyatini to'liq nazorat etadi. Ijrochi Prezident hokimiyati Konstitutsiya, parlament tomonidan cheklanishi mumkin. Bunday cheklavlar bo'lmagan hollarda mutloq prezidentlik boshqaruvi amal qila boshlashi va u bir kishining ustunligini o'rnatishi mumkin. Prezident jamiyatda bajaradigan asosiy funksiyalar: **kafolat funksiyasi**. Prezident Konstitutsiya, mustaqillik, davlat yaxlitligi, suverenitet, inson erkinliklari va huquqlarining kafolatidir. Fransiyada Prezident sud organlari mustaqilligini kafolatlaydi. Bu

funksiyaga ko'ra jamiyat aynan Prezident jamiyat barqarorligi va Konstitutsiya amal qilishini ta'minlashiga ishonadi; **hakamlik-integrativ funksiya** – Bu funk-siyaning mavjudligi davlat hokimiyatining bo'linishi, ularning uyg'unlikda faoliyat ko'rsatishini ta'minlash zarurati bilan izohlanadi. Buning uchun Prezident mu-nozarali masalani sud (Konstitutsion sud) e'tiboriga qaratishi, saylovchilarga murojaat etib, referendum orqali ularning fikrini bilishi, parlamentni muddatidan avval tarqatib yuborishi mexanizmlariga tayanadi; **nazorat funksiyasi**. Bu funk-siya hukumatning Prezident oldida hisobotliligi, ba'zi vazirliklarning bevos-i-ta davlat rahbariga itoat etishi, hukumatning me'yoriy aktlarini bekor qila olishi huquqlari orqali amalga oshadi;

**Prezidentlik respublikasi** – Prezidentlik respublikasida (AQSH, Braziliya, Meksika) parlament va Prezident bir-birlariga nisbatan mustaqil mavqeni egal-laydilar. Prezident ijro hokimiyatining boshlig'i, ayni vaqtda davlat boshlig'i ham-dir. U umumxalq saylovlarida barcha fuqarolar tomonidan saylanadi va faqat o'z saylovchilari oldida mas'uliyatli hisoblanadi. Hukumatni Prezident tuzadi va u faqat prezidentga hisobotli bo'ladi. Davlat boshqaruvi sohasidagi eng muhim vakolatlar Prezident qo'lida to'plangan bo'ladi. O'z navbatida parlament depu-tatlari ham umumxalq saylovlarida saylanadilar va vakolatlarini olgan fuqarolar oldidagina mas'uliyatlidir. Parlament asosan qonunchilik funksiyalarini amal-ga oshiradi. Parlament hukumatni iste'foga chiqarish imkoniyatiga ega emas. Lekin Prezident parlament qarorlariga veto huquqiga ega (bu vetoni parlament ko'pchilik ovoz bilan qayta ovoz berishda bekor qila oladi).

**Prezidentlik instituti** – hokimlik instituti bo'lib prezidentning hokimiyat-ga oid vakolatlarini, ya'ni Prezident faoliyatini tartibga soluvchi konstitutsion me'yorlar, an'analar, prezidentning siyosiy faoliyati amaliyoti va Prezident de-vonini o'z ichiga oladi. O'zbekiston Respublikasida Prezidentlik instituti 1990-yil 24 martda joriy qilingan.

**Primat** – (lot.) birinchilik, ustunlik, ahamiyati juda zo'r, hukmron rol o'ynov-chi.

**Primitiv** – (lot. ibtidoiy, dastlabki) oddiy, tuzilishi murakkab bo'lmagan; qoloq.

**Prinstip** – lot. principium-asos, dastlabki, boshlang'ich; asos bo'ladigan poydevor g'oyalar; xulq, faoliyat va xatti-harakatning asosiy qoidasi.

**Prioritet** – (lot. birinchi) birinchilik.

**Professional armiya** – shaxsiy tarkib uchun harbiy xizmat asosiy kasb hi-soblangan armiya.

**Profitsit** – byudjetga nisbatan qo'llanilganida byudjetning daromad qismini uning xarajat qismiga nisbatan ortiq bo'lganligini ifodalaydi.

**Progress** – (lot.) ilgari lama harakat; pastdan yuqoriga, oddiydan murakkab-ga tomon mukammalikka qarab rivojlanish. Teskarisi – regress.

**Prolongatsiya** – (lot.) shartnoma, bitim, veksels va boshqalarning amal qi-lish muddatini cho'zish.

**Promulgatsiya** – (lot.) qabul qilingan va tasdiqlangan qonunning rasmiy matbuot organida e'lon qilinishi. Qonun shundan so'nggina kuchga kiradi.

**Proporsional** ( – ot. proportionalis-mutanosib; saylovlarda nomzodlar

uchun beriladigan ovozlarni ro'yxatlar bo'yicha beriladigan, har bir ro'yxat uchun berilgan ovozlarga mutanosib ravishda joy egallanadigan saylov huquqi tizimi.

**Proporsional saylov tizimi** (proporsional – (lot.) qismlarning butunga nisbatan to'g'ri nisbatga egaligi)– saylov tizimi ko'rinishlaridan biri. U partiyaviy ro'yxatlar asosida ovoz berishni ko'zda tutadi. Saylovchilar nomzodlarning partiyaviy a'zolikiga ko'ra tuzilgan bir necha ro'yxat ichidan o'zlari istagan ro'yxatni (ayrim hollarda o'zi ma'qul topgan nomzodlarni) belgilaydilar. Ovozlarni sanash jarayonida partiyalar parlamentda egallagan joylar soni ushbu partiyalarga berilgan ovozlarni soniga proporsional bo'ladi. U yoki bu partiyaning mandatlari sonini aniqlash uchun «saylov metri», ya'ni bir deputat saylanishi uchun kerak bo'lgan eng kam ovozlarni soni belgilanadi. Shuningdek, partiyaviy fragmentatsiyaning oldini olish maqsadida deyarli barcha mamlakatlar qonunchiligida parlamentga kirish uchun partiya yengib o'tishi kerak bo'lgan chegara belgilab beriladi (odatda, saylovchilarning 5 % ovozi miqdorida).

**Prorogatsiya** – (lot. cho'zish) davlat boshlig'ining qarori bilan parlament majlisini keyinga qoldirish.

**Proteksionizm** – (lot. homiylik) davlat milliy iqtisodiyotini chet el raqobatidan himoyalashga qaratilgan iqtisodiy va huquqiy siyosat.

**Psixozanaliz** – avstriyalik psixolog Z.Freyd tomonidan yaratilgan psixoterapevtik usul. U nevrozlarni bizning tabiiy intilishlarimizning (huzur-halovat tamoyili) ijtimoiy me'yorlar va tadqiqat bilan («voqeilik tamoyili») to'qnashishi natijasida olingan ongimizdagi jarohatlar sifatida talqin qilish bilan bog'liq.

**Publitsist** – ijtimoiy-siyosiy masalalar bo'yicha ijod qiluvchi yozuvchi.

**Publitsistika** – (lot. jamoatchilik) ommaviy axborot vositalari va alohida nashrlarda siyosat va ijtimoiy hayot masalalarini yorituvchi adabiyot turi.

**Punktual** – (lot. nukta) aniq, batartib.

## Q

**Qadriyat** – inson va jamiyat ma'yatining tarkibiy qismi, olamdagi voqealar, hodisalar, jarayonlar, holatlar, sifatlar, talab va tartiblarning qadrini ifodalash uchun ishlatiladigan t.; qadriyatshunoslik (aksiologiya) ning eng asosiy kategoriyasi. Bu kategoriya o'zida q. asosining nafaqat qimmatini, balki ijtimoiy ahamiyati, falsafiy-aksiologik mazmuni, jamiyat va inson uchun qadrini ham ifodalaydi. Aksiologlar undan har qanday narsa, shu jumladan, insonning ijtimoiy qadrini, ahamiyatini ifodalaydigan umumiy va universal kategoriya sifatida foydalanadilar. Q. turli sohalarda xilma-xil ma'noda qo'llanadi. Q. so'zining turfa xil ma'noda ishlatilishi unga berilgan ta'riflarning turlicha bo'lishiga olib kelgan. Ijtimoiy fanlarning qanday sohasida q.ga doir tadqiqot olib borilgan bo'lsa, bu t.ga shu jihatdan ta'rif berishga intilish odat tusiga aylangan. Holbuki, q. kategoriyasi aksiologiya (qadriyatshunoslik)dan boshqa fanlarning birortasi uchun ham xususiy kategoriya emas. Kundalik muloqot, OAV xabarlarida q., milliy q.lar, umuminsoniy q.lar kabi so'zlar ko'p qo'llanadi. Mad'y boyliklar, yodgorliklar, ma'naviy meros, an'ana, urf-o.larga nisbatan ham q.lar iborasini umumiy atama sifatida ishlatish hollari uchramoqda.

**Qadriyatlar** – borliq va jamiyat, narsalar, voqealar, hodisalar, inson hayoti, moddiy va ma'naviy boyliklarning ahamiyatini ko'rsatish uchun qo'llaniladigan tushuncha. Siyosatda qadriyatlar siyosiy vaziyatni baholash va uni tushunish imkonini beruvchi me'yorlar, siyosiy ongning dolzarb stereotiplari. Siyosiy qadriyatlar ijtimoiy qadriyatlarining tarkibiga kiradi. Rivojlangan demokratiya sharoitida davlatning mavqeyini kuchaytiruvchi bir qator siyosiy qadriyatlar tizimi mavjud: vatanparvarlik, fuqarolar siyosiy faolligi, legitimlik, siyosiy mas'uliyatlilik va h.

**Qaramlik** – mamlakat va hududlarni bosib olish yoki boshqa xil usullar bilan ularning ustidan boshqa davlat va guruhlarining hukmronligi o'rnatilishi. Qaramlikning huquqiy shakllari ikki asosiy guruhdan iborat: 1) xalqaro-huquqiy, bog'liqlik – protektorat (xomyilik), vasiylik, kondomium va mandatli hudud; 2) davlat huquqiy aloqalari.

**Qiyosiy siyosatshunoslik** – siyosiy fanlardan biri, u turli siyosiy hodisalarni komparativistik yondashuv asosida o'rganishga asoslanadi. Komparativistik usul vositasida siyosiy jarayonlar, siyosiy tizimlar, siyosiy hayot, turli mintaqalarning umumiy va o'ziga xos jihatlarni tahlil qilinadi. Qiyosiy siyosatshunoslik zamonaviy rivojlangan davlatlarning siyosiy hayotida mavjud bo'lgan qadriyatlarini o'rganish va bu tajribani O'zbekiston jamiyatining modernizatsiyalashuvi jarayonida faol qo'llash imkonini beradi. Qiyosiy tahlil XIX asrdanoq sotsiologiya va gumanitar fanlarda qo'llanib kelgan. AQSH tarixiy maktabi ta'sirida va amerikalik tadqiqotchi E.Frimen ("Qiyosiy siyosat" kitobi (1873 y.) ilgari surgan "tarix bu – o'tmishdagi siyosat, siyosat bu – hozirgi tarix" tezisiga ko'ra qiyosiy siyosatshunoslik metodologiyasi masalalari chuqur tahlil etila boshlandi. E.Frimen turli xalqlar va davlatlar, turli tarixiy davrlardagi o'xshashliklarni aniqlash vositasida ularning umumiy negizga ega ekanligini asoslashga urindi. Qiyosiy siyosatshunoslik fani siyosiy fan yo'nalishlaridan biri sifatida XX asrda shakllandi. Uning rivojlanishiga G. Almond, S. Verba, D. Iston, R. Makridis, R. Aron, M. Dyuverje, Ch. Regin, M. Shugart, D. Kern, A. Leypxart, S. Xantington, P. Sharan singari olimlar ulkan hissa qo'shganlar.

**Qiyosiy tahlil** – siyosatshunoslikda qo'llanuvchi ilmiy usullardan biri: 1) tarixiy rivojlanishning turli davrlarida; 2) turli ijtimoiy tizimlar (institutlar, guruhlar, hududlar va h.) da; 3) turli mualliflar va tadqiqotchi jamoalarda; 4) turli o'lchovlarda va to'plash usullarida olingan axborot qiyoslanadi. Qiyosiy tahlil-da o'xshashlik va farqni aniqlash va tavsiflash yoki analitik, ya'ni tushuntirish, bashorat, tavsiyalar ishlab chiqish vazifalarini hal qilish mumkin.

**Qiyosiy-tarixiy usul** – siyosatshunoslikda qo'llanuvchi ilmiy usullardan biri. Qiyosiy va tarixiy usullarni birlashtirish ijtimoiy hodisa rivojlanishidagi turli davrlar to'g'risida ma'lumot olish va uni qiyoslash; undagi o'zgarishlarni aniqlash; rivojlanish tendensiyalarini bashorat qilish imkonini beradi. Bu usuldan o'z vaqtida Arastu ham keng foydalangan.

**Qobiliyat** – insonning ma'naviy qiyofasiga xos xislatlardan biri, uning individual salohiyati, imkoniyatlarini ifodalovchi t. q. bilimdan muayyan darajada farqlanadi. Chunonchi, bilim bu mutolaa natijasi hisoblanisa, q. shaxsning psixologik va fiziologik tabiatiga xos xus-yati sanaladi. Q. t.siga yondosh va

turdosh atamalar qatoriga ko'nikma hamda-malaka iboralarini kiritish mumkin. Aksariyat ilmiy manbalarda mohirlik q. bilan aynantlashtiriladi. Q. inson tomondan ko'nikma va malakalarning egallanishi jarayonida takomillashib boradi. har qanday q. turi shaxsga tegishli murakkab psixologik xususiyatlarga asoslanib, muayyan faoliyat talablariga mutanosib xus-yatlar tizimini o'z ichiga qamrab oladi. Sh.u. q. deganda birorta xususiyatning o'zini emas, balki shaxs faoliyatining talablariga javob bera oladigan va bu jarayonda yuqori ko'rsatkichlarga erishishni ta'minlashga qurbi etadigan xususiyatlar sintezi tushuniladi.

**Qochoqlar** – irqi, e'tiqodi, millati, muayyan siyosiy guruh yoki siyosiy g'oyalari uchun ta'qiblarning qurboni bo'lish xavfi tufayli o'z fuqaroliklariga ko'ra yashashlari, lozim bo'lgan mamlakat tashqarisida hayot kechirayotgan shaxslar. Qochoqlarning xalqaro-huquqiy mavqeyi 1951-yilda qabul qilingan qochoqlar maqomi haqidagi Konvensiya bilan tartibga solinadi. U dunyodagi 107 davlat tomonidan ratifikatsiya qilingan.

**Qonun** – obyektiv olamdagi narsa va hodisalar o'rtasidagi aloqadorlikning shakli, biror-bir narsaning zaruriy ravishda paydo bo'lishini ifodalovchi qoida, shuningdek, insonning jamiyatdagi xatti-harakatlarini belgilab beruvchi yo'l-yo'riq, qoidalar yig'indisi (axloqiy va huquqiy h.lar). Nazariy bilimlar tizimida q. masalasi markaziy o'rinni egallaydi. Agar Beruniy, Galiley, Nyuton q.lari klassik mexanikaning negizini yaratgan bo'lsa, Ibn Sinoning tib qonunlari tibbiyot ilmining asosini tashkil etadi. Maksvell qonunlari klassik elektrodinamikada, genetikada Mendel q.lari ana shunday ahamiyat kasb etadi. Q. avvalo, munosabatni ifodalaydi. Gegel aytganidek, barcha mavjud narsalar o'zaro munosabatda bo'ladilar, mana shu o'zaro munosabat har qanday mavjudlikning asosidir. har qanday q. dunyodagi barqarorlikning, "sokinlik"ning in'ikosidir, sokinlik esa, munosabat orqali ifodalanadi. har qanday q. ma'lum sharoitlarda zaruriyatning ifodasidir. Mas., Arximed q.i gaz yoki suyuqliklar uchun "og'irlik kuchi" va "itaruvchi kuch" kattaliklari orasidagi zaruriy bog'lanishni ko'rsatadi. Tabiat, jamiyat va tafakkur rivojini ifodalovchi q.larni 3 turga ajratish mumkin: 1) xususiy q.; 2) umumiy q.; 3) eng umumiy q.lar. Birinchi guruhdagi q.lar narsa va hodisalar o'rtasidagi nisbatan tor doiradagi aloqalarni funksional tarzda ifodalaydi. Ikkinchi guruhga hodisalarning umumiy xossalari o'rtasidagi munosabatni ifodalovchi q.lar kiradi. Uchinchi turdagi q.lar, tabiat, jamiyat, tafakkur rivojining eng umumiy aloqadorliklarini, tomonlarini, taraqqiyotini, tendentsiyalarini ifodalaydi. Q.lar 2 ta funksiyani bajaradi: 1.Tushuntirish. Ma'lumki, fan biror-bir hodisaning shunchaki mavjudligini, ro'y berishini e'tirof etmasdan, u qanday mavjud bo'lishi va ro'y berishini tushuntiradi, uning mohiyatini ham ochib beradi. Tushuntirishning asosiy ko'rinishlari quyidagilardan iborat: sababiy, funksional, strukturaviy. 2. Bashorat qilish (ularni ko'pincha nazariy q.lar ham deb ataladi). Bu funktsiya empirik qonunlarning mavjudligini keltirib chiqarishda, bashorat qilishda namoyon bo'ladi. Mas., elektr naz-yasi asosida Maksvell elektromagnit to'lqin naz-yasini yaratishga muvaffaq bo'ldi, so'ng ushbu fundamental naz-ya asosida bir qancha tajribalar o'tkazildi, empirik q.lar kashf etildi. Jamiyat q.lari ham inson hayotida juda muhim ahamiyat kasb etadi. Ana shu sababdan ham O'zbekistonda mustaqillik yillarida Asosiy qonun

– Konstitutsiya (1992) va qonunlar majmuyi yaratildi. Ular mamlakatimizda demokratik jamiyat va erkin hayot barpo etish vositasidir. Q. kategoriyasining mazmunini chuqurroq bilish obyektiv olamdagi va jamiyatdagi o'zaro aloqadorlik mohiyatini anglashda muhim ahamiyat kasb etadi.

**Qonuniylik** – jamiyatdagi barcha huquq subyektlari tomonidan qonun va qonunosti hujjatlariga to'la rioya qilinishi. Q.ning mamlakat hududida bir xilda tushunilishi va qo'llanilishi; Konstitutsiya va qonunlarning ustunligi – barcha normativ va individual huquqiy hujjatlar Konstitutsiya va qonunlar asosida qabul qilinishi va ularga zid kelmasligi; inson va fuqarolar huquq va erkinliklarining, burchlarining kafolatlanganligi; q.ning madaniyat b-n bog'liqligi – jamiyat a'zolari yuqori darajada madaniyatli, jumladan, huquqiy madaniyatli bo'lganlaridagina q.ka erishish mumkin; q. maqsadga muvofiqlikni, qonun va qonun osti hujjatlari davlat hamda jamiyat manfaatlariga mos kelishini anglatadi. Ijt-y iqt-y rivojlanish, turli xil shakldagi mulkchilik, jamiyatdagi ijt-y erkinliklar; siyosiy hurfiylik, ko'ppartiyaviylik, davlat tuzumining demokratik tamoyillari qonun va qonun osti hujjatlarini tatbiq etish va nazoratini uyushtirishning samarali mexanizmi q. b-n ta'minlanadi. Q. shaxsiy va ijt-y hayotda doimo rioya qilish shaxs ma'yatining Yuksakligidan darak beradi. Shaxs va jamiyat hayoti o'zaro uyg'un bir butun hayot ekanligini tushunadigan insonlar ma'n-y jihatdan yetuk insonlar bo'lib, ular hayotda qonuniy talablarga asoslanib yashaydilar.

**Qonun chiqaruvchi hokimiyat** – hokimiyatlar bo'linishi nazariyasiga muvofiq, davlatning o'zaro muvozanatlashtirilgan hokimiyat tarmoqlaridan biri bo'lib, davlat oliy vakillik organi tomonidan qonunlar qabul qilish vakolatining ro'yobga chiqarilishidir. U oliy yuridik kuchga ega bo'lgan normativ-huquqiy aktlar – qonunlar chiqarish bo'yicha vakolatlar yig'indisini mujassamlashtiradi hamda ushbu vakolatlarni amalga oshiruvchi davlat organlari tizimi sifatida namoyon bo'ladi. Qonun chiqarish ~ davlatning o'ta muhim funksiyalaridan biri bo'lib, u saylab qo'yiladigan oliy vakillik muassasasi tomonidan amalga oshiriladi. Qonun chiqaruvchi hokimiyatning asosiy vazifasi xalqning (jamiyatning) irodasini qonun shaklida ifoda etishdir. Q.ch.h. – bu Konstitutsiyada mustahkamlangan oliy davlat vakillik idorasining qonunlar qabul qilish, ularni o'zgartirish va bekor qilish bo'yicha alohida vakolatlari hisoblanadi.

**Qonun ustuvorligi** – ushbu tamoyilning mazmuni shuni anglatadiki, qonun ijtimoiy hayotning barcha sohalarida qat'iy hukmron bo'ladi. Ya'ni, hech kim, hech birdavlat organi, mansabdor shaxs, tadbirkor yoki boshqa bir fuqaro qonunga bo'ysunishi, ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy munosabatlar faqat qonun bilan tartibga solinadi, uning barcha ishtirokchilari esa, hech bir istisnosiz, huquq normalarini buzganligi uchun javobgarlikka tortilishi kerak. Huquqiy normalarni tatbiq etishda konstitutsiya va qonunlarning normalari boshqa huquqiy normalardan ustun turadi.

**Qimmatbaho (qimmatli) qog'ozlar** – egalariga daromad keltiradigan hamda turli aktivlarga (sertifikat, aksiya, obligatsiya va boshqa) bo'lgan huquqni tasdiqlovchi hujjat. K.K. aniq, real kapitalni qog'ozda ifodalaydi. K.K. larning quyidagi turlari mavjud: veksel, chek, aksiya, obligatsiya, sertifikat, turli muassasa, tashkilot va idoralarning (bank, xayriya va ishonch fondlari) qonunda ko'zda tutilgan hollarda mablag' bilan ta'minlaydigan ishonch qog'ozlari.



## R

**Radikalizm** – (radikal – (lot.) tub, asosiy, keskin, qarama-qarshi) 1) biror masalani hal qilishda keskin harakat va tadbirlarni qo'llash, murosasizlik; 2) so'l qarashlarni ifodalovchi oqim, harakat.

**Raqobat** – 1) basma-baslikka bellashuv 2) biror-bir sohada eng yuqori natijaga erishish borasida olib borilgan kurash 3) yuqori foyda olish maqsadida mahsulotni ishlab chiqarish va sotish uchun ishlab chiqaruvchilar o'rtasidagi kurash; xo'jalik yurituvchi shaxslarning bozorda o'z mahsulotini aynan shunday mahsulotlar sotish shartlariga ta'sir qilish maqsadidagi bellashuvi. Raqobat ikki ko'rinishda: a) tarmoqlararo; b) tarmoq ichida ko'rinishlarda bo'ladi. Tarmoqlararo R. – turli yo'nalishlarda mahsulot ishlab chiqaruvchilarning kapitalini eng qulay joylashtirish, ko'p foyda olish uchun olib borgan kurashi. Tarmoq ichidagi R. – bir xil ko'rinishda mahsulot ishlab chiqaruvchilarning bozor uchun, mahsulotni foydali, qulay sotish uchun olib borgan kurashi. Halol R – bozordagi kurashda qabul qilingan qonun-qoida hammaga ma'qul usullarga asoslanadi. R. o'z ichiga quyidagi xarakterli belgilarni oladi: 1) raqib haqida noto'g'ri va noaniq ma'lumotlar tarqatish; 2) mahsulotning sifati, ishlab chiqarilgan joyi xususida iste'molchini aldash, uni adashtirish; 3) raqibning mahsulot belgisidan, nomidan noto'g'ri foydalanish; 4) past sifatlil mahsulotlarni reklama qilish; 5) raqib mahsulotining sifati to'g'risida asossiz ma'lumot tarqatish va h.k. Xo'jalik yurituvchi subyektlarning (raqobatchilarning) musobaqalashuvi bo'lib, bunda ularning mustaqil harakatlari ulardan har birining tovar yoki moliya bozoridagi tovar muomalasining umumiy shart-sharoitlariga bir tomonlama tartibda ta'sir ko'rsatish imkoniyatini istisno etadi yoki cheklaydi: "O'zbekiston Respublikasining Raqobat to'g'risida qonuni" 2012-yil 6-yanvarda qabul qilingan.

**Raqobatga qarshi harakatlar** – raqobat to'g'risidagi qonun hujjatlarida xo'jalik yurituvchi subyektlar uchun man etilgan harakatlar, shuningdek, davlat boshqaruvi organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari hamda ular mansabdor shaxslarining raqobatni cheklashga qaratilgan harakatlari (harakatsizligi);

**Raqobatli elitistik demokratiya modeli** – demokratiyaning empirik modelaridan biri. G'oyalari Maks Veberga borib taqaladi. Shu yondashuvning yirik namoyondalari Jon Dyui, Gaetano Moska, Vilfredo Pareto'lardir. Demokratiyaning elitlar Konsepsiyalariga Yozef Shumpeter asos solgan. Yozef Shumpeter demokratiya jamiyatda mavjud yoki mavjud emasligini oson tekshirish imkonini beruvchi – demokratik tadbirlar tushunchasini kiritdi. Shuningdek, u yetakchilik, yetakchilik uchun kurash ko'rinishidagi raqobat, ko'pchilik irodasi singari o'zgaruvchilarni kiritish orqali elitistik demokratiya mohiyatini tushuntirishga harakat qilgan. Unga ko'ra demokratiyada odamlar ularni kim boshqarishi to'g'risida qaror qabul qiladilar, rahbarlikning o'zini esa raqobatli kurashda g'olib chiqqan siyosiy elita amalga oshiradi. Demokratiyaning elitlar modeli tarafdorlari ommani siyosatga kiritmaslik, uning ishtirokini saylovlar bilan cheklash zarurligidan kelib chiqadi, negaki, omma oqil emas, malakasiz va bilimsiz, kayfiyatli o'zgaruvchan. Hokimiyatni omma qo'lga topshirib qo'yish – samaradorlik va barqarorlikka putur etkazadi. Elitar demokratiyada xalq saylov davrida saylovchi sifatida

o'z rolini bajaradi va qolgan vaqtda siyosiy elitalar bilan xalq o'rtasidagi mehnat taqsimotini hurmat qilgan holda siyosat bilan shug'ullanmaydi. Elitar nazariya muayyan ijtimoiy mobililik asosida noelitar guruhlar elitar guruhlarga aylanishi mumkinligiga yo'l qo'yadi. Bu nazariya siyosiy jarayonni elitalar bilan omma o'rtasidagi doimiy ixtilof sifatida qaramaydi. T.Day va L.Zigler elitar nazariyani quyidagi holatlar orqali tushuntiradi: hokimiyatga ega kamchilik moddiy boyliklarni taqsimlaydi, ko'pchilik davlat siyosatini belgilamaydi; elitalar jamiyatning oliy ijtimoiy-iqtisodiy qatlami tarkibidan saralanadi; barqarorlikni saqlash va radikalizmga yo'l qo'ymaslik maqsadida elitaga o'tish asta-sekinlik bilan amalga oshishi lozim; ijtimoiy tizim qadriyatlari va tizimning o'ziga nisbatan elitalar birdamlar; davlat siyosati omma talabini emas, elitaning hukmron manfaatlarini ifodalaydi; fuqarolarning loqayd qismi tomonidan hukmron elita zaif ta'sirni sezadi. Shu tariqa demokratiyaning elitar modeli fuqarolardan qaror qabul qilish mas'uliyatini olib uni tajribali va axborotga ega yetakchilar zimmasiga yuklaydi. Tanqidchilarining fikricha, bu modelda siyosiy ishtirokning cheklanganligi fuqarolarda apatiya va begonashuvni keltirib chiqarishi mumkin.

**Regional bozor** – ma'lum hudud doirasida tovarlarni oldi-sotti qilish munosabatlari. R.B. bir mamlakat doirasidagi regionlar o'rtasida yoki bir necha chegaradosh mamlakatlar o'rtasidagi mehnat taqsimotining, binobarin, ishlab chiqarishni ixtisoslashuvining maxsulidir.

**Reklama** – (fr.reclame) – tovar yoki ko'rsatiladigan xizmat to'g'risidagi xolis axborot, ularni ko'proq sotish maqsadida xaridorlarga ularning xossalari, afzalliklari va sotib olish shartlarini yetkazish. R. maxsus firmalar orqali amalga oshiriladi va yuqori daromad manbayi hisoblanadi.

**Rentabellik** – (nem. rentabel-foydali, daromadli) foyda olish darajasi. Rentabellik ma'lum davr mobaynida olingan foyda miqdorining shu davrda sarflangan asosiy ishlab chiqarish fondlari va oborot vositalari qiymati yig'indisiga yoki mahsulotning ishlab chiqarish va sotish xarajatlari – tannarxga nisbati sifatida foizlarda hisoblanadi.

**Restriksiya** – ishlab chiqaruvchi tomonidan mahsulotning narxlarini oshirish, ko'p foyda olish maqsadida ishlab chiqarishni, oldi-sotdini, eksportni cheklash.

**Ratsizm** – (irqchilik) mafkura. Unga ko'ra xalqlar bir-biridan «tabiati» ga ko'ra farqlanib, rahbarlik va boshqarish uchun yaralgan «oliy» hamda tarixiy rivojlanish uchun ahamiyatsiz «quyi»larga bo'linadi. Shu bilan birga rasizm xalqlarni irqiy mansubligiga ko'ra ajratish, kamsitishga qaratilgan amaliyot sifatida ham namoyon bo'lishi mumkin (ba'zan butun bir davlat miqiyosida: fashistik Germaniya, XX asr 70-yillarigacha JAR).

**Ratsional** – (lot. rationalis-oqilona) maqsadga muvofiq, asoslangan, dalil-langan (eng to'g'ri yo'l ma'nosida ham ishlatiladi).

**Ratsional-tanqidiy paradigma** (ratsional – (lot.) oqil, maqsadga muvofiq, asosli) – siyosatni tushuntirishdagi asosiy paradigmalardan biri. U siyosatni uning ichki xususiyatlari orqali tushuntiradi.

**Ratifikatsiya** – (lot. tasdiqlamoq) ahdlashuvchi davlatlarning muxtor vakillari tomonidan tuzilgan xalqaro shartnoma yoki bitimning oliy davlat hokimi-

yati tomonidan tasdiqlanishi. Ratifikatsiya shartnomaga (bitimga) yuridik kuch beradi. O'zbekiston Konstitutsiyasiga muvofiq O'zbekistonning xalqaro shartnomalari Oliy Majlis tomonidan ratifikatsiya qilinadi. O'zbekistonning xalqaro shartnomasini ratifikatsiya qilish to'g'risidagi Oliy Majlisning to'xtami – qaror shaklida qabul qilinadi. O'zbekistonning hamkorlik va o'zaro yordam to'g'risidagi shartnomalari; davlatlararo munosabatlarning asoslari to'g'risidagi shartnomalar; O'zbekistonning mudofaa qobiliyatiga daxldor masalalar bo'yicha shartnomalar; kuch ishlatishdan yoki kuch ishlatish bilan tahdid qilishdan o'zaro voz kechish to'g'risidagi shartnomalar; tinchlik shartnomalari va kollektiv xavfsizlik to'g'risidagi shartnomalar; O'zbekistonning boshqa davlatlar bilan hududiy chegaralanishi to'g'risidagi shartnomalar; O'zbekistonning davlatlararo ittifoqlarda, xalqaro tashkilotlarda va boshqa birlashmalarda ishtiroki to'g'risidagi shartnomalar; ijrosi amaldagi qonunlarning o'zgartirilishini yoki yangi qonunlar qabul qilinishini taqozo etadigan, shuningdek, O'zbekistonning qonunlarida nazarda tutilganidan boshqacha qoidalarni belgilaydigan xalqaro shartnomalar ratifikatsiya qilinadi.

**Reabilitatsiya** – (lot.) 1) noto'g'ri ayblangan yoki qoralangan kishining pok nomini, obro'-e'tiborini qayta tiklash; 2) sud orqali yoki ma'muriy tartibda avvalgi huquqlarni tiklash.

**Reaksiya** – (lot. qarshi faoliyat) eski tartiblarga qaytish tarafdori, barcha ilg'or, progressiv narsalarga qarshi.

**Referat** – (lot. xabar qilmoq) 1) ommaviy ma'ruza; 2) qandaydir masalaning mohiyatini bayon etish.

**Referendum** – (lot. xabar qilinishi lozim bo'lgan narsa) umumxalq so'rovi, xalqning fikrini ovoz berish yo'li bilan aniqlash. Eng muhim masalalar bo'yicha o'tkaziladi. U to'g'ridan-to'g'ri demokratiya instituti. Insoniyat tarixidagi birinchi referendum 1439-yilda Shveysariyada o'tkazilgan. XX asr boshida bu institut faqat Shveysariya, AQSH, Avstraliyada amal qilgan. Ikkinchi jahon urushidan keyin u barcha rivojlangan davlatlarda qo'llanila boshlandi. O'zbekistonda ham «O'zbekiston Respublikasi Referendumi to'g'risida» qonun qabul qilingan (1991-yil 18 – noyabr) va faol qo'llaniladi. Referendumlarning konstitutsion, qonunchilikka doir va maslahat maqomidagi; o'tkazish usuliga ko'ra – majburiy va fakultativ; qo'llanish sohasiga ko'ra – umummilliy va mahalliy turfarga ajratiladi. Referendum davlat va jamiyat hayotidagi eng ahamiyatga molik masalalarni ovoz berish yo'li bilan hal qilish, jumladan, O'zbekiston Respublikasi qonunlarini va ularning echimlarini qabul qilish, ularni o'zgartirish, xalq hokimiyatini to'g'ridan-to'g'ri amalga oshirish vositasi bo'lmish jamoatchilik fikrini aniqlash maqsadlarida o'tkaziladigan umumxalq yig'inidir.

**Regional (mintaqaviy) ixtiloflar** (region – (lot.) viloyat-mintaqa) – mamlakatlar o'rtasidagi ixtiloflarning mintaqaviy darajada keskin shaklda namoyon bo'lishi. *Ochiq qurolli to'qnashuvlarda, urush xavfi mavjudligida namoyon bo'ladi.*

**Reglament** – (lot. qoida) 1) hukumat ichki tuzilishi va tartibini belgilaydigan qoidalar to'plami; 2) parlament ichki tuzilishi va faoliyati shaklini belgilaydigan qoidalar to'plami; 3) turli majlislar, konferensiyalarni o'tkazish tartibi.

**Rejim** – fran. rejime; davlat tuzumi, idora etish obrazi.

**Reket** – qoʻrqitish va kuch ishlatish yoʻli bilan qilinadigan zoʻravonlik.

**Relyativ** – (lot. nisbiy) muayyan munosabatlardagina ahamiyatga ega, shu munosabatlar bilan belgilanuvchi. Teskarisi – mutloq.

**Renegat** – (lot. inkor etish) oʻz eʼtiqodini oʻzgartirib, raqiblar tomoniga oʻtgan inson.

**Renessans** – (fr. jonlanish, yuksalish) XIV asrda Italiyada vujudga kelgan ijtimoiy, siyosiy, madaniy jarayon. Sharqda Uygʻonish davri IX-XI asrlarga toʻgʻri keladi.

**Rentabel** – (nem.) harakatlarni oqlaydigan, xoʻjalik yuritish nuqtayi nazaridan maqsadga muvofiq, daromad keltiruvchi.

**Reprezentativ demokratiya** (reprezentatsiya – (fr.) vakillik) – xalq oldida maʼsul va malakali vakolatli boshqaruv. U demokratiyaning elitar modellardan biri sifatida qaralishi mumkin, negaki representativ demokratiya – xalq roziligi bilan amalga oshadigan elitar boshqaruvdir. Unga koʻra demokratiyaning rivojlanishi ommaning boshqaruvda toʻgʻridan-toʻgʻri ishtirokini kengaytirish bilan emas, balki xalq nazoratidagi, samarali elitani tanlashning mukammal mexanizmini yaratish bilan bogʻliq.

**Reprezentativlik** – (fr. vakillik) tadqiqot qilinayotgan birlikning xususiyatlarini aks ettiruvchi tanlov belgisi. Masalan, mamlakat oʻquvchi yoshlari oʻrganilayotgan boʻlsa, uning representativligini taʼminlash uchun tanlovda ishtirok etuvchilar sarasiga shu guruh nisbatidan kelib chiqib, oʻquvchilardan tartib aspirantlarga kiritish va oʻrganish kerak.

**Respondent** – (ingl. javob berish) anketa savollariga javob berayotgan, intervyu berayotgan shaxs.

**Respublika** – (lot. jamoatchilik ishi, davlat) davlat boshqaruvi shakli. Unda oliy hokimiyat, monarxiyadan farqli, muayyan muddatga saylanadi yoki umummilliy vakillik muassasalari tomonidan tayinlanadi, fuqarolar shaxsiy va siyosiy huquqlarga ega boʻladi. Prezidentlik, parlament, aralash turdagi respublika turlari mavjud.

**Resurs** – (fr.) vosita, zaxira, manba. **Hokimiyat resurslari** – keng maʼnoda – individ yoki guruh, boshqalarga taʼsir etish uchun qoʻllashi mumkin boʻlgan barcha narsa. Tor maʼnoda – subyektning hokimiyat obyektiga taʼsirini taʼminlovchi barcha vositalar. Utilitar, majburiy va meʼyoriy resurslar ajratiladi. Hayotning muhim sohalariga koʻra – iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy – axborot, majburiy resurs turlari mavjud.

**Revansh** – (fr. qasos) magʻlubiyat uchun oʻch olish; avvalgi magʻlubiyat oʻrnini bosuvchi yutuq.

**Rezidensiya** – (lot. qarorgoh) davlat, hukumat boshliqlari, chet mamlakatlar elchilari turadigan joy.

**Rezolyutsiya** – (lot. ruhsat bermoq) 1) qaror; 2) hujjat tepasida rahbarning yozma qarori.

**Rezonans** – (lot. aks sado beruvchi) aks sado; siyosatda biror hodisa munosabati bilan tugʻilgan harakat, jarayon, kayfiyatlarni.

**Rezyume** – fr. 1) nutq, maqola va h.k. larning mazmunini qisqacha bayon qilish; 2) nutq, maʼruzaning yakuni; 3) aytilganlarning qisqacha yakuni.

**Rivojlanayotgan mamlakatlar** – o'tmishda mustamlaka, yarim mustamlaka yoki qaram mamlakatlar. Ular siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan xilma-xildirlar: ular orasida mutloq va konstitutsion monarxiyalar, parlament va prezidentlik rejimlari, harbiy v.b diktaturalar bor. Ularning ayrimlari iqtisodiy jihatdan rivojlangan va aholisining turmush darajasi ancha yuqori, lekin ko'pchiligi dunyoning eng qo'loq va kambag'al davlatlari sirasiga kiradi. Rivojlanayotgan mamlakatlarni alohida guruhga birlashtirish uchun asos bo'ladigan bir qator muhim belgilar bor: barchasining o'tmishda mustamlaka bo'lgani va buning oqibatida vujudga kelgan iqtisodiy va ijtimoiy qo'loqlik, jahon iqtisodiy va moliyaviy tizimidagi qaram va notekis mavqeyi (siyosatshunoslikda: jahon iqtisodiy va moliyaviy tizimining chekkasi, pereferiyasi); ijtimoiy tizimlarning o'tish tabiati; o'z muammolarini mustaqil, tashqi bosimsiz hal qilishga intilish. Rivojlanayotgan mamlakatlarning millatlari ham siyosiy millatlar sifatida qaraladi. Buning ikki sababi bor: millatchilik g'oyasi suverenitet va milliy mustaqillik g'oyalari bilan chambarchas bog'liq. Ya'ni millat bo'lishi uchun milliy davlat zarur; mustamlakalar sun'iy belgilangan chegaralarda rivojlangan va masalan, Afrikadagi millatlar davlat asosida vujudga kelgan. Rivojlangan mamlakatlar – taraqqiyotning yuqori bosqichi, ilm, texnika, texnologiya sohasida ilgari ketish, aholining yuqori turmush darajasi, ratsionalizm, pragmatizm, tanlov erkinligi, mulkchilik, madaniyatlar mulqoti kabi qadriyatlarga asoslanuvchi jahonning ilg'or mamlakatlari guruhi (AQSH, Yaponiya, Germaniya, Fransiya, Buyuk Britaniya, Italiya, Kanada va boshqalar).

**Rivojlanish** – evolyutsiya, genezis. Borliqning universal xususiyati. Shu vaqtgacha mavjud, lekin anglanmagan narsalarning yuzaga chiqishi; quyidan yuqoriga, oddiydan murakkabga tomon siljishi; ekstensiv (mavjud narsaning namoyon bo'lishi, kattalashishi) va intensiv (sifat jihatidan yangi shakllarning vujudga kelishi), ekzogen (tashqaridan berilgan turtki natijasidagi yuzaki rivojlanish), endogen (rivojlanish manbasi o'z ichida bo'lgan, haqiqiy) rivojlanish ajratiladi. Siyosiy rivojlanish – jamiyat siyosiy hayotidagi o'zgarishlar va jarayonlar birligi, u siyosiy hayot, siyosiy munosabatlarning takomillashuvi, murakkablashuvini anglatadi. U 1) sifat va miqdor o'zgarishlari to'planib borishi jarayoni doimiylikni; 2) o'zgarishlar yo'nalganligi; 3) o'zgarishlar to'planib borishi jarayoni qonuniyligi kabi belgilarga ega.

**Rieltorlik faoliyati** – rieltorlik faoliyati yuridik va jismoniy shaxslarning ko'chmas mulk obyektlariga va ularga bo'lgan huquqlarga doir bitimlar tuzish bilan bog'liq xizmatlarni shartnoma asosida ko'rsatish bo'yicha tadbirkorlik faoliyatidir. Rieltorlik faoliyati rieltorlik faoliyati sohasidagi vakolatli davlat organi tomonidan beriladigan rieltorlik faoliyatini amalga oshirish huquqini beruvchi litsenziya (bundan buyon matnda litsenziya deb yuritiladi) asosida amalga oshiriladi. Rieltorlik faoliyatini litsenziyalash tartibi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

**Rotatsiya** – (lot. aylanma harakat) hokimiyatning vakillik organlari tarkibini qisman (bosqichma-bosqich) yangilash.

**Ruhii paradigma** – siyosatni tushuntirishdagi tabiiy paradigmalarning bir turi. U siyosat tabiatini ruhiy omillar orqali tushuntiradi, ya'ni inson ruhiyati, turtkilar, dunyoni qabul qilish usuli va hokazolar orqali.

**Sabotaj** – (fr.) poyafzalni bir-biriga urish, biror ishni atayin bajarmaslik yoki pala-partish, yuzaki bajarish; biror narsaning amalga oshishiga zimdan qarshilik ko'rsatish.

**Sadizm** – (fr.) yozuvchisi Markiz De Sad (1740-1814) ismidan olingan – boshqalarning azob chekishidan rohatlanish.

**Sanksiya** – (lot. bekor qilinmaydigan qaror) 1) oliy instansiya tomonidan biror aktni tasdiqlanishi bilan unga qonun kuchining berilishi; 2) ma'qullash; 3) huquqqa oid: biror qonunni buzishning huquqiy oqibatlari; 4) zamonaviy xalqaro huquqda: xalqaro shartnomalar buzilganda qo'llanuvchi (iqtisodiy, moliyaviy, harbiy) choralar.

**Satellit** – (lot. yo'ldosh, davlat) satellit boshqa yirik davlatga to'la qaram, lekin formal jihatdan to'la mustaqil davlat.

**Saylov** – aholining rasmiy mansabni egallash uchun biror shaxsni tanlashi jarayonidir. Saylov – davlat, partiyalar, tashkilotlar va h. rahbar organlarini shakllantirish, ular tarkibiga vakillar yuborish, shuningdek, vakolatli majlislar, anjumanlarga vakillar tanlash bo'yicha o'tkaziladigan odatda, tegishli qonunlar bilan tasdiqlangan tadbirlar majmuyidir. Saylov qonun bilan belgilangan muayyan huquqiy jarayon bo'lib, unda fuqarolar muayyan bir partiya yoki nomzod uchun o'z ovozlari berishadi va buning natijasida yoki hokimiyatning saylab qo'yiladigan organi – parlament shakllantiriladi yoki aniq bir mansabdor shaxs, jumladan, Prezident, shahar hokimi (mer), ba'zi davlatlarda sudyalalar saylanadi.

**Saylov byulleteni** – belgilangan shaklda tasdiqlangan, yashirin ovoz berish uchun mo'ljallangan saylov hujjati. Saylov byulletenlari rasmiy (davlat tomonidan chiqarilgan) va norasmiylik bilan farqlanadi (Fransiyada saylov byulleteni o'z nomzodini qo'yadigan partiyalar, nomzodlar tomonidan chiqariladi; Norvegiyada saylovchi oddiy oq qog'ozdan foydalanishi mumkin).

**Saylov garovi** – deputatlikka nomzodlarni ro'yxatga olishda qator xorijiy mamlakatlar qonuni bo'yicha nomzod davlatga pul summasi topshirishi lozim va u okrug bo'yicha belgilangan sondan kam ovoz to'plasa unga bu pullar qaytarilmaydi.

**Saylov harakati** – fuqarolarning siyosiy xarakterdagi vaqtinchalik uyushmasi bo'lib, ularning asosiy vazifasi vakillik muassasiga saylovlarda o'z nomzodlarini g'alaba bilan ta'minlashdan iborat. Saylovlarda partiya bloklari va boshqa jamoat birlashmalari muayyan platformada ishtirok etib, o'ziga xos saylov harakatini vujudga keltiradi.

**Saylov huquqi** – fuqarolarning davlatning vakolatli organlariga saylash va saylanish huquqlari. U saylov huquqining umumiylik, tengligi va to'g'ridan-to'g'riligi tamoyillariga tayanadi. Saylov huquqi – konstitutsiyaviy huquqning muhim instituti sifatida saylov jarayonini tartibga soladigan me'yorlar tizimi. Saylov huquqi – muayyan bir davlatdagi vakillik organlari va mansabdor shaxslarning saylanish tartibi va asoslarini tartibga soluvchi me'yorlar majmuyidan

iborat. Saylov huquqining manbalariga konstitutsiya, davlat oliy va mahalliy vakillik idoralariga saylovlar to'g'risidagi qonunlar kiradi.

**Saylov huquqi tamoyillari** – saylov huquqining dasturilamal negizi. Saylov huquqi tushunchasini ikki xil mazmunda anglash mumkin. Obyektiv mazmunda yondashganda, saylov huquqi – davlat va mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlari hamda mansabdor shaxslari saylovlari bilan bog'liq ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi konstitutsiyaviy-huquqiy me'yorlar tizimidir. Subyektiv jihatdan esa saylov huquqini fuqaroning saylovlarda qatnashish borasidagi davlat tomonidan kafolatlangan imkoniyati sifatida tushunish o'rinlidir. Saylov (subyektiv) huquqi saylovlarning umumiyligi, to'g'ridan-to'g'riligi, saylovlarda fuqarolarning teng ishtiroki va saylovchilarning yashirin ovoz berishi tamoyillariga asoslanadi. «O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylov to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni (yangi fahrir) ning 1-5-moddalarida quyidagicha mustahkamlangan: *saylov huquqining umumiyligi tamoyili; teng saylov huquqi tamoyili; saylovlarda erkin qatnashish tamoyili; to'g'ridan-to'g'ri saylov tamoyili; yashirin ovoz berish tamoyili.*

**Saylov huquqlarining kafolatlari** – fuqarolarning saylov huquqlarini huquqiy, tashkiliy, axborot va boshqa jihatdan ta'minlash vositalari. Saylov huquqlarining asosiy kafolatlari qonunchilikda mustahkamlab qo'yilgan. Saylov huquqlarining huquqiy kafolatlari sirasiga saylovlarning majburiyligi va davriyligi tamoyillarini ro'yobga chiqarishni ta'minlovchi qonunda belgilangan yuridik mexanizmlarni; saylov komissiyalarining saylov huquqlarini buzadigan qarorlari va xatti-harakatlari ustidan yuqori saylov komissiyasiga yoki sudga shikoyat qilish huquqini; davlat hokimiyati organlari va mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlari, jamoat birlashmalari, ularning mansabdor shaxslari va boshqalarning g'ayriqonuniy xatti-harakatlari ustidan sudga shikoyat qilish huquqi kabilarni kiritish mumkin. Saylov huquqlarining tashkiliy kafolatlariga esa saylovchilarning oldinroq ovoz berishi, shuningdek saylov uchastkasi binosidan tashqarida ovoz berishini tashkil etish amaliyoti yaqqol misol bo'la oladi. Saylov huquqining axborot jihatidan kafolatlanishi deganda saylov belgilangani to'g'risidagi qarorni rasmiy e'lon qilishning majburiyligi, saylovchilarni ovoz berish kuni, vaqti va joyi, saylov komissiyasining manzili va telefon raqamlariga doir ma'lumotlardan xabardor qilish; saylovchilarni saylovchilarning ro'yxatlari bilan tanishtirish; saylov komissiyalari tomonidan ro'yxatga olingan nomzodlar haqida axborot berish; saylov yakunlarini rasmiy e'lon qilish kabitar tushuniladi.

**Saylov jarayon** – *saylov tizimining asosiy elementlaridan biri*, qonunchilikda belgilangan tartibga ko'ra saylovlarni tashkil etish va o'tkazish bilan bog'liq izchil bosqichlar birligi. U: 1) *saylovlar tayinlashni (qoida tariqasida bu alohida huquq davlat boshlig'i yoki qonunchilik organiga tegishli);* 2) *qonun bilan belgilangan tartibda saylovchilarni ro'yxatga olishni;* 3) *tumanlar va boshqa joylarda saylov okruglari tashkil etishni, (vakillik tamoyiliga muvofiq hududiylik, milliylik, ishlab chiqarish va boshqa xususiyatlarni shakllantiradi, ovoz berish uchun saylov uchastkalari va punktlari ham tashkil etiladi);* 4) *nomzod ko'rsatishni (siyosiy partiyalar tomonidan, saylov bloklari tomonidan, tashabbuskor guruhlar tomonidan);* 5) *ovoz berish o'tkazishni (bir yoki ikki turda);* 6) *ovoz berish natijalarini aniqlashni (berilgan ovozlarni hisoblashni) va mahalliy*

*hamda markaziy saylov organlari tomonidan amalga oshiriluvchi deputatlar mandati bo'lishini o'z ichiga oladi.*

**Saylov kampaniyasi** (kampaniya – fr.) qandaydir maqsadga qaratilgan harakatlar) – muayyan vaqt oralig'ida maxsus ijtimoiy-siyosiy vazifani amalga oshirish uchun (misol uchun, parlamentda vakillik o'rinlarini egallash va h.) uyushtiriladigan va olib boriladigan faoliyat, kurash; bo'lajak saylovlarda o'ziga ko'proq saylovchilarni jalb etish, ularning madadini ta'minlash maqsadida siyosiy partiyalar va nomzodlar tomonidan olib boriladigan targ'ibot tadbirlari tizimi. Saylov kampaniyasida jamoat birlashmalari, ommaviy axborot vositalari, turli madad guruhlari va boshqalar qatnashadi. Saylov kampaniyasi davrida targ'ibotning asosiy shakllari (usullari): saylov oldi yig'ilishlari va mitinglar o'tkazish, ro'znomalarda pamfletlar va maqolalar chiqarish; saylov oldi afishalari, plakatlar yopishtirish, radio va televideniye orqali chiqishlar. Hozirgi zamon saylov qonunlari odatda saylov kampaniyasi olib borishni mufassal tartibga soladi. Birinchidan, saylov kampaniyasi olib borish muddati (ayrim hollarda esa hududi) aniq belgilanadi. Saylov kampaniyasi, odatda, saylovni tayinlash to'g'risida e'lon kilingan kundan yoxud nomzodni (partiya ro'yxatini) ro'yxatga olishdan boshlanadi va ovoz berish boshlanishiga bir-ikki kun qolganida to'xtatiladi. Ikkinchidan, davlat tomonidan ommaviy axborot vositalarini saylov oldi targ'iboti uchun partiyalarga va nomzodlarga berish tartibi ishlab chiqiladi. Uchinchidan, saylov kampaniyasini mablag' bilan ta'minlash tartibi va shartlari belgilanadi. Masalan, qator mamlakatlar (AQSH, Yaponiya, Buyuk Britaniya) qonuni saylov kampaniyasini o'tkazishga yo'l qo'yilishi mumkin bo'lgan xarajatlarning eng ko'p miqdorini belgilaydi. Qonun ko'pchilik mamlakatlarda partiyalar va nomzodlar foydasiga xususiy shaxslardan xayriya mablag'lari tushishining maksimal miqdorini, saylov kampaniyasni davlat tomonidan subsidiyalash imkoniyati miqdori va shartini belgilaydi. Saylov kampaniyasini noma'lum va chet el manbalaridan moliyalash qat'iyani takqiqlanadi.

**Saylov kassatsiyasi** – saylov kampaniyasi davrida ovoz berish va uning natijalarini aniklash tartibi buzilganligi uchun bo'lib o'tgan saylovlarni haqiqiy emas deb topish.

**Saylov komissiyalari** – fuqarolar tomonidan davlat organlari tarkibida bevosita saylovlarni o'tkazish uchun tashkil etilgan maxsus kollegial organlar. Saylov komissiyalari vakolati va tashkil etish tartibi, tizimi O'zbekiston Respublikasining saylov to'g'risidagi qonunlari bilan belgilanadi. O'zbekiston Respublikasida saylov komissiyalari tizimiga quyidagilar kiradi: Markaziy saylov komissiyasi, okrug saylov komissiyasi va uchastka saylov komissiyalari.

**Saylov korpusi** – qonunga muvofiq ovoz berish huquqiga ega bo'lgan fuqarolar (aktiv ovoz berish huquqi bilan) yig'ini, ya'ni yuridik saylov korpusi yoxud aniq ovoz beruvchi fuqarolar yig'indisi (aniq saylov korpusi).

**Saylov kvotasi** (*saylovchilik metri, yakka saylovchilik, o'rta saylovchilik*) – bitta deputatni saylash uchun zarur bo'lgan eng kam ovoz soni. Saylov kvotasi har bir saylov okrugi uchun alohida hamda mamlakat uchun butunlay aniqlanishi mumkin.



**Saylov okrugi** – davlat organlariga a'zolar saylanadigan hududiy birlik. Har bir saylov okrugidan qancha deputatlar saylanishiga qarab, bir mandatli va ko'p mandatli saylov okruglari tashkil etiladi. Saylov okrugi, shuningdek, umumdavlat (proporsional saylov tizimida, davlat boshlig'ini saylashda) va regional (asosan mojaritar va gohida proporsional saylov tizimida) bo'lishi mumkin.

**Saylov tizimi** – siyosiy hokimiyatning vakillik organlarini legitim tarzda shakllanishini ta'minlovchi va tartibga soluvchi qoidalar, vositalar, harakatlar birligi. Saylov tizimi – davlat siyosiy tizimining muhim elementi, u huquqiy me'yorlar bilan tartibga solinadi, ularning yig'indisi saylov huquqini tashkil etadi. Qonunlarda nomzodlarni ilgari surish tartibi, ularga qo'yiladigan talablar, ovoz berish va ularni hisoblash, OAV laridan foydalanish tartibi, moliyalashtirish manbalari aks etadi. Saylov tizimi quyidagilarni o'z ichiga oladi: a) saylovchi organlarni shakllantirishda qatnashish sharti va tamoyillari b) saylovchlarni tashkil etish va o'tkazish tartibi; v) O'zbekiston, va ba'zi mamlakatlarda, saylangan shaxslarni chaqirib olish. Quyidagilar saylov tizimining konstitutsiyaviy tamoyili hisoblanadi: yashirin ovoz berish asosida umumiy, to'g'ri va teng saylash huquqi; saylov oldi tashviqoti erkinligi, saylov kampaniyasini o'tkazishda nomzodlar teng huquqliligi.

**Saylov tizimi turlari** – saylov tizimining quyidagi turlari mavjud: majoritar saylov tizimi; proporsional saylov tizimi; aralash saylov tizimi. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasiga va mahalliy davlat hokimiyati vakillik organlariga o'tkaziladigan saylovlar majoritar tizim asosida, aniqrog'i, majoritar tizimning mutlaq ko'pchilik ovozlari ko'rinishi shaklida amalga oshiriladi.

**Saylov uchastkasi** – ovozlarni berish va ovozlarni hisoblab chikish uchun tashkil etiluvchi hududiy birlik. O'zbekiston Respublikasida «Oliy Majlisga saylov to'g'risida»gi qonunga va «Oliy Majlis Kengashi to'g'risida»gi nizomga muvofiq, saylov kunigacha 45 kundan kechikmasdan tumanlar, shaharlar, shahardagi tumanlar hokimiyati boshlig'i qarori bilan bitta saylov uchastkasi (20 dan 3000 nafargacha fuqaro hisobida) tashkil etiladi. Tog'li va boshqa aholi kam yashaydigan joylarda saylov uchastkasini 20 nafardan saylovchilar hisobida tashkil etishga yo'l qo'yiladi. Saylov uchastkasi saylovchilar uchun mumkin qadar qulaylik yaratish maqsadida va tumanlar, shaharlar, shahardagi tumanlarda chegarani hisobga olgan holda tashkil etiladi. Saylov uchastkasining chegarasi saylov okrugi chegarasini kesib o'tmasligi lozim.

**Saylovchi** – faol saylov huquqiga ega, u yoki bu nomzod uchun, yoki biron masala yuzasidan saylovda, referendumda ovoz berishda ishtirok etuvchi fuqaro. Ovoz berishni o'tkazish va saylov natijalarini aniqlash uchun faol saylov huquqiga ega fuqarolar saylovchilar ro'yxatiga kiritiladi. O'zbekiston Respublikasida asosiy saylovda ovoz berishda ishtirok etish huquqidan tashqari, qonunchilikda fuqaroning bu bilan bog'liq boshqa bir qator huquqlari belgilangan va ularni ro'yobga chiqarish kafolatlari ko'zda tutilgan. "Fuqarolar saylov huquqlarining kafolatlari to'g'risida"gi qonunga muvofiq, har bir fuqaroga uning saylov huquqlari sud yuli bilan himoya etilishi, saylov komissiyalarining, davlat organlarining, mansabdor shaxslarning, jamoat birlashmalarining g'ayriqonuniy xatti-harakatlari ustidan sudga shikoyat qilishi imkoniyatlari kafolatlanadi.

**Saylovchilar nakazi** – nomzod saylanganidan so'ng bajarishi lozim bo'lgan topshiriq, talab va takliflar, saylovchilar tomonidan deputat bo'lib saylanayotgan nomzodga nisbatan beriladigan har qanday savollar.

**Saylovchilar ro'yxati** – faol saylov huquqiga ega fuqarolar ro'yxati. Saylovchilarning ro'yxatlari fuqarolarning ovoz berishda ishtirok etish huquqini ro'yobga chiqarish; fuqarolarni o'zlari haqida ro'yxatda qayd etilgan ma'lumotlar bilan tanishtirish, bu ma'lumotlarga aniqlik kiritish; ovoz berishni o'tkazish va saylov natijalarini aniqlash maqsadlaridan kelib chiqib tuziladi. O'zbekiston fuqarosining saylovchilar ro'yxatiga kiritilishi uchun uning ushbu uchastka hududida doimiy yoki vaqtincha istiqomat qilib kelayotganligi fakti asos hisoblanadi. Fuqaro faqat bitta uchastkada saylovchilar ro'yxatiga kiritiladi. Ro'yxatda saylovchining familiyasi, ismi, otasining ismi, tug'ilgan yili (yoshi o'n sakkizda bo'lsa, qo'shimcha ravishda tug'ilgan kuni va oyi), doimiy yashash joyi manzili ko'rsatiladi. Saylovchilar ro'yxati uchastka komissiyasi raisi va kotibi tomonidan imzolanaadi hamda muhr bilan tasdiqlanadi. Saylovchilar ro'yxati saylov komissiyasi tomonidan ovoz berish kuniga kamida 15 kun qolgan muddatdan kechiktirmay saylovchilar tanishib chiqishi va qo'shimcha aniqliklar kiritish uchun taqdim etiladi.

**Saylovchilar stenzi** – Konstitutsiya yoki saylov haqidagi qonunlarga ko'ra har bir davlatda fuqaro saylov huquqiga ega bo'lishi uchun zarur shartlar. Turli mamlakatlarning konstitutsiyaviy amaliyotida quyidagi saylov stenzlari ma'lum: yoshi, fuqaroligi, ma'lumoti, o'troqligi, mulk, jins, irq, xizmat mavqeyi, tili. *Mulk, jins, irq* saylov stenzlari doimo kamsitish xarakterida va demokratik saylov tamoyillariga ziddir. Qolgan saylov stenzlari kamsitishni nazarda tutmaydi, biroq ba'zan undan shu maqsadda foydalanilishi mumkin.

Saylovchilarning yig'ma, aralash ro'yxati – proporsional saylov tizimida saylovchilarga bir vaqtning o'zida bir necha partiya ro'yxatlarida ko'rsatilgan nomzodlarga ovoz berishga ruxsat berilishi. Bu qonun Shveysariya, Shvetsiya va Norvegiya kabi davlatlarda amal qiladi. Zamonaviy davlatlarda ovoz berish nafaqat fuqarolik huquqi, balki, fuqarolik majburiyati hamdir. Ba'zi mamlakatlarda saylovda qatnashmaganlik uchun ham jazo choralari belgilangan. Masalan, Belgiya, Niderlandiya, Avstraliya kabi mamlakatlarda *jarima to'lanadi*. Pokistonda esa, hattoki qamoq jazosi ham qo'llaniladi. Ayrim mamlakatlarda «to'polonlarni oldini olish» maqsadlarida ovoz berish uchun har bir saylov okrugi bo'yicha mavjud nomzodlar soni ancha chegaralangan.

**Saylovoldi tashviqoti** – fuqarolar, deputatlikka nomzodlar, ularning ishonchli vakillari, jamoat birlashmalarining saylovchilarni saylovda qatnashish, shuningdek muayyan nomzodlarni qo'llab-quvvatlab yoki ularga qarshi ovoz berish uchun tashviq etish maqsadiga qaratilgan yoxud shunga undaydigan faoliyati. Saylovoldi tashviqoti deputatlikka nomzodlar ro'yxatga olingan kundan e'tiboran boshlanadi. Saylov kuni hech qanday tashviqot yuritishga yul qo'yilmaydi. Saylovoldi tashviqoti: *ommaviy axborot vositalari orqali; ommaviy tadbirlar (saylovchilar yig'ilishlari va ular bilan uchrashuvlar, ommaviy bahs va munozaralar) o'tkazish yuli bilan; matbuot, audiovizual va boshqa xil tashviqot materiallarini tayyorlash va tarqatish yo'li bilan; qonunda taqiqlanmagan boshqa xil yo'llar bilan amalga oshirilishi mumkin. Deputatlikka nomzodlarga, siyosiy partiyalarga Markaziy*

saylov komissiyasi tomonidan belgilanadigan tartibda ommaviy axborot vositalaridan foydalanishda teng huquq beriladi. Saylovchilarning yig'ilishlari uchastka saylov komissiyasi tomonidan barcha nomzodlar uchun mutlaq teng sharoitlarga rioya etilgan holda tashkil qilinadi. Mahalliy hokimiyat organlari va jamoat tashkilotlari, shuningdek fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari deputatlikka nomzodlarga yig'ilishlar o'tkazish uchun jihozlangan binolar ajratishlari, deputatlikka nomzodlarga saylovchilar bilan uchrashuvlar o'tkazishni tashkil etishda, zarur ma'lumot va axborot materiallari olishda yordam ko'rsatishlari shart. Yig'ilishlar va uchrashuvlar o'tkaziladigan vaqt hamda joy saylovchilarga barvaqt xabar qilinadi. Siyosiy partiyalarga o'zining kelgusi faoliyat dasturi bilan chiqish huquqi beriladi. Partiyalar va deputatlikka nomzodlarning dasturlari davlatning suvereniteti, yaxliligi va xavfsizligiga qarshi qaratilgan bo'lmashligi, xalqning sog'lig'i va ma'naviyatiga tajovuz qilmasligi, ularda urush, milliy, irqiy va diniy adovat targ'iboti, konstitutsiyaviy tuzumni zo'rlik bilan o'zgartirishga, fuqarolarning konstitutsiyaviy huquqlari va erkinliklarini kamsituvchi xatti-harakatlarga da'vat bo'lmashligi kerak. Tashviqotning saylovchilarga bepul yoki imtiyozli shartlarda tovarlar berish, xizmatlar ko'rsatish (axborot xizmatlari bundan mustasno), shuningdek pul mablag'lari to'lash bilan qo'shib olib borilishi taqiqlanadi.

**Saylov organlari** – konstitutsiyaviy huquqda saylovlarni tayyorlash va o'tkazishni amaliy ta'minlovchi organlar. Saylov organlari turli davlatlarda maxsus saylov komissiyasi sifatida yoki mavjud davlat organlari – munitsipalitetlar, sudlar, ichki ishlar organlari ko'rinishida bo'lishi mumkin. O'zbekistonda saylov okruglari tizimini O'zbekiston Respublikasining Markaziy saylov komissiyasi, okrug va uchastka saylov komissiyalari tashkil etadi.

**Savdo uyi** – savdo korxonasi maxsus turi, ixtisoslashgan yoki sertasmoq bo'ladi. Ixtisoslashgan SU ayrim tovarlar bilan, masalan, ust kiyim, oyoq kiyimi, gazlama va hokozolar bilan universal (sertarmoq) Shu har xil tovarlar bilan savdo qiladi.

**Saldo** – (ital. saldo-hisob.qoldiq) – qoldiq, ma'lum bir muddatda kirim va chiqim orasida vujudga kelgan farq; buxgalteriyada debet va kredit, umumiy aktiv va passiv o'rtasidagi tafovut, farq; xalqaro savdoda eksport hamda import o'rtasidagi farq.

**Sanatsiya** – davlat yoki yirik bank yordamida katta korxonalar va firmalar sinishining oldini olish chora-tadbirlari.

**Slip** – birja faoliyatida aksiyaga qo'shib jo'natiladigan hujjat (sertifikat). Ushbu hujjatda aksiyaga tegishli tor doiradagi ba'zi ma'lumotlar (stirkulyatsiyaga ruxsat olingan, aksiya konkurent tomonga tegishli emas va boshqalar) keltirilgan bo'ladi.

**Sertifikat** – (fr.certifikat-tasdiqlayman, guvohlik beraman) – bu guvohlik beruvchi hujjatdir. M: auditor sertifikati – e'lon qilingan firma balansining to'g'riligini tasdiqlovchi hujjat. Sug'urta sertifikati bu sug'urta shartnomasining shartlari qayd etilgan hujjat. Aksionerlik sertifikati bu o'z egasining jamiyat (kompaniya) kapitalining bir qismiga egaligini tasdiqlovchi hujjat. Tashqi iqtisodiy aloqalarda tovar sifati guvohnomasi va h.k.

**Soliqlar** – davlatning korxonalar, tashkilotlar va aholidan undiradigan pul mablag'lari, milliy daromadni iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyot vazifalariga muvofiq taqsimlash va qayta taqsimlashni ta'minlovchi moliya mexanizmining muhim vositalaridan biri, davlat tomonidan tartibga solinadi.

**Sof foyda** – korxonada moliyaviy faoliyati natijasida ko'rilgan daromaddan mahsulot tannarxi va soliqlar hisoblanganidan so'ng korxonada ixtiyorida qoldirilgan foyda.

**Sof milliy mahsulot** – (SMM) yalpi milliy mahsulotdan amortizatsiya ajratmalari summasini chegirib tashlangandan qolgan qiymat summasi.

**Sivilizatsiya** – (lotincha "civilis" – fuqaroviy, ijtimoiy) – jamiyatning o'z taraqqiyoti jarayonida yaratgan moddiy va ma'naviy boyliklarining, ularni yanada ko'paytirib hamda takomillashtirib borish usullarining majmuyi. Sivilizatsiya insoniyat taraqqiyotining mahsuli va ayni vaqtda zaminidir.

**Siyosiy partiya fraksiyasi** – siyosiy partiyadan ko'rsatilgan deputatlar tomonidan partiya manfaatlarini O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasida ifodalash maqsadida tuziladigan va belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tkazilgan deputatlar birlashmasidir. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasida ko'pchilik o'rinni egallagan siyosiy partiya fraksiyasi parlamentdagi ko'pchilikni tashkil etadi. O'z dasturiy maqsadli vazifalarining yaqinligidan yoki mosligidan kelib chiqqan holda blok tuzadigan bir nechta siyosiy partiyalar fraksiyalari va O'zbekiston ekologik harakatidan saylangan deputatlar ham parlamentdagi ko'pchilikni tashkil etishi mumkin. Yangitdan shakllantirilgan hukumatning tutgan yo'li va dasturiga yoki uning ayrim yo'nalishlariga qo'shilmaydigan siyosiy partiyalar fraksiyalari, shuningdek O'zbekiston ekologik harakatidan saylangan deputatlar o'zlarini muxolifat deb e'lon qilishi mumkin. Siyosiy partiyalar fraksiyalarining blokka birlashishi qonunda nazarda tutilgan huquqlarni amalga oshirishda ularning mustaqilligini cheklab qo'ymaydi. O'zini parlamentdagi muxolifat deb e'lon qilgan siyosiy partiya fraksiyasi qonunda fraksiyalar uchun nazarda tutilgan vakolatlar bilan bir qatorda quyidagi huquqlarga ega: -qonun loyihasi birinchi o'qishda ko'rib chiqilguniga qadar o'sha masalaga doir qonun loyihasining, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi qarori loyihasining muqobil tahririni kiritish; muhokama etilayotgan masalalar yuzasidan o'zining alohida fikrini O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining yalpi majlisi bayonnomasiga kiritish. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati tomonidan rad etilgan qonun bo'yicha kelishuv komissiyasida o'z vakillarining kafolatli ishtirok etishi. Parlamentdagi muxolifatning qonun bilan kafolatlangan huquqlari parlamentdagi ko'pchilik tomonidan kamsitilishi mumkin emas. Siyosiy partiyadan ko'rsatilgan va O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasiga saylangan deputat faqat shu partiya fraksiyasining a'zosi bo'lishi mumkin.

**Sintez** – (gr. birlashish, uyg'unlik) predmetni bir butunlikda, qismlarining o'zaro aloqadorligi va yaxlitligida o'rganish usuli, tahlil bilan bog'liq.

**Sionizm** – mafkura va amaldagi harakat. Unga ko'ra butun dunyo yahudylari jahon millatini tashkil etadi, unga tarixiylik va ilohiylik xos va h.

**Siyosat** – siyosiy hokimiyatni egallash, qo'lda tutib turish va undan foydalanish maqsadida katta ijtimoiy guruhlar, siyosiy partiyalar, ijtimoiy harakatlarining davlat munosabatlari sohasidagi faoliyati. Siyosat, shuningdek, jamiyatdagi umumiy manfaatlarni aniqlash, butun jamiyat uchun majburiy bo'lgan qarorlarni ishlab chiqish va ularni davlat hokimiyati yordamida amalga oshirish bilan bog'liq faoliyat. Siyosatga jalb etiladigan manfaatlar guruhiiy tabiatga ega. *Shuning uchun ma'lum bir guruhlar boshqa guruhlarining holati, maqsadlari, maqomlari, manfaatlariga ta'sir ko'rsatishni boshlaganlarida va bunga davlat hokimiyatini jalb etganlarida siyosat to'g'risida so'z yuritiladi, deb ayta olamiz.* Siyosatsiz jamiyat bo'lmagan. Jamiyat faqat siyosiy jamiyat holatidagina yaxlitlikni namoyon etadi. Siyosiy munosabatlar ommaviy, ya'ni umumiy g'oya, maqsadlar va qadriyatlar asosida birlashgan mustaqil jamoaga nisbatan himoya funksiyasiga ega. Siyosat – ijtimoiy munosabatlarni boshqaruvchi, tartibga soluvchi global mexanizm bo'lib u guruhlar o'rtasidagi ixtiloflarni tartibga soladi, ular o'rtasida muloqotni vujudga keltiradi, hokimiyat uchun kurash jarayonining institutsionallashtirish, madaniy, insoniy shakllarini yaratadi va tutib turadi, biror tomon ustunligini istisno etadi. Ya'ni siyosat sohasiga kirgan har qanday ishtirokchi (aktor) boshqa ishtirokchilar (aktorlar) manfaatlarini hisobga olishga majbur bo'ladi. Siyosat funksiyalari: jamiyatdagi guruhlar va qatlamlarning hokimiyatga doir manfaatlarini bayon etish; ixtiloflarni yumshatish, ularni institutsionallashtirish, qarama-qarshi tomonlarni kelishtirish; jamiyat faoliyati va rivojini ta'minlash maqsadlaridan kelib chiqib moddiy va ma'naviy resurslarni taqsimlash va qayta taqsimlash; ijtimoiy rivojlanishning umumiy maqsadlarini ilgari surish; jamiyatni birlashtirish va ijtimoiy tizim yaxlitligini ta'minlash; shaxsni ijtimoiylashuvini ta'minlash; kommunikatsiyani ta'minlash; ijtimoiy hayotni tashkil etishning yangi shakllarini yaratish.

**Siyosat darajalari** – siyosat bir qancha darajalarda amalga oshiriladi. **Megasiyosat** – davlatlararo munosabatlar va davlatlarning xalqaro tashkilotlar bilan munosabatlari sohasi. **Makrosiyosat** – davlat, oliy hokimiyat doirasida tashkil etiluvchi siyosat. **Mezosiyosat** – alohida mintaqalar, mahalliy tuzilmalar, institutlar, tashkilotlar darajasidagi munosabatlar va aloqalardan tashkil topadi. **Mikrosiyosat** – shaxslararo va guruhlar ichidagi munosabatlarni davlat institutlari tomonidan boshqarilishini nazarda tutadi. Siyosatning har bir darajasi uchun ularni tartibga soluvchi va boshqaruvchi o'ziga xos mexanizmlar, munosabatlar, texnologiyalar va institutlar mavjud, shuning uchun har bir daraja ma'lum ma'noda boshqalariga nisbatan mustaqil deb qaralishi mumkin. Bu esa siyosatning har bir darajasi alohida-alohida fanlarning ichida o'rganilishini talab etadi (masalan, xalqaro siyosat nazariyasi, regionalistika va h.)

**Siyosat falsafasi** – (grek. donishmandlik) – siyosiy fanlardan biri, u siyosatni falsafiy, nazariy-metodologik jihatdan o'rganadi. Siyosat falsafasining predmeti siyosat va siyosiy hokimiyat ontologiyasi, siyosiy-hokimlik munosabatlarining substansional asoslari, ularning muhim umumiy jihatlari, siyosiy gnoseologiya, siyosiy prakseologiya, siyosat subyektlarining madaniyati va h.lar tashkil etadi. Siyosat falsafasida alohida o'rinni siyosiy subyektlarning ma'naviy dunyosi – ularning siyosiy ongi, milliy ong, monandlik, milliy-davlat mafkurasi, siyosiy

mentalitet va boshqalar egallaydi. Siyosat falsafasi tushunchasi XVIII asrning ikkinchi yarmidan boshlab ijtimoiy fanlarda keng qo'llanila boshlandi. Ijtimoiy fanlarda siyosat falsafasi iborasini birinchi bo'lib ishlatgan olim G. Gerderdir. Siyosat falsafasi siyosatshunoslik va falsafaning o'zaro bog'liqligi natijasida vujudga kelgan fan sifatida insoniyat faoliyatining shunday qirralarini qamraydiki, unda jamiyatda mavjud siyosiy qarashlar, siyosiy axloq va siyosiy me'yorlar aks etadi. Siyosat falsafasi fanining asosiy refleksiyasi siyosiy dunyo hisoblanadi. Siyosat falsafasi fanining vazifalari quyidagilardir: siyosat borlig'ini xolisona o'rganish; siyosat fanining kategorial apparatini yaratish; siyosat fanining metodologiyasini yaratish; siyosatda realizm va idealizm namoyon bo'lishini ko'rib chiqish; siyosatning boshqa sohalar bilan bog'liqligini va o'ziga xos jihatlarni ko'rsatib berish; siyosatning universal va o'ziga xos qonunlarini o'rganish.

**Siyosat maydonidagi "o'nglar" va "so'llar"** – ehtimol tutilgan siyosiy yo'nalishlar ko'lamlarini ko'rsatuvchi va siyosiy mazmunda ham muayyan ahamiyatga ega bo'lgan tushuncha. "O'nglar" va "so'llar" atamaları inqilobdan keyingi (1789-yil) Fransiya parlamentida yuzaga kelgan bo'lib, unda parlament a'zolarini joylashtirish tartibi bo'yicha uchta yo'nalish yuzaga kelgan: o'ng qanotda felyanlar, ya'ni monarxiya tuzumini saqlab qolish va uni konstitutsiya yordamida tartibga solish istagidagi deputatlar; markazda esa jirondistlar – ikkilanuvchi respublikachilar; chap qanotda esa, yakobinchilar – tub o'zgarishlarga intiluvchi radikal inqilobiy harakatlar tarafdorlari joylashganlar. Shunday qilib, siyosatda "o'nglar" va "so'llar"ning dastlabki ajralishi ro'y bergan. O'nglar mavjud holatni, "status-kvo"ni saqlab qolishni istovchilar; so'llar – ijtimoiy tuzumni o'zgartirish tarafdorlari. Keyinchalik konservator va reaksiонер tushunchalari "o'nglar" tushunchasining, radikallar va progressistlar esa – "so'llar" tushunchasining sinonimlariga aylandi.

**Siyosat maydonidagi shaxs** – ongli ravishda, aniq maqsadni ko'zlagan holda faoliyat yurituvchi, siyosiy kuchlarning manfaatlarini o'z manfaatlari bilan uyg'un tarzda olib boruvchi, mazkur manfaatlarni (davlat, partiya, ijtimoiy-siyosiy, xalqaro va boshqa) yaxlit shaklda ifoda qiluvchi va amalga oshiruvchi subyekt. Shaxs siyosatdagi asosiy subyekt hisoblanadi, negaki barcha siyosiy kuchlar mohiyatan odamlar tuzilmasidir. Shaxs siyosatdagi subyekt ekanligi uning o'z manfaatlariga muvofiq ravishda jamiyat va davlat siyosiy hayotida *ishtirok etish qobiliyati, imkoniyati va unga bo'lgan ehtiyojidan kelib chiqadi*. Biroq, shaxs o'z manfaatlarini absolyut darajada ro'yobga chiqarishi mumkin bo'lgan ijtimoiy hayotning boshqa sohalaridan farqli o'laroq, siyosat sohasida u o'z manfaatlarini umumiy, ya'ni siyosiy manfaatlarning elementi sifatida amalga oshiradi. Hatto bu holatni tushunib etmagan holda, masalan, saylovlarda ovoz berar ekan, shaxs saylov byulletenini qutichaga tashlash orqali ijtimoiy-siyosiy ahamiyatga molik individual harakatni sodir qiladi. Shaxsning siyosatda ishtirok etishi: miting, namoyish, manifestatsiya, hokimiyat vakillik organlari saylovi; partiyalar, ijtimoiy-siyosiy harakatlar tomonidan o'tkaziladigan turli kampaniyalarda ishtirok etish, siyosiy tashkilotlar a'zosi bo'lish va ularning faoliyatida qatnashish hamda boshqa shu kabi juda ko'p shakl va turlarda namoyon bo'ladi. Professional siyosiy faoliyat shaxs siyosatda ishtirok etishining oliy shaklidir.

**Siyosat subyekti** – siyosiy munosabatlarda ishtirok etayotgan kuchlar, sotsial guruhlar, qatlamlar, tashkilotlar siyosiy faoliyatning tashuvchilari, siyosatning subyekti hisoblanadi.

**Siyosatda kompromiss** – (*lot. compromissum* – bitim) – ishtirok etuvchi tomonlarning o'zaro yon bosishlari yo'li bilan ziddiyatni bartaraf etish usuli; yon berish, kelishish, muros. Siyosatdagi kompromiss qarama-qarshi siyosiy kuchlar (partiyalar, tashkilotlar, davlatlar) o'rtasida ongli ravishda tuzilgan, jamiyatning turli qatlamlari va guruhlarining manfaatlarini ifoda etuvchi siyosiy bitim. Kompromiss siyosiy faoliyatda, siyosiy munosabatlarda ishtirok etayotgan taraflarning o'zaro yon berishi orqali ziddiyatlarni, qarama-qarshiliklarni hal etish usulidir. Ushbu usul negizida bitim tuzayotgan siyosiy kuchlarning mohiyatini, qiyofasini belgilab beradigan asosiy, muhim ahamiyatga ega prinsiplarni saqlab qolgan va o'zgartirmagan holda siyosiy kuchlarning o'zini o'zi cheklashi, taktik tusga ega bo'lgan kam ahamiyatli intilishlardan, ikkinchi darajali vazifalardan voz kechish yotadi. Siyosiy kompromissning ikkita turi ajratib ko'rsatiladi: 1) obyektiv va subyektiv siyosiy sharoitlar hamda manfaatlar tazyiqi ostida yuzaga keladigan majburiy kompromisslar; 2) ikki va undan ortiq siyosiy kuch uchun o'zaro manfaatlilik asosida tuziladigan ixtiyoriy kompromisslar. Siyosiy kompromisslar demokratik siyosiy tizimning tarkibiy qismi, siyosiy muammolar va ziddiyatlarni hal qilishning asosiy vositasi hisoblanadi. Bu o'rinda siyosiy subyektlarning faoliyatidagi ajratuvchi emas, balki birlashtiruvchi qoidalarga tayanib ish ko'rish ayniqsa muhimdir. Buning uchun esa shunday siyosiy madaniyatga ega bo'lish zarurki, yon berish, kompromisslarni qidirib topish qobiliyati ayni ana shunday madaniyatning me'yorlari jumlasidan bo'lmog'i kerak. Kompromiss o'ta muhim ahamiyatga molik zaruriyat, demokratik davlat va jamiyat subyekti madaniyatining muayyan xususiyatidir.

**Siyosatda sog'lom fikrlilik** – siyosiy jarayonlarni hushyorlik bilan, siyosiy faoliyatda to'plangan tajribaga suyanib, mulohaza bilan baholash. Siyosiy hissiyotlardan ustun turgan holda siyosiy qarorlar qabul qilish va siyosiy faoliyatni tashkil eta olish qobiliyati. Siyosatda sog'lom fikrlilik – siyosiy maqsad va vazifalarni umuminsoniy qadriyatlar bilan muvofiqlashtira olish qobiliyati, siyosiy muros yo'lini topa bilish, pirovard siyosiy muvaffaqiyat yo'lida kelishuvlarga bora olishdir.

**Siyosatdagi konformizm** – (*lot. conformis* – o'xshash, monand, mavjud tartib, hukmron g'oyalar va h. larni sust qabul qilish; o'z nuqtayi nazariga ega bo'lmaslik) – siyosiy moslashuvchanlik usuli bo'lib, mavjud tartibni sust qabul qilishni, o'z siyosiy mavqeyiga, prinsiplariga ega emaslikni, muayyan siyosiy tizimda hukmron bo'lgan har qanday bir qolipdagi siyosiy xulq-atvorga ko'r-korona taqlid qilishni anglatadi. Konformizm siyosiy tizimga va uning faoliyati natijalariga qattiq yo'naltirilganligi, biroq bu tizim amal qilishida sust ishtirok etishga qaratilganligi bilan ajralib turadi. Fuqaroviy siyosiy madaniyatga ega shaxs hukumat nufuzini e'tirof etadi, biroq siyosiy harakatda ishtirok etishga intilmaydi. Konformistik ong va xulq-atvor totalitar hamda avtoritar siyosiy rejimlar sharoitlarida jadal shakllanadi. O'zini "ko'z-ko'z" qilmaslik, hamma singari yuraverish konformistlarga xos asosiy xususiyatdir. Konformistik ong bunday

rejimlar uchun odatiy holga aylanadi, buning natijasida esa individ o'ziga xoslikni, byetakorlikni, individuallikni yo'qotadi. Ishda, partiya tashkilotining faoliyatida, saylov uchastkasida va boshqa shu kabilarda moslashuvchanlik tufayli insonning mustaqil fikr yuritish, ijodiy tafakkur qilish qobiliyatiga putur etadi, u vazifalarni hech bir mushohada qilmay bajarishga o'rganib qoladi, qulga aylanadi. Konformizm yuzaga kelayotgan demokratiyani bo'g'adi, fuqarolarda, siyosatchilarda siyosiy madaniyat yo'qligining ko'rsatkichi hisoblanadi.

**Siyosiy adaptatsiya** – (lot. moslashish) siyosiy tizim, siyosiy tuzilmalarining atrof-muhit talablariga moslashishi jarayoni. D.Istonda siyosiy tizimning eng muhim funksiyasi. U siyosiy tizim oldida turgan vazifalar o'zgarishi, yangi maqsadlar aniqlanishi, muammolarni hal qilish uchun yangi yondoshuvlar ishlab chiqilishida namoyon bo'ladi.

**Siyosiy adolat** – siyosat subyekti va obyekt, institutlar va fuqarolar, davlat va aholi o'rtasida tabiiy yoki me'yoriylashgan munosabatlarning amalga oshirilishi. U juda ko'p omillarga bog'liq: davlat tuzilishi shakli, siyosiy madaniyat yetukligi, siyosiy tartibot turi, ijtimoiy va siyosiy manfaatlarining taqsimlanishi singari. Rivojlangan mamlakatlarda siyosiy adolat jamiyat barcha a'zolarining qonun oldida tengligiga quriladi. Bu rasmiy tenglik rivojlangan demokratiya sharoitida siyosiy adolatning asosini tashkil etadi. Tenglik bilan bir qatorda, siyosiy adolat insonga, uning madaniy-siyosiy maqomiga munosabatni ham belgilab beradi.

**Siyosiy antropologiya** – insonni barcha siyosiy organizmlarning jami madaniy, tarixiy va geografik xilma-xilligida harakat qiluvchi "siyosiy hayvon" sifatida o'rganuvchi fan. Siyosiy antropologiya qudratli empirik bazisga ega bo'lgan aniq fan sifatida asrimizning 30–40-yillarida jadal rivojlanayotgan afrikashunoslik zaminida yuzaga kelgan. Siyosiy antropologiyaning maxsus ilmiy-fan sifatida yuzaga kelishi afrikashunoslik bo'yicha 1940-yilda uchta mukammal risola: E.Evans-Prichard qalamiga mansub nilot xalqlarining siyosiy hayotini o'rganishga bag'ishlangan ikkita asari ("Nueri" va "Anuaklar siyosiy tizimi"), shuningdek "Afrika siyosiy tizimlari" deb nomlangan mualliflar jamoasi asarining (E.Evans-Prichard, P.M.Fortes tahriri ostida) vujudga kelishi bilan bog'liqdir. Mazkur asarlarda yevropalik uchun odatiy bo'lgan davlat va uning majburlov apparati, ma'muriy-rasmiyatchilik iyerarxiyasi va siyosiy davlatning boshqa shu kabi alamatlaridan mutlaqo bexabar bo'lgan tropik Afrikaning qadimgi jamiyatlaridagi muayyan vaziyatlar o'rganilgan. Politantropologik tadqiqotlar uslublari Afrikaga tatbiq etilishi bilan bir qatorda boshqa qit'alarining qadimgi jamiyatlarini o'rganishda ham qo'llanilgan. Masalan, ushbu usuldan britaniyalik antropolog A.Goldenveyzer tomonidan o'zining Shimoliy Amerikada o'tkazgan tadqiqotlari asosida yozilgan risolalarida, shuningdek, R.Loui va V.Makleut asarlarida foydalanilgan. Siyosiy antropologiya fani nafaqat jahon ijtimoiy-iqtisodiy aloqalaridan to'liq yoki qisman uzilib qolgan qadimgi jamiyatlardagi siyosiy boshqaruvni, balki nisbatan ancha oldin internatsional munosabatlar tizimiga tortilgan va modernizatsiya qilish jarayoniga duchor bo'lgan an'anaviy jamiyatlarning siyosiy madaniyatini ham azaldan o'zining tahlil sohasi deb hisoblagan. Bu ma'noda olganda islom, konfutsian, pravoslav va boshqa shu kabi modernizatsiya



qilish jarayonini boshdan kechirayotgan barcha an'anaviy jamiyatlarni ijtimoiy boshqarish institutlarining rivojlanishini siyosiy antropologiya sohasi hisoblanadi. Etnografiya, jismoniy va madaniy antropologiya uslubiyotiga borib taqaladigan siyosiy antropologiya uslublari hozirgi zamon siyosiy fanini jiddiy boyitdi. Xususan, e'tibor har qanday, shu jumladan, hozirgi zamon G'arb jamiyatlarida ham namoyon bo'ladigan siyosiy jihatlarga qaratildi. Biroq, bunday jamiyatlarining rolini siyosatshunoslar an'anaviy tarzda etarli darajada baholamay, ularga nisbatan siyosatning noinstitutsonal o'yinlar tarzida namoyon bo'ladigan shakllari ular faqat mikrosiyosat darajasida (ayrim guruhlar va jamoalar ichida) muhimdir, deb hisoblaganlar.

**Siyosiy apatiya** – (gr. hissizlik) siyosiy voqelikka nisbatan shaxsda hissiy befarqlik, loqaydlik bilan belgilanuvchi holat. U siyosiy manfaatlar va siyosiy faoliyatga jalb etuvchi turtkilar kuchsizlanganda yorqin namoyon bo'ladi, inson siyosatga ta'sir eta olish imkoniyati va qobiliyatini yo'qotishi natijasida vujudga keladi.

**Siyosiy avangard** – (fr. oldinda va qorovul) siyosiy hokimiyatga, uning mazmuniga hamda maqsadlariga kuchli ta'sir ko'rsatish va siyosiy harakatga boshchilik qila olish qobiliyatiga ega bo'lgan ijtimoiy-siyosiy kuchlarning yetakchi qismi

**Siyosiy bashorat** – (ar. xushxabar, yunon. *prognoss* – oldindan ko'ra bilish) 1) siyosiy jarayon kelajagi to'g'risidagi siyosiy fikrlarning ishlab chiqilishi; 2) siyosiy hayot, uning jarayonlari, hodisalari rivojlanishining istiqbollari to'g'risidagi maxsus tadqiqot. Muvaffaqiyatli siyosiy faoliyatning zarur sharti. Bashoratning boshqa turlari (ijtimoiy, iqtisodiy, texnik va h.) bilan bog'liq bo'lishi lozim. Hozirgi vaqtda fanning eng keyingi yutuqlari, zamonaviy usullariga asoslanadi. Siyosiy voqealar rivojining aniq istiqbollarini belgilash maqsadida siyosiy voqealar va jarayonlarni ilmiy jihatdan o'rganish. Siyosiy bashoratning xususiyatlari tahlilchilarning tadqiqotlar uslubiy bazasini muntazam ravishda kengaytirib borishga, bunda turli xil noan'anaviy yondashuvlarga, intuitsiyaga, siyosiy xulq-atvorning individual va kollektiv tajribasiga, tarixdagi o'xshash voqealar va o'tkinchi siyosiy natijalarni saralab olishga doimiy e'tibor qaratishini taqozo qiladi.

**Siyosiy begonalashuv** – insonni o'zining asosiy kuchi va faoliyat mahsul-laridan zo'rlik bilan ajratib, ularni insonning o'ziga yot, dushman qilish, ko'pincha esa, o'z kuchining quliga aylantirishning obyektiv tarixiy asoslangan jarayonidir. Ruhii begonalashish jarayonini birinchi bo'lib Hegel o'zining "absolyut ruh" Konsepsiyasida ko'rib chiqqan. J.J.Russo begonalashishni siyosatning tarkibiy qismi sifatida tushungan. Uning siyosiy begonalashish nazariyasida shaxsdan hokimiyatni amalga oshirishga va o'z turmushini o'zi boshqarishga bo'lgan "tabiiy huquq" ajralib chiqishi holati davlat, hukumat va vakillik deputatligi mavjud ekanligi dalilida ko'rinadi, degan fikr bayon qilingan. Russoning fikricha, bunday holatning mohiyatan sababi xususiy mulk ijtimoiy institutining yuzaga kelishi va shu bilan bog'liq holda odamlar o'rtasida (shu jumladan, siyosat sohasida) notenglikning o'sib borishidir. Siyosiy begonalashishga barham berish uchun, deb yozgan Russo, avval boshdan individga tegishli bo'lgan hukmronlik vazifalarini qaytarishga qodir bevosita (plebisstitar) demokratiyaning davlat shakllarini o'rnatish kerak. Davlatda si-

yosiy begonalashish holati, M.Vebeming fikricha, haddan ziyod rasmiyatchilikda ko'rinadi. Biroq, insondan hukmronlik vazifalari va institutlarini begonalashtirish qi-yin bo'lgani kabi siyosiy begonalashishga ham yaqin kelajakda to'la-to'kis barham berib bo'lmaydi.

**Siyosiy blok** – (ingl.) davlatlar, siyosiy partiyalar, boshqa tashkilotlar birgalikda harakat qilish va qo'yilgan maqsadlarga erishish uchun tuzgan ittifoqi, bitimi; ittifoq.

**Siyosiy diskriminatsiya**– (lot. farqlash, ajratish) huquqlarda kamsitish fuqarolar, ijtimoiy guruhlar, davlat tashkilotlari huquqlarining boshqa fuqarolar, ijtimoiy guruhlar, davlatlar va mavjud qonunlarga nisbatan atayin mahrum qilinishi yoki cheklanishi. U irqiy, milliy mansubligiga ko'ra, iqtisodiy ahvoli, siyosiy yoki diniy e'tiqodi, qaysi davlat fuqarosi ekanligiga qarab amalga oshishi mumkin.

**Siyosiy elita** – (fr. eng yaxshi, saralangan) ancha mustaqil, oliy, nisbatan *imtiyozli, kamchilikni tashkil etuvchi guruh*. Bu guruh vakillari yuqori ruhiy, ij-timoiy va siyosiy sifatlarga ega va hokimiyatni qo'llash yoki unga ta'sir etish bilan bog'liq qarorlarni qabul qilish hamda amalga oshirishda ishtirok etadi. Siyosiy elita yorqin siyosiy rahbarlik sifatlari bilan ajralib turadi. Siyosiy elitalar **oliy, o'rta qatlam, ma'muriy** elitalariga bo'linadi. «**Oliy elita**» ni qarorlar qabul qiluvchi yoki bu jarayonga bevosita ta'sir etuvchi odamlar tashkil etadi. Rivojlangan demokratik davlatlarda har bir million aholiga oliy elitarining 50 va-kili to'g'ri keladi. «**O'rta elita**» ga mansublik daromad miqdori, kasbiy maqomi, ma'lumoti kabi uch ko'rsatkich asosida aniqlanadi. O'rta elitaga katta yoshdagi aholining 5% mansub, deb hisoblanadi. Yuqoridagi ko'rsatkichlarning bitta yoki ikkitasi yo'q bo'lganda nomzod «**marginal elita**» ga mansub, deb hisoblanadi.

**Ma'muriy elitaga** yuqori darajadagi davlat xizmatchilari, mansabdor shaxslar kiradi. Jamiyatda siyosiy elitalar bir qator muhim vazifalarni bajaradi. Avvalo, ular butun jamiyat, alohida qatlamlar manfaatini ifodalovchi yangi g'oyalarni ish-lab chiqaradilar va jamiyat rivojining asosiy yo'nalishlarini belgilab beradi. Bu – **strategik funksiyadir**. Siyosiy elita o'z dasturlarida jamiyatdagi turli ijtimoiy qatlamlarning manfaatlari aks etishiga intilishi bilan, ikkinchi, **kommunikativ** funksiyani bajaradi. Siyosiy elita **tashkilotchilik**, ya'ni ishlab chiqilgan rejalar-ni hayotga tatbiq etish vazifasini ham bajaradi. Shuningdek, siyosiy elita jami-yatning barqarorlik va birligini, uning iqtisodiy va siyosiy tizimlari turg'unligini, ixtiloflarning oldini olish orqali **jamiyatni birlashtirish** funksiyasini bajaradi.

**Siyosiy yetakchi** – xalq yoki biron ijtimoiy guruh manfaatlarini to'la ifodalov-chi va himoya qiluvchi, siyosiy arbobga zarur sifatlar yig'indisiga ega shaxs. Siyosiy yetakchilik – *siyosat sohasida birgalikda harakat qilish turlaridan biri* bo'lib, bunda bitta shaxs boshqa odamlarni birgalikda faoliyat ko'rsatish maqsa-dida uyushtiradi va ular faoliyatini yo'naltirib boradi. Yetakchining boshlovchilik vazifalari jumlasiga quyidagilarni kiritish mumkin: maqsad, dastur va idealni il-gari surish; ularni amalga oshirish vositalarini aniqlash va guruh (jamiyat) faoli-yatini uyg'unlashtirish; guruhni (jamiyatni) o'zining dalil-asoslariga moyil qilish; guruhning birligi va uni saqlab qolish to'g'risida qayg'urish; guruh ichida mu-nosabatlarni tartibga solib borish ("arbitraj"); ichki va tashqi aloqalarda guruh nomidan vakillik qilish; jamiyat uchun muhim bo'lgan vazifalarni harakatlarning aniq dasturiga aylantirish va b. Siyosiy yetakchilik paydo bo'lishining sabablari

to'g'risidagi tasavvurlar turlicha: dominant ishtiyoq ("passionarlik", L.N.Gumilev); shaxs o'ziga-o'zi past baho berishining ifodasi va buning o'rmini to'laqonli bo'lmagan ichki uyg'unlik vositasida to'ldirishga intilish (Lassuel); diniy-mifologik tushdagi mafkuralar – "olloh marhamati" (xarizma); "hokimiyatga bo'lgan instinktiv xohish-iroda (F.Nitsche); ongsiz freydzizm darajasidagi turtkilar; marksizmdagi – obyektiv sotsial-iqtisodiy sabablar kompleksi va b. Siyosiy yetakchilikning ijtimoiy roli siyosiy rejim turi va tarixiy davrga qarab turlicha bo'ladi: yetakchi – davlat hokimiyati iyerarxiyasida oliy amaldor va menejer (G'arb demokratiyalarda); yetakchi-ustoz (qadimgi davrda); totalitar davlatlarda va qadimiy jamiyatlarda dohiy (xarizmatik yetakchi) va b. Bundan tashqari, siyosiy yetakchilik kurashchi, novator, "millat otasi", "kamsitilgan va haqorat qilinganlar"ning adolatli himoyachisi, "maftunkor yigit" kabi ijtimoiy siymolarning keng ko'lamiga ega bo'ladi. Siyosiy yetakchilik institutining amal qilish darajasiga qarab, yetakchi – yetakchi-rahbar, davlat arbobi, partiya yetakchisi, partiya amaldori, partiya a'zosi, mansabdor sifatida faoliyat ko'rsatishi mumkin. Davlat hokimiyatini amalga oshirish rejimiga tatbiqan yetakchilar saylab qo'yilishi, tayinlanishi mumkin, shuningdek vorisiylik natijasida ham vujudga kelishi mumkin. Tadqiqotchilar siyosiy yetakchilikning demokratik, buyruqbozlik, avtoritar va boshqa tarzlarini ajratib ko'rsatadilar.

**Siyosiy faoliyat** – odamlar aniq maqsad yo'lida ongli ravishda o'z hayotlari, maqomlari, o'zlarini takomillashtirish maqsadida amalga oshiradigan harakatlar uyg'unligi. Siyosiy faoliyat aniq maqsadlar, nuqtayi nazarlar, qarashlar, hissiyotlar va kayfiyatlar asosida amalga oshadi. Bunday faollik natijasida siyosiy munosabatlar yangi sifatga ega bo'ladi yoki ularning mavjud shakli saqlab qolinadi. Siyosiy faoliyat tuzilmasida uning subyekti (harakat qiluvchi shaxs yoki ijtimoiy guruh), obyekti (harakat qiluvchi subyektning faolligi qaratilgan soha) va harakatning o'zi ajratib ko'rsatiladi. Siyosiy faoliyatning asosini tashkilotlar, birinchi navbatda, partiyalar tashkil etadi. Siyosiy faoliyat turlariga boshqaruv, huquqiy, tashkiliy axborot, tashviqot-tarbiyaviy faoliyat sohalari kiradi; shakllariga hokimiyat organlarini tuzishda ishtirok etish, saylovlar, qarorlar qabul qilishda ishtirok etish, umumxalq muhokamasi, namoyishlar, petitsiyalar, ekspert xizmatlari, absentizm, muxolifat va h.k. kiradi; Siyosiy faoliyat usullarini kelishuv, ixtilof, yon bosish, bitimlar tashkil etadi. Siyosiy faoliyatda siyosatni ishlab chiqish va hayotga tatbiq etishga, ya'ni amalga oshirishga qaratilgan ikkita asosiy yo'nalish ajratib ko'rsatiladi. Buning uchun siyosiy voqelik to'g'risidagi bilimga ega bo'lish va qadriyat yo'nalishlari mavjud bo'lishi zarurki, ularga muvofiq siyosiy faoliyatning uchta asosiy: bilish, qadriyatlar va amaliy faoliyat kabi turi vujudga keladi. Siyosiy faoliyat siyosiy tushdagi faoliyatdan tashqari boshqa faoliyatni ham amalga oshiradi, eng avvalo, huquqiy va axloqiy me'yorlarni tartibga soladi. Huquqiy me'yorlar konstitutsiya, qonun, boshqa davlat va ma'muriy-me'yoriy hujjatlar shaklida bo'lib, muayyan yuridik me'yorni qo'llash shartlarini belgilovchi aniq dispozitsiyani, qonunlar buzilgani taqdirda qo'llaniladigan buyruq va jazo belgilash tarzidagi sanksiyalarni o'z ichiga oladi. Huquqiy me'yorlar davlat hamda uning organlari kuchi va nufuzi bilan mustahkamlanib, hamma uchun majburiylik maqsadiga ega bo'ladi. Yuridik me'yorlardan farqli o'laroq, axlo-

qiy me'yorlar buyruq va hamma uchun majburiylik tusiga, sanksiyalarga ega bo'lmaydi, balki ijtimoiy fikr, axloqiy burch, modda instituti va boshqa shu kabilar bilan ta'minlanadi. To'g'ri xulq-atvor mezonlarini belgilab beruvchi madaniyat me'yoriy madaniyat deb ataladi.

**Siyosiy faollik** – muayyan siyosiy va boshqa maqsadlarga erishishga qaratilgan ongli harakat darajasi. Shaxs, guruh, partiyalar, xalq ommasi faoliyatining eng muhim sifatlaridan, xususiyatlaridan biri: shunga ko'ra individual va guruhviy siyosiy faollik ajratiladi. Siyosiy faollik individlar, ijtimoiy guruhlarining o'z siyosiy maqomlari va atroflaridagi muhitni o'zgartirishga qaratilgan harakatlari birligi sifatida konstruktiv va destruktiv tabiatga ega bo'lishi mumkin. Siyosiy faollik faoliyatda, muloqotda, xulq-atvorda namoyon bo'ladi va o'z umrini o'tab bo'lgan siyosiy shakllarning siyosiy sifatini, konstruktiv tuzilishini isloh qilish va ularga barham berishga qaratilgan bo'lishi mumkin. Individual faollik shaxsni o'z tub manfaatlari va qadriyatlariga daxldor siyosiy jarayonlar ishtirokchisiga aylantiradi.

**Siyosiy geografiya** – siyosiy kuchlarning joylashishi va hududiy uyg'unligi, jamiyat siyosiy hayotiga geografik omillarning ta'siri to'g'risidagi fan.

**Siyosiy hamkorlik** – xalqaro siyosat subyektlarining birgalikdagi siyosiy harakatlarida vujudga keladigan masalalar yuzasidan yagona nuqtayi nazarlar ishlab chiqilishida ifodalanuvchi munosabat turlaridan biri. Unga ko'ra tomonlar o'z faoliyatining asosiy yo'nalishlarida mustaqillikni saqlab qolgani holda qarashlar mos tushuvchi amaliy masalalarda birgalikda faoliyat ko'rsatadilar. Masalan, gitlerchi Germaniyasiga qarshi davlatlar hamkorligi.

**Siyosiy hayot** – odamlarning hokimiyatga doir o'zaro aloqalari shakllari, faoliyati sifatida namoyon bo'ladi. U doimo moddiy va ijtimoiy-ma'naviy asoslar bilan belgilanadi va muayyan tarixiy shaklda namoyon bo'ladi. Siyosiy hayot o'z ichiga siyosat subyektlarini, ularning ehtiyoj va manfaatlarini, munosabat va faoliyatlarini, siyosiy institutlarni, qoida, ong va madaniyatni, siyosiy hokimiyatga doir aloqalarni oladi.

**Siyosiy hokimiyat** – muayyan guruh, qatlam, sinfning yoki jamiyatdagi ko'pchilikning hamda ularning manfaatlarini ifodalovchi tashkilotlar va individlarning boshqa guruhlar, qatlamlar, sinflarga, alohida individlarga o'z irodasini o'tkazish, umumiy manfaatlarni va maqsadlarni turli vositalar yordamida amalga oshirish qobiliyati. Siyosiy hokimiyatning o'ziga xos xususiyatlariga siyosiy qarorlarning butun jamiyat va hokimiyat boshqa shakllari uchun ustuvorligi; ommaviyligi, ya'ni butun xalq nomidan amal qilishi; kuch ishlatishning qonuniy, legitim huquqiga egaligi; siyosiy qarorlar yagona markazda qabul qilinishi; hokimiyatni tutib turishning ko'plab vositalariga egaligi singarilar kiradi. Siyosiy hokimiyatning asosiy unsurlarini hokimiyat subyekt, obyekt, resurslari, hokimlik jarayoni tashkil etadi. Siyosiy hokimiyat belgilariga quyidagilar kiradi: siyosiy hokimiyat aholining ko'pchiligiga tegishli manfaatlar, qadriyatlarni ifodalashga da'vogarlik qiladi, aslida esa muayyan qatlam, guruh manfaatlarining ustuvorligini belgilaydi; ijtimoiy munosabat sifatida siyosiy hokimiyat doimo subyekt va obyekt o'rtasida qarama-qarshilikka, assimetriyaga ega; siyosiy hokimiyat muayyan vaziyatlar bilan bog'liq imkoniyatdir. Shu ma'noda uni xususiy lashtirib

bo'lmaydi. Hokimiyatga egalik – muayyan vositalar yoki hukmronlik huquqiga egalik qilishni anglatadi; siyosiy hokimiyat jamiyatdagi manfaatlar, aloqalar, ehtiyojlarni aks ettiradi va ular o'rtasida muvozanat o'rnatishga harakat qiladi va h. Siyosiy hokimiyat funksiyalari: boshqarish; nazorat etish; muvofiqlashtirish; safarbar etish. Siyosiy hokimiyat mexanizmlari: majburlash; zo'rlik, jazo, rag'bat; siyosiy qarorlar qabul etish va ularning barcha uchun majburiyligi; nazorat va boshqaruv; raqobat va hamkorlik.

**Siyosiy hokimiyat resurslari** – hokimiyatning resurslarini inson va jamiyat faoliyatining muhim sohalari: siyosiy-huquqiy, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy-axborot, kuch ishlatuvchi sohalarga binoan turkumlashtirish ham keng tarqalgan.

*Siyosiy-huquqiy resurslar* – ijtimoiy tartibni, xavfsizlikni, barqarorlikni, fuqarolar tinchligini, jamiyatning yaxlitligi va butunligini ta'minlovchi vositalardir. Bu vositalarga dasturiy hujjatlar, Konstitutsiya, qonunlar va ularni ishlab chiqish, qabul qilish va amalga oshirish bilan bog'liq bo'lgan masalalar kiradi.

*Iqtisodiy resurslar* – bunga ijtimoiy va xususiy ishlab chiqarish hamda iste'mol qilish uchun zarur bo'lgan moddiy boyliklar, pullar, texnika, unumdor erlar, erosti qazilma boyliklari va boshqalar kiradi.

*Sotsial resurslar* – sotsial ratifikatsiyadagi ijtimoiy maqom yoki rang, o'rinning amalga oshirilishi yoki pasayish qobiliyatidir.

*Madaniy-axborot resurslari* – bilim va axborot hamda ularni olish va tarqatish vositalari: fan va ta'lim muassasalari, ommaviy axborot vositalari va boshqalardir.

*Kuch ishlatuvchi resurslar*– bu qurol-yaroq, jismoniy majburlovchi muassasalar va buning uchun maxsus tayyorlangan kishilardir. Ular o'zagini armiya, politsiya, xavfsizlik xizmati tashkil etadi.

*Demografik resurslar*– hokimiyatning maxsus resurslaridir. Bu boshqa resurslarni ishlab chiqaruvchi universal, ko'p funksiyali resursdir. Inson – moddiy boyliklarning yaratuvchisi, askar, partiya a'zosi, bilim va axborotning egasi va tarqatuvchisidir.

**Siyosiy hokimiyat tuzilishi** – hokimiyat bir qator tuzilmalardan iborat bo'lgan ijtimoiy hodisadir. Uning tarkibiga subyekt, obyekt va resurslar kiradi.

*Subyekt* – hokimiyatning faol, yo'naltiruvchi qismidir. U alohida inson, ijtimoiy guruh, kishilar birligi, masalan, xalq yoki dunyo hamjamiyati, davlat institutlari, siyosiy partiyalar bo'lishi mumkin. Biroq har qanday inson hokimiyatning subyekt bo'lavermaydi. Hokimiyatning subyektlari xilma-xil. Uning boshlang'ich omillari *individlar* va ijtimoiy guruhlar, *ikkinchilari* – *siyosiy tashkilotlar, eng yuqori darajadagi subyektlari* – *siyosiy elitalar, yetakchilardir*. Hokimiyat subyekt obyekt bilan o'zaro munosabatlarda birinchi darajali rol o'ynaydi. *Obyekt* – *hokimiyatning ikkinchi muhim elementidir*. U hokimiyat subyekt qarorlarining bevosita bajaruvchisidir. Obyekt ham xuddi subyekt singari hokimiyatning ajralmas tarkibiy qismidir. Bu elementsiz hokimiyatni tasavvur etib bo'lmaydi. *Hokimiyatning obyektini quyidagilar tashkil etadi: individ, ijtimoiy guruh, sinf, jamiyat*. Hokimiyat obyektining sifati, faolligi jamiyatning siyosiy madaniyati bilan belgilanadi. *Resurslar* – hokimiyatning asosini tashkil etadi. Resurslar kishilarni

rag'batlantirish, jazolash yoki ishontirishda qo'llanilishi mumkin. Hokimiyat resurslari xilma-xil. Ilmiy adabiyotlarda ular bir necha turlarga bo'linadi: *utilitar, majburlovchi va me'yoriy resurslar*. 1. *Utilitar resurslar* – kishilarning kundalik ehtiyojlari va talablarini qondirish bilan bog'liq bo'lgan moddiy va boshqa ijtimoiy vositalardir. Bu vositalardan kishilarni rag'batlantirish uchun ham, jazolash uchun ham foydalaniladi. 2. *Majburlovchi resurslar* – bu ma'muriy jazolash bilan bog'liq bo'lgan vositalardir. Utilitar resurslar ish bermay qolsa, undan foydalaniladi. Bunga iqtisodiy sanksiyalardan hayiqmaydigan (masalan, ish tashlovchilar) larga sud orqali ta'sir qilishni ko'rsatish mumkin. 3. *Me'yoriy resurslarga* insonning ichki dunyosi, qadriyatlar va xulq-atvoriga ta'sir ko'rsatuvchi vositalar kiradi.

**Siyosiy hokimiyatning legitimligi** (lot. *legitimus* – qonuniy deb e'lon qilish – qonuniylik, to'g'rilik, adolatlilik) – siyosiy hokimiyat, uning vositalari, faoliyat mexanizmlari, shuningdek uni saylash usullarining xalq va siyosiy kuchlar tomonidan haqqoniy, qonuniy deb e'tirof etilishini anglatuvchi qadriyatiy tushuncha. Avval legitimlik mansabdor shaxslarning odatlarga ko'ra faoliyat yuritishi sifatida tushunilgan. Lekin XIV asrlardan boshlab saylangan hokimiyatning huquqiy asosga ega ekanligini anglata boshladi. Nemis olimi M. Veber bu tushunchani siyosiy fanga kiritdi va batafsil tahlil qildi. U har qanday hokimiyat madadga va e'tirofga tayanishini ko'rsatdi. Hokimiyatning ko'pchilik fuqarolar tomonidan tan olinishi, uning adolatli ekanligi, mavjud qadriyatlarga mosligi e'tirof etilishi legitimlik atamasining asosini tashkil etadi.

**Siyosiy xulq-atvor** – siyosat subyekting siyosiy faoliyatning u yoki bu turini amalga oshirishi jarayoni, ijtimoiy subyektlarning (ijtimoiy jamoalar, guruhlar va shaxslarning) siyosiy tizim faoliyatiga javoblari (reaksiyalari) birligi. Siyosiy fanda siyosiy xulq-atvor deyilganda alohida aktorlar faoliyati va ommaviy chiqishlar; hokimiyatning uyushgan subyektlari faolligi va olomonning stixiyali harakatlari; tizimni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan va unga qarshi harakatlar; biror nomzodga qarshi ovoz berish va saylovda ishtirok etmaslik tushuniladi. Xulq-atvor shakllanishida quyidagi omillar ishtirok etadi: xulq-atvor subyektiga turtkilar yuboruvchi tashqi muhit; individ yoki guruhning ehtiyojlari; subyekt faoliyatiga sabab bo'luvchi turtkilar; subyekt amal qiluvchi qoidalar, qadriyatlar, orientatsiyalar, e'tiqodlar, maqsadlar; rollarning, qarorlar qabul qilish usullarining, shaxslararo munosabatlarining, tafakkurning o'ziga xosligi; harakat va faoliyatning o'zi; xulq-atvor va sharoitlar o'rtasidagi ortga qaytuvchi aloqa. Bu sxemaning eng muhim elementlari – tashqi muhit, ehtiyojlar va turtkilardir. Xulq-atvorning ommaviy shakllari siyosatga bosimi kuchli deb baholanadi, ularda amal qiluvchi qonuniyatlar ham butunlay boshqacha. Stixiyali xulq-atvor odamlarning siyosiy inqiroz yoki nobarqarorlikka ommaviy javobi tarzida vujudga keladi. Unga irratsional, instinktiv hissiyotlar ustunligi xos.

**Siyosiy huquqlar** – O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi 32-modda. O'zbekiston Respublikasining fuqarolari jamiyat va davlat ishlarini boshqarishda bevosita hamda o'z vakillari orqali ishtirok etish huquqiga ega-

dirlar. Bunday ishtirok etish o'zini o'zi boshqarish, referendumlar o'tkazish va davlat organlarini demokratik tarzda tashkil etish, shuningdek davlat organlarining faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini rivojlantirish va takomillashtirish yo'li bilan amalga oshiriladi. Davlat organlarining faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirish tartibi qonun bilan belgilanadi. **33-modda.** Fuqarolar o'z ijtimoiy faolliklarini O'zbekiston Respublikasi qonunlariga muvofiq mitinglar, yig'ilishlar va namoyishlar shaklida amalga oshirish huquqiga egadirlar. Hokimiyat organlari faqat xavfsizlik nuqtayi nazaridagina bunday tadbirlar o'tkazilishini to'xtatish yoki taqiqlash huquqiga ega. **34-modda.** O'zbekiston Respublikasi fuqarolari kasaba uyushmalariga, siyosiy partiyalarga va boshqa jamoat birlashmalariga uyushish, ommaviy harakatlarda ishtirok etish huquqiga egadirlar. Siyosiy partiyalarda, jamoat birlashmalarida, ommaviy harakatlarda, shuningdek hokimiyatning vakillik organlarida ozchilikni tashkil etuvchi muxolifatchi shaxslarning huquqlari, erkinliklari va qadr-qimmatini hech kim kamsitishi mumkin emas. **35-modda.** Har bir shaxs bevosita o'zi va boshqalar bilan birgalikda vakolatli davlat organlariga, muassasalariga yoki xalq vakillariga ariza, taklif va shikoyatlar bilan murojaat qilish huquqiga ega. Arizalar, takliflar va shikoyatlar qonunda belgilangan tartibda va muddatlarda ko'rib chiqilishi shart.

**Siyosiy ideal** – jamiyatning siyosiy va davlat qurilishini ifoda qiluvchi mukammal namuna; muayyan tarixiy bosqich uchun siyosiy subyekt ongi va faoliyatining eng yaxshi shakli; samarali faoliyatga undovchi siyosiy qadriyat; ideal, ommaning zamonaviy, namunali talablariga javob beruvchi inson sifatida e'tirof etilgan siyosiy arbob siyosiy; aholining ideal tasavvurlariga mos keladigan normativ, legitim hokimiyat mexanizmi va boshqa shu kabilar. Siyosiy hayotning voqeligidan kelib chiqqan holda siyosiy ideal hayot voqeligini oldindan ifodalovchi, ommani, shaxsni inson turmushi va ongining eng yaxshi shakllarini vujudga keltirish yo'nalishida harakat qilishga da'vat etuvchi omil sifatida xizmat qiladi. Xuddi mana shu xususiyatdan siyosiy idealning bashorat qilish, tartibga solish, baho berish, amaliy faoliyat olib borish, integrativ, ijtimoiylashtirish va shu kabi boshqa vazifalari kelib chiqadi. Siyosiy ideal siyosiy ong va madaniyatning o'ta muhim, zarur tarkibiy qismi bo'lib, busiz siyosiy ong va madaniyat siyosiy subyektlar fikri va harakatlarining aniq maqsadga qaratilganligi xususiyatidan mahrum bo'ladi.

**Siyosiy ijtimoiylashuv** – individ jamiyatning to'laqonli a'zosi sifatida faoliyat ko'rsatishiga imkon beruvchi muayyan bilimlar, me'yorlar, qadriyatlarni o'zlashtirilishi jarayoni. Inson o'z hayoti davomida jamiyatdagi o'z maqomi va rolga ko'ra hulk-atvorni, madaniy qadriyatlar va me'yorlarni o'zlashtiradi. Bu jarayon unda siyosiy tizimga moslashish va muayyan funksiyalarni bajarishga doir sifatlar va ko'nikmalar shakllanishiga olib keladi. Ana shu jarayon ijtimoiy fanlarda siyosiy ijtimoiylashuv deyiladi.

**Siyosiy imidj** (ing. *image* – siymo) – siyosiy yetakchi, arbob va partiyaning siyosiy bo'lib, u siymo sohibining obro'-e'tibori va nufuziga (reytingiga) ta'sir ko'rsatgan holda jamoatchilik fikri va ongida yuzaga keladi. Siyosiy imidj jamoatchilik fikrida turli darajalarda mavjud bo'ladi, chunonchi: oqifona darajada

(imidj sohibining dasturi, nutqi, keltirgan dalillari ta'siri ostida), emotsional darajada (yetakchi (guruh) jamiyatning spetsifik asoslarini safarbar etishga qay darajada qodir ekanligiga qarab), his qilish darajasida (siyosiy imidj sohibining tashqi qiyofasi, xulq-atvori, odatlari va boshqalar). Siyosiy imidj, qoida tariqasida, umuman va yaxlit olganda muayyan jamiyatdagi aholining talablari hamda orzu-istaklariga, shaxs va siyosatning roli to'g'risidagi tasavvurlariga mos bo'ladi. Siyosiy imidj turlari muayyan siyosiy vaziyatga bog'liq holda har xil bo'ladi, masalan: "olomondan chiqqan odam", "intellektual", "fosh qiluvchi", "kurashchi", "qattiqqo'l xo'jayin", "mentor", "pragmatist-professional" va boshqa shu kabilar. Siyosiy imidjni yaratish va omma ongiga singdirish jarayoni asosan siyosiy reklamalar qonunlariga bo'ysunadi va ular orqali belgilanadi hamda siyosat-chining (siyosiy guruhning) jamiyatda shuhrat qozonishiga qaratilgan bo'ladi. Siyosiy imidj yaratishning maqsadlari: imidj sohibiga saylov kampaniyasida, o'z dasturini ro'yobga chiqarishida, aholini jamiyat oldida turgan ijtimoiy masalalarni hal etishga safarbar qilish va boshqa shu kabilarda yordam berishdan iboratdir.

**Siyosiy inqilob** – (lot. burilish, to'ntarish) jamiyatdagi, xususan, uning siyosiy tizimi rivojlanishidagi keskin sakrash, bir siyosiy tizimdan ikkinchisiga o'tish. U mavjud ijtimoiy-siyosiy kuchlarning amaldagi institutsional mexanizmlar doirasidan chiqishi va ochiqdan-ochiq to'qnashishi tarzida kechadi. Inqilob natijasida hukmron ijtimoiy-siyosiy guruh siyosiy munosabatdagi mavqeyi va imtiyozlarini yo'qotadi.

**Siyosiy integratsiya** – (lot. yaxlit) muayyan siyosiy umumiylikka, davlatlar va jamiyatlar barqaror rivojlanishiga erishish maqsadida siyosiy kuchlarning davlat yoki davlatlararo tuzilmalar, siyosiy institutlar doirasida birlashishi, qo'shilishi; ijtimoiy guruhlar tomonidan siyosiy unsurlar muvozanatini, muayyan barqarorligini tutib turish shakli; siyosiy tizim va uning tarkibiy qismlarining ichki va tashqi emiruvchi omillar (vositalar) ga qarshi tura olish qobiliyati. Siyosiy integratsiyaning ikkita asosiy shakli (turi) ajratib ko'rsatiladi: davlat ichki Integratsiyasi va davlatlararo integratsiya. Bu Integratsiyalardan har birining ichida boshqa bo'g'inlarining integrativ jarayonlari yuz berishi, ular o'tkazilishining usullari va mexanizmlari mavjud bo'lishi mumkin. Masalan, partiyalararo Integratsiyani ajratib ko'rsatish kerak. Bunday Integratsiya yanada qudratli, uyushgan, jips va ta'sirchan boshqa bir partiyaning vujudga kelishiga sabab bo'lishi mumkin. Davlatlararo Integratsiya hozirgi dunyoda yuz berayotgan internatsionallashuv jarayonini aks ettiradi.

**Siyosiy intuitsiya** – (lot. tikilib qarash) siyosiy voqealarga baho berishda va siyosiy qarorlar qabul qilishda dastlabki ilmiy tahlil va asoslashsiz, avvalgi siyosiy faoliyat tajribasiga suyanib ish ko'ra olish qobiliyati. Siyosiy intuitsiyani ilmiy tahlil, mantiq, isbotga qarshi qo'yib bo'lmaydi, chunki u o'ziga xos fikrlash usuli.

**Siyosiy ishonch** – siyosiy manfaatlar moslashuvi, o'xshashligiga asoslangan alohida shaxslarga ham, insonlar jamoasiga ham xos ijtimoiy-ruhiy hissiyot va ahvol. Ayrim siyosiy arbob va davlat yoki siyosiy tashkilot siyosiy ishonchning subyektivi va obyektivi bo'la oladi.



**Siyosiy ishtirok** – ijtimoiy-siyosiy jamoa a'zolarining ichki siyosiy munosabatlar va hokimiyat tarkibiga jalb etilganligi (muayyan bosqichda esa xalqaro hamjamiyat munosabatlariga ham). Siyosiy ishtirok tushunchasi demokratiya Konsepsiyalarida, siyosiy modernizatsiya va siyosiy rivojlantirish, siyosiy madaniyat, siyosiy partiyalar doirasida asosiy tushunchalardan biri sifatida qo'llanadi. Siyosiy ishtirok subyektlariga individlar, ijtimoiy guruhlar va qatlamlar kiradi. Ko'lamini jihatidan siyosiy ishtirok: mahalliy; mintaqaviy; umumdavlat; xalqaro siyosat darajasida amalga oshiriladi. Siyosiy ishtirok to'g'ridan-to'g'ri (bevosita) va bivosita amalga oshirilishi mumkin; umumiy va cheklangan; ixtiyoriy va majburiy; an'anaviy, faol va passiv, legitim va nolegitim, qonuniy va qonunga xilof bo'lishi mumkin. Siyosiy ishtirok quyidagi vazifalarni bajaradi: turli manfaatlar, talablar, umidlarni ifodalash, muvofiqlashtirish, amalga oshirish; siyosatchilar va boshqaruv apparati xodimlarini tanlash, ular faoliyatini nazorat etish; boshqaruvga doir qarorlar va siyosat yo'nalishini belgilashga aholini jalb etish; siyosiy ijtimoiylashuv; ixtiloflarni oldini olish va bartaraf etish; byurokratiya bilan kurashish, fuqarolarni siyosat va boshqaruvdan begonalashuviga qarshi kurash. **Siyosiy ishtirok shakllariga** axborot qabul qilish va uzatish; siyosat va davlat arboblari hamda tashkilotlari bilan muloqot; saylov va boshqa siyosiy kampaniyalarda ishtirok; namoyishlarda, siyosiy ish tashlashlarda, ommaviy norozilik harakatlari, ozodlik urushlari va inqiloblarda ishtirok; boshqaruv va o'z-o'zini boshqaruvda ishtirok; qonunlar yaratish, ularni himoya qilish va ularga amal qilishda ishtirok; siyosiy partiyalar va ijtimoiy-siyosiy harakatlar faoliyatida ishtirok kiradi. Amerikalik siyosatshunos A.Marsh siyosiy ishtirokning ikki asosiy shaklini ajratgan: konvensional va nokonvensional. Bunda konvensional ishtirok – siyosiy faoliyat siyosiy tizim me'yorlari doirasida amalga oshirilishini anglatadi. Nokonvensional ishtirok – siyosiy faoliyat siyosiy tizim me'yorlarini inkor etish asosida amalga oshirilishini ko'rsatadi (ruxsat etilmagan namoyishlarda qatnashish, ocharchilik, binolarni, odamlarni garovga olish va h.). Passiv ishtirok siyosiy Axborotlarga qiziqish katta bo'lgani holda siyosatga aralashmaslik, siyosiy apatiya kayfiyatida bo'lish. Konformistik ishtirok mavjud siyosiy tizimni odatga ko'ra qo'llab-quvvatlash, o'z manfaatlarini anglamaslik, ko'pchilik qilgan ishni qilish shaklida namoyon bo'ladi. Reformistik va faol ishtirok – qarshilik faoliyatining shakllari. Ularning bir-biridan farqi – maqsadlari va faoliyat usullarini tanlashlarida namoyon bo'ladi.

**Siyosiy ixtilof** – hokimiyat munosabatlari tizimidagi o'rni va roliga ko'ra qarama-qarshi siyosiy manfaatlar, qadriyatlar, qarashlar, maqsadlarga ega subyektlarning kurashidir. Siyosiy ixtilof tushunchasi davlat hokimiyati institutlarida va boshqaruvda ta'sirga ega bo'lish, ijtimoiy ahamiyatga ega qarorlarni qabul qilishda ishtirok etish, manbalarni taqsimlashda qatnashish, o'z manfaatlarini yakka hokimligi va ularni barchaning manfaati tarzida taqdim etishga intilish uchun bir ijtimoiy kuchlarning boshqalari bilan kurashini anglatadi. Siyosiy ixtilof – siyosiy subyektlarning siyosiy mafaatlari, qadriyatlari, qarashlari bilan belgilangan to'qnashuvlari, kurashlari tarzida namoyon bo'ladi. Siyosiy ixtilof, boshqa har qanday ixtilof singari, odamlar o'rtasidagi ijtimoiy munosabatlar-

ning muayyan ko'rinishi sifatida, birinchidan, jamiyatdagi siyosiy hokimiyat va uning amal qilishi borasida vujudga keladi; ikkinchidan, unda ayrim individlar emas, ijtimoiy guruhlar, minglab va millionlarlan iborat omma o'z mafaatlari bilan ishtirok etadi; uchinchidan, siyosiy ixtilof ijtimoiy ahamiyatga ega, uning natijalari, odatda ijtimoiy hayotning hamma sohalarida namoyon bo'ladi. Siyosiy ixtiloflarning uch asosiy turi ajratib ko'rsatiladi: **Manfaatlar ixtilofi**: iqtisodiy rivojlangan mamlakatlar, barqaror davlatlarda ko'proq uchraydi. Iqtisodiy «patir» ni bo'lish atrofidagi savdo bu erda siyosiy qoida bo'lib qolgan (soliqlar miqdori, ijtimoiy ta'minot hajmi v.h. uchun kurash). Ixtilofning bu turi tez yechimini topadi. **Qadriyatlar ixtilofi**: rivojlanayotgan davlatlar uchun xos. Ularni hal qilish uchun ko'proq harakat talab etiladi. **Identifikastion ixtilof** o'zini jamiyat (davlat) bilan, muayyan guruh (etnik, diniy, til) bilan monandligini ustun qo'yuvchi jamiyatlar uchun xos. Irqlar o'rtasida, etnik yoki til qarama-qarshiligi mavjud hollarda vujudga keladi. Ishtirokchilariga ko'ra siyosiy ixtilof davlatlararo (subyektlari – hokimiyat shahobchalari, siyosiy partiyalari v.h.), regional (hududiy) (subyektlari – hududiy siyosiy kuchlar), mahalliy bo'lishi mumkin.

**Siyosiy jarayon** – jamiyat siyosiy tizimi shakllanishi, o'zgarishi va faoliyat ko'rsatishiga bevosita ta'sir etuvchi ijtimoiy subyektlar faoliyatining uyg'unligi. Siyosiy jarayon quyidagi boskichlarga ega: manfaatlarni belgilash va muvofiqlashtirish, faoliyat maqsadi va dasturini shakllantirish; siyosiy dasturni muhokama etish va qabul qilish; odamlar ijtimoiy-siyosiy birligining, shaxsning faoliyatida dasturni amalga oshirish, uni ro'yobga chiqarish ustidan nazorat qilish; natijalarga baho berish, dasturni ro'yobga chiqarish uchun javobgarlik tur-larini belgilash, muvaffaqiyat yoki muvaffaqiyatsizlik. Siyosiy jarayonning asosiy tavsifini tashqi va ichki tavsifga ajratish mumkin. Tashqi tavsif jumlasiga muvaqqat tavsiflar (ya'ni, siyosiy tizimlar, partiyalar, tashkilotlar va harakatlarning yuzaga kelishi va rivojlanishi vaqti; ular faoliyat yuritishining muntazamlilik va davriylik darajasi; mavjud bo'lishning uzoq yoki qisqa davom etishi), shuningdek makon bo'yicha tavsiflar (markaziy yoki mahalliy; umumdavlat, umummilliy yoki periferik; jamiyat yoki ayrim siyosiy tashkilotlar turmush faoliyatining ayrim sohalarida) kiradi. Ichki tavsif siyosiy jarayon ishtirokchilari aloqalarining sifatiga (hamkorlik yoki qarshi kurash); siyosiy jarayon rivojlanishining yo'nalishlariga (progressiv, regressiv); obyektiv shart-sharoitlar va subyektiv omillarning roliga; voqealar stixiyali yoki ongli ravishda yuz berayotganligiga daxldordir.

**Siyosiy konsepsiya** (lot. conceptio – idrok etish, u yoki bu hodisaga nisbatan qarashlar tizimi; hodisalarni o'rganish, anglash usuli; olim, san'atkor, yozuvchining umumiy maqsadi) – siyosiy ongning shakli yoki darajasi bo'lib, unda siyosiy hayotdagi qandaydir bir jarayonning metafizik asosi beriladi. Siyosiy konsepsiyada siyosiy sohaning nazariy asosi hamda uni siyosiy tizimda va umuman jamiyatda amalga oshirishning to'g'riligi kabi jihatlar; konseptual asosdan kelib chiqadigan qadriyatlar va siyosiy oqibatlar tizimini rasmiylashtirish; siyosiy voqealikda mafkuraviy g'oyalarni ro'yobga chiqarishni rejalashtirish va mushohada qilish usullari; g'oyalarning muayyan tizimini amalga joriy etish imkonini beradigan siyosiy mexanizmlar va institutlarni tayyorlash o'z ifodasini topadi.

**Siyosiy kuchlar balansi** – (fran. *balance* – torozi) – jamiyat va davlat siyosiy hayotida tez o'zgaruvchan siyosiy kuchlarning nisbati yoki muvozanatini tavsiflovchi ko'rsatkichlar tizimi. Negaki, siyosiy kuchlar har xil, ko'p bo'g'inli bo'lib, siyosiy munosabatlarda ham vertikal yo'nalishda, ham gorizontal yo'nalishda harakat qiladi, goh ular o'zaro munosabatlari ko'rsatkichlarining muayyan tizimini aniqlash juda mushkul. Ular o'rtasidagi balansni aniqlash va qayd qilishga obyektiv hamda subyektiv tusdagi juda ko'p omillar bevosita va bilvosita ta'sir ko'rsatadi. Masalan, siyosiy partiya tashkiliy, g'oyaviy-siyosiy, faoliyat ko'lemi, madaniy-ma'rifiy va boshqa elementlari bilan tavsiflanadi. Ularda partiyaning tashkiliy jihatdan qay darajada rivojlanganligi, unda qaror topgan an'analar, normalar, partiya ichidagi va partiyalararo munosabatlardagi madaniyat, partiya yetakchisining nufuzi, asosiy maqsadlar hamda ularga erishish usullari umumiyliigi tufayli birlashgan odamlarning partiya masalalari va sotsial masalalardagi umumiy manfaatlari, partiya hamjamiyatining yetakchilari, ular yordamchilari va asosiy omma, elektorat o'rtasidagi munosabatlarning xarakteri va boshqa shu kabilar ko'zga tashlanadi. Har bir partiya elementlarining jamlama tavsifidan kelib chiqqan holda siyosiy hayotning har bir muayyan bosqichidagi partiyaviy-siyosiy kuchlarning balansi chiqariladi. Ushbu balans juda o'zgaruvchan, muntazam harakatda bo'lishiga qaramay siyosiy, saylov texnologiyalari uchun ayniqsa ahamiyatlidir.

**Siyosiy kuchlar muvozanati** – jamiyat va davlat siyosiy hayotida siyosiy kuchlar nisbatini tavsiflovchi ko'rsatkichlar tizimi. U birgalikda faoliyat ko'rsatuvchi siyosat subyektlarining ijobiy va salbiy sifatlarini belgilaydi, ular faoliyatining maqsadlari va vazifalari mos kelishi yoki kelmasligini aks ettiradi. Jamiyat miqiyosida faoliyat ko'rsatuvchi siyosiy kuchlar xilma-xil bo'lgani, turli – vertikal va gorizontal – darajalarda amal qilgani uchun ular o'rtasidagi munosabatlarning ko'rsatkichlarini aniqlash juda mushkul. Muvozanatni aniqlashda tashkiliy, g'oyaviy, siyosiy, faoliyat, madaniy va boshqa unsurlar hisobga olinadi. Siyosiy kuchlar muvozanati tahlili siyosiy jarayon uning rivojlanishi va taraqqiyot yo'nalishlarini har tomonlama tadqiq etishning muhim shartidir.

**Siyosiy kurash** – siyosiy subyektlar manfaatlarining muayyan siyosiy natijalarga erishish yo'lida qarama-qarshiligi holati. Siyosiy kurash shakllari turlicha: manfaatlar to'qnashuvi murosasiz tus olganida va tomonlar radikal choralar va vositalar yordamida jamiyatda tub o'zgarishlar sodir etishni maqsad qilib qo'yganlarida u inqilobiy tus oladi. Bunday kurash "o'yin qoidalari" ning qo'pol buzilishi, natijalarni avvaldan bashorat qilib bo'lmaslik muhitida, fuqarolar uchun og'ir oqibatlar bilan kechadi. Ijtimoiy-siyosiy subyektlarning manfaatlari bosqichma-bosqich, zo'rlikka tayanmasdan, konsensus vositasida amalga oshirilganida siyosiy kurash islohotchilik tabiatiga ega bo'ladi. Uning oqibatlarini oldindan ko'ra bilish oson. Siyosiy inqirozlar, urushlar, qo'zg'olonlar, fitnalar, isyonlar ham siyosiy kurash shakllaridir. Siyosiy kurash siyosiy partiyalar o'rtasida o'z elektoratini kengaytirish uchun, siyosiy yetakchilar o'rtasida ta'sir doirasini kengaytirish uchun, qonunchilik va ijro organlari vakillari o'rtasida hokimiyatga doir vakolatlarini kengaytirish uchun va h. olib borilishi mumkin. Siyosiy kurash partiya ichida, davlat ichida, davlatlar o'rtasida va boshqa o'xshash hollarda ham kechishi mumkin.

**Siyosiy madaniyat** – tarixan shakllangan, nisbatan barqaror qadriyatlar, ko'rsatmalar, e'tiqodlar, tasavvurlar, xulq-atvor modellari tizimi bo'lib siyosiy jarayon subyektlarining bevosita faoliyatlarida namoyon bo'ladi va siyosiy hayotning uzviyligini ta'minlaydi. Jamiyat o'zini madaniyat orqali anglaydi va madaniyat orqali namoyon etadi. Madaniyat ijtimoiy hayotning bir alohida sohasiga jamlanmagan, u butun jamiyat hayotini qamraydi. Siyosiy madaniyat madaniyatning uzviy bir qismi va bu tushuncha siyosat bilan ijtimoiy ongning birligini aks ettiradi. Siyosiy madaniyat sohasini jamiyat siyosiy hayoti, hokimiyat va boshqaruvga aloqador barcha narsalar, siyosatning boshqa sohalar bilan munosabatlari tashkil etadi. Natijada siyosiy madaniyatni jamiyat siyosiy tizimining asosiy elementlaridan biri sifatida tavsiflash mumkin. Fanga atamani nemis faylasufi I.Gerder, siyosiy fanga esa amerikalik siyosatshunos G.Almond kiritgan. Bu sohada muhim tadqiqotlar o'tkazgan yana bir olim R.Inglxartdir. G.Almond G.Pauell bilan birgalikda siyosiy madaniyatga bergan ta'rifi quyidagicha: "Siyosiy madaniyat muayyan siyosiy tizim qatnashchilarining individual nuqtayi nazarlari va tasavvurlarining birligidir". Siyosiy madaniyat bir qancha funksiyalarni bajaradi: bilish – u fuqarolarda zarur ijtimoiy-siyosiy bilimni shakllantiradi, aholining siyosiy ta'limini amalga oshiradi; integrativ – mavjud siyosiy tizim doirasida ko'pchilik e'tirof etgan qadriyatlar asosida milliy kelishuvni shakllantiradi, siyosiy munosabatlarni barqarorlashtiradi; kommunikativ – siyosiy jarayon ishtirokchilari o'rtasida muloqotni, shuningdek siyosiy qadriyatlar, ko'rsatmalar, e'tiqodlar, tasavvurlar, xulq-atvor modellarini avlodga uzatilishi va siyosiy tajribani ta'minlanishini ta'minlaydi; regulativ – ijtimoiy ongda zarur siyosiy qadriyatlar, ko'rsatmalar, e'tiqodlar, tasavvurlar, xulq-atvor modellarini shakllantiradi; tarbiyaviy – insonni siyosatning faol subyekti sifatida shakllantiradi, fuqarolarni siyosiy ijtimoiylashuvini ta'minlaydi. **Siyosiy madaniyat** – insonning siyosiy hodisalarga doir qadriyatlarga oid tasavvurlari va uning amaliyotda namoyon bo'ladigan xulqi kodeksi yoki uning siyosiy hokimiyat subyekti sifatidagi faoliyat uslubi. Shu ma'noda, siyosiy madaniyat fuqaroning umuminsoniy ahamiyatga molik bo'lgan siyosiy faoliyat namunalarini qay darajada egallaganligini namoyish qiladi. **Siyosiy madaniyat tarkibiga** ko'ra murakkab bo'lib, u quyidagi unsurlardan iborat: 1. Siyosiy ong madaniyati: siyosiy tasavvurlar va e'tiqodlar; siyosiy ko'rsatmalar; siyosiy qadriyatlar, an'analar, odatlar, me'yorlar. 2. Siyosiy xulq-atvor madaniyati: siyosiy ishtirok madaniyati; siyosiy faoliyat madaniyati. 3. Siyosiy institutlar amal qilishi madaniyati: elektoral jarayon madaniyati; ijtimoiy-siyosiy ixtiloflarni idrok etish va boshqarish madaniyati; siyosiy qarorlarni qabul qilish va amalga oshirish madaniyati.

**Siyosiy madaniyatning o'ziga xos xususiyatlari:** siyosiy jarayondagi ishtirokchilar va uning elementlari o'rtasidagi doimiy, takrorlanuvchi aloqalarni aniqlaydi, siyosiy tajribaning barqaror jihatlarini mahkamlaydi; jamiyat rivojining tabiiy-tarixiy evolyutsiyasi mahsuli, ko'pchilik faoliyatining natijasidir; total ko'rinishga ega – siyosiy munosabatlarning barcha ko'rinishlarini qamraydi; aholining asosiy qismiga xos siyosiy ong va siyosiy xulq-atvorni aks ettiradi va siyosiy submadaniyatlar yig'indisidan iborat emas.

**Siyosiy manfaat** – hokimiyat bilan bog'liq, subyekt (obyekt) hayotining ijtimoiy (moddiy, milliy, siyosiy) sharoitlarini o'zgartirish (saqlab qolish) asosidagi ongli (anglangan) ehtiyoj. Siyosiy manfaat ichki anglangan siyosiy faoliyat asosi bo'lib, u siyosiy subyektlarni muayyan siyosiy maqsadlarni qo'yishga va ularni amalga oshirish uchun muayyan siyosiy harakatlarga undaydi. Siyosiy ahamiyatga ega guruhiy manfaatlarning quyidagi turlari ajratiladi: sinflar, ijtimoiy qatlamlar manfaati; milliy manfaatlar; regional guruhlar va mahalliy jamoalar manfaati; demografik guruhlar manfaati; diniy guruhlar manfaati (urush faxriylari, emigrantlar singari unchalik barqaror bo'lmagan subyektlar ham mavjud). Siyosiy manfaat **obyekti** – siyosiy hokimiyat va hokimiyatga doir munosabatlar, siyosiy hokimiyatni amalga oshirish mexanizmlari, usullari, partiyalar, ijtimoiy-siyosiy harakatlar, jamoat tashkilotlari, lobbi guruhlari, siyosiy elitalar va siyosiy yetakchilar. Siyosiy manfaatlar siyosatda bir qancha muhim vazifalarni bajaradi: siyosiy manfaatlarda guruhlarining eng muhim ehtiyojlari aks etadi; ular siyosiy faoliyat yo'nalishini aks ettiradi; ular siyosiy faoliyat natijalarini baholash imkonini beradi; siyosiy qarorlar mazmunini belgilaydi; jamiyatdagi mafkuraviy mayllarni aks ettiradi. Siyosiy manfaat quyidagi mexanizmlar vositasida amaliyotga aylanadi: hokimiyat va uning tuzilmalarining faoliyati natijasida; partiyalar, fuqarolik jamiyati institutlari faoliyati natijasida; ommaviy siyosiy kuchlar bosimi natijasida. Manfaatlarning siyosatda harakati uch asosiy bosqichni tashkil etadi: manfaatlar Artikulyatsiyasi, manfaatlar Agregatsiyasi, siyosiy qarorlar qabul qilish jarayoni.

**Siyosiy marketing** – (ingl. *marketing* – bozor, sotish – bozor qoidalarini bilish, ularga moslashish va unga ta'sir qilishning zamonaviy usullarini qo'llash) – odamlar ongi va xulq-atvoriga, ularning birlashmalari va tashkilotlariga aniq maqsadni ko'zlagan holda ta'sir ko'rsatish tizimi bo'lib, u siyosiy va fuqaroviy erkinliklar sharoitida odamlarda, ularning birlashmalari va tashkilotlarida siyosiy munosabatlarning amaldagi subyekti uchun nafli bo'lgan manfaatlar va ehtiyojlarni shakllantirish imkonini beradi. Mazkur tizim siyosiy nazariyalarni, siyosiy muhitni o'rganishning uslublari, yo'llari va usullarini, shuningdek fuqarolarning xulq-atvoriga ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan talablarni shakllantirish yo'llarini o'z ichiga oladi. Siyosiy marketing siyosiy qarashlari, qiziqishlari, e'tiqodlari har xil bo'lgan odamlardagi turli-tumanlikni hisobga olishga asoslanadi. Hozirgi zamon sharoitlarida marketing ta'minotiga ega bo'lmasa, yetakchilikka da'vogar bo'lgan har qanday shaxs muvaffaqiyatsizlikka mahkumdur. Saylov injeneriyasi yoki saylov texnologiyasi siyosiy marketing turlaridan hisoblanadi. Ushbu atama orqali ilmiy-tadqiqotlar yo'nalishi belgilab beriladi. Bunday tadqiqotlar doirasida saylov kampaniyalarini tashkil etish va o'tkazish muammolari o'rganiladi. Siyosatni ham tovar sifatida talqin etuvchi Konsepsiyalarga ko'ra siyosiy marketing siyosiy tovarni bozorda taklif etishning samarador usullarini aniqlash bilan shug'ullanadi. Siyosiy tovar sifatida siyosiy hokimiyat, siyosiy g'oyalar, tashkilotlar, shiorlar, e'tiqodlar, siyosatchilarning o'zlari, ya'ni nafaqat individual, balki ommaviy tarzda odamlar o'rtasida siyosiy ayribosh predmeti bo'lgan hamma narsa namoyon bo'lishi mumkin.

**Siyosiy mas'uliyat** – siyosatdonlarning o'z mafkuralari va siyosiy amaliyoti siyosiy jarayon ko'lamini kengaytirishga mos kelishiga bo'lgan intilishi, hokimiyat vakillarining qonuniylikka rioya etishi. Siyosiy mas'uliyat tuzilishida bir necha bo'g'inni ajratib ko'rsatish mumkin. Mas'uliyat siyosatdonlar, birinchi navbatda, elita va'dalari ularning amaliy ishlariga mos kelishini taqazo qiladi. Jahon siyosat maydonida populizm, ya'ni ommaning qulog'iga yoqadigan va'zxonlik paydo bo'ldi. Siyosiy dabdababozlik, safsatabozlik, aldoqchilik va boshqa shu kabilar ham ana shu va'zxonlik ko'rinishlari hisoblanadi. Bunday salbiy ko'rinishlarning hammasi ham siyosatdonlarning u yoki bu darajada mas'uliyatsizligidan darak beradi. Siyosiy muxolifat faoliyatining mazmuni va shakllari siyosiy mas'uliyatning muhim jihati sifatida namoyon bo'ladi. Muholifatning sa'y-harakatlari doimo mavjud ijtimoiy-siyosiy vaziyatni o'zgartirishga qaratiladi. Xarobaga aylantirish kuchiga ega bo'lgan xatti-harakatlar jamiyatga katta ziyon etkazib, uni to'g'ri yo'ldan chalg'itishi mumkin. Rasmiy muxolifat ham mas'uliyatsizlik borasida o'z manfaatini ko'zlovchi elitadan qolishmaydi. Tang vaziyatlarda muxolifatning mas'uliyatsizligi ayniqsa katta ziyon etkazadi. Xalqning, elektoratning mas'uliyati katta ahamiyatga molikdir. Binobarin, bu Vatan oldidagi, jamiyatni saqlab qolish yo'lidagi mas'uliyatdir.

**Siyosiy me'yor** – (lot. *norma* – rahbarlik asosi, qoida, namuna) – siyosat subyekti e'tirof etgan va amalda rioya qiluvchi na'muna, qoida, faoliyat tamoyili, tegishli siyosiy madaniyat qadriyatlariga muvofiq individlar va ijtimoiy guruhlarning siyosiy faoliyatini tartibga soluvchi, jamiyatda siyosiy tizimning barqarorligi va birligini mustahkamlovchi siyosiy xulq-atvor qoidalari, kutilayotgan natijalar va mezonlar, ta'qiqqlar va tartibga solish vositalari. Ular rasmiy-norasmiy; og'zaki-yozma; oshkora-yashirin; universal-xususiy bo'lishi mumkin. Belgilangan tartibda qabul qilingan, qog'ozda qayd etilgan va siyosiy subyektlar uchun majburiy bo'lgan siyosiy me'yorlar ayni vaqtda huquqiy me'yorlar hamdir. Siyosiy me'yorlarni siyosatdagi "o'yin qoidalari" sifatida tasavvur qilish mumkin. Siyosiy me'yorlar qayd qilinish usuliga (rasmiy va norasmiy, og'zaki va yozma, aniq yoki yashirin), umumlashtirilganlik darajasiga (siyosiy faoliyatning umumiy prinsiplari yoki siyosiy xulq-atvorning aniq namunalari), ular amal qiladigan siyosiy rejimning turiga (demokratik, avtoritar, totalitar) qarab farqlanadi; ularda siyosiy harakatning ham ijobiy (qayd qilish), ham salbiy (man qilish – ta'qiq) mazmuni ifoda etilishi mumkin. Siyosiy me'yorlar tegishli siyosiy qadriyatlar hosilalari bo'lib, ana shu qadriyatlarga asoslanadi, boshqa tomondan bo'lsa, siyosiy qadriyatlar siyosiy me'yorlarda o'z aksini topadi. Agar qadriyatlar nima degan savolga javob bersak, me'yorlar siyosiy voqelikka nisbatan qanday munosabatda bo'lish kerakligini ko'rsatib beradi. Shuning uchun siyosiy qadriyatlar xulq-atvorni umumiy, strategik tartibga solishning, siyosiy me'yorlar esa, bunday xulq-atvorga, uning namunalari qanday munosabatda bo'lishning muayyan yo'l-yo'riqlarini belgilab beradi. Siyosiy me'yorlarni oqilona ta'riflash mumkin, biroq ular, qoida tariqasida, muayyan madaniyat uchun xos bo'lgan an'anaviy tarzdagi yozilmagan urf-odatlariga, ta'qiqqlarga, an'analarga asoslanadi.

**Siyosiy menejment** – davlat siyosatini samarali tashkil etish va samarali boshqaruvga oid fan.

**Siyosiy monopoliya** (yunon. *poleo* so'zidan – /bitta – sotaman *monopolion*) – jamiyat siyosiy tashkilotining, siyosiy hokimiyatning shakli bo'lib, unda boshqaruvning butun tizimi siyosatning yagona subyektiga tegishli bo'ladi. Monopol hokimiyat bitta odam qo'lida mujassam bo'lishi mumkin. Monopol hokimiyat qadimgi Sharqning mustabid tuzumlariga, Yevropa feodalizmining absolyutizmiga, XX asr totalitarizmiga, turli xil shakldagi imperiyalar va boshqa shu kabilarga xosdir. Hokimiyat jamiyatdagi boshqa guruhlariga qarama-qarshi maqsad va manfaatlariga ega bo'lgan odamlar tomonidan amalga oshirilganida u oligopol, korporativ shaklga ega bo'ladi. Hokimiyatni iqtisodiy jihatdan hukmron sinf nomidan amalga oshirish sinfiy hokimiyatni keltirib chiqaradi. Monopolistik hokimiyatning mohiyati shundan iboratki, subyekt hokimiyatning barcha asosiy vazifalarini mustaqil amalga oshiradi, ya'ni bitta subyektning o'zi ham qonun chiqaruvchi, ham ijro qiluvchi hokimiyat rahbari va ham odil sudlovni amalga oshiruvchi bo'ladi. Siyosiy tizimning qolgan barcha subyektlari hokimiyatni amalga oshirayotgan subyektning fuqarolari va qarollari bo'ladi.

**Siyosiy muassasa** – jamiyatning siyosiy va boshqa sohalari faoliyatini ta'minlovchi boshqaruv organlari, tashkilotlari, idoralari.

**Siyosiy muxolifat** – (lot. *oppositia* – qarshi qo'yish) – bir siyosiy qarashlar, g'oyalar va harakatlarni boshqa siyosiy qarashlar, g'oyalar va harakatlarga qarshi qo'yish usuli. Muholifot siyosatda siyosiy hukmronlikning turli darajalarida, davlat va partiya hokimiyatining turli ko'rinishlarida, ulardan har birining ichida amalga oshirilishi mumkin. Parlament muxolifati alohida o'ringa ega bo'lib, qoida tariqasida, partiya mezonlari, fraksiyalar bo'yicha vujudga keladi, uning siyosiy qarashlari va e'tiqodi rasmiy hukumatning siyosiy qarashlari, e'tiqodidan bir-muncha ajralib turishi mumkin. Siyosiy muxolifat jamiyat siyosiy turmushining zarur va maqbul elementidir. Muholifot, agar amaliy asosga ega bo'lsa, fikrlar va harakatlar oshkoraligiga ko'maklashadi. Destruktiv muxolifat esa, aksincha, tanqidbozlik, quloqqa yoqadigan va'zxonlik bilan shug'ullanib, hokimiyat faoliyatiga halaqit qiladi. Siyosiy muxolifat real va noreal, mo'tadil va radikal, amaliy va destruktiv, utopik va realistik, demokratik va g'ayridemokratik hamda shu kabi boshqa turlarga ega bo'lishi mumkin. Qanday tushda bo'lishidan qat'i nazar, muxolifat jamiyat va davlatda rasmiy nuqtayi nazardan, mavqedan, faoliyat dasturidan boshqacha bo'lgan nuqtayi nazar, mavqe, harakat dasturi mavjudligining dalolatidir. Ularni albatta inobatga olish, agar amaliy mazmunga ega bo'lsa, albatta, ulardan ishda foydalanish va ularni bajarish lozim. Binobarin, muxolifat hukmron partiyaga, davlat hokimiyati tuzilmalariga o'z kamchiliklarini ko'rish imkonini beradi. Demokratik huquqiy jamiyat va davlatda siyosiy muxolifat asosga egadir, negaki uning faoliyati odamlar ijtimoiy birligining huquqi va madaniyatiga, real manfaatlariga asoslanadi.

**Siyosiy muloqot** – subyektlarning o'z siyosiy qarashlarini, fikr-mulohazalarini, baholarini, siyosiy tafakkur usullarini oshkora bayon qilish usuli. Siyosiy muloqot jarayonida subyektlar o'rtasida kelishuvga erishiladi, siyosiy faoliyatning dasturi va mexanizmlari ishlab chiqiladi. Siyosiy muloqot demokratik siyosiy tizim rivojlanishining belgilovchi shartidir, negaki u jamiyatning ko'ppartiyaviylik tizimini aks ettiradi. Siyosiy muloqotning quyidagi asosiy shakllari

ajratib ko'rsatiladi: 1) muayyan masala yuzasidan tortishuv – har qanday siyosiy muammo yuzasidan qarama-qarshi fikrlarning keskin, oshkora kurashi; 2) munozara – siyosiy muammolar bo'yicha fikr almashuv, munozara jarayonida siyosiy kelishuvga, konsensusga erishish uchun asoslar qidirish. Siyosiy muloqot jarayonida bunday muloqot o'tkazishning qonunga muvofiq va qonunga nomuvofiq usullari o'zaro farqlanadi.

**Siyosiy munosabatlar** – odamlarning siyosiy sohada, davlat ishlarida ishtiroki davomida, siyosiy hokimiyatni amalga oshirish yoki shu bilan bog'liq tarzda shakllanuvchi ijtimoiy o'zaro aloqalar shakli. Odamlar o'zlarining individual, guruhiy yoki umumiy manfaatlarini amalga oshirishlari, davlat vositalari, mexanizmlari va resurslaridan foydalanishlari jarayonida siyosiy munosabatlar vujudga keladi. Har qanday ijtimoiy muammo agar u ijtimoiy guruh yoki butun jamiyat manfaati bilan bog'liq bo'lsa va davlat aralashuvini taqozo etsa, siyosiy tabiatga ega bo'ladi. Ularning ichida: a) sinflar, ijtimoiy guruhlar, qatlamlar ichidagi munosabat; b) boshqaruv organlari faoliyati natijasida vujudga keluvchi vertikal munosabatlar; s) siyosiy tashkilotlar va muassasalar o'rtasida vujudga keluvchi gorizontal munosabatlar ajratiladi. Siyosiy munosabatlar mavjud bo'lish darajasiga qarab: mahalliy, mintaqaviy, milliy, xalqaro, global, tashqi siyosiy va ichki siyosiy munosabatlar ko'rinishida bo'ladi. O'zining namoyon bo'lish mexanizmiga qarab, siyosiy munosabatlar stixiyali va ongli munosabatlarga bo'linadi. Siyosiy munosabatlar mazmuni davlat va jamiyat, hokimiyat va inson, ijtimoiy guruhlar, tabaqalar va sinflarning munosabatlari bilan belgilanib, konsensus (shartnoma), qarama-qarshilik, birlik, hamkorlik, birgalikda harakat qilish, hukmronlik qilish va bo'ysunish jihatlari bilan tavsiflanadi. Siyosatning boshqa ijtimoiy tizimlar – iqtisodiy, ma'naviy-axloqiy, ijtimoiy va shu kabi tizimlar bilan munosabatlari alohida ajratib ko'rsatiladi. Siyosiy munosabatlar tuzilmasida ham ma'naviy (bilish va siyosiy ongga ega bo'lish, mafkura), ham moddiy (negaki moddiy munosabatlarni amalga oshirish natijasida jamiyatda real ko'zga ko'rinadigan o'zgarishlar yuz beradi) alomatlarni ko'rish mumkin.

**Siyosiy munosabatlarning subyekti va obykti** – siyosiy jarayon ishtirokchilari. **Subyekt** – faoliyat, harakatning faol tomoni. Siyosiy faoliyatda bevosita va u yoki bu darajada ongli ishtirok etuvchi shaxslar, ijtimoiy guruhlar, qatlamlar, tashkilotlar, ongli va shunga ko'ra anglangan, maqsadli faoliyatga qodir amaliy faoliyat egalari subyekt bo'la oladi. Subyekt bir qancha sifatlariga ega bo'ladi: iroda, mas'uliyatni zimmasiga ola bilish, malakaviylik, resurslarga egalik, avtoritet, intizom, ongllilik, shu jumladan, o'z-o'zini anglaganlik, aniq maqsadga va uni amalga oshirish qobiliyatiga ega bo'lish. Siyosatda subyekt sifatida alohida individlar ham, turli guruhlar, tashkilotlar ham qaraladi. **Obyekt** – (lot. predmet) 1) tashqi dunyo, voqelik, kishi, subyekt ongidan tashqarida va undan mustaqil mavjud bo'lgan narsa; 2) kishi bilishga intilgan va o'z faoliyatini shunga qaratgan hodisa. Siyosatda obyekt sifatida siyosiy munosabatlar, siyosiy tizim va uning institutlari, siyosiy jarayonga jalb etilgan ijtimoiy guruhlar va individlar qaraladi. Siyosiy munosabatlarning subyekti va obykti o'zaro o'rin almashinadi: institut yoki ijtimoiy guruh bir vaqtning o'zida ham subyekt ham obyekt bo'la oladi. Ular bir-birini faoliyatini belgilab, cheklab, o'zgartira oladi. Siyosiy faoliyatda sub'et-obyekt va subyekt-subyekt munosabatlari ajratiladi.



**Siyosiy munozara** – turli nuqtayi nazarlar oydinlashuviga olib keluvchi bahs, muammoli masalani muhokama qilib ko'rib chiqish.

**Siyosiy nazariya** – fakt, hodisa yoki jarayonning umumlashtirilgan va sistemalashgan bayoni, uning siyosiy hayotdagi o'rni va ahamiyatini, mohiyatini, rivojlanish tendensiyalarini tushunish imkonini beruvchi abstrakt konstruksiya.

**Siyosiy oligopoliya** (yunon. *oigos* – ko'p emas, *poleo* – sotaman) – davlatdagi kam sonli, muayyan guruhga kiruvchi odamlar manfaatlarini yo'lida xalqqa nisbatan amalga oshiriladigan hokimiyat shakli. Oligopoliya hukmron tuzilmalar monopolizmida va demokratik hokimiyatdan farq qiladi. Oligopoliya hokimiyatni uzurpatsiya qilishga, u yoki bu bahona ostida haddan tashqari ko'p huquqlarni qo'lga kiritishga asoslanadi. Oligopoliya, qoida tariqasida, hokimiyat to'ntarishlari, hokimiyatni noqonuniy, ekstremistik tarzda egallab olish yoki siyosiy tizimlarni o'zgartirishga, o'z umrini o'tab bo'lgan tizimlar qaytarilishiga olib kelishga ko'maklashadigan siyosiy rejimlar vaqtida shakllanadi. Tarixda juda ko'p turdagi zo'ravonlikka asoslangan diktaturalar ("banan" respublikalari, xuntalar va boshqa shu kabilar), fashistik va totalitar rejimlar ma'lum.

**Siyosiy ong** – ijtimoiy ong shakllaridan biri bo'lib, real siyosiy munosabatlarni aks ettiruvchi ijtimoiy hissiyotlar, tasavvurlar, qarashlar birligidir. Siyosiy ong shaxsning siyosiy sohada faoliyat ko'rsatishi, mavjudligini ta'minlovchi ma'naviy tizimlarning birligi, uning siyosatda o'ziga xos vazifalarini bajara olishi, boshqaruv organlari bilan muloqot qila olishi, huquq va erkinliklarini amalga oshirishda ma'suliyatni his qila bilishi va h.k.larni belgilaydi. Siyosiy ong inson o'zining biror guruhga mansub ekanligini idrok etishi, hokimiyat bilan bog'liq hodisalarga munosabatining aniq-ravshanligi, o'zining biror siyosiy yo'nalishiga mansubligini anglashi (masalan, liberalizmga, konservatizmga va h.) asosida shakllanadi. Shaxs siyosiy ongi siyosiy voqe'lik to'g'risida inson ongida mavjud tasavvurlar, baholar, hissiy obrazlardan tarkib topadi. G.Almond va S.Verbaga ko'ra siyosatni anglashning uch usuli ajratiladi: kognitiv – ya'ni tizimni, uning amal qilish qoidalarini, muammo va ziddiyatlarini anglash; hissiy, ya'ni siyosiy voqe'likni ijobiy yoki salbiy hissiyotlar ko'rinishida qabul qilish; baholovchi, ya'ni siyosiy faoliyat maqsadlari, natijalari va oqibatlarini to'g'risidagi fikrlar bildirish. **Siyosiy ong** – turli ijtimoiy guruhlarning davlat hokimiyatiga, siyosiy tashkilotlar, ularning jamiyat hayotidagi roliga, boshqa davlat va millatlar bilan munosabatiga oid qarashlarning bir tizimga solingan nazariy ifodasi.

**Siyosiy partiyalar** – ijtimoiy guruhlar manfaatlarini ifodalovchi, ularning eng faol vakillarini birlashtiruvchi siyosiy tashkilotlar. Siyosiy partiyalar jamiyat siyosiy tizimining muhim qismi, ular davlatning siyosiy yo'nalishini belgilashda ishtirok etadi, hukumatning vakillik va ijro etuvchi muassasalarini shakllantiradi. O'zbekiston Respublikasining siyosiy partiyalar to'g'risidagi qonuni 1996-yil 26-dekabrda qabul qilingan.

**Siyosiy platforma** – biror siyosiy partiya, tashkilot, guruh ilgari surayotgan dastur, vazifalar, talablar, maqsadlar, muayyan konseptual asosga tayanadigan umumiy siyosiy mavqe. Siyosiy platforma tayanadigan nazariya yoki ijtimoiy-siyosiy ta'limot, odatda, yaxlit, universal tusga ega bo'lib, bir qancha turli ichki jihatlarni o'zida qamrab oladi. Platformalar asosida yirik siyosiy yo'nalishlar

rivojlanib, ko'plab partiyalar yuzaga kelishiga sabab bo'ladi. Mazkur partiyalar o'z oldiga qo'ygan maqsadga muvofiq platformalarni konkretlashtiradilar. Misol tariqasida hozirgi zamon G'arb sivilizatsiyasi doirasida XIX – XX asrlar siyosiy nazariyasi va amaliyotida tarkib topgan bir qator platformalarni ajratib ko'rsatish mumkin, bular: konservativ, liberal va radikal platformalar (qaralsin: Konservativizm; Liberalizm; Siyosiy radikalizm).

**Siyosiy plyuralizm** – (lot. ko'plik) siyosatda qarashlar, g'oyalar, munosabatlar, tashkilotlar xilma-xilligi.

**Siyosiy psixologiya** – politologiyaning jamiyat siyosiy hayotidagi ruhiyat bilan bog'liq jihatlarni (kayfiyat, fikr, hissiyot, qadriyatlar, stereotiplar va h.k.) o'rganuvchi sohasi. Ular millatlar, sinflar, ijtimoiy guruhlar, hukumatlar, shaxslar siyosiy ongi darajasida shakllanadi va muayyan siyosiy faoliyatda namoyon bo'ladi. Siyosiy psixologiya – siyosatshunoslik va psixologiya fanlari chegarasida shakllangan va amal qiluvchi zamonaviy integrativ fan yo'nalishlaridan biri. Siyosiy psixologiya sohasini ta'riflashda ikkita yondashuvni ajratib ko'rsatish mumkin. Birinchi yondashuv siyosatchilar (siyosiy yetakchilar, faollar, partiya a'zolari, parlamentariylar) psixologiyasi, ya'ni siyosiy faoliyat sifatida talqin qilinadi. Bu ma'noda u shaxs psixologiyasiga yaqinlashib, amaliy bo'limlar, masalan, siyosiy qarorlar qabul qilishning maqbul usullarini ishlab chiqish birinchi o'ringa chiqib oladi. Ikkinchi yondashuv u yoki bu tarzda siyosatga ta'sir ko'rsatuvchi barcha ruhiy jarayonlarni o'rganish tarzida tushuniladi. Bunday tushinishda siyosatning jamiyatdagi roli va o'rnini, uning yo'naltiruvchi sabablari va manfaatlarini, jamiyatga ta'siri va boshqa shu kabilarni o'rganishga harakat qilinadi. Siyosiy psixologiya siyosiy munosabatlarning psixologik jihatlari va individual hamda kollektiv subyektlar siyosiy faoliyatining turlarini, jamiyat va davlat siyosiy hayotining psixologik jihatlarni o'rganadi. Siyosiy psixologiyaning to'rtta asosiy muammolar doirasi ajratib ko'rsatiladi: siyosiy yetakchi; kichik guruhlar; katta guruhlar va ijtimoiy qatlamlar; omma va ommaviy kayfiyat. Siyosiy voqeelikning odam ongida psixologik aks etishi subyektlarning baholash mushohadasi, qayg'urishi, e'tiqodi, qat'iy qoidalari ko'rinishida bevosita qayd etiladi. Shunga qarab, siyosiy ongning holati, subyektning siyosiy jarayonlarga, siyosiy hokimiyatga nisbatan munosabati, uning sabablari, qadriyat yo'nalishlari va siyosiy hayotning boshqa psixologik alomatlari to'g'risida fikr yuritish mumkin. Boshqa tomondan olganda, siyosiy hokimiyat xalq ongi va madaniyatiga ta'sir ko'rsatishning ko'pgina psixologik mexanizmlariga ega. Siyosiy mexanizmlarni bilishning shakllari va usullari katta nazariy hamda amaliy ahamiyatga egadir.

**Siyosiy qarashlar** – siyosiy qarashlarning shakllanishi va qaror topishida o'ziga xos an'analar mavjud bo'lib, siyosiy hodisalar turli xil talqin etilgan.

**Siyosiy qaror** – hokimiyat amal qilishi bilan bog'liq vazifalar, bosqichlar, vositalarni belgilovchi jarayon. U yoki bu ijtimoiy manfaat davlat rivojlanishi uchun ahamiyatli deb topilib siyosiy qarorlar shaklini oladi. Bu jarayondagi faol agentlarga assambleyalar (parlamentlar), manfaat guruhlari va partiyalar, ijro organlari, byurokratiyaning oliy qatlami kiradi. Qarorlar qabul qilish jarayoni Konstitutsiyalar bilan belgilanadi. Ular oddiy va murakkab bo'lishi mumkin. Parlamentlar, odatda, qarorlar qabul qilishning murakkab, jiddiy ishlab chiqilgan tadbirlariga tayanadi. Ijro organlari esa, odatda, oddiy qoidalarga amal qiladi. Har bir siyosiy

institut doirasida qaror qabul qilishning muayyan qoidalari amal qiladi. Ularning eng muhimi ovoz berish tartibi bilan bog'liq. Ko'p hollarda «bir kishi – bir ovoz» qoidasiga rioya qilinadi. Siyosiy qarorlar siyosiy hokimiyatni ijtimoiy jarayonlarni boshqarishga aylantirish texnologiyasidir. Siyosiy qarorlarni qabul etishning uch bosqichi ko'rsatiladi: 1) tayyorgarlik bosqichi; 2) qarorlarni qabul qilish bosqichi; 3) qabul qilingan qarorlarni amalga oshirish bosqichi. Birinchi bosqichda umumiy ijtimoiy kontekstdan siyosiy ruxdagi talab va ziddiyatlar ajratib olinadi. Ikkinchi bosqichda yechimni talab etayotgan muammolarni topib, muhkama qilinganidan so'ng siyosiy maqsadlar va ularga erishish yo'llari belgilab beriladi. Siyosiy maqsadlar odatda alternativa (bir-birini istesno etuvchi imkoniyatlarning har biri) tarzida bayon etiladi. Qarorlarni muayyan shaxslar (siyosatchi) yoki guruhlar (rasmiy va norasmiy) qabul qilishlari mumkin. Siyosiy qarorlarni qabul qiluvchi subyekt bo'lib konstitutsiyaga muvofiq yoki boshqa sabablarga ko'ra qaror ishlab chiqarish va qabul qilishga aloqador shaxslar, jamoat tashkilotlari a'zolari yoki ularning davlat hokimiyati saylanma organlaridagi vakillari v.h. bo'la oladilar. Qarorlarni tayyorlash va qabul qilishning turli bosqichlarida ijtimoiy subektlar turlicha ishtirok etadilar. Masalan, birinchi bosqichda aholining barcha qatlamlari qatnasha olsa, ikkinchi bosqichda davlatning vakolatli organlari, partiya va jamoat tashkilotlari yetakchi o'rinni egallaydi. Siyosiy qarorlarni qabul qilishning bir nechta usullari mavjud: kompromiss – o'zaro yonboshishlar natijasida erishilgan bitim; konsensus (kelishuv), bunda qaror ovoz berish yo'li bilan emas, kelishuv yo'li orqali qabul qilinadi. Kelishuv, barcha tomonlarning qarorga qo'shilmasalarda, umummanfaatlardan kelib chiqib, unga qarshi chiqmasliklarini bildiradi; ustunlik – siyosatda biror sinf yoki davlatning boshqa sinf yoki davlatlarga nisbatan bosh mavqeni egallashi. Bunda taraflar qudratli subyekt qarorlarini o'z manfaatlariga mos deb e'tirof etishadi. Xalqaro munosabatlarda keng qo'llaniladi. Qaror qabul qilishning uchinchi bosqichida hokimiyat qabul qilingan qarorlarni hayotga tatbiq etadi. Bu bosqich ziddiyatlarni ko'payishi va keskinlashishi bilan xarakterlanadi, negaki, qabul qilingan qarorlar siyosatning barcha subyektlarini qoniqtirmaydi, lekin qarorlar bajarilishini ta'minlash zarur. Qarorlarni tatbiq etishda muxolif kuchlar bilan birga o'z manfaatlarini himoya qilish maqsadida hokimiyatning kuyi organlari ham qarshilik ko'rsatishi mumkin. Shuning uchun ham qabul qilingan qarorlar qonun shaklida bo'lishi, bajarilishi uchun mas'ul shaxslar belgilanishi, adresli bo'lishi (ya'ni qaysi guruhlar, qatlamlarga qartilganligini aniq, aytilgan bo'lishi) talab etiladi.

**Siyosiy rahbarlik** – hokimiyatni amalga oshirish mexanizmlaridan biri. Jamiyat uchun muhim qarorlar ishlab chiqish va qabul qilish, uning maqsadlari, vazifalari, istiqbollarini aniqlash bilan bog'liq faoliyat.

**Siyosiy raqobat** – biror maqsadga erishishdan manfaatdor shaxslar, guruhlar, partiyalar o'rtasidagi siyosatning qandaydir sohasi bo'yicha musobaqa, bellashuv, to'qnashuv.

**Siyosiy realizm maktabi** – xalqaro munosabatlarni o'rganishning o'z konseptual apparatiga, kategoriyalariga, jahon ishlariga doir o'z tushunchalari va tanqidiy yondashuvlariga ega bo'lgan ilmiy metodologiya. Chikago universite-

ting professori Gans Morgentau siyosiy realizm maktabining bosh nazariyotchisi hisoblanadi. Morgentau universitetda 20-yil davomida Tashqi va harbiy siyosatni o'rganish markaziga boshchilik qilgan. "Morgentau maktabi" AQSH tashqi siyosati sohasidagi barcha tomonidan e'tirof etilgan manbaga, nazariyot va amaliyotning yagona mujassamlariga aylandi. J.Kennan, K.Tompson, R.Straus-Xyupe, Ch.Yost, J.Boll, S.Braun, Z.Bjezinskiy, U.Rostou, Y.Rostou, S.Xartington va boshqalar mazkur maktab vakillari hisoblanadi. N.Makiavelli va T.Gobbs kabi olimlar siyosiy realizmning nazariy o'tmishdoshlaridir. "Realistlar" axloq va siyosatni bir-biridan ajratish taklifini kiritgan protestantizm nazariyotchisi R.Niburni; xalqaro munosabatlar tarixiga "milliy manfaatlar" nuqtayi nazaridan qaragan tarixchi Ch.Birdni; xalqaro munosabatlarni "hokimiyat uchun kurash maydoni" deb hisoblagan geosiyosatchi N.Spaykmenni o'z ustozlari deb hisoblashgan. G.Morgentau fikricha, pirovard maqsadlaridan qat'i nazar, xalqaro siyosatning yaqin kelajakdagi maqsadi – hokimiyatdir. Siyosatchilar xalqaro siyosat vositalari orqali o'z maqsadlarini amalga oshirishga kirishar ekanlar, buni hokimiyat uchun kurash yo'li bilan ro'yobga chiqaradilar. Nazariy tuzilishi nuqtayi nazardan olganda siyosiy realistlar: o'z manfaatlarini kuch kategoriyalarida namoyon qiladigan milliy davlat – xalqaro munosabatlar tizimining asosiy subyekti; davlatlarning tashqi muhitdagi o'z ta'sirini kengaytirish uchun kurashi; kuchlar muvozanati siyosatini ro'yobga chiqarish kabi qoidalarga asoslanganlar. Milliy manfaatlar Konsepsiyasi "siyosiy realizm"ning markaziy unsuridir. Siyosiy realizmning Konsepsiyasiga muvofiq doimiy, asosiy manfaatlar ajratib ko'rsatiladi. Ular jumlasiga "milliy xavfsizlik manfaatlari" (hududni, aholi va davlat institutlarini tashqi xavfdan himoya qilish); "milliy iqtisodiy manfaatlar" (tashqi savdoning rivojlanishi va investitsiyalarning o'sishi, chet eldagi xususiy kapital manfaatlarini himoya qilish); "jahon tartibotini qo'llab-quvvatlash manfaatlari" (ittifoqdoshlar bilan munosabatlar, tashqi siyosat yo'lini tanlash) kiritiladi. Oraliq manfaatlar jumlasiga quyidagilar kiritiladi: "omon qolish manfaatlari" (davlat mavjud bo'lishining o'ziga tahdid); "hayotiy manfaatlar" (xavfsizlik va turmush farovonligiga jiddiy xavf etkazish imkoniyati); "periferiya manfaatlari yoki mayda manfaatlar" (mahalliy muammolar). Siyosiy realizmning keyingi asosiy kategoriyasi "davlat qudrati (milliy qudrat)"dir. Ushbu kategoriya bir qator turli elementlarni o'z ichiga oladi, chunonchi: geografiya, milliy resurslar (ozuq-ovqat va xom ashyo), sanoatning holati, aholi soni, harbiy salohiyat, milliy xarakter, jamiyatning ma'naviy ruhi, diplomatiya sifati va hukumat. Diplomatiya va hukumat qudratning o'zgaruvchan omillari hisoblanadi.

**Siyosiy rejim** – (lot. *regimen* – boshqaruv) tartib, davlat tizimi, boshqaruv tartibi – muayyan davlat va jamiyatda siyosiy hokimiyatning real taqsimlanishini aks ettiruvchi siyosatshunoslik kategoriyasi, jamiyatda siyosiy tizim amal qilishining usuli. U muayyan bir jamiyatda muayyan bir vaqtda mavjud siyosiy hokimiyat qiyofasini aks ettiradi. Agar «boshqaruv shakli» kategoriyasi davlatning Konstitutsiya va qonunlarda aks etgan belgilariga asoslanib, asosan, siyosiy hayotning rasmiy-huquqiy tomonini yorituvchi va nisbatan statik tushuncha bo'lsa, «siyosiy rejim» ushbu jamiyatda siyosiy hokimiyat amalda kimga tegishligi, u qanday vositalar bilan amalga oshirilishi, davlat va fuqarolik

jamiyati unda qay tarzda o'zaro ta'sir etishi, shaxs, ijtimoiy guruhlarning huquq va erkinliklari ko'lami va ularni amalga oshirish imkoniyatlari to'g'risidagi savol-larga aydinlik kiritadi. Boshqacha qilib aytganda, siyosiy rejim – bu davlat tartibi bo'lib, u davlat va fuqarolik jamiyati o'zaro munosabatlari, davlat hokimiyati-ning, jamiyat hayotining boshqa sohalariga «kirib» borish darajasini aks ettiradi. Siyosiy rejim mohiyatini sharhlashda siyosatshunoslik sohasida ikkita yo'nalish mavjud. Birinchisi – yuridik-huquqiy talqin. Bunday talqin siyosiy rejim davlat amal qilishining rasmiy-yuridik mezonlariga tayanuvchi boshqaruvning rasmiy va legal shakllaridan iborat bo'ladi. Shundan kelib chiqqan holda siyosiy rejim deyilganida konstitutsiyaviy (qonuniy) tartiblar va ularni amaliyotga aniq tatbiq etish tizimi tushuniladi. Ikkinchisi – sotsiologik yo'nalish bo'lib, bunda hokimiyat, jamiyat va fuqarolarning o'zaro munosabatlariga urg'u beriladi. Shu nuqtayi nazardan olganda siyosiy rejim alohida ijtimoiy mexanizm, bir tomondan, hokimiyat organlarini shakllantirishning bazaviy modellari va siyosiy qarorlar qabul qilishning usullarini birlashtiruvchi jamiyatni boshqarish usuli, boshqa tomondan esa, hukmron elita, partiyalarning yetakchilari, alohida fuqarolar kabi turli siyosiy subyektlarning ishtirok etish usullari. Siyosiy rejimning: avtoritar, totalitar va demokratik rejim kabi uchta turi ajratiladi.

**Siyosiy rivojlanish** – bu jamiyat siyosiy tizimini doimiy ravishda o'zgarib borayotgan ijtimoiy talab-vazifalar, vaziyatga moslashuvi, hukumat bilan xalq ommasi o'rtasida yangi darajadagi aloqa-munosabatlarni ta'minlashiga qodir institutlarni tashkil etilishidan iboratdir.

**Siyosiy soha** – muayyan jamiyatning barcha munosabatlarini qamrab oluvchi ijtimoiy hayot bo'limi. Siyosiy sohani sinflar, ijtimoiy qatlamlar va guruhlar, millatlarning davlat hokimiyatini egallash, qo'llash, unga ta'sir etish munosabat-lari tashkil etadi.

**Siyosiy stereotip** – (gr. qattiq iz) biror siyosiy hodisa to'g'risida soddalashtirilgan, sxematik, obrazli, o'zgarishi juda qiyin tasavvurlar.

**Siyosiy strategiya va taktika** – (gr. qo'shinni olib boraman va gr. tartibga solmoq) siyosiy hayot, siyosiy jarayon va siyosiy kurashda siyosiy partiyalar, boshqa kuchlar, harakatlar, tashkilotlar ishtirok etishining nazariyasi va amaliyoti.

**Siyosiy suverenitet** – davlat va hokimiyatning asosiy tavsifi hamda mansubligini ochib beruvchi tushuncha. Siyosiy suverenitet g'oyasining shakllanishi G'arbiy Yevropada milliy-mustaqil, markazlashgan davlatlar vujudga kelishi jarayoni davriga to'g'ri keladi. Bu o'rinda suverenlik vujudga keladigan davlatlarning dindan, boshqa davlatlar va muayyan davlat ichidagi boshqa hokimiyat markazlaridan mustaqil bo'lishidan iborat asosiy sifatini anglatadi. N.Makiavel-ning talqiniga ko'ra, suveren hokimiyat cheksiz hukmronlikdir. Yangi davrga kelib, feodal, monarx, oliy hukmron shaxsiy hokimiyatining siyosiy suvereni-tetidan davlatning, keyinchalik esa (J.Lokk, Spinoza, J.-J.Russo) xalqning alohida huquqlariga o'tilishiga urg'u beriladi. Suverenitet "aralashmaslik" (xalqaro huquq muhofaza qiladigan davlat ishlariga aralashmaslik – G.Grostiy, I.Kant; xususiy huquq muhofaza qiladigan individning ishlariga aralashmaslik – Gegel, I.Kant) xususiyatini kasb etadi. Siyosiy suverenitetga nisbatan hukmdorning su-

veren huquqi sifatidagi ta'rif J.Boden tomonidan XIV asrning ikkinchi yarmida berilgan. Uning fikricha, suverenitet – davlatning absolyut va doimiy hokimiyatidir. Fuqarolar ustidan hech qanday qonunlar bilan bog'liq bo'lmagan absolyut hokimiyatdir. J.Boden ta'rifiga ko'ra, bu o'rinda davlat suvereniteti monarxning qonunlar chiqarish va ularni bekor qilish, mansabdor shaxslarni tayinlash va almashtirish, urush yoki tinchlik e'lon qilish, soliqlar undirish, oliy sudni amalga oshirish va boshqa shu kabi sohalardagi cheksiz huquqini anglatadi. T.Gobbs nazariyasi bo'yicha suverenlik davlatning o'z fuqarolari ustidan absolyut hokimiyatga ega ekanligini anglatadi; biroq, bitta shaxsning cheksiz hukmronligi elementi hamma joyda davlat qonunining hukmronligiga asta-sekin o'rin bo'shatib beradi. Spinoza va G.Grostiy fikricha, siyosiy suverenitet to'la-to'kis davlatchilikning sifat tavsifiga bog'liqdir. J.J.Russo bergan ta'rifga ko'ra, xususiy shaxs larning kelishuviga binoan tuzilgan dastlabki jamoat shartnomasi natijasida siyosiy suverenitetning butun xossalari ega bo'lgan bitta hamjamiyat paydo bo'ladi. Shuning uchun siyosiy suverenitet cheklanmaydi. U bo'linmas va uni begonalashtirib bo'lmaydi. "Xalq" va "siyosiy suverenitet" tushunchalarining ideal ravishdagi qo'shilishi sifatida to'g'ridan-to'g'ri va bevosita plebisstitar demokratiya namoyon bo'ladi.

**Siyosiy tahlil** – ilmiy usul. U butunni qismlarga bo'lish va ularni sifat yoki miqdor jihatidan jiddiy o'rganishga asoslanadi. Tahlil aniqlik kiritish va talqinni nazarda tutishi mumkin. Masalan, muayyan siyosiy kuchlar rivojlanishi, tarkibi, faoliyati, talablari va harakatlarini bilish maqsadida ularni tarkibiy qismlarga bo'lib o'rganish.

**Siyosiy tashkilot** – siyosat va hokimiyatga, siyosiy manfaatlariga doir maqsadlarni ro'yobga chiqarish uchun qat'iy belgilangan tuzilishga, tarkibiy qismlari vazifalarining aniqligiga, faoliyatining yaxlit tizim sifatida qurilishiga asoslanuvchi, odamlar, ixtiyoriy ravishda, o'z maqsadlariga erishishlari uchun tuzgan ittifoqlari. Siyosiy tashkilot uchun barqaror a'zolik, tuzilmalarga ega bo'lish, intizom va mas'uliyat, umumiy maqsadga erishish uchun turli xil vositalardan foydalanish xos xususiyatdir. Bunday tashkilot o'z yetakchisiga, uning o'rinbosarlari – yaqin tarafdorlariga, faol va faoliyatsiz a'zolariga ega bo'ladi. Siyosiy tashkilotlar – siyosiy partiyalar, turli ijtimoiy qatlam va guruhlarning manfaatlari, maqsadlarini ifoda etadi. Siyosiy tashkilotlar uyushganlik darajasiga qarab barqaror uyushgan, o'rtacha darajada uyushgan va etarli darajada uyushmagan tashkilotlarga bo'linadi. Siyosiy tashkilotlar ichki mintaqaviy, ichki davlat, xalqaro ko'lamdagi tashkilotlar bo'lishi mumkin. O'z dasturi, ustaviy negizidagi mafkuraga qarab, siyosiy tashkilotlar demokratik, kommunistik, sotsial-demokratik, liberal-konservativ va boshqa shu kabi tashkilotlarga bo'linishi mumkin. Siyosiy tashkilotlarning turlari ko'pgina asoslar bo'yicha bir-biridan farqlanadi. Davlatga nisbatan: davlat siyosiy tashkilotlari (parlament, hukumat, federatsiya subyektlarining vakillik va ijro qiluvchi hokimiyat organlari va boshqalar) va nodavlat (siyosiy partiyalar, ijtimoiy-siyosiy tashkilotlar va boshqalar) ajratib ko'rsatiladi. Siyosiy tashkilotlar o'zining ijtimoiy tarkibiga ko'ra sinfiy, milliy, umuman ijtimoiy tashkilot bo'lishi mumkin. Jamiyatda qay darajada siyosatlashganligiga qarab, siyosiy tashkilotlar (siyosiy partiyalar),

harakatlari siyosiy bo'lmagan harakatlar bilan yonma-yon bo'lgan ijtimoiy-siyosiy tashkilotlar (kasaba uyushmalari) va siyosiy bo'lmagan tashkilotlar (turli havaskorlik xususiyatlariga ega jamiyatlar) faoliyat ko'rsatishi mumkin.

**Siyosiy tizim** – 1) turli siyosiy hodisalarning umumiy tizimga tegishli xususiyatlari, belgilarini tavsiflash imkonini beruvchi nazariy-fikriy model, nazariya; 2) jamiyatda hokimiyat shakllanishi va amal qilishining real, murakkab mexanizmi. Ushbu kategoriyaning paydo bo'lishi T.Parsonsning jamiyat tizimi tahliliga bag'ishlangan tadqiqotlari bilan bog'liq. T.Parsons olimlar ichida birinchilardan bo'lib, tizimlar umumiy nazariyasini siyosiy jarayonlar tahliliga tatbiq etishga uringan. U siyosiy tizim Integratsiyani, umumiy ishlarni tuzish va ro'yobga chiqarishni ta'minlashi kerak, deb tushungan. Siyosatshunoslikda siyosiy tizimlar nazariyasi 50-yillardan boshlab D.Iston, G.Almond, U.Mitchell, K.Doych, A.Etstioni, D.Divayn va h. lar tomonidan keng va atroflicha ishlangan. 1953-yilda AQSHda D.Istonning "Siyosiy tizim" deb nomlangan kitobi nashr etilganidan keyin jamiyatning siyosiy tizimini izchil va maqsadli o'rganish boshlandi. Istons politologik tadqiqotlar uslubiyotini – tizimli metodologiyani asoslab berdi. U siyosatni hokimiyat bilan munosabatlarga doir qarorlar qabul qilinishi va ro'yobga chiqarilishi jarayoni sifatida tushunishni taklif qilgan. Tuzilmaviy jihatdan olganda siyosiy tizim to'rtta asosiy unsurdan tarkib topadi: siyosiy institutlar; ular o'rtasidagi munosabatlar; siyosiy me'yorlar, ong, madaniyat; siyosiy faoliyat, siyosiy jarayon. Boshqacha qilib aytganda, siyosiy tizim: institutsional, me'yoriy-madaniy, funksional va substansional kabi kichik tizimlarga bo'lina-di. Jamiyatning siyosiy tizimi yaxlit tarzda: integratsion, safarbar qilish, tartibga solish, strategik, qadriyatlarini asrash, qo'riqlash va boshqa shu kabi vazifalarni bajaradi.

**Siyosiy adolat** – siyosat subyekti va obykti, institutlar va fuqarolar, davlat va aholi o'rtasida tabiiy yoki me'yoriylashgan munosabatlarning amalga oshirilishi. U juda ko'p omillarga bog'liq: davlat tuzilishi shakli, siyosiy madaniyat etukligi, siyosiy tartibot turi, ijtimoiy va siyosiy manfaatlarining taqsimlanishi singari. Rivojlangan mamlakatlarda siyosiy adolat jamiyat barcha a'zolarining qonun oldida tengligiga va qonunning barchaga teng tegishlilikiga quriladi. Bu rasmiy tenglik rivojlangan demokratiya sharoitida siyosiy adolatning asosini tashkil etadi. Tenglik bilan bir qatorda, siyosiy adolat insonga, uning madaniy-siyosiy maqomiga munosabatni ham belgilab beradi.

**So'z erkinligini ta'minlash** – insonning fundamental va tabiiy huquqlaridan biri – o'z fikrini (xayolini) oshkora (og'zaki, yozma ravishda va/yoki ommaviy axborot vositalardan foydalangan holda) ifoda etish huquqini amalga oshirish uchun kompleksli shart-sharoitlarni yaratish.

**So'rov** – ariza beruvchining davlat xizmati ko'rsatilishi to'g'risida davlat organlariga yuboriladigan talabi;

**Sotsial** – lot. socialis – ijtimoiy, jamoatchilik; jamiyat va ijtimoiy munosabatlar bilan bog'langan.

**Sotsial almashinuv** – siyosatshunoslik, sotsiologiya, psixologiya, iqtisodda keng tarqalgan nazariya (P.Blau, J.Xomans, R.Emerson). Unga ko'ra 1) ijtimoiy munosabatlarning asosini turli sotsial ne'matlar bilan almashinuv tashkil etadi.

Uning asosida maqom, nufuz, hokimiyat singari tuzilmalar vujudga keladi; 2) inson xulq-atvorida uni muayyan «foйда» olishga da'vat etuvchi oqillik ustun turadi; 3) ijtimoiy ta'sirni odamlar o'rtasida doimiy sotsial «foйда» bilan almashinish jarayoni sifatida qaraydi.

**Sotsial-demokratik partiyalar** – partiyaviy-siyosiy maydonda so'l markazda joylashgan, ijtimoiy islohotlar, aralash iqtisodiyotni rivojlantirish, farovonlik davlatini barpo etishga oid keng ko'lamli dasturlar bilan chiquvchi siyosiy tashkilotlar. Sotsial-demokratik partiyalar turlicha nomlarga ega: sotsial-demokratik, sotsialistik, leyboristik, ishchi. Hozirgi kunda dunyoda bu yo'nalishda faoliyat ko'rsatuvchi qariyb 80dan ortiq partiyalar mavjud va ular saflarida 20 millionga yaqin a'zolari birlashtiradilar. Bu partiyalar uchun 200 milliondan ortiq saylovchilar ovoz beradilar. Bu partiyalarning yarmi oxirgi o'n yilliklar ichida hukumatlarni boshqarib keladi yoki hukmron Koalitsiyalar tarkibida faoliyat ko'rsatadi. Jumladan, bir partiyaviy hukumatlarni turli davrlarda Avstraliya leyboristik partiyasi, Avstriya sotsialistik partiyasi, Venesuela demokratik harakati, Ispaniya sotsialistik ishchi partiyasi, Norvegiya ishchi partiyasi, Shvetsiya sotsial-demokratik ishchi partiyasi va h.lar shakllantirganlar. Koalitsiyalar tarkibida Isroil Mehnat partiyasi, Italiya sotsialistik partiyasi, Finlyandiya sotsial-demokratik partiyasi va h.lar hukumatlarni boshqarganlar. Hozirgi kunda sotsial-demokratik partiyalar quyidagi siyosiy vazifalarni ilgari suradilar: ijtimoiy va iqtisodiy yangilangan sanoatlashgan tamaddunni yoqlaydilar; ijtimoiy davlatni kengaytirish, ijtimoiy va mintaqaviy imkoniyatlarni tenglashtirish; ishlab chiqarish texnologiyalarini rivojlantirishga ijtimoiy mas'uliyat bilan ko'maklashish; aralash iqtisodiyotda iqtisodiy demokratiya uchun; ish vaqtini qisqarishi sharoitida to'liq bandlik siyosati uchun; ayollar tengligi; birdamlikka asoslangan individualizm uchun; markaz qarorlarini mintaqaviy o'z-o'zini boshqaruv va nomarkazlashuv bilan birlashtiruvchi ijtimoiy demokratiya uchun. O'zbekistonda "Adolat" sotsial-demokratik partiyasi faoliyat ko'rsatadi. U 1995-yil 18-fevralida tashkil topgan. "Adolat" SDP o'z faoliyatida aholining o'rta va kam ta'minlangan qatlamlariga tayanadi va faoliyatida, avvalo, siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy adolat tamoyillaridan kelib chiqadi.

**Sotsial demokratiya** – ta'limot va harakat. Mazmuni – demokratik sotsializmga islohotlar yordamida asta-sekin o'tish. Belgilari: kundalik va pirovard maqsadlarning insoniyligi, ijtimoiy kollektivizm. Asosiy g'oyalari: har qanday diktaturaga yo'l qo'ymaslik; demokratik parlamentarizmga sodiqlik; siyosiy plyuralizm va konsensusga asoslanish; tinch demokratik vositalar ustunligi; iqtisodning davlat tamonidan tartibga solinishi va bozor mexanizmlarini rivojlantirish; mehnatkashlarni ijtimoiy himoyalash. Sotsial-demokratiya jamiyatni erkinlik, adolat va birdamlik asoslarida qurishni maqsad qilib qo'ygan, barcha mintaqalar va hokimiyatning turli darajalarida faol harakat qiluvchi zamona-mizning ta'sirchang siyosiy kuchi. Sotsial-demokratiya faoliyat ko'rsatishi uchun muayyan siyosiy sharoitlar mavjud bo'lishi lozim: demokratik hokimiyat institutlarining yuqori darajada barqarorligi, tegishli qonunlar bilan kafolotlangan siyosiy plyuralizm, huquqiy davlat va h. Sotsial-demokratiyalar bir qator umumiy belgilarga egalar: g'oyaviy jihatdan – demokratik sotsializm Konsepsiyasini na-faqat ideal, balki faoliyat jarayoni sifatida qarash; kasaba uyushmalari, jismoniy



va aqliy mehnat vakillarining turli qatlamlari bilan mustahkam, barqaror aloqalar mavjudligi; ayrim davlatlar bilan bog'liq muammolarni hal qilishda siyosiy konsensus tamoyiliga sodiqlik; ijtimoiy maqsadlarning iqtisodiy maqsadlardan ustuvorligini e'tirof etish.

**Sotsializm** – (lot. *socialis*) – zamonaviy ijtimoiy ishlab chiqarishning jamoaviy negizga ega ekanligini va ijtimoiy tenglik g'oyasini targ'ib etuvchi siyosiy va iqtisodiy g'oyalar tizimi va bu g'oyalar tizimiga asoslanuvchi iqtisodiy va ijtimoiy-siyosiy tartib. Sotsialistik g'oyalar tarixi juda qadimga borib taqalishiga qaramay (keyinchalik sotsialistik deb atalgan dastlabki nazariy fikrlar XVI asrda vujudga kelgan), faqat XIX asrning 30-yillariga kelibgina atama ijtimoiy manbalarda paydo bo'ladi. Atamani muloqotga olib kirgan odam Fransuz nazariyotchisi Per Ler hisoblanadi: u 1834-yilda "Individualizm va sotsializm to'g'risida" degan maqolani yozgan. XIX asrning oxirida nemis mutafakkirlari va jamoat arboblari K. Kautskiy va E. Bernshteyn, Vandervelde, Folmar, Joreslar tomonidan sotsial-demokratik mafkura asoslab berildi. Sotsial-demokratiya mafkurasi ijtimoiy mohiyatiga ko'ra islohotchi oqimdir. Unga binoan sotsializmga sinfiy kurash orqali, inqilobiy yo'l bilan emas, balki tinch, evolyustion yo'l bilan – burjua jamiyatini asta sekin isloh qilish bilan o'tiladi. Sotsializmning boshqa, so'l oqimi marksizm bo'lib, XIX asrning 40-yillarida K.Marks (1818-1883yy.) va F.Engels (1820-1895 yy.) tomonidan yaratilgan falsafiy, iqtisodiy va ijtimoiy-siyosiy nazariya ko'rinishini oldi. Keyinchalik marksizm va kommunistik mafkura atamaları sinonimlarga aylandi.

**Sotsietal** – (lot. jamoa) sotsiologiyada keng qo'llanuvchi atama. A.G.Keller tomonidan taklif etilgan. Butun jamiyat miqyosidagi munosabatlar va jarayonlarni bayon etish uchun qo'llaniladi.

**Sotsium** – lot. *socium*-umumiy, birgalikdagi; insonlar hayot faoliyati shart-sharoitlarini birligini xarakterlovchi ijtimoiy umumiylik, birlik.

**Spiker** – (ingl. notiq) ayrim mamlakatlarda quyi palataning raisi, ba'zi mamlakatlarda parlament raisi. O'zbekistonda Oliy Majlis Qonunchilik palatasiga spiker boshchilik qiladi.

**Stagnatsiya** – (lot. harakatsiz) ishlab chiqarish, savdo-sotiq, faoliyatdagi turg'unlik.

**Statik** – (gr. turuvchi) tinch yoki muvozanat holat.

**Statistik usullar** – tatbiqiy matematik statistikaga oid usullar va modellar birligi. Shartli ravishda ularni ikkiga bo'linadi. Birinchi guruhga: terma (tanlash) usuli, tavsiflovchi (ta'riflovchi) statistika, bog'liqlik va aloqalar tahlili, statistik xulosalar baholar va mezonlar nazariyasi, tajribani rejalashtirish usullari kiradi. Ikkinchi guruhga ko'p o'zgaruvchili usullar kiradi: darajalash; taksonomik tadbirlar; korrelyastion, faktorli, sababiy tahlil va bir guruh statistik modellar.

**Statistika** – (lot. holat) jamiyat rivojlanishini miqdor o'zgarishlarida o'rganuvchi fan. Ushbu miqdor o'zgarishlari ilmiy va amaliy maqsadlarda qayta ishlanadi va tahlil qilinadi.

**Status** – (lot. – *status* – holat, mavqe) ijtimoiy tizimda shaxs yoki guruhning boshqa shaxs yoki guruhga nisbatan tutgan o'rni. Iqtisodiy, siyosiy, mu-taxassislik va boshqa belgilarga ko'ra aniqlanuvchi maqom. Status (maqom)

– insonning jamiyat u yoki bu pog'onasidagi o'rni, bajaradigan roli, huquqlari va burchlarini aks ettiradi. U o'z ichiga obro'-e'tibor, sha'n, jamiyatdagi o'rni singari tushunchalarni qamraydi. An'anaviy jamiyatlarda maqom aniq, shakllanib bo'lgan tabiatga ega. Zamonaviy jamiyatlarda u nisbiy, o'zgaruvchan, ko'proq moddiy ta'minlanganlik, kasb yoki faoliyat turiga qarab belgilanadi. Status insonning kelib chiqishi, ma'lumoti, jinsi, irqiy yoki etnik mansubligi singari omillarga ham bog'liq. **Siyosiy maqom** insonning jamiyat siyosiy tizimidagi o'rnini yuridik belgilangan siyosiy huquqlari va erkinliklari hamda ularni qayd etuvchi siyosiy institutlar birligini anglatadi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining ikkinchi bo'limi inson va fuqaro huquqlari, erkinliklari va burchlariga bag'ishlangan. Konstitutsiyaning VII bobi "Shaxsiy huquq va erkinliklar" ga, VIII bobi "Siyosiy huquqlar" ga IX bob esa "Iqtisodiy va ijtimoiy huquqlar" ga bag'ishlangan. Ular mamlakatimizda inson maqomini, shu jumladan, uning siyosiy maqomini, aniqlashning bosh tamoyillarini aks ettiradi. O'zbekiston Konstitutsiyasida qayd etilgan huquq va burchlarni hech kim sud qarorisiz o'zgartirishi yoki cheklashi mumkin emas (19-modda). Bir inson va fuqaro huquq va erkinliklarining amalga oshirilishi boshqa shaxslar, davlat va jamiyatning qonuniy manfaatlari, huquq va erkinliklari buzilishiga olib kelmasligi kerak (20-modda). Barcha fuqarolar bir xil huquq va erkinliklarga ega va jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsiy va ijtimoiy maqomidan qat'i nazar qonun oldida tengdirlar(18-modda).

**Status-kvo** – lot. ayni vaqtda mavjud holat. Uni tiklash, o'zgartirishlar ro'y bergunga qadar mavjud bo'lgan holatni tiklashni anglatadi.

**Stimul** – (lot.) faoliyatga undovchi turtki, sabab.

**Stixiya** – (gr. element) hech narsa bilan tutib turish mumkin bo'lmagan kuch.

**Strata** – (lot. stratum)–qatlam. Strata – barqaror ijtimoiy jamoa, sinf, birgalikda faoliyat ko'rsatuvchi odamlar tuzilmasi. Stratani ajratish asosida odamlarning jamiyatdagi ahvoli qiyoslanuvchi biror resurs yotadi. U yoki bu resursga egalik guruhning jamiyatdagi maqomini aniqlash va shu asosda guruhlarini bir-biridan ajratish imkonini beradi.

**Stratifikatsiya** – (lot. qatlam) ijtimoiy guruhlar o'rtasida doimiy mavjud tengsizlik munosabatlari, shuningdek, guruhlar egallagan ijtimoiy mavqedan kelib chiquvchi ularning huquq va burchlari, qatlamlashuv.

**Struktura** – lot. qurilma, tuzilish. **Struktura** (lotincha "structura" – "tuzilma", "tuzilish") – obyektning bir butunligini va uning o'ziga o'zi aynanligini, ya'ni turli ichki va tashqi o'zgarishlarda o'zining asosiy xususiyatlarini saqlay olishini ta'minlovchi barqaror aloqalar yig'indisidir.

**Sub...** – (lot. tagida) nimanidir tagida bo'lishini yoki itoat, qaram, quyi mavqeni egallashni anglatuvchi qo'shimcha.

**Submadaniyat** – (lot. sub – tagida) biror ijtimoiy, siyosiy yoki demografik guruh madaniyati.

**Subordinatsiya** – (lot.) tartibga keltirish; xizmat intizomi qoidalariga tegishli holda martaba darajalari bo'yicha kichik mansabdorlarni katta mansabdorlarga bo'ysunishiga qat'iy amal qilish.

**Substansional** – (lot. mohiyat) muhim, asosiy, mohiyatiga tegishli.

**Subvensiya** – (lot.-subvenire – yordamga kelish) davlat tomonidan mahalliy hokimiyatga beriladigan yordam pulining ko‘rinishi bo‘lib ma‘lum maqsad uchun aniq muddatga beriladi. Dotatsiyadan farqi shundaki, agar ushbu pullar aniq maqsad uchun va berilgan muddatda sarflanmasa, qaytarib olinadi.

**Suveren** – (fran. souverain – oliy) suverenitetga ega bo‘lish, mustaqil, qaram bo‘lmagan ma‘nolarini beradi.

**Suverenitet** – (fr. oliy hokimiyat egasi) davlat mustaqilligi; oliy hokimiyatning yolg‘iz unga tegishliligi.

**Segregatsiya** – (lot. ajratish, chetlatish) irqiy kamsitishning bir turi. Unga ko‘ra biror irq vakillariga boshqalar bilan shaharning bir qismida yashash, bir maktabda o‘qish, teatr, restoranlarga kirish va h.k.lar taqiqlangan. Tarixda yahudiylar, negrlarga nisbatan faol qo‘llangan.

**Sektorlararo nazariya** – ijtimoiy sheriklikning uch sektor: davlat organlari, biznes vakillari va fuqarolik jamiyatining institutlari o‘rtasidagi munosabatlarni tartibga solishi to‘g‘risidagi nazariya.

**Sekulyar** – (lot. dunyoviy) ijtimoiy, siyosiy sohalarning din ta‘siridan xalos bo‘lishi, dunyoviyliigi.

**Separat shartnoma** – dushman bilan unga qarshi kaolitsiyadagi o‘z ittifoqchilaridan alohida tuziluvchi shartnoma.

**Separatizm** – (lot. ajralgan) ajralishga, bo‘linishga intilish. Kichik millatlarining mustaqil davlat tuzishga intilishida namoyon bo‘ladi.

**Sessiya** – xalq deputatlari viloyat, tuman, shahar Kengashining asosiy ish shakli. Xalq deputatlari viloyat, tuman, shahar Kengashining sessiyalari tegishli hokim, hokim yo‘kligida esa uning o‘rinbosarlaridan biri tomonidan zaruratga karab biroq, yiliga kamida ikki marta chaqiriladi. Sessiya, shuningdek xalq deputatlari tegishli Kengashi deputatlari kamida uchdan ikki kismning tashabbusiga binoan ham chaqirilishi mumkin.

**Soliq** – Soliq kodeksida belgilangan, muayyan miqdorlarda undiriladigan, muntazam, qaytarib berilmaydigan va beg‘araz xususiyatga ega bo‘lgan, byudjetga yo‘naltiriladigan majburiy pul to‘lovi. Har bir shaxs qonunda belgilangan soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarni to‘lashi shart. Soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar aniq bo‘lishi kerak. Soliq solish umumiydir. Soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar bo‘yicha imtiyozlarni belgilash ijtimoiy adolat prinsiplariga mos bo‘lishi kerak. Soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar bo‘yicha yakka tartibdagi xususiyatga ega bo‘lgan imtiyozlar berilishiga yo‘l qo‘yilmaydi.

**Sug‘urta** – yuridik yoki jismoniy shaxslar to‘laydigan sug‘urta mukofotlaridan shuningdek, sug‘urtalovchining boshqa mablag‘laridan shakllantiriladigan pul fondlari hisobidan muayyan voqea (sug‘urta hodisasi) yuz berganda ushbu shaxslarga sug‘urta shartnomasiga muvofiq sug‘urta tovonini (sug‘urta pulini) to‘lash yo‘li bilan ularning manfaatlarini himoya qilish tushuniladi. O‘zbekiston Respublikasining sug‘urta faoliyati to‘g‘risida qonuni 2002-yil 5 aprelda qabul qilingan.

**Sug‘urta kafolati** – ma‘lum bonus evaziga sug‘urta kompaniyasining eksportyorlarni (kreditorlar)ga zararini qoplash haqida majburiyati.

**Sentrizm** (nem. *zentrismus*) – siyosiy kuchlar ongi va faoliyatining holati;

mo'tadil, kompromisli, yirik ijtimoiy negizga asoslanuvchi oqilona harakatlar, o'ng va so'l radikalizmdan qochib, turli siyosiy kuchlarning qarashlarini mo'tadil islohotchilik asosida birlashtirishga harakat qiluvchi siyosiy yo'nalish. Siyosatda Sentristlar deb "o'ng" va "so'l" lar o'rtasida, ya'ni markazda joylashgan siyosiy guruhlarini nomlaydilar. Sentristlar ikki yonlaridagi siyosiy kuchlarga xos keskinlikni yumshatadilar, ularning hatolarini takrorlamaydilar, siyosiy masalalarni oqilona qo'yilishi va hal etilishi hamda jamiyat va davlat institutlarining jiddiy o'zgarishiga olib kelmaydigan mo'tadil vositalarni qo'llash tarafdoridirlar.

**Senz** – (lot. ro'yxat qilaman) cheklash; shaxslarga muayyan siyosiy (avvalo saylov) huquqlaridan foydalanishda qo'yiladigan cheklovchi shartlar. **Saylov senzi** – Konstitutsiya yoki saylov to'g'risidagi qonun bilan belgilangan saylov huquqini olish yoki amalga oshirish shartlari. Turli mamlakatlarning amaliyotida yosh, fuqarolik, savodlilik, ma'lumot, mulk, turg'unlik, til va boshqa saylov stenzlari mavjud.

**Sinizm** – gr. behayolik, surbetlik bilan umumiy axloqiy qoidalarni rad etish, ularga nafrat bilan qarash.

**Sirkulyatsiya** – lot. aylanma harakat. Masalan, elitalar stirkulyatsiyasi deyilganda – elitalarining almashinuvi jarayoni nazarda tutiladi.

**Sivilizastion yondoshuvning** – mohiyati shundaki, u insoniyatning tarixiy taraqqiyotini o'ziga xos milliy madaniyatlar rivojlanishi va almashinishi jarayoni tarzida aks ettiradi. Unga ko'ra tarixiy jarayon – sivilizatsiyalar almashinuvi jarayonidir. Bir sivilizatsiyaning ikkinchisidan farqi o'ziga xos qadriyatlar tizimi bilan belgilanadi. Har bir sivilizatsiyaga muayyan falsafa, ijtimoiy ahamiyatga molik qadriyatlar, dunyo haqidagi tasavvurlar, muayyan turmush tarzi va muayyan hayotiy tamoyillar xos. Shu bilan birga «... jamiyatlar madaniyatlarini institutlashirgani tufayli ular boshqa madaniyatlar bilan muloqot uchun tashqi ta'sirlarga ochiq, yopiq (biologik) tur genetik tarkibidan farqlicha... turli madaniyatlar muayyan sharoitlarda samarali o'zaro aloqaga kirisha oladi».

## T

**Tabaqa** (qatlam) – o'xshash kasb-hunar, mashg'ulot, holati va ahvoli bilan manfaatlar umumiyligi asosida birlashgan shaxslarning yirik guruhi.

**Tabiiy huquqlar** – liberalizm vakillari asoslagan va insonning yashashga, erkinlikka, mulkka, istibdodga qarshilik ko'rsatishga yo'naltirilgan huquqlarini tabiiy, begonalashmaydigan va muqaddas deb biluvchi huquqlar tizimi. Bunda tabiiylik – ular insonga tug'ilishidan tegishiligin, begonalashmaslik – ularsiz inson o'z sifatlarini namoyon qila olmasligini, muqaddasligi – inson huquqlari oliy qadriyat ekanligini anglatadi.

Tabiiy resurslar uchun to'lov – yer, suv, qazilma boyliklaridan foydalanganlik uchun korxonada daromadidan davlat byudjetiga to'lanadigan to'lov, joriy normativlar bo'yicha belgilanadi. Ushbu mablag'lar, birinchi navbatda, tabiat muhofazasi tadbirlariga sarflanadi.

**Tadbirkorlik** – amalda qabul qilingan qonunlar doirasida korxonada, firma tashkil qilish, foyda olish maqsadida mahsulot ishlab chiqarish (yoki xizmat

ko'rsatish) bilan shug'ullanuvchi faoliyat. Tadbirkorlik faoliyati bir yoki bir necha xususiy va huquqiy shaxslar mulklarini yoki qarzga olgan mulk, to'lov vositalarini ishga solish orqali amalga oshiriladi. O'zbekistonda tadbirkorlik faoliyatining sohiblari: 1) respublika fuqarolari; 2) bir guruh fuqarolar (mehnat jamoalari va boshqalar); 3) chet ellik fuqarolar yoki xususiy shaxslar; 4) respublika fuqarosi bo'lmagan shaxslar (o'z vakolatlari doirasida); 5) qo'shma mulk egalari.

**Tadbirkor** – iqtisodiy resurslarini bir-biriga qo'shilishini ta'minlaydigan tashkilotchi, yangilikka intiluvchi, tashabbuskor, iqtisodiy va boshqa xavfdan, javobgarlikdan qo'rqmaydigan kishilar. Bunday xislatlar tadbirkorlik qobiliyati deb yuritiladi.

**Tabu** – (polinez.) 1) biror narsa, harakat, so'z va h.k.ga solinadigan diniy taqiq. Uni buzish go'yo falokatga olib kelishi mumkin; 2) taqiqlangan narsalar, savollar, fikrlar, so'zlar va h.k.

**Takroriy ovoz berish** – ovoz berishning birinchi turida eng ko'p, ammo saylanish uchun qonunda ko'zda tutilgan zaruriy miqdordan kam ovoz olgan nomzodlar bo'yicha o'tkaziladigan ovoz berish. Takroriy ovoz berish "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylov to'g'risida" hamda "Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlariga saylov to'g'risida"gi qonunlarga muvofiq tashkil etiladi va o'tkaziladi. Agar saylov okrugi bo'yicha deputatlikka ikki nafardan ortiq nomzod qo'yilgan bo'lsa-yu, ulardan birontasi ham saylanmasa, okrug saylov komissiyasi eng ko'p ovoz olgan ikki nafar nomzod bo'yicha okrugda takroriy ovoz berishni o'tkazish haqida qaror qabul qiladi va bu haqda yuqori turuvchi saylov komissiyasi hamda okrug saylovchilarini xabardor etadi. Takroriy ovoz berish saylov to'g'risidagi qonunchilik talablariga rioya etgan holda ikki hafta ichida o'tkaziladi. Takroriy ovoz berishda ishtirok etgan saylovchilarning ovozini boshqa nomzodga nisbatan ko'proq olgan deputatlikka nomzod, basharti uni yoqlab berilgan ovozlar soni unga qarshi berilgan ovozlar sonidan ko'p bo'lsa, saylangan deb hisoblanadi. Mabodo avvalgi ovoz berish yakunlariga ko'ra takroriy ovoz berish jarayonida qatnashishi zarur bo'lgan nomzodlardan biri ovoz berish kuniga qadar o'z nomzodligidan voz kechsa, u holda saylov yakunlarini belgilash bo'yicha mas'ul saylov komissiyasining qaroriga asosan, avvalgi ovoz berishda to'plagan ovozlari soniga qarab navbatdagi nomzod uning o'rnini egallaydi. Takroriy ovoz berishni o'tkazish davrida barcha nomzodlar o'z nomzodligidan voz kechishi tufayli takroriy ovoz berish kuni saylov byulletenida faqat bitta nomzod qolgan taqdirda, ana shu bir nomzod bo'yicha takroriy ovoz berish belgilanishi mumkin. Bunda nomzod ovoz berishda qatnashgan saylovchilardan kamida 50 foizining ovozini olsa, saylangan hisoblanadi. Takroriy ovoz berishni o'tkazish davrida saylovoldi tashviqoti takroriy ovoz berishni tayinlash to'g'risidagi qaror rasmiy e'lon qilingan kundan boshlanadi hamda takroriy ovoz berish kuni arafasida tungi soat 12 da to'xtatiladi.

**Takroriy saylov** – Deputatning takroriy saylovi quyidagi hollarda o'tkaziladi: agar saylov okrugida saylov o'tmagan yoki haqiqiy emas deb topilgan bo'lsa; agar takroriy ovoz berish Qonunchilik palatasiga deputat saylanganligini aniqlash imkonini bermagan bo'lsa; agar saylov okrugi bo'yicha deputatlikka ko'pi bilan ikki nomzod ovozga qo'yilgan va ulardan birontasi ham saylanmagan

bo'lsa. Deputatning takroriy saylovi yuqori turuvchi saylov komissiyasining topshirig'iga binoan okrug saylov komissiyasi tomonidan o'tkaziladi. Bunda yuqori turuvchi saylov komissiyasi takroriy saylov yangi tarkibdagi okrug va uchastka saylov komissiyalari tomonidan o'tkazilishi zarurligi to'g'risida qaror qabul qilishi mumkin. Ovoz berish asosiy saylov o'tkazish uchun tuzilgan avvalgi saylov uchastkalarida va saylovchilarning ro'yxatlari bo'yicha o'tkaziladi. Deputatning takroriy saylovi asosiy saylovdan keyin ko'pi bilan bir oylik muddat ichida o'tkaziladi. Saylov komissiyalarini tuzish, deputatlikka nomzodlarni ro'yxatga olish va boshqa tadbirlar O'zbekiston qonunchiligida belgilangan tartibda o'tkaziladi.

**Tamoyil** – (lot. asos, birlamchi asos) nazariya, fan, siyosatda asosiy boshlang'ich qoida, bosh g'oya; faoliyat, xulq-atvorlarning bosh qoidasi, tamoyili.

**Taraqqiyot** – jamiyat rivojlanishining oddiydan murakkabga, quyidan yuqoriga yo'nalgan, bir sifat bosqichidan yangi sifat bosqichiga o'tishi jarayoni.

**Taraqqiyotning "O'zbek modeli"** – istiqolning dastlabki yillarida O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.A.Karimov rahbarligida ishlab chiqilgan islohotlar strategiya bo'lib, taraqqiy topgan mamlakatlarning bozor munosabatlariga o'tish tajribasi, mamlakatimiz boshidan kechirgan tarixiy sinovlar va ularning saboqlari, xalqimizning turmush va tafakkur tarzi asos qilib olindi. Shu tariqa yurtboshimiz tomonidan jamiyatni isloh etishning chuqur ilmiy asoslangan quyidagi besh tamoyili vujudga keldi: **birinchi tamoyil: iqtisodiyotning siyosatdan ustunligi; ikkinchi tamoyil: davlat – bosh islohotchi; uchinchi tamoyil: jamiyat hayotining barcha sohalarida qonunning ustuvorligi; to'rtinchi tamoyil: aholining demografik tarkibini hisobga olgan holda, kuchli ijtimoiy siyosat yuritish; beshinchi tamoyil: bozor iqtisodiyotiga obyektiv iqtisodiy qonunlarning talablarini hisobga olgan holda, tadirijiy asosda, puxta o'ylab, bosqichma-bosqich o'tish.**

**Tashabbus** – lot. inistiativa initiative-tashabbus; qandaydir ishni boshlashga undash, ishbilarmonlik; muhokama qilish uchun takliflar berish.

**Tashqi siyosat** – xalqaro maydonda davlatlar va xalqlar o'rtasidagi munosabatlarni tartibga solishga oid siyosat. Tashqi siyosat milliy manfaatlarni aks ettiradi. Ularni ro'yobga chiqarar ekan, davlat o'zining tashqi siyosiy faoliyatini amalga oshiradi. Bunda turli usullar qo'llanadi. Eng muhim usul – diplomatiya. Har qanday davlatning tashqi siyosati uning ichki siyosatining davomi bo'lib, o'zida shu davlat va jamiyat belgilarini mujassam etadi. Tashqi siyosat – muayyan davlatning boshqa davlatlar bilan munosabatlarini boshqarishga oid barcha masalalarni qamraydi. Har qanday davlatning tashqi siyosati avvalo o'z xalqi (millati) manfaatini ta'minlash bilan bog'liq. Shu bilan birga, xalqaro maydonda davlat siyosati tashqi omillar ta'sirida ham shakllanadi. O'zbekiston Respublikasining «O'zbekiston Respublikasining Tashqi siyosiy faoliyati konsepyasini tasdiqlash to'g'risida»gi qonuni 2012-yil 10-sentyabrda qabul qilingan.

**Tashviqot materiallari** – ommaviy tarqatishga mo'ljallangan, saylovoldi tashviqotiga xos mazmunga ega bo'lgan matbuot, aaudiovizual va boshqa turdagi materiallardir. Agar material saylovchilarni saylovda qatnashish va muayyan nomzodlarni qo'llab-quvvatlab yoki ularga qarshi ovoz berish uchun undash,

tashviq etish maqsadida tarqatiladigan bo'lsa, u tashviqot materiali, deb tan olinadi. Tashviqot materiallari ularni tayyorlashning texnik usullari va axborotni moddiy tashish usullariga ko'ra matbuot, audiovizual, qo'lyozma, mashinka yo-zuvi va stend materiallari kabi ko'rinishlarda bo'lishi mumkin.

**Tavtologiya** – (gr. o'sha so'zning o'zi) avval aytilganlarni boshqa tarzda ifodalagan ta'rif yoki tushunchani yana shu tushuncha orqali ta'riflash. Masalan, siyosat – “siyosat to'g'risidagi fan” ta'rifi – tavtologiyadir.

**Teleologiya** – (gr. maqsad – ta'limot) dunyoda maqsadga muvofiqlik va insonga bog'liq bo'lmagan obyektiv maqsadlar borligi haqidagi ta'limot.

**Tendensiya** – (lot. yo'naltirish, intilish) 1) biror narsaga intilish, moyillik; 2) biror holat, hodisa rivojlanishi yo'nalishi.

**Tender** – (ingl. xizmat ko'rsatmoq) buyurtmalarni joylashtirishning tanlov shakli. U buyurtmachi tomonidan turli obyektlarni qurish, har xil xizmatlarni bajarishga pudratchilarni jalb qilish va boshqa tadbirlar uchun uyushtiriladi.

**Tender** – biror bir ishni amalga oshirish uchun e'lon qilingan tanlov. Xaridor yoki buyurtmachi eng avvalo tanlov e'lon qilib, tanlov shartlari bilan tanishtiradi. Tanlovda ishtirok etish niyatini bildirgan firmalar, korxonalar va tashkilotlar o'z takliflarini – tenderlarni buyurtmachiga ko'rib chiqish uchun yuborishadi.

**Tenglik** – 1) ijtimoiy tenglik – jamiyatda odamlarning ijtimoiy ahvoli bir xilligini anglatuvchi tushuncha. Liberal talqinda – «imkoniyatlar tengligi»; 2) siyosiy tenglik – barcha fuqarolar huquqlar va erkinliklar jihatidan bir xildaligi (garchand ular o'zlari ega siyosiy va boshqa resurslarga ko'ra farqlansalarda) va ularning kafolatlanganligi.

**Teokratiya** – (yun. ilohiy hokimiyat) siyosiy hokimiyat din peshvolariga tegishli bo'lgan davlat boshqaruvi usullaridan biri. Teokratiya m.a. V-I asrlarda mavjud bo'lgan. Teokratik davlatlarga halifaliklar ham misol bo'la oladi. Zamonaviy teokratyalarga misol: Saudiya Arabistoni, Eron Islom Respublikasi, Vatikan. Zamonaviy Vatikan 44 gektar erini egallaydi, 1929-yilda tashkil topgan, uning boshlig'i – Rim papasi monarxning cheklanmagan hokimiyatiga ega. Vatikanning ma'muriy ishlarini kardinallar qo'mitasi va papa tomonidan tayinlangan gubernator amalga oshiradilar. Diniy va siyosiy masalalarni rim kuriyasi (hukumati) bajaradi. Kuriya rahbari (premer-ministr) kardinal-stats-sekretar, ayni vaqtda tashqi ishlar vaziri hamdir. Papa birinchi Prezidenti sinod – katolik cherkovlarining oliy maqomli peshvolaridan iborat kengash faoliyat ko'rsatadi. Vatikanda dunyodagi 125 mamlakat vakolatxonalar mavjud. U BMTda taqdim etilgan. Vatikan, Eron islom respublikasi singari davlatlar misolida bugungi kunda teokratiyani anaxronizm deb atash mumkin emasligini ko'ramiz.

**Terroristik harakat** – konstitutsion tuzum asoslariga, davlat xavfsizligiga qarshi qaratilgan jinoyat.

**Terrorizm** – (lot. terror – qo'rquv, daxshat) qo'rqitish siyosati, siyosatda zo'ravonlik – siyosiy motivlarga ko'ra alohida shaxslar joniga suiqasd, ommaviy jismoniy qurbonlar bilan bog'liq jinoyatlar sodir etishga qaratilgan faoliyat. Davlatlar, tashkilotlar, guruhlar tomonidan sodir etilishi mumkin. Tarixda diniy va dunyoviy hayotda siyosiy kurash vositasi sifatida keng qo'llanilgan. Ayniqsa, o'tish davri jamiyatlarida faollashadi. Hozirgi kunda terrorizm o'akllari va amal-

ga oshirish usullari yangilanib bormoqda. Terroristik faoliyat tobora xilma-xil, shafqatsiz va ayyorona tus olmoqda. Xalqaro terrorizmga qarshi turish uchun xalqaro hamkorlik samarali vosita bo'lib xizmat qiladi. Hozirgacha BMTning terrorizmga qarshi 13 hujjati qabul qilingan: 11 konvensiya va ikki protokol. O'zbekistonda ham xalqaro terrorizmga qarshi turish masalalariga katta e'tibor berilmoqda. Xalqaro terrorizm aktlari O'zbekistonda 1999-yil fevralida to'qnash kelgan. O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.A. Karimov xalqaro tashkilotlar – BMT, OBSE, Shanxay hamkorlik tashkiloti, SEAP – minbarlaridan turib dunyo miqyosida terrorizmga qarshi kurashda hamkorlikni kuchaytirish zarurligini bir necha bor uqtirgan. 1999-yil noyabrda OBSE ning Istanbul sammitida O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.A. Karimov BMT tarkibida terrorizmga qarshi kurash xalqaro markazini (TKXM) tashkil etish tashabbusi bilan chiqdi. Bu tashabbus 2000-yil 7-8-sentyabrda Nyu-Yorkda o'tgan BMTning Ming yillik Sammitida ham takror bayon etildi. AQSH dagi 2001-yil 11-sentyabridagi voqealardan keyingina, aniqrog'i, 2001-yilning 28-sentyabrda, BMT ning Xavfsizlik Kengashi 1373 (2001) – sonli rezolyutsiyasi bilan terrorizm bilan kurash qo'mitasini tashkil etdi (TKQ). Qo'mita xalqaro terrorizmni moliyaviy lashtirishning oldini olish borasida katta vakolatlarga ega bo'ldi. Qo'mita faoliyatida TKXM Konsepsiyasi aksini topgan. Hozirgi kunda O'zbekiston BMT Xavfsizlik Kengashining Terrorizm bilan kurash qo'mitasi faoliyatida, MDH ning antiterroristik Markazi ishida ishtirok etadi, tegishli faoliyatni Shanxay hamkorlik tashkiloti doirasida olib boradi va antiterroristik kuchlar xalqaro Koalitsiyasi harakatlariga faol yordam beradi. 2000-yil dekabrda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining "Terrorizm bilan kurash to'g'risida" gi qonuni milliy xavfsizlikni ta'minlashda katta ahamiyatga ega. Bunday hujjatlar dunyodagi hamma davlatlarda ham mavjud emasligini alohida ta'kidlash zarur. O'zbekiston BMT qabul qilgan terrorizm bilan kurashga doir amaldagi barcha konvensiya va protokollarning ishtirokchisidir.

**Texnokratiya** – (gr. mahorat, hunar + hokimiyat) amerikalik iqtisodchilar G.Skott, T.Veblenlar XX asrning 20-yillarida ishlab chiqqat ta'limot. Unga ko'ra zamonaviy jamiyatlarni menedjerlar, zamonaviy bilim, madaniyat va ixtisoslikka ega texnik xodimlar boshqaradi. D.Belning «yangi sinf» nazariyasi ham shularga yaqin bo'lib, unga ko'ra zamonaviy jamiyatlarni qobiliyatli va munosib insonlar boshqaradi (meritokratiya). Shu ta'limot doirasida qaraluvchi «kibernetik elita» nazariyasiga ko'ra (K.Shtaynbux) zamonaviy jamiyatlarda hokimiyat ekonomistlar, matematiklar, programmistlarga tegishli bo'lishi lozim. «Kompyuter demokratiyasi» nazariyasiga ko'ra zamonaviy jamiyatlarda shaxsiy kompyuterlar, kabel televideniya, yangi axborot kanallarining tarqalishi ziddiyatlarni elektronika yordamida hal qilish imkonini beradi. M.Dyuverje 1972-yilda kiritgan "texnodemokratiya" atamasi ham qo'llanadi. Texnokratiyaning nazariy asosini "texnologik determinizm", ya'ni texnik muhitning ijtimoiy-siyosiy shart-sharoitlar va ijtimoiy taraqqiyotga bog'liq emasligi, aksincha, bu jarayonlar texnik taraqqiyot bilan belgilanishi tashkil etadi.

**Texnologik determinizm** – ijtimoiy rivojlanishning asosini ishlab chiqarishning texnik va texnologik tuzilmalari o'zgarishlariga bevosita bog'laydi. Unga



ko'ra texnik-texnologik har bir muhim o'zgarish ijtimoiy tuzilmalarni va ular o'rtasidagi munosabatlarni o'zgartiradi. Bu yondoshuv industrial, postindustrial, texnotron, axborot jamiyatlari Konsepsiyalari uchun xos. Ikki asosiy yo'nalishi 1) evdemonizm (gr. baxt) ilmiy texnik inqilob o'z-o'zidan barcha muammolarni hal qilishidan kelib chiqsa; 2) alarmizm (fr. xavotir) ilmiy texnik inqilobning salbiy oqibatlariga diqqatni qaratadi.

**Texnologiya** – (gr. mahorat, hunar + ta'limot) vosita va usullar to'g'risidagi bilimlar birligi.

**Tezis** – (gr.) muallif yoki notiq himoya qilishi lozim bo'lgan ehtimol, fikr.

**Timokratiya** – (gr. baho, to'lov) Aflotun "Davlat" asarida tahlil qilgan salbiy boshqaruv shakllaridan biri. Mulk senziga asoslangan boshqaruv.

**Tinchlik** – insonning hayotiy ehtiyoji, emin-erkin yashashi va kamol to-pishining eng zarur omili.

**Tiran** – (gr.) qadimgi Gretsiyada hokimiyatni zo'rlik bilan egallagan shaxs.

**Tiraniya** – zulmga, istibdodga asoslangan boshqaruv.

**Turmush sifati indeksi** – ushbu ko'rsatkichlarga quydagilar kiradi: sog'lqni saqlash holati, ta'lim darajasi, 'racha umr kechirish yoshi, bandlik darajasi, ijti-moiy – siyosiy hayotdagi faollik.

**To'g'ridan-to'g'ri demokratiya modeli** – Politologlar xalq hokimiyatining mukammal shaklini Yunonistonning shaxar-davlatlari bilan bog'laydilar. Yu-nonistondagi demokratiya jamoa a'zolarining jamoa ishlarida to'g'ridan-to'g'ri ishtirokiga asoslangan. Demokratiyaning bu elementlari hamma xalqlarda uchraydi. Siyosatning murakkablashib borishi, ya'ni ko'plab manfaatlarning ajralib chiqishi bilan hukmronlik-itoat munosabatlari qaror topdi. Hokimiyat pog'onaviy tus oldi. Yunon davlatchiligi tarixi ana shu munosabatlarning (avtoritar) mazmunini yangi, demokratik ma'no bilan to'ldirdi. "Hokim – oq suyak – zodagonlar – demos (xalq)" pog'onaviy hukmronlik tartibi o'rmini "xalq yig'ini – (chek tashlash, saylash, rotatsiya asosida tayinlanuvchi) lavozim egalari – yetakchi" munosabatlari egaladi. Yig'in – hokimiyatni tayinladi, ya'ni oliy hukm-ron ustidan hukmronlikka ega bo'ldi, xalq – hokimiyatning manbayiga aylan-di. Bu davrning o'zida demokratiya rivojida ikki yo'nalish belgilandi. Birinchisi, o'z-o'zini boshqaruvchi, ya'ni fuqarolarning to'g'ridan-to'g'ri ishtirokini nazarda tutuvchi tartib va ikkinchisi, umumxalq demokratiyasi, ya'ni xalqni hokimiyat-ning manbayi sifatida qarab, uning nomidan hokimiyati amalga oshiruvchi tartib. Greklar avvalo tushunchaning o'zini kiritganlar. Qadimgi shahar-davlatlar – polislarda aholi tenglik va to'g'ridan-to'g'ri saylovlar vositasida hokimiyatni shakllantirgan. Qadimgi Yunon demokratiyasining mohiyatini barchaning fero-nonligini ta'minlash, fuqarolarning qonunlar, shahar konstitutsiyasi, ijtimoiy tartibga bo'ysunishi, adolatga erishish tashkil etar edi. Greklar tasavvurida demokratik tartib quyidagi talablarga javob berishi kerak bo'lgan: fuqarolarning manfaatlari yaqin bo'lishi kerak bo'lgan; fuqarolar imkoniyatlari, bo'sh vaqtlari, tili, dini, ta'lim darajasi nuqtayi nazaridan teng bo'lishlari, shuningdek, irq, etnik kelib chiqishi, madaniyati jihatidan ham farq qilmasliklari kerak bo'lgan; fuqa-rolar soni kam bo'lishi (eng ma'quli 40-50 mingdan oshmasligi) kerak; fuqarolar majlisda qatnashishlari, qonunlarni o'zlari bevosita tasdiqlashlari va siyosiy

qarorlarni qabul qilishlari kerak; fuqarolar boshqaruv ishlarida ishtirok etishlari kerak; shahar-davlat mustaqil bo'lishi, o'z-o'zini boshqarishi, nafaqat siyosiy, balki iqtisodiy va harbiy jihatdan ham o'z-o'zini ta'minlay olishi kerak. Qadimgi Yunonistonda xalq hokimiyatini "demokratiya", Qadimgi Rimda esa mavjud tuzumi respublika deb atashgan, lekin ular deyarli bir ma'noda qo'llangan. Qadimgi Yunonistondagi demokratiya modeli to'g'ridan-to'g'ri, Qadimgi Rimdagi demokratiya esa – vakillik demokratiyasi edi.

**Tolerantlik** – (lot.) sabr-toqatlilik o'zgalari fikri, e'tiqodi, turmush tarzi, an'analari, qadriyatlari, g'oyalari, xulq-atvoriga toqatlilik, bag'ri kenglik. Tolerantlikka asoslangan siyosiy madaniyat qonun doirasidagi har qanday siyosiy faoliyatga nisbatan toqatlilikni anglatadi. Tolerantlik rasmiy, mazmunli, mavhum, amaliy va b. bo'lishi mumkin. Tolerantlik siyosiy plyuralizmga tugal tarzda namoyon bo'ladi. **Tolerantlik** – fr. tolyrant (lat. Tolerans-tolerantis) hozirgi o'zbek tilida lug'aviy tarjima qilganda chidamlilik, sabrlilik, bardoshlilik, toqatlilik ma'nolarini anglatadi. Antik davr va o'rta asrlarga qadar asosan tabobat sohasida keng istifoda etilgan mazkur tushuncha hayvonlar va insonlar organizmlarining turli-tuman kasalliklar, jarohatlar va umuman, hayot uchun kurashish jarayonlariga doir immun qobiliyatini o'rganish masalalariga aloqador bo'lgan. Keyinchalik boshqa fanlar doirasida ham e'tiborli asarlar yaratgan mashhur tabobat olimlari va aksincha, tabobat borasida ham diqqatga sazovor fikrlar bildirgan boshqa soha olimlari mazkur tushunchani kengroq ma'noda qo'llay boshlaganlar (Epimenid, Gorgiy, Aristotel, Epiktet, Ibn Sino). XX asrga qadar tolerantlik tushunchasining ayniqsa din bilan bog'liq muruvvat ma'nosidagi talqinlariga ko'p duch kelish mumkin. Lekin mazkur asr boshlaridan texnika taraqqiyoti va uning asosida mehnatni tashkil etish munosabatlarining jadal rivojlanishi natijasida tolerantlik tushunchasi davlat va xalq munosabatlarida, ayniqsa huquqiy munosabatlar tizimida keng mazmun kasb etadi. Endi tushuncha chidam, sabr-toqat ma'nolarini yo'qotmagan holda ko'proq bag'rikenglik, hamjihatlik, hamkorlik kabi mazmunda talqin etila boshlandi.

**Totalitar** – (lot. totalis-butun, to'la, bir butun); davlat hokimiyati organlari tomonidan jamiyat hayotining hamma sohalarini nazorat qiladigan davlat shakli, amalda konstitutsion huquq va erkinliklarni tugatilishi; bu rejimda davlat hokimiyati biron-bir guruh (siyosiy partiya) qo'lida to'planib, mamlakatda demokratik erkinliklar va siyosiy muxolifatni amal qilishi uchun imkoniyatlar bo'lmaydi.

**Totalitarizm** – (lot. yalpi, yaxlitlik, to'lalik) XX asrda vujudga kelgan siyosiy tizim turi: unda siyosiy hokimiyat jamiyatning barcha sohalarini to'liq, total nazorat qilishga intiladi. Siyosiy nutqqa bu atamani 1923-yilda italiyalik liberallar Djovanni Amendola va Pierro Gobettilar italiyadagi fashizmni avvalgi diktaturalardan farqini ko'rsatish uchun kiritganlar. Mussolini va uning tarafdorlari atamani ijobiy talqin qilganlar: totalitar ruh, totalitar iroda, totalitar davlat ustunligini ko'klarga ko'targanlar. XX asr 30-yillari o'rtalaridan Natsizm va stalinizmga nisbatan salbiy ma'noda qo'llandi. F.Xayek «Qullikka yo'l» kitobida totalitarizm genezisi liberal va sotsialistik g'oyalarga qarshi, insonni mutlaq qadriyat sifatida emas, mavhum kollektiv maqsadga tomon harakatning bir qismi sifatida

qarashdan kelib chiqishini asoslaydi. Adorno rahbarligidagi kollektiv tadqiqotda («Avtoritar shaxs» (1950)), «totalitar sindromli» odamlar barqaror mavjudlikni so'zsiz itoatga almashtirishga tayyorligi to'g'risidagi fikr asoslanadi. K.Fridrix totalitarizmning besh asosiy belgisini ajratgan: yaqona mafkura; yaqona partiya; terroristik yashirin politsiya; ommaviy axborot vositalariga yakka hokimlik; markazlashgan iqtisod. Hozirgi kunda totalitarizm hokimiyat va jamiyat o'rtasidagi muayyan munosabatlar tizimi sifatida o'rganiladi. Negaki muayyan belgilarga egalik muqarrar ravishda totalitarizmni keltirib chiqmasligi ayon bo'ldi. Totalitarizm butun jamiyat ustidan o'z nazoratini o'rnatishga harakat qiluvchi, o'z legitimligini baxtli kelajak va (totalitar) mafkura bilan asoslovchi, absolyut haqiqatga da'vo qiluvchi tizimdir. Totalitarizm vujudga kelishiga XIX asr ohiri XX asr boshlaridagi bir qator omillar sabab qilib ko'rsatiladi: insoniyatning industrial bosqichga o'tishi, ommaviy kommunikatsiya tizimlarining yaratilishi, shaxsni mafkuraviy va siyosiy nazorat qilishning texnik vositalari paydo bo'lganligi. Industrial mehnat an'anaviy hayot tarzini emirib shaxsni bozor stixiyasi va raqobati oldida o'z qilib qo'ydi. Ijtimoiy munosabatlarning murakkablashishi – davlatning ahamiyatini oshirdi. Totalitar tizimlar favqulodda vaziyatlarda: chuqur inqiroz, nobarqarorlik, mamlakat oldidagi muhim strategik vazifalarni hal qilish vaziyatlarida vujudga kelishini tarix isbotladi. Totalitarizm manbalaridan yana biri – kollektivistik dunyoqarash, shaxsning an'anaviy kollektivistik qadriyatlar yemirilishidan ruhiy noroziligi, qoniqmasligi. Bu omil ayniqsa ijtimoiy-iqtisodiy inqirozlar davrida kuchayadi. Inqiroz davrida marginal guruhlar totalitarizmni qo'llab-quvvatlaydi. Masalan, Germaniyada natsional – sotsializmning ijtimoiy suyanchigi bo'lib yangi oraliq sinf – idora xizmatchilari, kotibalar, o'qituvchilar, sotuvchilar, mayda xizmatchilar va h.lar chiqdi. Ularning iqtisodiy ahvoli kasaba uyushmalari va davlat qonunlari bilan himoyalangan ishchilarnikidan ancha yomonlashgan edi. Ammo sanab o'tilgan omillar faqat muayyan siyosiy sharoitdagina totalitarizmni vujudga keltiradi. Totalitarizmning uch ko'rinishi ajratiladi: natsional-sotsializm (natsistik Germaniyada); kommunizm (SSSR va Xitoy, Kvame Nkrumening Ganadagi rejimi, Rumyniya va Albaniya Sharqiy Yevropada, Kuba Lotin Amerikasida); italiya fashizmi. Totalitarizm ijtimoiy va siyosiy ziddiyatlardan holi, ko'p sonli partiyalar va ular o'rtasida raqobatli kurash yo'q, barcha davlat ishchisi va xodimi bo'lganligi tufayli shu davlat qudratini oshirish uchun xizmat qiladigan, barcha daromadlari va ijtimoiy ehtiyojlarida teng bo'lgan jamiyatdir. Shunga qaramay totalitar davlat uchun xavflar va tahdidlar mavjud va ularni ichki hamda tashqi xavflarga bo'linadi. Ichki xavf – totalitar tizim yashash uchun jamiyatning iqtisodiy va sotsiomadaniy asoslarini emirib borishidir. Har bir jamiyat davlat va siyosiy tartibotdan erkin rivojlanish imkoniyatiga ega. Totalitarizm esa jamiyatni yalpi nazorat ostiga olishga intiladi. Shu tariqa u jamiyatni o'ziga xosligini ta'minlovchi sinflar, an'analar, din, mehnat axloqini, oila va shu singari institutlarni yo'q qiladi, "yangi inson"ni yaratishga intiladi. Totalitarizm yangilanmaydigan resurslarni, ya'ni odamlarni to'xtovsiz eksplutatsiya qilishi natijasida sotsiomadaniy qadriyatlarni emirib, rivojlanishdan to'xtaydi. Tizim ichki va tashqi ehtiyojlarni payqamay chiziqli, bir yo'nalishli rivojlanish yo'lidan ketadi. Aholi marginal va lyupmenlarga aylanadi. Totalitar tartibotlarda siyosiy barqarorlik yuzaki, bu, ayniqsa, rahbarlar almashinuvi jarayonida kuzatiladi.

Negaki, bu tartibotlarda hokimiyatlarning bir shaxsdan ikkinchisiga o'tishi tartibi, tadbirlari ishlab chiqilmagan, ishlamaydi. Totalitar davlat o'z zimmasiga juda ko'p vazifalarni yuklaydi, shu jumladan, o'ziga xos bo'lmaganlarini ham, ammo, ularni to'la ko'lamda bajara olmaydi. Natijada bunday tartibotlar yoki emiriladi, yoki asta-sekin liberallashadi.

**Tovar xo'jaligi** – (bozor) bu tovar ishlab chiqarishga asoslangan va bozor orqali ishlab chiqarish bilan iste'mol o'rtasidagi o'zaro aloqadorlikni ta'minlovchi, iqtisodiyotni tashkil qilishning ijtimoiy shaqlidir.

**Tovar** – bozordagi oldi-sotti orqali ayirboshlanadigan mehnat mahsuli. T. o'zini ishlab chiqaruvchilarining emas, balki bozorda sotish orqali boshqalarning talab-ehtiyojini qondirish uchun yaratiladi. T. iste'mol qiymati – bu uning kishilarning biron-bir ehtiyojlarini qondirish xususiyatidir, almashuv qiymati esa uning boshqa bir tovarga almashina olish xususiyati, qiymat xususiyatidir.

**Tovar birjasi** – bir yoki bir necha xil tovar bilan ulgurji savdo-sotiqni amalga oshiruvchi tijorat korxonasi, bozor iqtisodiyoti infrastrukturasi ajralmas qismi bo'lib, korxonalar va tashkilotlar o'rtasidagi oldi-sotti aloqalarini olib boradi. TB ikki guruhga bo'linadi: 1) ochiq birja, bunda uning a'zolari bilan bir qatorda boshqa tadbirkorlar ham savdo qila oladi; 2) yopiq birja, bunda faqat birja a'zolarigina bitimlar tuzish huquqiga ega bo'ladi.

**Tovarlashgan xizmat** – tovar sifatida oldi-sotti qilinuvchi xizmatlar, ya'ni pulli xizmatlardir.

**Turmush darajasi** – odatda aholi iste'mol qiladigan hayotiy ne'matlarining miqdori va sifatiga asoslanadi. Bu moddiy ne'matlar tarkibi juda ham xilma-xil. TD ko'rsatkichlari yaxlit tizimi shakllangan bo'lib, unga tug'ilish, o'lish va boshqa demografik ko'rsatkichlar, hayotning sanitariya-gigiye-na shart-sharoitlari, oziq-ovqat tovarlarini iste'mol qilish darajasi, sog'liqni saqlash, ta'lim, madaniyat, ish bilan bandlik, mehnat sharoiti, aholining daromadlari va xarajatlari, narx-navo darajasi, transport vositalari, dam olishni tashkil etilishi, ijtimoiy ta'minlanganligi, inson erkinligi kabi ko'rsatkich bilan belgilanadi.

**Transformatsiya** – (lot. o'zgarish, aylanish) totalitar siyosiy tizimlarning demokratik siyosiy tizimlarga o'zgarishi jarayoni. Transformatsiya – lot. transformatio – o'zgarish; tuzilmalarni, shakllarni va usullarni o'zgartirish, faroliyatning maqsadli yo'nalishini o'zgartirish.

**Transmilliy korporatsiya (TMK)** – XX asr o'rtalaridan ilmiy texnik inqilob va jahon iqtisodiyotidagi o'zgarishlar tufayli rivojlangan xalqaro monopoliyalar. TMKning rivojlanishi jahon iqtisodiyotidagi yangi bosqich bilan bog'liq. Endilikda faqat tovarlar emas, kapital ham milliy chegaralarni kesib o'tadi. Ixtisoslashish, kooperativlashuv, mehnat taqsimoti asosida bugungi kunda TMKlar ilg'or texnologiyalar va katta moliyaviy mablag'larga ega. Ularga misol tariqasida Samsung, LG, Coca-Cola, Sony, Toyota va boshqalarni misol keltirish mumkin.

**Tranzaksiya** – (ingl. bank transaction, ot lot. transactio – kelishuv, shartnoma; tranzaksiya – bu sotib olishga doir shartnoma) tuzish/moliyaviy vositalarni sotishga doir shartnoma. Bank tranzaksiyasi, deganda bir bank hisob raqamidan ikkinchisiga yoki bank ichidagi bir hisob raqamidan ikkinchisiga pul mablag'larini o'tkazish tushuniladi.

**Tranzit** – (lot. o'tish) avtoritar siyosiy tizimlardan demokratiyaga o'tish. Tranzit muqarrar ravishda demokratiyaga o'tish bilan yakunlanishi shart emas. Bu ko'p shaklli murakkab jarayon. Unda liberallashtiruv va demokratlashuv bosqichlari ajratiladi.

**Traybalizm** – (ingl. qabila) qabilalar o'rtasidagi nifoq, qabilalarning ajralishi-ga, bo'laklikka intilishi. Qabila-urug'chilik munosabatlari saqlangan jamiyatlarda uchrashi mumkin.

**Tripartizm** – ijtimoiy sheriklikning davlat organlari, biznes vakillari va no-davlat notijorat tashkilotlari hamda fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari o'rtasidagi kelishuv.

**Turkumlashuv** – turli narsalar, hodisalar, holatlar o'rtasidagi umumiy va farqli tomonlarni topish, ideal, umumlashtiruvchi model asosida ularni gu-ruhlash. Turkumlashuv natijasida ijtimoiy hodisalarning muayyan ideal tiplari aniqlanadi. Turkumlashuvning empirik va nazariy turlari farqlanadi: empirik turkumlashuvda faqat tajriba asosida olingan ma'lumotlar negizida barqaror belgi va sifatlar umumlashtiriladi va sistemalashadi. Nazariy turkumlashuvda konseptual model yaratiladi va unda obyekt o'ziga xos tarkibiy darajalar va omillar-dan iborat tizim sifatida o'rganiladi.

**Turmush darajasi** – mamlakat aholisi, ijtimoiy guruhlar, oilalar, inson mod-diy, ma'naviy va ijtimoiy ehtiyojlarini qondirish darajasi (me'yori)ni tavsiflovchi tushuncha. T.d. kishilar ehtiyojining tarkibi va rivojlanishi b-n bog'liq va shu b-n birga, ularni qanoatlantirish uchun foydalaniladigan turmush ne'matlari va xiz-matlar miqdori hamda sifati b-n ham aloqador bo'lib, u jamiyatning iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy tuzilishi b-n belgilanadi. T.d. faqat joriy ishlab chiqarish bilan-gina emas, balki milliy boylik va kishilarning shaxsiy (xususiy) to'plagan mulki miqdori b-n ham bog'liq. Unga ijtimoiy-tarixiy, tabiiy iqlim, milliy etnik sharoitlar va omillar o'z ta'sirini o'tkazadi. T.d. miqdoriy va sifat ko'rsatkichlari tizimida ifodalanadi: iste'mol etilayotgan moddiy ne'matlar va xizmatlar umumiy hajmi, aholining real daromadi, oziq-ovqat mahsulotlari va xizmatlar ite'moli miqdori, pul daromadlari miqdori, mehnatning sharoiti va tavsifi, ish va bo'sh va?gning davomiyligi, turar-joy sharoiti va qiymati, maishiy xizmat, bo'sh vaqtdagi va boshqa ijtimoiy xizmatlar (sog'liqni saqlash, madaniy, aloqa, transport va h.k.) bilan ifodalanadi. Aholi T.d. darajasini tavsiflashda kishilar ehtiyojlarini qondi-rishning belgilangan darajasi katta ahamiyatga ega. U oqilona iste'mol me'yor-lari bilan moddiy va ma'naviy ne'matlarni amaldagi iste'moli ko'rsatkichlarini taqqoslash yo'li b-n o'lchanadi, bunda ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatishda erishilgan miqyos, tabiiy iqlim sharoiti, yosh, oila tarkibi, muayyan mahsulot-lar, ne'matlar, xizmatlar shaklidan foydalanishning ilmiy asoslangan me'yorlari hisobga olinadi. T.d. tushunchasidan sotsiologiyada hayot sifati, hayot uslubi, hayot tarzi va b. b-n qiyosan foydalaniladi.

**Tashkiliy birlik** – yuridik shaxsning huquq subyekta sifatida tashkil bo'lgan-ligini, muayyan huquq va majburiyatlarga ega bo'lishi.

**Tabiiy resurlardan foydalanish** – bu yer, yer osti boyliklari, suv, o'simlik va hayvonot dunyosi, atmosfera havosi hamda boshqa tabiiy zaxiralarni oqilo-na va samarali asosda ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan (umumiy va maxsus tarzda) o'zlashtirishga qaratilgan chora-tadbirlar tizimidan iborat. O'zbekiston Respub-

likasining tabiatni muhofaza qilish to'g'risida qonuni 1992-yil 9 dekabrda qabul qilingan.

**Tabiiy resurslarga nisbatan mulk huquqi** – tabiat obyektlarining ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan o'zlashtirilishini belgilashni, tabiiy resurslar kimga tegishligini, mulkdorlarning ularga nisbatan bo'lgan vakolatlarini hamda huquq va majburiyatlarini belgilovchi huquq normalari yig'indisini ifodalaydi.

**Tarif tizimi** – xodimlarning ish haqi darajasini ularning malakasi, mehnatining unumdorligi, ish xususiyati va ish bajariladigan sharoitga, bajariladigan ishning mas'uliyatligiga, ishlab chiqarish tarmoqi, korxonalarining hududiy joylashishi, qo'llaniladigan ish haqining shakllariga ko'ra tabaqalashtirish va tartibga solishga asos bo'ladigan normativlar majmuasi.

**Tadbirkorlik** – resurslardan oqilona foydalanishning yangi sohalarini qidirish va ularni foydali joylashtirish, ishlab chiqarishning yangi kombinatsiyalarini amalga oshirish, yangi bozorlar sari qadam qo'yish, yangi mahsulotlar yaratishdir.

**Tugatuvchi** – ushbu qonun bilan o'rnatilgan tartibda tugatilayotgan yuridik shaxsni boshqarish ishlari va vakolatlari o'tadigan jismoniy yoki yuridik shaxs.

**Tugatish balansi** – tugatilayotgan yuridik shaxs mol-mulkining tarkibi, kreditorlar qo'ygan talablar ro'yxati, ularni ko'rib chiqish natijalari to'g'risidagi ma'lumotlar.

**Tovar** – faoliyatning olish va realizatsiya qilish uchun mo'ljallangan mahsulot, shu jumladan, ishlar va xizmatlar;

**Tovar bozori** – tovarning (shu jumladan, bir-birining o'rnini bosadigan tovarning) O'zbekiston Respublikasi hududidagi yoki uning bir qismidagi muomala doirasi bo'lib, u O'zbekiston Respublikasining ma'muriy-hududiy bo'linishiga mos kelmasligi mumkin va mazkur muomala doirasi chegaralarida tovarni olish yoki realizatsiya qilish imkoniyati mavjud bo'ladi.

**To'g'ridan-to'g'ri saylov huquqi tamoyili** – fuqarolarning saylovda bevosita, ya'ni pog'onasiz, vakillarsiz, aynan o'zlari tomonidan saylov huquqining amalga oshirilishini anglatadi. Ushbu tamoyil «O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylov to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni (yangi tahrir) ning 4-moddasida kuyidagicha mustahkamlangan «Qonunchilik palatasining bir yuz o'ttiz besh deputati fuqarolar tomonidan bevosita saylanadi».

## U

**Uklad** – iqtisodiy faoliyat yuritishning muayyan shakli bo'lib, mulkchilikning biror bir shakliga asoslanadi, o'ziga xos iqtisodiy munosabatlar, qonun-qoidalar amal qiladigan xo'jalik tipidir. M: mayda tovar xo'jaligi.

**Ultimatum** – (lot. eng oxirgi) diplomatik aloqalarni uzish yoki boshqa choralar ko'rish bilan ogohlantirib, bir davlatning ikkinchi davlat tomonidan ko'rsatilgan muddatda qo'yilgan shartlarni bajarilishini qat'iy talab etishi.

**Umumbashariy qadriyat** – dunyo xalqlarining ko'pchiligi tomonidan tan olingan, huquqiy me'yorlar tarkibiga kiritilgan yoki qadriyat, an'ana va mas'uliyatiga aylangan, voqe'lik vayoxud munosabatlar tizimiga nisbatan qo'llaniladigan tushuncha.

**Umuminsoniy qadriyatlar** – insoniyat tomonidan yaratilgan, umuminsoniy manfaatlariga va xalqlarning o'zaro hamjihatlikda yashashlari va rivojlanishlari uchun xizmat qiladigan umuminsoniy axloq, xalqaro siyosiy, iqtisodiy, madaniy, ilmiy, falsafiy, diniy munosabatlar tajribasi, malakalari va h.k.larni o'zida mujassam-lashtiruvchi tushuncha. Milliy va umuminsoniy qadriyatlar o'zaro uzviy aloqada bo'ladilar.

**Umumiy saylov huquqi tamoyili** – 18 yoshga to'lgan fuqarolarning saylash, saylov bilan bog'liq boshqa jarayonlarda ishtirok etish, qonunchilikda belgilangan yoshga to'lgach esa – davlat hokimiyati vakillik organlariga saylanishini kafolatlovchi konstitutsiyaviy tamoyil. Fuqarolar ijtimoiy kelib chiqishi, ijtimoiy va mulkiy mavqeyi, irqiy va milliy mansubligi, jinsi, ma'lumoti, tili, dinga munosabati, mashg'ulotining turi va xususiyati kabi shart-sharoitlardan qat'i nazar, saylashi va saylanishi mumkin. Sud tomonidan muomalaga layoqatsiz deb topilgan fuqarolar, shuningdek sud hukmi bilan ozodlikdan mahrum etish joylarida saqlanayotgan shaxslar saylanishi mumkin emas va saylovda qatnashmaydilar.

**Umumxalq hashari** – o'zbeklar, ayrim turkiy xalqlar orasida udumga aylangan ijtimoiy hamkorlik va beg'araz yordam shakllaridan biri.

**Unitar davlat** – (lot. birlik) hudud, Konstitutsiya, fuqarolik, oliy davlat hokimiyati, sud tizimi yagona bo'lgan davlat shakli. Unitar davlatda suverenitet yagona markazda to'planadi va barcha ma'muriy birliklar hech qanday qo'shimcha vakolatlarga ega bo'lmaydilar. Davlatning barcha organlari bir butunning qismlarini tashkil etadi va ular yagona Konstitutsiya, yagona qonunlar tizimi asosida amal qiladilar. Unitar davlat ma'muriy-hududiy birliklardan tashkil topadi (departamentlar, viloyatlar, tumanlar va h.k.). Bu birliklar siyosiy jihatdan mustaqillikka ega emaslar, lekin markaz va ma'muriy-hududiy birliklar o'rtasidagi munosabatlar ham murakkab. Mahalliy hokimiyatlarda suverenitet yo'q bo'lgani uchun ular to'raligicha markazga bo'ysunadi (federativ davlatda – viloyat yoki shtat hokimiyatiga). Hokimlik vakolatlari bo'linishiga ko'ra markazlashgan va markazlashmagan unitar davlatlar ajratiladi. Markazlashmagan unitar davlatlarda (Fransiya, Ispaniya) hududiy davlat hokimiyati organlari vakolatlari bir muncha keng bo'ladi. Bugungi kunda bir qancha unitar davlatlar (Buyuk Britaniya, Ispaniya, Italiya, Daniya, Finlyandiya) nisbiy muhtoriyatga ega hududiy birliklarga ega. Bu esa hozirgi kunda unitar davlatlar dunyoda ko'pchilikni tashkil etsada, davlatlarning Federatsiyaga o'tishi tendensiyasi kuchayganligini ko'rsatadi. Unitar davlat belgilari: yagona Konstitutsiya mavjudligi va uning moddalarining mamlakat butun hududida birdek qo'llanilishi; davlat oliy hokimiyati organlarining yagona tizimi va uning ma'muriy-hududiy birliklarga bo'linishi; yagona fuqarolik va yagona huquq tizimi mavjudligi; markazlashgan sud tizimi.

**Unitarizm** – (fr. yagona) davlat birliklariga markazlashgan boshqaruvning mavjudligi va tarkibida mustaqil davlatlarning yo'qligi bilan belgilanuvchi davlat tuzilishi. Unitar davlat – yagona bo'linmas bir yaxlitlikni tashkil etuchi davlat shakli.

**Universal** – (lot. universalis – umumiy); har tomonlama, keng qamrovli, ko'plab maqsadlar uchun yaroqli, turli vazifalarni va funksiyalarni bajara oladigan.

**Urbanizatsiya** – (lot. shahar) jamiyatda shaharlar nufuzining ortib borishi bilan bog'liq tarixiy jarayon. Shahar aholisi sonining ko'payishi.

**Urf-odat va rasm-rusmlar** – kishilar turmushiga singib ketgan, doim takrorlanib turadigan xatti-harakat, ko'pchilik tomonidan qabul qilingan xulq-atvor qoidalari va ko'nikmalar.

Urush va qurolli ixtilof – siyosiy qarama-qarshiliklarni harbiy kuch qo'llash vositasida hal etish usuli. Bir-biridan qo'llanish darajasiga ko'ra farqlanadi. Urush va qurolli ixtilof – "avvalgi siyosatning boshqa, zo'rlik vositalarida davom ettirilishidir" (Fon Klauzevist). Sabablariga davlatlar, xalqlar, millatlar, sinflar, va b.lar o'rtasidagi iqtisodiy, hududiy, diniy va b. ziddiyatlar ko'rsatiladi. Urush va qurolli ixtiloflarning tabiatiga ko'ra fuqarolik, davlatlararo, diniy, iqtisodiy, adolatli va adolatsiz turlari ajratiladi. Ko'lamiga ko'ra jahon, mintaqaviy va davlat ichidagi fuqarolik urushlari mavjud. Keyingilari sinfiy, etnik va diniy ixtiloflar natijasida yuzaga kelishi mumkin. Urush va qurolli ixtiloflarning birligi va farqlari ularning siyosiy, texnik va operativ jihatlarida namoyon bo'ladi. Siyosiy jihat urush va qurolli ixtiloflarning siyosiy sabablari va maqsadlarini o'z ichiga oladi. Urush maqsadlari qurolli ixtilof maqsadlaridan ko'lamliroq va yaxshiroq rejalashtirilgan. Urushning siyosiy maqsadlari urushdan ancha avval aniqlanib unga tayyorgarlik bosqichini belgilaydi: armiyani, iqtisodni, diplomatiya va mafkurani tegishli tarzda qayta qurish. Urushning o'zi jamiyat hayotining barcha sohalarini o'zgarishiga olib keladi va ijtimoiy safarbarlikning eng qadimgi shakli hisoblanadi. Texnik jihatdan urush qurolli ixtilofdan qurolli kurash vositalarining ko'lamliroq va xilma-xil qo'llanishi bilan ajralib turadi. Operativ jihatdan urush avvalo davlat qurolli kuchlari hamda harbiylashtirilgan fuqarolik tuzilmalarini (xalq qo'shini, partizan otryadlari va h.) qo'llashni nazarda tutadi. Qurolli kurash armiya xujumi yoki mudofaasi shakllarida, shuningdek, harbiy to'qnashuvlar, terroristik aktlar ko'rinishida olib borilishi mumkin. Operativ planda qurolli ixtilof chegaraviy va mahalliy tabiatga ega. Urush esa mamlakatning katta hududlarini qamraydi.

**Uz domen zonasi** – ma'lum darajadagi "Uz" domeniga kiruvchi domen nomlarining majmuasi; barcha ro'yxatga olingan "Uz" domen nomli saytlarni birlashtiruvchi va shu tarzda mazkur domen bilan yagona Internet-makonini tashkil etuvchi veb-zona. O'zbekiston Respublikasining mamlakat kodini ifodalovchi, maxsus vakolatli tashkilot tomonidan boshqariladigan va muvofiqlashtiriladigan hamda O'zbekiston Respublikasining yurisdiksiyasi ostidagi o'z ichiga keyingi daraja domen nomlarini oluvchi yuqori daraja domen. «UZ» domenidagi domen nomlarini ro'yxatdan o'tkazish va ulardan foydalanish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida. (O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2008 y., 26-27-son, 255-modda; 2015 y., 5-son, 61-modda).

**Uzurpatsiya** – (lot. egallab olish) hokimiyatni zo'rlik bilan egallab olish va qo'lda tutib turish.

**Uchastka saylov komissiyasi** – tegishli saylov uchastkasi hududida saylovni tashkil etish va o'tkazish uchun okrug saylov komissiyasi tomonidan tuziladi. Uchastka saylov komissiyasi saylovga kamida qirq kun qolganida besh-o'n to'qqiz nafar a'zodan, shu jumladan, rais, rais o'rinbosari va kotibdan iborat tarkibda tuziladi. Agar komissiya yettinafargacha a'zodan iborat tarkibda to'zil-



sa, rais va kotib saylanadi. Uchastka saylov komissiyasining shaxsiy tarkibi okrug saylov komissiyasining qarori bilan tasdiqlanadi. Uchastka saylov komissiyasi tarkibining soni zarur hollarda ko'paytirilishi yoki kamaytirilishi mumkin. O'zbekiston Respublikasining xorijiy davlatlardagi vakolatxonalari huzurida uchastka saylov komissiyasi raisining vazifalarini idora rahbari amalga oshiradi. Uchastka saylov komissiyasi uchastka bo'yicha saylovchilar ro'yxatini tuzadi, saylovchilarni saylovchilar ro'yxati bilan tanishtiradi, ro'yxatda yul qo'yilgan xatolar va noaniqliklar to'g'risidagi arizalarni qabul qiladi va ko'rib chiqadi hamda ro'yxatga tegishli o'zgartishlar kiritish to'g'risidagi masalani hal etadi, saylov kuni o'z turar joyida bo'lish va ovoz berishda ishtirok etish imkoniyatiga ega bo'lmagan saylovchilardan saylov konvertlarini qabul qilib oladi, aholini saylov kuni va ovoz berish joyi to'g'risida xabardor etadi, ovoz berish binolari va saylov qutilari hamda boshqa saylov ashyolari tayorlab qo'yilishini ta'minlaydi, saylov kuni saylov uchastkasida ovoz berishni tashkil etadi, saylov uchastkasida berilgan ovozlarni hisoblab chiqadi, saylovga tayyorgarlik ko'rish va ovoz berishni tashkil etish masalalari yuzasidan tushgan ariza va shikoyatlarni ko'rib chiqadi hamda ular yuzasidan qarorlar qabul qiladi.

**Uchinchi sektor** – dunyodagi barcha mamlakatlarda notijorat va xayriya maqsadlarida tashabbus ko'rsatayotgan va keng faoliyat yuritayotgan nodavlat notijorat tashkilotlarga (NNT) nisbatan qo'llaniladi (birinchi sektor – davlat, ikkinchi sektor – tijorat sektori yoki shaxsiy sektor deyiladi).

## V

**Vakil** – (ar.) biror kishi, muassasa, tashkilotlarning nomidan ish ko'ruvchi, uning manfaatlarini ko'zlovchi va himoya qiluvchi shaxs. Vakillik – siyosiy tamoyil. Unda inson yoki guruh bir qancha odamlar nomidan faoliyat yuritadi. «Vakil» tushunchasi juda ko'p ma'nolarda ishlatiladi. Masalan, muayyan bir shaxs to'g'risida o'z millati, kasbi, ijtimoiy guruhi va h.ning «tipik vakili» biror mamlakat vakili, davlat rahbari vakili, u yoki b'y savdo kompaniyasining vakili deyiladi. Siyosiy so'zlashuvda «vakil», «vakolatlilik» deyilganda biror g'upuh, partiyalarning muayyan bir shaxsga, tashkilotga, idoraga o'z manfaatlarini hokimiyat tarkibida himoya qilish uchun vakolatlarning berilishi nazarda tutiladi. Alohida olingan har bir individ davlat boshqaruvida bevosita ishtirok eta olmagani tufayli, aholining turli qatlamlari manfaatlarini muayyan vakolat va huquq berilgan maxsus vakillar himoya qilishi mumkin. Saylangan vakillar xalq manfaatlarini xalqning o'zidan ko'ra yahshiroq amalga oshirishi va himoya qilishi ehtimol qilingan. Vakolatlilikning qanchalik yuqori ahamiyatga molik bo'lganligini, masalan, Dj. Medison respublika boshqaruvini vakolatlilik bilan bir narsa, deb baholaganida ko'ramiz.

**Vakillik** – bir shaxsning ikkinchi shaxs nomidan yuridik harkatlarni amalga oshirishi.

**Vakolat** – vakilning boshqa shaxs nomidan muayyan yuridik harakatlar qilishga va shu bilan u uchun huquqiy oqibatlarni vujudga keltirishga qaratilgan huquq.

**Vakillik demokratiyasi** – fuqarolarning davlatni boshqarishda, davlat va jamoat ishlarida o'z vakillari orqali ishtirok etishi. Antik davrdayoq demokratiya rivojida ikki yo'nalish belgilandi: birinchisi, o'z-o'zini boshqaruvchi demokratiya, ya'ni fuqarolarning to'g'ridan-to'g'ri ishtirokini nazarda tutuvchi tartib. Ikkinchisi, umumxalq vakillik demokratiyasi. U fuqarolarning tengligi, burchlar, qonun oldida javob berish va qonun asosida hukm yuritish, xalq hokimiyatining vakillar orqali amalga oshirilishi tamoyillariga asoslanadi va uning ibtidosini biz Qadimgi Rim imperiyasi tuzilishida ko'ramiz. O'rta asrlar demokratiyalari taraqqiyoti natijasida mahalliy to'g'ridan-to'g'ri demokratiya bilan oliy hokimiyat darajasida vakillik (parlament) demokratiyasini uyg'unlashtiruvchi tizimlar tashkil topdi. Bunday uyg'unlikning dastlabki na'munasini biz Buyuk Britaniyada, Skandinaviya mamlakatlarida, Niderlandiya, Shveysariyada uchramiz. Amerikalik politolog R.Dal ta'kidlaganidek, milliy davlatlarning tashkil topishi va hududlarning kengayishi natijasida fuqarolar muhim qarorlar qabul qilish jarayonida bevosita va muntazam ishtirok etish imkoniyatidan mahrum bo'ladilar. Shuning uchun bugungi kunda jahonda vakillik demokratiyasi shakli qaror topdi.

**Validlik** – respondentdan olingan axborotni verifikatsiya ma'lumotlari bilan qiyoslash. Validlik o'lchov haqiqiyliги mezonidir.

**Valyuta** – (ital. valuta. lat. valere – qadrlanmoq, qiymat) – mamlakatning pul birligi va uning tipi (oltin, kumush, qog'oz, pul)ga tenglashtirilgan to'lov vositalari. Xalqaro iqtisodiy va boshqa pul hisobi bilan bog'liq munosabatlarda ishtirok etuvchi mamlakatning pul birligi. Valyuta sifatida milliy pul birligi o'zining xalqaro «bahosiga» ega va u valyuta kursida aks etadi. Valyuta kursi kotirovka yordamida belgilanadi.

**Valyuta kursi** – mamlakat pul birligining boshqa mamlakat pul birligida ifodalangan bahosi. V.K. qat'iy belgilangan va o'zgarib turadigan turlari mavjud.

**Vassal** – lot. itoatdagi, qaram davlat yoki shaxs.

**Vatan** (arabcha "Vatan" – ona yurt) – kishilarning yashab turgan, ularni avlod va ajdodlari tug'ilib o'sgan joyi, hududi, ijtimoiy muhiti, mamlakati. Vatan birini taqozo etuvchi tashqi muhit va ichki kechinmalar hamda tushunchalarni o'z ichiga oladi. Tashqi muhit nuqtayi nazaridan Vatan kishi yoki avlodlar tug'ilib o'sgan va kamol topgan joy, zamin, o'lkadir.

**Vatan ravnaqi** – milliy istiqloq mafkurasining Islom Karimov tomonidan asoslab berilgan g'oyalaridan biri. Prezidentimiz Vatan ravnaqi g'oyasini ilgari surar ekan, uning mazmunini har bir kishining manfaatlarini yurt manfaatlarini bilan uyg'unlashtiruvchi, uni xalq baxt-saodati yo'lida xizmat qilishga undovchi bunyodkor g'oyadir deb ta'riflaydi. Zero, u milliy istiqloqlning oliy maqsadi – O'zbekistonda yashayotgan barcha fuqarolarning el-yurt kamoli bilan bog'liq orzu-umidlarini amalga oshirishni ifodalaydi.

**Vatanparvarlik** – kishining axloqiy fazilati. Vatanparvarlik aniq muhitda, zaminda va mavjud ma'naviy-axloqiy qadriyatlar asosida shakllanadi. U vatan ravnaqi tushunchasi bilan chambarchas bog'liq. **Vatanparvarlik** – Vatanining ozodligi va obodligi, uning sarhadlari daxtsizligi, mustaqilligining himoyasi yo'lida fidoyilik ko'rsatib yashash, ona xalqining or-nomusi, shon-sharafi, baxtu saodati uchun kuch-g'ayrati, bilim va tajribasi, butun hayotini baxsh etishdek dun-

yodagi eng muqaddas va olijanob faoliyatni anglatadigan insoniy his-tuyg'udir. Vatanparvarlik – ona-yurtning, xalqning tarixi va taqdiriga chuqur hurmat bilan qaraydigan, Vatan manfaatlarini yo'lida fidoiylilik namunalari ko'rsatishga qodir bo'lgan shaxslarga xos fazilat.

**Vayronkor (buzg'unchi) g'oya** – yovuzlik va jaholatga, ayrim jinoyatkor kuchlarning hukmronligini o'rnatishga xizmat qiladigan, insonlar, millatlar va jamiyatning mustaqilligiga, erkinligiga, ijodkorligiga zid bo'lgan g'oyalar majmuyini ifodalovchi tushuncha.

**Vazirlar Mahkamasi** – Isroil, Latviya, Yaponiya, Shri-Lanka, Qozog'iston, Turkmanistonda va qator boshqa mamlakatlarda hukumatning rasmiy nomi. O'zbekiston Respublikasida hukumat "Vazirlar Mahkamasi" deb nomlangan bo'lib, "O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi to'g'risida"gi qonunga binoan, u O'zbekiston Respublikasida iqtisodiyotning, ijtimoiy va ma'naviy sohaning samarali faoliyatiga rahbarlikni, O'zbekiston Respublikasi qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlari ijrosini ta'minlovchi ijro etuvchi hokimiyat organidir. Vazirlar Mahkamasi davlat boshqaruvi organlari tizimiga va o'zi tashkil etadigan xo'jalik boshqaruvi tuzilmalariga boshchilik qiladi, ularning hamjihatlik bilan ishlashini ta'minlaydi. **Vazirlar Mahkamasi** – mustaqil O'zbekiston Respublikasi hukumati. 1992-yilda qabul qilingan Konstitutsiyaga ko'ra Vazirlar Mahkamasi deyiladi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi ijro etuvchi hokimiyatni amalga oshiradi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri, uning o'rinbosarlari, vazirlar, davlat qo'mitalarining raislaridan iborat. Qoraqalpog'iston Respublikasi hukumati boshlig'i Vazirlar Mahkamasi tarkibiga o'z lavozimi bo'yicha kiradi. O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri nomzodi O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasiga saylovda eng ko'p deputatlik o'rinlarini olgan siyosiy partiya yoki teng miqdordagi eng ko'p deputatlik o'rinlarini qo'lga kiritgan bir necha siyosiy partiya tomonidan taklif etiladi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti taqdim etilgan Bosh vazir lavozimiga nomzodni ko'rib chiqqanidan keyin o'n kun muddat ichida uni O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining ko'rib chiqishi va tasdiqlashi uchun taklif etadi. Bosh vazir lavozimiga nomzod O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisida uning nomzodi ko'rib chiqilayotganda va tasdiqlanayotganda Vazirlar Mahkamasining yaqin muddatga va uzoq istiqbolga mo'ljallangan harakat dasturini taqdim etadi. Bosh vazir nomzodi uning uchun tegishincha O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi deputatlari va Senati a'zolari umumiy sonining yarmidan ko'pi tomonidan ovoz berilgan taqdirda tasdiqlangan hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining a'zolari Bosh vazir taqdimiga binoan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tasdiqlanadi. O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri va O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi o'rtasida ziddiyatlar doimiy tus olgan holda Qonunchilik palatasi deputatlari umumiy sonining kamida uchdan bir qismi tomonidan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti nomiga rasman kiritilgan taklif bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qo'shma majlisi muhokamasiga Bosh

vazirga nisbatan ishonchsizlik votumi bildirish haqidagi masala kiritiladi. Bosh vazirga nisbatan ishonchsizlik votumi tegishincha O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi deputatlari va Senati a'zolari umumiy sonining kamida uchdan ikki qismi ovoz bergan taqdirda qabul qilingan hisoblanadi. Bunday holatda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Bosh vazirni lavozimidan ozod etish to'g'risida qaror qabul qiladi. Bunda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining butun tarkibi Bosh vazir bilan birga iste'foga chiqadi. Yangi Bosh vazir nomzodi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasidagi barcha siyosiy partiyalar fraksiyalari bilan tegishli maslahatlashuvlar o'tkazilganidan so'ng O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining palatalariga ko'rib chiqish va tasdiqlashga taqdim qilish uchun taklif etiladi. Oliy Majlis tomonidan Bosh vazir lavozimiga nomzod ikki marta rad etilgan taqdirda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Bosh vazir vazifasini bajaruvchini tayinlaydi va O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisini tarqatib yuboradi. Vazirlar Mahkamasining faoliyatini tashkil etish tartibi va vakolat doirasi qonun bilan belgilanadi. Vazirlar Mahkamasi «Pravda Vostoka» gazetasining muassisi, shuningdek, «Xalq so'zi» va «Narodnoe slovo» gazetalarining ham muassisi hisoblanadi. Hozirgi kunda O'zbekistonda 15 ta vazirlik, 12 ta davlat qo'mitalari, 7 ta davlat inspeksiyasi, 6 ta Vazirlar Mahkamasi huzuridagi agentlik, 3 ta qo'mita, 6 ta Vazirlar Mahkamasi huzuridagi markazlar, 2 ta markaziy muassasalar mavjud. O'zbekiston Respublikasining O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi to'g'risida qonuni 2003-yil 29-avgustda qabul qilingan.

**Verbal** – (lot.) og'zaki; bunda siyosiy ishtirokni shaxsning subyektiv jihatiga bog'liq emasligiga ishoraqilinmoqda.

**Verdikt** – (ingl. to'g'ri aytilgan) qaror, hukm.

**Verifikatsiya** – (lot. haqiqiy qilmoq) guvohlik, haqiqiylikning isboti. Respondent xabar beradigan ma'lumotlarning aniqligini o'lchash uchun zarur dalillarni to'plash, olish jarayoni.

**Versiya** – (lot. ko'rinishini o'zgartirish) dalil, farazlar; voqeani bayon qilish yoki tushuntirishning bir-biridan farq qiladigan turi.

**Vesternlashuv** – (ingl. g'arblashuv) g'arb qadriyatlarini, institutlari va turmush tarzini aynan ko'chirish, ularni tovarlar, madaniyat, axborotlar vositasida butun dunyoga tarqatish. Siyosatshunoslikda Modernizatsiya nazariyalarining rivojlantirishidagi birinchi bosqich (XX asrning 50-60-yillari) uchun xos kamchilik sifatida o'rganiladi. Bu bosqich nazariyalar rivojlanayotgan jamiyatlardagi an'analarni inkor etish, madaniy o'ziga xoslikni nazarga ilmaslik va taraqqiyotning G'arb andazasini to'g'ridan-to'g'ri ko'chirish zarurligini asoslagan. XX asrning 70-yillaridan boshlab bu yondashuv keskin tanqidga uchragan.

**Veto** – (lot. Veto – taqiqlayman) – hozirgi zamon davlatlarida qandaydir bir organing qarorini to'xtatib qo'yadigan yoki kuchga kirishga yo'l qo'ymaydigan harakat. Davlat boshlig'iga parlament qabul qilgan qonunlarga Veto qo'yish (qarorlarni taqiqlash) huquqining berilishi alohida muhim ahamiyat kasb etadi. Vetoning **mutlaq** (yoki **rezolotiv**), bunda davlat boshlig'i parlament qabul qilgan qonunni uzil-kesil qaytarish huquqiga ega bo'ladi va nisbatan (kechiktir-

radigan yoki suspensiv) turlari farqlanadi. Bunda davlat boshlig'ining qonunni tasdiqlashni rad etishi uning kuchga kirishini to'xtatadi xolos, chunki parlamentga bu qonunni ikkinchi marta ovoz berish bilan qabul qilish huquqini beradi. Bunda qonun loyihasini ikkinchi (yakuniy) ovoz berish bilan qabul qilishda qator parlamentlarda ovozlarning alohida ko'pchiligi (masalan, AQSH va RFda har bir palataning 2/3 ovozi) talab qilinadi. Shuningdek, umumiy va qisman (tanlov) Vetolari ham bor. Umumiy Veto faqat hujjatning hammasini butunlayicha rad etilishini, ikkinchisi esa biror hujjatning alohida qismi yoki moddasi rad etilganligini anglatadi. Bunday huquqqa, masalan, O'zbekiston Prezidenti egadir. Chunonchi, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 84-moddasining ayrim qoidalariga muvofiq "O'zbekiston Respublikasining Prezidenti tomonidan qonun o'ttiz kun ichida imzolani va e'lon qilinadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qonunni o'z e'tirozlari bilan O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga qaytarishga haqli". Boshqa bir misol sifatida shuni keltirish mumkin, AQSH Prezidenti ham veto huquqiga ega bo'lib, u qonun taqdirini 10 kun ichida hal qilishi shart. Ko'pgina mamlakatlarda xalq veto huquqiga ega. Masalan, O'zbekistonda referendum o'tkazilishi mumkin bo'lib, unda o'ta muhim qonunlarning taqdiri hal qilinadi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 9-moddasida mustahkamlab qo'yilganidek: "Jamiyat va davlat hayotining eng muhim masalalari xalq muhokamasiga taqdim etiladi, umumiy ovozga (referendumga) qo'yiladi".

**Votum** (lot. *votum* – xohish, iroda) – saylov jamoasi yoki vakillik muassasasining ko'pchilik ovozi bilan ifodalangan yoki qabul qilingan fikri yoki qarori. Masalan, saylov votumi – prezident, parlament, munistipalitet va boshqalarga saylovlarda saylov kompaniyasining natijasi. Boshqaruvning parlamentar shaklidagi davlatlar parlamenti amaliyotida votum – qoidaga ko'ra, quyi palataning hukumat yoki alohida vazirning siyosiy yo'li, muayyan xatti-harakati yoki qonun loyihasini ma'qullashi (ishonch votumi) yoki ma'qullamasligidir (ishonchsizlik Votumi). Ishonch Votumi to'g'risidagi masalani qo'yish tashabbuskori hukumatning o'zi, parlament fraksiyasi yoki deputatlar guruhi bo'lishi mumkin. Hukumatga ishonchsizlik bildirilishi amaliyotda shu hukumatning iste'fo berishiga va yangi hukumatni tuzishga (hukumat tangligiga) yoki parlamentni (quyi palatani) tarqatib, parlamentga muddatdan oldin saylovlar o'tkazishga olib kelishi mumkin. Ikkinchi variant hukumatga parlamentni muddatidan oldin tarqatib yuborishni po'pisa qilish va shu orqali noma'qul qonun loyihalarini parlamentdan o'tkazish imkonini beradi.

**Vijdon** – insonning o'z oldida, boshqa odamlar oldida, jamiyat va butun insoniyat oldida ma'suliyatni his etishi, qadriyat.

**Vijdon erkinligi** – fuqarolarning har qanday dinga e'tiqod qilish yoki hech qanday dinga e'tiqod qilmaslikdan iborat kafolatlangan konstitutsiyaviy huquqidir. Fuqaro o'zining dinga, dinga e'tiqod qilishga yoki e'tiqod etmaslikka, ibodat qilishda, diniy rasm-rusumlar va marosimlarda qatnashish yoki qatnashmaslikka, diniy ta'lim olishga o'z munosabatini belgilayotgan paytda uni u yoki bu tarzda majbur etishga yo'l qo'yilmaydi. Voyaga etmagan bolalarni diniy tashkilotlarga jalb etish, shuningdek ularning ixtiyoriga,

ota-onalari yoki ularning o'rnini bosuvchi shaxslar ixtiyoriga zid tarzda dinga o'qitishga yo'l qo'yilmaydi. Dinga e'tiqod qilish yoki o'zga e'tiqodlar erkinligi milliy xavfsizlikni va jamoat tartibini, boshqa fuqarolarning hayoti, salomatligi, axloqi, huquqi va erkinliklarini ta'minlash uchun zarur bo'lgan darajadagina cheklanishi mumkin. Chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar O'zbekiston Respublikasi fuqarolari bilan teng ravishda vijdon erkinligi va diniy e'tiqod erkinligi huquqidan foydalanadilar hamda vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzganlik uchun qonunda belgilangan tarzda javobgar bo'ladilar.

**Viza** – (lot. ko'rib chiqilgan) ruxsatnoma. 1) Pasportga qo'yiladigan belgi, muayyan shaxsning boshqa davlat hududiga kirishiga, undan chiqib ketishiga yoki shu davlat hududi orqali o'tishiga ruxsat berilganligini bildiradi; 2) mansabdor shaxsning hujjat ustiga o'z fikrini bildirib imzo qo'yishi.

**Volyuntarizm** – (lot. iroda) ijtimoiy-siyosiy amaliyotda tarixiy jarayon obyektiv qonuniyatlarini inkor etish va ayrim shaxslar subyektiv istaklariga ko'ra qabul qilingan qarorlarga suyanish. **Siyosatda volyuntarizm** – subyektivizmning o'ta kuchli namoyon bo'lishi; subyekt irodasi, intilishlarini siyosatning bosh omili sifatida qaralishi; uni amalga oshiruvchi shaxslarning subyektiv irodasi va o'zboshimcha qarorlari bilan bilgilanuvchi siyosiy faoliyat. Siyosatda volyuntarizm siyosat yetakchilar, kichik guruh irodasi bilan yaratilishi haqidagi tasavvurlar bilan bog'liq; siyosiy hokimiyatning jamiyat hayotidagi o'rnini oshirib ko'rsatadi. Siyosatda volyuntarizm ayniqsa o'tish davri jamiyatlarida avj oladi. Uni cheklash – tashkilotlar va institutlar faoliyatida demokratiyani rivojlantirish, davlat miqyosida esa – qonunchilik, ijro va sud hokimiyatini aniq va izchil bo'linishi orqali amalga oshadi.

**Vasiylik va homiylik** – ota-onasining qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarga ta'minot berish, ularni tarbiyalash va ularga ta'lim berish, shuningdek, bunday bolalarning shaxsiy hamda mulkiy huquq va manfaatlarini himoya qilish. O'zbekiston Respublikasining vasiylik va homiylik to'g'risidagi qonuni 2014-yil 2-yanvarda qabil qilingan.

**Vakolat** – Fuqaroviy huquqiy munosabatlarda ishtirok etuvchi shaxsga beriladigan faoliyat doirasi

**Vasiqa** – O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik qonunchiligiga muvofiq, mol-mulkka egalik qilishni tasdiqlovchi dalolat – noma, hujjat.

**Vasiyatnoma** – qonunda belgilangan tartibda fuqaroning o'ziga tegishli mol-mulkni yoki bu mol-mulkka nisbatan huquqini vafot etgan takdirda tasarruf etish xususidagi xoxish-irodasi va bu istakni ifoda etiruvchi hujjat.

**Vindikatsion da'vo** – mulkdorning o'zganing noqonuniy egalik qilishidan ashyoni talab qilib olish huquqi yoki boshqacha qilib aytganda mulkka egalik qilmayotgan mulkdorning egalik kilayotgan mulkdor bo'lmagandan mol-mulkni qaytirish huquqi bo'yicha qiladigan da'vosi.

**Vositachilik haqi** – mijozning vositachiga uning topshirish bo'yicha amalga oshirgan operatsiyasi va ko'rsatgan xizmati uchun olinadigan haq.

**Xalq** – (arab. yaratilgan jonzot, odamlar) – keng ma'noda, muayyan mamlakatning barcha aholisi, tor ma'noda, tarixiy-etnoijtimoiy birliklarning turli shakllari, chunonchi, millat, elat, etnik birlik, urug' va boshqalarni ifoda etuvchi tushunchadir. Xalq – birinchi marta xalqaro huquq subyekti sifatida 1945-yili BMT Ustavida «Xalqlarning tengligi va o'z taqdirini o'zi belgilash» tamoyilining mustahkamlanishi natijasida tan olingan. Xalq – 1) umumiy tarixiy taqdir, o'xshash turmush tarzi belgilari va axloqiy qadriyatlar, shuningdek, yagona tarixiy jamoaga mansublik hissi asosida birlashuvchi ijtimoiy guruhlar birligi; 2) mamlakat, davlat aholisi. Xalq siyosatshunoslikning muhim kategoriyasi bo'lib, uning mohiyati yetakchi subyektning manfaatlari va siyosiy mavqeyiga qarab jiddiy ravishda o'zgaradi. Boshqaruvning oligarxik shakli tarafdori bo'lgan Aflotun xalqqa nisbatan olomon, donishmandlikka g'anim to'da sifatida bepisand munosabatda bo'lgan. Uning fikricha, ideal jamiyatda jismoniy mehnat bilan band bo'lgan fuqarolarning aksariyati davlat boshqaruvi sohasidan chiqarilishi va o'z lavozimini vakolatli mutaxassis posbonlar qo'liga topshirishi kerak. Afina demokratiyasining "oltin asri" vakillari yuqoridagiga zid bo'lgan fikrga asoslanganlar. Ularning fikricha, davlatni boshqarishda barcha fuqarolar ishtirok etishi lozim. Biroq, shuni inobatga olish kerakki, yuqorida keltirilgan har ikkala holatda ham yunon shahar-polislarining erkin fuqarolari haqidagina gap borgan. Keyingi avlodlarning siyosiy ongida "davlat ("respublika") degani "xalq ishi"dir" (Sisteron), degan fikri chuqur iz qoldirgan. Xalq deyilganda huquq va manfaatlarining umumiyli-gi masalalarida o'zaro kelishuv orqali bir-biriga bog'liq bo'lgan juda ko'p odamlarni tushunmoq kerakligi taklif qilingan. O'rta asrlar jamiyatida xalq ommasining hukmronlarga va hukmron tabaqalarga bo'ysunishini "oliy fazilat" sifatida ko'klarga ko'tarilgan. Hokimiyat uchun siyosiy kurashda "xalq" kategoriyasi burjuaziya jamiyati qaror topishi va rivojlanishi davrida hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Tabaqalar imtiyozlari va o'z umrini o'tab bo'lgan o'rta asr udumlariga qarshi chiqar ekan, burjuaziya doimo va hamma joyda "xalq" nomidan, "xalq" manfaatini ko'zlab hokimiyat uchun kurash olib borgan. Dunyoga kelayotgan burjuaziyaning mafkurachilari xalqning davlat tuzilishini belgilashga bo'lgan tabiiy huquqi haqida gapirganlar, mustabid tuzumning siyosiy o'zboshimchaliklariga javob tariqasida xalqning qo'zg'olon qilish huquqiga ega ekanligini e'lon qilganlar. Bu o'rinda xalq deyilganida millatning imtiyozli tabaqalariga qarshi turgan barcha qatlamlar tushuniladi. Xalq jamiyatning rivojlanishida bag'oyat ulkan rol o'ynaydi. Pirovard natijada, ayni xalqning qo'llab-quvvatlashi yoki qarshi turishi hukmron tuzum qancha muddat amal qilishini, uning muayyan shaklini, hokimiyatdagi umumiy barqarorlikni belgilab beradi. Siyosatshunoslik nuqtayi nazaridan qaraganda, xalq deyilganida hokimiyatning muayyan tizimi, muayyan davlat qurilishi nuqtayi nazaridan qaraladigan fuqarolar aholisining jamlamasi tushuniladi.

**Xalq qabulxonalari – O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev 2016-yil 28-dekabr kuni** Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash tizimini tubdan takomillashtirishga doir chora-tadbirlar to‘g‘risidagi farmoni e‘lon qilindi. Barcha darajadagi davlat organlari faoliyatida “Xalq davlat idoralariga emas, davlat idoralari xalqimizga xizmat qilishi kerak” degan tamoyilni amalga qaror toptirish, shuningdek jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlashning sifat jihatidan yangi tizimini joriy etish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Xalq qabulxonalari tizimi tashkil etildi. Bu fuqarolar bilan ochiq muloqotni yo‘lga qo‘yishning yangi samarali usul va mexanizmlarini tatbiq qilish, jumladan, barcha darajadagi hokimlar, prokratura va ichki ishlar organlari rahbarlarining aholi oldida hisobot berish tizimini joriy etishini ta‘minlaydi. Bundan maqsadi – fuqarolarning qonuniy murojaatlarini qisqa muddatda sinchiklab ko‘rib chiqishni va hal etishni ta‘minlashdir.

**Xalq deputatlari kengashlari** – O‘zbekiston Respublikasining mahalliy davlat hokimiyati vakillik organlari. Viloyatlar, tumanlar va shaharlarda (tumanga bo‘ysunadigan shaharlardan, shuningdek, shaharlar tarkibiga kiruvchi tumanlardan tashkari) davlat hokimiyatining vakillik organlaridir.

**Xalq farovonligi** – milliy istiqlol mafkurasining asosiy g‘oyalaridan biri. Xalq farovonligi har bir shaxs va oila farovonligi bilan bog‘liqdir. Bunda insonning shaxsiy manfaatlari jamiyat manfaatlari bilan uyg‘unlashib ketadi va har bir fuqaroning farovonligi butun jamiyat farovonligidir, degan tamoyil amalga oshadi.

**Xalqaro shartnoma** – respublikaning bir yoki bir necha davlat, xalqaro tashkilot yoxud xalqaro huquqning boshqa subyektlari bilan xalqaro munosabatlar sohasidagi huquq va majburiyatlariga doir teng huquqli va ixtiyoriy kelishuvidir. Xalqaro shartnomalar: shartnoma, bitim, konvensiya, protokol, memorandum, deklaratsiya, xatlar va notalar almashuvi deb nomlanishi va shunday ko‘rinishda tuzilishi, shuningdek boshqacha nomlanishi mumkin. Xalqaro shartnomalar unda ishtirok etuvchi subyektlarning soniga qarab ikki tomonlama va ko‘p tomonlama shartnomalar bo‘ladi. Xalqaro shartnomalar mazmuniga qarab iqtisodiy, siyosiy, huquqiy shartnomalar bo‘lishi, shuningdek boshqa masalalar bo‘yicha tuzilishi mumkin. Muddatiga qarab shartnomalar muddatli va muddatsiz bo‘ladi. Xalqaro shartnomalar boshqa turlarda ham tuzilishi mumkin.

**Xalqaro xavfsizlik** – siyosiy subyektlarga ularning qonuniy suverenitetini kafolotlovchi, xalqaro qonunlar amal qiluvchi geosiyosiy makon holati. Xalqaro xavfsizlik yagona global siyosiy makon vujudga kelishi sharoitida ro‘yobga chiqadi. BMTning xavfsizlik Kengashi agressorga turli vositalar bilan ta‘sir ko‘rsatish borasida topshiriq olgan. BMT bilan birga xalqaro xavfsizlik turli xalqaro tashkilotlar tomonidan ham nazorat qilinadi. Masalan, hozirgi vaqtda NATO (Shimoliy Atlantika bloki) eng ko‘p ta‘sir ko‘rsatuvchi tashkilot hisoblanadi. Xalqaro xavfsizlik muammosi borgan sari dolzarb bo‘lib bormoqda. Bu hol, bir tomondan, hozirgi dunyoni insonparvarlashtirish bilan, boshqa tomondan esa, harbiy harakatlar natijasida sivilizatsiya yo‘q bo‘lib ketishining real imkoniyati mavjudligi bilan bog‘liq. Xalqaro xavfsizlikka bo‘lgan ehtiyoj keng qamrov kasb etib bormoqda. Xalqaro xavfsizlik milliy yoki davlat darajasida, mintaqaviy va global



darajada amalga oshiriladi. Xavfsizlikka erishish uchun ta'sir ko'rsatishning – harbiy, siyosiy, iqtisodiy, gumanitar va shu kabi boshqa turli-tuman tizimlaridan foydalanilmoqda. O'zbekistonning birinchi Prezidenti I.A.Karimovning "6+3" kontakt guruhi doirasida Afg'onistonda tinchlik va barqarorlikni o'rnatishga qaratilgan tashabbuslari xalqaro va mintaqaviy xavfsizlikni ta'minlashga qo'shilgan amaliy hissa bo'ldi. Mintaqaviy xavfsizlikni ta'minlashga doir masalalar O'zbekiston tashqi siyosatining ustuvor yo'nalishini tashkil etadi. O'zbekiston birinchilardan bo'lib xalqaro terrorizm va diniy ekstremizmning emiruvchi mohiyatini tanqid qildi. 1993-yilda BMT ning Bosh Assambleyasi 48-sessiyasida O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.Karimov xalqaro hamjamiyatning barcha a'zolarini bu global tahdid bilan kurashda birlashishga, afg'on muammosini xalqaro hamjamiyat ko'magida bartaraf etishga chaqirdi.

**Xalqaro munosabatlar** – dunyo hamjamiyatining barcha subyektlari o'rtasidagi siyosiy, xo'jalik-iqtisodiy, ilmiy-texnik, valyuta-moliyaviy, ijtimoiy, diplomatik, huquqiy, harbiy, gumanitar, kommunikatsion aloqalar va munosabatlarning tizimli birligi (yaxliligi)dir. Xalqaro munosabatlar xalqlar, davlatlar va davlatlar tizimi o'rtasidagi aloqalar va o'zaro munosabatlarning jamlamasi deb ham tavsiflanadi. G'arb siyosatshunoslarining fikricha, xalqaro munosabatlar – ikki va undan ortiq davlatning o'zaro harakatlari, tashqi siyosat esa, bitta millatning tashqi munosabatlardagi harakatlardir. Xalqaro munosabatlar tushunchasiga doir turli nuqtayi nazarlarni shartli ravishda ikkiga bo'linadi. Birinchi holda xalqaro munosabatlarga nisbatan ijtimoiy munosabatlarning alohida turi, boshqa holda esa, bu munosabatlar ishtirokchilarining birgalikdagi harakatlari sifatida qaraladi. Xalqaro va ichki siyosatning bog'liqligi muammosining bir qator talqini mavjud. Birinchi nuqtayi nazardagilar mazkur bog'liqlikda xalqaro munosabatlarga ustunlik beradilar. Ularning fikricha, davlat ichki siyosati tashqi omillarning rivojiga (geografik determinizmga, geosiyosiy Konsepsiyalarga) qarab belgilanadi. Ikkinchi nuqtayi nazarga ko'ra, xalqaro munosabatlar ichki siyosatning bevosita davomi sifatida qaralishi kerak. Uchinchi talqinga ko'ra, ichki siyosat, tashqi siyosat va xalqaro munosabatlar bir-birini o'zaro muvozanatlashtirib turadi, ular teng huquqlidir. Bunday talqin tarafdorlari ichki va xalqaro munosabatlar negizi ijtimoiy taraqqiyotning yagona qonunlaridan iborat ekanligiga asoslanadilar. Mustaqil rivojlanishning dastlabki kunlaridanoq, xalqaro siyosiy muhitga faol kirib borayotgan O'zbekiston yil sayin hozirgi zamon xalqaro munosabatlariga doir muhim hujjatlarning tashabbuskorlaridan biriga aylanib bormoqda. O'zbekiston Respublikasi BMT, Xalqaro valyuta fondi (XVF), Rekonstruksiya va rivojlanish xalqaro banki (RRXB), Xalqaro mehnat tashkiloti (XMT) va boshqa shu kabi tashkilotlarning teng huquqli a'zosisidir. BMTda ishtirok etish, xavfsizlikni ta'minlash, terrorizm, ekstremizm, radikalizm va boshqa shu kabi inson uchun tahdid va tahlikalarga qarshi kurash sohasida BMT Bosh Assambleyasida, boshqa nufuzli va mintaqaviy tashkilotlar (YEXHT) sessiyalarida va shu kabilar minbarlaridan mamlakatimiz tomonidan bir qator tashabbuslar ilgari surilganligi juda muhimdir. Mazkur tashabbuslar xorijiy davlatlar tomonidan e'tirof etilmoqda va qo'llab-quvvatlanmoqda.

**Xalqaro munosabatlar nazariyasi** – siyosiy tadqiqotlar sohasi bo'lib, uning predmetini xalqaro tashkilotlar va uyushmalar (BMT, NATO, OBSE va h.), davlatlarning tashqi siyosiy faoliyati, xalqaro munosabatlar tashkil etadi. U shuningdek urush va tinchlik, xalqaro ixtiloflarni oldini olish va ularni boshqarish, yangi xalqaro tartibni shakllantirish masalalarini ham o'rganadi. Xalqaro munosabatlar nazariyasida xalqaro munosabatlar ishtirokchilari faoliyatining samaradorligiga katta e'tibor qaratiladi. Xalqaro munosabatlar qatnashchilari faoliyat ko'rsatadigan aloqalarning muhim turlariga diplomatik munosabatlar (rasmiy hukumat tuzilmalari doirasida amalga oshiriladi); iqtisodiy munosabatlar (xalqaro munosabatlar butun tizimining moddiy asosi sifatida namoyon bo'ladi); ijtimoiy munosabatlar (nohukumat tuzilmalari – siyosiy partiyalar, kasaba uyushmalari, ilmiy, ekologik va boshqa jamoat tashkilotlari hamda harakatlari ning xalqaro aloqalari hisobiga shakllanadi); harbiy, madaniy va boshqa munosabatlar kiritiladi. Xalqaro munosabatlar tizimining asosiy ishtirokchisi suveren davlatdir. An'anaviy subyekt sifatidagi davlatdan tashqari xalqaro tashkilotlar ham xalqaro munosabatlarning faol ishtirokchilari jumlasiga kiradi. Ular hukumat va nohukumat tashkilotlariga bo'linadi. Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT) xalqaro munosabatlar tizimida birinchi darajadagi eng ta'sirchan ishtirokchiga misol bo'ladi. Xalqaro nohukumat tashkilotlari jumlasiga Sotsial-demokratik partiyalar xalqaro birlashmasi, "Grinpis" – ekologlarning xalqaro tashkiloti va boshqa shu kabi siyosiy hamda jamoat tashkilotlari kiradi.

**Xalqaro nohukumat (nodavlat, jamoat) tashkilotlari** – a'zolari (fuqaroviy, siyosiy, madaniy, ijtimoiy va iqtisodiy sohalardagi umumiy manfaatlarni himoya qilish va ustav maqsadlariga erishish uchun birgalikdagi faoliyat asosida uyushgan) turli mamlakatlarning subyektlari hisoblangan va qonunchiligi xorijiy jismoniy yoki yuridik shaxslarga jamoat tashkilotlari tashkil etish va ularning rahbar organi tarkibiga saylanish imkonini beradigan davlatda ro'yxatdan o'tkazilgan shaxslardan iborat bo'lgan uyushmalardir.

**Xalqaro tashkilotlar** – muayyan maqsadlarga erishish uchun kelishuv asosida tuzilgan davlatlararo yoki nodavlat birlashmalari. Har bir xalqaro tashkilot ham o'z ustaviga ega bo'lavermaydi (masalan, Birlashgan Millatlar Tashkiloti – BMT o'z ustaviga ega, Yevropada Xavfsizlik va Hamkorlik Tashkiloti – YEXHT esa, faoliyatining xususiyatlariga ko'ra ustavga ega emas). Xalqaro tashkilotlar xalqaro hukumatlararo (davlatlararo) tashkilotlarga va xalqaro nohukumat (nodavlat, jamoat) tashkilotlariga bo'linadi. Xalqaro hukumatlararo (davlatlararo) tashkilotlar – davlatlar yoki ularning vakolatli institutsiyalari o'rtasida xalqaro shartnoma asosida tuzilgan davlatlar birlashmalari yoki davlatlar institutsiyalari. Xalqaro tashkilotlar o'z a'zolarining doirasiga qarab, quyidagi tarzda tasniflanadi: universal, ya'ni barcha davlatlar kirishi uchun ochiq bo'lgan tashkilotlar (BMT); mintaqaviy, ya'ni bitta mintaqada davlatlari a'zo bo'lishi mumkin bo'lgan tashkilotlar (Afrika birligi tashkiloti, Amerika davlatlari tashkiloti va boshqalar); mintaqalararo tashkilotlar. Vakolatlariga ko'ra xalqaro tashkilotlar quyidagicha bo'lishi mumkin: davlat suverenitetini cheklamaydigan davlatlararo tashkilotlar; davlatlar suverenitetini qisman cheklaydigan davlatdan yuqori (milliy tashkilotdan yuqori) turuvchi tashkilotlar. Bunday tashkilotlarga kirar ekan, a'zo-davlat-

lar o'z vakolatlarining muayyan qismini xalqaro tashkilotning organlari timsolida ana shu tashkilotga ixtiyoriy ravishda topshiradi. Bajarayotgan vazifalariga ko'ra xalqaro tashkilotlar me'yorlar ijodkorligi, maslahat, vositachilik, turli operatsiyalarni bajaradigan, axborot tashkilotlariga bo'linadi. Yangi a'zolarni qabul qilish bo'yicha xalqaro tashkilotlar quyidagilarga bo'linadi: har qanday davlat o'z xohishiga ko'ra a'zo bo'lishi mumkin bo'lgan ochiq xalqaro tashkilotlar; yangi a'zolarni dastlabki muassislarning roziligi bilangina qabul qiladigan yopiq xalqaro tashkilotlar. Xalqaro tashkilotlar o'z vakolatlariga (faoliyat sohasiga ko'ra) quyidagilarga bo'linadi: umumiy vakolatlariga ega tashkilotlar (BMT); maxsus vakolatli tashkilotlar, ya'ni siyosiy, iqtisodiy, kredit-moliya sohasidagi xalqaro tashkilotlar, savdo-sotiq, sog'liqni saqlash masalalari bilan shug'ullanuvchi va boshqa shu kabi tashkilotlar (Butunjahon pochta ittifoqi).

**Xalqaro terrorizm** – Xalqaro terrorizm-milliy va xalqaro xavfsizlikka tahdid soluvchi transmilliy uyushgan jinoyatchilikning bir turi sifatida o'tgan asrning 60-yillarida yuzaga kelgan bo'lib, maqsadlari davlat hokimiyatining boshqaruv tizimini o'zgartirish bo'lgan radikal xususiyatga ega ekstremistik va siyosiy guruhlar bilan kurashish shaklida ifodalanadi.

**Xalqaro tillar** – hozirgi zamon xalqlari orasidagi munosabatlarda eng ko'p ishlatiladigan tillar. BMTning rasmiy tillari – ingliz, Fransuz, ispan, rus va xitoy tillaridir.

**Xalqaro valyuta fondi** – BMTning ixtisoslashgan muassasasi maqomiga ega valyuta tashkiloti. Vazifasi – tashqi savdo va xalqaro valyuta – moliya hamkorliklarini rivojlantirishga yordam berishdan iborat. Resurslari unga uyushgan mamlakatlarning a'zolik badallari (kvota)dan tashkil topadi. O'zbekiston Respublikasi XVFGa 1992-yil 21-sentyabrda a'zo bo'ldi. O'zbekiston Respublikasi va XVF o'rtasidagi kelushuvning IV bandiga binoan, XVF vakillari doimiy ravishda O'zbekistonga tashrif buyurib, hukumat va Markaziy bank bilan maslahatlar olib borishadi. Shular qatori, 2013-yil sentyabr oyida, O'zbekiston Respublikasining 2013-yilda erishgan iqtisodiy yutuqlari va kelgusida qo'yilgan rejalarni baholash maqsadida, XVF vakillarining missiyasi tashrif buyurdi. Missiya davomida XVF bilan kelishuvning IV bandiga binoan keyingi bosqichlar xaqida kelishib olindi. Missiya yakunida, bank tizimi va umuman iqtisodiy rivojlanish haqida quyidagi xulosalar qilindi: «Global iqtisodiy holatning yomonlashishiga qaramasdan, O'zbekiston iqtisodiyoti o'sishda davom etdi. Kuchli byudjet va tashqi siyosiy pozitsiyalar, stabil bank tizimi va davlat qarzining quyi darajada ekanligi makroiqtisodiy maqsadlarga erishishga ko'maklashib kelmoqda. Bank tizimi stabil bo'lib bordi va likvidlikning yuqori darajasida yaxshi kapitalizatsiya bilan tavsiflandi. Moliyaviy bozorning rivojlanishi bir tekisda bormoqda. Rasmiy organlar prudentsial normativlarni tatbiq etish, joylarda tekshiruvlar o'tkazish, stress-tekshiruvlarni o'tkazish uchun XVF va Umumjahon banki tomonidan texnik ko'makni jalb qilishni davom ettirmoqda. Iqtisodiy rivojlanish istiqbollari ijobiy bo'lib, vaziyatni yomonlashishiga olib keluvchi risklarning asosiy qismini nazorat qilish imkoniyati mavjud. Tashqi omillarning yomonlashishiga qaramasdan, prognozlarga asosan, 2013-2014-yillarda iqtisodiy o'sishning templari 7% dan oshadi, bunga sabab hukumat darajasidagi katta ko'lamdagi modernizatsi-

yaga sarmoyalar kiritish davlat dasturi hisoblanadi. Shu bilan bir qatorda, 2012-yilda boshlangan, bank faoliyatini nazorat qilish masalalari bo'yicha texnik ko'mak dasturi asosida ishlar olib borilmoqda. Texnik ko'mak doirasida jalb etilgan XVF ekspertlari, bank tizimini nazorat qilish darajasini ijobiy baholashdi. Markaziy bank tomonidan, XVF taqdim etgan takliflarni inobatga olgan holda, reja ishlab chiqilib, Markaziy bankning bir qator hujjatlariga o'zgartirishlar kiritildi. Bugungi kunda missiyaning bank aktivlarini klassifikatsiya qilish va faoliyatini stress-tekshirish bo'yicha takliflari qo'llanilib kelinmoqda. Likvidlik va kapital bo'yicha yangi talablar, 2015-yil 1-yanvardan boshlab, bosqichma bosqich joriy etiladi. Shu bilan birga, O'zbekiston hukumatining iqtisodiy tashkilotlari (Moliya vazirligi, Iqtisodiyot vazirligi, Markaziy bank) hodimlarining XVF o'quv maskanlarida malakasini oshirish bo'yicha ishlar olib borilmoqda.

**Xalqaro savdo** – milliy xo'jaliklar o'rtasida to'lanadigan jami tovar aylanmasi ko'rinishidagi mehnat mahsulotlari ayirboshlashning o'ziga xos shaqlidir.

**Butunjahon tiklash va taraqqiyot banki (XTTB)** – o'z faoliyatini 1946-yilda boshladi. Bu tashkilotga faqat XVFga a'zo mamlakatlar kirishi mumkin. XTTBning maqsadi: a'zo mamlakatlar iqtisodiyotini qayta qurishga va rivojlanishiga kapital qo'yilmalar berish hamda xususiy chet el investitsiyalarini rag'batlantirish orqali ko'maklashish, to'lov balansi muvozanatini ta'minlashga qaratilgan qarz berish (25-yilgacha). XTTBning boshqaruv kengashida hal qiluvchi ovozga jaqonning etakchi mamlakatlari (ettilik davlatlari) ega hisoblanadi.

**Xalqaro huquq** – bu davlatlar va ushbu huquq tizimi – ning boshqa subyektlari o'rtasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi yuridik normalar sistemasi.

**Xalqaro munosabatlar** – bu davlatlar o'rtasidagi siyosiy, iqtisodiy-madaniy, huquqiy, diplomatik, g'arbiy va boshqa turdagi alokalar va munosabatlar majmuyi.

**Xalqaro huquq tizimi** – bu o'zaro ichki bog'lik elementlarning obyektiv mavjud bo'lgan bir butunligidir.

**Xalqaro huquq tamoyillari** – bu ijtimoiy amaliyot natijasida vujudga keladigan xalqaro huquqning yuridik mustahkamlangan asoslari bo'lib, huquq subyektlari xatti-harakatining rahbariy qoidalari.

**Xalqlarning o'z taqdirini o'zi belgilashi tamoyili** – xalqaro huquqning eng qat'iy, asosiy tamoyillaridan biri. U quyidagilarni nazarda tutadi: xalq o'z davlat tuzilishini erkin tanlashi, shu jumladan, davlat tarkibidan chiqib, mustaqil davlat tuzishgacha; o'z rivojlanishining iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy-madaniy istiqbollariga oid masalalarni mustaqil hal etishi; davlatchilikning institutlari va ramzlarini erkin tanlash huquqi; xalqlarning yagona davlatga birlashishi ixtiyoriyligi. Millatlarning o'z taqdirini o'zi belgilashi huquqi namoyon bo'lishi shakllari: ayirmachilik (xalq talabi asosida millatning ko'p millatli davlat tarkibidan chiqishi) va birlashish (bir millatning boshqasi bilan Federatsiya, konfederatsiya yoki muhtoriyat asosida birlashishi).

**Xaos** – (qad. yun.) tartibsizlik, mavhumlik.

**Xarizma** – (gr. ilohiy qobiliyat) katoliklarda xudo tomonidan cherkov manfaati yo'lida qo'llash uchun biron shaxsga berilgan ruhiy-ma'naviy fazilat. Sotsiologiyaga Grelch tomonidan kiritilib, M.Veber uni hukmronlikning ideal turlari to'g'risidagi qarashlarida tahlil qilgan. Xarizmatik hukmronlik, M.Veberga ko'ra,

yetakchiga xos alohida sifatarga asoslanadi. Yetakchi va omma munosabatlari hissiy darajada, to'liq o'zligidan kechish, ko'r-ko'rona ishonch asosiga quriladi. Keyingi yillarda tushunchaga e'tibor yana jonlandi. Zamondosh olim A.M.Ganter xarizmatik yetakchiga xos 6 asosiy xususiyatni ko'rsatgan: 1) odamlarga hissiy-emotsional ta'sir eta olish, atrofdagilarga quvvat bera olish qobiliyati; 2) ommada yaxshi taassurot qoldiruvchi qiyofaga ega bo'lish; 3) ulkan kommunikativ qobiliyatlar, katta auditoriyalarni o'ziga jalb eta olish; 4) o'ziga qaratilgan e'tiborni ijobiy qabul qilish; 5) o'ziga ishonish; 6) buyuk maqsadlarga erisha oladigan kuchli inson imidjiga ega bo'lish.

**Xartiya** – (yun. qog'oz, yorliq) o'rta asrlarda ommaviy huquqiy siyosiy xarakterdagi hujjat bo'lgan. Hozirgi xalqaro huquqda deklaratsiyaning sinonimi. U – majburiy kuchga ega bo'lmagan, umumiy tamoyillar va maqsadlarni ifoda etuvchi hujjat.

**Xartlend** – (ingl.) geosiyosatda «markaziy yer», kurrai zaminning bosh, asosiy qit'asi tushunchasi. Unga egalik qilish ~ dunyoga egalik qilish imkonini beradi.

**Xolding** – odatda, ishlab chiqarishning bir tarmog'i doirasida korxonalarining hamkorlikdagi faoliyatini aksiyalarning (yoki boshqa qimmatli qog'ozlarning) kontrol paketiga egalik orqali nazorat etish usuli. Xolding kompaniyasi a'zolari xo'jalik va huquqiy jihatdan mustaqilliklarini saqlagan bo'ladilar. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining xoldinglar to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida qarori 1995-yil 12-oktyabrda qabul qilingan.

**Xolding kompaniya** – bu mulk egalari tomonidan bir qancha mustaqil Aktsiyadorlik jamiyatlari faoliyatini nazorat qilish maqsadida tashkil etilgan hissa-dorlik jamiyati.

**Xorijiy (xalqaro) kuzatuvchi** – xorijiy kuzatuvchilar saylovlarga tayyorgarlik ko'rish va ularni o'tkazish, shu jumladan, ovoz berish, ovozlarni sanab chiqish, saylov natijalarini aniqlash jarayonlarini kuzatuvchi xorijiy davlatlar vakillaridir. Xorijiy davlatlardan kuzatuvchilarga ekspertlar va mutaxassislar, shuningdek, saylov huquqi, davlat va jamiyat boshqaruvi sohasi tadqiqotchilari kiradi. Jumladan, bular taniqli va obro'li huquqshunoslar, siyosatshunos olimlar, davlat organlari mansabdor shaxslari, OAV va jamoat tashkilotlari vakillari, milliy parlamentlar a'zolari, tijorat tuzilmalari rahbarlari, shuningdek, O'zbekiston Respublikasida akkreditatsiya qilingan diplomatik korpus vakillaridir. Xorijiy (xalqaro) kuzatuvchilar faoliyati qonunlar va Markaziy saylov komissiyasining tegishli Nizomi asosida tartibga solinadi. «O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylov to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi qonuni 6-moddasining to'rtinchi qismiga muvofiq saylovga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazishga doir barcha tadbirlarda, shuningdek, saylov kuni ovoz berish xonalarida hamda ovozlarni sanab chiqishda boshqa davlatlar, xalqaro tashkilotlar va harakatlardan kuzatuvchilar (bundan buyon matnda xorijiy kuzatuvchilar deb yuritiladi) qatnashish huquqiga egadirlar. Xorijiy kuzatuvchilarning vakolatlari tegishli hujjatlar bilan tasdiqlangan bo'lishi kerak. Xorijiy kuzatuvchilar O'zbekiston Respublikasiga kirish uchun O'zbekistonga kirishni tartibga soluvchi O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlariga asosan ruxsat oladilar. Xorijiy kuzatuvchilarning vakolat muddati ularga O'zbekiston Respublikasi Markaziy saylov

komissiyasi tomonidan mandat berilgan kundun boshlanadi va saylov yakunlari rasman e'lon qilingan kuni tugaydi. Xorijiy kuzatuvchilar o'z faoliyatlarini mutaqil ravishda amalga oshiradilar. Ularning moddiy-maishiy ta'minoti ularni vakil sifatida yuborgan davlatlar, xalqaro tashkilotlar va harakatlar mablag'lari hisobidan amalga oshiriladi.

**Xo'jalik yurituvchi subyekt** – tovarlarni ishlab chiqarish, olish va realizatsiya qilish faoliyati bilan shug'ullanuvchi yuridik shaxs, shu jumladan, chet ellik yuridik shaxs, xo'jalik boshqaruvi organi, shuningdek, yakka tartibdagi tadbirkor.

**Xronologiya** – (gr. vaqt to'g'risidagi ta'limot) voqealarni ularning tarixiy ketma-ketligidagi tartibiga ko'ra joylashtirish; hodisalar vaqtini, hujjatlar paydo bo'lgan vaqtini aniqlash.

**Xunta** – (isp. majlis, birlashma) 1) ispan tilli mamlakatlarda davlat hokimiyatining oliy kollegial organi nomi; 2) davlat to'ntarishi yoki boshqa nokonstitutsion yo'l bilan hokimiyat tepasiga kelgan harbiy (aralash) guruhlar nomi.

**Xususiy** – 1) biror shaxsning yolg'iz o'ziga qarashli, tegishli bo'lgan mulki, shaxsiy; 2) ayrim shaxslar tomonidan yakka tartibda amalga oshiriladigan; 3) muayyan bir narsa yoki mavzuga bag'ishlangan.

**Xususiy firmalar** – ayrim shaxslarga va ayrim oilalarga qarashli bo'lib, yakka xususiy mulk hisoblanadi.

**Xususiy tadbirkorlik** – bu fuqarolar (alohida fuqaro) tomonidan o'zlarining tavakkalchiliklari va mulkiy javobgarliklari asosida, shaxsiy daromd (foйда) olish maqsadida amaldagi qonunchilik doirasida amalga oshiriladigan tashabbuskor xo'jalik faoliyatidir.

**Xususiy mulk** – biror shaxs, oila, korxonalar, firma, tashkilot mulki – yer, uy-joy, bino, inshootlar va ishlab chiqarish vositalari, pul, qimmatbaho qog'ozlar. XM ishlab chiqarish yoki o'z qobiliyatini ishga solishdagi tadbirkorlik, o'z xo'jaligini yuritish, daromadni turli qimmatbaho qog'ozlarga joylashtirish natijasida, merosga qolgan mulk va boshqa qonun yo'l qo'yadigan sohalar asosida yuzaga keladi va ko'payib boradi. O'z mol-mulkiga xususiy tarzda egalik qilish, undan foydalanish va uni tasarruf etish huquqidan iborat. Xususiy mulk boshqa mulk shakllari kabi daxtsiz va davlat himoyasidadir. Mulkdor o'z mulkidan faqat qonunda nazarda tutilgan hollarda va tartibdagina mahrum etilishi mumkin. Xususiy mulk fuqarolarning yollanib ishlashdan, tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanishdan olgan daromadlari hamda kredit muassasalariga qo'ygan mablag'laridan, Aksiyalar va boshqa qimmatli qog'ozlardan kelgan daromadlardan, meros bo'yicha va amaldagi qonun hujjatlarida man etilmagan o'zga asoslarga muvofiq mol-mulkka ega bo'lishlari hisobiga hosil etiladi va ko'payib boradi. Fuqarolarning xususiy mulki ularning davlat mulkini xususiy lashtirishda ishtirok etishi hisobidan vujudga keltirilishiga ham yo'l qo'yiladi. Xususiy mulk bo'lishi mumkin bo'lmagan obyektlar O'zbekiston qonunlari bilan belgilab qo'yiladi.

**Xo'jalik shirkati** – bu shirkat nomidan harakat qiluvchi ikki yoki undan ortiq shaxsning tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish uchun tuzgan shartnomaviy yuridik shaxs maqomiga ega bo'lgan birlashmasi.

**Xususiy mulk huquqi** – shaxsning qonun hujjatlariga muvofiq tarzda qo'lga kiritgan mol-mulkka egalik qilish, undan foydalanish va uni tasarruf etish huquqi.

**Xususiyashtirish** – jismoniy shaxslarning va davlatga taalluqli bo'lmagan yuridik shaxslarning davlat mulki obyekt larini yoki davlat aksiyali jamiyatlarining aksiyalarini davlatdan sotib olish.

## Y

**Yalpi milliy mahsulot (YaMM)** – milliy xo'jaliklarda bir-yil davomida vujudga keltirilgan va bevosita iste'molchilarga borib tushishi mumkin bo'lgan tayyor pirovard mahsulot va xizmatlarning bozor narxidagi qiymatidan iborat bo'ladi.

**Yalpi ichki mahsulot (YalM)** – yil davomida mamlakat hududida ishlab chiqarilgan pirovard mahsulot va xizmatlarning bozor narxlardagi qiymati.

**Yadrosiz hudud** – xalqaro shartnoma asosida yadroviy qurollarni ishlab chiqish, joylashtirish hamda sinashni taqiqlovchi rejim o'rnatilgan hudud. Yadrosiz hudud xalqaro va mintaqaviy xavfsizlikni ta'minlashning muhim vositasi hisoblanadi. Ayni paytda jahonda 6 ta yadrosiz hudud mavjud – Antarktida (Antarktida tog'risida shartnoma, 1959 y), Afrika (BMT Bosh Assambleyasi Rezolyutsiyasi, 1961.), Lotin Amerikasi (Lotin Amerikasi yadro qurolini taqiqlash tog'risidagi shartnoma yoki Tlatelolka shartnomasi, 1967 y.) Janubiy Tinch okeani yadrosiz hududi (Raratonga shartnomasi, 1985 y), Janubiy-Sharqiy Osiyo yadrosiz hududi (Bangkok shartnomasi, 1995 y) va Markaziy Osiyo yadrosiz hududi (Markaziy Osiyo yadro qurolidan erkin hududni yaratish tog'risidagi shartnoma, 2006 y). Yadro qurolining mavjud bo'lmasligi hamda postsovet makonida "yadro quroli ustidan yagona nazorat"ning saqlab qolinishi zaruriyati (MDHni tuzish tog'risidagi shartnomaning 7-moddasi) markaziy Osiyoda mintaqaviy xavfsizlikni ta'minlashning muhim sharti hisoblanadi.

**Yashillar** – ekologik siyosatni amalga oshirish trafdiri bo'lgan, tabiiy muhitni sog'lomlashtirish va himoyalashni asosiy maqsad qilib olgan jamoatchilik harakati yoki siyosiy partiya.

**Yashirin ovoz berish tamoyili** – saylovchining hech bir tashqi ta'sirsiz o'z xohish-irodasini ifoda etishidir. O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining davlat hokimiyati organlariga saylovlarda ovoz berish chog'idagi xohish-irodalarini ifodasi sir saqlanishini kafolatlovchi konstitutsiyaviy tamoyil. Ovoz berishning yashirinligi fuqaroning xohish-irodasi har qanday yul bilan nazorat qilinishi mumkinligini istisno etadi, uning bergan ovozi natijalari boshqa shaxslarga oshkor qilinmasligini kafolatlaydi. Ushbu tamoyil fuqarolarning xohish-irodalarini bildirish erkinligini ta'minlaydi. Hech kim fuqaroni muayyan nomzodni yoqlab yoxud unga qarshi ovoz berishga majbur etishi mumkin emas. Ovoz berishning yashirinligi saylov tog'risidagi qonunlarda ko'zda tutilgan maxsus qoidalar yordamida ta'min etiladi. Fuqaro bir xil namunada tayyorlangan ovoz berish byulletenini oladi va uni maxsus tayyorlangan yashirin ovoz berish kabinesi yoki xonasida to'ldiradi. Byulletenlarda uni to'ldirgan shaxsning kimligini

ko'rsatuvchi yozuv yoki belgi bo'lishiga yul qo'yilmaydi. Qonunchilikda muddatdan oldinroq ovoz berishni va saylov komissiyasi binosidan tashqarida ovoz berishni amalga oshirish chog'ida ham xohish-iroda ifodasi yashirinligiga amal qilish kafolatlari belgilangan. Yashirin ovoz berish tamoyilining saylov komissiyalari a'zolari, mansabdor shaxslar tomonidan bo'zilishi aybdorlarning jinoiy va ma'muriy javobgarlikka tortilishiga sabab bo'ladi. «O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylov to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni (yangi tahrir) ning 5-moddasiga ko'ra, «Qonunchilik palatasi deputatlari saylovida erkin va yashirin ovoz beriladi. Ovoz beruvchilarning xohish-irodasi nazorat qilinishiga yo'l qo'yilmaydi».

**Yevroposentrizm** – G'arbiy Yevropa madaniyati butun insoniyat uchun na'muna, deb qarovchi Konsepsiya. Unga ko'ra G'arbiy Yevropa – jahon taraqqiyoti markazidir.

**YEXHT (ОБСЕ)** – 1973-yil iyul oyida tashkil topgan. Markaziy Osiyo, Yevropa va Shimoliy Amerikadagi 57 ta davlatni birlashtirgan xalqaro tashkilot. O'zbekiston 1992-yilning 26-fevral kuni Yevropada Xavfsizlik va Hamkorlik Tashkiloti (YXHT) ishtirokchisi hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasini YXHT va uning institutlari bilan o'zaro hamkorligi turli darajalarda boradi va o'z ichiga keng qamrovli muammo va masalalarni oladi. O'zbekiston Respublikasining YXHT huzuridagi doimiy vakolatxonasi 1994-yilda Vena shahrida o'z ishini boshlagan. 1995-yilda O'zbekiston tomonining tashabbusligida Toshkent shahrida YXHTning Markaziy Osiyo bilan aloqa Byurosi ochildi. 1999-yilda Tashkilotning O'rta Osiyo davlatlarida va Qozog'istonda alohida vakolathonalarining ochilishi munosabati bilan Byuro YXHTning Toshkentdagi Markaziga aylantirildi. 2006-yil iyun oyida O'zbekiston taklifiga ko'ra Tashkilot Doimiy kengashining O'zbekistonda YXHT loyihalari muvofiqlashtiruvchisi ofisi tashkil etilishi to'g'risida qarori qabul qilindi. Shu yil iyul oyida O'zbekistonda YXHT loyihalari muvofiqlashtiruvchisi lavozimi tashkil etilishi to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Hukumati va YXHT kotibiyati o'rtasida Memorandum imzolandi. Hamkorlikning ushbu ko'rinishi O'zbekiston tomoni uchun muhim ahamiyatga ega bo'lgan loyihalar va O'zbekiston va tashkilotning o'zaro ta'sirini kuchaytirishdagi YXHT faoliyatini bir joyga jamlash imkonini berdi. Imzolangan Memorandum doirasida 2007-yilda respublikaning vazirliklari va idoralari hamkorligida YXHTning barcha uch yonalishida 18 ta loyiha amalga oshirilgan bo'lsa, 2008-yilda – 15 ta, 2009-yilda – 14 ta, 2010-yilda – 12 ta, 2011-yilda – 12 ta, 2012-yilda – 11 ta, 2013-yilda – 11 ta loyiha amalga oshirildi. 2014-yilda amalga oshirish uchun 14 ta loyiha tasdiqlangan. Hozirgi vaqtda respublikada 20 dan ortiq YXHT loyihasi amalga oshirilmoqda. Hamkorlikning asosiy urg'usi O'zbekistonning milliy manfaatlari va xalqaro kun tartibidagi masalalarni, xavfsizlikning yangi tahdid va da'vatlarini hisobga olgan holda barcha uch yonalish bo'icha tashkilot doirasida qabul qilingan majburiyat va tamoyillarni respublikada amalga oshirishga yonaltirilgan. Loyihalarni amalga oshirishda fuqarolik jamiyatining institutlari, shuningdek inson huquqlarini himoya qilish hukumat idoralari – Oliy Majlisning inson huquqlari bo'icha vakili (Ombudsman), Inson huquqlari Milliy markazi hamda O'zNNTMA va boshqa nodavlat notijorat tashkilotlari faol jalb etilgan. O'zbekis-



tonni doimo ravishda YXHTning amaldagi raislari tashrif buyurishadi: 1998-yilda – B.Geremek (Polsha), 1999-yilda – K.Vollebek (Norvegiya), 2000-yilda – B.Ferrero-Valdner (Avstriya), 2001-yilda – M.Djeoane (Ruminiya), 2002-yilda – A.Martinsh da Krush (Portugaliya), 2003-yilda – Ya.H. de Sxeffer (Gollandiya), 2004-yilda – S.Passy (Bolgariya), 2005-yilda – D.Rupel (Sloveniya), 2006-yilda – K. de Gyuxt (Belgiya), 2007-yilda – M.Moratinos (Ispaniya), 2008-yilda – A.Stubb (Finlyandiya), 2011-yilda – A.Adjubalis (Litva), 2013-yilda – L.Kojara (Ukraina). 2013-yilda O'zbekistonga YXHTning Bosh kotibi L.Zannier tashrif buyurdi. 2008-2013-yillarda O'zbekistonga shuningdek tashkilotning rasmiy vakillari bir necha bor tashrif buyurishdi: OAV erkinligi bo'icha vakil M.Harashti (2008 va 2009-yillarda), Nizolarni oldini olish Markazi direktori G.Zalber (2009 va 2011 yillarda), Kam millatlar masalalari bo'icha Oliy komissar K.Vollebek (2009, 2010, 2011 va 2012 yillarda), Demokratik institutlar va inson huquqlari Byurosi direktori Ya.Lenarchich (2009-yilda), OAV erkinligi bo'icha vakili D.Miyatovich (2011-yilda), Odam savdosiga qarshi kurashish masalalari bo'icha YXHT maxsus vakili va muvofiqlashtiruvchisi M.G.Djiammarinaro (2013-yilda). O'zbekistonning YXHT bilan hamkorlik va xavfsizlik masalalari bo'icha tashabbuslari tashkilotning qator hujjatlarida o'z aksini topgan. O'zbekiston Respublikasi vazirliklari va idoralari vakillari YXHTning barcha uch yonalishlari bo'icha o'tkaziladigan anjuman, forum, seminar va treninglarda qatnashib keladilar. O'zbekiston delegatsiyasi YXHTga a'zo mamlakatlarni tashqi ishlar vazirlari yillik uchrashuvlarida qatnashib keladi. 2013-yil 5-6-dekabr kunlari Ukrainaning poytaxti Kievda bo'lib o'tgan tashqi ishlar vazirlarining navbatdagi uchrashuvida O'zbekiston delegatsiyasi tashqi ishlar vaziri o'rinbosari darajasida ishtirok etdi.

**Yevropa Ittifoqi** – Yevropadagi 28 ta davlatni birlashtirgan iqtisodiy va siyosiy birlashma. 1992-yil Maastrixt shahrida mintaqaviy integratsiyaga mo'ljallangan hujjatlarning imzolinishi bilan ittifoq yuzaga kelgan. Hujjatlar 1993-yil 1-noyabrdan kuchga kirgan. O'zbekiston mustaqillikning birinchi-yillaridan boshlab Yevropa bilan hamkorlikni o'z tashqi siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilab oldi. O'zbekiston bilan Yevropa mamlakatlari o'rtasidagi munosabatlar ikki tomonlama va 1999-yilning 1-iyulidan kuchga kirgan O'zbekiston Respublikasi va Yevropa Ittifoqi hamda unga a'zo davlatlar bilan Sherikchilik va hamkorlik kelishuvi doirasida rivojlanib bormoqda. O'zbekistonning Yevropa Ittifoqi bilan ikki tomonlama muloqoti faol xarakterga ega, u 5 asosiy qo'shma organ doirasida amalga oshirilmoqda: Hamkorlik kengashi (11 ta yig'ilishi bo'lib o'tgan), Hamkorlik qo'mitasi (11 ta yig'ilishi), Parlament hamkorligi qo'mitasi (10 ta yig'ilishi), Savdo va investitsiyalar bo'yicha quyi qo'mita (9 ta yig'ilishi) hamda Adliya, ichki ishlar va boshqa masalalar bo'yicha quyi qo'mita (10 ta yig'ilishi). 2011-yil 24-yanvar kuni O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.A.Karimovning Bryusselga tashrifi bo'lib o'tdi. Tashrif doirasida Yevropa Komissiyasi prezidenti J.M.Barrozo va A'rof-muhitning energetika masalalari bo'yicha komissari G.Ettinger bilan uchrashuvlar o'tkazildi. Shuningdek O'zbekistonda YI (Yevropa Ittifoqi) diplomatic vakolatxonasini (Delegatsiyasini) tasis etish to'g'risidagi Kelishuv, O'zbekiston Respublikasi va YI o'rtasida energetika sohasidagi hamkorlik to'g'risidagi Bayonnoma hamda 2011-2013

yillarda Yevropa Komissiyasi texnik ko'magi Indikativ dasturini amalga oshirish to'g'risidagi Bayonnoma imzolandi. Bryussel shahriga oliy darajadagi tashrif atrof-muhitning O'zbekiston Respublikasi bilan turli sohalardagi o'zaro manfaatli hamkorlikni teng huquqlik va o'zaro sheriklik asosida kengaytirishga bo'lgan qiziqishini namoyon etdi.

2011-yilning 31-may kuni Atrof-muhit Delegatsiyasi O'zbekistonda akkreditatsiyadan o'tkazildi. Hozirgi kunda, YIning O'zbekistondagi elchisi sifatida Yuriy Shterk faoliyat yuritmoqda. 2012-yilning 28-noyabrida Atrof-muhitning tashqi siyosat va xavfsizlik masalalari bo'yicha Oliy vakili Ketrin Eshton O'zbekistonga tashrif buyurdi. Ushbu tashrif doirasida u birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov tomonidan qabul qilindi. O'zbekiston YI tashabbusi bilan ta'sis etilgan Atrof-muhit-Markaziy Osiyo mintaqalararo muloqotida faol istirok etib kelmoqda. O'zbekiston-YI munosabatlarining asosi 1992-yil 15-aprelda o'zbek hukumati va Yevropa komissiyasi tomonidan imzolangan o'zaro ishonch memorandumini hisoblanadi. 16-noyabr 1994-yilda esa ikki tomon o'rtasida diplomatik aloqalar yo'lga qo'yildi. 1995-yilning yanvar oyida Bryusselda O'zbekiston elchixonasi ochildi. 2002-yilga qadar, Yevropa Ittifoqining O'zbekistonga ko'rsatayotgan ko'magi faqatgina ikki tomonlama munosabatlarga asoslangan edi. 2002 – 2006-yillar oralig'ida esa ushbu ko'mak Markaziy Osiyoga mo'ljallangan TACIS dasturi doirasida ko'rsatildi. E'tibor birinchi navbatda, boshqaruv va ta'lim tizimini isloh qilishga, Farg'ona vodiysi ijtimoiy masalalarini hal etish hamda qoraqalpog'iston Respublikasida yashash darajasini oshirishga qaratildi. 2007-yil iyun oyidan, Yevropa Kengashi "Yevropa Ittifoqining Markaziy Osiyo bilan yangi hamkorlik strategiyasi"ni ishlab chiqdi va qabul qildi. 2008-yil iyun oyida esa, birinchi bosqich hisoboti nashr qilindi. O'zbekiston bilan Sheriklik va hamkorlik to'g'risidagi shartnoma 1996-yildayoq imzolangan edi. Bu hujjat Yevropa Ittifoqi va 1999-yildan o'z hududida ratifikatsiya qilgan O'zbekiston o'rtasidagi munosabatlarining yuridik jihatlari belgilab berdi. 2009-yil 27-oktyabr sanasida, YI Umumiy Ishlar va Tashqi aloqalar Kengashi YI tomonidan O'zbekistonga qo'yilgan cheklov choralarini, xususan qurol savdosiga qo'yilgan embargo ni tamomila bekor qilish to'g'risida qaror qabul qildi. Shuning uchun ham 2007-2013-yillar oralig'ida Yevropa Ittifoqi mintaqa mamlakatlari, xususan O'zbekistonga ko'rsatiladigan ko'magini oshirishni rejlashtirtirgan. YIning Markaziy Osiyoga ko'rsatiladigan bu yordami ikki hujjatda o'z aksini topgan: birinchidan, 2007-yil iyun oyida hukumat va davlat rahbarlari yiqilishida qabul qilingan "YIning Markaziy Osiyodagi strategiyasi"; ikkinchidan, Yevropa komissiyasi tomonidan Markaziy Osiyoga nisbatan ishlab chiqilgan "2007-2013 mintaqaviy ko'mak strategiyasi". Bu ikki hujjatlar nafaqat ikki tomonlama balki mintaqaviy hamkorlikka ham tegishli. 2007-2010-yillar oralig'i uchun 314 million yevrodan ortiq mablag' ajratildi. Yana boshqa bir davriy dastur 2011 – 2013-yillarga mo'ljallangan. Yevropa Ittifoqi tashqi aloqalar markaziy qo'mitasi ma'lumotlariga ko'ra, mintaqaviy va ikki tomonlama hamkorlik quyidagi yo'nalishlarda olib boriladi: milliy darajada O'zbekistonga ikki tomonlama hamkorlik doirasida 32,8 million yevro miqdorida mablag' ajratildi. Bu ko'mak milliy dasturlarni amalga oshirishga qaratildi. Faoliyatning belgilangan istiqbolli yo'nalishlari quyidagilardan iborat:

- kambag'allikni oldini olish va yashash tarzini yaxshilash;
- mahalliy va mintaqaviy Taraqqiyot;
- ijtimoiy soha va qishloq xo'jaligini rivojlantirishga qaratilgan islohotlarni amalga oshirish;
- iqtisodiyotni va boshqaruvni isloh qilish;
- demokratlashuv va boshqaruv tuzilmalarini yo'lga qo'yish (fuqarolik jamiyatini, ijtimoiy muloqot va demokratlashuv, yuridik islohotlar va huquqiy davlatni, mahalliy ma'muriyatni va mahalliy moliyaviy boshqaruvni tartibga solish);
- savdo va bozor iqtisodiyoti sohalarida belgilab qo'yilgan islohotlar va ma'muriy layoqatni mustahkamlash.

Mintaqaviy dasturlardan ko'zlangan asosiy maqsad Markaziy Osiyoda yaxshi qo'shnichilik munosabatlari va mintaqaviy hamkorlikni qo'llab-quvvatlashdan iborat: 94,2 million yevrodan ortiq mablag' ushbu sohaga ajratilgan. TACIS doirasida, O'zbekiston YIning BOMCA (Chegara zonasi boshqaruvi), CADAP narkotrafik ustidan nazorat), TRACERA (transport), INOGATE (energiya) hamda TEMPUS (ta'lim) va INTAS (fan) kabi mintaqaviy dasturlari qatnashchisi hisoblanadi.

- O'zbek tashkilotlari xalqaro maqomdagi ko'mak dasturlarga ham a'zo;
- Inson resurslariga sarmoya yo'naltirish (kasalliklar, sog'likni saqlash, ta'lim, madaniyat, ish bilan ta'minlash, yoshlar masalalari);
- Ekologiya;
- Nodavlat tashkilotlar, Taraqqiyotda mahalliy boshqaruvning roli;
- Oziq-ovqat xavfsizligi;
- Migratsiya va boshpana masalalari;
- Demokratiya va inson huquqlarini ta'minlanishi.

YI kengashi tomonidan 2007-yil 31-mayda qabul qilingan hujjat YI Markaziy Osiyo va xususan O'zbekistonda amalga oshirayotgan faoliyati negizlarini belgilab beradi. Ushbu yuridik hujjatda YI shu davrgacha o'z faoliyatida kuzatilgan "chetda qolganlikka" chek qo'yishga qaror qildi. Markaziy Osiyo mamlakatlarga umumiy yondashuv kuchayibgina qolmay, Yevropaga endilikda mintaqaning besh mamlakati hayotida muhim rol o'ynashga kirishdi. Bugungi kunda, Yevropa Ittifoqi O'zbekistonning kamol iqtisodiy va savdo hamkoridir. 2009-yil yakunlariga ko'ra, o'zaro tashqi savdo ko'lami 2008-yilga qaraganda 80% ga oshib, bu ko'rsatkich 2 milliard AQSH dollariga yaqin summani tashkil qildi. Shuningdek, 800 ga yaqin o'zbek korxonalarida Yevropa kapitali ulushi mavjud. Mamlakatda YI ning esa 300ga yaqin korxonalari faoliyat olib bormoqda. Hozirda, 24 ta qo'shma loyihalar ishlab chiqilmoqda. Ularga ajratilgan moliyaviy mablag' 66 million evroni tashkil etadi. Ular orasida, 8 ta loyiha mintaqaviy, 16 tasi esa milliy dasturlardir.

**Yoshlarga oid davlat siyosati** – davlat tomonidan amalga oshiriladigan hamda yoshlarni ijtimoiy jihatdan shakllantirish va ularning intellektual, ijodiy va boshqa yo'nalishdagi salohiyatini kamol toptirish uchun shart-sharoitlar yaratilishini nazarda tutadigan ijtimoiy-iqtisodiy, tashkiliy va huquqiy chora-tadbirlar tizimi. O'zbekiston Respublikasining Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risidagi Qonuni 2016-yil 14-sentyabrda qabul qilingan. Qonunchilik palatasi tomonidan 2016-yil 12-avgustda qabul qilingan Senat tomonidan 2016-yil 24-avgustda ma'qullangan.

**Yoshlar (yosh fuqarolar)** – o'n to'rt yoshga to'lgan va o'ttiz yoshdan oshmagan shaxslar;

**Yosh oila** – er-xotinning ikkisi ham o'ttiz yoshdan oshmagan oila yoxud farzand (bola) tarbiyalab voyaga etkazayotgan o'ttiz yoshdan oshmagan yolg'iz otadan yoki yolg'iz onadan iborat bo'lgan oila, shu jumladan, nikohdan ajralgan, beva erkak (beva ayol);

**Yosh mutaxassis** – oliy yoki o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasasini bitirgan, ta'lim muassasasini bitirganidan so'ng olgan ixtisosligi bo'yicha uch yil ichida ishga kirgan va ma'lumoti tog'risidagi hujjatda ko'rsatilgan ixtisosligi bo'yicha ishlayotganiga uch-yildan ko'p bo'lmagan o'ttiz yoshdan oshmagan xodim;

**Yoshlar tadbirkorligi** – yuridik shaxs tashkil etmagan holda yosh fuqarolar tomonidan, shuningdek, ta'sischilari yosh fuqarolar bo'lgan yuridik shaxslar tomonidan amalga oshiriladigan tadbirkorlik faoliyati.

**Yosh senzi** – fuqarolarning saylovda ishtirok etishlari uchun muayyan, qonunda belgilangan yoshga etishlari talab etilishidir. O'zbekistonda parlamentning kuyi palatasiga deputatlarni saylash huquqi Fuqarolar uchun 18 yosh (passiv saylov xukuqi), deputatlikka saylanish uchun 25 yosh belgilangan (aktiv saylov huquqi).

**YUNESKO** – BMTning ta'lim, fan va madaniyat masalalari bo'yicha tashkiloti 1945-yilning 16 noyabrda London shahrida o'tkazilgan 37ta davlatlar ishtirokida ta'sis majlisida tashkil topgan. YUNESKO BMT tizimidagi ixtisoslashgan muassasa deb hisoblanadi. Tashkilotning Bosh qarorgohi Parij shahrida (Fransiya) joylashgan. Hozirgi kunda YUNESKO tashkilotiga 193 davlat a'zodir. Jahonda tashkilotning vakolatxonalari 74 a'zo-davlatda faoliyat ko'rsatib kelmoqda. YUNESKOning O'zbekistondagi vakolatxonasi 1996-yilda va YUNESKO ishlari bo'yicha Milliy komissiyasi 1994-yilda tashkil etilgan. YUNESKO Nizomida tashkilotning asosiy maqsadi quyidagicha ifodalangan: "Urush haqidagi fikrlar insonlarning ongida paydo bo'ladi, shu sababli insonlarning ongiga tinchlikni himoya qilish g'oyalarini sindirish lozim". YUNESKO davlatlararo tashkilotining asosiy vazifasi – ta'lim, fan, madaniyat, kommunikatsiya va axborot sohalari orqali tinchlikni mustahkamlashga, insonlar turmush tarzini yaxshilashga, barqaror taraqqiyotga va madaniyatlararo muloqotga erishishga qaratilgan. YUNESKOning barcha dasturlari BMT huzuridagi barcha tashkilotlar tadbirlari, shuningdek, Mingyillik rivojlanish maqsadlari bilan hamohangdir. YUNESKO tashkilotining asosiy organlari: Bosh anjuman, Ijroiya kengash va kotibiyat. 2009-yilda YUNESKO Bosh direktori lavozimiga Irina Bokova (Bolgariya) saylangan. O'zbekiston Respublikasi YUNESKO Ijroiya kengashiga 2009-2013-yillarga saylangan. Tashkilotning 2008-2013-yillar uchun tasdiqlangan o'rta muddatli global ustuvor yo'nalishlari Afrika qit'asini rivojlantirish va gender tengligini ta'minlash masalalariga bag'ishlangan. Ushbu davrda YUNESKOning keng qamrovli maqsadlari quyidagilardan iboratdir:

- barchani sifatli va uzluksiz ta'lim bilan ta'minlash;
- ilm-fanga e'tiborni kuchaytirish va barqaror taraqqiyot ta'limi siyosati targ'ib etish;
- vujudga kelgan ijtimoiy muammolarni hal qilish;

– madaniy turfaxillik, madaniyatlararo muloqot va tinchlik madaniyatini qo'llab-quvvatlash;

– inklyuziv bilimlar jamiyatini axborot va kommunikatsiya yordamida barpo etish.

Ta'lim sohasida YUNESKOning ustuvor dasturi – "Ta'lim barcha uchun" dasturidir. "Ta'lim barcha uchun" butunjahon dasturi doirasida jahon hamjamiyatining oldiga qo'ygan maqsadlarini amalga oshirish bo'yicha YUNESKO yetakchi muvofiqlashtiruvchi tashkilot deb hisoblanadi. Mazkur dastur 2015-yilga qadar quyidagi maqsadlarni o'ziga qamrab oladi:

– maktabgacha ta'lim tarbiya;

– bepul va sifatli boshlang'ich ta'limni ta'minlash;

– yoshlar va katta yoshdagilar uchun hayot ko'nikmalarini egallash dasturlarida ishtirokini kengaytirish;

– katta yoshdagilar savodxonligini 50 foizga oshirish;

– gender tenglik;

– ta'lim sifatini yuksaltirish.

Shuningdek, YUNESKO BMTning "Savodxonlik o'n yilligi" (2003-2012-yillar) va "Barqaror taraqqiyot ta'limi o'n yilligi" (2005-2014-yillar) dasturlarini jahon miqyosida amalga oshirilishida yetakchilik qiladi. Madaniyat sohasida YUNESKO faoliyati xalqaro me'yoriy hujjatlarni tayyorlash va amalga oshirish, madaniyatlararo muloqot va madaniy turfaxillik dasturlarini qo'llab-quvvatlashdan iborat. Jumladan, Butunjahon madaniy va tabiiy yodgorliklarini saqlash bo'yicha konvensiya doirasidagi ro'yxatga O'zbekiston Respublikasidan 4ta nomzod kiritilgan (hozirda Butunjahon yodgorliklari ro'yxatiga 890 dan ortiq madaniy va tabiiy ob'ektlar kiritilgan) – Samarqand, Buxoro va Shaxrisabz shahrlarining tarixiy markazlari, Xiva shahridagi Ichan kal'a majmuasi. Nomoddiy madaniy merosni himoya qilish xalqaro konvensiya doirasidagi YUNESKO representativ ro'yxatiga O'zbekiston Respublikasidan Navro'z, Boysun madaniy makoni, Shashmaqom va Katta ashula nomzodlari kiritilgan (jahon bo'yicha ushbu ro'yxatda 166 nomzod). Buyuk Ipak Yo'li madaniy merosini o'rganishda xalqaro hamkorlikni rivojlantirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.A.Karimov tashabbusi bilan Samarqand shahrida 1995-yili Markaziy Osiyo tadqiqotlari YUNESKO xalqaro instituti ta'sis etilgan. YUNESKO ishlari bo'yicha O'zbekiston Milliy komissiyasining katta tajribasini inobatga olgan holda, 2000-yil Toshkent shahrida YUNESKO tomonidan Osiyo-Tinch okeani davlatlari milliy komissiyalarining mintaqaviy anjumani bo'lib o'tdi. Ushbu-yilda respublikamiz Milliy komissiyasi tashkilotning "YUNESKOning assotsiyalashgan maktablari" dasturining eng yaxshi koordinatori sovrinini oldi. 2001-yilda YUNESKO Bosh kotibining qaroriga ko'ra, YUNESKO ishlari bo'yicha O'zbekiston Milliy komissiyasi tinchlikni ta'minlash va xalqaro hamkorlikni rivojlantirish borasida qo'shgan hissasi uchun tashkilotning "Tinchlik bizning qo'limizda" mukofoti bilan taqdirlandi. 2013-yilning avgust oyida mamlakatimizga YUNESKO Bosh kotibi I.Bokovaning tashrifi bo'lib o'tdi. Tashrif doirasida I.Bokova Samarqand shahrida o'tkazilgan "Sharq taronalari" IX xalqaro musiqa festivalida ishtirok etdi.

**YUNISEF** – O‘zbekiston Respublikasi va BMTning Bolalar jamg‘armasi o‘rtasida hamkorlik to‘g‘risidagi asosiy Bitim 1994-yil 19-dekabrda Toshkent shahrida imzolangan. Mazkur hujjat O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan 1995-yil 22-dekabr kuni ratifikatsiya qilingan. 1994-yil 1-mart kuni YUNISEFning O‘zbekistondagi vakolatxonasi tashkil topdi. O‘zbekiston Respublikasi va YUNISEF o‘rtasidagi ikki tomonlama munosabatlar o‘zaro hamkorlik qilish Mamlakat dasturi (Country program) doirasida olib borilmoqda. 1994-2000-yillar davomida hamkorlik qilish Mamlakat dasturining birinchi bosqichi, 2000-2004-yillar davomida ushbu dasturning ikkinchi bosqichi amalga oshirildi. 2009-yilning 30-noyabr kuni O‘zbekiston Respublikasi va YUNISEF o‘rtasida o‘zaro hamkorlik qilish Mamlakat dasturining 2010-2015-yillarga mo‘ljallangan uchinchi bosqichi imzolandi. Dasturning umumiy qiymati 42,234 mln. AQSH dollarini tashkil qiladi.

Mazkur dastur doirasida respublikada quyidagi yo‘nalishlarda faoliyat olib borilmoqda:

- aholi farovonligini oshirish;
- onalik va bolalikni muhofaza qilish;
- bolalar hayot tarzini yaxshilash.

O‘zaro hamkorlik qilish Mamlakat dasturining asosiy maqsad va vazifalaridan kelib chiqqan holda, YUNISEF respublikada ona va bola sog‘lig‘ini asrash, sog‘liqni saqlash tizimini takomillashtirish, onalik xavfsizligini ta‘minlash, OITSga qarshi kurashish sohalarida faoliyat olib bormoqda. Bundan tashqari, YUNISEFning O‘zbekistondagi vakolatxonasi quyidagi yo‘nalishlarda faoliyat olib bormoqda:

- qizamiq, poliomyelit, diareya va shun kabi kasalliklarga qarshi kurashish, chaqaloklarni emlashni kengaytirish;
- yod tanqisligi kabi muammolar yyechimini topishga ko‘maklashish;
- bolalar o‘limini kamaytirishga ko‘maklashish va hokazo.

Bundan tashqari, YUNISEFning O‘zbekistondagi vakolatxonasi ko‘magida Ta‘lim uchun Global Hamkorlik tomonidan respublikada ta‘lim sohasini rivojlantirish uchun 49,9 mln. AQSH dollari miqdorida grant ajratildi.

**YUNFPA** – BMTning Aholishunoslik jamg‘armasi tashkiloti xalqaro rivojlanish bo‘yicha agentlik hisoblanib, har bir ayol, har bir erkak hamda har bir bolaning teng huquqli sog‘lom hayotga bo‘lgan huquqini ilgari suradi. YUNFPA mamlakatlarining kambag‘allik darajasini pasaytirish, ayollarning reproduktiv salomatligini ta‘minlashga ko‘maklashish, OITSga qarshi kurashish, ayollarga nisbatan hurmat bilan munosabatda bo‘lish kabi dasturlarni ishlab chiqishda demografik ma‘lumotlarni olib borish bilan shug‘ullanadi. YUNFPA O‘zbekistonda o‘z faoliyatini 1993-yildan buyon olib bormoqda. O‘zbekiston Respublikasi va YUNFPA o‘rtasidagi ikki tomonlama munosabatlar o‘zaro hamkorlik qilish Mamlakat dasturi (Country program) doirasida olib borilmoqda. 2010-yilning yanvar oyida o‘zaro hamkorlik qilish Mamlakat dasturining 2010-2015-yillarga mo‘ljallangan dasturi qabul qilingan bo‘lib, uning asosiy yo‘nalishlari quyidagilardan iboratdir:

1. Reprodukativ salomatlik;

Tibbiy muassasalarda sifatli reproduktiv va onalik salomatligini ta‘minlash xiz-

matlariga oid imkoniyatlarni yanada kengaytirish ushbu yo'nalishning asosiy vazifalaridan biridir.

2. Aholishunoslik va rivojlanish strategiyalari;

Ushbu yo'nalishdagi dasturning asosiy vazifalaridan biri bu aholishunoslikka oid turli ma'lumotlarni to'plash va taxlil qilish hamda ushbu sohada salohiyatni oshirishdan iboratdir.

3. Gender tengligi masalalari;

Ushbu yo'nalish "Xotin-qizlar huquqlarini kamsitilishining barcha shakllariga barham berish" to'g'risidagi konvensiyaning (CEDAW) nazorat etilishi va ayollar maqomini oshirishiga qaratilgan.

**Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch** – O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.A. Karimovning odamzot uchun hamma zamonlarda ham eng buyuk boylik bo'lib kelgan ma'naviyatning ma'no-mazmuni, uning inson va jamiyat hayotidagi o'rni va ahamiyati, bu murakkab va serqirra tushunchaning nazariy va amaliy tomonlari har tomonlama keng qamrovli fikr va xulosalar orqali tahlil etilgan asari. Unda istiqlol-yillarida yurtimizda milliy ma'naviyatimizni tiklash, uni zamon talablari asosida rivojlantirish bo'yicha amalga oshirilgan ulkan ishlar, bu borada oldimizda turgan maqsad va vazifalar haqida atroflicha fikr yuritilgan. "Muqaddima", 4 bob va "Xulosa" qismlardan iborat ushbu kitobda muallif bugungi murakkab globallashuv davrida ma'naviyat sohasida vujudga kelayotgan dolzarb muammolar, xalqimiz ma'naviyatini asrash va yuksaltirish, ayniqsa, yosh avlod qalbi va ongini turli zararli g'oya va mafkuralar ta'siridan saqlash va himoya qilish masalalariga alohida e'tibor qaratgan. Shuningdek, asarda ma'naviyat sohasidagi dolzarb muammolar va vazifalar teran tahlil etilib, xalqimizning dunyoda hech kimdan kam bo'lmasligi, farzandlarimizning bizdan ko'ra kuchli, ilmi, dono va baxtli bo'lib yashashi uchun bor kuch va imkoniyatlarimizni safarbar qilish va bu borada ma'naviy tarbiya masalasi, hech shubhasiz, beqiyos ahamiyat kasb etishi qayd qilingan. Bu masalada hushyorlik va sezgirligimizni oshirish, qat'iyat va mas'uliyatimizni yo'qotmaslik, eng asosiysi, mazkur sohadagi ishlarni o'zibo'larchilikka tashlab qo'ymaslik, Yuksak ma'naviyatni shakllantirishdek olijanob maqsadlarga erishish, o'zimiz intilgan umumbashariy taraqqiyot yo'lidan og'ishmay borishimizning kafolati borasidagi serqirra masalalar bayon etilgan. Asarning "Ma'naviyat – insonning ulg'ayish va kuch-qudrat manbayidir" deb nomlangan birinchi bobida "ma'naviyat" tushunchasining ma'no-mazmuni, uning inson va jamiyat hayotidagi o'rni va ahamiyati, nazariy va amaliy tomonlari har tomonlama keng qamrovli fikr va xulosalar orqali tahlil etilgan. Mazkur tushunchaga ilmiy-nazariy jihatdan asosli ta'rif berilgan. Nazarimizda, bu ta'rifda insoniyatning ma'naviy taraqqiyot jarayonida vujudga kelgan ilg'or umumbashariy qarashlar, jumladan, buyuk ajdodlarimizning g'oya va ta'limotlari bilan birga, bugungi shiddatli davr voqeligiga xos tamoyil va mezonlar ham o'z ifodasini topgan. Kitobning "Mustaqillik – ma'naviy tiklanish va yuksalish" deb nomlangan ikkinchi bobida mamlakatimizning istiqlol-yillaridagi taraqqiyoti, milliy g'oyaning ma'no-mazmuni, uning asosiy tushuncha va tamoyillari, ma'naviy hayot bilan bog'liq dialektik bog'liqligi, jamiyatimiz hayotini erkinlashtirish va yangilash, mamlakatimizni modernizatsiya qilish jarayonida

ma'naviyatning o'rni ham ulkan tafakkur sohibi, ham hayot sinovlarida toblangan yirik davlat arbobi nigohi orqali ko'rsatib o'tiladi. Yurtimizda madaniyat, ta'lim, ilm-fan, adabiyot, san'at va sport sohalarini taraqqiy ettirish borasida amalga oshirilayotgan va kelgusida qilinajak ishlar atroflicha tahlil etilib, bu boradagi maqsad hamda vazifalar aniq-ravshan belgilab beriladi. Kitobning "Ma'naviyatga tahdid – o'zligimiz va kelajagimizga tahdid" deb nomlangan keyingi bobida globallashuv jarayoni, uning mazmun-mohiyati, ijobiy va salbiy jihatlari, xususan, bugungi kunda mafkuraviy ta'sir o'tkazish vositasi sifatida ayrim siyosiy kuchlar manfaatiga xizmat qilayotgani, ushbu jarayon orqali milliy qadriyatlarimizga yot g'oya va qarashlar yopirilib kirayotgani va ular ertaga qanday salbiy oqibatlarini keltirib chiqarishi mumkinligi hayotiy misollar orqali bayon etiladi. Kitobning "Vatanimiz taraqqiyotining mustahkam poydevori" nomli bobida Yuksak ma'naviyatni shakllantirishda inson qalbiga yo'l ochadigan omillar to'g'risida fikr yuritiladi. Bunda ta'lim-tarbiya, televideniye va ommaviy axborot vositalari, teatr, kino, adabiyot, musiqa, rassomchilik va haykaltaroshlik, ya'ni insonning qalbi va tafakkuriga bevosita ta'sir o'tkazadigan sohalaridagi faoliyati zamon talablari asosida rivojlantirishning amaliy masalalariga e'tibor qaratiladi. Yuksak ma'naviyat sohiblari bo'lgan allomalar, olim va ziyolilar hayotidan ibratli misollar keltiriladi. Mazkur kitobda ijtimoiy fanlar tarixida ilk bor ma'naviyatning tarixiy taraqqiyot bilan bog'liq quyidagi umumiy qonuniyati asoslab berilgan: ya'ni, jamiyat hayotining har qaysi davri yoki rivojlanish bosqichiga ma'naviyatning ma'lum bir tamoyillari va ma'naviy qadriyatlar tizimi mos keladi.

**Yurt tinchligi** – milliy istiqloq mafkurasining asosiy g'oyalaridan biri, mamlakat barqaror taraqqiyotining asosiy sharti. Tinchlik – insonning hayotiy ehtiyoji, emin-erkin yashashi va kamol topishining eng zarur omilidir. Har bir inson uchun yurt tinchligi bebaho ne'mat, ulug' saodatdir. Bashariyat o'z taraqqiyotining barcha bosqichlarida, avvalo, tinchlik-totuvlikka intilib kelgan. Tinchlikni saqlash va mustahkamlash masalasi umumbashariy muammodir. Insoniyat taraqqiyotining barcha bosqichlarida jamiyatning asosiy masalalari, birinchi navbatda, tinchlik-totuvlik holatidagina samarali hal etilgan. Shu boisdan ham yurt tinchligi – barqaror taraqqiyot garovidir. Insoniyat tarixida, keyingi besh ming-yilda taxminan 15 mingdan ortiqroq katta-kichik urushlar bo'lgan ekan. Holbuki, bashariyat faqat tinchlik va osoyishtalik barqaror bo'lgan taqdirdagina o'z oliy maqsadlariga erishadi, moddiy va ma'naviy jihatdan Yuksakladi. Yurt tinchligi eng aziz ne'mat ekaniga butun jahon amin bo'lmoqda. Dunyoning ko'p mamlakatlarida ro'y berayotgan terrorchilik harakati bu borada hali ko'plab muammolar borligini ko'rsatmoqda. Mamlakatimiz mustaqillikka erishgan dastlabki kunlardanot yurt tinchligini saqlash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishiga aylandi. O'zbekiston dunyoda birinchi bo'lib Markaziy Osiyoni yadro qurolidan xoli maydonga aylantirish, xalqaro terrorchilikka qarshi kurash markazini tuzish va boshqa tinchliksevar takliflar b-n chiqdi. Chunki, islohotlarning natijalari aynan shu g'oyani amalga oshirishga bevosita bog'liq edi. Shuning uchun ham milliy istiqloq mafkurasida yurt tinchligini ta'minlaydigan shart-sharoitlarni yaratish masalasiga alohida e'tibor berilgan. Yurt tinchligi – Vatan ozodligi va mustaqilligi b-n chambarchas bog'liqdir. Birovga qaram bo'lgan xalq hech qachon erkin va farovon yashay olmaydi. Shuning uchun ham mustaqillik va tinch-



likni asrashimiz, mamlakatimizni tajovuzkor kuchlardan himoya qilishga doimo tayyor turishimiz lozim. Yuksak ma'naviyat, madaniyat, millatning g'oyaviy va mafkuraviy etukligi yurt tinchligini saqlashning muhim shartidir. Xalqimiz uchun azal-azaldan muqaddas bo'lgan bu g'oya jamiyatdagi turlicha fikr va qarashga ega bo'lgan barcha kuch va harakatlarni birlashtirishga, shu orqali milliy hamjihatlikni mustahkamlashga xizmat qiladi.

**Yuridik fakt** – huquq normasining kuchi bilan Fuqarolik huquqiy munosabat sohasida yuridik oqibatni vujudga keltiradigan real hayotiy holatlar.

**Yuridik fakt tarkibi** – hayotiy holatlar tog'risidagi talablar huquq normasidan kelib chiqadigan va bu talablar mavjud bo'lganda hayotiy holat yuridik fakt hisoblanadigan va belgilangan yuridik oqibatlarni tu?diradigan hayotiy holat yuz berishi shartlarining.

**Yuridik shaxs** – o'z mulkida, xo'jalik yuritishida yoki operativ boshqaruvida alohida mol-mulkka ega bo'lgan ham o'z majburiyatlari yuzasidan ushbu mol-mulk bilan javob beradigan, o'z nomidan mulkiy va shaxsiy nomulkiy huquqlariga ega bo'la oladigan va ularni amalga oshira oladigan, majburiyatlarni bajara oladigan, sudda da'vogar va javobgar bo'la oladigan tashkilot.

**Yuridik shaxslarning birlashmasi** – a'zolik tamoyiliga asoslangan, o'zlarining tadbirkorlik faoliyatini muvofiqlashtirish, shuningdek, mushtarak mulkiy manfaatlarini ifoda etish hamda himoya qilish maqsadida yuridik shaxslar tomonidan tuzilgan notijorat uyushma.

## Z

**Zamonaviy demokratiya** – vakillik demokratiyasi hisoblanadi. Ma'lumki katta jamoalarda, ya'ni shaharlarda, barcha xalqni bir joyga yig'ib masala hal etishga imkon yo'q. Shuning uchun shunday jamoalarni fuqarolari qonunlari va boshqa masalalar bo'yicha qaror qabul qilishda ular tomonidan ishtirok etish uchun o'zlarining shaharlari yoki yurtlari bir guruhni saylaydilar. Fuqarolar tomonidan saylangan vakillar birlashmasi kengash (council), qonun chiqaruvchi hokimiyat (legistatura), parlament (parlament), yoki kongress (congres) kabi nomlar bilan ataladi. Xalq tomonidan mustaqil tarzda saylangan vakillar orqali boshqariladigan xalq hokimiyati ba'zida respublika hukumati yoki demokratik respublika deb ataladi.

**Zararli g'oyalar** – har qanday inson xalq, jamiyat, davlatning tub manfaatlariga zid bo'lgan, ularni Taraqqiyotdan qaytarib, o'z izmiga solish maqsadida chetdan tazyiq yo'li bilan kiritiladigan begona g'oyalar yig'indisi. Zarali g'oya jamiyat tanazzuliga sabab bo'ladi, g'ayriinsoniy maqsadlarga xizmat qiladi. Zararli g'oya, mohiyatan, yovuz kuchlar faoliyati hamda hukmronligini ifodalaydi. Bunday g'oyalarga irqchilik, fashizm, terrorizm, mustamlakachilik misol bo'ladi.

**Ziddiyat** – (ar.) bir-biriga xiloflik, akslik, murosaga keltirib bo'lmaydigan qarama-qarshilik. Ziddiyat ixtilof singari universal tabiatga ega. Bunda ixtilofni muayyan ziddiyat rivojlanishidagi eng keskin holat, uning holati yoki xususiyatlarining keskin tarzda namoyon bo'lishi sifatida olish mumkin.

**ZiyoNet – ZiyoNET jamoat axborot ta'lim tarmog'i.** O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.A.Karimovning 2005-yil 28 sentyabrdagi PQ191-sonli "O'zbekiston Respublikasining jamoat ta'lim axborot tarmog'ini tashkil etish to'g'risida"gi Qaroriga muvofiq tashkil topgan. ZiyoNET tarmog'ining asosiy maqsadi, respublika yoshlari hamda ta'lim oluvchilari uchun ta'lim olish tizimida keng ko'lami axborot-kommunikatsiya xizmatlarini joriy etishdan iborat. ZiyoNET O'zbekiston Respublikasiga taalluqli bo'lgan turli resurslar tiplaridan axborot axborot ta'lim tarmog'i: darsliklar, o'quv va metodik qo'llanmalar, leksi-yalar konspektlari, referatlar, taqdimotlar, ma'lumotnomalar va lug'atlar, bakalavrlarning bitiruv ishlari, magistrnlarning dissertatsiyalari, nomzodlik va doktorlik dissertatsiyalarning avtoreferatlari va yana boshqalar.

## O<sup>4</sup>

**O'ng** – siyosiy kuchlar joylashuvida jamiyatning ijtimoiy-siyosiy tuzilishini saqlanishini maqsad qilib olgan konservativ siyosiy oqim. O'nglar va so'llarning amaliy faoliyati kengayib borgan sayin ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy muammolar talqini turlicha shakllarga ega bo'ldi. O'nglar inson va mulk xavfsizligini, shuningdek qonuniylikni talab qilganlar. Liberal iqtisodiy nazariyaga, ya'ni davlatning aralashuvi iqtisodiyotni barbod etishi va erkinlikdan mahrum qilishi sababli siyosiy hayotda ham, iqtisodiy hayotda ham davlatning rolini cheklovchi nazariyaga amal qilganlar. So'llar asosiy e'tiborni iqtisodiy egalitarizm (tenglik) prinsipiga qaratganlar. Tenglikni talab qilish uni davlat yordamida ta'minlashga bo'lgan urinishlar bilan qo'shib olib borilgan. Yevropadagi an'anaga muvofiq "o'nglar" shaxs ustunligi, "so'llar" esa jamiyat va davlat ustunligi tarafdorlaridir. Yevropa siyosiy hayotining ikki yuz yillik tarixi ko'p o'zgarishlarni boshdan kechirgan. Hozirgi kun konservatorlari avvalgi "o'nglar"ga o'xshamaydilar, xuddi shuningdek radikallarning ham yakobinchilar avlodlariga o'xshashligi yo'q. XX asr oxirida, sotsial-demokratlar chap tomondan joy olganidan keyin radikal siyosiy kuchlar markazga surilgan.

**O'rta Osiyo** – O'zbekiston va unga qo'shni bo'lgan Qirg'iziston, Tojikiston va Turkmaniston Respublikalari O'rta Osiyo hududidagi mamlakatlardir. Qozog'iston O'rta Osiyo davlati deb tan olinmasa ham, hududiy asosiy qismini ushbu regionda joylashganligini hisobga olgan holda, O'rta Osiyo davlatlari qatoriga kiritish mumkin. O'rta Osiyo davlatlari jahon siyosiy xaritasida 1991-yil kuzida, sobiq Ittifoqning barham topishi bilan paydo bo'ldi. O'rta Osiyo sobiq Ittifoq davrida bir tomonlama, asosan xornashyo va yarim xomashyo mahsulotlar ishlab chiqarishga ixtisoslashgan edi. Bu hudud sobiq Ittifoq paxtasining 93 foizi Jahon paxtasining 12 foizi)ni, ko'plab mis, qo'rg'oshin, xrom, oltin, uran kabi rangdor metallarni yetkazib bergan. Geografik o'rmining eng muhim xususiyatlaridan bin uning ulkan Yevroosiy materigining deyarli qoq o'rtasida, Dunyo okeanlaridan uzoqda joylashganligidir. Mustaqillikning dastlabki-yillaridanoq mintaqa davlatlari jahon bozorlariga olib chiqadigan yangi transport yo'llarini tashkil qilishga kirishdilar. Natijada ilgari Rossiya orqali dengizlargacha olib

boruvchi yagona transport yo'lagiga qo'shimcha Eron orqali Fors qo'ltig'iga, Kavkaz orqali Yevropaga, Xitoy orqali Tinch okeanbo'ylariga yetkazuvchi temir va avtomobil yo'llari tashkil qilindi. O'rta Osiyoning maydoni 4 mln. km<sup>2</sup> (jahon quruqlik maydonining 3,0 foizi), aholisi 57 mln. kishini (jahon aholisining salkam 1,0 foizi) tashkil qiladi. Uning hududi g'arbdan sharqqa 3 ming km, shimoldan janubga 2,5 ming km masofaga cho'zilgan bo'lib, Osiyoning o'rta kengliklarida joylashgan, iqlimi, asosan, quruq, keskin kontinental. Tabiiy namlik asosida bahorikor dehqonchilik O'rta Osiyoning Shimoliy Qozog'iston va baland tog'oldi adirlari va tog'yonbag'irlarida olib boriladi. Mintaqaning oqar suv manbalari ega bo'lgan vodiya va vohalarda har jihatdan iqtisodiy rivojlangan hududlari joylashgan. O'rta Osiyo mineral tabiiy resurslar bilan ancha yaxshi ta'minlangan. U neft va tabiiy gaz zaxiralariga ko'ra Osiyoda Fors qo'ltiqbo'yi va G'arbiy Sibir hududlaridan keyin uchinchi mintaqadir. Qozog'iston, Turkmaniston va O'zbekiston Respublikalari bu xildagi tabiiy boyliklarga boy.

**O'troqlik (muqimlik) senzi** – muayyan bir hududda ovoz bergan fuqarolar, aynan o'sha hududda, saylovgacha ma'lum muddat davomida muqim yashagan bo'lishlari talab etiladi. O'zbekistonda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasiga saylanish uchun fuqaro kamida besh yil mamlakat hududida muqim yashagan bo'lishi talab etiladi.

**O'zbek tili** – turkiy tillarning qarluq guruhiga mansub tillardan; yangi uyg'ur tili b-n birgalikda qarluq-xorazm guruhchasini tashkil etadi. O'zbekiston Respublikasining davlat tili (1989-yil 21-oktyabrdagi «Davlat tili haqida»gi qonunga muvofiq o'zbek tiliga davlat tili maqomi berilgan). Asosan, O'zbekistonda, shuningdek, Afg'oniston, Tojikiston, Qirg'iziston, Qozog'iston, Turkmaniston, RF, Turkiya, Saudiya Arabistoni, Xitoy, AQSH, Germaniya va b. mamlakatlarda tarqalgan. O't.da so'zlashuvchilarning umumiy soni 26 mln. kishidan ortiqroq (O'zbekistonning o'zida 20 mln.dan, Tojikistonda 1,2 mln.dan ziyodroq, Afg'onistonda esa, turli manbalarga ko'ra, 2,3 mln.dan 4 mln.gacha, Qirg'iziston va Saudiya Arabistonda 550-600 mingdan ortiq, Qozog'iston va Turkmanistonda 320-330 mingdan ortiq) kishini tashkil etadi (2000). O't. qipchoq, o'g'uz, qarluq-chigil-uyg'ur kabi 3 ta til birligi sifatida shakllanib, murakkab dialektal tarkibi b-i ajralib turadi. Unda 3 ta asosiy lahja bor. Bular: 1) qarluq-chigil-uyg'ur lahjasi; 2) qipchoq lahjasi; 3) o'g'uz lahjasi. Bu lahjalar tarkibidagi ko'plab shevalar fonetik, leksik va qisman morfologik jihatdan o'zaro farqlansa-da, ularning barchasi ham milliy O't.ning, adabiy O't.ning shakllanishida muayyan darajada ishtirok etgan. O't.ning lahjalari orasida, odatda, qarluq-chigil lahjasi hamda uning tarkibiga kiruvchi shevalar (Toshkent, Andijon, Farg'ona, Namangan, Qo'qon, Jizzax, Samarqand, Kattaqo'rqon, Buxoro, qarshi, O'sh, Marg'ilon, Jalolobod va b. shaharlarning shevalari) o'zbek adabiy tilining tayanch shevalari hisoblanadi. O'zbek adabiy tilining me'yorlarini belgilashda Toshkent shevasi fonetik jihatdan, Farg'ona, Andijon shevalari esa morfologik jihatdan tayanch shevalar deb olingan. Turkiy xalqlar uchun mushtarak obida hisoblangan O'r-xun-enisey tosh bitiklari, O'rta Osiyo turkiy xalqlarining umumiy adabiy tili namunalari bo'lgan «Devonu lug'otit turk», «Qutadg'u bilig» kabi o'lmas asarlar o'zbek xalqining dastlabki yozma yodgorliklari hisoblanadi. Eski o'zbek adabiy

tilining shakllanishi XIV asr oxirlari va XV a.ga to'g'ri keladi. Bu davr adabiy tilining shakllanishi va rivojlanishida buyuk shoir va mutafakkir Alisher Navoiyning hissasi beqiyosdir. O'zbek adabiy tili Lutfiy, Sakkokiy, Navoiy, Bobur ijodi b-n boshlanib, Ogahiy, Furqat, Muhimiylar ijodida rivojlandi, sayqal topdi. Sho'ro davrida olib borilgan noto'g'ri til siyosati va turli tazyiqlar oqibatida O'.t.ning turli sohalaridagi vazifalari nig'oyatda cheklanib qolgan edi. O'zbek tiliga davlat tili maqomi berilgandan keyin, ayniqsa, O'zbskiston mustaqillikka erishgach, O'.t. shakllanishining yangi davri boshlandi: O'.t. xo'jalik hayotining barcha sohalarida to'liq amal qiladigan polifunksional til sifatida rivojlanmoqda. O'zbeklarning ajdodlari, barcha turkiy xalqlar qatori, V-X a.larda O'rxun-enisey yozuvidan va b. qadimiy yozuvlardan foydalanganlar. XI a.dan 1929-yilgacha arab grafikasi asosidagi, 1929-40 y.larda lotin grafikasi asosidagi (Q. Eski o'zbek yozuvi, o'zbek-lotin alifbosi) yozuvdan foydalanilgan. 1940-yildan rus grafikasi asosidagi yozuv joriy etilgan. 1993-yil 2-sentyabrda O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi «Lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosini joriy etish to'g'risida» qonun qabul qildi. Ushbu qonun 1995-yil 6-mayda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan tegishli o'zgartishlar b-n qayta qabul qilindi va «Davlat tili haqida»gi qonun b-n bir qatorda, uning davomi sifatida bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda. "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch" asarida ta'kidlagani kabi, "...o'zlikni anglash, milliy ong va tafakkurning ifodasi, avlodlar o'rtasidagi ruhiy-ma'naviy bog'liqlik til orqali namoyon bo'ladi. Jamiyki ezgu fazilatlar inson qalbiga, avvalo, ona allasi, ona tilining betakror jozibasi bilan singadi. Ona tili – bu millatning ruhidir. Buyuk ma'rifatparvar bobomiz Abdulla Avloniyning so'zlari bilan aytganda, «har bir millatning dunyoda borlig'ini ko'rsatadigan oyinai hayoti til va adabiyotidir. Milliy tilni yo'qotmak millatning ruhini yo'qotmaktur».. mustaqillik arafasida o'zbek tiliga davlat tili maqomini berish masalasida nig'oyatda qizg'in, ba'zida keskin va murossasiz bahs va tortishuvlar bo'lib o'tgan edi. Nihoyat, 1989-yilning 19-oktyabr kuni bu o'ta muhim masala Oliy Kengash sessiyasi muhokamasiga qo'yildi va qariyb bir yarim asrlik qaramlikdan so'ng mamlakatimizda o'zbek tili davlat tili deb e'lon qilindi. Xalqimizning muqaddas qadriyatlaridan biri bo'lmish ona tilimiz o'zining qonuniy maqomi va himoyasiga ega bo'ldi. Bu Vatanimiz tarixida tom ma'nodagi buyuk voqea edi. qabul qilingan qonunda davlat tili bilan birga yurtimizdagi barcha millat va elatlarning tillarini rivojlantirish, davlat yo'li bilan himoya qilish, tili, dini va millatidan qat'i nazar, har bir fuqaroning o'z ona tilida ta'lim, axborot, kerakli ma'lumot olish kabi huquqdarini kafolatlash masalalari aniq belgilab qo'yilgan edi. Bu qonun o'sha paytda boshqa respublikalarda qabul qilingan tilga oid hujjatlardan o'zining demokratik mohiyati bilan ajralib turadi. Jumladan, mazkur qonun davlat idoralarida ishlash, ta'lim olish, mansab lavozimlari bo'yicha ko'tarilish, fuqarolik singari masalalarda odamlarning huquq va erkinliklarini kamsitadigan turli shartlar va «senz»lardan xoli ekani bilan jahon hamjamiyati tomonidan e'tirof etilgan talab va qoidalarga to'liq javob berar edi. Shuning uchun ham u ko'pmillatli xalqimiz tomonidan ijobiy kutib olingani bejiz emas. 1992-yil 7-dekabrda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida davlat tilining maqomi huquqiy jihatdan aniq belgilanib, mustahkamlab

qo'yildi. Shu tariqa o'zbek tili mustaqil davlatimizning bayrog'i, gerbi, madhiyasi, Konstitutsiyasi qatorida turadigan, qonun yo'li bilan himoya qilinadigan muqaddas timsollaridan biriga aylandi. O'tgan davr mobaynida davlat tilining hayotimizdagi o'ri va ta'sirini kuchaytirish, uni tom ma'nodagi milliy qadriyatga aylantirish yo'lidagi ilgari tasavvur ham qilib bo'lmaydigan ulkan ishlar amalga oshirildi. Istiqloq-yillarida o'zbek tilining qo'llanish doirasi amalda nig'oyatda kengaygani, uni ilmiy asosda rivojlantirishga qaratilgan tadqiqotlar, tilimizning o'ziga xos xususiyatlariga bag'ishlangan ilmiy va ommabop kitoblar, o'quv qo'llanmalari, yangi-yangi lug'atlar ko'plab chop etilayotgani jamiyat tafakkurini yuksaltirishga o'z hissasini qo'shmoqda. Ayniqsa, davlat tilining xalqaro miqyosda ham faol muloqot vositasiga aylanib borayotgani e'tiborlidir. Xususan, xorijiy mamlakatlar rahbarlari bilan bo'ladigan uchrashuv va suhbatlar, muzokaralar, tegishli hujjatlarni imzolash marosimlarida, nufuzli sammitlarda, rasmiy matbuot anjumanlarida o'zbek tilining o'ri va ahamiyati ortib borayotgani hammamizga g'urur-iftixor bag'ishlaydi. Shu borada o'zbek tilining kompyuter va Internet, aniq fanlar, tibbiyot, iqtisodiyot kabi maxsus termin va tushunchalarni talab qiladigan sohalarda ham keng qo'llana boshlagani uning imkoniyatlari nechog'liq katta ekanini ko'rsatadi. Holbuki, bundan yigirma-yil oldin oddiygina ariza yoki ma'lumotnomani ham o'zbek tilida yozishning imkoni yo'q edi. Bugun bu haqda gapirsangiz, ko'pchilik yoshlarning ishonishi qiyin. Chunki hozirgi paytda oliy hokimiyat idoralaridan tortib mahalliy boshqaruv idoralarigacha ish yuritish ona tilimizda amalga oshirilmoqda. Biz ajdodlardan avlodlarga o'tib kelayotgan bebaho boylikning vorislari sifatida ona tilimizni asrab-avaylashimiz, uni boyitish, nufuzini yanada oshirish ustida doimiy ishlashimiz zarur. Ayniqsa, fundamental fanlar, zamonaviy kommunikatsiya va axborot texnologiyalari, bank – moliya tizimi kabi o'ta muhim sohalarda ona tilimizning qo'llanish doirasini kengaytirish, etimologik va qiyosiy lug'atlar nashr etish, zarur atama va iboralar, tushuncha va kategoriyalarni ishlab chiqish, bir so'z bilan aytganda, o'zbek tilini ilmiy asosda har tomonlama rivojlantirish milliy o'zlikni, Vatan tuyg'usini anglashdek ezgu maqsadlarga xizmat qilishi shubhasiz" ("Yuksak ma'navit – yengilmas kuch", 83-87 b.)

**O'zbekiston Respublikasi** – Respublika hududi – 448,97 ming kv. kilometr Davlat chegarasining Afg'oniston bilan uzunligi -137 km., Qozog'iston – 2203 km., Qirg'iziston – 1099 km., Tojikiston – 1161 km., Turkmaniston bilan – 1621 km. O'zbekiston dunyo suv havzasiga chiqish uchun ikki mamlakat hududidan o'tishi kerak bo'lgan jahondagi ikki davlatdan biri bo'ladi. Lixstenshteyn bilan birgalikda. Aholisi – 32 mln. kishiga yaqin. Poytaxti – Toshkent shahri. O'zbekiston Respublikasi tarkibida: Qoraqalpog'iston Respublikasi, Viloyatlar – 12 ta Shaharlar – 119ta, Tumanlar 159ta, Shahar posyolkalari – 1085 ta, qishloq aholi punktlari – 11017 ta, Valyutasi – so'm, Internet domeni – UZ, Xalqaro telefon kodi – +998, Soat poyasi – +5 Hudud. O'zbekiston Respublikasi Amudaryo va Sirdaryo oralig'ida joylashgan bo'lib, umumiy maydoni 448,9 ming km.kv.ni tashkil etadi. Respublika hududi Sharqdan g'arbgacha 1 425 km ni, shimoldan janubgacha esa 930 km ni tashkil etadi. Respublika shimolda va shimoliy-Sharqda Qozog'iston, Sharqda va janubiy-sharqda Qirg'iziston va Tojikiston, g'arbda Turkmaniston, janubda esa Afg'oniston bilan chegaradoshdir. Davlat chegarasining Afg'oniston bilan uzunligi – 137 km., Qozog'iston – 2.203 km., Qirg'iziston – 1.099 km., Tojikiston – 1.161 km. va Turkmaniston bilan – 1.621 km.

Aholi. O'zbekistonda doimiy istiqomat qilayotgan aholi soni 2016-yilning 1 yanvar kuni holatiga ko'ra 31,8 million kishini tashkil etadi. 2000-yildan 2016-yilgacha O'zbekiston fuqarolari 5,5 million kishiga ortgan va 25 milliondan 30,5 milliongacha ko'paygan. Tuqulish ko'rsatkichi 2012-yilda 21 promilleni, o'lim ko'rsatkichi esa 4,9 promilleni tashkil etdi. 2012-yil davomida mamlakat aholisi soni 439,2 ming kishiga yoki 1,5 foizga ko'paygan. Aholining 51,1 foizi (15,315 million nafari) shaharlarda istiqomat qilayotgan bo'lsa, 48,9 foizi (14,679 million nafari) qishloq joylarda yashaydi. O'zbekiston MDH davlatlari orasida so'nggi o'n uch-yil ichida aholi soni o'sishi eng yuqori sur'atlarga ega bo'lgan mamlakat hisoblanadi.

Tarixiy ma'lumot. O'zbek xalqi dunyodagi eng qadimgi xalqlardan biri hisoblanib, uning boy va qadimiy davlatchilik tajribasi bor. Hozirgi O'zbekiston hududida dastlabki mustaqil davlat tuzilmalari miloddan avvalgi birinchi ming yillik boshlaridayoq paydo bo'lib, qariyb 3000 yil davomida takomillashib borgan va dunyo davlatchiligi rivojida eng Yuksak darajaga ko'tarilgan jahonga ma'lum. Farg'ona vodiysining So'x tumanidagi Selung'ur g'oridan, Toshkent viloyatining Angren shahri yaqinidagi Ko'lbuloq makonidan va Surxondaryo viloyatining Boysun tog'idagi Teshiktosh g'oridan topilgan arxeologik topilmalar ushbu hududda 1-1,2 mln.yil avval ilk paleolit davri odamlari yashaganligidan dalolat beradi. Vatanimizning ko'pgina hududlari – Xorazm, Surxondaryo, Zarafshon, Farg'ona va boshqa vohalari sivilizatsiya taraqqiyotining markazlaridan biri hisoblanadi. Miloddan avvalgi VI-IV asrlarda Markaziy Osiyo hududiga ahmoniyalar, keyinchalik grek-makedonlar bostirib kiradilar. Bosqinchilariga qarshi yurtimizning mard vatanparvarlari – To'maris, Shiroq va Spitamen jang olib bordilar. O'zbek davlatchilik tarixi o'zining uzluksiz taraqqiyoti jarayonida eng Yuksak rivojlanish va yuksalish davrlarini boshdan kechirgan. Miloddan avvalgi 3 va milodiy 3 asrlar oralig'ida O'zbekiston hududida Davan, Qang', Kushon va Xorazm kabi davlatlar gullab-yashnagan. Ayniqsa, Kushon davlati o'zining rivojlangan madaniyati va san'ati bilan boshqa davlatlardan ajralib turgan. O'rta asrlarning boshlarida O'zbekiston hududida Xioniyalar, Kidariylar, Eftaliylar va Turk xoqonligi hukmronlik qilganlar. Bu davrda yuqoridagi davlatlar juda katta hududlarda qonunchilikni joriy etish bo'yicha ishlarni olib borganlar, shuningdek, qo'shni davlatlar bilan savdo-sotiq qilganlar. VIII-IX asrlarda O'zbekiston hududi arablar tomonidan egallab olindi. Shu bilan birga, ushbu davrda hududga yangi madaniy oqim ham kirib keldi. Bosqinchilarga qarshi kurashda moddiy va ma'naviy yo'qotishlar bilan birga IX-XII asrlarda o'zbek xalqining shakllanishi yuz beradi. Shu davrda turk tili yuqori maqomni egallab, adabiy tilning shakllanishi boshlanadi. IX-XII asrlarda Somoniylar, qoraxoniylar va Xorazmshoxlarning hukmronlik davrlarida bir qator, xususan madaniy hayotdagi o'zgarishlar yuz beradi. Ushbu davrda vatanimiz dovruhini butun dunyoga tanitgan buyuk olim va allomalar Al-Xorazmiy, Ahmad Al-Farg'oni, Abu Rayxon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, az-Zamaxshariy va boshqalar shu erda hayot kechirganlar va ijod qilganlar. Shu bilan birga, Imom Al-Buxoriy, at-Termiziy, Najmiddin Kubro, Baxovuddin Naqshbandiy va boshqa olimu fuqarolar diniy ilmlarning rivojlanishiga o'zlarining ulkan hissalarini qo'shdilar. XIII asrning boshida Chingizxon boshchiligidagi mo'g'ul qo'shinlari Xorazmshoxlar davlatini tor-mor qilib, Markaziy

Osiyoning butun hududini egallab oladilar. Vatanimizning jasur o'g'lonlari – Jaloliddin Manguberdi, Temur Malik va boshqalar o'z xalqini kelgindi bosqinchilardan ozod etish yo'lida mardonavor kurash olib bordilar.

XIV asrning ikkinchi yarmida (1370 y.) Markaziy Osiyo siyosiy maydoniga Amir Temur kirib keladi. Amir Temur va uning avlodlari davri mamlakatimiz tarixida turli tarixiy, ijtimoiy va madaniy jarayonlarga boy davr bo'ldi. Bu davrda Markaziy Osiyoda uzoq muddat davom etgan mo'g'ullar istibdodiga barham berildi. Amir Temur va Temuriylar davrida tashkil etilgan markazlashgan davlat mamlakatni har tomonlama, va ayniqsa iqtisodiy va ijtimoiy-madaniy tomondan gurrakib rivojlanishi uchun xar tomonlama sharoit yaratib berdi. Amir Temur markazlashgan davlat yaratgan holda, boshqaruvning davlat apparatini tartibga soldi, mamlakatning sarxadlarini kuchaytirdi va mustahkamladi, armiyani kuchaytirdi, aholining ijtimoiy-iqtisodiy sharoitini yaxshiladi, hunarmandchilik va savdo-sotiqni yanada rivojlanishi uchun shart-sharoit yaratdi, soliq tizimini isloh qildi, shuningdek, xalqaro aloqalarni ham yaxshiladi. Amir Temur tibbiyot, matematika, astronomiya, tarix, adabiyot, tilshunoslik, diniy ilmlarga katta e'tibor berdi. Uning saroyida Mavlono Abdug'abbor Xorazmiy, Mavlono Shamsuddin Munshiy, Mavlono Abdullo Lison, Mavlono Bahridin Ahmad, Alouddin Koshiy, Jalol Xokiy kabi allomalar faoliyat ko'rsatishgan. Mirzo Ulug'bek, Xusayn Boyqaro va Zahiriddin Muxammad Bobur hukmronligi vaqtida ilm-fan, adabiyot va san'at rivojlandi va taraqqiy etdi. Aynan shu davrda buyuk shoir Alisher Navoiy turk tilida o'zining asarlarini yaratdi va o'zbek xalqining ma'naviy merosini rivojlantirishga o'zining beqiyos hissasini qo'shdi. Amir Temurning olib borgan harakatlari tufayli mo'g'ullarning vatanimizga qilayotgan bosqinchilik yurishlariga chek qo'yildi va boshqa xalqlar esa mo'g'ullarning istibdodidan ozod qilindi. Shuningdek, Amir Temurning usmoniylar ustidan g'alabasi Yevropaning usmoniylar asoratiga tushishdan saqlab qoldi.

XVI-XVII asrlarda O'zbekiston hududida Shayboniyxonlar va Ashtarxoniyalar davlati hukmronlik qildi. Ashtarxoniyalar davrida markazlashgan davlatlar inqirozga yuz tutdi, bu esa ularning tarqoqlanishiga olib keldi. Natijada, XVIII asrda Buxoro amirligi, Xiva va Qo'qon xonliklari paydo bo'ldi. Rossiya imperiyasining Markaziy Osiyoga bostirib kirishi natijasida, mamlakatimiz XIX asrning ikkinchi yarmidan 1991-yilga qadar Rossiya imperiyasi va Sovet Ittifoqi tarkibida bo'ldi. O'tgan asrning 80-yillarida boshlangan siyosiy va iqtisodiy inqiroz O'zbekistonning mustaqillik uchun kurashini tezlashtirib yuborish uchun sharoit yaratdi. Natijada, ushbu uzoq muddatli tarixiy voqealardan so'ng 1991-yilning 31-avgustida O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti Islom Karimov boshchiligidagi mamlakat mustaqilligiga erishildi. O'zbekistonning davlat mustaqilligi oson bo'lmagan siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarda qo'lga kiritildi. 130 yil davom etgan hukmron mustamlakachilik rejimi respublikaning mustaqil rivojlanishi uchun imkoniyat bermagan. Mustaqillikning e'lon qilinishi xalqimiz va rahbariyat oldiga barcha sohalarda tub islohotlarni amalga oshirish lozimligi masalasini qo'ydi.

O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I. Karimov boshchiligidagi hukumat tomonidan amalga oshirilgan ichki va tashqi siyosat natijasida O'zbekiston

jahon hamjamiyati tomonidan mustaqil davlat sifatida tan olindi, qisqa muddat ichida O'zbekiston o'zining shaxsiy rivojlanish modelini aniqlab oldi. O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti I.Karimov tomonidan ishlab chiqilgan va joriy etilgan rivojlanishning "O'zbek modeli" mamlakatimiz ijtimoiy va iqtisodiy rivojlanishining poydevorini yaratdi. qisqa fursat ichida g'alla va neft mustaqilligiga erishildi. Istiqloq-yillarida O'zbekiston agrar davlatdan sanoati jadal sur'atlarda rivojlanib borayotgan, zamonaviy texnika va texnologiyalarni eksport qiluvchi mamlakatga aylandi. Tanlangan rivojlanish yo'lining to'g'riligini 2008-yilda boshlangan jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi tasdiqladi. "O'zbek modeli" inqirozni muvaffaqiyatli bartaraf etdi va xalqaro moliyaviy tashkilotlar va ekspertlar tomonidan haqli ravishda yuqori ijobiy baholandi. Tarix shuni ko'rsatmoqdaki, dunyodagi birona davlat ham dunyo hamjamiyatidan ajralgan holda alohida rivojlana olmaydi.

To'g'ri va oqilona olib borilayotgan tashqi siyosat tufayli hozirgi kunda O'zbekistonni dunyoning 180 ta davlat tan olgan, 130 davlat bilan esa diplomatik aloqalar o'rnatilgan. O'zbekiston Respublikasi BMT, MDH, Shanxay hamkorlik tashkiloti va boshqa shu kabi ko'plab xalqaro tashkilotlarning a'zosi hisoblanadi. Bugungi kunda O'zbekiston Avstriya, Buyuk Britaniya, Germaniya, Gretsiya, Indoneziya, Eron, Ispaniya, Italiya, Kanada, Xitoy, Malayziya, Koreya Respublikasi, Rossiya, AQSH, Tailand, Turkiya, Fransiya, Chexiya, Shveysariya, Shvetsiya kabi davlatlar bilan iqtisodiy, siyosiy va madaniy sohalarida ikki yoqlama va o'zaro manfaatdor hamkorlikni olib bormoqda. 1991-yil 31-avgust – O'zbekiston Respublikasi mustaqilligining rasmiy e'lon qilingan kun – davlatimizning xalqaro hamjamiyatga keng ko'lami va dinamik integratsiyasi boshlangan sana hisoblanadi. Bugungi kunda O'zbekiston dunyoning 130 dan ortiq mamlakati bilan diplomatik aloqalar o'rnatgan. Toshkentda 45 ta xorijiy davlatning elchixonalari, 8 ta faxriy konsulxonalar, 11 ta xalqaro tashkilotlarning vakolatxonalar, 5 ta xalqaro moliyaviy tashkilotlarning vakolatxonalar, 3 ta diplomatik mavqega ega bo'lgan savdo vakolatxonalar faoliyat olib bormoqda. Bugungi kunda xorijiy mamlakat va xalqaro tashkilotlarda O'zbekiston Respublikasining 46 ta diplomatik va konsullik vakolatxonalar faoliyat ko'rsatmoqda. O'zbekiston 100 dan ortiq xalqaro tashkilotlarga a'zo bo'lib, turli xil ko'p tomonlama hamkorlik tuzilmalari bilan aloqalarni rivojlantirmoqda. Mamlakat tashqi siyosiy faoliyati konsepsiyasiga muvofiq, O'zbekiston tashqi siyosatining asosiy ustuvor yo'nalishi Markaziy Osiyo mintaqasi bo'lib, mamlakatning hayotiy muhim manfaatlari bu mintaqaga bilan chambarchas bog'liqdir. O'zbekistonning Markaziy Osiyodagi siyosati mintaqada tinchlik va barqarorlikni ta'minlashga, mintaqaviy xavfsizlikning eng muhim muammolarini hal etishga, jumladan, Afg'onistondagi vaziyatni izga tushirishga ko'maklashishga, Markaziy Osiyoning transchegaraviy suv havzalari resurslaridan to'g'ri va oqilona foydalanishni va mintaqada ekologik barqarorlikni ta'minlashga, chegaralarni delimitatsiya va demarkatsiya qilish jarayonlarini yakunlashga, yangi tahdidlarga qarshi kurash borasida samarali chora-tadbirlar ko'rishga, barcha qo'shni mamlakatlar bilan o'zaro yaqin, manfaatli va amaliy hamkorlikni yo'lga qo'yishga qaratilganidir. O'zbekiston o'zining yaqin qo'shnilari bilan munosabatlarda doimo ochiq, do'stona va pragmatik si-



yo'sat yuritish tarafdori bo'lib holadi, mintaqadagi barcha dolzarb siyosiy, iqtisodiy va ekologik muammolarni Markaziy Osiyo mamlakatlari tomonidan o'zaro manfaatlarini hisobga olgan holda, amaliy muloqot va xalqaro huquq normalari asosida hal etilishini yoqlaydi. O'zbekiston Afg'onistonga nisbatan an'anaviy tarzda yaxshi qo'shnichilik va do'stona siyosat yuritadi hamda bu davlatning ichki ishlariga aralashmaslik, u bilan o'z munosabatlarini ikki tomonlama asosda, afqon xalqi tanlagan hukumatni qo'llab-quvvatlash siyosatini o'ziga ma'qul topadi.

O'zbekistonning fikriga ko'ra, Afg'onistonda urushni to'xtatish va tinchlik o'rnatishning yagona yo'li – siyosiy yo'l bo'lib, afqon muammosi borasida turli qarama-qarshi tomonlar o'rtasida muzokaralar yo'li bilan o'zaro kelishuvga erishish, va mamlakatning asosiy milliy va etnik guruhlarini vakillarini o'z ichiga olgan hukumat tuzishdir. O'zbekiston tashqi siyosatining ustuvor yo'nalishi MDHga a'zo mamlakatlardir. O'zbekistonni bu davlatlar bilan tarixan shakllangan siyosiy, iqtisodiy, transport-kommunikatsion va boshqa aloqalar bog'lab turadi. O'zbekiston MDHning barcha mamlakatlari bilan ikki tomonlama hamkorlik munosabatlarini teng huquqli, o'zaro manfaatli, bir-birini hurmat qilish asosida yo'lga qo'yishni davom ettiradi. O'zbekiston Respublikasi bilan Rossiya Federatsiyasi o'rtasidagi Strategik sherikchilik tog'risidagi shartnoma (2004-yil 16-iyun), Ittifoqchilik munosabatlari tog'risidagi shartnoma (2005-yil 14-noyabr), shuningdek, Strategik sheriklikni chuqurlashtirish tog'risidagi deklaratsiya (2012-yil 4-iyun) asosida Rossiya Federatsiyasi bilan do'stona aloqalarni izchil rivojlantirish va har tomonlama mustahkamlash har ikkala mamlakat manfaatlariga mos keladi hamda mintaqada barqarorlik va xavfsizlikning mustahkamlanishiga xizmat qiladi. Savdo-iqtisodiy aloqalarni va investitsion hamkorlikni yanada kuchaytirish hamda diversifikatsiya qilish, transmilliy transmilliy xavf-xatar va tahdidlarga qarshi kurashish va mintaqada tinchlik va barqarorlikni saqlash masalalaridagi hamkorlik – O'zbekiston va Rossiya o'rtasidagi ikki tomonlama munosabatlarning muhim jihatlardir. Amerika Qo'shma Shtatlari bilan mushtarak manfaatlar asosida har tomonlama o'zaro foydali va amaliy hamkorlikni rivojlantirish O'zbekiston tashqi siyosatida ustuvor ahamiyatga ega bo'lib qolmoqda. Ushbu munosabatlar 2002-yilning 12-martida imzolangan O'zbekiston Respublikasi bilan AQSH o'rtasida Strategik sherikchilik va hamkorlik asoslari tog'risidagi deklaratsiyaga asoslanadi. Afg'onistonda tinchlik va barqarorlik o'rnatishga ko'maklashish, transmilliy xavf-xatar va tahdidlarga qarshi kurashish, O'zbekistonda amalga oshirilayotgan modernizatsiya va islohotlar jarayonlarini qo'llab-quvvatlash maqsadida investitsiyalar va texnologiyalar sohasidagi hamkorlikni kengaytirish masalalari ikkitomonlama aloqalarni muhim qismi hisoblanadi.

O'zbekiston Yevropaning yetakchi davlatlari bilan, shuningdek, Yevropa Ittifoqi va NATO bilan o'zaro manfaatli hamkorlikni rivojlantirishga muhim e'tibor qaratadi. Savdo, investitsion va moliyaviy hamkorlikni rivojlantirish, Yuksak texnologiyalar transferi, ilm-fan, texnika, ta'lim, ekologiya, sog'liqni saqlash va madaniyat sohasidagi o'zaro manfaatli aloqalar, shuningdek, mintaqaviy xavfsizlikni mustahkamlash O'zbekistonning Yevropa mamlakatlari hamda

tashkilotlari bilan hamkorligining muhim yo'nalishlaridir. O'zbekiston o'zining yaqin mintaqaviy qo'shnisi hamda global muammolarni hal etishda muhim o'rin tutadigan davlat sifatida Xitoy Xalq Respublikasi bilan strategik sheriklik munosabatlarini yanada mustahkamlashdan manfaatdordir. Xitoy bilan ikki tomonlama munosabatlarni yanada rivojlantirish 2012-yil iyunda imzolangan O'zbekiston Respublikasi va Xitoy Xalq Respublikasi o'rtasidagi Strategik hamkorlik munosabatlarini o'rnatish tog'risidagi qo'shma deklaratsiyaga hamda 2013-yil 9-sentyabrda imzolangan Do'stlik va hamkorlik tog'risidagi shartnoma va Ikki tomonlama strategik sherikchilik munosabatlarini yanada rivojlantirish va chuqurlashtirish tog'risidagi qo'shma deklaratsiyaga asoslanadi. Osiyo – Tinch okeani mintaqasidagi barcha etakchi mamlakatlar bilan o'zaro manfaatli asosda savdo-iqtisodiy munosabatlarni kengaytirish, O'zbekiston iqtisodining ustuvor sohaslariga investitsiya va yangi texnologiyalarni jalb etish, shuningdek, fan, ta'lim, sog'liqni saqlash, madaniyat va turizm sohaslarida aloqalarni rivojlantirish hamkorlikning asosiy yo'nalishlari hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi Janubiy Osiyo mamlakatlari bilan har tomonlama va o'zaro manfaatli munosabatlarni rivojlantirish tarafdoridir, jumladan, Hindiston va Pokiston bilan savdo-iqtisodiy va transport-kommunikatsiya sohaslarda hamkorlikni yanada rivojlantirishdan manfaatdor. Yaqin va O'rta Sharq mamlakatlari bilan o'zaro manfaatli munosabatlar savdo-iqtisodiy, transport kommunikatsiyalari, moliya va investitsiya sohaslarida izchil rivojlanmoqda, shu jumladan, IQT va ITB doirasida. O'zbekistonning nufuzli xalqaro tashkilotlar ishida, eng avvalo BMTni faoliyatida, faol ishtirok etib kelmoqda. O'zbekiston BMTni dunyoda tinchlik va xavfsizlikni saqlab turish, hozirgi shiddat bilan davom etayotgan globalizatsiya jarayonida davlatlarning barqaror rivojlanishini ta'minlash borasidagi yagona universal tashkilot deb biladi. Respublikamiz shuningdek, mintaqaviy tashkilotlar ishida faol ishtirok etmoqda. O'zbekiston Shanxay hamkorlik tashkilotini doirasida mintaqaviy xavfsizlik tahdidlariga qarshi kurash, a'zo mamlakatlarning barqaror ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini ta'minlash, o'zaro infratuzilmaviy va investitsion loyihalarni amalga oshirish borasidagi hamkorlikni kuchaytirish tarafdori. O'zbekistonning Mustaqil Davlatlar hamdo'stligi tashkiloti doirasidagi ko'p tomonlama hamkorligining ustuvor yo'nalishlariga savdo-iqtisodiy hamkorlik masalalari, transport kommunikatsiya tarmoqlarini rivojlantirish, transmilliy tahdid va xavf-xatarlarga qarshi kurashish hisoblanadi.

**O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti** – Islom Abdug'aniyevich Karimov 1938-yil 30-yanvarda Samarqand shahrida xizmatchi oilasida tug'ilgan. Millati – o'zbek. Oliy ma'lumotga ega bo'lgan. O'rta Osiyo Politexnika va Toshkent Xalq xo'jaligi institutlarini tugatgan. Muhandis-mexanik va iqtisodchi mutaxassisliklariga ega bo'lgan. Iqtisod fanlari nomzodi edi. Mehnat faoliyatini 1960-yilda Toshkent qishloq xo'jalik mashinasozligi zavodida boshlagan. 1961-yildan 1966-yilgacha V.P.Chkalov nomidagi Toshkent Aviatsiya ishlab chiqarish birlashmasida muhandis, yyetakchi muhandis-konstruktor bo'lib ishlagan. 1966-yilda O'zbekiston SSR Davlat plan komitetiga ishga o'tib, bosh mutaxassislikdan respublika Davlat plan komiteti raisining birinchi o'rinbosarigacha bo'lgan yo'lni bosib o'tgan. 1983-yilda I.Karimov O'zbekiston SSR Moli-

ya ministri, 1986-yilda O'zbekiston SSR Ministrlar Soveti Raisining o'rinbosari, respublika Davlat plan komitetining raisi etib tayinlangan. 1986-1989-yillar mobaynida Qashqadaryo viloyat partiya komitetining birinchi kotibi, 1989-yilning iyunidan boshlab O'zbekiston Kompartiyasi Markaziy Komitetining birinchi kotibi lavozimlarida ishlagan. 1990-yil 24-mart kuni O'zbekiston SSR Oliy Kengashining sessiyasida I.Karimov O'zbekiston SSR Prezidenti etib saylangan. 1991-yil 31-avgust kuni I.Karimov tarixiy voqea – O'zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligini e'lon qildi. 1991-yil 29-dekabrda muqobillik asosida o'tkazilgan umumxalq saylovida I.Karimov O'zbekiston Respublikasi Prezidenti etib saylangan. 1995-yil 26-martda bo'lib o'tgan umumxalq referendumida yakunlariga ko'ra, I.Karimovning prezidentlik vakolati 2000-yilga qadar uzaytirildi. 2000-yil 9-yanvarda muqobillik asosida o'tgan saylov natijalariga ko'ra, Konstitutsiyaga kiritilgan o'zgarishlarga muvofiq, I.Karimov 7-yil muddatga O'zbekiston Respublikasi Prezidenti etib saylangan. 2007-yil 23-dekabrda muqobillik asosida o'tgan saylov natijalariga ko'ra, I.Karimov 7-yil muddatga O'zbekiston Respublikasi Prezidenti etib saylangan. 2015-yil 29-mart kuni muqobillik asosida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi bo'lib o'tdi. Uning natijalariga ko'ra Konstitutsiyaga kiritilgan o'zgarishlarga muvofiq Islom Karimov 5 yillik muddatga mamlakatning oily lavozimiga saylandi. U oilali bo'lib, ikki farzand otasi, besh nabiraning buvasi edi. Rafiqasi T.A.Karimova – mutaxassisligi iqtisodchi, iqtisod fanlari nomzodi, O'zbekiston Fanlar Akademiyasi Iqtisodiyot institutida katta ilmiy xodim bo'lib ishlagan, ayni paytda – nafaqada. I.Karimov suveren va mustaqil O'zbekistonni barpo etish, xalqparvar demokratik huquqiy davlat yaratish, fuqarolar tinchligi va milliy totuvlikni ta'minlash ishiga qo'shgan ulkan hissasi hamda bu borada matonat va jasorat ko'rsatganligi uchun "O'zbekiston Qahramoni" unvoni, "Mustaqillik" va "Amir Temur" ordenlari bilan taqdirlangan. Shuningdek, u bir qancha xorijiy davlatlar va nufuzli xalqaro tashkilotlarning orden-medallari bilan ham mukofotlangan. I.Karimov O'zbekiston Fanlar Akademiyasining haqiqiy a'zosi edi. Shu bilan birga u iqtisod, fan, ta'limni rivojlantirishga qo'shgan ulkan hissasi uchun ko'pgina xorijiy mamlakatlar universitet va akademiyalarining faxriy fan doktori hamda akademikligiga saylangan.

**O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi** – O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi – qonun chiqaruvchi hokimiyatni amalga oshiruvchi O'zbekiston Respublikasining oliy davlat vakillik organi bo'lib, ikki palatadan – O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi (quyi palata)dan hamda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati (yuqori palata)dan iborat bo'ladi (bundan buyon matnda tegishli ravishda Qonunchilik palatasi va Senat deb yuritiladi).

**O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining senati** – senat hududiy vakillik palatasi bo'lib, Senat a'zolaridan (senatorlardan) tarkib topadi. Senat a'zolari Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahridan teng miqdorda – olti kishidan saylanadilar. Senatga saylov Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi, viloyatlar, tumanlar va shaharlar davlat hokimiyati vakillik organlari deputatlarining tegishli qo'shma majlislarida mazkur deputatlar saylanganidan so'ng bir oy ichida ular orasidan yashirin ovoz berish yo'li bilan o'tkaziladi. Senatning o'n olti nafar a'zosi fan, san'at, adabiyot, ishlab chiqa-

rish sohasida hamda davlat va jamiyat faoliyatining boshqa tarmoqlarida katta amaliy tajribaga ega bo'lgan va alchida xizmat ko'rsatgan eng obro'li fuqarolar orasidan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tayinlanadi. Saylov kuni yigirma besh yoshga to'lgan hamda kamida besh yil O'zbekiston Respublikasi hududida muqim yashagan O'zbekiston Respublikasi fuqarosi Senat a'zosi bo'lishi mumkin. Senatning vakolat muddati – besh yil. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining senati to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasining konstitutsiyaviy qonuni 2002-yil 12-dekabrda qabul qilingan.

**O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik Palatasi** – Qonunchilik palatasi bir yuz ellik deputatdan iborat. Qonunchilik palatasining bir yuz o'ttiz besh deputati hududiy bir mandatli saylov okruglari bo'yicha ko'pparti-yaviylik asosida umumiy, teng va to'g'ridan-to'g'ri saylov huquqi asosida yashirin ovoz berish yo'li bilan saylanadi. Qonunchilik palatasining o'n besh deputati O'zbekiston ekologik harakatidan saylanadi. Saylov kuni yigirma besh yoshga to'lgan hamda kamida besh yil O'zbekiston Respublikasi hududida muqim yashagan O'zbekiston Respublikasi fuqarosi Qonunchilik palatasining deputati bo'lishi mumkin. Qonunchilik palatasining vakolat muddati – besh yil. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasining konstitutsiyaviy qonuni 2002-yil 12-dekabrda qabul qilingan.

**O'zbekiston Respublikasi Prezidenti** – Shavkat Miromonovich Mirziyoyev 1957-yil 24-iyulda Jizzax viloyatining Zomin tumanida shifokor oilasida tug'ilgan. Millati – o'zbek. Oliy ma'lumotli, 1981-yili Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari institutini tugatgan. Muhandis-mexanik mutaxassisligiga ega. Texnika fanlari nomzodi, dotsent. Mehnat faoliyatini 1981-yilda Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari institutida boshlab, kichik ilmiy xodim, katta o'qituvchi, dotsent, o'quv ishlari bo'yicha prorektor lavozimlarida ishladi. 1990-yili Respublika Oliy Soveti deputatligiga saylanib, ayni vaqtda Mandat komissiyasining raisi sifatida ham faoliyat ko'rsatdi. 1992-yilda Toshkent shahrining Mirzo Ulug'bek tumani hokimi lavozimiga tayinlandi. 1996-2001-yillarda Jizzax viloyati hokimi, 2001-2003-yillar mobaynida Samarqand viloyati hokimi lavozimlarida ishlab, mazkur tuman va viloyatlarni ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan rivojlantirishga katta hissa qo'shdi. Ijro hokimiyatidagi faoliyati bilan bir paytda 1995-2003-yillarda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining deputati sifatida ham mamlakatni siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish hamda demokratik islohotlarni amalga oshirish borasidagi muhim qonun hujjatlarini ishlab chiqish va qabul qilish jarayonida faol ishtirok etib, samarali faoliyat olib bordi. Sh.M.Mirziyoyev 2003-yilda O'zbekiston Respublikasining Bosh vaziri etib tasdiqlandi va ushbu lavozimga yana uch marta – 2005, 2010, 2015-yillarda Oliy Majlis palatalari tomonidan qayta tasdiqlandi. Sh.M.Mirziyoyev mamlakatimiz mustaqillikka erishgan ilk kunlardan boshlab O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti Islom Karimovning yuksak ishonchini qozonib, uning yaqin safdoshi va maslakdoshi sifatida samarali faoliyat olib bormoqda. Sh.M.Mirziyoyev Hukumat boshlig'i sifatida keng ko'lamli ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, mamlakatimizni modernizatsiya qilish va yangilash, yirik

va noyob loyihalarni hayotga joriy etish, xususiy mulkni ustuvor darajada rivojlantirish, iqtisodiyotda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning ulushini keskin oshirish hamda ularning huquqiy himoyasini yanada mustahkamlashda o'zining Yuksak salohiyati va mohir tashkilotchilik qobiliyatini namoyon etdi. Mamlakat iqtisodiyotini industrial rivojlantirish, respublikaning eksport salohiyatini oshirish, agrar sohani tubdan isloh qilish, ayniqsa, fermerlik harakatini taraqqiy toptirish, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini chuqur qayta ishlash, respublikada oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash va aholini kafolatlangan va arzon mahsulotlar bilan ta'minlash ishlariga ustuvor darajada e'tibor qaratdi. Yurtimizning barcha hududlarida ulkan bunyodkorlik va obodonchilik ishlarini olib borish, aholiga sifatli kommunal xizmat ko'rsatish, respublikaning shahar va tumanlari, ayniqsa, uzoq qishloq tumanlarini kompleks rivojlantirish orqali aholining turmush va mehnat sharoitini tubdan yaxshilashga qaratilgan keng ko'lamli va samarali tadbirlarni amalga oshirdi. Sh.M.Mirziyoyevning faoliyatida sotsial-iqtisodiy masalalar bilan bir qatorda ta'lim, fan, sog'liqni saqlash tizimlarini zamonaviy talablar asosida rivojlantirish, yoshlarning sog'lom va barkamol bo'lib voyaga etishlari uchun munosib shart-sharoitlar yaratish, onalik va bolalikni kuchli muhofaza qilish ustuvor vazifa sifatida muhim o'rin egalladi. O'zini o'zi boshqarishning noyob instituti bo'lgan mahallaning nufuzi va obro'sini yanada oshirish, shuningdek, boshqa jamoat tashkilotlarini demokratik islohotlarga keng jalb etish orqali jamiyatda ularning mavqeyini mustahkamlash, milliy ma'naviy qadriyatlarini e'zozlash va izchil rivojlantirish ishlariga yuqori darajada e'tibor qaratdi.

Qayd etilganlar bilan bir qatorda, iqtisodiy va ijtimoiy vazifalarni amalga oshirishda xorijiy davlatlar va xalqaro tuzilmalar, shuningdek, xalqaro moliya institutlari bilan har tomonlama o'zaro hamkorlikni kuchaytirish orqali mamlakatimizning milliy manfaatlariga va iqtisodiy rivojlanishiga xizmat qiladigan kelishuvlarga erishishda bevosita rahbarlik qildi. 2016-yil 8-sentyabr kuni O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisida parlament palatalarining qo'shma qaroriga muvofiq O'zbekiston Respublikasi Prezidentining vazifa va vakolatlarni bajarish vaqtincha O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri Sh.M.Mirziyoyev zimmasiga yuklandi. 19-oktyabr kuni Toshkentda Tadbirkorlar va ishbilarmonlar harakati – O'zbekiston Liberal-demokratik partiyasining VIII syezdi bo'lib o'tdi. Unda partiya siyosiy kengashi a'zosi Shavkat Miromonovich Mirziyoyev nomzodini Prezidentlikka tasdiqlash to'g'risidagi qaror qabul qilindi. 2016-yil 4-dekabr kuni bo'lib o'tgan Prezident saylovi yakunlari bo'yicha saylovchilarning 88,61 foiz ovozi bilan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti etib saylandi. 2016-yil 14-dekabrda rasman o'z vazifasini bajarishga kirishdi. Sh.M.Mirziyoyev oilali, ikki qiz, bir o'g'li, besh nafar nabirasi bor. Rafiqasi Z.M. Hoshimova – mutaxassisligi bo'yicha muhandis-iqtisodchi, ayni paytda uy bekasi. Sh.M.Mirziyoyev davlat va boshqaruv organlaridagi ko'p yillik samarali mehnati, yurtimiz ravnaqi, xalqimiz farovonligini yuksaltirish ishiga ulkan hissa qo'shgan uchun «Mehnat shuhrati» va «Fidokorona xizmatlari uchun» ordenlari bilan taqdirlangan.

**O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi** – Konstitutsiya – davlatning asosiy qonuni bo'lib, eng yuqori yuridik kuchga ega bo'lgan hujjatdir. Konsti-

tutsiya davlat tuzilishini, uning boshqaruv shaklini, davlat organlarini tuzish tartibi, ularning vakolatlarini, shaxsning huquqi, erkinligi va burchlarini belgilab qo'yadi. Konstitutiya me'yorlari bilan jamiyatdagi eng muhim ijtimoiy munosabatlar mustahkamlanadi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi Oliy Kengash tomonidan 1992-yil 8-dekabrda qabul qilingan. O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.Karimov ta'biri bilan aytganda, bu "Buyuk kelajagimizning huquqiy kafolatidir". 2002-yil 27-yanvarda o'tkazilgan umumxalq referendum natijalariga ko'ra hamda uning asosida O'zbekiston Respublikasining 2003-yil 24-aprelda qabul qilingan qonuniga muvofiq Konstitutsiyaning XVIII, XIX, XX, XXIII boblariga o'zgartishlar va ko'shimchalar kiritilgan. 2007-yil aprelda qabul qilingan qonunga asosan Konstitutsiyaning 89-moddasiga, 93-moddasining 15-bandiga, 102-moddasining ikkinchi qismiga tuzatishlar kiritilgan. 2008-yil 25-dekabrda qonunga ko'ra Konstitutsiyaning 77-moddasining birinchi qismiga o'zgartish kiritilgan. 2011-yil 18-aprelda qonun bilan Konstitutsiyaning 78,80,93,96 va 98-moddalariga o'zgarishlar va ko'shimchalar kiritildi. 2011-yil 12-dekabrda Konstitutsiyaning 90-moddasining ikkinchi qismiga tuzatish kiritildi. 2014-yil 17-aprelda Prezident tomonidan imzolangan qonunga ko'ra Konstitutsiyaning 32, 78, 93, 98, 103 va 117-moddalariga o'zgartish va ko'shimchalar kiritildi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi: 6 bo'lim, 26 bob va 128 moddadan iborat. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga o'zgartirishlar Respublika Oliy Majlisining ikkalapalatasi deputatlari umumiy sonining kamida uchdan ikki qismidan iborat ko'pchiligi tomonidan qabul qilingan qonunyoki O'zbekiston Respublikasining referendumini bilankiritiladi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 1992-yil 8-dekabrda qabul qilingan.

**O'zbekiston Respublikasining davlat bayrog'i** – 1991-yil 18-noyabrda Oliy Kengashning VII sessiyasida tasdiqlangan. Davlat bayrog'i O'zbekiston Respublikasining 1991-yil 18-noyabrda 407-XII-sonli «O'zbekiston Respublikasining Davlat bayrog'i to'g'risida»gi qonuni bilan tasdiqlangan. O'zbekiston Respublikasining Davlat bayrog'i O'zbekiston Respublikasi davlat suverenitetining ramzidir. O'zbekiston Respublikasining Davlat bayrog'i xalqaro munosabatlarda O'zbekiston Respublikasining timsoli bo'ladi. O'zbekiston Respublikasining Davlat bayrog'i – bayroqning butun uzunligi bo'ylab o'tgan to'q moviy rang, oq rang va to'q yashil rangli uchta endan tarkib topgan to'g'ri to'rtburchak shaklidagi matodir. Bayroqdagi moviy rang-tiriklik mazmuni aks etganmangu osmon va obi-hayot ramzidir. Timsollar tilida bu – yaxshilikni, donishmandlikni, halollikni, shon-shuhrat va sadokatni bildiradi. Bayroqdagi oq rang-muqaddas tinchlik ramzi bo'lib, u kun charogonligi va koinot yoritkichlari bilan uygunlashib ketadi. Oq rang poklik, beg'uborlik, soflik, orzu va xayollar tozaligi, ichki go'zallikka intilishning timsolidir. Yashil rang-tabiatning yangilanish ramzi. Qizil chiziqlar vujudimizda jo'shib okayotgan hayotiy qudrat irmoqlaridir. Navqiron yarim oy tasviri bizning tarixiy an'analarimiz bilan bog'liq. Davlat bayrog'idagi 12 ta yulduz tasviri qadimgi quyosh-yilnomamizga bevosita aloqador. Bayroqning yuqori qismida yarim oy va 12 yulduz tasviri tushirilgan. Bayroqning uzunligi 250 sm. kengligi 125 sm. ga teng.

**O'zbekiston Respublikasining davlat gerbi** – davlat gerbi O'zbekiston

Respublikasining 1992-yil 2-iyuldagi 616-XII-sonli «O'zbekiston Respublikasi Davlat gerbi to'g'risida»gi qonuni bilan tasdiqlangan. O'zbekiston Respublikasi Davlat gerbi quyidagi ko'rinishga ega: tog'lar, daryolar va so'l tomoni bug'doy boshloqlaridan, o'ng tomoni esa chanoqlari ochilgan g'oz'a shoxlaridan iborat chambarga o'ralgan gullagan vodiy uzra quyosh zarrin nurlarini sochib turadi. Gerbning yuqori qismida Respublika hurligining ramzi sifatida sakkizburchak tasvirlangan bo'lib, uning ichki qismida yarim oy va yulduz tasvirlangan. Gerbning markazida baxt va erksevarlik ramzi – qanotlarini yozgan humo qushi tasvirlangan. Gerbning pastki qismida O'zbekiston Respublikasi Davlat bayrog'ini ifoda etuvchi chambar lentasining bantida «O'zbekiston» deb yozib qo'yilgan. O'zbekiston Respublikasi Davlat gerbining rangli ko'rinishida: humo qushi va daryolar – kumush rangida; quyosh, boshloqlar, paxta chanoqlari va «O'zbekiston» yozuvi – oltin rangida; g'oz'a shoxlari va barglari, tog'lar va vodiy – yashil rangda; chanoqlardagi paxta – oq rangda; lenta – O'zbekiston Respublikasi Davlat bayrog'ining ranglarini aks ettiruvchi uch xil rangda; sakkiz burchak – oltin zarhal bilan hoshiyalangan holda havo rangda; yarim oy va yulduzlar – oq rangida tasvirlangan. Davlat gerbi 1992-yil 2-iyulda Oliy Kengashning X sessiyasida tasdiqlangan. Gerbdan davlatning milliy-siyosiy, iqtisodiy xususiyatlari, ijtimoiy va davlat tuzumi, geografik va boshqa belgilari o'z ifodasini topadi. O'zbekiston Respublikasining Davlat gerbi quyidagi ko'rinishga ega: tog'lar, daryolar va so'l tomoni bug'doy boshloqlaridan, o'ng tomoni esa chanoqlari ochilgan g'oz'a shoxlaridan iborat chambarga o'ralgan gullagan vodiy uzra quyosh zarrin nurlarini sochib turadi. Gerbning yuqori qismida respublika hurligining ramzi sifatida 8 burchakli yulduz tasvirlangan bo'lib, uning ichki qismida yarim oy va yulduz tasviri bor. Gerbning markazida baxt va erksevarlik ramzi-qanotlarini yozgan Xumo qushi ko'rinadi. Gerbning pastki qismida respublika Davlat bayrog'ini ifoda etuvchi chambar lentasining bantida "O'zbekiston" deb yozib qo'yilgan. Gerb muallifi rassom Anvar Mamajonov.

**O'zbekiston xalq demokratik partiyasi** – Bugungi kunda O'zbekiston Xalq demokratik partiyasi ushbu saylovlarga o'z safida 424.5 mingdan ziyod a'zolari bilan bormoqda. Partiya a'zolarini bevosita birlashtiradigan 9955 ta boshlang'ich tashkilot faoliyat ko'rsatyapti. O'zbekiston Xalq demokratik partiyasining asosiy maqsadi quyidagilardan iborat: – O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy qo'llab-quvvatlashga va himoyaga ehtiyojmand fuqarolari manfaatlarini ifodalaydi va himoya qiladi. Bular – iqtisodiyotda band bo'lmagan mehnatga layoqatli aholi, ijtimoiy qo'llab-quvvatlashga ehtiyoj sezadigan va ishga joylashishda qiyinchiliklarga duch kelayotgan odamlar; doimiy ish joyi va muqim maoshga ega bo'lmagan aholi qatlami, boshqa ijtimoiy sohalarining xodimlari va mutaxassislari, kam ta'minlangan hamda ko'p bolali oilalar, pensionerlar va imkoniyati cheklangan kishilar. O'zbekiston XDP davlat tomonidan ushbu toifa kishilarning manfaatlarini ko'zlab izchil siyosat olib borilishiga harakat qiladi, ularni o'zining elektrati deb hisoblaydi va saylov kampaniyalarida ularning qo'llab-quvvatlashiga umid bog'laydi; – katta hayotga kirib kelayotgan yoshlarning kasb-hunar tanlashi, ta'lim olishi va o'qishni bitirganidan keyin ish o'rniga ega bo'lishi uchun adolatli, barcha uchun teng hamda ijtimoiy ochiq

shart-sharoitlar yaratish; pensionerlar, mehnatga layoqatsiz nogironlar, ota-ona qaramog'idan mahrum bolalarning hayotiy ehtiyojlarini to'laqonli qondirishga kafolat beradigan pensiya ta'minoti va ijtimoiy nafaqalar tizimini shakillantirish; – xalq deputatlari mahalliy Kengashlaridagi partiya guruhlarining hududiy ish o'rinlari yaratish hamda o'rta maxsus va oliy ma'lumotli mutaxassislarni tayyorlash dasturlariga moslashtirilgan xizmat va tovarlar ishlab chiqarishni rivojlantirishga doir o'rta muddatli investitsiya dasturlarini ishlab chiqish hamda tasdiqlash borasidagi tashabbuslarni yanada rivojlantirish; shu o'rinda mahalliy xomashyodan raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarish va mavjud resurs hamda talab asosida xizmatlar ko'rsatishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Partiya o'zining ommaviy axborot vositalariga ega. Uning markaziy nashrlari: – o'zbek tilida chop etiladigan "O'zbekiston ovozi" gazetasi; – rus tilida chop etiladigan "Golos Uzbekistana" haftaligi. Partiyaning rasmiy veb-sayti va elektron pochatasi: [www.xdp.uz](http://www.xdp.uz), [info@xdp.uz](mailto:info@xdp.uz).

**O'zbekiston Liberal demokratik partiyasi** – Tadbirkorlar va ishbi-larmonlar harakati – O'zbekiston Liberal-demokratik partiyasi 2003-yil 15-noyabrda bo'lib o'tgan Ta'sis Syezdida tashkil topgan. Bugungi kunda O'zbekiston Liberal-demokratik partiyasi o'z safida 252 mingdan ziyod a'zoni birlashtirgan, 10282 ta boshlang'ich partiya tashkilotiga ega bo'lgan etakchi siyosiy kuch sifatida saylovlarga kirib bormoqda. O'zbekiston Liberal-demokratik partiyasining asosiy maqsadlari quyidagilardan iborat: *Birinchi maqsad.* Siyosiy kuch sifatida birlashgan holda tadbirkorlar, ishbi-larmonlar va fermerlarning yanada kengroq faoliyat yuritishlari uchun yangi imkoniyatlar yaratish, ularning istiqbolini ham nazariy, ham amaliy jihatdan asoslab berish, jamiyatning mazkur qatlami manfaatlarini himoyalash va ertangi kunini ta'minlash. Shu ijtimoiy toifa nomidan O'zbekistonning siyosiy sahnasiga chiqish va o'zining munosib o'rnini egallash. *Ikkinchi maqsad.* Mamlakatning milliy manfaatlari va taraqqiyotining strategik istiqbol-lariga javob beradigan dasturni Konstitutsiya tamoyillariga suyanib, boshqa siyosiy partiya va harakatlar bilan hamkorlikda ishlab chiqish va amalga oshirish uchun partiyaning kuch va imkoniyatlarini safarbar etish. O'zbekiston tanlagan ochiq, bozor iqtisodiyotiga asoslangan demokratik, huquqiy davlat qurish, fuqarolik jamiyati institutlarining rivojiga keng yo'l ochib berish va demokratik qadriyatlarni xalq, avvalo yoshlar ongi va hayotiga singdirish. *Uchinchi maqsad.* Davlatni boshqarish, jamiyatda shakllanayotgan qarash-larga ta'sir o'tkazish, siyosiy va iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishda faol ishtirok etish, ijtimoiy muammolarni hal etishda ko'maklashish, O'zbekistonning xalqaro obro'sini oshirishda, yurt tinchligi va osoyishtaligini saqlashda, millatlararo va fuqarolararo ahillik va totuvlikni mustahkamlash ishida faol qatnashish. Yoshlarni milliy g'oyaga hurmat, Vatanga muhabbat va sadoqat, o'z elim, o'z yurtim, jon O'zbekistonim deb g'ururlanib yashash ruhida tarbi-yalashga munosib hissa qo'shish, har qanday sharoitda mustaqillik yo'lini, qadriyatlar, milliy va diniy an'analar va urf-odatlarini qadrlash barobarida, barcha millat va elatlar qadriyatlarini kamsitishga yo'l qo'ymaslik, bunday xurujlarga qarshi kurash olib borish. *To'rtinchi maqsad.* Partiyaning siyosiy



platformasi – liberal-demokratik g'oya va qadriyatlarni keng omma ongiga singdirish, bu borada har tomonlama chuqur o'ylangan tashviqot va targ'ibot ishlarini olib borish, o'z safini kengaytirish. Shu g'oyalarni hayotga tatbiq qilishda fidoyilik ko'rsatgan faollarni deputatlikka nomzod sifatida ko'rsatish va saylovchilar ishonchini qozongan o'z deputatlari zimmasiga davlat hokimiyatining qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi organlarida vakillik vazifasini yuklash hamda ularning faoliyatini boshqarish. O'zbekiston Liberal-demokratik partiyasining Syezdi partiya oliy organi hisoblanadi va u 5-yilda kamida bir marotaba o'tkaziladi. O'zLiDePning markaziy nashri – «XXI asr» ijtimoiy-siyosiy gazetasi. Partiyaning rasmiy veb-sayti va elektron pochta: [www.uzlidep.uz](http://www.uzlidep.uz), [uzlidepinform@mail.ru](mailto:uzlidepinform@mail.ru), [uzlidep@uzlidep.uz](mailto:uzlidep@uzlidep.uz).

**O'zbekiston "Milliy tiklanish" demokratik partiyasi** – 2008-yil 20-iyun kuni O'zbekiston "Milliy tiklanish" demokratik partiyasi va O'zbekiston "Fidokorlar" milliy demokratik partiyasining birlashish Qurultoyi bo'lib o'tib, ikki partiya negizida yangi O'zbekiston "Milliy tiklanish" demokratik partiyasi tashkil topdi. Bugungi kunda partiya a'zolar soni 190 mingga yaqinni tashkil etadi. O'zMTDP 5578 dan ortiq boshlang'ich partiya tashkilotlariga ega. O'zbekiston "Milliy tiklanish" demokratik partiyasining asosiy maqsad-vazifasi milliy an'analarni va qadriyatlarni saqlashdan iborat. Partiya huquqiy demokratik davlat va adolatti fuqarolik jamiyatini barpo etish, fan-texnika taraqqiyotini va O'zbekistonning globallashib borayotgan jahonda munosib o'rin egallashini ta'minlashni yoqlaydi. U biz faxrlanadigan milliy an'analar va qadriyatlarimizni saqlab qolish tarafdorlari bo'lgan insonlar manfaatlarini himoya qilishni o'z oldiga maqsad qilib qo'yadi. Bunday shaxslar – partiyaning asosiy ijtimoiy qatlamidir.

Partiya mustaqillik yillarida boshlangan milliy qadriyatlarni tiklash, o'zlikni anglash, milliy g'oyalarni shakllantirish va milliy mustaqillik mafkurasini mustahkamlash, xalqning ma'naviy hayotida diniy an'analarni tiklash kabi xayrli ishlarni izchil, bosqichma-bosqich va tizimli ravishda davom ettirish tarafdoridir. Ushbu ishni sifat jihatdan yangi darajaga ko'tarish, uning samaradorligini oshirish zarur. "Maqsadimiz – O'zbekiston fuqarosi ongida o'z mamlakatining tarixiy o'tmishi, bugungi kuni va kelajagi uchun faxrlanish tuyg'usini tarbiyalash va mustahkamlash!" – yangilangan O'zbekiston "Milliy tiklanish" demokratik partiyasining asosiy siyosiy shiori hisoblanadi. Davlatning yangi xalqaro sharoitlarda va geosiyosiy voqelikda milliy manfaatlarini ro'yobga chiqarish va himoya qilish yuzasidan amaliy qadamlarining taktik va strategik maqsadlari va vazifalari zaminida milliy tiklanish va rivojlanishning umumiy mafkurasini va keng qamrovli dasturi mavjudligi – bizning muqaddas orzumiz va strategiyamiz bo'lgan - yurt tinchligi, Vatan taraqqiyoti, xalq farovonligi – umummilliy g'oyasi atrofida jamiyatimizni birlashtirishga asoslangan yo'lini O'zbekiston "Milliy tiklanish" demokratik partiyasi (O'zMTDP) qo'llab-quvvatlaydi. Partiyaning oliy rahbar organi Partiya Qurultoyi bo'lib, u kamida besh yilda bir marta chaqiriladi. Partiyaning matbuot nashri – "Milliy tiklanish" ijtimoiy-siyosiy gazetasi. O'zMTDP rasmiy veb-sayti va elektron pochta: [www.mt.uz](http://www.mt.uz), [info@mt.uz](mailto:info@mt.uz).

**O'zbekiston "Adolat" sotsial-demokratik partiyasi haqida** – O'zbekiston "Adolat" sotsial-demokratik partiyasi 1995-yil 18-fevralda partiyaning birinchi

Ta'sis Qurultoyida tashkil topgan. Bugungi kunda O'zbekiston "Adolat" SDP o'z safida 135 mingdan ortiq a'zoni birlashtirgan 3700 dan ziyod boshlang'ich partiya tashkilotlariga ega. O'zbekiston "Adolat" sotsial-demokratik partiyasining asosiy maqsadi: – demokratik, huquqiy davlatni, ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotiga asoslangan kuchli, adolatli fuqarolik jamiyatini barpo etishda hamda O'zbekiston hududida yashayotgan barcha millat va elatlarning umumiy manfaatlariga mos keladigan, fuqarolarning qonun oldida tengligi, birdamligi, konstitutsiyaviy huquq va erkinliklari ta'minlangan ma'naviy jipslashgan jamiyatni shakllantirishda faol ishtirok etish.

Partiyaning vazifalari: – O'zbekiston mustaqilligini mustahkamlash borasida demokratik jarayonlarni jadallashtirish; – O'zbekistonda huquqiy-demokratik davlat barpo etish borasida Vatanga sadoqatli xizmat qiladigan insonlarni tarbiyalash; – O'zbekiston fuqarolariga o'z qonuniy huquqlari, erk va burchlarini anglashga ko'maklashish, ularning siyosiy ongi, madaniyatining rivoji uchun kurashish; – o'zbek xalqining milliy an'analariga tayangan holda milliy qadriyatlarini tiklash, boy madaniy merosimizni o'rganish asosida yosh avlodni tarbiyalash; – millatlararo munosabatlarni mustahkamlash, do'stlik va hamjihatlikni rivojlantirish, har qanday millatchilik, diniy ekstremizm, terrorizm illatlariga qarshi kurash olib borish, dinlararo bag'rikenglikni, tinchlik va barqarorlikni, millatlararo totuvlikni targ'ib qilish; – davlat ijroiya tizimini takomillashtirish, davlat hokimiyati organlarida imonli, pok, o'z Vatani, xalqini sevadigan va el-u yurtiga sadoqat bilan xizmat qiladigan rahbar va mutaxassis kadrlarning ishlashiga erishish; – respublika fuqarolarining turmush darajasini ko'tarish, ijtimoiy jihatdan muhtoj aholining muhofazasini ta'minlash borasida takliflar ishlab chiqish va uni amalga oshirish; – O'zbekistonning jahon miqyosida o'z o'rnini egallashi, dunyodagi ilg'or davlatlar bilan xalqaro huquq talablari asosida o'zaro manfaatli aloqalarini rivojlantirish uchun faoliyat ko'rsatish, milliy manfaatlariga mos keladigan tashqi siyosatni qo'llab-quvvatlash; – Partiyadan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi deputatligiga, mahalliy davlat hokimiyati vakillik organlariga, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarining saylanadigan lavozimlariga nomzodlar ko'rsatish, qayd etilgan saylovlarda ishtirok etish, shuningdek, saylangan organlarda faoliyat ko'rsatish; – malakali mutaxassislar, byudjet sohalari xodimlari, pedagoglar, shifokorlar, muhandis-texnik va ilm-fan vakillari, xizmat ko'rsatish sohalari mehnatkashlari manfaatlarini himoya qilish. Partiya faoliyati ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyoti negizida fuqarolik jamiyatini qurish borasida mamlakatimizda olib borilayotgan keng ko'lamli islohotlar jarayoniga aholining barcha qatlamlarini jalb etish, hokimiyatning vakillik organlari orqali davlat boshqaruvida ishtirok etish, fuqarolarning siyosiy ongi va madaniyatini yuksaltirish, mamlakat hayotining muhim masalalari yuzasidan o'z tarafdorlarining fikr va mulohazalarini yuzaga chiqarish va bu masalalar bo'yicha partiya pozitsiyasini keng jamoatchilikka va barcha pog'onadagi davlat hokimiyati organlariga yetkazishga qaratilgan. Partiya o'zining g'oyalari sadoqatli hamda saylovchilar ishonchini qozongan nomzodlarni davlat hokimiyatining vakillik va ijro organlariga ilgari suradi. Partiya O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasiga saylovda eng

ko'p deputatlik o'rniga ega bo'lgan taqdirda hamda mamlakat qonunchiligiga asosan eng ko'p deputatlik o'rniga ega bo'lgan boshqa partiyalar bilan blokda O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri lavozimiga o'z nomzodini ilgari suradi. Partiyaning oliy organi Qurultoy hisoblanadi. Siyosiy Kengash Plenumlari har yilda kamida ikki marta o'tkaziladi. "Adolat" ijtimoiy-siyosiy gazetasi O'zbekiston "Adolat" sotsial-demokratik partiyasining rasmiy nashri hisoblanadi, gazeta 1995-yil 22 fevralda tashkil etilgan. Partiyaning rasmiy veb-sayti va elektron manzili: [www.adolat.uz](http://www.adolat.uz), [info@adolat.uz](mailto:info@adolat.uz).

**O'zbekiston ekologik harakati** – O'zbekiston ekologik harakati 2008-yil 2-avgustda tashkil topgan. 2008-yil 20 sentyabrda O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida ro'yxatdan o'tgan. Ekoharakat O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasida kvotalangan 15 ta deputatlik o'rniga ega. Ekoharakatning Respublika konferensiyasi, Markaziy Kengash, uning Ijroiya qo'mitasi, Markaziy nazorat-taftish komissiyasi uning rahbar organlari hisoblanadi. Qoraqalpog'iston Respublikasi viloyatlari va Toshkent shahrida O'zbekiston ekologik harakatining hududiy bo'linmalari faoliyat olib bormoqda. Ekoharakat – jamiyatning barcha kuchlari, O'zbekistonning bugungi fuqarolari va kelajak avlodlari qulay tabiiy atrof-muhitda yashash huquqiga ega bo'lishlari, aholi salomatligini yaxshilashga, muhofaza qilishga, tabiiy resurslarning barcha manbalaridan samarali foydalanishga yo'naltirilgan say'-harakatlarni safarbar qilishga intiladi. "Sog'lom muhit – inson salomatligi" Ekoharakatning bosh shioridir. O'zbekiston ekologik harakatining dasturiy vazifalari:

- atrof-muhit muhofazasi va ekologik holatni sog'lomlashtirish ishida jamoatchilik ishtiroki faolligini har tomonlama kuchaytirish;

- atrof tabiiy muhit muhofazasi masalalarida qabul qilingan qonunlar va davlat miqyosidagi boshqa qarorlar ijrosini ta'minlash hamda bu sohadagi qonunchilikni rivojlantirish va takomillashtirishga ko'maklashish bo'yicha tizimli ishlarni yuritish;

- atrof tabiiy muhit muhofazasi va shu maqsadlarga ajratilgan resurslardan oqilona foydalanish borasida qabul qilingan hujjatlarni ijro etishda markaz va joylarda davlat organlari, jamoatchilik va boshqa tuzilmalar mas'uliyatini oshirish;

- aholining ekologik madaniyatini yuksaltirish, ekologik ta'lim va tarbiya tizimini rivojlantirish;

- atrof-muhit muhofazasi sohasidagi xalqaro hamkorlikni rivojlantirish;

- atrof-muhit muhofazasi davlat, jamiyat va har bir fuqaroning vazifasi bo'lishiga erishish;

- atrof-muhit muhofazasi sohasida nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyatini muvofiqlashtirish.

Jamoatchilik e'tiborini ekologik sog'lomlashtirish va atrof-muhit muhofazasi muammolarini izchil suratda hal etish zaruratiga qaratgan holda Ekoharakat mamlakatimizning barcha fuqarolarini Ona Vatanimizning bebaho tabiiy boyliklarini kelgusi avlodlar uchun asrab-avaylashdek oliy vazifani bajarishda faol ishtirok etishga chaqiradi. Ekoharakat "Jamiyat" ijtimoiy-siyosiy va "Ekohayot" ijtimoiy-iqtisodiy gazetalariga hammuassis hisoblanadi. Yosh avlodni Ona tabiat

va uning ne'matlariga mehr-muhabbat ruhida tarbiyalash, ularda ekologik bilim va madaniyatni shakllantirish, uzluksiz ekologik ta'lim-tarbiya tizimiga ko'maklashish maqsadida "Buloqcha" ("Rodnichok") bolalar ekologik jumali o'zbek va rus tillarida chop etilmoqda.

**O'zini o'zi boshqarish** – (ingl. municipal o'zini o'zi boshqarish); u yoki bu ma'muriy-hududiy birliklardagi aholining vakolatlarini ifodalovchi saylangan organlar va ularning ma'muriy apparati tomonidan amalga oshiriladigan mahalliy ahamiyatga ega bo'lgan ishlarni boshqarishga aytiladi. O'zbekistonda o'zini o'zi boshqarish organlari tarkibiga mahalla, qishloq, ovul va shaharcha fuqarolar yig'inlari kiradi.

**O'zini o'zi boshqarish organlari** – shaharchalar, kishloklar va ovullar, shuningdek shaharlardagi, shaharchalardagi, kishloklardagi hamda ovullardagi mahallalar fuqarolar yig'inlari fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlaridir. Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari davlat hokimiyati tegishli hudud doirasida amalga oshiradi. Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari yuridik shaxs huquqlaridan foydalanadi, belgilangan namunadagi muhriga ega bo'ladi va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilangan tartibda mahalliy davlat hokimiyati organlarida hisobga olinishi kerak.

**O'zlikni anglash** – insonning o'zini alohida vujud sifatida butun borliqdan ajrata bilishi, baholashi va qadriyat sifatida anglashini ifodalovchi t. O'.a. shaxsning o'zini haqiqiy inson, muayyan moddiy va ma'naviy boyliklarning egasi va ular uchun mas'ul ekanini, yagona til, urf-odatlar, an'analar, qadriyatlar va davlatga mansubligini, manfaatlar hamda ehtiyojlar umumiyligini tushunib etishi jarayonida shakllanadi. O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti Isлом Karimovning – "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch" asarida bu t.ning mazmun-mohiyati, o'rni va ahamiyatiga alohida e'tibor qaratilgan. O'.a. jamiyat oldida turgan vazifalarni to'g'ri anglash, ijtimoiy tajribalardan foydalanish qonuniyatlarini bilish, Vatan, millat oldidagi mas'uliyat tuyg'usi hamdir.

**O'zini o'zi boshqarishning asosiy prinsiplari** – O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida va qonunlarida mustahkamlangan o'zini o'zi boshqarish organlarining tabiati bilan bog'liq bo'lgan mustaqil faoliyatni amalga oshirishni tashkil qiluvchi rahbariy g'oyalar yig'indisidir.

**O'tish davri** – insoniyat, davlatlar, mamlakatlar, xalqlar va millatlarning rivojlanish tarixining bir bosqichdan ikkinchi bir bosqichga, muayyan bir sifatiy holatdan yangi bir sifatiy holatga, rivojlanish holatiga o'tishini, gnoseologik n.nazardan chuqur ma'no va mazmunga ega bo'lgan ma'naviy-ma'rifiy, ijtimoiy-falsafiy tushuncha hisoblanadi. O'tish deganda, biz biror bir predmet va hodisaning muayn bir sifatiy holatdan, belgidan, xususiyatdan, xarakterdan, munosabatdan ikkinchi bir sifatiy holatga, xususiyatga, xarakterga, munosabatga ega bo'lish jarayoni, taraqqiyotning yangi sifat bosqichiga ko'tarilishiga aytiladi. Bir tizimdan ikkinchi tizimga o'tish jarayoni tarixan muayyan vaqt qismida sodir bo'lib, uning zamirida a.lar mobaynida shakllanib qolgan ijt-y (davlatlararo, guruhlararo, sivilizatsiyalararo va h.k.) munosabatlarning vaqti

kelib eskirishi tufayli yangi munosabatlar tizimiga asos solinishini anglatadi. Bu jarayonni, tadrijiylik, mavjud moddiy, ma'naviy, madaniy va intellektual resurslarning mutlaq barham topishi emas, balki ularning yangi davr talablari hamda ehtiyojiga mos tarzda kompleks yangilanishi natijasi deb qabul qilish amaliyoti maqsadga muvofiq. Chunki, eskirgan tizimlarga nisbatan radikal munosabat bildirish, uni va uning moddiy, ilmiy-texnik va ma'naviy asoslarini butkul yakson qilish amaliyotining o'ta salbiy oqibatlari xam ma'lum. Tizimdan tizimga o'tish iqtisodiyot, siyosat, ijtimoiy sohalarni hamrab oluvchi jarayonligi bilan bir paytda yaqqol ko'zga tashlanuvchi ma'naviyat hodisasi ham hisoblanadi. hatto bir ma'naviy makonda ham o'tish hodisasi odatda, turli davrlarda turlicha kechadi. Ayni vaqtda shu javbada qo'liga kiritilgan yangi marra umuman ijtimoiy taraqqiyotning istiqbolini ta'minlashi mumkin. Tamomila boshqa dunyoqarashlar va qadriyatlar yangi tafakkur tizimiga o'tish, uning ijtimoiy, siyosiy hamda ijtimoiy munosabatlarga ijobiy ta'sirining nufuzi, kuchini belgilaydi. Turli sabablarga ko'ra, XXI a.da kurtak yozayotgan yangi ijtimoiy jarayonlar, islohotchilikning kelajagi aynan shu ma'n-y sohada O'.d.ning ma'no-mazmuni bilan chambarchas bog'langan. Insoniyat, xalqlar, millatlar, mamlakatlar va davlatlar tarixi bu – doimiy ravishda rivojlanib, yangilanib turadigan obyektiv qonuniy o'tish davrlaridan iborat bo'lib, ma'naviy taraqqiyot ham shu tarzda amalga oshadi. Insoniyat uchun umumiy va qonuniy bo'lgan ijtimoiy taraqqiyotning o'tish davrlari turli mamlakatlarda, xalqlarda turlicha kechadi. Ko'plab obyektiv hamda subyektiv sabablarga ko'ra, turli sivilizatsiyalar, mintaqalar, mam-tlarda an'analar, qadriyatlar va dunyoqarashlar turlichaligi bois tizimdan-tizimga O'.d. har xil sur'at, uslub va shakl kasb etadi. O'zR Prezidenti Islom Karimov XX a. oxiriga kelib "... sovuq urush tamom bo'lgani va SSSR tarqab ketganidan keyin xalqaro maydonda davlatlarning yangi turi – iqtisodiy O'.d.dagi mamlakatlar paydo bo'lganini e'tirof etish lozim"ligini ta'kidlagan. O'zbekiston Prezident Islom Karimov tomonidan ishlab chiqilgan va hayotga tatbiq etilgan O'.d. modeli, Fuqarolik jamiyatiga o'tish konsepsiyasi asosida taraqqiy etmoqda. Ushbu modelning asosini bozor munosabatlariga o'tishning mashhur besh tamoyili tashkil etadi, uning tarkibiy qismlari 2002-yil J.A.Karimovning Oliy Majlisning IX sessiyasida hamda 2005-yil Oliy Majlis Senati va Qonunchilik palatasining qo'shma majlisidagi ma'ruzalarida yanada boyitilgan.

## G'

**G'oya** – inson tafakkurida vujudga keladigan, ijtimoiy xarakterga ega bo'lgan, ruhiyatga kuchli ta'sir o'tkazib, jamiyat va odamlarni harakatga chorlaydigan, maqsad-muddao sari yetaklaydigan kuchli, teran fikr

**G'oyaviy bo'shliq** – deb, eski hukmron mafkura halokatga uchrab, u bilan bog'liq tushunchalarning qadsizlanishi, bugungi hayot, o'tmish va kelajakka daxldor qadriyatlar, tushuncha va tasavvurlarni to'liq anglab etmasligi oqibatida odamlarning qalbi va ongida vujudga keladigan bo'shliqqa aytiladi.

## SH

**Shariat** – islomda davlat amal qiluvchi, Qur'onga asoslangan diniy va huquqiy qoidalar majmuyi.

**Shaxs** – (ar. odam) subyekt, individ. Ijtimoiy mavjud va individual sifatlarga ega inson.

**Shaxsning siyosiy ijtimoiylashuvi** – davlat fuqarolarining siyosiy munosabatlar tizimiga jalb etilishi. Siyosiy ijtimoiylashuv umumiy ijtimoiylashuv jarayonining o'ziga xos bir qismini tashkil etadi. Siyosiy ijtimoiylashuv mazmuniga siyosiy ong, siyosiy madaniyat, siyosiy tajriba va amaliyot rivojlanishi, elektoral tarbiya, siyosiy ishtirok, siyosiy faoliyat subyekti sifatidagi faoliyatlarni kiritish mumkin. M. Veberga ko'ra, shaxsning ijtimoiylashuvini belgilovchi bir nechta siyosiy muhit turini ajratish mumkin: partiarxal, tabaalik va faol turlar.

**Shok terapiyasi** (iqtisodiyotda) – iqtisodiyotni sog'lomlashtirishga yo'naltirilgan qator salbiy oqibatlarni (narxlarining o'sishi, inflyatsiya, bandlikning pasayishi va shunga o'xshash boshqa holatlar) o'z ichiga oluvchi radikal chora-tadbirlar majmuasi.

**SHHT** – 1996-yilda Shanhayda, 1997-yilda Moskvada bo'lib o'tgan Xitoy, Rossiya, Qozoqiston, Qirg'iziston va Tojikiston davlat rahbarlarining sammitida harbiy sohada hamda chegara hududlarida o'zaro ishonchni mustahkamlash, qurolli kuchlarni qisqartirish tog'risida shartnoma imzolandi. Shu tariqa "Shanxay forumi" yoki "Shanxay beshligi" tashkiloti tuzildi. SHHT – 2001-yil 15-iyunda Shanxay shahrida Qozog'iston, Qirg'iziston, Rossiya, Xitoy, Tojikiston va O'zbekiston davlatlari rahbarlari tomonidan Shanxay hamkorlik tashkiloti (SHHT) tuzilishi haqida Deklaratsiya imzolandi. 2015-yil 15 iyulda Hindiston va Pokiston davlatlarining tashkilotga kirish jarayoni boshlandi. Afg'oniston, Belarus, Eron va Mug'uliston Tashkilotda kuzatuvchi maqomiga ega. Ozarbayjon, Armaniston, Kambodja, Nepal, Turkiya va Shri-Lanka davlatlari SHHTda "muloqot yo'lida hamkorlik" maqomiga ega. 2010-yil aprel oyida Toshkent shahrida SHHT va BMT kotibiyatlari hamkorligi to'g'risida Qo'shma deklaratsiya imzolandi. Shuningdek, BMTning Osiyo va Tinch okeani mamlakatlari uchun iqtisodiy va ijtimoiy komissiyasi, Janubi-Sharqiy Osiyo davlatlari assotsiatsiyasi, Evrosiyo iqtisodiy hamjamiyati, Mustaqil Davlatlari Hamdo'stligi kabi tashkilotlar bilan rasmiy aloqalar o'rnatilgan. Tashkilot ikkita doimiy amaldagi organga, ya'ni Pekin shahrida SHHT Kotibiyati va Toshkent shahrida SHHT ning Mintaqaviy Aksilterror tuzilmalariga ega. SHHT Markaziy Osiyo mintaqasida tinchlik va barqarorlikni o'rnatishda, o'zaro iqtisodiy munosabatlarni rivojlantirishda ko'p tomonlama hamkorlikning mexanizmi, ochiq va konstruktiv muloqot uchun maydon, shuningdek, turli yo'nalishlarda sherikchilikni rivojlantirish instrumenti hisoblanadi. SHHT faoliyati davrida, tashkilotni mustahkamlash borasida katta siyosiy va tashkiliy ishlar amalga oshirildi, uning asosiy maqsad va vazifalarini amalga oshirish borasidagi o'zaro hamkorlikni rivojlantirish bo'yicha ko'p qirrali amaliy qadamlar qo'yildi. SHHT Xartiyasiga muvofiq, a'zo davlatlar hamkorlik qilishda quyidagi prinsiplarga amal qilishadi:

– davlatlar suvereniteti, mustaqilligi, hududiy yaxlitligini va davlatlar chegaralarining daxlsizligini o'zaro hurmat qilish, bostirib kirmaslik, ichki ishlariga aralashmaslik, kuch ishlatmaslik yoki xalqaro munosabatlarda kuch bilan tahdid qilmaslik, chegaradosh hududlarda bir tomonlama harbiy ustunlik qilishdan voz kechish;

– a'zo davlatlar teng huquqliligi, o'zaro tushunishga asoslangan holda qarashlar kesishuvchi nuqtalarni izlash, har bir a'zo davlatning fikrlarini hurmat qilish;

– umumiy manfaatlar mavjud yo'nalishlarda birgalikdagi harakatni bosqichma-bosqich amalga oshirish;

– a'zo davlatlar o'rtasida mavjud bo'lgan qarama-qarshiliklarni tinchlik yo'li bilan bartaraf etish;

– SHHTni boshqa davlatlar va xalqaro tashkilotlarga qarshi qo'ymaslik;

– SHHTning maanfatlariga qarshi qaratilgan har qanday noqonuniy harakatlariga yo'l qo'ymaslik;

– SHHT Xartiyasidan, tashkilot doirasida qabul qilingan hujjatlardan kelib chiqadigan majburiyatlarni vijdonan bajarish.

SHHTda qarorlar qabul qiluvchi Oliy organ – a'zo davlatlar rahbarlarining Kengashi (DRK) bo'lib, tashkilotning strategiyasini, ko'p qirrali hamkorlik va tashkilot faoliyatining istiqbollari hamda ustuvor yo'nalishini ko'rib chiqadi va belgilaydi. DRK bir yilda bir marta yig'iladi, yig'ilishga tashkilotchi davlat rahbari raislik qiladi. Ahamiyati jihatidan ikkinchi organ – SHHTga a'zo davlatlar hukumat rahbarlari Kengashi (HRK) bo'lib, tashkilot doirasida ko'p tomonlama hamkorlik strategiyasini, uning ustuvor yo'nalishiga oid masalalarni muhokama qilish, iqtisodiy hamkorlikning o'ta muhim va dolzarb vazifalarini hal qilish uchun bir-yilda bir marotaba yig'iladi. Shuningdek Tashkilotning yillik budjetini tasdiqlaydi. DRK va HRK yig'ilishlaridan tashqari, xavfsizlik kengashi kotiblari, tashqi ishlar, mudofaa, favqulodda vaziyatlar, iqtisodiyot, transport, madaniyat, maorif, sog'liqni saqlash vazirlari, oliy sud, bosh prokurorlar, huquq-tartibot idoralari rahbarlari darajasida uchrashuvlar mexanizmi ham mavjud. DRK, HRK, tashqi ishlar vazirlari va boshqa organlarni yig'ilishlarini tayyorlash bo'yicha zaruriy ish olib boruvchi milliy koordinatorlar Kengashi SHHTning joriy faoliyatini muvofiqlashtiradi va unga rahbarlik qiladi. Iqtisodiy yo'nalishda Ishbilarmonlik Kengashi va SHHTning Banklararo uyushmasi mexanizmlari faoliyat yuritadi. O'zbekiston SHHTning ta'sischi davlatlaridan biri hisoblanadi va boshqa a'zo davlatlar qatorida tashkilot doirasida kelajakdagi hamkorlik strategiyasini belgilaydi. O'zbekiston Respublikasi tashkilot doirasida mintaqaviy barqarorlikni saqlash, iqtisodiy hamkorlik, a'zo mamlakatlar muqarrar iqtisodiy o'sishi va aholi yashash darajasini oshirish kabi yo'nalishlarga e'tibor kuchaytirilishini zarur deb hisoblaydi. O'zbekistonning tashkilotga raisligi doirasida 2004-yil Toshkentda bo'lib o'tgan sammitda «SHHTda kuzatuvchi maqomi to'g'risidagi Nizom» hamda «SHHTning kuzatuvchilar bilan o'zaro munosabatlari Tartibi to'g'risida» hujjatlar imzolandi. Kuzatuvchi davlat institutini joriy etilishi, SHHTning maqsad va vazifalarini amalga oshirishda katta ahamiyatga ega bo'ldi. Bu,

shuningdek, SHHTning kelajagini mustahkamlash, tashkilot salohiyatini kengaytirish hamda jahon hamjamiyatida uning roli va obro'sini sezilarli darajada oshishiga sabab bo'ldi. 2010-yil iyun oyida Toshkentda bo'lib o'tgan sammitda SHHTga yangi a'zolarni qabul qilish Nizomi hamda SHHTning prosteduralar Qoidasi tasdiqlandi. Shuningdek, SHHTga a'zo-davlatlar hukumatlari o'rtasida qishloq xo'jaligi va jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasida hamkorlik to'g'risidagi shartnomalar imzolandi. 2013-yil noyabr oyida Toshkentda SHHTga a'zo davlatlar hukumat rahbarlarining (bosh vazirlar) bo'lib o'tgan 12-yig'ilishida tomonlar jahon va mintaqaviy iqtisodiy rivojlanishga oid keng qamrovli masalalar bo'yicha fikr almashdilar hamda SHHT doirasida savdo-iqtisodiy va gumanitar hamkorlik masalalarini muhokama qildilar. SHHTga a'zo davlatlar hukumat rahbarlarining kelajakda transport sohasida hamkorlikni rivojlantirish to'g'risidagi Qo'shma Bayonoti imzolandi hamda SHHTning Taraqqiyot Banki va Taraqqiyot Fondini tashkil qilish bo'yicha kelgusida qilinadigan ishlar bo'yicha qaror qabul qilindi. 2015-yil 9-10-iyulda Ufa shahrida SHHTning navbatdagi sammiti bo'lib o'tdi, mazkur sammit davomida mintaqaviy muammolar va xalqaro xavfsizlikka doir dolzarb masalalar yuzasidan fikr almashilib, tashkilot faoliyatidagi ustuvor yo'nalishlar va SHHT doirasida ko'p tomonlama hamkorlik rivojining istiqbolari muhokama qilindi. SHHT sammiti yakunida davlat rahbarlari tomonidan Ufa deklaratsiyasi imzolandi, 2025-yilgacha SHHT rivojlanish strategiyasi, 2016-2018-yillarga mo'ljallangan SHHTga a'zo davlatlarining terrorizm, separatizm va ekstrimizmga qarshi kurashish uchun hamkorlik Dasturi tasdiqlandi, Hindiston va Pokistonning SHHT a'ziligiga qabul qilinishi jarayonining boshlanganligi haqida qaror qabul qilindi. Davlat rahbarlari tomonidan Ikkinchi jahon urushida fashizm ustidan qozonilgan g'alabaning 70 yilligi munosabati va narkotik tahdidlar muammosi yuzasidan bayonot qabul qilindi, shuningdek, SHHTga a'zo davlatlarning chegara masalalari bo'yicha hamkorligi haqida Bitimi imzolandi. SHHTning Ufa sammiti yakunlanishi bilan 2015-2016-yillarda Tashkilotga raislik O'zbekiston Respublikasiga o'tdi. O'zbekiston raislik qiluvchi davlat sifatida SHHTga a'zo davlatlarning manfaatlarini aks ettiruvchi o'zaro manfaatli rivojlanish, SHHTning xalqaro maydonda obro'yini ortib borishini ta'minlash kabi tamoyillarga rioya qilish niyatida. Xalqaro, mintaqaviy xavfsizlik, barqaror iqtisodiy rivojlanish, SHHT a'zolari bo'lgan barcha davlatlar gumanitar rivojlanishiga bo'lgan zamonaviy tahdidlarga munosib javob tayyorlash, terrorizm, ekstremizm, ayirmachilikka qarshi birgalikda kurashishni kuchaytirish borasida chora-tadbirlar ishlab chiqish dolzarb vazifa bo'lib qolmoqda. Mintaqada SHHTning taraqqiyot va barqarorlikning ishonchli kafolatchisi sifatidagi rolini mustahkamlash maqsadida a'zo davlatlar o'rtasidagi hamkorlikni yanada kengaytirish tadbirlariga, shuningdek BMT, boshqa xalqaro tashkilotlar va manfaatdor davlatlar bilan munosabatlarning keyingi rivojiga katta ahamiyat beriladi.

**Shovinizm** – (fr.) millatchilikning eng keskin, reaksiyon shakli. Mohiyatini boshqa xalqlarga nisbatan nafrat va dushmanlikni targ'ib qilish tashkil etadi. Napoleon Bonapartning bosqinchilik siyosatini ma'qullagan fransuz askari Shavin



ismidan olingan. Mafkura sifatida uchiga chiqqan millatchilik, ya'ni bir millatning boshqa millatlar ustidan ustunligini asoslashdan iborat; Siyosat sifatida boshqa millatlarni tahqirlash, ezish, bir millatni ikkinchisiga gij-gijlashni nazarda tutadi. Tashqi siyosatda Shovinizm boshqa davlatlar bilan munosabatlarni faqat agresiya shaklida quradi. AQSH va Angliyada jingoizm deb nomlanadi.

## CH

**Chakana baho** – davlat va kooperativ savdosi, dehqon bozorida iste'mol mollarini sotilish narxleri.

**Chakana savdo** – savdo-sotiq tarmoqlari orqali aholiga iste'mol mollarini sotish.

**Chek** – belgilangan ko'rinishdagi pul hujjati. 1) bankdagi o'z hisobidan muayyan pul miqdorini Ch.da ko'rsatilgan shaxsga berish yoki uning hisobiga pul o'tkazish bo'yicha yozma topshiriq. Chek ikki ko'rinishda bo'ladi: a) oluvchining nomi yozilgan chek; b) ko'rsatuvchiga berilgan chek.

**Cheklangan mas'uliyat** – ma'lum chegara doirasida cheklangan mas'uliyat. Qarz majburiyati yoki o'ziga biror bir hujjatga imzo chekilayotganda mas'uliyatni muayyan doiralarda cheklovchi shartni, punktini kiritish.

**Chet el investitsiyalari** – chet ellik investorlar asosan daromad (foйда) olish maqsadida tadbirkorlik faoliyati va qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa turdagi faoliyat obyektlariga qo'shadigan barcha turdagi moddiy va nomoddiy boyliklar va ularga doir huquqlar, shu jumladan, intellektual mulkka doir huquqlar, shuningdek O'zbekiston Respublikasi hududida chet el investitsiyalaridan olingan har qanday daromadga aytiladi.

**Chikago maktabi** – jahon urushlari oralig'ida Amerika siyosatshunosligi rivojiga ulkan hissa qo'shgan olimlar jamoasi. Chikago maktabi vakillari o'z tadqiqotlarini fanlar aro bog'liqlikda o'tkazganlar va sotsiologiya, falsafa, antropologiya, iqtisod singari fanlar chegarasida olamshumul kashfiyotlar qilganlar. Eng ko'zga ko'ringan vakillari: Ch.Merriam, X.Gossnel, G.Lassuell, L.Uayt, E. Froynd. Charlz Merriam tatbiqiy siyosatning ahamiyatini ta'kidlagan, biologiya va fizikadagi kashfiyotlar insonning siyosiy xulq-atvorini ham to'liqroq tushunish uchun imkon yaratishini ko'rsatgan. Siyosiy hodisalar tahlilida bu maktab vakillari tabiiy fanlarning usullarini ham qo'llaganlar. Ch.Merriam shogirdi Garold Lassuell o'z tadqiqotlarida siyosatni tahlil qilishning metodologik masalalariga alohida e'tibor beradi. U siyosiy-ruhiy tahlilga ko'p e'tibor bergan va har bir shaxsning psixologiyasi uning siyosatga munosabatini belgilovchi muhim omil ekanligini asoslagan. Chikago maktabi vakillarining ilmiy merosi jahon siyosiy fanining "oltin jamg'armasini" tashkil etadi.

## MUNDARIJA

SO'ZBOSHI .....	3
A .....	7
B .....	17
D .....	27
E .....	43
F .....	49
G .....	62
H .....	66
I .....	74
J .....	95
K .....	100
L .....	116
M .....	119
N .....	158
O .....	164
P .....	174
Q .....	190
R .....	194
S .....	199
T .....	237
U .....	247
V .....	250
X .....	256
Y .....	264
Z .....	274
O' .....	275
G' .....	294
SH .....	295
CH .....	298

*Ilmiy nashr*

**FUQAROLIK JAMIYATI FANIDAN  
TUSHUNCHA VA ATAMALAR LUG'ATI**

Muharrir:  
**Iroda Muhiddinova**

Texnik muharrir:  
**Fayzullo Azizov**

Musahhih:  
**Gavhar Zayniddinova**

Dizayner:  
**Vasiliy Bursev**

«Turon zamin ziyo» nashriyoti  
Litsenziya: AI № 278. 2016-yil 11-yanvar

Terishga 2017-yil 07-yanvarda berildi.  
Bosishga 2017-yil 04-martda ruxsat etildi.  
Bichimi: 60x84 1/16. «Arial» garniturasida  
ofset bosma usulida ofset qog'ozida bosildi.  
18,75 shart. b.t. 17,44 hisob nashr. tab.  
Adadi 500 nusxa. 37-son buyurtma.

“Muharrir nashriyoti” matbaa bo'limida chop etildi.  
100011, Toshkent shahri, Chilonzor tumani, 20<sup>A</sup>-mavzei.  
So'galli ota ko'chasi, 5-uy. E-mail: muharrir@list.ru